BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

95 yil

“SIYOSIY FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY

KONFERENSIYASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA YURIDIK FAKULTETI

IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR KAFEDRASI

SIYOSIY FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 4-5-aprel

Buxoro – 2025

Siyosiy fanlarning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Buxoro: «Durdona», 2025. – 438 b.

Mas’ul muharrir:
R.Jumayev – Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, professor

Tahrir hay’ati:
N.Jo‘rayev – siyosiy fanlar doktori, professor,
I.Ergashov – siyosiy fanlar doktori, professor,
F.Muzaffarov – falsafa fanlari doktori, professor

Ushbu to‘plamda siyosiy fanlarni dolzarb muammolari va jahon siyosati arxitekturasida kechayotgan o‘zgarishlar, siyosat nazariyasi,siyosiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy tadqiqotlar, siyosiy madaniyat va mafkura, raqamli asrda axborot siyosati, xalqaro siyosiy tizimlar va munosabatlar, milliy xavfsizlik muammolari, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayoni hamda sifatli ta’limni tashkil etishda zamonaviy innovasion texnologiyalardan foydalanishning siyosiy mohiyatiga bag‘ishlangan ilmiy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Konferensiya materiallaridan siyosatshunoslar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor-o‘qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

© Buxoro davlat universiteti, 2025.
© O‘zbekiston Milliy universiteti, 2025.
© «Durdona» nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Globallashuv sharoitida jahon siyosiy sahnasida turli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. esa o‘z navbatida jahon siyosatining arxitekturasiga, ya’ni yaxlit tizimga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro munosabatlar tizimiga ta’sir doirasi saqlanib qolayotgan va ayni vaqtda shakllanib kelayotgan tahdid, xavf va omillar sirasi kundan kunga kengayib va chuqurlashib bormoqda. Ana’anaviy xavf va tahdidlar sirasiga noan’anaviy tahdidlar qo‘shilib bormoqda.

Ana shunday sharoitida siyosiy fanlarni tadqiq qilish va bu boradagi muammolarni o‘rganish muhim hisoblanadi. Jumladan: Siyosat nazariyasi va falsafasi, siyosatshunoslik tarixi va metodologiyasi; davlat boshqaruvi va siyosiy institutlar, global jarayonlar va texnologiyalar; siyosiy madaniyat va mafkura, raqamli asrda axborot va media siyosati; xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari, yetnosiyosat va konfliktologiya; milliy xavfsizlik muammolarining tizimli tahlili va prognozlashtirish; yangi geosiyosiy muammolar kontekstida Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari; sifatli ta’limni tashkil etishda zamonaviy innovasion texnologiyalardan samarali foydalanishning siyosiy mohiyati kabi yo‘nalishlarda izlanishlarni muvoffiqlashtirish hamda siyosiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifa bo‘lmog‘i lozim.

G‘arb siyosiy fanlar tadqiqotlaridan farqli ravishda mamlakatimizda bu fanni o‘rganish mustaqillikdan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birgalikda nisbatan siyosatshunoslik fanlarini tadqiq qilishda qaysidir ma’noda to‘siqlar bor yedi. Lekin O‘zbekiston Respulikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan siyosiy fanlarni o‘rganish va tadqiq qilish borasidagi e’tiborini alohida qayd etish zarur.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori (2019 yil 29 yanvar PQ-4139-son) ayni muddao bo‘ldi. Qarorda Siyosatshunoslik sohasida 2019-2020 o‘quv yilidan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklariga qabul kvotalarini shakllantirish belgilangandi. Shuningdek, Buxoro davlat universitetida ham “Siyosatshunoslik” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishi tashkil etildi va 100 nafarga yaqin yoshlar tahsil olmoqda.

Qarorda ko‘rsatilganidek, galdagi asosiy masala siyosatshunos mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlardagi institusional o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar asosida Davlat ta’lim standartlarini mamlakatimizdagi yetakchi siyosatshunos olimlarni jalb etgan holda ishlab chiqish, yangi o‘quv rejalarda belgilangan fanlar bo‘yicha o‘quv uslubiy adabiyotlarni yaratish hozirgi kundagi eng asosiy vazifadir.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida PF-4947-sonli Farmonida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning alohida tamoyil sifatida belgilanishi, sohaning asosiy vakillari sifatida siyosatshunoslarning zimmasiga ulkan ma’suliyat yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-sonli, 2019-yil 29-yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4139-sonli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida xalqaro ekspertlar, respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va amaliyotchi mutaxassislar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda iqtidorli talaba-yoshlar ishtirokida Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi tashabbusi bilan Buxoro davlat universitetida “Siyosiy fanlarning dolzarb muammolari” rukni ostidagi bugungi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya yuqorida ta’kidlangan masalalarni atroflicha tahlil etish va muhokama qilish, xalqaro maydondagi holat va siyosatshunoslik fanlarini tadqiq qilishdagi asosiy ustuvor vazifalarni belgilash, jahon siyosatining dolzarb muammolarini hal etishda O‘zbekiston Respublikasining ishtiroki va sa’y harakatlarining nechog‘li ahamiyatli ekanligini o‘rganish va shu asosda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangandir.

Buxoro davlat universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor O.X. Xamidov

1-SHO‘BA: SIYOSAT NAZARIYASI VA FALSAFASI, SIYOSATSHUNOSLIK TARIXI VA METODOLOGIYASI

I.N. Islamov *– O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi kafedra mudiri, professor, t.f.d.*

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALAR

Mamlakatimizda siyosiy fikrning rivojlanishi boshqa falsafa, huquqshunoslik, sotsiologiya va tarix kabi turdosh fanlar doirasida o‘rganilib kelingan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda siyosiy fanlar yangi davrning ramzi sifatida o‘rganila boshlandi va ta’lim sohasida siyosatshunos mutaxassislarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida siyosiy fanlarning o‘quv dasturlariga mos ravishda darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlandi.

Biroq, keyinchalik siyosatshunoslik fani o‘quv dasturlaridan olib tashlanib, OTMlarda siyosatshunos mutaxassislar tayyorlash to‘xtatilgan. Bu ishlarga izoh sifatida siyosatshunoslik fanining predmeti boshqa fanlarda ham takrorlanayotganligi, siyosatshunoslikda ilmiy metodologiya yo‘qligi va nihoyat, o‘quv adabiyotlari G‘arbda keng tarqalgan nazariyalar to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot berib, o‘zimizga xos taraqqiyot yo‘limiz, «O‘zbek modeli»ning atroflicha tushuntirilmayotganligi, fanning mazmuni va tarkibi zamonaviy talabga javob bermayotganligi haqida biryoqlamalilik bilan xulosaga kelingan[1].

Shunday bo‘lsa-da, Respublikamizning ayrim ta’lim muassasalarida, «Jahon siyosati», «Xalqaro munosabatlar» kabi yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlanib kelingan. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga kadrlar tayyorlovchi OTMlarda ham siyosatshunoslik fani o‘qitilib kelindi[2].

O‘zbekistonda siyosatshunos kadrlarni tayyorlash masalalari ma’lum bir vaqt to‘xtatib qo‘yilgan bo‘lsa-da, 2019-yilga kelib o‘zining yangi bosqichiga chiqdi hamda siyosatshunoslik bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash qayta tiklandi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilikning siyosiy asoslarini shakllantirish bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borish, globallashuv sharoitida davlatning ichki va tashqi siyosatini rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berildi[3].

Hozirgi vaqtda bir qancha oliy o‘quv yurtlarida siyosatshunoslik yo‘nalishida kadrlar tayyorlanmoqda. Jumladan, 2024-2025 o‘quv yilida O‘zbekiston Milliy universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, (TDSHU), Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston

[1] Berdiyev B. Professional siyosatshunoslarni tayyorlash va siyosiy fanlarning imijini yuksaltirish masalalari / O‘zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – B. 27-30.; Qalandarov X. Siyosiy fanlarning o‘qitilishi va siyosatshunos kadrlar tayyorlash masalasi / O‘zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – B. 39-42.

[2]. Djumayev R. Siyosiy fanlar tizimida konfliktologiyani rivojlantirish masalasiga oid / O‘zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – B. 51-55.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4139-sonli Qarori. 2019-yil 29-yanvar. [Elektron resurs]. https://lex.uz/docs/4182353 (murojaat qilingan sana 2024-yil 15-dekabr).

jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti (O‘zJOKU), Buxoro davlat universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Toshkent davlat transport universitetlarida siyosatshunoslik (60310700[4]) bakalavriat yo‘nalishida talabalar o‘qishga qabul qilindi.

2023-2024 o‘quv yilida mazkur oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatida «Siyosatshunoslik» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha jami 1644 nafar talabalar tahsil olgan. Bu ko‘rsatkich yil sayin ortib bormoqda.

Bundan tashqari, JIDU, TDSHU, O‘zJOKU va Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabida siyosatshunoslik yo‘nalishida magistrlar tayyorlab kelinmoqda.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyatini fuqarolarimizga yetkazish, jahon siyosiy maydonida ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarni milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baholash, ularni ilmiy-metodologik jihatdan o‘rganish va tizimli tahlil etish siyosiy fanlar oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Siyosiy fanlarning rivojlanishi oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar bilan bevosita bog‘liq jarayon hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi muammolarni o‘rgangan holda o‘quv-metodik va ilmiy yo‘nalish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz:

1. O‘quv-metodik yo‘nalish bo‘yicha:

- o‘quv dasturlarini muntazam yangilab borish (mutaxassisliklarga mos zamonaviy fanlarni o‘qitish [5]), amaliy mashg‘ulot dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirish, o‘quv adabiyotlarni yangilash va ta’lim jarayonida eng so‘nggi ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, vazirlik va idoralar, siyosiy partiyalar va turli nodavlat notijorat tashkilotlari hamda siyosatshunoslar tayyorlovchi o‘quv muassasalari o‘rtasida hamkorlik memorandumlarini tuzish va talabalarning diplom oldi amaliyotlarini o‘tkazishlariga tegishli shart-sharoitlarni yaratish. Bu orqali, siyosatshunoslik bo‘yicha ta’lim olayotgan kadrlar faoliyatini davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy tadqiqot institutlari faoliyati bilan bog‘lash hamda kasbiy amaliyot mexanizmini yo‘lga qo‘yiladi;
- siyosiy kasblar bozorining talablarini hisobga olgan holda siyosatshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha yangi bo‘limlar ochish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish;
- har bir ta’lim muassasasida eng yaxshi ta’lim an’analarini davom ettirish bilan bir vaqtda, talabalarning bakalavriat va magistratura bosqichlarida amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar hajmini ko‘paytirish;
- mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarida xorijiy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda siyosiy fanlar bo‘yicha kadrlar tayyorlash ishlarini yo‘lga qo‘yish, hamkorlikda ta’lim metodikalarini ishlab chiqish, magistratura dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ya’ni kelajakda ikkita ta’lim muassasasining diplomini olishni tashkil etish;
- aniq yutuqlar va kasbiy rivojlanishga asoslangan, siyosiy ta’lim

[4] Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan).

[5] Islomov I.N., Xamdamov A.Q., Yalgashev B.A., Siyosiy fanlar va kasblar katalogi – T.: «Complex Print», 2025. – 192 b.

yo‘nalishidagi talabalar va o‘qituvchilarni rag‘batlantirishning aniq hamda shaffof tizimini yaratish;

- kasbga yo‘naltirish masalalariga bag‘ishlangan tadbirlarini tashkil etish, jumladan, o‘z kasbiy sohasida yuqori martabaga va yutuqlariga erishgan siyosatchilar hamda olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish. Shuningdek, amaliyotda yuqori natijalarga erishgan siyosatchilar, ekspertlarni ma’ruzalar o‘qishga va mahorat darslariga jalb qilish;
- siyosatshunos kadrlar mehnat faoliyatini rivojlantirish uchun «Siyosiy kasblar reyestri»ni tuzish va uni davlat organlariga tasdiqlash uchun kiritish;
- siyosatshunoslik yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlovchi nodavlat ta’lim muassasalari va nodavlat siyosiy tahlil markazlarini ochish uchun imtiyozlar berish. Bu orqali siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha raqobat muhiti yaratiladi;
- siyosiy fanlar sohasida milliy va xorijiy pedagogika maktablarining eng ilg‘or yutuqlariga asoslangan yangi ta’lim metodikalarini joriy etish;
- siyosiy fanlardan mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha Yevropa davlatlari tajribalari shuni ko‘rsatadiki, OTMlar siyosiy fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari bir-biridan farq qiladi va bu o‘z samarasini berib kelmoqda. Shu sababli O‘zbekistonda siyosatshunos kadrlar tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini buyurtmalardan kelib chiqqan holda xilma-xilligini ta’minlash. Bunda har bir ta’lim muassasasi siyosatshunoslikni jamiyatning turli fan tarmog‘i bilan integratsiyalashtirgan holda o‘qitishi zarur. Bu esa, tayyorlanayotgan siyosatshunos kadrlar o‘rtasidagi erkin raqobat muhitini yaratishga yordam beradi;
- siyosiy fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni tayyorlashda plagiatga qarshi kurash olib borish mexanizmini takomillashtirish;
- dunyoda va O‘zbekistonda tezlik bilan o‘zgarayotgan siyosiy jarayonlarni hisobga olgan holda, OTMlarga siyosatshunoslik fanining o‘quv dasturi mavzulari qamrovini mustaqil o‘zgartirish va yangilab borish, ya’ni akademik erkinlik berish.

2. Ilmiy yo‘nalish bo‘yicha:

- siyosiy fanlar bo‘yicha respublika “Muvofiqlashtirish kengashi”ni tuzish lozim. Bu kengash tavsiyasiga ko‘ra, o‘quv ishlari *(siyosiy fanlar bo‘yicha monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklarni o‘rganish, tahlil etish, baholash va nashrga tavsiya etish)* hamda ilmiy *(siyosiy fanlar bo‘yicha dissertatsiya mavzularini ko‘rib chiqish, baholash va tasdiqlash)* ishlari sohaning yetakchi olimlari va mutaxassislari tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.
- siyosiy fanlar yo‘nalishida, mavjud har bir ixtisoslik shifrlariga mos keladigan va tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan dolzarb mavzular ro‘yxatini yetakchi siyosatshunos olimlar ishtirokida ishlab chiqish;
- O‘zbekiston siyosatshunoslar assotsiatsiyasini tashkil etish. Internetda uning sayti va Telegram kanalini tashkil etish orqali uning doimiy muloqotlarini, bahs-munozaralarini yo‘lga qo‘yish. Shuningdek, xalqaro siyosiy fanlar assotsiatsiyasi, Rossiya va boshqa davlatlarning siyosatshunoslik assotsiatsiyalari bilan hamkorlik aloqani o‘rnatish[6];
- siyosiy fanlarni rivojlantirishning turli muammolariga bag‘ishlangan

[6] Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik fanining ta’lim va amaliyot uyg‘unligi asosida rivojlanish masalalari // O‘zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: «Complex Print», 2022. – B. 66-75.

an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarini har yili o'tkazishni yo'lga qo'yish;

- xorij tajribalarini o'rgangan holda mamlakatimizda siyosatshunoslik yo'nalishidagi elektron jurnallar yaratish va ularning sonini ko'paytirish lozim. Bu kabi o'ziga xos «platforma» ushbu sohadagi mutaxassislar ilmiy maqolalar bilan doimiy tanishib borish, tarmoqda o'zaro fikr almashish hamda tadqiqotchilarning xulosa va takliflarini muhokama qilish imkonini beradi[7].
- aynan siyosiy yo'nalish yoki uning alohida sohalariga oid jurnallar chop etishni yo'lga qo'yish. Bu o'quvchilarga ma'lum yo'nalish bo'yicha keng va turli xil ma'lumotlar olish imkonini bersa, ikkinchi tarafdan tadqiqotchilarga yo'nalishidan kelib chiqib, ma'lum jurnalni doimiy kuzatib borish lozimligini ko'rsatadi.
- siyosiy fanlar yo'nalishidagi ilmiy maqolalar chop etish uchun bevosita amaliy siyosat bilan shug'ullanadigan Tashqi ishlar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi kabi muassasalar qoshida jurnallar tashkil qilish va ularni OAK tomonidan siyosiy sohaga oid tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritish.
- mavjud jurnallar ko'p hollarda mamlakatimiz tadqiqotchilarining maqolalarini chop etish bilan cheklanib qolmoqda. Shu jihatdan, mavjud jurnallarning xalqaro reytingini oshirish hamda xorijiy davlatlar tadqiqotchilarining ham maqolalarini chop etish yurtimizda siyosatshunoslik sohasini yanada rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, mamlakatimizda siyosatshunoslik yo'nalishidagi jurnallar reytingini e'lon qilib borish, ular o'rtasida raqobat muhitini shakllantirish, ularni tashkil etishda xususiy sektorni ham jalb etish soha rivoji uchun tashlangan katta qadamlardan bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash o'rinliki, siyosiy fanlar mamlakatimizda o'zining rivojlanish bosqichida turibdi va bu yo'nalishda yangicha yondashuvlar, ilg'or tajribalar asosida ko'plab ishlarni amalga oshirish lozim. Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar soha rivojlanishiga ma'lum bir darajada xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyev B. Professional siyosatshunoslarni tayyorlash va siyosiy fanlarning imijini yuksaltirish masalalari / O'zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – B. 27-30.
2. Qalandarov X. Siyosiy fanlarning o'qitilishi va siyosatshunos kadrlar tayyorlash masalasi / O'zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – B. 39-42.
3. Djumayev R. Siyosiy fanlar tizimida konfliktologiyani rivojlantirish masalasiga oid / O'zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – B. 51-55.

[7]Yo'lbarsxo'jayev U. Siyosiy yo'nalishdagi ilmiy jurnallarning tahlili // O'zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: «Complex Print», 2022. – B. 145-146.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4139-sonli Qarori. 2019-yil 29-yanvar. [Elektron resurs]. https://lex.uz/docs/4182353 (murojaat qilingan sana 2024-yil 15-dekabr).

5. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan).

6. Islomov I.N., Xamdamov A.Q., Yalgashev B.A., Siyosiy fanlar va kasblar katalogi – T.: «Complex Print», 2025. – 192 b.

7. Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik fanining ta’lim va amaliyot uyg‘unligi asosida rivojlanish masalalari // O‘zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: «Complex Print», 2022. – B. 66-75.

8. Yo‘lbarsxo‘jayev U. Siyosiy yo‘nalishdagi ilmiy jurnallarning tahlili // O‘zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: «Complex Print», 2022. – B. 145-146.

Ф.Д. Музаффаров *– Бухоро давлат университети профессори, ф.ф.д (DSc).*

ИМОМ ҒАЗЗОЛИЙНИНГ СИЁСАТ ФАЛСАФАСИ

Имом Ғаззолий (1058-1111) сиёсий қарашларининг асосини у яшаган даврдаги диний-сиёсий воқеалар ташкил этади. Бир томондан салжуқийлар империясида содир бўлган жараёнлар, иккинчи томондан ботинийларнинг диний тарғиботи, учинчи томондан салибчилар қўшинларининг исломий географиядаги босқинчилик ҳаракатлари даврнинг энг муҳим ижтимоийф-сиёсий воқеаларини ташкил этади.

Сиёсат, шаҳар, жамоа бошқаруви, юнонча “полис” сўзидан олинган бўлиб, у давлат ишларига тенгдош сифатида ишлатилган. Умуман сиёсат тушунчаси сиёсий ҳокимиятни эгаллашга қаратилган барча ҳаракатларни англатади. Бу маънода сиёсатнинг асосий мақсади сиёсий ҳокимиятни алоҳида шахслар ёки гуруҳлар томонидан қўлга киритишдир ёки ҳеч бўлмаганда унга шерик бўлишдир.

Сиёсатнинг таърифида турлича қарашлар мавжуд. У кишилар табиати ва ижтимоий-иқтисодий шароитига кўра ҳар хил бўлади. Чунки, кишилар ҳар хил фикр қарашга ва қизиқишларга эга. Одамлар томонидан тузилган ташкилотлар ва жамиятларнинг мақсади - моддий ва маънавий қадриятларни баҳам кўриш орқали сиёсий ҳокимиятни қўлга олишдир. Бошқа бир қарашга кўра, сиёсат ижтимоий бирликни таъминлаш орқали, шахсий манфаатлардан аксинча, бу бутун жамиятнинг умумий манфаатларини ва фаровонлигини амалга оширишга интилишдир. Бошқа бир қарашга кўра, сиёсат жамиятдаги манфаатлар гуруҳлари ўртасида ҳуқуқларни баҳам кўриш, излаш ва ҳуқуқларни ҳимоя қилишга интилишдир. Девид Истоннинг фикрича, сиёсат жамият томонидан яратилган моддий ва маънавий қадриятларни ҳокимиятга асосланган ҳолда тақсимлаш жараёнидир.

Аристотельнинг фикрича, сиёсат одамларни бошқариш санъати, Платоннинг фикрича, давлатдир ва адолатни устун қилиш санъати сифатида ифодаланади. Бу таърифлар бизга сиёсатнинг маъноси ва табиати ҳақида озгина тушунча беради. Имом Ғаззолий ўзининг кўпгина асарларида сиёсат масаласига махсус тўхталади. У сиёсатни инсон ҳаётининг бир қисми эканлигини тушунтирди. Ғаззолийнинг фикрича, сиёсат тушунчаси тартибни бузганларга қарши куч ишлатиш, давлат ишларини юритишда куч ишлатиш йўли билан ҳокимият ваколатини аниқлаш, тартиб сақланишини ва ишончнинг тарқалишини таъминлашдир. Унингча, сиёсат давлат ишларини бошқариш, мамлакатда тинчликни таъминлашдан иборат ва хавфсизликни ёйиш учун куч ишлатиш эканлигини ҳам айтади. Умуман мутафаккир ўз қарашларида сиёсатни фиқҳ билан аралаштирмай, ахлоқ билан боғлайди. Шунингдек, у ўз қарашларида давлатнинг асосий вазифалари, сиёсатнинг ўрни ва унинг давлат ва дин билан муносабатини тушунтириб берди.

Сиёсатни бошқарув санъати, деб билган Ғаззолий уни энг олийжаноб ва энг шарафли, деб таърифлайди. Ғаззолий фан ва санъат сифатида сиёсатга катта аҳамият берган. Сиёсат агар у маълум бўлмаса ва амалга оширилмаса, бутун жамият катта зарар кўриши мумкин, фалокатларга дуч келиши ва йўқ бўлиб кетиш хавфи остида бўлиши мумкин. Аммо унинг фикрича, дин қонун-қоидалари бўлмаган жамиятда сиёсат юритиб бўлмайди. Чунки, дин бирлаштирувчи рол ўйнаб, келиб чиқиши турли хил бўлган одамлар давлатга бўйсунадилар ва уларнинг ҳамжиҳатлигини таъминлайдиган жуда самарали тузилишга эга. Шунинг учун сиёсат биринчи навбатда диний илмларга асосланиши керак. Бу фанлар ижтимоий ҳаётни тартибга солувчи ҳуқуқ фани, Пайғамбарлар, саҳобалар ва бошқа улуғ зотларнинг ҳаётидан ҳикоя қилиш ва тажрибалар бериш, уларнинг кечинмаларидан келиб чиқадиган ахлоқ қоидаларини ўргатувчи тарих фани ва ҳоказо фанлардир.

Сиёсат бу одамлар ўртасида бирдамликни таъминлайди, шунингдек, норозилик ва фарқларни бартараф этиш, тирикчиликни таъминлаш ва уни назорат остида ушлаб туришдир. Бу одамларнинг доимий ҳамжиҳатлиги ва ҳамкорлигини ўрнатади. Сиёсат одамларга осойишталик ва хавфсизликда ҳаётларини давом эттириш имконини беради. Ғаззолий дунё ҳаётини охират майдони ва Аллоҳга йўл деб билади. Бу дунё ҳаёти маълум бир тартиб-интизомга асосланишини таъкидлайди. Унинг давом этиши одамларнинг нияти ва ҳаётига боғлиқ. Шунинг учун сиёсат кишиларнинг ишлари ва санъатида энг муҳим ўринни эгаллади. Сиёсат туфайли одамлар ўртасидаги муносабатлар маълум бир тартибда амалга оширилади ва одамларнинг келажакда яшаши кутилади.

Ғаззолий мулоҳазаларига кўра, санъатнинг энг шарафлиси, энг муҳими бу - одамларни бирлаштирувчи, барча иқтисодий, ижтимоий, диний ва дунёвий масалаларни тартибга солувчи сиёсатдир. Сиёсат ва уни қўллаш билан кўплаб сиёсатчиларлар шуғулланади деган қараш тарафдори бўлган Ғаззолий сиёсатни одамлар учун фойдали нарсаларни ўрнатиш ва қўллаб-қувватлаш учун зарур воситалардан биридир, деб ҳисоблайди. Агар инсон учун зарур бўлган сиёсат номаълум ва амалга оширилмаса, инсоният ўз олдига қўйган мақсадларига эриша олмайди, тинч-тотув, ҳамжиҳатликда яшай олмайди. Бирлик тамойилини ўрнатиш ҳам мумкин бўлмай қолади.

Ғаззолий ўзининг шахсияти ва қолдирган илмий асарлари билан кўпроқ машҳур. У кўплаб илмий тадқиқотлар олиб боришга тайёр бўлган олимдир. Даврнинг энг илғор илмий муассасасидан бири бўлган Низомия мадрасасидан олган билимлари билан ҳар хил сиёсий ва диний таълимни бера олди ва ижтимоий ҳаракатлар билан курашди. Шу тариқа у зукко ва зиёли шахс бўлиб етишган. У ўз асарларида илгари сурган ғоялари билан кўплаб олимларга таъсир ўтказган. Ғаззолий, фиқҳ, илоҳиёт, фалсафа, тасаввуф, ахлоқ, мантиқ ва сиёсат соҳаларида кўплаб асарлар ёзган. Ғаззолийнинг серқирра шахсияти ва ижодига ҳам турлича баҳо берилган. Баъзилар уни позитив илм-фан ва фалсафага энг катта зарба берган деб ҳисоблашади ва шу тариқа биз уни ислом оламининг таназзулига сабабчи бўлган шахс сифатида кўрсак-да, уни ўзига хослигини қарашларидан ҳам кўриш мумкин. Бизнингча, Ғаззолийга нисбатан ана шундай турлича қарашларга сабаб, Ғаззолийнинг ўзи яшаган сиёсий даврда қабул қилган муносабатидир. Чунки у, конъюнктурага мувофиқ ҳаракат қилган.

Ғаззолий сиёсий тафаккури контекстида имомат ва дин-давлат муносабатлари унинг бу борадаги қарашлари ўзи яшаган маданият ва ўзидан олдинги олимлар билан параллел. Ғаззолийнинг сиёсий фикрларига ўз даврининг ички нотинчликлари таъсир кўрсатган. Вақти-вақти билан муросасиз амал қилган Ислом дини унинг қоидаларини аниқ белгилаб берган. Ғаззолий ўз даври муаммоларига бефарқ қола олмади. У, ўзи яшаган давр муаммоларини ҳал қилиш учун ақл ва ҳикояга асосланган талқинлар қилиш орқали у ўзидан кейин келган олимларга ёрдам бериб, муайян ечим таклифларини бера олди ва раҳбарлик қилди.

Ғаззолий тафаккурида дин ва сиёсат эгизак ака-ука эканлигини, шу билан бирга, сиёсат ва дин иккита ажралмас элемент эди, шунинг учун бирисиз иккинчисини тўлиқ англаб бўлмайди. Яна Ғаззолий фикрича, диний қоидалар сиёсий амалиётга киритилиши керак. Чунки дин турли тузилмалар ва насл-насабли кишиларнинг бирлиги ва ҳамжиҳатлигидир. У ичкарида ҳаракат қилиш учун муҳим кучга эга давлат бошқарувида амалга оширилади. Унингча, сиёсий қоидалар диний қоидаларга параллел бўлиши керак.

Ғаззолий сиёсий тафаккурининг мазмун-моҳиятини дин ташкил этади. Чунки, сиёсий тартибнинг давоми фақат диний илмларга асосланади. Давлатнинг омон қолиши халқнинг ахлоқи ва яхши хулқ-атворига боғлиқ. Бундай давомийликка фақат дин орқали эришиш мумкин. Ғаззолий илм ва фанлар сиёсат ва жамиятда бирлаштирувчи ва йўналтирувчи таъсири туфайли муҳим аҳамиятга эга, деб ҳисоблайди.

Ғаззолий тафаккурида давлатнинг вазифаси одамларнинг дунё ва охират саодатини таъминлашдан иборат. Нафақат диний қоидаларни амалга ошириш, балки жамиятда диний билим даражасини оширишга ҳаракат қилиш керак.

Ғаззолий сиёсий тафаккурининг асосий мақсади шахс-жамият муносабатларини таъминлашдан иборат. Бундан ташқари, у охират бахтини ҳам таъминлайди. Бошқача қилиб айтганда, давлатнинг мақсади Аллоҳнинг амрларига амал қилишдир. Одамларни тирик қолдириш орқали уларнинг бахтини таъминлаш. Шунга кўра, сиёсат диндир. Қоидаларни билиш ва бу қоидаларни тез-тез ўзгариб турадиган ҳаёт шароитларига мослаштири унинг

амалга оширилиши ҳисобланади. Дин ижтимоий тузумнинг давом этиши учун ажралмас элементдир. Ғаззолий сиёсий тафаккурида жамият бошида давлат бўлиши керак.

Хулоса қилиб айтганда, Ғаззолий фикрича, раҳбар бўлиши керак. Чунки дин ва дунё ишларининг тартибини фақат давлат ўрнатиши мумкин. Бу раҳбарнинг иштироки билан амалга ошиши мумкин. Унингча, давлат раҳбари ҳар қандай қонуниятнинг манбаидир. Шунингдек, аллома давлат бошлиқларига ёзга маслаҳатлари билан раҳбар бўладиган инсонларга қандай шарт-шароитлар, давлат раҳбарининг маънавий қадриятлари, давлат раҳбари ва жамоатчилик ҳамда олимлар ўртасидаги муносабатлар масалаларига ҳам алоҳида тўталади. У муносабатлар қандай бўлиши кераклиги ҳақида насиҳатлар беради.

R.U. Ernazarov *– Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, "Tabiiy-ilmiy, gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasi mudiri, f.f.f.d (PhD), dotsent*

TEMUR TUZUKLARIDA ADOLAT VA SADOQAT SIYOSATINING USTUVORLIGI

Ulug‘ ajdodimiz Amir Temur, garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo’lsa-da, kuch-qudrat zo’rlik va zo’ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjixatlikda va hamkorlikda ekanini nihoyatda chuqur anglagan. Uning davlat, havfsizlik va jang boshqarish mahorati, o’ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to’g’ri yo’l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni xayratga soladi. Tarixni xayrtga solgan, buyuk saltanatni o’zida mujassam etgan, milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi bo’lgan shunday asarlardan biri «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomlari bilan atalmish tarixiy manbalar jumlasidadirn.

Muhammad Tarag’ay Bahodur o’g’li Amir Temur yoshlik chog’idan mard, dovyurak, g’ururli, o’tkir zehn va aqlu idrok egasi bo’lib o’sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san’atni egalladi. Qur’oni karimni yod oldi, hadis ilmini o’rgandi. Iymon-e’tiqodli, halol-pok inson bo’lib yetishdi.

U yoshligidan boshlab o’z oldiga ona yurtini mo’g’ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo’ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko’tarib, dunyoga mashhur qildi.

Bu siymo mard, tanti, halol va g’ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo’lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag’ishlaydi.

Bobomiz Amir Temur: «Millatning ulug’ martabasini, saodatini saqlamoq, uning dardlariga darmon bo’lmoq vazifangizdir», – deb avlod-ajdodlarimizga vasiyat qilgan ekanlar, bugun yurt dardi bilan yashash, elga halol mehnat qilish – ulug’ bobomizning nasihatlarini bajarishdir.

Buyuk jahongir Amir Temur sohibqiron o'limi oldidan avlodlariga shunday vasiyat qilgan: «...Men shundan taskin topamankim, podshohlik davrimda kuchlilarning ojizlarga ozor berishlariga yo'l qo'ymadim. Xalqlar osoyishtaligi borasida qaram fuqarolardan xabardor bo'lib turinglar, qat'iyatli va mardonavor bo'linglar. Ulkan davlatni menday uzoq yillar davomida boshqarish uchun qo'llaringdagi shamshirni sharaf va nomus bilan mahkam tutinglar»...

Agar, sizlar mening vasiyatlarimga amal qilsalaringiz va boshqa ishlaringizda adolatga, shafqatga ko'ra ish tutsalaringiz, tinchlik-osudalik Turon zaminida uzoq vaqt saqlanadi.

Agarda o'zaro nizolarga yo'l qo'ysalaringiz, dushmanlar to'polon va tartibsizliklarni boshlaydilarki, ularni jilovlashning iloji qolmaydi. Sizlar bir jon, bir tan bo'lsalaringiz, hech kim mening so'nggi vasiyatlarimni bajarishlaringizga monelik qila olmaydi.

Bu dono vasiyatlar asrlar osha bizning davrimizga qadar yetib keldi. Undan xuddi hozirgi davrning nafasi sezilib turganday. Ulug' bobokalonimiz bizni adolatga, sodiqlikka, birlikka chorlamoqda. O'zaro nizo, adovatlardan holi bo'linglar, – deb, insof, shafqat va halollikka undamoqda.

Sharq Uyg'onish davrining mutafakkir va davlat arboblari qatorida Amir Temurning (1336–1405) o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki, Amir Temur tili, urf-odati va madaniyati jihatidan bir-biridan farq qiladigan xalqlarni markazlashgan davlatga birlashtirish, fuqarolar totuvligi va **"Kuch – adolatda"** tamoyiliga asoslangan buyuk davlat qurish g'oyasini ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq etgan tarixiy shaxsdir.

Amir Temur siyosiy tarqoqlik oqibatida parokandalik, og'ir iqtisodiy inqiroz, bosqinchilarning zo'ravonligi, xalq noroziligi va ma'naviy tushkunlik hukmron bo'lgan Movarounnahrni halokatdan qutqarib qoldi. Yurt istiqboli uchun matonatli kurash olib borib, markazlashgan davlatni qayta tikladi. Davlat boshqaruvida tartib-intizom, qonunchilikni mustahkamlash, mehnat ahliga hurmat va imkoniyat, barqaror soliq tizimi, mamlakat himoyasini ta'minlashga katta e'tibor berildi. Tashqi siyosatda dushmanlardan himoyalanish, karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlash, zolim, sotqin va xiyonatkor shaxslarni jazolash, siyosiy ta'sirini kengaytirishga harakat qilgan.

Butun umrini yurt tinchligiga rahna solib, istiqboliga to'siq bo'lgan dushmanlarga qarshi kurashda o'tkazgan Sohibqiron insonparvarlik va adolat mezonlariga asoslanib ish tutish fazilatini saqlab qoldi. «Jahongirlik qilishga kirishganimda, – deb yozadi Amir Temur, – to'rt narsani xotiramda saqladim. Birinchisi – qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo'lsam, to'g'ri tadbir va kengash bilan ish tutdim. Ikkinchisi – xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ishni ko'p o'ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qildim… Uchinchisi – uch yuz o'n uch asl-zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim… To'rtinchisi – qaysi ishni chora-tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim».

"Temur tuzuklari"da bayon etilgan jangu-jadallarning usul va taktik harakatlarini o'rganmoq uchun, jang san'ati ilmiga beqiyos xissa qo'shgan Amir Temurning davlat, jamoat, madaniyat va falsafasi ustida xar bir avlodni qayta qayta o'rganishni talab etadi. "Temur tuzuklari"ni bir ma'noda "Jangu jadal, urush maydoniga kirish va chiqish, qo'shinni saflash, g'anim lashkarlarini sindirish" tuzuklari sifatida, o'ziga xos xarbiy nizom ham deb qarash joizdir.

Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo'lgan, yana bir kismi bilib-bilmaslikka, ko'rib-ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng (shuni ta'kidlash lozimki) qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'ligu sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur. Vassalom. Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim. Donishmandlar demishlarkim, o'z o'rnida qilingan tadbir bilan sanoqsiz lashkar qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, behisob lashkarni yengib bo'lur. Tajribamda ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi. Men yana tajribamda ko'rdimki, g'anim lashkarini yengish qo'shinning ko'pligi bilan emas, mag'lub bo'lish esa sipohining kamligidan bo'lmaydi. Balki g'olib bo'lmoqlik tangrining madadi va bandasining tadbiri bilandir.

Bizlar Buyuk Amir Temur va Temuriylar sulolasi va avlodidanmiz. Zero, buyuk ajdodlarning farzandlari ham buyuk bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 5106 - sonli farmonida, buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga "Temurbeklar maktabi" nomi berilishi bejiz emasdir.

Holbukim, o'z vaqtida ham Birinchi Prezident Islom Karimov "Bugungi kunning o'tkir va dolzarb taraqqiyotining asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy hulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda", – degan purma'no so'zlarini ham eslab o'tish joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning – Yangi O'zbekiston strategiyasi‖ kitobi 2021 yil. .

2. Temur tuzuklari [forschadan Alixonto'ra Sog'uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi],T., 1991, 1996;

3. Karomatov H.,Temur tuzuklari"ni O'zbekistonda o'rganish muammolari (Temuriylar davri madaniy yodgorliklari), T., 2003.

4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi‖ —Davlat ilmiy nashiryoti‖., Toshkent 2011.

5. Turk buyuklari va turk qahramonlari. – Istanbul, 1967.

6. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. U.Jo_rayev, B.Ermatov tarjimasi. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2007. B. 3- 207.

С.С. Раупов *– Бухоро давлат университети Ижтимоий-сиёсий фанлар кафедраси профессори, тарих фанлари номзоди*

НИЗОМУЛМУЛК ВА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ МУАММОЛАРИ

> “Янги Ўзбекистонни барпо этиш, - бу шунчаки ҳоҳиш-истак, субъектив ҳодиса эмас, балки туб тарихий асосларга эга бўлган, мамлакатимиздаги мавжуд сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий вазиятнинг ўзи тақозо этаётган, халқимизнинг асрий интилишларига мос, унинг миллий манфаатларига тўла жавоб берадиган объектив заруратдир”.[8]
>
> *Шавкат Мирзиёев*

Адолат (арабча одиллик, тўғрилик ҳамма учун баробар бўлган ҳақиқатнинг талаб ва тамойилларига амал қилиниши) – инсониятнинг азалий орзуси, эзгу ғояси, маънавият, ахлоқ ва ҳуқуқнинг меъёрий категорияларидан бири.

Жамият ҳаётидаги ҳодисалар, тартиб-қоидаларнинг асл инсоний идеалларга, ҳақиқат мезонларига қанчалик мос эканини аниқлашда ҳамма замонларда ҳам асосий маънавий мезон бўлиб хизмат қилади. Жамиятнинг шахсга, шахснинг жамиятга ва бир шахснинг иккинчи шахсга муносабатида намоён бўладиган адолат тамойили ана шу муносабатларни баҳолашнинг ўзгармас мезонидир.

Шарқ алломаларидан қайси бирининг меросига мурожаат қилсангиз ҳам уларда маънавий – ахлоқий сифатлар илгари сурилганлигининг гувоҳи бўласиз. Жумладан, Абу Али Ҳасан ибн Али Тусий – Низомулмулкнинг Шарқ тарихи ва маданиятида ўчмас из қолдирган “Сиёсатнома” (ёки “Сияр ул-мулк”) асарига мурожат қилсак ҳам фикримизнинг нақадар тўғрилигига яна бир бор ишонч ҳосил қиламиз.

Салжуқий шоҳларга 30 йил ҳалол вазирлик қилиб, ўз номини сўнмас шон-шуҳратга чулғаган Низомулмулк марказлашган кучли давлат учун кураш олиб бориш билан бирга бу борадаги ўз кузатувларини жамлаб, умумлаштирган ҳолда қўплаб амиру уламолар, давлат арбоблари, сиёсатчилар учун зарур қўлланма хизматини ўтаб келган ажойиб китоб яратди. Унда давлатни бошқаришдаги энг майда масалалардан тортиб, ғоят йирик ва муҳим масалаларгача – ҳаммасини ўзи яшаб турган даврга қадар тўплаган сиёсий тажрибадан келиб чиқиб, атрофлича ёритиб берди. Шуниси диққатга сазоворки ушбу китобнинг бошидан охиригача ижтимоий адолат ғояси яққол кўзга ташланиб туради.

Низомулмулк ўзининг “Сиёсатнома” асарида шоҳларнинг давлатни адолат билан бошқаришлари тўғрисида фикр юритиб, улар амалга оширишлари лозим бўлган ишларни кўрсатиб беради ва булар орасида энг

[8] Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда.// https://ferghana.uz/site/view/news/11381522

муҳими деб қуйидагиларни алоҳида таъкидлайди: “Давлатни идора қилиш талабларидан яна бири бу корез қазиб сув келтириш, қишлоғу далалар ободонлиги учун катта ариқлар қазиш, қалалар қуриш, шаҳарлар бино этиш, зебо бинолару кенг кўчалар, работлар қурдиришдир. Толиби илмлар учун мадрасалар очиш ҳам зарур, чунки шохнинг номи абадий қолади ва унинг савобидан мулкида сулҳу тинчлик ҳосил бўлади.”[9]

Дарҳақиқат, агар подшоҳ одил бўлиб, мамлакатни обод, халқни фаровон қилиш йўлида меҳнат қилса у шону-шавкатга эришади, аксини қилса халқнинг нафратига учрайди. Низомулмулк бу ҳақда фикр билдириб, қуйидагича ёзади: “Пайғамбар саллаллоҳи алайҳи васаллам хабарида бордирки, қиёмат кунида кимки бирор халққа бошлиқ бўлиб, фармон берувчи бўлса, қўлларини боғлаб олиб келар эканлар. Одил бўлган бўлса, қўллари адлу инсофидан очилиб, жаннатга олиб борар эканлар. Агарда золим бўлган бўлса шу боғланган қўллари билан дўзаҳга ташлар эканлар” [10]

Низомулмулкнинг ёзишича одил шоҳ халқ аҳволидан хабардор бўлиши, ғофил қолмаслиги, доимо уларнинг ишлари ва қилмишларини билиб, юриши лозим, токи золимлар уларга зулм қилмасинлар. “Шоҳ, - деб ёзади Низомулмулк,- қўлидан келганича яширинча ва ошкора тарзда халқ аҳволидан хабардор бўлиши шарт. Бедодликка йўл бермай, золимлар зулмидан аҳолини қутқариши керак. Шу ишларининг, баракаси унинг давлатига тегиб, халқ уни дуо қилади, қиёматгача унинг номига дуойи хайр юборадилар. Унинг девонида эса буюк савоблар жам бўлади”[11]

Низомулмулк одил подшо халқ ахволидан хабардор бўлишининг бирта воситаси сифатида подшоҳ томонидан зулм кўрганларни қабул қилиш эканлигини кўрсатиб, бу қабулларнинг аҳамиятини қуйидагича таҳлил қилади: “Подшоҳ ҳафтага икки кун зулм кўрганларни қабул қилиб, - деб ёзади у, - золимларни додини бериб, жазолаб ва раият сўзларини бевосита эшитиб бориши керак. Муҳим бўлган аризаларни қабул қилиб, ҳар бирига жавоб берши лозим. Агарда худованд подшох додхохларни олдига чақириб, ҳафтада икки маротаба уларнинг сўзларини эшитади ва золимларнинг жазосини беради, деган хабар мамлакатга тарқаса, унда золимлар оқибатини ўйлаб, қўрқиб бедодлик қилмайдилар”.[12]

У ўз фикрини давом эттириб, одил шоҳ раият ва лашкар ахволидан доимо хабардор бўлиши учун унга халқ ахволидан хабар бериб турувчи кишилар кераклигини уқтирди: “Подшоҳга раият ва лашкар ахволидан тўла хабардор бўлиш ва уларга қанча харажат кетишини блиши вожибдир. Агарда шундай бўлмаса, катта ҳато бўлади. Омиллар ситамкорликка қўл урадилар ва мамлакатга содир бўлаётган фасод ва золимликдан подшоҳнинг ё хабари бор ёки йўқ, дейдилар. Агарда била туриб ман қилинмаса, унда у ҳам шуларга ўхшаган золимлик қилган ва ўзи зулму ситамга розилик берган бўлади ва агарда билмаса, демак, у ғофилдир. Ҳар икки ҳолат ҳам яхши эмас. Шундай экан, соҳибҳабарга хожат сезилади.” [13] Ушбу фикрларнинг ҳозирги кун учун ҳам ўта долзарблиги мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзияевнинг қуйидаги

[9] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 17 б.
[10] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 19 б.
[11] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 20 б.
[12] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 21 б.
[13] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 69 б.

фикрларида ҳам яққол сезилиб турибди: “Инсон манфаатларини таъминлаш учун..., аввало одамлар билан, халқ билан мулоқот қилиш, уларнинг дарду ташвишлари, орзу-ниятлари, ҳаётий муаммо ва эҳтиётжларини яхши билиш керак”[14] деб таъкидлайди Президентимиз Ш.Мирзиёев.

Шуни алоҳида эътироф этиш лозимки, Низомулмулк ўз асарида рахбарлар ва умуман бутун халқ амал қилиши лозим бўлган хислатларни икки гуруҳга ажратади. Биринчи гуруҳга ёмон хислатларни киритади ва улар қуйидагилардан иборат: хуқд (нафрат), ҳасад, ғазаб, шаҳват, ҳирс, амл (ёмон иш), лажожлик (эзмалик), ёлғон, бухл, бадфеъллик, зулм, ўзбилармонлик, шошилиш, носинослик, енгилтаклик. Иккинчи гуруҳга яхши ва нек хислатларни киритади ва булар қуйидагилардан иборат: ҳаё, яхши хулқ, халимлик, кечириш, тавозе, саховат, сабр, сидқ, шукр, рахмат, илм, ақл, адл.[15] Мамлакатни адолат билан бошқаришни ихтиёр этган барча рахбарлар ўз ахлоқини яхши фазилат ва хислатлар билан безатиши ва ёмон хислатлардан узоқда бўлиши зарурлигини уқтиради.

Низомулмулк адолатли шохнинг энг яхши сифатларидан бири кечиримли бўлишлик эканлигини кўрсатиб, бу сифатга алоҳида тўхталиб ўтади. У обрўли, ҳурматли кишиларни ишдан олсанг, уларга дарҳол бошқа мансаб бергил, акс ҳолда улар сенинг рақибларинга айланиши мумкин деб кўрсатади ва фикрини давом этиб, ёзади: “Подшоҳ тўрт тоифа кишиларнинг гуноҳларини кечирмаслиги керак. Биринчиси, унинг мамлакатига қасд қилганлар гуноҳини, иккинчиси, унинг ҳарамига кўз олайтирганлар, учинчиси, унинг сирларини фош этганлар ва тўртинчиси, шоҳ билан тилда биру дилда бегона бўлганлар ва душманлари билан яширинча шохга қасд қилганлар гуноҳини”[16]

Низомулмулк жамиятда ижтимоий адолатни таъминлашда солиқ тизими ва солиқ йиғувчиларнинг ўрни ва ролига катта аҳамият қаратади. “Уммол (закотчилар)га бирор амал берарканлар, - деб ёзади у, - халқ билан яхши яшаб, яхши муомалада бўлиб, ундан хирождан бошқа солиқ талаб қилмаслик йўл йўриғини кўрсатадилар. Хирожни ҳам у шундай йўл билан талаб қилсинсаки, одамларга зиён етмасин. Солиқ ўз вақтидан олдин олинса, раиятга ранжу азоб етади, улар мажбурликдан мол-давлатларини ярим баҳода сотиб, уй жойларини ташлаб кетиб, овора ва сарсонликда ғарибликка мубтало бўладилар”.[17]

Низомулмулк одил подшолар ҳақида фикрларини давом эттириб, улар муқаттилар (иқта-чек) соҳиблари ишини тафтиш қилиб боришлари лозимлигини уқтиради: “Одил подшоҳлар ҳамиша заифлар ҳақида ўйлайдилар ва улар мамлакат зарурати учун ҳар икки-уч йилда муқаттеъларнинг ишларини тафтиш қилишлари шартдир, токи муқаттеълар раият ҳақига кўз олайтирмасинлар, вилоят обод ва маъмур бўлсин"[18]

Низомулмулк ижтимоий адолатни таъминлашда қозиларни ўрни ва роли катта эканлигини таъкидлаб, одил шох, уларнинг фаолиятидан тўла

[14] Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-14 б.
[15] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 183 б.
[16] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 38 б.
[17] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 29 б.
[11] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 47 б.

хабардор бўлиши лозимлигини уқтиради. Қозиларнинг олиму зохид, камбағал, аммо таъмагир бўлмаганларини тарбиялаб, улар билан ишлаш лозим дейди ва “Бу амални жоҳил ва нопок кишиларга ишониб бўлмайди, фақат пок, порсо олимларга бериш керак. Агар бирор бир ҳоким жаҳил ва зулм билан ҳукм чиқарса, подшоҳга маълум қилган ҳолда уни вазифасидан олиб, жазолаш керак”[19] деб уқтиради.

Низомулмулк ижро интизомига қатий риоя қилиш лозимлиги, давлат бошлиғи чиқарадиган муҳим ҳужжат - фармон ва унинг ижроси ҳақида фикр юритиб, “Фармоннинг ҳурмати ва куч- қуввати шундай бўлиши керакки, ижро этилмагунча уни ҳеч ким қўлидан қўйиши керак эмас. Агарда бирор кишининг фармонга салбий муносабати маълум бўлса ё унинг ижроси чўзилиб кетганлиги тўғрисидаги хабар етса, ундай кишига, агар у яқинларидан бўлса ҳам, жазо берилади. Подшоҳ амри албатта ижро этилиши ва унга жиддий муносабатга бўлиши билан бошқалардан фарқ қилади”[20] деб таъкидлайди. Кези келганда шуни ҳам таъкидлаш лозимки, мамлакатимиз Президенти Ш. Мирзиёев ҳам ҳар бир ҳудуддаги вазиятни фармон ва қарорларнинг ижро этилиш даражаси билан баҳолаш керак деб кўрсатади. “Ҳар бир ҳудуддаги вазиятни, - деб такидлайди мамлакатимиз Президенти Ш. Мирзиёев, - аввало, фармон ва қарорлар ижросини, уларнинг самарадорлигини доимий равишда ўрганиб, бу борада давлат органлари масъулиятини ошириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиладиган тизимни шакллантириш керак.” [21]

Шарқда маслаҳат, кенгаш билан иш тутиш нафақат ҳаётда, балки давлат миқёсида ҳам ижтимоий муносабатларнинг ҳарактери ва мазмунини белгилаб берган. Шу боис, маслаҳатсиз амлага оширилган иш ёхуд тадбирнинг тамал тоши доимо мўрт бўлган ёки яхшиликка олиб келмаган. Бора-бора ҳаётдан ҳар бир масалада маслаҳат билан иш тутиш шарқона ҳаёт тарзининг маъно-мазмунига, ахлоқийлик шартига айланиб кетган. Бу ҳақда Низомулмулк фикр юритиб, қуйидагиларни такидлайди: “Барча ишларни маслаҳат билан амалга ошириш кишининг мустаҳкам иродасидан, оқиллиги ва дунё қарашидан далолат беради. Ҳар бир киши маълум бир нарса ҳақида кўпроқ ё камроқ билади. Бир кишининг назарий билими бўладию, аммо тажрибада уни қўлламаган, бошқа кишининг эса тажрибаси илми ва билимига ўтган бўлади. “[22]Низомлулмулк ўз асарида хизматкорларни рағбатлантириш ва жазолаш муаммоларига ҳам алоҳида эътибор қаратади ҳамда рағбатлантириш ва жазолашнинг ахамияти тўғрисида қуйидагича ёзади: “Хизматкорлардан бирови яхши ва манзур иш қилса, уни ўз вақтида сийлаб, ишининг натижасига яраша рағбатлантириш керак. Гуноҳ қилганида ҳам, зарур бўлса, гуноҳига яраша жазо берадилар. Шунда бандаларнинг хизматига рағбати зиёда бўлиб, гуноҳкорлар сафи ҳам кегаймайди, ишлар эса яхши олиб борилади.”[23]

Низомулмулк амал (мансаб)га муносабатга қараб кишиларни икки гуруҳга ажратади. Уларнинг бир гуруҳи мансабни яхши кўрадилар ва бир неча мансаблари бўлишига қаноат қилмай яна бошқа қўшимча мансабга

[19] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 47 б.
[20] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 77 б.
[21] Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- 17 б
[22] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 97 б.
[23] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 129 б.

интиладилар. Иккинчи гуруҳ одамлар эса мансабни эгаллай олсаларда мансабдан қочадилар. Ана шундай ҳолатларни тахлил қилиб, Низомулмулк қуйидаги фикрларни илгари суради: “Шундай кишилар борки, ўнта амали бўлатуриб, яна бошқа бирорта вазифани олишни истайдилар. Мирзолик, ҳокимлик, хазиначилик қўлидан келиш-келмаслигидан андиша ҳам қилмайдилар. Арзийдиган ва муносиб кишилар ва ишбилармонлар четда қоладилар. Ҳеч ким нима учун бир нечта жоҳил ва ёмон зотли кишилар кўп амалларни эгаллаб олганлару, аммо тажрибали ва маъруф кишиларнинг битта ҳам амали ёки вазифаси йўқ, маҳрумлик ва интизорликда қолганлар, нега хусусан хизмат кўрсатган ва ҳақлари бор кишилар шундай бўлиб қоладилар, деб ўйлаймайди. Ҳамма замонда ҳам диёнатли ва эътиқодли аслзода кишиларга вазифа берганлар. Агар қабул қилмаса, мажбур қилиб бўйнига қўйганлар, токи амал арзимас кишининг қўлига ўтиб кетмасин. Шунда раият тинч бўлиб, мулк яхши ном қозониб, подшоҳ эса фароғатда яшаган.”[24] [2. 156]

Умуман олганда, Низомулмулк томонидан “Сиёсатнома” асарида илгари сурилган аксарият ғоялар мустақил мамлакатимиз бугунги тараққиёти билан ҳамоҳангдир.

И.Х. Шоев *– доцент Бухарского государственного университета кафедры Социально-политических наук, д.ф.и.н. (PhD).*

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКИМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВОМ В ПОЛИТИКЕ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ.

Наличие Туркестанского генерал-губернаторства в составе Российской империи выявило отсутствие выверенной политики самодержавия, что часто приводило к непоследовательности в действиях царского правительства. Наиболее важным в истории Туркестанского генерал-губернаторства оказалось начало XX века, когда на фоне развития экономических связей генерал-губернаторства с имперским центром проявились существенные организационные недостатки существующей системы управления.

Деятельность управленческих структур в Туркестане развивалась в условиях скрытых и явных конфликтов, основой которых стал вопрос о широте административных полномочий центральных и местных властей.

После присоединения Южного и Юго-Восточного Казахстана, а также ряда районов Средней Азии к Российской империи в 1867 году было образовано Туркестанское генерал-губернаторство в составе Семиреченской (до 1882 г.) и Сыр-Дарьинской областей. Туркестанское генерал-губернаторство с 1886 года официально стало называться Туркестанским краем (неофициально “Русским Туркестаном”). С 1898 года в состав Туркестанского края входили Закаспийская, Самаркандская, Семиреченская,

[24] Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Адолат, 1997 – 156 б.

Сырдарьинская и Ферганская области. Соседние с Туркестанским краем Хивинское и Бухарское ханства фактически являлись вассалами царской России[25].

Одним из важнейших источников для изучения состояния системы управления Туркестанским краем в начале XX века являются материалы отчётов графа Константина Константиновича Палена, под руководством которого в 1908–1909 гг. на территории Туркестанского края проводилась сенаторская ревизия. В ходе ревизии К.К.Пален должен был следовать специальной инструкции, утверждённой 18 июня 1908 г. Николаем II. Сенатор граф К.К.Пален, характеризуя период правления первого Туркестанского генерал-губернатора, инженер-генерала, генерал-адъютанта Константина Петровича фон Кауфмана (1867-1882 гг.), писал о том, что «силами своей мощной личности он мог устранять вмешательство в его дела какого-либо постороннего ведомства и нёс один всю ответственность перед Верховной властью, от которой получал лично указания»[26].

К.К.Пален не учитывал тот факт, что время управления краем К.П.Кауфмана было периодом, в течение которого колониальный аппарат Туркестана развивался параллельно с захватом новых территорий. И естественно царизм стремился насадить единую военную власть, основанную на принципе единоличия, выраженного в правах генерал-губернатора — «принимать все те меры, которые признает он полезными и неотложно необходимыми для устройства края»[27]. Это был период, когда политика царизма отражалась в лице и действиях генерал-губернатора и когда царизм нуждался в таких «сильных» личностях, как К.П.Кауфман.

В период правления К.П.Кауфмана Туркестанское генерал-губернаторство управлялось на основе режима личной власти генерал-губернатора. «Одним из крупных факторов административной краевой деятельности является Совет при генерал-губернаторе, учреждение подобного коему нигде в империи не существует»[28], – писал граф К.К.Пален.

Совет Туркестанского генерал-губернатора по представленным ему полномочиям представлял собою по «Положению об управлении Туркестанского края» 1886 года губернское учреждение, совершенно отличающееся от других, не имеющее себе подобного во всей Российской империи. Совету при генерал-губернаторе при решении многих важных вопросов отводилась решающая роль[29].

Ведению Совета по статье 20[30] подлежали:

[25] Альжанова Э.Е. Система управления Туркестанским генерал-губернаторством в конце XIX – начале XX века. // «Вестник КазНПУ», Алматы, 2016. С.3.

[26] Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчёта о произведённой в 1908-1909 гг., по высочайшему повелению сенатором гофмейстером, графом К.К.Паленом ревизии Туркестанского края, часть II, СПб.,1910. С.6.

[27] Положение об управлении Туркестанского края. Составитель И.Абрамов. Ташкент, 1916. С.4.

[28] Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчёта о произведённой в 1908-1909 гг., по высочайшему повелению сенатором гофмейстером, графом К.К.Паленом ревизии Туркестанского края, часть II, СПб.,1910. С.7.

[29] Махмудова Н.Б. Сенаторская ревизия графа К.К. Палена в Туркестане: причины, ход, последствия. // Метаморфозы истории. 2016. № 7. С.134.

[30] НА РУ. Ф.И-1. Оп. 12. Д. 1674, л.45. www.archive.uz, central.archive.uz

1. Все законодательные вопросы по общему управлению и все другие дела, которые генерал-губернатор признавал нужным передать на его обсуждение. По делам, относящимся до общего управления краем, заключения Совета имело совещательное значение.

2. Рассмотрение смет денежных земских повинностей, определение размера натуральных земских повинностей, разрешение сверхсметных расходов и т.д.

3. Общее руководство ходом дел поземельного и податного устройства, соображение предположений о податном обложении и рассмотрение принесенных генерал-губернатору жалоб по данной отрасли. Следует подчеркнуть, что по делам о земских повинностях и по земельному и податному устройству все вопросы решались большинством голосов. Но в случае несогласия генерал-губернатора с мнением большинства членов Совета, ему предоставлялось право, не приводя постановление в исполнение, передать вопрос на разрешение соответствующего министерства.

Совершенно особое место занимал в главном управлении его исполнительный орган – канцелярия генерал-губернатора, которая состояла первоначально из четырёх отделений. Первое отделение ведало вопросами административно-штатного и инспекторского порядка. Ведение дел в первом отделении было распределено между четырьмя столами, три из которых занимались главным образом, делами личного состава, а четвёртый имел в своем ведении «дела об иностранцах». Второе отделение занималось земскими вопросами и повинностями, оно подразделялось по функциям на пять столов, дела которых отражали финансово-хозяйственную деятельность главного управления. Третье отделение занималось вопросами поземельно-податными, устройством городов и городскими сметами (эти дела распределялись между тремя столами), а также разработкой законоположений по вопросам управления краем. Четвёртое, учреждённое К.П. Кауфмана, было особое Судное отделение, рассматривавшее в порядке кассации судебные решения и вопреки указаниям министра юстиции и военного министра[31] и просуществовавшее до 1886 года.

Судное отделение канцелярии вплоть до 1886 года пользовалось такими правами, которых не имело по отношению к подведомственным судьям даже министерство юстиции. По его докладам генерал-губернатор учреждал новые судебные должности. Канцелярии было предоставлено рассмотрение кассационных жалоб на приговоры судебных учреждений. Она не ограничивалась разрешением вопросов, возбуждаемых судебной практикой и толкованием законов, но и составляла доклады, предвещавшие направление дел. При отмене решений областных правлений генерал-губернатор по докладу канцелярии разрешал судебные дела по существу.

Хотя проект положения 1867 года и «Положение об управлении Туркестанского края» 1886 года не содержали в себе специальных правил, определяющих круг прав и обязанностей относительно канцелярии, тем не менее, она играла решающую роль в органах управления. Правитель канцелярии тоже занимал исключительное положение: определялся и

[31] НА РУ. Ф.И-1. Оп. 12. Д. 923, л.20. www.archive.uz, central.archive.uz

увольнялся по «высочайшему повелению императора через военного министра». В служебном отношении правитель канцелярии был только исполнителем распоряжений генерал-губернатора, но на практике занимал более высшее положение, чем военные губернаторы областей.

Канцелярия генерал-губернатора была центром, куда стекались каждодневная информация о положении дел в той или другой области. Генерал-губернатор редко бывал на местах и поэтому при ознакомлении с жизнью областей имел дело только со своей канцелярией. При таком положении, естественно, управляющий канцелярией превращался со временем из чиновника-исполнителя в чиновника-распорядителя. Громадный фактический материал, освещающий многие стороны административной, хозяйственной, культурно-бытовой жизни Туркестанского края, был сосредоточен в отделениях канцелярии генерал-губернатора.

Таким образом, в конце XIX века система управления Туркестанского края представляла собой систему тесно связанных друг с другом основных элементов административного механизма и соответствующих им органов, действующих в интересах царизма и его колониальной политики. Характерной чертой этого аппарата была его чрезмерная бюрократическая централизация, заключавшаяся в сосредоточении в его недрах законотворческих, распорядительных, исполнительных и контрольных функций управленческого аппарата была передана в ведение местных институтов власти – аксакальств и волостных управлений, действовавших под контролем русской власти.

Источники:

1. Альжанова Э.Е. Система управления Туркестанским генерал-губернаторством в конце XIX – начале XX века. // «Вестник КазНПУ», Алматы, 2016. С.3.

2. Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчёта о произведённой в 1908-1909 гг., по высочайшему повелению сенатором гофмейстером, графом К.К.Паленом ревизии Туркестанского края, часть II, СПб.,1910. С.6.

3. Положение об управлении Туркестанского края. Составитель И.Абрамов. Ташкент, 1916. С.4.

4. Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчёта о произведённой в 1908-1909 гг., по высочайшему повелению сенатором гофмейстером, графом К.К.Паленом ревизии Туркестанского края, часть II, СПб.,1910. С.7.

5. Махмудова Н.Б. Сенаторская ревизия графа К.К. Палена в Туркестане: причины, ход, последствия. // Метаморфозы истории. 2016. № 7. С.134

6. НА РУз. Ф.И-1. Оп. 12. Д. 1674, л.45. www.archive.uz, central.archive.uz

7. НА РУз. Ф.И-1. Оп. 12. Д. 923, л.20. www.archive.uz, central.archive.uz

N.S. Rizayev **–** *Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

UCHINCHI RENESSANS VA UNDA BUXORO JADIDLARI IJTIMOIY – SIYOSIY POZITSIYASINING O'RNI

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o'ynadi. Bugungi kun Yangi O'zbekistonda jadidchilik g'oyalarni o'rganish va hayotga tadbiq etishda ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida Uchinchi Renessans jarayoninida dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Bunda Buxoro jadid maktabi vakillarining o'rni beqiyosdir.

Buxoro jadidchilik maktabining yetuk nomoyondasi Abdurauf Fitrat o'zining qarashlarida oila, farzand tarbiyasi, inson kamoloti, ta'lim masalalari muhim o'rin egallanganini hammamiz bilamiz. Mamlakatamizda oxirgi yillarda saylov va saylov qonunchiligini takomillashtirish borasidagi sa'y harakatlarni alohida qayd etish zarur. Bu jarayon konstitutsiya darajasida olib chiqildi. Fitrat o'zining "Musulmonlar g'ofil qolmang" sarlavhali maqolasida aynan saylov va aholining huquqiy faolligi haqida to'xtalib shunday deydi: "Yaqinda tashkil etiladigan shahar dumasi bizu sizning ravnaqimiz uchun xizmat qiladigan organ sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun bo'lajak saylovda faol bo'lishlaringizni istaymiz". [1] Demak bu jarayonni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak fuqarolik jamiyatini barpo qilish hamda fuqarolarning ijtimoiy – siyosiy sohalarda faolliklarini oshirish hozirgi O'zbekistonning zamonaviy boshqaruvida alohida urg'u berilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa jadidlar harakatining asosiy g'oyalaridan biri bo'lganligi hozirgi davr Uchinchi Renessans sharoitida ijtimoiy – siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda .

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mamlakat suvereniteti, so'z erkinligi, ijtimoiy himoya, fuqarolar haq huquqlarini ta'minlash, ta'lim olishning huquqiy asoslarini mustahkamlash bir so'z bilan aytganda inson qadr qimmati, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda inson omilini yuksaltirish kabi g'oyalar ilgari surilgan. Aynan ana shunday konstitutsiyaviy g'oyalar jadidlar siyosiy harakatida ham aks etgan. Masalan, "Yosh buxoroliklar"ning 1917 yilgi islohot loyihasi nafaqat boshqaruvdagi islohot, balki, so'z erkinligi, matbuot erkinligi, qonun oldida tenglik hamda inson qadr qimmatini ulug'lash ularning haq huquqlarini kafolatlashni ham o'rtaga tashlagan edilar.[2]

Shu o'rinda jadidlar faoliyati sud tizimini isloh qilish, qonun chiqaruvchi organ tashkil etish , ommaviy axborot vositalari erkinligi, jamoat yig'ilishlari, uy-joy daxlsizligi va insoniy kamsitilmaslik singari muhim ijtimoiy – siyosiy qarorlarni tadbiq qilish faoliyatlarini ta'kidlash zarur. Bu bilan jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy harakat, balki hozirgi davr davlat boshqaruvi uchun muhim bo'lgn o'zgarishlarni g'oyaviy asoschilari sifatida ularni siyosiy harakat vakillari deyishimiz mumkin.[3]

Uchinchi Renessans sharoitida mamlakatimizda inson qadri tamoyili asosida ijtimoiy himoya markazlari , shuningdek konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy davlat

konsepsiyasi asosida aholiga turli davlat xizmatlarini ko'rsatish markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida fuqorolik jamiyati tashkil etishning muhim mezoni bo'lib xizmat qilmoqda. Bu kabi faoliyat ayrim jadidlar tomonidan beg'araz amalga oshirilganligini alohida qayd qilishimiz kerak. Jumladan, M.Abdurashidxonov tomonidan "Xalq himoyachisi" byurosi tashkil etilgan bo'lib, unda bepul huquqiy maslahat berishni tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida aholining jamiyatning ijtimoiy siyosiy faoliyatida faolligini ta'minlash bilan birgalikda ularning huquqiy ongini shakllantishga xizmat qilishga qaratilgan edi.

Hozirgi davrda xotin qizlarning jamiyat hayotida o'rni masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda, birgina yangi konstitutsiyaning asosiy o'zgarishilaridan biri sifatida aynan gender tengligi masalasini ko'rishimiz mumkin. Jumladan bosh qomusimizning 58-moddasida "Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlaydi", deb belgilangan.[4] Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda gender tenglik masalasi barcha davlatlarda muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Zero, xotin-qizlarning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi faol ishtiroki mamlakat barqarorligi va farovonligining kafolati hisoblanadi.

Bu borada ko'plab jadidlar faoliyatini ta'kidlab o'tish mumkin. Jumladan: Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Hamza va Munavvar qori kabi ko'plab taniqli jadidlar ayollarning mavqeyi va huquqlarini oshirishning tarafdorlari bo'lgan. O'sha davr mavjud konservatizmning yomon illatlaridan - ko'pxotinlilik, majburiy nikoh va erta turmush kabi odatlarni keskin qoraladilar.

Binobarin, ular ayollarning ta'lim olish, yosh turmushga chiqishni cheklash, saylov huquqi kabi siyosiy huquqlari ta'minlanishi zarurligini ilgari surib, ushbu g'oyalarni himoya qildi. Ko'pgina jadid yetakchilari gender tengligini insoniy, ma'naviy shart sifatida jasorat bilan himoya qildi, "Ayollar ozodligi" kabi risolalarni nashr etdi, birdamlikni targ'ib qilish uchun "Ayollar uyg'onishi" kabi jamiyatlar tuzdi. Bu esa o'z navbatida vaqt o'tishi bilan ayollar haq huquqlarini belgilash, ularning ijtimoiy hayotda o'z o'rnilarini mustahkamlashga qaratilgan harakatlarga mafkuraviy omil bo'lib xizmat qildi.

Hammamizga ma'lumki konstitutsiyamizda turli millat va ellat vakillarining ham o'zaro haq huquqlari shuningdek ularning ijtimoiy hayotda birdek mavqega ega ekanliklari aniq ko'rsatilgan. Turkiston jadidlari mavjud tarang siyosiy vaziyatga qaramay bu borada ham aniq qarashlarini bayon etdilar

Jumladan Mahmudxo'ja Behbudiy diniy bag'rikenglik va ozchilik huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolik siyosiy qarashlarini ilgari surdi. Behbudiy "Xalqning buyukligi uning bag'rikengligidadir" deya ta'kidlagan edi.[5] Shuningdek Abdurauf Fitrat o'zining Hind sayyohi qissasi asarida ham boshqa din vakillariga yaxshi munosabatda bo'lishlik haqida alohida to'xtalib o'tgan.[6].

Teng huquqlilik tarafdori bo'lgan islohotchi jadidlar diniy va etnik mansubligidan qat'i nazar ozchilik guruhlariga nisbatan kamsitishni keskin qoraladilar. Ma'rifatparvarlar o'zlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarini millatlararo totuvlik va bag'rikenglik ma'rifiy tamoyillari, madaniy kichik guruhlar o'rtasidagi o'zaro xayrixohlik asosida olib borishga harakat qildilar.

Jadidlar shuningdek davlat boshqaruvini isloh qilish, saylov tizimini tartibga solish, moliya hamda o'zini o'zi boshqarish organlar tashkil etish hamda uning asosini yaratish kabi islohotlarni amalga oshirishda huquqiy asosni yaratdilar. Bu borada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi konstitutsiyasida belgilangan ko'plab normalarni sanab o'tishimiz mumkin.Aynan shu mavzu doirasida bosh qomusimizda ham bir qator o'zgartirishlar kiritilganligi ahamiyatga molik. Buning zamirida yagona maqsad ya'ni fuqarolarga erkinliklar yaratish, jamiyatda ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish kabilar yotadi .

Sho'ro davlati parchalanganidan keyin jadidlarning huquqiy va siyosiy zamonaviylik haqidagi ilg'or qarashlari mintaqamizda mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga muhim mafkuraviy asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, milliy mustaqillikka erishgan O'zbekiston boshqaruv tuzilmalari va huquqiy asoslarini loyihalashda jadidchilik fikridan ko'p va ijodiy foydalanildi. Masalan, fuqarolarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy kadrlar salohiyatini oshirish, mulkiy huquqlarni ta'minlash, gender tengligiga erishish va ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish kabi islohotlar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy qonunlar bilan mustahkamlanganligi , islohotlarining jadidlar qarashlari bilan hamohangligini ko'rsatadi. Shu o'rinda faylasuf Q.Nazarov fikricha – jadidchilik garchand fransuz ma'rifatparvarligidan bir necha asr keyin yuz bergan hodisa bo'lsada, inqilobga qadar bo'lgan O'zbekistonning madaniy va ma'rifiy hayotida muhim rol o'ynadi.[7]

Xulosa qilib shuni ta'kidlsh kerakki, Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda huquqiy qarashlari hozirgi Yangi O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarda asosiy dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Zotan, hozirgi kunda siyosatimizning bosh mezonida inson omili, dunyoviylik, ijtimoiy davlat, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda yuksaltirishga asoslangan "yangi jadidchilik" g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Bu faoliyatlarni huquqiy asosi aynan yangi Konstitutsiyamizda mustahkamlanganligi jadidlar ijtimoiy – siyosiy qarashlari hozirgi davr uchun ham muhim ahamiayt kasb etayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat « Musulmonlar g'ofil qolmang » «Hurriyat», 1917 yil, 25 avgust, 33-son

2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – T.: Ma'naviyat, 2002. – 238 b.

3. Қосимов Б. Жадидчилик ва жадид адабиёти (Давра суҳбати) // "Туркистон", 1997. 17 май

4. Qarang. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.2023. – B.58.

5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov. (Tuzatilgan va to'ldirilgan 3-nashr). T.: "Ma'naviyat", 2006.

6. Nodir Rizayev. Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi qissasi" va undagi ijtimoiy – siyosiy qarashlar tahlili.QarDU xabarlari.1(1) /2024.

7. Назаров Қ. Фалсафа асослари. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2012.-Б.98

Sh. N. Rajabov **–** *Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*

“SIYOSATNOMA” ASARINING TARIXIY, SIYOSIY HAMDA BADIIY AHAMIYATI

Sulton Malikshoh(1072-1092) Saljuqiy hukmronligi davrida saroyning fozil va olimlariga davlatni boshqarish qoidalari, tartibi va usullari to‘g‘ri bir asar yozib, unda qadimda o‘tgan hukmdorlar tarixi va hayotiy tajribaslaridan misollar keltirib yozishni buyuradi. Bu yoziladigan asar, kelajakda, davlat boshqaruv ishlarida dastur vazifasini bajarishi lozimligini ta’kidlaydi. O‘ziga xos ushbu ijodiy bellashuvda davlat arbobi Nizomulmulk (Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy) ham ishtirok etadi. Nizomulmulk mazkur ishga Sharafulmulk (Abu Said Muhammad ibn Mansur ibn Muhammad al-Xorazmiy), Tojulmulk, Majdulmulk (Abulfazl Asad ibn Muhammad al-Qumiy) va boshqa olimlar ham qo‘l urganlarini bayon etadi.

1091-yili Nizomulmulk yozgan 39 bobdan iborat “Siyosatnoma” yoki “Siyar al-muluk” (“Podshohlar turmushi”) nomli asar shohga manzur bo‘ladi. So‘ngra Nizomulmulk asarini qayta ishlab, uni yangi bob va qismlar bilan boyitadi. 1092-yili uni ko‘chirib, Sulton Malikshohga berib qo‘yish uchun saroyning maxsus kotibi Muhammad Mag‘ribiy an-Nosixga topshirib, o‘zi Bag‘dod safariga yo‘l oladi.

Nizomulmulkdan keyin, 1092-yili Malikshoh ham o‘ldirilib, toj-taxt uchun kurash avj olib ketadi va davlat ishlari tartibsizlikka uchrab, xalqning ahvoli yomonlasha boradi. Shuning uchun ham Muhammad Mag‘ribiy faqat 1105-yilga kelib, ya’ni G‘iyos ud-din Muhammad bini Malikshoh davrida (1105-1118-yillari) asarni e’lon qilishga muvaffaq bo‘ladi. Shunday qilib, kotib Muhammad Mag‘ribiyning Nizomulmulkka sadoqati va shijoati tufayli “Siyosatnoma”asari bizgacha yetib keldi.

“Siyosatnoma”ning eng qadimiy nusxasi Britaniya muzeyida (ADD 23516) hamda Berlinda saqlanadi. Bu nusxalar 1168-1169 yillari Urmiya shahrida amirhojib Alp Jamoliddin farmoniga binoan ko’chirilgan, Sharl Shefer 1291-yili ko’chirilgan boshqa nusxadan foydalanib, asarni fransuz tiliga o’girib va 1893-yili nashr etgan. 1914-yili Kalkutta shahrida asarning tosh bosma nusxasi ham chop qilingan. Keyinchalik, 1932-yili Tehron shahrida Ibrohim Xalxoliy ishtirokida “Siyosatnoma” asari besh nusxa asosida solishtirilib, bosib chiqarilgan. Nizom al-mulkning bu asarini B.N.Zaxoder ko’p yillik tadqiqotlaridan so’ng 1949-yili rus tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi. 1960-yili asar ingliz tilida chop qilindi. “Siyosatnoma”ning yana bir nashri 1989-yili Dushanbeda amalga oshirildi. Asarni nashr etgan olim A.Devonaqulov o ’zining so’z boshisida asarning asosan badiiy ahamiyatini umuminsoniy qadriyatlar jihatidan tahlil etgan. Ammo bu nashr ba’zi kamchiliklardan holi emas: asarning ba’zi boblari tushirib qoldirilgan. “Siyosatnoma”ning o’zbek tiliga ilk bor Shodmon Vohidov va Aftondil Erkinovlar tomonidan tarjima qilinib chop etilgan hisoblanadi.

“Siyosatnoma” asari yaratilgan davridan boshlab olimlar, tarixchilar, adiblar, eng asosiysi, shohu hokimlar diqqatini tortib keladi. Bu asarni sultonlar va boshqa mansabdorlar ko‘chirtirib olib, o‘z faoliyatlarida foydalanganlar. “Siyosatnoma” Sharq madaniyatini, saljuqiylar tarixi va siyosiy hayotini o‘rganishda eng ishonchli manba bo‘lishi bilan birga fors adabiyotining dastlabki badiiy asarlaridan sanaladi.

Amir Temur o‘zining tuzuklarida ulug‘ vazir va davlat arbobi Nizomulmulk amallarini hurmat-ehtirom bilan eslab, jumladan,, shunday deydi: “Masalan,

Malikshoh Saljuqiy o‘z vaziri-Nizomulmulkni martabasidan tushirdi. Vazir boshdan-oyoq yaxshi sifatlarga o‘ralgan edi. Uning o‘rniga zoti past, yomon bir kishini vazir qilib tayinladi. Bu shumqadam vazirning qabix ishlari, zulmi-sitami va nafsi buzuqligi kasofatidan saltanat binosi buzila boshladi”. Sohibqiron boshqa bir joyda Nizomulmulkni davlatni boshqarishda ibrat qilib ko‘rsatib, uning fazilatlariga ta’rif beradi: «Nizomulmulkning yomon qilmishlari kam bo‘lib, xayrli ishlari ko‘proq edi. U hajga bormoqchi bo‘lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga debdi: “Malikshoh davlatining xizmatida bo‘lib, amalga oshirayottayi xayrli ishlaring va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordaming haj qilish bilan barobardir”.

Amir Temur aqlli, bilimdon va hushyor vazir mamlakat hayotining turli jabhalarida juda katta kuch ekanligini, podshohining boshiga tushgan muhim va mushkul ishlarni tadbirkorligi va uzoqni ko‘ra bilishi bilan osonlashtirishini oliyjanoblarcha e’tirof etadi. “Bunday vazirni e’zozlab, izzat-ikrom etsinlar”, “davlat sherigi bilib, aziz tutsinlar. zinhor uning so‘zidan chiqmasinlar, u nima degan bo‘lsa, bari aql ko‘zgusidir”, deyaqayta-qayta ta’kidlar ekan, shunday hurmatga sazovor vazir sifatida yana Nizomulmulkni misol keltiradi.

Asarning tarixiy, siyosiy va badiiy ahamiyati shundaki, u saljuqiylar hukmronligiga oid obro‘li manba bo‘lib, bu silsila shohlari uchun davlatni boshqarishda bir dastur tarzida yaratilgan. Asar adabiy manba sifatida ham juda qimmatlidir. Shu sababdan asarga, Nizomulmulk shaxsiyatiga Amir Temur, Alisher Navoiy, “Dastur al-muluk” muallifi Samandar Termiziy, “Osor al-bilod” muallifi Abu Yahyo Zakariyo ibn Muhammad al-Qazviniy hamda Ibn Isfandiyor, Ibn Bibi, Ibn Tiqtak, Xoja Xalifa va boshqa ko‘plab ulug‘ allomayu davlat arboblari g‘oyat yuksak baho berganlar.

Ushbu asar mashhur sharqshunos olimlardan Sh.Riyo, V.Dorn, E.Brove, A.Kristensen, Sh.SHefer, T.Nel’deke, V.V.Bartol’d, A.Krimskiy, Muhammad Nizomiddin, Fayz al-Hasan Fayziy, B.G‘afurov, B. Ahmedov, Sh.Vohidov va boshqalar diqqatini tortib, ularning jiddiy xulosalariga asos bo‘lgan. Ko‘pgina xorijiy nashrlarda “Siyosatnoma” asari bugungi siyosatchilar uchun ham eng yaxshi qo‘llanma sifatida baholanadi.

“Siyosatnoma” yoki “Siyar al-muluk” asarini olimlar saljuqiylarning siyosiy dasturi sifatida baholaganlar. Asarning asosiy g‘oyalari ham shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qatiy qoida va tartib o‘rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va imonli bo‘lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta’minlash uchun harakat qilishga da’vat etadi.

Masalan, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” da Xoja Kamoliddin Husayn nomli shoir haqida gapira turib shunday yozadi: “Xoja Nizomulmulkning o‘g‘lidir. Otasining taayyun va ishtihori burungi Nizomulmulkdin ortiqroq bo‘lmasa, o‘ksuk ham emas. E’tibor yuzidin aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidin ortti...” Navoiyning gaplari shuni ko‘rsatadiki, Hirot madaniy muhiti uchun saljuqiylar vaziri taniqli shaxs bo‘lgan. Shu boisdan ham boshqani unga nisbat berib ta’riflayapti.

Nizomulmulk fikricha, adolat va saxovat xayr-sadaqadan, nochor, noiloj kishilarga madad berishdan, beva-bechoralar, mayib va nogironlarga xazinadan nafaqa ajratishdan va insonlarning huquqlariga rioya qilishdan iboratdir. Amaldorlarni to‘g‘ri tanlab, ularga qo‘llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat va ijro fazilatini kutish davlat

boshqaruvining asosiy talablaridandir. Har bir ishda amaldorlarning maslahat bilan ish ko‘rishlari ko‘zda tutiladi. Nizomulmulk shoh hayot tajribasiga ega bo‘lgan, jahon kezgan oqsoqollar, olimu mo‘tabar kishilar bilan maslahatlashib ish tutishi tarafdoridir.

Nizomulmulkning yana bir fikri zamonamiz bilan hamohang. Bu g‘oya shundan iboratki, davlatda markaziy hukumat (ya’ni davlat boshqaruv organlari) juda ham kuchli bo‘lishi lozim. Shundagina davlatda tinchlik va adolat barqaror bo‘ladi, raiyat o‘z maqsadiga yeta oladi, jamiyat sulh va adolatda, muruvvatda yashaydi.

Nizomulmulkning fikricha, raiyat ahli, zulmu sitam ko‘rgan har bir kishi, umuman norozi bo‘lganlar amaldor va hokimdan boshlab vazir va shohning o‘zigacha qabullariga borib, shikoyati yoki maslahatini bayon qilishlari zarur. U yozadi: “Podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so‘zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Agarda xudovand podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda sitam qiluvchilar oqibatini o‘ylab qo‘rqib bedodlik qilmaydilar”.

Nizomulmulk har bir g‘oyani isbotlash uchun muayyan tarixiy va afsonaviy shaxslar, sulolalar va saltanatlar tarixidan, o‘tmishidan foydalanib, tegishli voqealardan misollar keltiradi. Davlat boshqaruvi va hukumatchilikka u 875-999 yillarda hukm surgan Somoniy, G‘aznaviy sulton va shohlarni namuna qilib ko‘rsatadi. Bu sulolalarning namoyandalarini nihoyatda ulug‘lab, ba’zan ularga xos bo‘lgan fazilat va yaxshi xislatlarni, xulq-atvorlarni e’zozlab, zamona shohlarida ham shunday sifatlarni ko‘rmoqchi bo‘ladi va shu yo‘l bilan ularga davlatni boshqarish borasida samimiy maslahat qiladi.

Nizomulmulk zamonasidagi salbiy munosabatlarni ba’zan ochiqchasiga bayon qiladi, lekin oqil inson, davlat arbobi bo‘lganligidan ba’zi harakatlari zoye ketayotganligini yaxshi tushunadi. O‘sha davrlarda ham hasadchi va g‘arazli amaldorlar borligini, saroydagi makrlar, amaldorlarning bir-birlariga qasd va dushmanliklari davlat ishlariga, xalq va saltanatga ziyon ekanligini yashirmaydi. “Bizning zamonda, deb yozadi u, amirlar bir harom dinordan cho‘chimaydilar, haqiqatni yolg‘onga chiqarib, ish oqibatini o‘ylamaydilar”. Boshqa joyda “hozir shunday zamon bo‘lganki, yuz musulmonning qoni to‘kilsa ham, birovning zarracha ishi yo‘q. Oltinlarni olganda ham birovni javobgar qilmaydilar, ishni ham oxirigacha olib borolmaydilar. Ajab dunyo, bundan keyin nima bo‘lar ekan?!”- deb yozadi.

Davlatni idora etishda amaldorlar katta o‘rin tutishlarini yaxshi tushungan Nizomulmulk ularni to‘g‘ri tanlab, joy-joyiga qo‘yishni, har biriga loyiq amal berib, asosiy maqsad yo‘lida tarbiya qilishni muhim bir talab deb biladi. Har qaysi amaldorni tarbiyalashga ko‘p vaqt ketishi va bu mushkul ish ekanini tushuntirib, hokimlarga qo‘l ostidagilarni ehtiyot qilishni maslahat beradi. Amaldorning xatosini ko‘rib, uni darrov ishidan olish to‘g‘ri emasligini, uni birinchi marotaba kechirib, yana xato qilmasligi uchun himoya qilish kerakligini aytadi.

Asarning ba’zi qismlari va boblarida xalifalarga qarshi bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon va urushlar, islomdagi har xil mazhab va jarayonlar, ularning namoyandalari va tarafdorlari haqida ham ma’lumotlar mavjud. Jumladan:Mazdak harakati, Muqanna qo‘zg‘oloni, Abu Muslim harakati, Ozarbayjonda afshin Bobakning chiqishlari hamda qarmatiy, botiniy, rofiziy, qadariya va shialarharakatlari bilan bog‘liq voqealar o‘z aksini topgan. Muallif bu voqealarni bayon qilib, ularning sabablari va oqibatlarini

ochib berishga harakat qiladi. Muallifning eng asosiy xulosasi shundan iboratki, markaziy davlat yagona bir g‘oyaga sohib bo‘lmasa, har xil g‘oya va fikr tarafdorlari hukumat uchun kurashadilar, bu maqsad esa qon to‘kishlar va zulmu sitamlarga sabab bo‘lishi mumkin. Markaziy hukumat, davlat, shohu hokimlar xalq birligi, davlat istiqloli, qudrati va mudofaasini ta’minlash uchun kuch-g‘ayratlarini sarflashlari zarur, degan g‘oya yetakchi o‘rinda turadi.

“Siyosatnoma” mavzu jihatdan juda keng qamrovli va sermazmun asar. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixonaishlari, qo‘shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg‘oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, xazina va baytulmol, elchilarga munosabat, hatto shohning oilaviy ishlari, uning bazm va majlislari, xos xodim va shaxsiy soqchilari haqida ma’lumot va maslahatlar bor. Asarda moliya va xo‘jalik ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf masalalari ham o‘rin olgan. Ular ba’zan kerakli darajada ochib berilgan bo‘lmasa ham, muayyan tadqiqotlarga ozuqa bo‘la oladi.

Asar hozirgi davr siyosatchilariga, davlat amaldorlari va mansabdor kishilarga, umuman o‘tmish tariximizga qiziquvchi barcha o‘quvchilarga ma’naviy ruh va kuch beradi, deb o‘ylaymiz.

Asarning badiiy qiymati shundaki, uning muallifi o‘z fikrlarini turli hikoyatlar vositasida isbotlab, mustahkamlab boradi. Qarashlari o‘quvchiga tezroq yetishi uchun turli tarixiy shaxslar, har xil qahramonlar va ularning hayoti bilan bog‘liq hikoyatlarni keltiradi. Saljuqiy hukmdorlarga pand-nasihat qilayotgan muallif, asosan, ilgari o‘tgan hukmdorlar bilan bog‘liq voqealarni keltirish bilan ularning ijobiy xususiyatlarini zamonasi shohlariga, o‘tmish hukmdorlariga namuna qilib ko‘rsatishni istaydi. Salbiy jihatlarni tilga olarkan, ularning oqibatlaridan saboq beradi. Asar tilining soddaligi bilan kitobxonni o‘ziga tortadi. Nizomulmulkning bayon uslubidagi publitsistik ruh ham asarni o‘qimishli qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Низом ул-мулк. Сиёсатнома. / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш ва изоҳлар муаллифи Шодмон Воҳидов ва Афтондил Эркинов. Учинчи нашри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 120
2. Bosworth C. Edmund. Towards a Biography of Nizam al-Mulk: Three Sources from Ibn al- ‘Adim in Geoffrey Khan (ed.), *Semitic Studies // Honour of Edward Ullendorf.* – Leiden, 2005.– S.18
3. Xorazmshohlar - Anushteginlar davlatining ma’muriy va saroy boshqaruv tizimi, unvonlar va mansablar. Matyaqubov Elyorbek Amonboyevning magistrlik disertatsiyasi. - Urganch, 2015

N.H. Rahmatilloyev *– Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi tayanch doktoranti*

ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI ARAFASIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI SIYOSIY VAZIYATGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

XIX asrning o‘rtalariga kelib Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda eng asosiysi siyosiy tizimdagi avvaldan mavjud bo‘lgan oqsoqlanish allaqachon davlat hayotida yanada yaqqolroq ko‘rinishda namoyon bo‘lgan edi. Amir Nasrullo o‘z hukmronligi davrida qattiqqo‘lligi evaziga mamlakatda oz bo‘lsa ham tartib-intizomni o‘rnatishga harakat qilgan edi. U amirlikda vafotidan keyin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan toj-taxt uchun beayov kurashni oldini olish maqsadida hattoki yaqin qarindoshlarini ham o‘ldirtiradi. Hukmronligining boshida davlatni boshqarishda uning bir qancha maslahatchilari bo‘lganligi, ammo hukmronligining oxirlariga kelib deyarli yolg‘izlanib qolganligi manbalarda aniq keltirilgan. Amir Nasrullo tomonidan muntazam ravishda markazlashtirilgan siyosatni davlat hududida o‘rnatish maqsadida olib borgan yurishlari esa xalqni tobora holdan toydirib, mamlakatdagi qishloq xo‘jaligini tang ahvolga solib qo‘yadi. Bundan tashqari davlat ichidagi muttasil urushlar oqibatida amirlikka chetdan savdo karvonlarining kirib kelishi kamayadi. Bu esa o‘z navbatida asosiy tirikchiligi karvon yo‘llaridagi savdogarlarga xizmat ko‘rsatish bo‘lgan minglab oddiy aholi va eng muhimi, ko‘plab savdogarlarning turmush tarziga salbiy ta’sir etgan. Bunga qo‘shimcha ravishda aynan mana shu davrda amirlikning chet davlatlar bilan (birinchi navbatda Rossiya imperiyasi)tashqi aloqalari kuchayib boradi. Jumladan Rossiya imperiyasi nomidan Nikolay Ignatyev boshliq maxsus elchilar guruhi Buxoro va Xivaga yuboriladi. Ushbu missiya a’zolariga bir qator topshiriq va ko‘rsatmalar beriladi. Bular:

- Markaziy Osiyoda ayni vaqtda mavjud bo‘lgan vaziyatni to‘liq o‘rganish;
- Rossiya imperiyasining ushbu davlatlardagi mavqeyini yanada oshirish va mustahkamlash;
- o‘lkadagi inglizlar ta’sirini imkon qadar kamaytirish va bu hududga inglizlarning turli yo‘llar bilan suqilib kirishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi orasida kelgusida kechadigan o‘zaro savdo aloqalarida rus savdogarlaridan olinadigan boj hajmini imkon boricha kamaytirilishini ko‘zda tutuvchi shartnomalar imzolanilishiga erishish;
- amirlik hukumatidan Buxoroda rus savdo agentligining faoliyat olib borishi uchun ruxsat olish;
- rus savdo kemalarining Amudaryoda xavfsiz suzishiga kafolat olish va boshqa masalalarni hal etish vazifasi yuklanadi.

Bularning evaziga go‘yoki imperiya hokimiyati tepasida turganlar Buxoro amirligi va Xiva xonligini tashqi kuchlardan himoya etishga va’da berishadi. Ikki o‘rtada tuzilgan xalqqaro savdo shartnomalar esa ko‘pincha noteng bo‘lib, ko‘proq Rossiya manfaatlari yoritilganligi bilan farqlanadi. Bu kabi bitimlar esa amirlikdagi shundog‘am taranglashib kelayotgan siyosiy vaziyatni yanada izdan chiqara boshlaydi. Chunki, shu paytgacha chet el savdogarlaridan olinadigan turli shakldagi boj va soliqlar amirlik iqtisodiyotining barqarorligi uchun hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib kelgan. Bu haqda ushbu davrda yashab ijod etgan tarixchi-olimlardan

aksariyati o‘z asarlarida muhim ma’lumotlarni keltirgan-ki, bular amirlik tarixining keyingi davrlarda yoritilishida yuqori ahamiyat kasb etdi. Shulardan biri Buxoro amirligida tug‘ilib, voyaga yetgan, va hatto hayotining ma’lum davrida amirlikda muhim lavozimlarda ishlab, bir necha bor Rossiyaga sayohat qilib, safar taasurotlarini o‘z kundaliklarida batafsil bayon etgan mashhur serqirra tarixchi olim Ahmad Donish (1827-1897) hisoblanib, uning “Risola yoxud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asari bevosita adib yashagan davrga oid ma’lumotlar bayon etilganligi bilan boshqa shu davr manbalaridan ajralib turadi. Ahmad Donishga ko‘ra 1834-1835-yillardan boshlab, amirlikda din va davlat ishlarida tanazzul davri boshlanadi. Amir askarlar mol-mulkini musodara qilib, ularga sababsiz jarimalar solar edi. Uning qahr-g‘azabidan hayiqqan ulamolar unga xushomad qilar edilar va yengilroq fatvo berar edilar. Qo‘shin askarlari hamda ulamolarning amirga haqiqatni aytishga esa jur’ati yetmas edi. Ulamolar nimaiki amir istagiga qarshi bo‘lsa uni (garchi shariatga ham zid bolishiga qaramasdan) shariatga xilof deb bilar edilar, va aksincha, hukmdorning xohish irodasiga mos kelgan har qanday holatni esa shariatga muvofiq deb fatvo berar edilar. Amirning xohishiga qarshi shariatga muvofiq hukm chiqargan ulamoyu-din peshvolarining taqdiri ayanchli yakunlanar edi. Aksar hollarda ular biroz muddatdan keyin xalq orasida obro‘yi to‘kilib, badnom qilinar edi. Ularning barcha mol-mulki musodara qilinib, davlat hisobiga olinar edi, o‘zlari esa yoki mamlakatdan haydab yuborilar edi, yo qatl qilinardilar. Buning oqibatida davlat hayotida asosiy ta’sir kuchidan biri hisolangan ulamolar va din peshvolari amirga dahldor masalalarda shar’an xato fatvo bera boshladilar. Shu o‘rinda Ahmad Donish isbot sifatida Mirxondning “Ravzat us-safo” asarining yangi bobida keltirilgan holatni keltiradi. Ushbu bobda muftiy Namangoniyning fatvosi keltiriladi va unga ko‘ra ishratparastlik odati halol deb, bachchabozlik esa yomon illat deb hisoblanmasligi keltirilgan. Bu esa davlat hokimiyati tizimida yuz berayotgan holatlarni ochiqdan-ochiq buzib talqin qilish edi. Yoki davlatdagi siyosatning izdan chiqishi holati 1860-yil musulmon kalendari bo‘yicha mezon oyida vafot etgan amir Nasrulloxonning yolg‘iz o‘g‘li Muzaffar davrida ham davom etadi. Taomil bo‘yicha amir vafotidan keyin taxtga uning o‘g‘li kelishi belgilangan edi. Ammo amir Nasrullo bu odatni ham o‘zgartirib, nabiralaridan birini amir qilib tayinlashni vasiyat qilib qoldiradi. Natijada amir Nasrullo vafotidan keyin toju-taxt uchun asosan ikki guruh o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Ulardan birinchisi amirlik taxti otameros bo‘lib kelganligiga va shuning uchun taxtga munosib kishi amir Muzaffar ekanligini ta’kidlasa, ikkinchi guruh amir vasiyatini ado etish shartligiga urg‘u berar edi. Buham amalda markaziy hokimiyat tizimida bo‘linishni keltirib chiqarib, shundog‘am tang siyosiy ahvolni yanada jiddiylashtirayotgan edi. Ancha kurashlardan keyin taxtga sobiq amirning farzandi Karmanadan chaqirtirilib, o‘tqaziladi. Astronomiyadan birmuncha xabari bo‘lgan Ahmad Donish ushbu voqeaga esa astrologik jihatdan tus berishga urinib, bu davrda yulduzlarning joylashuviga tayangan holda ilm-fan taraqqiy etishini, ammo shu bilan birga Mars va Venera sayyoralarining bir-biriga yaqinlashuvi esa mamlakatda iymonning sustlashuvini hamda fuqaro, raiyat, davlatning izzat-obro‘li amaldorlarga zarar yetishini bashorat qiladi. Amir Muzaffar hokimiyatda qat’iy o‘rnashib olganidan keyin otasining so‘nggi vasiyatini amalga oshirishga uringanlarni yoppasiga jazolash siyosatini yurita boshlaydi. Otasi tomonidan taxtga merosxo‘r deb e’lon qilingan shaxs esa zudlik bilan bu voqealardan xabar topib, amirlik hududini tark etish payida bo‘ladi. Yangi amir otasi davrida amaldorlik qilganlarni mamlakatdan haydaydi,

ularning bor budini davlat ixtiyoriga o‘tkazib, hokimiyat tizimiga o‘z yaqinlari va tarafdorlarini tayinlaydi. Natijada qo‘shin askarlariga va oddiy aholiga zulm qilish holatlari kuchaya boshlaydi. Yangi hukmdor Karmanaligida uning xizmatida bo‘lganlar endi amirlikka kelib, yuqori mansablarni egallay boshlaydilar. Ularning aksariyati jamiyatdagi aholi qatlamlari vakillarini har tarafdan ezib, qo‘pol muomala qilar va ularni nazarlariga ilmas edilar. Yuqoridagi holatlar natijasida butun amirlik miqyosida siyosiy vaziyat parokandalikka yuz tutdi. Qo‘shimchasiga, Hisor va Qo‘qon hududlariga yurish qilib, ba’zi hududlarni harbiy kuch vositasida shafqatsizlarcha egallab, aholini katta qismini qatl etishga buyuradi. Siyosiy vaziyatning izdan chiqishiga yana bir jiddiy omil Ahmad Donish fikricha bu – askarlarga nisbatan yo‘l qo‘yilgan adolatsizlik bo‘lgan. Ya’ni, odatda bir askar uchun berilib kelingan oylik maosh endilikda 3 yoki 4 askarga bo‘lib berila boshlandi yoki avvallari 1 askar uchun mo‘ljallangan tanho yerlari amir Muzaffar davriga kelib ikkita askarga tarqatilishi belgilandi. Ko‘p jihatdan bunga yana bir sabab davlat qo‘shbegisi, ya’ni, bosh vaziri Muhammadshohning davlatni boshqarishda uquvsizligi edi. Bu shaxs muallifning ta’kidlashicha, ziyraklik, qat’iyatlilik va tadbir bilan fikr yuritishdan yiroq kishi bo‘lgan. Mamlakat amaldorlarining tepasida turgan mansabdor shunday bo‘lsa, bunday davlatning holiga voy deydi. Rossiya bosqiniga qadar bu vaziyat battar yomonlashsa yomonlashdi-ki, also yaxshilanmadi. Qo‘shin holati ham kun sayin tanglashib bordi. Askarlarga har tomonlama jabr zulm kuchayib, sarkardalar borgan sari bu munosabatlar natijasida g‘ayratsiz bo‘lib, askarlarning jangovar kayfiyati batamom tushib ketadi. Ular davlat tepasida turgan past zotli kimsalarga bo‘ysunishni istamay xizmatdan keta boshlaydi. Rossiya imperiyasi bosqini arafasida mamlakatda hukm surgan bunday siyosiy tanglik shubhasiz amirlikning yaqinlashib kelayotgan ayovsiz urushlarda g‘alaba qozonish imkoniyatini tushirib yuboradi. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiyning “Tarixi jahonnamoyi” asarida esa Rossiyaning Buxoro amirligini zabt etishidan oldingi tarixi bayon etilgan. Ya’ni, dushman Qo‘qon xonligiga yurish qilayotgan bir davrda amir ruslarga qarshi qo‘shin tortib Markaziy Osiyoni ruslar zulmidan ozod bo‘lishiga va bu hududga kelgusida bo‘lishi mumkin bo‘lgan hujumlarni oldini olish o‘rniga qipchoqlar va qirg‘izlar amir Muzaffar qo‘llovida Qo‘qonda Xudoyorxonni xon qilib ko‘taradilar. Xudoyor esa xonlik martabasiga erishgach, xon bo‘lishiga ko‘p yordami tekkan Bekmuhammad qipchoqni mingboshilik lavozimiga, Mirzo Ahmadni esa dasturxonchilik amali bilan siylaydi. Shu tariqa Buxoro amirining uzoqni ko‘ra olmasdan chiqargan qarorlari nafaqat o‘z davlatidagi siyosiy vaziyatni jarlikka qulatibgina qolmay, Qo‘qon va boshqa hududlarda hukm surayotgan vaziyatni yomonlashtirdi. Bu voqealar 1865-1866-yillarda bo‘lib o‘tdi. Achinarlisi, oldinda bu 3 ta dunyodan deyarli bexabar davlatlarni yirik bosqinchiga uzoq yillar davom etadigan qaramlik davri kutib turar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Donish. “Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya” (Risola yoxud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi). Tarjima, izohlar va kirish so‘z muallifi Q.Yo‘ldoshev.T. 2014.

2. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy “ Tarixi jahonnamoyi” , Toshkent. 2012.

J.M. Axmedov *– O‘zbekiston milliy universiteti magistranti*

XALQ DIPLOMATIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATIGA OID YONDASHUVLAR

Zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasida davlat va nodavlat vositalardan foydalangan holda mamlakatning chet elda ijobiy qiyofasini shakllantirishdagi ahamiyati, xorijiy mamlakatlar jamoatchiligi vakillari bilan samarali muloqotni amalga oshirish orqali tashqi siyosiy manfaatlarni amalga oshirishda qulay muhit yaratish imkoniyatlari nuqtai nazaridan “xalq diplomatiyasi” (public diplomacy) tushunchasi va uning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish ommalashib bormoqda.

Mazkur atama 1965-yilda salbiy mazmun-mohiyat kasb etgan “propaganda” *(propaganda - bu oldindan belgilangan yo‘nalishda, qabul qiluvchining ongli ishtirokisiz uning fikrini yo‘naltirish bo‘lib, kerakli vaqtda u ko‘rsatma sifatida ishontirish kuchi bilan ijobiy harakatni ta’minlashga intiladi)*[32] tushunchasi bilan ifodalanuvchi axborot faoliyatidan uzoqlashish maqsadida Tuftc universitetining Fletcher huquq va diplomatiya maktabi dekani Edmund Gullion *1913-1998-yy.)* tomonidan ilk marta o‘zining zamonaviy ma’nosida ishlatilgan.[33]

E.Gullion konsepsiyasiga ko‘ra, xalq diplomatiyasi (keyingi o‘rinlarda XD) *“an’anaviy diplomatiya doirasidan tashqari xalqaro munosabatlarni; hukumatlarning boshqa davlatlarda jamoatchilik fikrini shakllantirishni; xususiy (nodavlat) guruhlar va manfaatlarning boshqa davlat bilan o‘zaro aloqadorligini; tashqi faoliyat to‘g‘risida axborotlashtirish va uning siyosatga ta’sirini; diplomatlar va xorijiy muxbirlar kabi kommunikatsiya bilan shug‘ullanuvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqani; hamda madaniyatlararo muloqot jarayonini”*[34] o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, 1965-yilda E.Gullion “The Edward R. Murrow Center for Global Diplomacy” *(Edward R. Murrow - 1908-1965-yy., AQShlik tele-radio jurnalisti)* Xalq diplomatiyasi markaziga asos soldi. Markaz chop etgan ilk nashrlardan birida *“XD deganda biz hukumatlar, jamoat birlashmalari va alohida shaxslarning boshqa xalqlar, hukumatlarning nuqtai nazari va qarashlariga ta’sir ko‘rsatadigan darajadagi vositalar va tashqi siyosiy qarorlarni tushunamiz”*[35] deb ta’riflanadi.

XDni mamlakatning “yumshoq kuchi” ni kengaytirish va kuchaytirish vositasi sifatida AQSH Garvard universiteti professori J.Nye *(1937-y.t.)* o‘rgangan. U “yumshoq kuch” (keying o‘rinlarda YK) konsepsiyasi *“tashqi siyosiy maqsadlarga nafaqat harbiy yoki iqtisodiy bosim natijasida balki, xorijiy jamoatchilikni ma’lum davlat yoki*

[32] British Government’s secret Political Warfare Executive. The Meaning, Techniques and Methods of Political Warfare. 1942. P. 12 // URL: https://www.psywar.org/psywar/reproductions/MeanTechMethod.pdf (accessed: 14/12/2024)

[33] The USC Center on Public Diplomacy at the Annenberg School. A brief history of Public diplomacy // URL: https://uscpublicdiplomacy.org/page/what-is-pd (accessed: 14/12/2024); Nicholas J. Cull. Public Diplomacy Before Gullion: The Evolution of a Phrase. USC Center on Public Diplomacy. University of Southern California. April 18, 2008. // URL: https://uscpublicdiplomacy.org/blog/public-diplomacy-gullion-evolution-phrase (accessed: 14/12/2024)

[34] Charles Wolf, Jr. and Brian Rosen. Public Diplomacy: How to Think About and Improve It. RAND Corporation, 2004, P. 3.; Gyorgy Szondi. “Public Diplomacy and Nation Branding: Conceptual Similarities and Differences. Netherlands Institute of International Relations ‘Clingendael’, 2008. P. 2.

[35] Yurakdan yurakka intiluvchi diplomatiya. Xalq diplomatiyasining tarixi. O‘zbekistonda SHHT Xalq diplomatiya markazi, T.: – 2022-y. 56-b.

millatning qadariyatlariga inoshtirish orqali ham erishish mumkin"[36] ekanligini yoqlaydi.

J.Nye tadqiqotlarida ko‘ra, XD mamlakat ijobiy qiyofasini yoyish bilan birga, davlat siyosati uchun qulay muhit yaratuvchi uzoq muddatli munosabatlar qurishni ham nazarda tutadi. XD bosimini haddan ziyod kuchaytirish esa ishonchsizlik uyg‘otib, bu orqali o‘ziga jalb qilmaydigan oddiygina *"propaganda"* yoki *jamoatchilik bilan aloqa kampaniyasiga* aylanib qolishi mumkinligini ta’kidlaydi.

XX-asrning oxirlariga kelib, xalqaro munosabatlar nazariyasi tadqiqotchilari tashqi siyosatda *"kuch"* tushunchasi va uning turli ko‘rinishlarini o‘z tadqiqotlari obyekti sifatida o‘rgandi. Xususan, zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasiga “qattiq kuch” *(hard power)*, YK *(soft power)* va “aqilli kuch” *(smart power)* kabi atamalar kirib keldi. Ular orasida nisbatan keng tarqalgan YK atamasi tadqiqotchilar diqqatini tortdi. 1990-yilda J.Nye ishlab chiqqan YK tushunchasi *"insonlarni majburan emas balki, jalb qilish orqali o‘zingiz istagan natijalarni ular ham istashiga erishish"*[37] konsepsiyasiga asoslanadi.

XD va YK o‘zaro bog‘liq, nazariy-konstruktiv mohiyati bir-biriga yaqin tushunchalar. Ammo atamalarning o‘zaro yaqinligi yoki bog‘liqligi ularni sinonim deb ta’riflashga asos bo‘lmaydi va bunday qarash atamalarni mazmunini izohlashda chalkashliklarni keltirib chiqaradi. ***Tadqiqotchi nazarida, YUK bu - xalqaro munosabatlardagi nazariy model bo‘lsa, XD mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining amaliy majmuasi hisoblanadi.***

XDni amalga oshirishda doimiy muloqotni ta’minlash zarurligi va xorijiy jamoatchilik bilan ishlashda uchta asosiy yo‘nalishi Buyuk Britaniyalik XD maktabi vakili Mark Leonard (1974-y.t.) tadqiqotlarida kuzatiladi.

M.Leonard XDning birinchi va bevosita asosiy yo‘nalish sifatida *"davlat ichki va tashqi siyosati mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida xorijiy auditoriya bilan **kunlik kommunikatsiya**"*, ikkinchi yo‘nalishi – *"reklama yoki marketing kampaniyalari kabi o‘tkaziladigan **strategik kommunikatsiya**"* va uchinchi yo‘nalishi – *"xorijiy davlatning muhim shaxslari bilan stipendiyalar, qo‘shma ta’lim dasturlari, seminar, konferetsiya va media tarmoqlar orqali muloqot qilish orqali **uzoq muddatli munosabatlarni***[38] rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

XDni amalga oshirish sohalari va vositalari rivojlanishi barobarida uning atamaviy apparati ham yangi tushunchalar bilan boyib kelmoqda. Bugungi kunda, ko‘plab taqiqotchilar e’tibor markazidagi “Yangi xalq diplomatiyasi” (the New Public Diplomacy) tushunchasi anashular jumlasidandir.

Yangi xalq diplomtiyasi (keying o‘rinlarda YXD) atamasi AQSH tadqiqotchisi J.Melissen 2005-yilda tadqiq etadi. Uning ta’kidlashicha,*"keng tarixiy nuqtai nazardan, tashqi ishlar vazirliklari va elchixonalarning xorijdagi fuqarolik jamiyati guruhlari va alohida shaxslar bilan o‘zaro ochiq aloqasi, u xoh ijobiy yoki salbiy bo‘lsin diplomatiyaning evolyutsiyasi yangi bosqichidan – YXDga qadam qo‘yganidan dalolat beradi"*[39].

[36] Joseph S. Nye. Soft Power and Public Diplomacy Revisited, The Hague Journal of Diplomacy 14, 2019. P. 9.
[37] Joseph S. Nye. Soft Power. Foreign Policy. Twentieth Anniversary Autumn, No. 80, 1990. P. 167.
[38] Mark Leonard (with Catherine Stead and Conrad Smewing): Public Diplomacy, The Foreign Policy Centre, 2002. P. 8-21.
[39] Jan Melissen. The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations. Palgrave macmillan. New York. 2005. P. 11-16.

Nicholas J. Cull. (1964-y.t.) XDni *"hukumatlar va nodavlat subyektlarning muloqot, madaniy almashinuv va axborot almashish orqali boshqa mamlakatlardagi jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar"*[40] deb ta'riflab, XD va YXDning o'ziga xos xususiyatlari, vositalarini quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

T/r	**Dominant xususiyatlar**	**Xalq diplomatiyasi**	**Yangi xalq diplomatiyasi**
1.	Xalqaro aktorni tasniflash	Davlat	Davlat va nodavlat
2.	Texnologik muhit	Qisqa to'lqinli radio, Bosma gazetalar, Statsionar telefonlar	Sun'iy yo'ldosh, Internet, Jonli xabarlar, Mobil telefonlar
3.	Media muhit	Mahalliy va xalqaro xabarlar o'rtasidagi chegaraning yuvilishi	Mahalliy va xalqaro xabarlar sohasining xiralashuvi
4.	Yondashuv manbaalari	Siyosiy targ'ibot va propaganda nazariyasining o'sib borishi	Korporativ brending va tarmoq nazariyasi o'sib borishi
5.	Teminologiya	"Xalqaro imij" "Nufuz"	"Yumshoq kuch" "Milliy brend"
6.	Rolning tuzilmasi	Yuqoridan pastga, aktorning xarijiy aholiga	Gorizontal, aktorning ko'magi bilan
7.	Rolning tabiati	Maqsadli xabarlar	Munosabat o'rnatish
8.	Umumiy maqsad	Xalqaro muhitni boshqarish	Xalqaro muhitni boshqarish

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotchilar XD fenomenini o'rganishda uni mamlakatning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalari majmuini anglatuvchi "madaniy diplomatiya" (keyingi o'rinlarda MD) yoki hali xalqaro munosbatlar nazariyasi va amaliyotida uchramagan "ommaviy diplomatiya"[41] (keyingi o'rinlarda OD) tushunchalari bilan chalkashtirish holatlari mavjud.

MD rasman 1959-yilda AQSH davlat kotibining xalqaro ta'lim va madaniy munosabatlarni muvafiqlashtirish bo'yicha maxsus yordamchisi Robert H. Thayer tomonidan birichi marta ishlatilgan. U o'z chiqishida*"bugun o'z tashqi siyosatimizni ildam amalga oshirishda madaniy diplomatiyaga egamiz va mening nazarimda, bu xalqlar o'rtasida to'liq anglashinuvga erishishning, o'z navbatida, hukumatlarni o'zaro anglashinuvga majburlavchi eng muhim vositasi"*[42] deb ta'kidlaydi.

[40] Nicholas J. Cull. Public Diplomacy: Lessons from the Past. USC Center on Public Diplomacy. University of Southern California, 2009. P. 12.

[41] Sayfullayev D.B. O'zbekiston Respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi: Dok. diss. avto. – T.: TDSHI. 2020 y. 18-b.; Ergashev A. K. "Ommaviy diplomatiya" tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari. Общestvennыe nauki v sovremennom mire: teoreticheskiye i prakticheskiye issledovaniya, 1(18), 2022 y. 133-136 b. // URL: https://in-academy.uz/index.php/zdif/article/view/2776 (murojaat sanasi: 15.02.2025 y.)

[42] Lauren Aitken. Seven Myths About Cultural Diplomacy: Bureau of Educational and Cultural Affairs, The U.S. Department of State, February 27, 2017. URL: https://2017-2021.state.gov/seven-myths-about-cultural-diplomacy/index.html (accessed: 15/02/2025)

Shu yili AQSH Davlat departamenti rasman MDga *“turli mamlakatlar xalqalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va mustahkam aloqalar”*[43] deb ta’rif beradi. Shundan bir yil o‘tib, 1960-yilda Princeton universiteti (AQSH) professori Frederick Charles Barghoorn (1911-1991-yy.) MDni – *“propaganda maqsadalarida madaniy materiallar va kadrlar orqali manipulyatsiya”*[44] sifatida ta’riflaydi. Keyinchalik MD atamasi neytral xususiyat kasb etib, *“o‘zaro anglashinuvga yordam berish maqsadida davlatlar va ularning xalqlari o‘rtasida g‘oyalar, ma’lumotlar, san’at va boshqa madaniyat sohalaridagi almashinuv dasturlari”*[45]ni qamrab olishi belgilandi.

Ta’kidlash zururki, XD va MD ko‘pincha bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Ammo ularning faoliyat sohalari, ta’sir ko‘rsatish usullari turlicha. Agar siyosat XDning sohasi bo‘lisa, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, jamoatchilik chiqishlari, axborot kampaniyalari va almashinuv dasturlari esa uning ta’sir ko‘rsatish vositalari hisoblanadi. Yoki madaniyat MDning sohasi bo‘lsa, ko‘rgazmalar, konsert dasturlari, festivallar, til kurslari fan va ta’lim sohalaridagi hamkorlik kabi madaniy tadbirlar uning ta’sir vositalari hisoblanadi.

Xalqaro munosabatlar nazariyasida XDni o‘rgangan ayrim tadqiqotchilar ishlarida ishlatilgan “ommaviy diplomatiya” deb yuritilayotgan hodisaning agar “diplomatiya” atamasini inobatga olinmaganda XD bilan hech qanday umumiy jihatlari mavjud emas.

birinchidan, xalqaro munosabatlar nazariyasida XD ma’lum davlat, xalqaro tashkilot doirasi yoki geografik hudud bilan chegaralanuvchi, “maqsadli auditoriyaga nisbatan amalga oshiriluvchi”[46] hodisa bo‘lib, u xalqaro munosabatlarning har bir subyektiga alohida yondashuvni talab qiladi va barcha uchun umumiy bo‘la olmaydi (OAVlari kabi);

ikkinchidan, “ommaviy diplomatiyasi” tushunchasi ingliz tilidagi “public diplomacy” atamasi asosida shakllangan deb hisoblanayotgan ekan unda “ommaviy” so‘zini ingliz tiliga o‘girish orqali butunlay boshqa ma’no kasb etuvchi “mass”[47] atamasi paydo bo‘lishini kuzatish mumkin.

Ta’kidlash zarurki, ko‘plab xorijiy davlatlarning (AQSh, Buyuk Britaniy, Xitoy, Fransiya) ilmiy va siyosiy tajribasidan kelib chiqib, xalqaro amoliyotda keng qo‘llanib kelinayotgan “public diplomacy” tushunchasininig O‘zbekiston Republikasida ilmiy-akademik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy sohalardagi talqinini “xalq diplomatiyasi” deb qabul qilish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro munosabatlar nazariyasida XD tushunchasi keng ma’noda hukumat tomonidan homiylik qilinadigan harakatlarni qamrab olib, hukumatning strategik harakatlarini chet el jamoatchiligi ko‘llab-quvvatlashi uchun u bilan bevosita aloqa o‘rnatish, muloqot qilish, axborotlashtirish orqali unga ta’sir qilishga yo‘naltirilgan.

---

[43] O‘sha joydan.

[44] Barghoorn Frederick Charles. The Soviet cultural offensive the role of cultural diplomacy in Soviet foreign policy: Princeton University Press, 1960. P.10.

[45] Cummings, Milton C.: Cultural Diplomacy and The United States Government: A Survey. Americans for the Arts (formerly Center for Arts and Culture), June 26, 2009. P. 2. // URL: https://www.americansforthearts.org/by-program/reports-and-data/legislation-policy/naappd/cultural-diplomacy-and-the-united-states-government-a-survey (accessed: 12/02/2025)

[46] Nicholas J. Cull. Public Diplomacy: Lessons from the Past. USC Center on Public Diplomacy. University of Southern California, 2009. P. 12.

[47] Butayev Sh.: “mass” so‘zi – umum, ommaviy, omma. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at, O‘RJTU. T.: “Bayoz”, 2013-y.

Tadqiqotchi nazarida, XD davlatning ko‘magi asosida hukumat va nodavlat guruh (shaxslar) tomonidan xorijiy davlatlar hukumatlari, jamoatchiligi fikri va munosabatini o‘zgartirish, ularning tashqi siyosiy sohadagi qarorlarni qabul qilishiga ta’sir o‘tkazishga qaratilgan faoliyat jarayonini qamrab oladi.

Xalqaro tartibotning o‘zgarishi natijasida davlatlar XDning amaliyoti ham o‘zgarmoqda. Bugun soha mutaxassislari OAV, ta’lim dasturlari, “birodar” shaharlar, nodavlat institutlardan tortib, shaxslar, internet, ijtimoiy tarmoqlar kabi uning yangi vosita va usullaridan foydalanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. British Government’s secret Political Warfare Executive. The Meaning, Techniques and Methods of Political Warfare. 1942. – P.12
2. The USC Center on Public Diplomacy at the Annenberg School. A brief history of Public diplomacy // https://uscpublicdiplomacy.org/page/what-is-pd
3. Nicholas J. Cull. Public Diplomacy Before Gullion: The Evolution of a Phrase. USC Center on Public Diplomacy. University of Southern California. 2008. // https://uscpublicdiplomacy.org/blog/public-diplomacy-gullion-evolution-phrase
4. Charles Wolf, Jr. and Brian Rosen. Public Diplomacy: How to Think About and Improve It. RAND Corporation, 2004. – P. 3.
5. Yurakdan yurakka intiluvchi diplomatiya. Xalq diplomatiyasining tarixi. O‘zbekistonda SHHT Xalq diplomatiya markazi. – T.: 2022. – 56. b.
6. Joseph S. Nye. Soft Power and Public Diplomacy Revisited, The Hague Journal of Diplomacy 14, 2019. P. 9.
7. Mark Leonard (with Catherine Stead and Conrad Smewing): Public Diplomacy, The Foreign Policy Centre, 2002. – P. 8-21.
8. Jan Melissen. The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations. Palgrave macmillan. New York. 2005. – P. 11-16.
9. Nicholas J. Cull. Public Diplomacy: Lessons from the Past. USC Center on Public Diplomacy. University of Southern California, 2009. – P. 12.
10. Sayfullayev D.B. O‘zbekiston Respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi: Dok. diss. avtoref. – T.: TDSHI. 2020 y. 18-b.;
11. Ergashev A. K. “Ommaviy diplomatiya” tushunchasi va uning o‘ziga xos jihatlari. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(18), 2022. – 133-136 b.
12. Lauren Aitken. Seven Myths About Cultural Diplomacy: Bureau of Educational and Cultural Affairs, The U.S. Department of State, 2017. https://2017-2021.state.gov/seven-myths-about-cultural-diplomacy/index.html
13. Barghoorn Frederick Charles. The Soviet cultural offensive the role of cultural diplomacy in Soviet foreign policy: Princeton University Press, 1960. – P. 10.
14. Cummings, Milton C.: Cultural Diplomacy and The United States Government: A Survey. Americans for the Arts, 2009. – P. 2. https://www.americansforthearts.org/by-program/reports-and-data/legislation-policy/naappd/cultural-diplomacy-and-the-united-states-government-a-survey
15. Butayev Sh.: “mass” so‘zi – umum, ommaviy, omma. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at, O‘RJTU. – T.: “Bayoz”, 2013. – 58 b.

О.Алиева *– Халқаро молиявий технологиялар институти талабаси (ISFT - School of Finance Technology and Science International instituti)*

МАКИАВЕЛЛИ ВА МАКИАВЕЛЛИЗМ

Николло Макиавелли сиёсат ва адабиёт оламида ўчмас из қолдирган ўз даврининг энг кучли сиёсатчиларидан бири ҳисобланади. У 1469 йилда Флоренцияда ўрта ҳол оилада дунёга келади. Унинг отаси Бернардо ди Николло ҳуқуқшунос эди. Ўғли Макиавеллининг илмли бўлишига катта таъсир кўрсатган. Онаси Бартоломеа ҳақида маълумотлар кам. Бироқ унинг жудаям оилапарвар бўлганлиги, диний қадриятларни ҳурмат қилишг, фарзандини ҳам шу руҳда тарбиялаганлиги ҳақида маълумотлар бор.

Макиавеллининг оиласи ўрта ҳол бўлса-да уларда илм олишга иштиёқ катта бўлган. Макиавеллининг оилавий турмуш тарзи ва ҳолати унинг сиёсий фаолиятига бир мунча таъсир қилган. Қийинчиликларни кўп кўриб, турмуш турли етишмовчиликларни бошдан ўтказган Макиавелли ўз ҳаётий тажрибаларини сиёсатда қўллаган десак, шубҳасиз бўлади. Буларга мисол қилиб, отасининг илмий қизиқишлари унинг сиёсий реализмини ва дунёқарашини ўзгартирган десак адашмаган бўламиз. Ёки бўлмаса, оиланинг молиявий ҳолати етишмовчиликда ўтгани туфайли Макиавелли жуда меҳнатсевар бўлган, сиёсатда куч ва ресурсларни қадрлашига, улардан унумли фойдаланиш тамойилларини қунт билан ўрганишга ижобий таъсир қилган. Макиавелли оиласи унинг илмий ва тарбиявий ҳолатига қаттиқ таъсир қилган бўлишига қарамасдан, у сиёсатшунослик оламида мустақил фикрловчи ва сиёсий стратег сифатида танилган.

Макиавелли мактаб йилларида лотин тилини анча чуқур ўрганган ва бу борада ёшлигидан тўплаган билимлари кейинчалик давлатлар билан тузиладиган шартномаларда ва ёзувчилик фаолиятида муҳим роль ўйнаган. У римлик тарихчи Титус Ливий ва юнон файласуфи Платон ҳамда Арастунинг асарларини ўрганиб, тарих ва сиёсий билимларини ривожлантирган.

Макиавеллининг ёшлик йилларида Медичи сулоласи Флоренциядан четлатилган эди ва шаҳар республика бошқарувида бўлган. Унинг давлат бошқаруви ва кенг миқёсли сиёсий жараёнлар тизимига кириб боришига 1498 йилда Савонарола ҳукмронлиги тугаб, сиёсий бўшлиқ юзага келгани жуда қўл келади. Шундай бир вазиятда 29 ёшли Макиавелли Флоренция Республикасининг Иккинчи Канцеляриясида котиб лавозимига тайинланади. Ушбу лавозимда Макиавелли ташқи сиёсат, ҳарбий масалалар ва дипломатик ёзишмаларни бошқаради. Макиавелли 14 йил давомида Флоренциянинг тажрибали дипломатларидан бири ҳисобланган. У бир неча йирик давлатларга элчи сифатида юборилган.

Флоренция ва франция қироллиги ўртасидаги дипломатик муносабатларда Францияниг Италиядаги мақсадларини ўрганиш ва Флоренция учун ҳарбий ва сиёсий ёрдамни кафолатлатлаш зарур бўлган. Бу икки давлат ўртасида доимий сиёсий ва иқтисодий алоқалар сақланиб келган. Макиавелли бу борада кенг миқёсли ишларни амалга оширади ва моҳир

дипломат сифатидаги ноёб қобилиятини намоён этади. Жумладан, қирол **ЛУИ** 12 билан самарали музокаралар олиб боради ва кўзлаган натижаларга эришади.

1502-1503 йилларда Макиавелли Рим папаси Александр 4 ва унинг ўгли Сэсаре Боргиа билан мулоқотда бўлади. Мулоқотдан асосий мақсад Сэсаро Боргиа орқали Италияда амалга ошираётган ҳарбий экспанциялар ва сиёсий альянслар ҳақида маълумотга эга бўлиш бўлган. Шу ўринда айтиб ўтиш керакки, Сэсаро Боргианинг ҳокимияни эгаллаш ва уни сақлаб қолиш бўйича қилган ишлари Макиавеллининг сиёсий қарашларига ўз таъсирини ўтказган. Макиавелли Сэсаре Боргиани шафқатсиз ва стратегик ақлини сиёсатнинг идеал намунаси сифатида баҳолайди. Шунингдек, у Рим Папаси Юлий-2 билан ҳам мулоқотда бўлган. Ушбу мулоқотдан кўзланган мақсад Рим Папалиги Флоренция учун сиёсий хавф туғдириши мумкин бўлган ва шу сабабдан бу мулоқотлар куч мувозанатини сақлаш учун муҳим бўлган. Музокаралар ва бир-бирини тушуниш орқали барқарор тинчликка эришилган. Макиавелли 1507 йилда Германияга ташриф буюради ва ташрифи давомида император Максимиллиан-1 билан учрашади. Учрашувдан кўзланган мақсад Максимиллианнинг Италияга муносабатини билиш ҳамда Флоренциянинг Германия билан ҳарбий ва сиёсий келишувларга эришиш имкониятларини ўрганиш бўлган. Кузатувлари натижасида Макиавелли Германия сиёсий тизимининг тарқоқ ҳолатдалигини ва кучли марказлашган ҳокимият йўқлигини қайд этади. Бундан ташқари у Максимиллианни сиёсий тажриба жиҳатдан заиф, лидер сифатида ўз концепциясига эга бўлмаган ва ўз мақсадларига етишда ноаниқ шахс сифатида кашф этади.

Макиавелли Италиядаги бошқа бир неча давлатлар билан ҳам дипломатик алоқалар олиб боради. Унинг ушбу давомли муносабатлардан асосий мақсад минтақада Флоренция манфаатларини ҳимоя қилиш эди. Ўша даврда Венеция кучли денгиз савдоси ва ҳарбий флотига эга бўлган шаҳар сифатида танилган эди. Флоренция учун катта иқтисодий ва ҳарбий салоҳиятга эга бўлган Венециянинг Италиядаги баланд мавқеи ва нуфузи керак бўлган. У билан мустаҳкам алоқа ўртатиш ҳар томонлама муҳим аҳамият касб этган.

Милан билан бўлган дипломатик муносабат ало0ҳида долзарблик касб этган. Милан Флоранцияга рақиб бўлган ва шу туфайли ундаги сиёсий ўзгаришлар Флоренция учун муҳим аҳамиятга эга бўлган. 1500 йилларнинг бошларида Макиавелли флоренция армиясини кучайтириш мақсадида ҳарбий ислоҳотлар таклиф этган. У доимий армия ўрнига маҳллий аҳолидан йиғилган армияни афзал кўрган. Бу қарашлари ўзининг «Уруш санъати» асарида батафсилроқ ёритилган.

1512 йилда Медичи сулоласи Флоренцияга қайтади ва ҳокимиятни қайтадан қўлган олади. Шундан сўнг Макиавелли республика бошқаруви муҳим амалдори сифатида қораланади ва қамоққа олинади. Чунки, Макиавелли **Медичи** сулоласига қарши бўлган гуруҳлар билан алоқада бўлган. 1513 йилда **Маэдичи** оиласига бўлган қарши фитнада иштирок этган деб айбланади ва ушбу фитнада иштирокчи сифатида гумонланиб қамоққа олинади. Макиавелли 1513 йилнинг бошида қамоққа ташланади ва Рим папаси Лео Х томонидан [Медичи оиласидан] унинг кўрсатмаси билан қийноққа

солинади. Қийноқ усули қуйидагича: «страппадо» - бунда одамни арқон билан баландга кўтариб, кейин пастга туширилади. Ҳеч қандай асосий ва етарли сабаб бўлмагач, Макиавелли фитнада иштирок этмаган деб топилади ва озод қилинади. Бироқ, озод қилинган бўлсада, Макиавелли сиёсий фаолиятдан бутунлай четлаштирилади ва Флоренция ташқарисидаги Сан Сассиано қишлоғига сургун қилинади. У ўзининг оилавий мулкида яшашга мажбур бўлади ва давлат хизматига қайтиш имконидан маҳрум бўлади. Макиавелли ўз оиласи билан қишлоқ шароитида яшай бошлайди. У бир нечта кичик ишлаб чиқариш ишларидан даромад олишга ҳаракат қилади. Бироқ, бу унинг иқтисодий жиҳатдан ўсишига ёрдам бермайди.

Макиавелли давлат хизматидан четлатилгандан сўнг ёзган асарлари унинг сиёсий жиҳатдан ўсишига катта ёрдам беради ва сиёсий фалсафасини ва қарашларини янада ривожлантиради. 1513 йилда ўзининг ”Принсипе-2” асарини ёзади. Ушбу асар Медичи сулоласига маслаҳатлар бериш учун ёзилган эди. Ушбу асар Макиавеллининг энг машхур асари ҳисобланиб, унда сиёсатни прагматик, амалий ва реалистит томонларини ёритилган. У ҳокимиятни сақлаш учун барча усулларни ишлатиш кераклиги, агар зарур бўлса, шафқатсиз усулларни ҳам қўллаш ҳақида ўз асарида келтириб ўтган.

Макиавелли «Ҳукмдор» асарини Медиси сулоласининг ҳукмдори- Лорензо де Медисига тавсия қилади. Макиавелли кейинчалик ҳам Медиси оиласига хизмат қилиш учун қайта тайинланиш ниятида бўлади, бироқ бу натижасиз уриниш бўлади. Натижасиз ҳаракатларга қарамасдан, Макиавелли Медиси оиласига бошқа сиёсий лавозимларда яқин бўлишга ҳаракат қилади. У ўзининг сиёсий фаолиятига қайтишга жуда кўп умид қилган бўлсада, имкониятни бутунлай йўқотган эди.

1527 йилларга келиб, Макиавелли жуда оғир касал бўлади ва соғлиги тобора оғирлашади Асосланмаган маълумотларга кўра ва тарихий манбаларда қандай касалдан вафот этгани ҳақида жиддий асослар йўқлиги сабабли таҳминларга кўра, ўша даврдаги санитария ва соғлиқни сақлаш яхши риволанмагани ва унинг ўз лавозимига қайтолмаганлигидан ҳосил бўлган стресс – руҳий зарба туфайли вафот этади. Макиавелли 1527 йил 22 июнь куни 58 ёшида вафот этади. Унинг вафоти Медичи сулоласи ҳокимият тепасига қайтган вақтларга тўғри келади ва Макиавелли яна бир бор таҳқирланади. (**Қандай қилиб таҳқирланади. Иложи бўлса очиб бериш керак)**

Макиавелли яшаб ўтган умри давомида ўзидан кераклича ном қолдира олганига шубха йўқ. Унинг давлат бошқарувига, сиёсатга оид фикрлари ҳозирги замон жаҳон сиёсати ва дипломатиясида ҳам кенг қўлланилади. Сиёсат олами ва дипломатлар орасида қўлланиладиган ҳамда мақсадга эришиш учун ҳар қандай усулни оқлайдиган «Макиавелизм» тушунчаси бор.
Бу тушунча Николло Макиавеллининг ”\Ҳукмдор”асаридан келиб чиққан. Тушунчанинг ўз асосий тамойиллари ва мазмуни бор. Улар қуйидагича: Маънавий чекловлардан воз кечиш - бунда ҳокимият бошқаруви ва уни ушлаб туришда ҳар қандай ахлоқий тамойиллардан чекинишга рухсат берилади. Прагматизм - давлат ва халқ фойдаси учун энг маъқул ва фойдали стратегияни танлаш ва ундан фойдаланиш. Реалполитик - сиёсат оламида реалликни кўпроқ қўллаш ва идеализмга таянмаслик. Қоидалар эгилувчанлиги - сиёсий муҳитдан келиб чиққан ҳолда энг маъқул қарорни қабул қилиш.

Макиавелизмнинг асосий хусусиятлари ҳокимияни қўлга киритиш ва уни турли стратегиялар билан сақлаб қолиш. Бунда ҳокимият қўлга киритилгач, уни қўлдан бой берилмаслиги учун турли стратегиялардан фойдаланиш кераклиги ҳақидаги фикр илгари сурилади. Стратегия турларига мисол қилиб, қўрқув ва ҳурматни келтирсак бўлади. Макиавелизм тушунчаси ҳокимият бошқарувида одамларда қўрқув ва ҳурмат ҳиссини уйғотишни тушунтиради. ”Ҳукмдор” асарида «Агар қўлга киритилган ҳокимият одамларини қаттиқроқ ушласак ва уларга эркинлик яратсак, улар давлат ичидан бизга қарши фитна уюштириши ва ёки давлатда қўзғолон бошлаши мумкин» деб таъкидлаб ўтади. Шу билан бирга, давлат бошқарувида баъзи ахлоқий қоидаларни четлаб ўтиш ҳақида ҳам айтилади. Макиавелизм тушунчаси ҳозирги замон дипломатиясида ҳам сақланиб қолган. Сиёсатда ҳокимият бошқарувида манипуляциядан фойдаланиш ва куч ишлатиш стратегиялари. Макиавелли кўпинча ахлоқсиз манипулист ва золимлик каби тушунчалар билан боғланади. Лекин, унинг реалистик қарашлари сиёсий фалсафага катта таъсир кўрсатган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Макиавелли ва макиавелизм ғояларига қарашлар ўз вақтида ҳам, ҳозирги замонда ҳам турлича. Бироқ, улар бир-бирини қанчалик инкор этмасин, сиёсий жараёнларда, давлат бошқаруви ва халқаро муносабатларда кўп жиҳатлари билан қўлланилмоқда. Жаҳон сиёсий фанларида Макиавелли ғояларининг ўз ўрни, фундаменталь қарашлари ва мактаби бор.

Sh.A. Akbarov - *O’zbekiston Milliy universiteti talabasi*.

SIYOSAT NAZARIYASI VA FALSAFASINING RIVOJLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY METODOLOGIYALARI

Siyosat nazariyasi va falsafasi, siyosatshunoslik tarixi va metodologiyasi siyosatshunoslik fanining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlar siyosiy jarayonlarni ilmiy asoslangan holda o‘rganishga, siyosiy hodisalar va institutlarni tahlil qilishga, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Siyosat nazariyasi siyosiy voqelikni nazariy jihatdan tushuntirsa, siyosat falsafasi siyosiy hayotning ma'naviy-axloqiy asoslarini o‘rganadi. Siyosatshunoslik tarixi esa insoniyatning siyosiy tafakkuri rivojlanish jarayonlarini o‘zida aks ettiradi. Metodologiya esa siyosiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlar va usullarni o‘rganadi.

Normativ yondashuv - siyosiy hodisalarni ideallashgan, me'yoriy talablarga muvofiq baholaydi. Masalan, "Adolatli jamiyat qanday bo‘lishi kerak?" kabi savollarga javob izlaydi.

Pozitiv yondashuv - mavjud siyosiy jarayonlarni real faktlar asosida tahlil qiladi va ularga ilmiy asoslangan izohlar beradi.

Siyosat falsafasi esa qadimgi Yunoniston davridan boshlab shakllana boshlagan. Platon va Aristotel kabi faylasuflar davlat tuzilishi, adolat, hokimiyat va boshqaruv masalalarini tahlil qilganlar. Keyinchalik, O‘rta asrlarda Avgustin va Foma Akvinskiy kabi mutafakkirlar siyosiy hokimiyat va din munosabatlariga e’tibor qaratishgan. Yangi davrda Jon Lokk, Sharl-Lui Monteske va Jan-Jak Russo kabi faylasuflar erkinlik,

qonun ustuvorligi, hokimiyatning bo‘linishi kabi tamoyillarni ilgari surishgan. Hozirgi zamonda esa Jon Rols, Xanna Arendt va Maykl Sandel kabi olimlar siyosiy falsafaning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirishdi. Shuningdek, o’z navbatida siyosiy falsafa fan sohasi g’arb va sharq tarmoqlariga ham bo’linadi va quyidagi jihatlariga ko’ra xususiyatlanadi: G‘arb siyosiy falsafasi asosan erkinlik, inson huquqlari, demokratiya kabi g‘oyalarni ilgari suradi. U individualizm va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Sharq siyosiy falsafasi esa ko‘proq an’anaviy qadriyatlarga, jamoaviylikka, ma'naviyat va axloqiy me’yorlarga asoslanadi. Masalan, Konfutsiylik, Islom siyosiy tafakkuri va hind Vedanta falsafasi Sharq siyosiy tafakkurining yorqin namunalari hisoblanadi. O’z navbatida, Umumiy siyosatshunoslik fan sohasi tarmoqlarga bo’linmagan holatdagi ko’rinishi dastlab, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlaridan boshlab shakllangan. Platonning "Davlat" asari, Aristotelning "Siyosat" kitobi siyosatshunoslikning dastlabki ilmiy asarlaridan hisoblanadi. Keyinchalik siyosatshunoslik Yevropa Uyg‘onish davrida rivojlanib, Nikolyo Makiavellining "Hukmdor" asari bu fan rivojiga katta hissa qo‘shgan. XX asrda siyosatshunoslik ilmiy fan sifatida shakllanib, AQSh va Yevropadagi universitetlarda alohida o‘quv yo‘nalishi sifatida tashkil etildi. Zamonaviy siyosatshunoslikda nazariy va amaliy tadqiqotlar keng rivojlangan. Shuningdek, siyosatshunoslik fanining yirik namoyandalari va ularning fanga qo’shgan hissalari quyidagicha hisoblanadi:

Platon (er. av. 427–347). Platon qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi bo‘lib, uning "Davlat" (The Republic) asari siyosiy falsafa tarixida katta ahamiyatga ega. U ideal davlat konsepsiyasini ilgari surib, adolatli boshqaruv haqida fikr yuritgan[1]. Platonning nazarida, Ideal davlatda uch sinf: Hukmdor faylasuflar, qo‘riqchilar (harbiylar) va ishlab chiqaruvchilardir. Davlat boshqaruvidagi adolat esa, har bir sinf o‘z vazifasini bajarishi va o‘ziga tegishli ish bilan shug‘ullanishi kerak.Davlat boshida faylasuf-hukmdorlar turishi kerak, chunki ular haqiqatni va ezgulikni anglay oladi. Platonning g‘oyalari keyingi siyosiy falsafaga katta ta'sir ko‘rsatdi va "utopiya" tushunchasining shakllanishiga zamin yaratdi.

Aristotel (er. av. 384–322). Aristotel Platonning shogirdi bo‘lib, uning "Siyosat" (Politics) asari siyosiy tizimlarni ilmiy asosda tahlil qilgan birinchi ish hisoblanadi. U siyosiy tuzumlarni tasniflash va hokimiyatning eng yaxshi shaklini aniqlash bilan shug‘ullangan. Davlat shakllari tasniflanishini esa, uchta to‘g‘ri (monarxiya, aristokratiya, politeya) va uchta noto‘g‘ri (tiranlik, oligarxiya, demokratiya, (ochlokratiya)) shakllarga ajratadi va jamiyatdagi o‘rtacha qatlamning ahamiyatini batafsil tushuntirgan ya’ni, Aristotel o‘rtacha qatlamning barqarorlikni ta'minlashdagi rolini ta'kidlaydi va haddan tashqari boylik va qashshoqlikning oldini olishni tavsiya qiladi[2].

Nikolyo Makiavelli (1469–1527). Makiavelli Italiya Uyg‘onish davrining siyosiy mutafakkiri bo‘lib, uning "Hukmdor" (Il Principe) asari pragmatik siyosat nazariyasini ishlab chiqdi. U siyosiy hokimiyatni saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan har qanday vosita oqlanishi mumkinligini ta'kidlaydi va Makiavelli uchun siyosatda axloqiy me'yorlar ikkinchi o‘rinda. U hokimiyatni saqlash va kuchaytirishda pragmatik yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi va hokimyat texnologiyasini quyidagicha baholaydi: Makiavelli hukmdor uchun "Sher va tulki" kabi ikki xil fazilatni, ya'ni kuch va makrni uyg‘unlashtirishni tavsiya qiladi[3].

Jon Lokk (1632–1704). Jon Lokk ingliz faylasufi bo‘lib, u klassik liberalizm asoschilaridan biridir. Uning "Hokimiyat haqida ikkita risola" (Two Treatises of

Government) asarida huquqiy davlat, erkinlik va mulk huquqi haqida fikrlar ilgari surilgan va ular quydagilardir:

Tabiiy huquqlar nazariyasi: Lokk har bir inson hayot, erkinlik va mulkka ega bo‘lish huquqiga ega deb hisoblaydi.

Ijtimoiy shartnoma: Davlat fuqarolar o‘z huquqlarini himoya qilish uchun o‘z ixtiyoriy roziligi bilan tuzilgan shartnomaga asoslanishi kerak. Agar hukumat o‘z majburiyatlarini bajarmasa, xalq uni almashtirish huquqiga ega[4].

Hokimiyatni bo‘lish tamoyili: Lokk hokimiyatning qonunchilik, ijroiya va federativ (tashqi ishlar) tarmoqlarini ajratishni taklif qiladi.

Karl Marks (1818–1883). Karl Marks nemis faylasufi va iqtisodchisi bo‘lib, sinfiy kurash nazariyasi va kommunizm g‘oyasini ilgari surgan. U o‘z asarlarida siyosiy va iqtisodiy tenglikka erishish masalalarini ko‘taradi.

Sinfiy kurash nazariyasi: Marks jamiyat tarixini sinflar o‘rtasidagi kurashlar tarixi deb ta'riflaydi (masalan, burjuaziya va proletariat o‘rtasidagi ziddiyat).

Kapitalizm tanqidi: U kapitalistik tizimni ekspluatatsiya va ijtimoiy tengsizlik manbai deb hisoblaydi.

Inqilob g‘oyasi: Marks kapitalizmni ag‘darish va sinfsiz jamiyat barpo etishni taklif qiladi[5].

Xanna Arendt (1906–1975). Xanna Arendt XX asrning taniqli siyosiy faylasufi bo‘lib, totalitarizm, hokimiyat va siyosiy harakatlar haqida chuqur tahlillar qilgan. Uning "Totalitarizm manbalari" (The Origins of Totalitarianism) asari mashhur va unda quyidagicha nazariya, tahlil va tushunchalarni ilgari suriladi:

Totalitarizm tahlili: Arendt totalitar tuzumlarning (masalan, natsizm va stalinizm) tabiati va ularning jamiyatga ta'sirini o‘rgangan.

Siyosiy harakatlar nazariyasi: U siyosiy faoliyatni inson erkinligining namoyishi sifatida ko‘rib, fuqarolarning jamoatchilik hayotida faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlaydi[6].

"Hokimiyat" tushunchasi: Arendt hokimiyatni majburlash yoki zo‘ravonlikdan farqli ravishda, o‘zaro kelishuv va hamkorlik natijasi sifatida ko‘radi.

Ushbu olimlarning har biri o‘z davrida siyosiy fikr rivojiga katta hissa qo‘shgan va bugungi siyosatshunoslik fanining rivojlanishiga asos solgan.

Siyosatshunoslik metodologiyasi siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va tushunish uchun qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlar va usullar yig‘indisidir. U siyosiy hodisalarning mohiyatini ochib berish, nazariyalarni ishlab chiqish va amaliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, Siyosiy tahlil usullari sifat va son metodlariga bo‘linadi. Har bir metodologik yondashuv siyosiy hodisalarni o‘rganishning maqsadi, obyekti va sharoitlariga qarab tanlanadi. Bular quyidagilardir:

Sifat (Kvalitativ) usullar. Sifat usullari siyosiy jarayonlarning chuqur tahlili, ularning kontekstual va subyektiv jihatlarini o‘rganishga yordam beradi.

Intervyu: Siyosiy liderlar, mutaxassislar yoki saylovchilar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar orqali siyosiy qarashlar va motivatsiyalarni aniqlash. Masalan, saylovoldi kampaniyalarida elektorat kayfiyatini o‘rganish uchun intervyu o‘tkaziladi.

Fokus-guruhlar: Bir xil mavzuga qiziqqan odamlarni yig‘ib, muayyan siyosiy masalalar yuzasidan muhokama uyushtirish. Bu usul siyosiy reklama yoki yangi siyosiy tashabbuslarning jamoatchilikka ta'sirini o‘rganishda qo‘llaniladi[7].

Kontent-tahlil: Siyosiy matnlar, nutqlar, ommaviy axborot vositalari materiallarini tahlil qilib, undagi asosiy mavzular, ideologiyalar va xabarlarni aniqlash. Masalan, siyosiy partiyalar dasturlarini tahlil qilishda.

Etnografik tadqiqotlar: Siyosiy harakatlar yoki partiyalar faoliyatini bevosita kuzatish, jamiyat ichida yashash orqali o‘rganish. Masalan, saylovoldi kampaniyalarida siyosiy faollar faoliyatini o‘rganish.

Son (Kvantitativ) usullar. Son usullari siyosiy jarayonlarni raqamlar, statistik ma'lumotlar yordamida tahlil qiladi. Bu usullar ko‘p hollarda ommaviy so‘rovlar va eksperimentlarga asoslanadi.

So‘rovnomalar: Fuqarolar orasida siyosiy kayfiyatni, saylov oldi prognozlarini yoki davlat siyosatiga munosabatlarni o‘rganish uchun keng miqyosda o‘tkaziladi. Masalan, Gallup yoki Pew Research Center kabi tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan so‘rovlar.

Statistik tahlil: Saylov natijalari, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va boshqa raqamli ma'lumotlar asosida siyosiy qarorlarning ta'sirini baholash. Masalan, saylovlarda partiyalar ovoz olish dinamikasini tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Matematik modellashtirish: Siyosiy jarayonlarning rivojlanish ssenariylarini yaratish uchun matematik usullar qo‘llaniladi. Masalan, saylovlarda elektorat xatti-harakatlarini prognoz qilish.

Eksperimentlar: Siyosiy qarorlar va ularning jamoatchilikka ta'sirini o‘rganish uchun nazorat ostidagi sharoitlarda amalga oshiriladi. Masalan, saylovoldi reklama roliklarining elektorat qarashlariga ta'sirini o‘rganish.

Hozirgi davrga kelib, zamonaviy siyosatshunoslikda an'anaviy metodlarga qo‘shimcha ravishda innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Bu yangi texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar siyosiy tadqiqotlarning aniqligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi va bular quyidagilardir:

Katta ma'lumotlar (Big Data). Katta hajmdagi ma'lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish orqali siyosiy jarayonlarni chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar tahlili: Twitter, Facebook va boshqa platformalarda fuqarolarning siyosiy kayfiyatini aniqlash.

Saylov kampaniyalari: Katta ma'lumotlar yordamida elektorat segmentatsiyasi va individual saylovchilar bilan bog‘lanish strategiyalari ishlab chiqiladi. Masalan, Barak Obama va Donald Trampning saylov kampaniyalarida katta ma'lumotlardan samarali foydalangan.

Geografik axborot tizimlari (GIS). GIS texnologiyalari siyosiy hodisalar va jarayonlarni hududiy jihatdan tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Saylov geografiyasi: Saylov natijalarini hududlar kesimida tahlil qilish va saylov dinamikasini aniqlash.

Migratsiya va siyosiy barqarorlik: GIS yordamida muhojirlar oqimi va uning siyosiy vaziyatga ta'sirini o‘rganish[8].

Darhaqiqat, Klassik va zamonaviy yondashuvlarning uyg’unligi siyosatshunoslikni nafaqat ilmiy, balki amaliy soha sifatida ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Siyosat nazariyasi va falsafasi, siyosatshunoslik tarixi va metodologiyasi siyosiy jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish uchun mustahkam poydevor hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlarda yaratilgan nazariyalar va ishlab chiqilgan metodologiyalar davlat boshqaruvi, jamoatchilik fikri, xalqaro munosabatlar va umuman jamiyatning siyosiy hayotini tahlil qilishda muhim o‘rin

tutadi. Klassik olimlarning asarlaridan boshlangan siyosatshunoslik bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullar yordamida yanada rivojlanmoqda. Shu bilan birga, siyosatshunoslik nafaqat nazariy bilimlarni oshirish, balki real siyosiy muammolarni hal qilishga qaratilgan amaliy fan sifatida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Siyosatshunoslarning ilmiy xulosalari davlat boshqaruvi, qonunchilik va xalqaro siyosatda strategik qarorlar qabul qilishda asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Kelajakda siyosatshunoslik fanining yangi yo‘nalishlari va tadqiqot usullari shakllanishi kutilmoqda. Bu esa siyosiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganish va global muammolarga ilg‘or yechimlar taklif qilish imkonini beradi. Shu sababli, siyosatshunoslikni rivojlantirish nafaqat ilmiy hamjamiyat, balki butun jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Platon. Respublika. –London: “Penguin Classics”, 2007. -560 bet.
2. Aristotel. Siyosat. –Oksford: “Oksford universiteti nashriyoti”, 2000. -368 bet.
3. Makiavelli, N. Hukmdor. –Oksford: “Oxford World’s Classics”, 1998. -128 bet.
4. Lokk, J. Ikki hukumat risolasi. –Kembrij: “Kembrij universiteti nashriyoti”, 1988. -464 bet.
5. Marks, K, va Engels, F. Kommunistik manifest. –Oksford: “Oksford universiteti nashriyoti”, 1998. -64 bet.
6. Arendt, X. Totalitarizm kelib chiqishi. -Nyu-York: “Harcourt Brace Jovanovich”, 1973. -576 bet.
7. Kresvell, J. V. Tadqiqot dizayni: Sifat, son va aralash usullar. -Los-Anjeles: “SAGE Publications”, 2014. -304 bet.
8. Gupta, D. K. Davlat siyosatini tahlil qilish: Tushunchalar, vositalar va texnikalar. –Vashington: “CQ Press”, 1990. -336 bet.

N.T. Nutfullayeva **–** *Buxoro davlat universiteti talabasi*

QADIMGI SHARQDA ILK SIYOSIY TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI

Ilk tasavvurlar vujudga kelishidan oldin “Qadimgi Sharq” tushunchasiga to’xtalib o’tsak, qadimgi zamonda yunon-rimliklar dunyosidan sharqda va janubi-sharqida joylashgan hududlarning barchasi “Qadimgi Sharq” deb atalgan. Bu hududga tegishli mamlakatlarda ilk siyosiy va huquqiy, davlat va uning boshqaruvi to’g’risidagi tasavvurlar mifologik-afsonaviy g’oyalar asosida rivojlangan. Mifologiya inson va jamiyat, davlat, huquq va qonunlarni ilohiy kuch faoliyati bilan bog’lagan. Qadimgi Sharq xalqlari tarixida mavjud bo’lgan mifologiyalarda xudo barcha borliqning yaratuvchisidir. Dastlabki siyosiy ta’limotlar diniy bilimlarda, afsonalarda va dostonlarda o’z aksini topgan. Davlat paydo bo’lgach uni ilohiylashtirishga alohida e’tibor berilgan. Misol tariqasida, Qadimgi Misr davlatida Misr podsholari ya’ni fir’avnlar “Xudo Raning o’g’li” deb e’tirof etilgan [1].

Dastlabki mifologik qarashlar asta-sekin rivojlanishi, ijtimoiy hayot, davlat, siyosat va huquq to’g’risidagi tasavvurlar shakllanishi turli xalqlarda turlicha kechgan. Shunday qilib, eng qadimgi siyosat to’g’risidagi qarashlar Sharqda tahminan 4000 yil ilgari xalq o’g’zaki ijodida, yozma diniy manbalarda diniy-mifologik tarzda

shakllanib, rivojlanib bordi. Ushbu fikrlarga yaqqol misol qilib Qadimgi Misrni ko'rsatish mumkin. Misr jamiyati siyosiy tafakkuri milloddan avvalgi 3-ming yillikda paydo bo'lgan va ko'p asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaganini "Ptaxotep ta'limoti" ochib beradi. Ushbu ta'limot milloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida Misr jamiyati iyerarxiyasi g'oyasini asoslaydi. Bunga ko'ra Xudo fir'avn tepada, oddiy odamlar esa pastda joylashgan. Aslini olganda, Ptaxotep Misr davlatida vazir (jati) darajasigacha ko'tarilgan Misr zodagonlarining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan. Keksaygan davrida ko'p yillar davomida to'plagan bilimlarini umumlashtirib, o'z ta'limotiga asos solgan. U mavqeyi quyi inson – yomon, oliyjanob va qadrlilar esa yuqori mavqega ega deb hisoblagan.

Shuningdek, Ptaxotep "mavqeyi quyi"larning tinchligi yuqorida turuvchi zodagonlarning xayrixohligiga bog'liq ekanligini aytib o'tadi. Qarshi tomon, ya'ni "mavqeyi yuqori"lar esa quyilarga yaxshi muomalada bo'lishi, ularni kamsitmasligi, ularga zarar yetkazmasligi, zulm qilmasligi kerak deb hisoblangan. Jumladan, otalar farzandlariga o'z otalaridan olgan nasixatlarini o'zgartirmay yetkazishlari kerak. Ya'ni vasiyatga hech narsa qo'shib bo'lmaydi va u o'zgartirilmaydi. Qadimgi Misr fir'avni "Xudo" nomi bilan bog'liq deb hisoblangan. Shuningdek, fir'avnga so'zsiz itoat etish yuqori fazilat sanalgan. Demak, Ptaxotep ta'limoti o'sha davr Misr davlati siyosiy tuzumini yaqqol tasvirlaydi[1].

Qadimgi Misr kishilari davlat va jamiyat borasidagi qarashlari diniy-afsonaviy tarzda kechganligini misrliklar dunyo Ra - quyosh xudosi tomonidan yaratilgan deya faraz qilishganidan tushunib olish mumkin. Jamiyat hayotidagi adolat va qonunlar ilohiy ekanligi, hukmdorlarning adolatli ekanligi, bu tartiblar o'zgarmasligini hukmron sinflarning boshqalarga uqtirgan. Aslini olganda esa hayotiy voqea-jarayonlar umuman boshqacha tartibda bo'lgan. Quyi tabaqa vakillarining zodagonlarga qarshi chiqishlari bundan guvohlik beradi. Misr jamiyatida hokimiyat va hayotiy jarayonlar ilohiylashtirilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan Qadimgi Sharq mamlakatlaridan biri hisoblanmish Qadimgi Hindistonda ham siyosiy-huquqiy qarashlar ma'lum davr mobaynida shakllanib, rivojlanib borgan. Ushbu o'lkada siyosiy qarashlar milloddan avvalgi III ming yillikning II yarmida rivojlana boshlagan. Hindiston Siyosiy tafakkuri rivojlanish tarixiy bosqichlari ma'lum davrlarni bilan tasniflanadi. Ular quyidagicha:

I. Birinchi bosqich - Vedik (milloddan avvalgi 2500-500yil)

II. Ikkinchi bosqich- braxmin-buddist(milloddan avvalgi 500 - milodiy 100yillar)

III. Uchinchi bosqich - postklassik(1000 - Yangi vaqt) [1].

Albatta, ta'kidlash lozimki, qadimda tafakkur din asosida shakllangan. Xuddi shunday Hindistonda ham siyosiy qarashlar tizimi Veda adabiyoti - eng qadimiy diniy matnlar ostida rivojlangan. Qadimgi HIndistonda davlatchilik asoslarining dastlabki davr ijtimoiy munoabatlari bevosita din, axloq va an'analar bilan bog'liq holda taraqqiy topgan. Ularni biluvchilar va saqlovchilar ruhoniylar tabaqasi ya'ni braxmanlar edi. Braxmanlar jamiyatda davlat hokimiyati va qonun ustuvorligini mustahkamlash tarafdori bo'lsa-da, keyinchalik kshatriylar(harbiylar) o'z o'rinlarini himoya qilib, davlat hokimiyati ustidan nazorat o'rnatishga harakat qilishdi. Bunday qarama-qarshilik o'sha paytda hukm surgan Mauriya imperiyasi asoschisi Chandra Gupta I ning bosh vaziri Kautiliya tomonidan tuzilgan, braxmanlarning siyosiy qarashlarini o'z ichiga oluvchi dxarmashastralar, kshatriylar qarashlari esa

artxashastralar deb nomlangan risolalar orqali o'z yechimini topgan. Bugungi kunda risola "siyosat ilmi" deb tarjima qilingan bo'lsa-da, so'zma-so'z tarjima qilganda, "foyda haqidagi ilm" degan ma'noni beradi [1].

Shuni ta'kidlash kerakki, Hindiston siyosiy tafakkuri Sharq uchun an'anaviy muammolar Misr va qadimgi boshqa bir qator davlatlarga qaraganda chuqurroq rivojlangan. Qadimgi Hindiston siyosiy tafakkuri davlat va siyosat to'g'risidagi mifologik g'oyalar ta'sirida rivojlanishi va uning birlamchi asosi din ekanligi, axloqiy muammolarga alohida e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, Hindistonda siyosiy tushuncha shakllanishida 2 din: braxmanizm va buddizm mafkuraviy tafovutlar markaziy o'rin tutadi. Qadimgi hind siyosiy mafkurasida yetakchi rol o'ynagan braxmanizm milloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida Hindistonni egallab olgan oriy qabilalari o'rtasida tabaqalanish boshlagan paytda vujudga kelgan. Braxmanizm mafkurasining boshlanish davri milloddan avvalgi 2-ming yillikka oid. Unga doir ma'lumotlar hind yodgorliklarida uchraydi, ular odatda Vedalar deb ataladi(sanskritcha "Vedas" so'zi bilim degan ma'noni bildiradi) [2].

Vedalar jamiyatni xudolar tomonidan yaratilgan 4 ta varna(tabaqalarga) bo'lingani haqida ma'lumot beradi: ruhoniylar varnasi - braxmanlar, jangchilar varnasi - kshatriylar, yer egalari, hunarmand va savdogarlar - vayshyalar, eng quyi tabaqa - shudralar. Ba'zi manbalarda hind jamiyatida yana bir tabaqa chandallar ya'ni hazar qilinadiganlar tabaqasi aytib o'tilgan. Chandallar qullar bo'lib, ular yuqoridagi 4 tabaqa bilan bir dasturxonda o'tirishi taqiqlanganligini bilib olishimiz mumkin. Ushbu tabaqaviy jamiyatda bir varna o'zidan quyi varna bilan turmush qurishi mumkinmasligi alohida ta'kidlangan.

Bu kabi qarashlar tizimi jahon tartibot huquqi - rta bilan tartibga solinadi. Rta jamiyatning konstitutsiyasi, turli varnalarning o'rni, mavqeyini shuningdek, huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Har bir varnaga ma'lum turmush tarzi va boshqa varna vakillari bilan munosabatlarining tabiati qat'iy belgilangan. Braxmanizmda davlat to'g'risidagi mafkurasiga muvofiq, davlatning vazifasi zaiflarni himoya qilish va dxarmaga rioya qilishi uchun sharoitlar yaratishdir. Bunday davlat hukmdori esa fuqarolar haqida qayg'urishi kerak, lekin Xudo oldida javobgar bo'lishi kerakligi belgilangan. Demakki, Braxmanizmning siyosiy mafkurasining asosi podshoh ruhoniylar boshchiligida hukmronlik qilishini tushunish mumkin. Bu o'ziga xos teokratik davlat hisoblanadi. Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'sha davrda din davlat boshqaruviga, jamiyat hayot tarziga o'z ta'sirini o'tkaza olgan.

Qadimgi Sharqda ilk siyosiy tafakkurlarning shakllanishida Qadimgi Bobil siyosiy ta'limotlari ham ma'lum bir hissa qo'shgan. Dajla va Frot ya'ni Mesopotamiya hududida milloddan avvalgi IIming yillikning birinchi asrlarida Bobil shahri vujudga kelib, XVII asrda Xammurapi hukmronligi davrida o'zining ravnaq cho'qqisiga chiqdi. Siyosiy-huquqiy tafakkur rivojiga "Xammurapi qonunlari" ma'lum ma'noda hissa qo'shgan. Ushbu qonunlar majmui Bobil aholisining turmush tarzini tartibga solibgina qolmay, qilingan jinoyatlarga jazolarni ham o'zida aks ettirgan. Shu jumladan, "Xammurapi qonunlari" 282 moddadan iborat bo'lib, undan bizgacha faqat 247 tasi yetib kelgan. Ushbu qonunlar to'plami tizimli shaklda bo'lmasa-da, uni nisbiy ravishda "kodeks" nomi qo'llanilishi mumkin. Kodeks Xammurapining o'zi va Oliy sudning qarorlaridan tashkil topgan bo'lib bu normalar faqatgina muayyan ish va hodisalarning yechimini o'z ichiga olgan. Xammurapi qonunlarida turli jinoyatlarga turlicha jazolar berilgan. Ushbu jinoyat qonuni boshqa qadimgi qonunlardan o'zining

jiddiyligi bilan ajralib turgan. Eng o'g'ir jazolar davlat, xusuiy mulkka qarshi jinoiy harakatlar uchun qo'llanilgan. Kodeksning siyosiy-huquqiy xususiyati turli xalqlarni o'z qo'l ostida birlashtirib qonuniylikni mustahkamlashga uringan. Bundan tashqari, oilaviy masalalar ko'rib chiqilgan. Unga ko'ra oilaga erkak boshchilik qilgan. U oila xo'jaligini boshqargan. Xotin esa o'zining "nikohdan oldingi" mol-mulkiga egalik qilish huquqi ham belgilan. Oila boshli'gi agar xotini "mol-mulkni isrof qiladigan va "sharmanda qiladigan" bo'lsa, uni uyidan quvib chiqarishga haqli bo'lgan. Er ixtiyoriga ko'ra uni uyda qul sifatida saqlab, ikkinchi xotin olishga ruxsat etilgan. Bundan kelib chiqadiki, Xammurapi qonunlari nafaqat siyosiy sohani balki ijtimoiy hayot vakillarining huquq-majburiyatlarini ham qisman tartibga solgan. Ayni paytda, ushbu qonunlarda jangchilarning mavqeyi alohida belgilab qo'yilgan. Jangchi podshoh buyrug'i bilan yurishlarga ishtirok etishga majbur bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, har bir davrda jangchilar davlatdan yer-mulkka ega bo'lishgan. Bobilda ham jangchi tabaqasi avloddan avlodga meros qoldira olish huquqi bilan yerga ega bo'lgan. Agar jangchi urushda qatnashishdan bosh tortsa, o'lim jazosi qo'llanilgan. Umuman olganda, to'plam huquqning ma'lum sohalariga tegishli sud jarayonlarini, oila va nikoh munosabatlarini, mulk huquqi, meros huquqi kabi qator masalalarni o'zida aks ettirgan.

Xammurapi qonunlarini yaratilishi xudo amrining ijro etilishi bilan izohlaydi va shunday deydi: "Yer va ko'kning buyuk hakami Shamash amriga binoan mamlakatda mening adolatim tantana qilguvchidir, mening bitiklarim o'zgartirilmaydi va bekor qilinmaydi" [3]. Bobilda siyosiy qarashlar diniy g'oyalar asosida kechgan. Xudolar odamlar hayotini boshqarishi, barcha ne'matlarni xudo tomonidan ato etilishi, keladigan barcha qiyinchiliklar ham Xudodan degan fikrlar yuzaga kelgan. Qonunlarda hukmdor Xudoga o'xshash mavjudot ekanligi aks etgan. Shuningdek, Xammurapi ham Shamash xudosiga qiyoslanib, u shohlarning ilohiy shohi sifatida ulug'langan. Aholi podshohni adolat homiysi, zaiflarning himoyachisi sifatida tanigan. Podsho Xammurapi esa o'z qonunlarini oddiy aholi, yordamga muhtoj qatlamlar, yetimlar manfaatini ko'zlab tuzilgan deya tariflagan [4].

Xullas, Misrda davlat va jamiyat haqidag qarashlar ma'lum bir ta'limotga aylanmagan bo'lsa-da, ular aholi ongida urf-odat, qadriyat sifatida namoyon bo'ldi. Qadimgi Bobil va qadimgi hind afsonalariga ko'ra, hukmdorlar yerdagi xudo sifatida ko'rilgan, ya'ni hukmdorlar kishilar taqdirini hal qilib borgan. Darhaqiqat, Qadimgi Sharq mamlakatlarining siyosiy tafakkuridagi hokimiyat, boshqaruv, huquq, sudlov to'g'risidagi qarashlari ilohiylik xususiyati bilan keyingi davr dunyoqarashlari shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilganini alohida ta'kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiyev B.S. Siyosiy ta'limotlar tarixi. -T., 2023. - 21 bet.
2. Boboyev H.B. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. -T.: TDYUI, 2003. – 205 b.
3. Muhiddinova F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. -T. 2007 - 19 b.
4. Qadimgi Sharqda siyosiy va huquqiy ta'limotlar //www.arxiv.uz
5. Muhiddinova F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. - T., 2008.

2-SHO‘BA: SIYOSIY FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

Н.Қ. Жўраев **–** *ISFT - School of Finance Technology and Science International институти ректор маслаҳатчиси, с.ф.д., профессор*

ТАРАҚҚИЁТНИНГ ҲОЗИРГИ БОСҚИЧИДА СИЁСИЙ ФАНЛАР МУАММОСИ

Ҳозирги янгиланаётган Ўзбекистон шароити ижтимоий ҳаётга янгича муносабатлар ва янгича қарашларни тақозо этмоқда. Бу бевосита кенг миқёсли ислоҳотлар оқимида шаклланаётган сиёсий онг ва сиёсий тафаккур орқали юз бераётган жиддий ўзгаришлар билан боғлиқ. Жамиятда туб янгиланишларни амалга ошириш, бутунлай янги сиёсий қарашлар ва сиёсий режимни қарор топтириш жараёнларида сиёсий тафаккурнинг янги йўналишлари юзага келади. Бу ҳолат бир неча минг йиллик инсоният эволюцион тараққиётида юз берган. Ҳозир ҳам шундай бўлмоқда. Масаланинг иккинчи томони ҳам бор. Тубдан модернизация қилинаётган кишилик жамиятида иқтисодий, ижтимоий, ҳуқуқий ва маънавий-руҳий янгиланишлар бевосита сиёсий қарашлар устуворлигида ўтади. Чунки ҳар қандай ислоҳотларни йўналтирувчи, аниқ мақсад сари бошловчи, уни ташкил этувчи ва амага оширувчи восита сиёсатдир. Сиёсат ҳақидаги тасаввурлар инсониятнинг ўзи каби қадимий. Ақлли одамнинг шаклланиши давридаёқ уруғлар, қабилалар ва бошқа гуруҳларни бошқаришга эҳтиёж сезилган. Уларни кимдир бошқарган. Ана шу ҳолатнинг ўзи бугунги кунда сиёсат деб аталадиган серқирра, зиддиятли ва мураккаб тушунчанинг илк куртаклари эди. Буни ўз вақтида Аристотель алоҳида таъкидлаган эди. Унинг хулосаларига кўра сиёсат кишиликни йўналтирувчи, бошқарувчи восита. Маълум бир ҳудудда аниқ мақсад сари даъват этувчи куч. Барча қарашлар, ёндашувлар ва манфаатлар айни сиёсат орқали бирлашади ва унинг таъсирида ривожланади.[48] “Сиёсат – одамларнинг ўзаро муносабатлари. Инсон – сиёсий жонзот” (zoon politikon)[49]

Сиёсат ва унинг жамият ҳаётидаги, ҳатто, алоҳида-алоҳида индивид, инсон ҳаётидаги роли доимий равишда ўзгариб, ривожланиб борган. Инсоният тафаккурининг ривожланиш эволюцияси таъсирида одамнинг шаклланиши, ақлий салоҳияти, интеллектуал имкониятлари кенгайиб боргани сайин, унинг сиёсий қарашлари ҳам такомиллашиб борган. Демак, сиёсат маълум бир давр одамлари тафаккурининг, ахлоқий, руҳий, маънавий қарашларининг маҳсули.

Сиёсат тушунчасига турли даврларда турлича таъриф берилган. Бу таърифлар ҳам ўз даври сиёсий тафаккури даражасининг, интеллектуал имкониятларининг маҳсули. Жумладан, Г.Гегель “Сиёсат – бу ақл-идрокнинг ифодаси” деган. М.Вебер “Сиёсат – мустақил бошқарув фаолияти”, М.Дьюверже “Сиёсат – ҳокимият учун курашда конфликт ва келишув ифодаси”, Э.Тоффлер

[48] Қаранг. Иркин Ю.В. Политология. Изд. “Экзамен”. М.: 2007. Стр-559.
[49] Политология. Учебник. Маль виль А.Ю и др. Изд. “Проспект”. 2008. Стр.14.

“Сиёсат – ахборот истеъмоли ва ишлаб чиқариш фаолиятидир”, В.Даль “Сиёсат – давлат бошқаруви ҳақидаги фан”, Л.Багданов “Сиёсат – муроса, келишув санъати”, О.Бисмарк “Сиёсат – бу имкониятлар санъати”, Э.Хейвуд эса “Сиёсат – бу жараён” деган эди.[50] Барча қарашларда ўзига хос илмий ҳақиқат ва аниқ назарий асос бор. Фақат сиёсат тушунчасига ким қайси томондан қандай мақсад билан ёндашганига боғлиқ. Ушбу назариялар ва фундаментал қарашларнинг ҳаммаси бугунги янгиланаётган Ўзбекистонда қарор топаётган сиёсий концепция ва унинг амалиётида ўз ифодасини топмоқда. Қанчалик хилма-хил бўлмасин, уларда ягона моҳият – фуқаро. Иккинчидан, юқоридаги қарашлар ва унинг ҳаётига, инсоний ёндашув талаблари ётади. Бу эса Ўзбекистонда давлат сиёсатининг асосини ташкил этади. Сиёсат ахлоқ, маънавият ва руҳий камолот тимсоли бўлган давлат бошқаруви ва фуқароларнинг тақдири билан синтезлашиб кетган жонли, ривожланиб, такомиллашиб бораётган ҳодисага айланди. Бу табиий ҳол. Чунки, сиёсат ҳар қандай шароитда, ҳар қандай режим ва манфаатлар тўқнашуви ҳолатида инсон ақлининг маҳсули, интеллектуал салоҳиятининг провард натижасидир.

Сиёсат бутун моҳияти билан турли катта-кичик гуруҳларнинг – уруғларнинг, этносларнинг, синфларнинг, қолаверса, давлатнинг мақсад ва иддаоларини, концепцияларини, истиқболга қаратилган қарашларини ўзида ифода этади. Ана шу нуқтаи назардан янги Ўзбекистон давлати ва унинг фуқаролари дунёқарашидаги туб ўзгаришлар, буларнинг ўзаро боғлиқлиги, давлат ва жамият ўртасидаги муносабатларнинг уйғунлиги мавжуд сиёсатнинг барқарорлигини ва истиқболга эгалигини кўрсатади. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг сиёсий етакчи сифатидаги кўпқиррали фаолияти ҳудди ана шу эзгуликка йўналтирилган буюк мақсадни ўзида ифода этади. Жамият асосий кўпчилигининг қарашлари билан давлат сиёсий мақсадларининг уйғунлиги, ислоҳотлар жараёнида бу икки қутбнинг синтезлашиб бораётганлиги сиёсий тафаккурнинг тубдан ўзгараётганини, жамият ва фуқаролар ҳаётидаги ижобий ўзгаришлар давлат сиёсий қарашлар, мақсадлари ва концепцияларининг ўзаро боғлиқлиги Президент Ш.М.Мирзиёевнинг новаторлик имкониятларидан, уларни бирлаштириб юборадиган ғоятда кучли сиёсий бошқарув салоҳиятидан далолат беради.[51]

Янгиланаётган Ўзбекистонда “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халққа хизмат қилмоғи керак” деган сиёсий концепциянинг юзага келиши ва уни ҳаётга жорий этиш механизмининг яратилиши, замонавий сиёсий қарашларнинг Ш.М.Мирзиёевга хос кўринишидир. Зотан, халқ узоқ йиллик мустамлакачилик шароитида тоталитаризм, авторитаризм иллатларининг қурбонига айланган эди. Инсон сиёсий жараёнлардан узоқлашган ёки бошқача қилиб айтганда, ҳукмрон сиёсат ўзининг инсоний моҳиятини йўқотган, зўравонлик, куч ишлатиш, қўрқитиш, таҳдид қилиш усулларидан кенг фойдаланган, фуқароларни ҳар қандай буйруқни сўзсиз бажарувчи, фикрлашдан мосуво қилинган итоаткор тирик воситага айлантирган эди.

Янгиланаётган Ўзбекистон шароитида сиёсат том маънода инсонийлашган, ўзининг бугуни ва келажагини, бутун борлиғини инсон

[50] Философская энциклопедия. Т-4. М.: “Мысль”. 2002.
[51] Қаранг. Жўраев Н. Тамаддунга даъват. “Ўзбекистон”. Т.: 2018.

орқали намоён этадиган қадриятга айланиб бормоқда. Зотан, ҳар қандай сиёсатнинг мавжудлиги жамиятнинг у ё бу даражадаги эҳтиёжидан келиб чиқади. Фуқаролар ўзининг бугунини, оиласи келажагини, фарзандлари тақдирини мавжуд сиёсатда кўрган тақдирдагина, уни қўллайди, қувватлайди. Ҳар қандай жамиятда сиёсатнинг бутун қадриятий асослари Ҳазрати Инсон деган олий қадрият билан синтезлашган ҳолдагина у қудратли воситага айланади.

Сиёсат – ижтимоий моҳият касб этгандагина, социал муносабатларни мувофиқлаштириш механизмига айланган тақдирдагина самарали натижаларга эришади. Хусусан, Ўзбекистондай 130 дан ортиқ миллат ва элат, 20 га яқин диний конфессиялар фаолият кўрсатаётган, эътиқодлар ва манфаатлар хилма-хиллиги шароитида бу алоҳида аҳамият касб этади. Янги Ўзбекистон давлати сиёсатининг айни ана шу омилларга таянганлиги ялпи жамият умумий манфаатини ўзида ифода этганлиги умумхалқ тақдирининг ва буюк келажагининг асосини ташкил қилади. Ана шу тарзда сиёсат ижтимоий муносабатларни рационал мувофиқлаштирувчи, турли конфликтлар ва келишмовчиликларни ўзаро бир-бирини тушуниш, соғлом мулоқот, юксак маданият орқали умумий тараққиётга йўналтирадиган куч сифатида катта роль ўйнайди. Бу ҳозирги цивилизациявий эҳтиёжларнинг энг самарали ва таъсирчан кўриниши ҳисобланади. Ўзининг моҳиятига кўра сиёсий мувофиқлаштириш бевосита давлат бошқаруви билан боғлиқ. Мураккаб вазиятларда, хусусан конфликт ҳолатларда давлатнинг роли ошиб боради. Ёки жиддий ислоҳотлар, жамиятни модернизациялаш шароитида давлат асосий рол ўйнайди ва у катта, ҳал қилувчи вазифани бажаради. Бир томондан бу “юқори”дан бошқариш, ўзига хос таъсир ўтказишдай кўринса-да, давлатнинг асосий вазифаларидан бири эканлигини унутмаслик лозим. Масалан, иқтисодий асослардан қатъий назар моддий ресурсларни давлат бошқаради, йўналтиради, гуруҳлар, синфлар ва ҳудудий эҳтиёжларни назарда тутган ҳолда тақсимлайди. Бу бевосита жамият аъзоларининг умумий манфаатларидан келиб чиқади ва уларни ҳимоя қилади.

Жамиятнинг турли ижтимоий қатламлари эҳтиёжларидан келиб чиқиб, сиёсатнинг ўзига хос йўналишлари бор. Жумладан, теологик йўналишда сиёсий ҳокимият самовий ёки илоҳий қарашлар орқали фаолият юритади. Бунда илоҳиёт, руҳий ва эътиқодий қарашлар жамият бошқарувида устуворлик қилади. Натуралистик йўналишда табиий муҳит, географик имкониятлар орқали сиёсат табиати, унинг таъсир воситалари юзага келади. Социал сиёсат ижтимоий ҳаётнинг туб моҳиятидан келиб чиқадиган, ижтимоий-маданий асосларга эга бўлган, инсон моҳияти, унинг биоижтимоий ҳодиса сифатидаги қадриятий жиҳатларидан келиб чиқадиган ҳодисадир. Ана шу ижтимоий сиёсат янгиланаётган Ўзбекистонда ижтимоий давлат сифатида ўзини намоён этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқ давлатнинг ягона ва бирдан бир манбаи халқ экан, давлат халқ учун яшайди, унга хизмат қилади. Давлат сиёсатида инсон қадри, қиммати, унинг мавжудлиги, шаъни яққол намоён бўлади. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг сиёсий етакчи сифатидаги фаолиятининг туб моҳиятида ана шу ғоя, ана шу сиёсий концепция алоҳида ахамиятга эга бўлмоқда. Бунда ижтимоий адолат, қонун устуворлиги, инсон ҳамма нарсадан улуғ, мўътабар, у, ҳар қандай

шароитда ҳурматга, тўлақонли яшашга, бахтли-саодатли турмуш кечиришга муносиб бўлган олий жонзот сифатида қадрланиши керак. Ана шу ғоят инсонпарвар ғоя янги Ўзбекистон давлатининг сиёсий қадриятини белгилайди.[52] Ўзбекистон давлати сиёсатининг субъекти Ўзбекистон фуқароларининг ижтимоий ва миллий бирлиги, турли ташкилотлар, муассасалар ва бирлашмаларидан иборат. Улар фаолияти, ғоялари ва доктриналари тўғридан-тўғри сиёсий ҳаёт барқарорлигига қаратилмоқда. Қабул қилинаётган сиёсий қарорларни амалда жорий этиш орқали ҳар бир фуқаро эҳтиёжлари ва мақсадларини ўзида ифода этган ижтимоий муносабатларни ўзгартириб, янгилаб, такомиллаштириб бормоқда. Ана шу тарзда сиёсат субъектига айланган жамият ва унинг ҳар бир аъзоси давлат сиёсатининг фаол, аниқ мақсадларга йўналтирилган, яратувчилик ва бунёдкорликка даъват этадиган воситага айланди.

Ҳозирги шароитда Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнида мавжуд сиёсат субъектини учга бўлиш мумкин. Биринчиси – социал ва миллий даражадаги субъектлар. Унга ижтимоий бирликлар, синфлар, гуруҳлар, элита қатлами, алоҳида ва фаол шахслар киради. Бунда ижтимоий бирликлар ва миллий мансубликлар, турли синфлар ва қатламлар ҳамжиҳатликда бир-бирини тушуниш ва ҳурмат қилиш орқали умумий мақсадларга интилиш сингари юксак сиёсий маданият, сиёсий ахлоқ, сиёсий онг имкониятларини намоён қилмоқда.

Иккинчиси – сиёсий ҳокимиятни институционал намоён этиш. Бунга давлат ва унинг турли қатламдаги органлари, сиёсий партиялар, нодавлат нотижорат ташкилотлар, ҳаракатлар ва бошқалар киради. Булар доимий равишда фаолият кўрсатадиган, аниқ мақсадга йўналтирилган, олдиндан ишлаб чиқилган дастурлар, директивалар асосида иш олиб борадиган ва уларни амалга оширадиган, ҳаётга тадбиқ этадиган, ташкилий жиҳатдан мустаҳкам тизимлардир. Бу борада янги Ўзбекистонда замонавий цивилизация талабларидан келиб чиқиб фаолият кўрсатаётган сиёсий партиялар ва жамоат бирлашмалари, давлат бошқарувининг бутунлай янги, инсонийлашган, фуқароларга тобора яқин борган давлат органлари фаолиятини мисол келтириш мумкин. Сиёсий ҳокимиятни амалга оширадиган юқоридаги институтлар ёки тизимлар фаолиятида инсон ва унинг ҳаёти, тақдири, фаровон ва тинч осуда яшаш мақсади асос қилиб олинганлиги Ўзбекистон давлатининг инсонийлашган, ижтимоий давлат мақомига эга бўлганлигидан далолат беради.

Учинчи йўналиш бу бевосита ўзининг муносабатларини тўғридан-тўғри билдираётган, жамият ҳаётидаги айрим камчилик ва нуқсонларни очиб ташлаётган оммавий ахборот воситалари ва шунга ўхшаган ахборот олиш, сақлаш ва уни тарқатиш билан боғлиқ бўлган тизим ҳисобланади. Улар бевосита ёки билвосита сиёсий жараёнларда иштирок этмоқда, унинг самарадорлигини, таъсирчанлигини, ҳаётийлигини таъминлашга ёрдам бермоқда.

Сиёсатни ҳаракатга келтирувчи куч турли ижтимоий муносабатлар, қатламлар, гуруҳлар, миллий, диний ва бошқа жиҳатлардан иборат бўлган одамлар қизиқишлари ва манфаатларидир. Бу манфаатлар ва эҳтиёжларни

[52] Қаранг. Жўраев Н. Тамаддунга даъват. “Ўзбекистон”. Т.: 2018.

сиёсий партиялар, турли нодавлат нотижорат ташкилотлар, давлат ҳокимияти органлари, қолаверса, жамиятнинг элита қатлами ҳимоя қилади. У. Черчелнинг хулосаларига кўра сиёсатда абадий душман ҳам, абадий дўст ҳам бўлмайди, фақат абадий манфаат ҳукмрон бўлади. Демак, бундан келиб чиқадики, манфаатсиз, қизиқишсиз, мақсадсиз сиёсат бўлиши мумкин эмас. Ҳар қандай шароитда турли ташаббуслар ва ғоялар билан фаолият кўрсатаётган сиёсий ташкилотлар қандайдир қизиқиш ва манфаатлар асосида қурилган. Шунинг учун ҳам ҳар қандай давлатнинг сиёсий стратегик йўли кенг халқ оммасининг ва, ҳатто, ҳар бир фуқаронинг манфаатларини, фаровон турмушини, унинг барқарор, тинч ва осуда ҳаётини ўзида ифода этган бўлади. Сиёсий муносабатларнинг барқарорлиги жамият барқарорлигининг асоси. Фуқаролар ўртасидаги муносабатларнинг соғломлиги, турли ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро бир-бирини тушуниш даражаси сиёсий муҳитнинг соғломлигини белгилайди. Бироқ, сиёсий муносабатлар маълум бир ўзига хослиги, фарқли жиҳатларидан келиб чиқиб, турлича бўлиши мумкин. Масалан, сиёсий муносабатлар умумий тарзда олганда туб манфаатлар ва турли ижтимоий гуруҳлар, синфлар, миллатлар эҳтиёжлари ва қизиқишларини назарда тутади. Турли сиёсий қарашлар ва ақидалар асосий муносабатлар орқали сиёсий институтлар фаолиятини такомиллаштиради. Ана шу тарзда айтиш мумкинки, сиёсатнинг мақсади ҳар бир инсон фаровон ҳаётининг, бахтли-саодатли турмушининг кафолати бўлмоғи шарт. Буни янгиланаётган Ўзбекистонда инсон қадру қиммати олий қадрият даражасига кўтарилганлигида, мавжуд ҳукмрон сиёсат ижтимоий ҳаётнинг бутун моҳиятини ўзида ифода этаётганида кўриш мумкин. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг “Фуқароларнинг ҳар қандай муаммоларини ҳал этиш давлатнинг халққа нисбатан асосий мажбуриятларидан бири эканини унутишга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ”,[53] дегани юқоридаги хулосаларимизнинг исботидир.

Сиёсатнинг ижтимоий мазмуни, унинг бевосита биоижтимоий ҳодиса сифатидаги инсон ва унинг ҳаёти, тақдири билан бевосита боғлиқ эканлигини назарда тутсак, Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар моҳиятини илмий-назарий, фундаментал ва амалий жиҳатдан ўрганишни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Бу ўз-ўзидан сиёсатшунослик фанини бутун чоралар билан узлуксиз таълимнинг барча бўғимларида жорий этиш лозимлигини кўрсатади.

Дарҳақиқат, Ўзбекистон катта давлат. Унинг ғоят инсонпарвар ички ва ташқи сиёсати, ўзига хослиги, қатъийлиги, аниқ сиёсий позицияга эгалиги билан энг ривожланган давлатлар билан тенг туради. Ўзбекистон ички сиёсатида кенг миқёсли ислоҳотларни ва жадал тараққиёт йўлини танлаганлиги билан, ташқи сиёсатда эса, умумпланетар масалалани ҳал қилишда, инсоният тараққиётининг янги босқичида юзага келаётган глобал масалаларни ҳал этишда фаол иштирок этаётган саноқли давлатлардан бири ҳисобланади. Бу ҳар бир Ўзбекистон фуқароси учун алоҳида ғурур ва ифтихордир. Ана шундай давлатнинг сиёсий қарашларини, унинг ички ва ташқи сиёсатини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Буни қуйидагиларда кўриш мумкин:

[53] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”. Т.: 2017. 57-бет.

Биринчидан, Ўзбекистон ички сиёсатида амалга оширлаётган кенг миқёсли ислоҳотларни бутун кўлами ва моҳияти билан ўрганиш, уни узлуксиз таълим тизимида ўқитиш янги авлодни мавжуд сиёсий жараённи тушунишига, уни қўллаб-қувватлашига, провард натижада, унинг фаол иштирокчисига айланишига олиб келадики, бу Ўзбекистоннинг буюк келажаги билан боғлиқ бўлган қудратли куч ҳисобланади.

Иккинчидан, Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг боришини таҳлил қилиш, ўрганиш, унинг истиқболини белгилаш, прогнозлаш ялпи жамият сиёсий кайфиятининг соғломлашишига, сиёсий муносабатларнинг барқарорлашишига, ўзаро бир-бирини тушуниш, англаш ва умумий манфаатлар атрофида бирлашишга олиб келади. Буюк келажакка ишончини мустаҳкамлайди.

Учинчидан, сиёсий онг жамият барқарорлигининг кафолати. Онгли фуқаро ўзини ўзи бошқаради, йўналтиради, иллатларини камайтириб, фазилатларини ошириб боради. Демак, у давлат сиёсатида ўзининг тақдирини, истиқболини кўради ва уни ҳимоя қилади. Акс ҳолда, сиёсий савияси паст одам ғоят инсонпарвар сиёсий жараёнларнинг моҳиятини тушунмайди. Унга кўркўрона ёндашади. Турли бузғунчи ғояларга, қўпорувчилик ҳаракатларига қўшилиб кетиши мумкин. Чунки, аниқ сиёсий позицияга ва ҳаётий ақидага эга бўлмаган фуқарони йўлдан оздириш осон кечади. Бу эса, турли қўпорувчи кучлар учун қулай имконият ҳисобланади.

Тўртинчидан, Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати инсоният тақдири ва Ер шари истиқболи билан боғлиқ бўлган, жаҳон барқарор тараққиётига кучли, самарали таъсир ўтказаётган сиёсат эканлигини, аҳоли, хусусан, ёшлар билиши керак. Бу ҳар бир фуқарода Ўзбекистондай шонли давлат фуқароси эканлигини англашга ва у билан фахрланиш ҳиссининг кучайишига олиб келади.

Бешинчидан, яқин ўтмишимиздаги салбий ва, ҳатто, аянчли ҳодисалардан сабоқ чиқаришимиз керак. Ҳаммамизга аёнки, мустақилликнинг дастлабки йилларида бутун имкониятимиз иқтисодий танглик, ижтимоий бўҳронлар, маънавий-руҳий озурдаликлар ва бошқа иллатларни бартараф этишга қаратилди. Натижада, жамиятда мафкуравий бўшлиқ юзага келди. Ундан фойдаланган қўпорувчи кучлар, ички ва ташқи ғанимларимиз унумли фойдаланишди. Натижада, диний экстримизм, фундаментализм, терроризм кучайиб кетди. Мустақилликка таҳдид соладиган кучлар оёққа турди. Сиёсий фанларга эътиборсизлик, уни таълим тизимида ялпи ўқитмаслик, жамиятни сиёсий онгсизликка олиб келиши мумкин. Маълум бир сиёсий позицияга эга бўлмаган, ўзининг қатъий сиёсий ақидаси бўлмаган ёшларни йўлдан уриш орқали сиёсий фундаментализм, сиёсий экстримизм иллатлари пайдо бўлиши мумкин. Зотан, сиёсий саводсизлик сиёсий хурофотга, сиёсий бидъатга, хурофот ва бидъат эса охир оқибатда сиёсий жаҳолатга олиб келади. Жаҳолат эса жамиятни пароканда қилади. Бунинг олдини олишнинг ягона ва бирдан бир йўли жамиятнинг ялпи сиёсий савиясини ошириш. Бунга мустаҳкам асос бор. Янги Ўзбекистон давлатининг ғоят инсонпарвар, адолатли ички ва ташқи сиёсатини қунт билан ўрганиш, тадқиқ этиш имкониятларини кенгайтириш лозим.

I. ERGASHEV *– O‘zbekiston milliy universiteti Siyosatshunoslik kafedrasi mudiri, s.f.d., professor*

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Kirish. Zamonaviy jamiyatda har qanday fan sohasi insoniyatga foyda keltirishi ta’bir joiz bo‘lsa uning og‘irini yengil qilishga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosatshunoslik fan sifatida shakllanishidan oldin, siyosat to‘g‘risida ilk qarashlar, g‘oyalar va uning asosida boshqaruvga doir umumiy tasavvurlar paydo bo‘lgan hamda shakllangan. Boshqaruvga doir dastlabki dunyoqarashlar sharqda bo‘ladimi, g‘arbda bo‘ladimi mifologik dunyoqarashlar bilan uyg‘unlashib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol qilib davlatning kelib chiqishi hamda uni boshqaruvchilarning ilohiyligi haqidagi tasavvurlarni keltirish mumkin. Kiyinchalik yevropada ilm-fanning taraqqiy etishi boshqaruv va siyosatga doir yangi yondashuvlarning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. Xususan, fransuz mutafakkiri Jan Boden (1630-1596) “Davlat to‘g‘risida olti kitob” asarida birinchi bo‘lib davlat suvereniteti g‘oyasini ilgari surdi, davlat ilohiy tarzda kelib chiqmaganligini ta’kidlab, uning manfaatlari din manfaatlaridan ustun bo‘lishi lozimligini va vijdon erkinligi o‘rnatilishini targ‘ib etdi[5]. Bugungi kunda rivojlangan g‘arb davlatlarida siyosiy fanlarning rivojiga, mazkur sohadagi tadqiqotlarga e’tibor qaratilib, uning natijalarini amaliyotga targ‘ib qilishdagi yutuqlari asosida davlat va jamiyat boshqaruvining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga hamda taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qildi.

Mamlakatimizda ham “Siyosatshunoslik” yo‘nalishida kadrlarni tayyorlash ularni davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim bo‘lgan sohalarni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2023-yil 11-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-158-son Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida aks ettirilgan asosiy g‘oyalarni amalga oshirishda, davlat va jamiyat boshqaruviga doir zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirgan siyosatshunoslik yo‘nalishini tugatgan kadrlarning ishtirokini ta’minlash zarurati oshib bormoqda. Xususan, mazkur strategiyaning IV-yo‘nalishi “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlagan bo‘lib, unda “Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar” [1] nazarda tutilgan. Aynan davlat va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirishda ixtisoslashgan mutaxasislar, “siyosiy menejer”, “siyosiy marketolog”, “siyosiy konsalting” mutaxasisi, “siyosiy tahlilchi”, “siyosiy PR texnolog” kabilarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. O‘zbekistonda taraqqiyotining yangi bosqichida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan siyosiy fanlar sohasini rivojlantirish hamda Oliy ta’lim tizimida ixtisoslashgan kafedralarni tashkil etish, kadrlarni tayyorlash va davlat, jamiyat boshqaruvining muhim sohalariga yetkazib berish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2019 – yil 29-yanvarda “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [2] Qarori asosida siyosiy fanlar sohasida, xususan, “Siyosatshunoslik”

yo‘nalishida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, ushbu qarorda nazarda tutilgan “ilg‘or xorijiy tajriba hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida siyosatshunoslik fanlari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlash” hamda ushbu vazifa doirasida “Siyosatshunoslik” fani bo‘yicha o‘quv jarayonini mazmun jihatdan takomillashtirish maqsadida yangi avlod darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv dasturlari va rejalarini tayyorlash”[2] ishlari izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

Xozirgi globallashuv sharoitida mamlakatimizda “Siyosatshunoslik” sohasiga qiziqish toboro ortib bormoqda. Qiziqishning ortib borayotganligi normal holat bo‘lib, O‘zbekistonda siyosiy tizim barqarorligini ta’minlash uni yanada rivojlantirish uchun avvalo uning to‘g‘ri ishlash mexanizmlarini, ularga doir ilmiy – nazariyalar va konsepsiyalarni, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish zarur.

Xorijiy mamlakatlarda ushbu fanga juda katta e’tibor beriladi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda siyosiy bilimlar oliy uquv yurtlarida keng o‘qitiladi va o‘rganiladi. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarda siyosiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi alohida maxsus ilmiy – tadqiqot institutlari, markazlar, jamg‘arma va uyushmalar tashkil etilgan. Masalan, Fransiyada Milliy boshqaruv instituti (ENA), Siyosiy fanlar instituti (Institutdes Sciences Politiques), AQShda Urush va tinchlik tadqiqotlari instituti (IWPRI), Norvegiyada Tinchlikni o‘rganish instituti (PRIO), Shvesiyada Demokratiya va saylov tizimlarini o‘rganish xalqaro instituti (IDEA), Hindistonda Siyosiy tadqiqotlar markazi (CPR) kabi o‘nlab ilmiy muassasalar shular jumlasidandir [4, -B. 4].

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida “Siyosatshunoslik”ka doir bilimlarni zamonaviy shaklda o‘qitishni amalga oshirish bo‘yicha bir qator amaliy ishlar qilindi. Jumladan, bir qator oliy ta’lim muasasalarida siyosatshunoslik bo‘limlari qayta tashkil qilindi. Xususan, Jaxon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, “23.00.00 – Siyosiy fanlar yo‘nalishida Ilmiy kengashlar qayta tashkil etilib, ularda oliy ta’limdan keyingi ikki bosqichli ilmiy darajalar berish tartibi joriy etilganligi munosabati bilan quyidagi ixtisosliklar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) ilmiy darajalari olish uchun dissertatsiyalar himoya qilinmoqda:

O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019 Ss.01.08 raqamli Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash:

23.00.01 – Siyosat nazariyasi va falsafasi. Siyosiy ta’limotlar tarixi va metodologiyasi;

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar;

23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019 Ss/Tar.21.02 raqamli Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash:

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar;

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/13.05.2020 Ss.23.03 raqamli Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash:

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida:

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar" [3, -B. 95].

Yuqorida sanab o‘tilgan va boshqa ixtisoslashgan Ilmiy Kengashlar faoliyati natijasida sohada faoliyat yurituvchi Ilmiy pedogogik kadrlar tayyorlashda muayyan yutuqlarga erishildi.

Shuningdek, Siyosatshunoslik yo‘nalishi oldida turgan ayrim vazifalarni sanab o‘tishimiz zarur;

1. Davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati uchun zarur bo‘lgan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash;
2. Davlat va jamiyat hayotida bo‘layotgan muhim siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va ularning mazmun mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazuvchi siyosiy tahlilchilarni tayyorlash;
3. Davlat va jamiyat rivojining strategik yo‘nalishlarini belgilashga ko‘maklashuvchi "aql markaz"lari, "Ilmiy tadqiqot markazlari"ni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega salohiyatli kadrlar bilan ta'minlash va boshq.

Shunday qilib, siyosatshunoslik yo‘nalishini oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda bir qator ishlarni amalga oshirish lozim. Xususan, sohaga doir yangi o‘zbek tilidagi darsliklar, qo‘llanmalar, o‘quv dasturlarini nashr etishning sifati va ko‘lamini oshirish hamda ilg‘or xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan yetakchi ilmiy markazlar, olimlar bilan xalqaro hamkorlikni jonlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish, sohada internet texnologiyalaridan keng foydalanish, siyosiy bilimlarga ixtisoslashgan hamda siyosatshunos olimlar o‘rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi platformalar yaratish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida siyosiy fanlar rivojini ta'minlashda yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish, sohada faoliyat yurituvchi yangi avlod kadrlarini tarbiyalash zaruratdir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida siyosiy fanlar rivojini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim;

- ilmiy-nazariy bilimlar va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyalashuvni kuchaytirish;
- sohada zamonaviy internet texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;
- sohada qo‘llash mumkin bo‘lgan zamonaviy texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini o‘zlashtirishni jadallashtirish;
- globallashuvning sohaga ta'sirini tahlil qilish, mavjud nazariy va amaliy ishlanmalarni muntazam yangilab borish;
- sohaga doir ilmiy adabiyotlarni, amaliy qo‘llanmalarni tayyorlash hajmini oshirish va sifatini ko‘tarish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O‘zbekiston-2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son farmoni. 11.09.2023. https://lex.uz/ru/docs/6600413.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora –

tadbirlari to‘g‘risida” gi 2019 yil 29 yanvarda qabul qilingan PQ – 4139 – sonli Qarori. https://lex.uz/ru/docs/4182353.

3. Bo‘taev,U.X.Siyosatshunoslik [Matn]: darslik / U.X.Bo‘taev – Toshkent: Info Capital Books, 2024. – 480 bet.

4. Фарманов Р.Ф., Жўраев.Қ.А., Турдиев М.Т. Замонавий сиёсатшунослик назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма. ЖИДУ.Тинчлик таълими ва маданиятлараро ҳамжиҳатлик маркази. 2013. 295. б.

5. Boden J. The six books of commonweale. A facsimile reprint of the English translation of 1606, corrected and supplemented in the light of a new comparison with the French and Latin texts. The Publisher Cambridge, Harvard University Press.1962.URL:https:// archive.org/ details/ sixbookesofcommo0000bodi/ page/n61/mode/2up (Мурожаат санаси: 02.03.2025).

A.P. Seitov **–** *Professor university of world economy and diplomacy, doctor of sociological sciences*

K.B. Izzatulloyeva **–** *lecturer university of world economy and diplomacy*

METHODS OF RESEARCHING POPULATION TRUST TO THE AUTHORITIES IN UZBEKISTAN

Introduction.

Within the framework of the Strategy "Uzbekistan - 2030", one of the areas of work is the further improvement of the mechanisms for taking into account in state programs current issues raised by the population and problems awaiting resolution [1]. In our opinion, the solution to these issues is possible within the framework of organizing and improving the methodology of the system for assessing (index) public confidence in the current government.

That is, the presence of effective channels of strategic communication between government agencies and the population is a key indicator of a democratic legal state, as well as an important condition for ensuring sustainable, stable and progressive development of the state and society. In this regard, in Uzbekistan, under the leadership of Shavkat Mirziyoyev, in recent years, systemic reforms have been carried out that have allowed citizens of the country to feel the embodiment of the noble idea of the Head of State "Man is the highest value. The people must live, content with life, not tomorrow, not in the distant future, but today" [2].

During the reforms of the new stage, a system of taking into account the opinion of the population by government bodies when establishing a dialogue with the people and making decisions on important socio-political issues was formed. In order to ensure the rights and interests of a person, dialogue with people, careful study and solution of life problems and needs of the people, Virtual and People's Reception Offices of the President of the Republic of Uzbekistan were created [3, 5].

In order to further strengthen the legislative foundations of the system of working with appeals, the Law "On Appeals of Individuals and Legal Entities" was adopted in a new edition [4]. In addition, responsible officials at all levels, working on the ground in the context of mahallas, identify shortcomings in improving the

standard of living of the population, study the opinion of the people on the reforms being carried out and, on this basis, try to organize their work [6].

Methodology.

Trust of the population as a phenomenon of political life has become an object of research relatively recently. At the same time, it was after the Second World War that it became clear that the uncontrolled activities of governments led humanity to the brink of physical destruction. Thus, A. Giddens defines trust as confidence in the reliability of a certain person or social system with respect to a given set of consequences or events, where this confidence expresses faith in the honesty or correctness of management decisions. Moreover, trust is vested not only in persons, but also in "abstract systems", such as expert knowledge or a financial system [8].

N. Luhmann considers it necessary to separate trust and confidence: "If you have no alternatives, you are in a situation of confidence. If you choose one action, preferring it to others, despite the possibility of being disappointed in the actions of others, you define the situation as a situation of trust" [9].

F. Fukuyama, in turn, defines trust as the expectation that arises among members of a community that other members will behave more or less predictably, honestly and attentively to the needs of others, in accordance with some general norms. In this concept, the main provisions of the functioning of the structure are people's trust in the socio-political and economic trends that occur in society.

Main part.

The basis of the legitimacy of power is the consent of the majority of members of a particular society in a particular territory regarding the goals and values implemented in the process of governance, as well as regarding the procedures by which government institutions are organized.

Here we see that legitimacy means the recognition by the population of this power, its right to rule. That is, legitimate power is accepted by the masses, they, in our case the people, agree to obey such power, considering it fair, authoritative, and the existing order is the best for the country.

The issue of the legitimacy of political power is also one of the aspects of the legitimacy of the social order, that is, its acceptance and approval by the majority of the population. In this case, approval and recognition of the social order can be expressed both explicitly and latently. Open recognition is expressed by a fairly wide range of collective actions that have a generally accepted, for example, voting in elections, and other, such as street support actions, character.

Latent recognition of the social and political order is most often expressed in the absence of protests, as well as in mass involvement in the functioning of political institutions (elections, political parties, local government, etc.).

It is here that sociologists, conducting public opinion polls, can identify what does not reach the behavioral level, but is associated with mass assessments, attitudes and values.

Scientists specializing in the field of sociology and political science, today more often evaluate the indicators of the legitimacy of power through the criteria of citizen satisfaction with the activities of government institutions, taking into account the above assumptions. Therefore, specific sociological data allow us to establish the presence of a relationship between the indicators of trust and satisfaction with the activities of government structures, and, consequently, their legitimacy. Given the

multifaceted nature of the phenomenon of trust, it is impossible to consider it only from one side, using only one indicator, especially in the conditions of Eastern countries [11]. That is, trust is a set of assessments of various processes occurring in society in the socio-economic sphere, politics, which consists of the satisfaction of the population with the activities of the authorities in the performance of their functions. In world practice today, the following are identified as basic indicators of trust in the authorities:

socio-economic criteria (statistics),
experimental and sociological measurements of trust,
involvement and participation of the population in socio-political life,
forms of development of civil society.

Conclusions.

Such socio-political measurements cannot be called accurate, since most of what is related to trust as a category reflecting the levels of political and legal culture in the consciousness of the masses exists in an implicit or relative form, which deprives sociologists of the opportunity for simplified codification, that is, measurement. Therefore, we believe that today there is no working foreign universal model that can be taken and copied for Uzbekistan.

The main anthropological factor in maintaining trust in the government in Uzbekistan is the conviction that the state is recognized as a positive force protecting the interests, rights and freedoms of citizens, ensuring social stability.

As a recommendation, it can be noted that the measurement and assessment of trust in the government should record the totality of its various empirical manifestations, which should act as complementary results. Using these indicators, it is possible to provide interested parties with information based on a comparative analysis of the level of trust for different periods of time in the context of territories, in our case, mahalla. And then a single integrated indicator can be used not only to adjust the work being carried out, but also to assess the level of political trust in society as an important component of Uzbekistan's development.

Literature:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy "Uzbekistan - 2030"" No.UP-158 dated September 11, 2023 // https://lex.uz/docs/6600404
2. Mirziyoyev: people should live well not tomorrow, but today. // https://kun.uz/ru/news/2019/08/20/mirziyoyev-lyudi-doljny-jit-xorosho-ne-zavtra-a-ujye-segodnya
3. Президент Шавкат Мирзиёев виртуал қабулхонасининг янги талқини ишга туширилди. // https://www.norma. uz/uz/ bizning_sharhlar/ prezident_virtual_qabulhonasining_yangi_talqini_ishga_tushirildi
4. On measures to further improve the system of working with population problems. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. National database of legislation. // https://lex.uz/docs/4166965
5. On amendments and additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On appeals of individuals and legal entities". Law of the Republic of Uzbekistan. National database of legislation. // https://lex.uz/docs/3336171

6. People's reception offices of the President will be opened in each city and district. // https://www.gazeta.uz/ru/2016/12/28/decree/
7. Government portal of the Republic of Uzbekistan. // https://gov.uz/uz/pages/government_sites
8. Giddens A. The consequences of modernity. Cambridge, 1990. P. 34-36.
9. Luhmann N. Trust and Power. Chichester, 1979. P. 99.
10. Ф.Фукуяма. Угасание государственного порядка. Москва, 2017. С. 517.
11. Сеитов А.П. Социологическое видение восточной цивилизации: генезис и дальнейшие перспективы. Монография. Ташкент: Издательство Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, 2019. С.184.

N. Dexkanov *– Namangan davlat universiteti professori, s.f.d.*

SIYOSIY MENEJMENT – JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI

Siyosiy menejment jamiyat hayotini tartibga soluvchi, uning turli jarayonlarini maqsadga muvofiq tashkil qiluvchi va yo‘naltiruvchi usul va vositalar tizimidir. Garchi “menejment” so‘zi asosan XX asr oxirlarida erkin bozor munosabatlari davrida iqtisodiy boshqarish ma’nosida qo‘llanilgan va “market”, ya’ni bozor so‘zi bilan uyg‘un holda ishlatilgan bo‘lsa-da, siyosiy boshqaruv, oddiy tilda siyosiy idora masalasi uzoq o‘tmishga, demokratiyaning ilk debochasi yuzaga kelgan qadimgi Yunonistonda shahar davlatlarni, “polis”larni boshqarish amaliyotiga borib taqaladi. Qayd etish lozimki, shaharni, davlatni boshqarish masalasi Sharqda ham katta o‘rin egallagan. Bu xususda Leo Szi va Konfusiydan tortib Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Yusuf Xos Hojib[54], Sohibqiron Amir Temur va Boburiylargacha turli darajada va maqomda qimmatli qarashlar va ta’limotlar yaratilganligini ta’kidlash lozim. Abu Nasr Forobiyning shaharni idora etish, boshqarish prinsiplari va turli mezonlari haqidagi ta’limoti alohida ahamiyatga ega[55]. Ayniqsa, Amir Temurning “Tuzuklari” bugungi davlat boshqaruvi uchun namunali, ibratli g‘oyalarni o‘zida jamlagan[56].

Bugungi o‘zbek davlatchiligi jahon tajribasi bilan bir qatorda milliy davlatchiligimiz boshqaruv an’analarini ham hisobga olgan holda xalqchil, xalqparvar demokratik boshqaruv prinsiplarini izchillik bilan hayotda qaror toptirmoqda. “Taraqqiyot strategiyasi”ning birinchi ustivor yo‘nalishi to‘liq shu masalaga, ya’ni inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish masalasiga bag‘ishlangan[57]. Bu esa siyosiy boshqaruv tizimi hayot bilan hamnafas takomillashib borayotganligini ko‘rsatib bermoqda.

Siyosiy menejment masalasi nisbatan G‘arb ilmida chuqur va har tomonlama ishlangan. Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini ishlab chiqqan T.Gobbs, J.Lokk, Sh.Montesk’ye, G.Grosiylargacha buyuk italyan faylasufi florensiyalik Nikolla Makiavelli (1469-1527 yillar) davlat boshqaruvi, ya’ni siyosiy menejment san’atiga

[54] Ёкубов А. “Қутадғу билиг”да давлатчилик концепцияси. – Т., 1997. –Б. 18.
[55] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993
[56] Темур тузуклари. –Т.: Шарқ, 2005
[57] https://lex.uz/docs/5841063

doir o‘zining shoh asari “Hukmdor” asarini yaratdi[58]. Bu asar o‘sha davr Lorenso del Medichiga huddi “Temur tuzuklari” kabi pand-nasihat qabilida yozilgan bo‘lib, u kuchli davlat hokimiyati tarafdori sifatida davlat boshqaruvida barcha vositalarni, hatto aldov, hiyla va shavqatsizlik usullaridan ham foydalanish lozimligini ta’kidlaydi. O‘rta asr jamiyatining axloqi bunday siyosatni ko‘tarar edi. N.Makiavelli ta’limoti asosan avtoritar, diktatura, yakkahokimlik siyosiy tartiblariga mos keladi.

Bugun esa vaziyat, davr boshqacha – Pryezident Sh.Mirziyoyev xalqimiz tarixida ochgan yangi sahifa adolatli xalq hokimiyatchiligini barpo etish, yuksak axloqiy prinsiplar asosida xalqni, jamiyatni boshqarish, har qanday ko‘rinishdagi zo‘ravonlikka, davlat zo‘ravonligiga, amaldor suiste’molchiligiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilganligi bilan ajralib turadi. Buni turli darajada xalqaro kuzatuvchi tashkilotlar, siyosiy ekspertlar ham qayd etmoqdalar, mamlakatimizni umumjahon demokratiyalashuv, inson huquq va erkinliklarini so‘zda emas, amalda qaror topishiga yo‘naltirilgan jarayonlariga teng huquqlilik asosida tobora chuqurroq uyg‘unlashib borayotganligini ta’kidlamoqdalar.

Biroq jamiyat siyosiy hayotida hanuzgacha ayrim joylarda eskicha boshqaruv usullarining ko‘rinishlari saqlanib qolmoqda. Buni xalq qabulxonalariga, hukumatga tushayotgan turli ariza va shikoyatlar, ularning dinamikasi ko‘rsatib turibdi. Bugun ommaviy axborot vositalari erkin va ochiq turli muammolarni yoritmoqda. Lekin sosiologiya fanining ta’kidlashicha, innovatsiyaga qarshi aksil innovatsiya tendensiyasi ham mavjud[59]. Chunki eskilik doimo yangilikka to‘siq bo‘lib kelgan. Bu har qanday o‘zgarish jarayonida kuzatiladi[60]. Siyosiy o‘zgarishlar, islohotlar jarayoni bundan mustasno emas.

Buni bo‘lib o‘tgan davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar, unda siyosiy elitaning pozisiyasi, olib borilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotlar, sosiologik so‘rovnomalar ham isbotladi. Xalqimiz siyosiy ongi uyg‘onganligi, ijtimoiy faollik oshganligi, davlat boshqaruv ishiga befarqlik, loqaydlik fuqarolar ongi va faoliyatida kun sayin kamayib borayotganligi kuzatildi. Bu – Prezident Sh.Mirziyoyev ilgari surayotgan ijtimoiy barqarorlikka erishish va uni mustahkamlash siyosatiga hamohang sodir bo‘lmoqda, davlatimiz obro‘yi xalq oldida ortmoqda, xalqda ishonch hissi mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, moliya sohasidagi erkinliklar, innovasion o‘zgarishlar odamlar ijodkorligiga yo‘l ochmoqda, har bir fuqaro olib borilayotgan yangilanishlar, ijtimoiy yuksalish siyosatiga mehr bilan qaramoqda.

Biroq bu yutuqlar bilan cheklanmasdan, atrofda, qo‘shni davlatlarda, mintaqa va jahonda bo‘layotgan o‘zgarishlardan, o‘ziga xos yuksalish, yetakchilik uchun iqtisodiy, ilmiy, texnik va madaniy sohalarda kuchayib borayotgan raqobat jarayonidan ko‘z yumish, natijada orqada qolish, boshqa davlatlar muomaladan chiqargan texnologiyalarni “innovatsiya” deb mamlakatimizga olib kirishdan ogoh bo‘lish talab qilinadi.

Bunday vaziyatda davlat boshqaruvini, siyosiy menejmentni o‘zbek jamiyati misolida ishlab chiqishni, siyosiy elitani yangi avlodini shakllantirishni lozim. Rossiyada esa bunday tajriba mavjud. M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida siyosiy menejerlarni tayyorlovchi maxsus fakultet anchadan buyon faoliyat ko‘rsatmoqda, mahalliy, mintaqaviy va markaziy boshqaruv tizimi uchun

[58] Макиавелли Н. Государство. – М.: Энемо, 2013. – С. 544.
[59] Содиқова Ш. Ўзгаришлар социологияси. – Т.: Akademiya, 2019. – Б. 94-95.
[60] Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. – Т.: ТДЮИ, 2006. – Б. 214.

zamonaviy yosh kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilgani vaqti-vaqti bilan rayon, oblast va okrug kesimlari uchun yosh rahbar kadrlar konkursi ham o‘tkaziladi. Eng muhimi – sog‘lom yosh siyosiy boshqaruvchi kadrlar zahirasi shakllanadi.

Bizningcha, bugun mamlakatimizda professional, kompetent mutaxassislar kamyob. Buni davlat boshqaruv tizimida, siyosiy sharhlar, bashorat va tahlillar sifatidan bilish mumkin. Siyosatchilar tayyorlaydigan oliygohlar yetarli emas. Siyosat shaxmat o‘yini kabidir. Siyosatda ustunlikka erishish uchun turli mavjud siyosiy uslublardan, kombinatsiyalar, ularning tarixidan xabardor bo‘lishlik talab qilinadi. Hech bo‘lmasa mamlakat ichkarisida shakllanayotgan siyosiy xavflarni (siyosiy ekstremizm) o‘z vaqtida fahmlash, uni zararsizlantirishga qaratilgan tadbirlarni, aniq texnologiyalarni yaratish uchun ham maxsus siyosiy bilimlar kerak. Siyosiy konsalting instituti bu masalada qo‘l keladi. Siyosiy konsultant siyosiy maslahatchi emas. Davlat siyosati va ijtimoiy siyosat ham aynan emas, ular o‘rtasida muayyan o‘hshashlik bilan birga ayrim farqlar ham mavjud. Bunday aynanchilik va farqlarni, tavofutlarni bilish uchun (dialektik ayniyat va tavofut qonuni – N.D.) siyosiy menejment haqidagi, ilmiy bilimlar tabiati haqida ma’lumotga ega bo‘lish kerak.

Shuni qayd etish lozimki, bugun bizning saylov amaliyotida ilmiy metodologiya, ayniqsa amaliy politologiya, konkret sosiologiya va ayniqsa ijtimoiy psixologiya fanlari metodlariga juda ham kam murojaat qilinmoqda. Chunki bugun ham xalqni, ommani bir tabiatli yaxlit qorishma, “massa” deb tushunish saqlanib qolgan. Konkret insonga, uning ijtimoiy roliga qaratilgan siyosiy menejment kuzatilmaydi. Bugun vaziyat o‘zgargan. Saylovchi, uning ongi va madaniyati ham davr taqozosi bilan o‘zgardi. Biroq konservativ psixologiya saylovga nisbatan ijtimoiy faollikni susaytiradi. Biroq bunday psixologiya darrov o‘zgarmaydi, uning tarixiy ildizlari fuqaro ongida mavjud. Bu ildizlar o‘tmish ma’muriy-buyruqbozlik, boshqaruv nomenklaturasi amaliyoti bilan bog‘liq. Tarixiy xotira nafaqat ijobiy, balki salbiy hodisalar bilan ham aloqador ekanligini hayot tasdiqlaydi.

Bugun har qanday siyosiy menejment bixevioristik formula, “stimul-reaksiya” yoki motivatsiya uslublariga murojaatsiz mumkin emas. O‘zbek tilida bu – insonni u yoki bu siyosiy hodisaga, tadbirga qiziqishini hisobga olish, dahldorlik hissini shakllantirish deyiladi. Befarqlik, loqaydlik, siyosiy voqeaga qiziqmaslik – siyosiy menejmentga zid, teskari, hatto zararli psixologiyadir.

Bizning fikrimizcha, siyosiy menejment ob’yektsiz va predmetsiz mumkin emas. Amaliy, ya’ni siyosiy texnologik jihatdan yondashilganda esa “maqsad-vosita-natija” triadasiga murojaat qilishgina emas, balki undan foydalana olish malakasiga ham ega bo‘lish kerak bo‘ladi.

Ta’kidlash zarurki, siyosiy menejment amaliy va nazariy metodlarini unumli qo‘llash orqali nafaqat ijtimoiy barqarorlikni, balki ijtimoiy beqarorlik vaziyatlarini ham shakllantirishi mumkin. Buni asrimiz boshlarida Yaqin Sharqda kuzatilgan “arab bahori” (Liviya, Tunis, Jazoir, Misr), “rangli inqiloblar” (Qirg‘iziston, Gruziya) va nihoyat Ukrainada sodir bo‘lgan ijtimoiy vaziyatlar – beqarorlik, fuqarolararo urushlar tarixan tasdiqladi. Shubhasiz – bu yerda siyosiy menejment jarayoni, turli siyosiy texnologiyalar qo‘llanilganligi ma’lum.

Qo‘shni Afg‘onistondagi vaziyat ham siyosiy menejment bu mamlakatda zaifligi, nochorligidan dalolat. Davlatni, jamiyatni mohirona boshqarish, ilmiy tilda ifodalaganda “siyosiy menejment”dan foydalanish uchun boshqaruvchilardan, idora etuvchilardan u haqda siyosiy bilimlar va malaka talab qilinadi.

Turli qiyin, chigal vaziyatlardan mamlakatni olib chiqish, barqaror taraqqiyot sari yetaklash uchun siyosiy yetakchilardan xalq psixologiyasi va mentalitetidan, mavjud imkoniyatlar va ijtimoiy salohiyatlardan xabardor bo‘lish, ularni vaziyatni hisobga olib ishga solish talab qilinadi. Zero, siyosiy menejment faqat usul bo‘lib, maqsad esa turli tabiatda – ezgu yohud yovuz bo‘lishi mumkin. Xalqimiz tarixan tanlagan maqsad esa tabiatan ezgu bo‘lib, unga erishish uchun ilmiy siyosiy menejmentga ehtiyoj va zururiyat mavjud.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligiga siyosiy menejment institutini yanada takomillashtirish, yangi tipdagi va xarakterdagi boshqaruv tizimi kadrlarini shakllantirish orqali erishish mumkin. Zero, barcha o‘zgarishlarning asosiy sub’yekti – inson, rahbar shaxslar, menejerlardir. Chunki myenejment, davlat boshqaruvi sohasi uchun maxsus tayyorgarlikka va malakaga ega kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish mamlakat siyosiy elitasi salohiyatini yuksaltiruvchi omildir.

С.Ш. Саидов – *Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети кафедра мудири, с.ф.д.*

СИЁСИЙ ФАНЛАР ТАДҚИҚОТИДА АКАДЕМИК ЭРКИНЛИК МАСАЛАСИ

Ҳар бир мамлакат тараққиёти, унинг гуллаб-яшнаши ёки инқирозга учраши, энг аввало, жамиятда илм-фаннинг аҳволига бевосита боғлиқ. Янги ғоялар, илмий кашфиётлар, инновацион ташаббуслар ва ноанъавий ёндашувлар бугунги XXI асрнинг талаби ҳисобланади. Фан ютуқлари нафақат ижтимоий ҳаётимизни, балки бутун цивилизация тақдирини белгилаб бермоқда. Бундай ҳолатда эса академик эркинлик омили бирламчи ўринга чиқмоқда. ***Ҳўш, бугун Ўзбекистонда академик эркинлик даражаси қай ҳолатда? Жамият ва давлат тўлиқ академик эркинликка тайёрми? Илм-фанга бўлган муносабат ва эътиборни қандай баҳолаш мумкин?*** шу ва бошқа саволлар кун тартибига чиқмоқда.

Масаланинг назарий аспектлари.

Академик эркинлик – бу олий таълим муассасалари ва илмий-тадқиқот ташкилотларининг талабалари, илмий ходимлари ва профессор-ўқитувчиларининг ўз миссияларини бажаришлари учун зарур бўлган тадқиқот эркинлиги тамойилларидир. Таълим муассасалари ахборот оқимини назорат қила олиши сабабли улар кўпинча ташқаридан, масалан, давлат томонидан босимга дучор бўлишади. Олимлар ҳокимият ёки маълум сиёсий гуруҳлар учун ноқулай бўлган фактлар ҳақида ғоялар ёки маълумотларни тарқатишга ҳаракат қилганда, улар оммавий қоралаш, ишдан бўшатиш ёки бошқа турдаги жавобгарликка тортилиши ҳам мумкин.

Академик эркинлик мамлакатнинг илм-фан соҳасидаги асосий ҳуқуқлардан биридир. ЮНЕСКО томонидан илгари сурилган вариантга кўра *Academic Freedom* қуйидаги эркинликларни назарда тутади[61]:

- Ўқитиш ва муҳокама қилиш;
- Тадқиқот ва нашр этиш;

[61] Recommendation concerning the Status of Higher-Education Teaching Personnel // https://www.unesco.org/en/legal-affairs/recommendation-concerning-status-higher-education-teaching-personnel

• Ўз фикрингизни омма олдида билдириш;

• Университет (ёки давлат) томонидан цензурага учрамаслик.

Кўриниб турибдики, академик эркинлик турли элементлардан иборат. Бундан ташқари, у бир неча даражаларда: давлат даражаси, институционал даража ва шахсий даражада намоён бўлади.

Академик эркинлик сифатли олий таълим олишнинг зарурий шартидир. Ҳар қандай саволни, ҳатто энг ноқулай саволларни ҳам бериш қобилияти фанни олдинга силжитади. Кўпчилик талабалар университетга кўзлари ёниб, фикр юритишга, баҳслашишга ва мулоҳаза юритишга тайёр ҳолда келишади. Аммо у ерда (биринчи навбатда **давлат даражасида**) улар бюрократия, вертикаллашув ва “сукут сақлаш”га дуч келишади. Давлат томонидан "қабул қилинган" меъёрлар чегарасидан ташқарига чиқмасдан, уларни иложи борича ноаниқ муҳокама қилишади. Бу мамлакатдаги умумий мафкура ва ижтимоий муносабатларга боғлиқ.

Институционал даражада одатда чекловлар камроқ кўринади. Талабалар, ўқитувчилар ёки илмий тадқиқотчилар ўзларининг университетларида турли, ҳатто энг мунозарали мавзуларни муҳокама қилишлари мумкин. Бу жойда кўп нарса муассасанинг (университет ёки ўқув-илмий марказнинг) ўзига боғлиқ. Интеллектуал эркинлик муҳитини яратиш замонавий таълим менеджменти ва ўқитиш методикасини жорий қилишни ҳам талаб этади.

Академик эркинликни тартибга солишнинг **шахсий даражаси** – ўз-ўзини цензура қилиш (самоцензура) ҳисобланади. Ажабланарлиси шундаки, бу борадаги турли таҳлилларда белгиланишича айнан ушбу даража умумий ҳисобда академик эркинликнинг 80 фоизини блоклайди. Лекин шахсий

цензура ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Кўпинча, бу ижод эркинлигининг ташқи чекланишининг маҳсулидир. Бундай шароитда тадқиқотчилар турли санкциялардан қўрқиб, маълум мавзулардан онгли равишда қочишади. Чунки, айнан ўхшаш фаолият учун қандай ва кимлар жазонлаганини кўришган, эшитишган ёки кузатишган. Бу ҳолатда ўз-ўзини цензура қилиш учун инсонларга таҳдид қилиш шарт эмас.

Академик эркинлик таълим муассасасининг автономияси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бу муассасанинг ўз сиёсатини белгилашда, ўқув жараёнини амалга оширишда, кадрларни танлаш ва жойлаштиришда, илмий, молиявий ва бошқа фаолиятда мустақиллигини билдиради. Академик эркинлик анъанавий равишда ўқитиш эркинлиги ва талабалар эркинлиги (сўз эркинлиги, тадқиқот, фикрни ифода этиш, таълим курслари ва шаклларини танлаш ва бошқалар) каби элементларни ўз ичига олади.

Ўзбекистон реалликларида академик эркинлик.

Ўзбекистондаги вазиятни ҳам юқорида қайд этилган академик эркинликнинг 3 та даражаси мисолида таҳлил этишимиз мумкин. Масалан, давлат даражасида амалдаги белгилаб берилган курсдан ўзга масалаларни таҳлил қилиш “қўллаб-қувватланмайди”. Бу борадаги илмий-тадқиқот ёки маърузаларда нозик масалалар – коррупция, мансабдор шахсларнинг этикаси, давлат бошқарувидаги маҳаллийчилик ва бошқа “оғриқли” мавзуларни тадқиқ этиш мумкин эмас. Бу ҳолат айниқса ижтимоий-сиёсий фанлар (сиёсатшунослик, социология, фалсафа ва б.) йўналишида яққол кўзга ташланади. Яъни, ёш тадқиқотчи диссертация мавзусини тасдиқлашда албатта “амалдаги курсга” ҳамоҳанг равишда танлаши талаб этилади.

Тўғри, сўнгги йилларда олий таълим соҳасида бир қанча ислоҳотлар амалга оширилди. Масалан, олийгоҳлар сони 2,5 баробар кўпайиб, 198 тага етди, талабалар қамрови даражаси 38 фоизни ташкил этмоқда. Бу борада 41 та олийгоҳга академик ва молиявий мустақиллик берилди[62]. Давлат даражасида *таълим сифатини ошириш – Янги Ўзбекистон тараққиётининг яккаю ягона тўғри йўлидир*[63]дея эътироф этилиши ҳам бу борада янги умидларни пайдо қилади.

Умуман, давлатимиз раҳбарининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига йўллаган мурожаатномаларида таълим йўналишидаги истиқболларни қуйидагича кўринишни тизимлаштиришимиз мумкин:

- таълим сифати ҳамда жамиятда ўқитувчи касбининг нуфузини ошириш;
- таълим муассасаларини янги методика асосида яратилган дарсликлар ва ўқув адабиётлари билан таъминлаш;
- ўқувчи (талаба)ларда эркин ва креатив фикрлашни, жамоада ишлаш ва мулоқот кўникмаларини шакллантириш;
- тизимга халқаро таълим дастурлари ва илғор стандартларини татбиқ этиш ва бошқалар.

[62] Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 24.12.2021 йилдаги ПҚ-60-сон // https://lex.uz/docs/5793261

[63] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-mazhlis-va-ozbekiston-xalqiga-murozhaatnomasi_437285

Лекин, бу масаланинг бир томони. Бошқа томондан эса муаммоли вазият ва эскича ёндашувлар ҳалиям устуворлик касб этмоқда. Масалан, таълимнинг мазмуни, фаналар каталоги ва унинг "мафкуравий қиёфаси" давлат томонидан маълум қолип асосида қаттиқ назорат қилиб борилади. Университетлар тизимида бир қанча лавозим ва бўлимлар мавжудки улар таълим сифатига эмас, балки талабаларни бевосита назоратда ушлаб туришга қаратилган.

Буларнинг натижаси ўлароқ Ўзбекистондаги ҳеч бир университет дунёда тан олинган "QS World University Rankings", "The Times Higher Education" каби рейтингларда ўз ўрнини мустаҳкамлай олмаяпди. Ёки бўлмаса 2020-2023 йилларда эълон қилинган дунё бўйича ***Academic Freedom Index***[64] тизимида Ўзбекистон эркинликка хавф юқори бўлган мамлакат сифатида баҳоланиб, қуйи поғоналардан ўрин олган.

Илмий тадқиқотлар ва академик эркинлик.

Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар олиб бориш (диссертация ҳимоя қилиш) борасида совет даври тажрибаси тўлиқ сақлаб қолинган. Унга қўшимча равишда эса турли бюрократик сунъий тўсиқлар ҳам шакллантирилган. Масалан, дунёнинг бирон бир цивилизацион мамлакатида бўлмаган ташкилот – Олий аттестация комиссияси (ОАК) деган давлат муассасаси мавжуд бўлиб, у илмий ишлар ҳимояси борасида монопол мавқейга эга.

Ёш тадқиқотчи бирор бир мавзу устида диссертация ёзмоқчи бўлса у қуйидагича тизимдан ўтишга мажбур. Даставвал у мавзусини кафедра, университет (ёки институт) кенгашида тасдиқлатади ва ОАКга диссертация мавзусини тасдиқлаб бериш бўйича мурожаат қилади. Мавзу тасдиқлангандан кейин тадқиқотчи изланишни бошлаши мумкин. Яна бу ерда ижтимоий-сиёсий фанлар учун юқорида кўрсатилган "алоҳида" талаблар мавжуд. ОАК томонидан *Диссертация ва диссертация авторефератини расмийлаштириш қоидалари*[65] ишлаб чиқилган бўлиб, унга кўра барча диссертацияларни ягона қолипга солиш амалга оширилади.

Бунда диссертациянинг долзарблиги, объекти, предмети, мақсади, илмий янгилиги ва бошқа барча қисмлари қандай бўлиши, нечта абзацдан иборат бўлиши кераклиги белгилаб берилган. Дессертацияларнинг ҳажми, унинг ҳукумат қарорлари билан ҳамоҳанглиги каби жиҳатларга ҳам эътибор берилади. Ҳаттоки тадқиқотчи ўз илмий изланишлари доирасида қайси илмий журналларда мақола чоп этиши кераклигию қайсиларида мумкин эмаслигигача белгилаб қўйилган.

Шу жойда илмий мақолалар чоп этиш борасида қисқача тўхталиб ўтсак. 2018 йилдан бошлаб Ўзбекистонда барча олий таълим ва илмий муассасаларда Scopus ва Web of Sciences тизимига кирувчи журналларда мақола чоп этиш вазифаси белгилаб қўйилган. Бу норасмий белгиланган мажбурият бўлса-да, уларсиз докторантлар аттестациядан ўтказилмайди, профессор-ўқитувчилар учун эса ишдан бўшатилиш "таҳдиди" пайдо бўлади. *"Илмий журналда мақола чоп этишдан мақсад нима?* – дея савол қўяди Валерий Хан ўзининг "Ҳамма Scopus'да мақола чиқарсин" дея номланган мақоласида, – *Энг аввало, улар илмий жамоатчиликнинг мулкига айлансин, фаннинг у ёки бу соҳаси ривожига*

[64] https://www.gppi.net/2021/03/11/free-universities

[65] Диссертация ва диссертация авторефератини расмийлаштириш қоидалари // https://oak.uz/userfiles/files/6_%20Amaliyot.pdf

хизмат қилсин. Шу муносабат билан у ёки бу журналдаги мақолаларнинг роли ва аҳамияти бир томонлама бўлмайди"[66]. Биз бу борада турли халқаро индексларга кирган журналларда мақолалар сонини сунъий равишда оширишга ҳаракат қилмоқдамиз. Уларнинг кўпчилиги охир-оқибат йиртқич журналлар (хищнические журналы) бўлиб чиқмоқда. Бу эса педагог-ходимлар ва тадқиқотчиларни ҳам моддий, ҳам маънавий қийнаб қўймоқда.

Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий, жумладан сиёсатшунослик фани йўналишида илмий иш олиб бориш бу алоҳида мавзу, дейиш мумкун. Масалан, сўнгги йилларда сиёсий фанлар доирасида ҳимоя қилинган айрим диссертация ишлари мавзуларининг ўзида долзарбликни кўриш қийин. Тадқиқот объекти ва предмети ҳам умумий гаплар билан баён этилган. Амалиётда қўллаш борасида жўяли таклиф ва тавсиялар мавжуд эмас. Бу эса ижтимоий-сиёсий фанлар йўналишидаги тадқиқотларнинг сусайишига, академик эркинлик ва тадқиқот мустақиллигининг чекланишига ва илм-фаннинг инқирозига сабаб бўлмоқда.

Хулоса.

Илм-фан ва тадқиқотлар ҳар доим келажакка хизмат қилган. Барча ислоҳотлар ва янгиланишларнинг таг-замирида илм туриши барчага аён. Лекин, бугунги кунда бу борада бир қанча камчиликлар мавжуд. Фан соҳасидаги техник, технологик ёки молиявий қолоқликларни ўрни тўлдириш мумкин, аммо академик ва сўз эркинлиги билан боғлиқ муаммолар миллий фанимиз ривожига катта зарба беради. Бу, аввало, тафаккурдаги эврилишлар билан боғлиқдир. Шу маънода қуйидаги жиҳатларга эътибор бериш лозим:

- Ўзбекистондаги университет ва илмий-тадқиқот марказларининг академик мустақиллигини таъминлаш борасидаги амалий ишларни чуқурлаштириш талаб этилади. Уларни фақатгина талабаларни қамрови, моддий-техник базани мустахкамлаш билан эмас, балки янги фан ва техника, илмий-инновацион муҳитда ишлайдиган, ғоялар ва ташаббуслар генератори сифати ислоҳ қилиш лозим. Бугунги кунда илм билан шуғулланаман деган ёш тадқиқотчилар жуда кўп. Уларнинг аксарияти янги илмий назариялар, ёндашув ва лойиҳалар устида ишламоқда. Кўпчилиги, ҳатто, хорижий илмий-тадқиқот марказлари ва етакчи университетларда малака ошириб келишган. Лекин, миллий илм-фанимизда оқсаётган академик эркинлик ва юзага келаётган бундай нохуш омиллар сабаб, ушбу ёш олимлар илм-фандан четга чиқиб қолишмоқда.
- Миллий илм-фанимиз ривожига ғов бўлаётган турли бюрократик омилларни буткул йўқ қилиш зарур. Бу борада диссертациянинг маълум қолиплар ва стандартларга жавоб бериши эмас, балки унинг илмий-назарий ва амалий-татбиқий қиймати бўйича баҳолашнинг шаффоф тизимини яратиш керак.
- Давлат томонидан таълим, илм ва фанга қаратилган инвестицияни кучайтириш лозим. Бу борада давлат ва жамиятнинг якдил ҳаракати талаб этилади. Илм-фан ва таълим соҳасига қаратилган fundraising стратегияларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ бўларди.

Дунё тажрибасидан маълумки, энг яхши ва самарали сармоя бу инсон капиталига йўналтирилган маблағдир. Таълим соҳасидаги ислоҳотлар бир

[66] Всем публиковаться в Scopus! // https://www.gazeta.uz/ru/2022/02/10/scopus/

томонлама эмас, балки комплекс равишда бўлиши, унинг ядросини эса академик эркинлик ва фикрлар плюрализация ташкил этиши даркор. Замонавий жамиятларда айнан янги илмий ғоялар иқтисодий “товар” сифатида тавсифланади. Янги ғоялар ва янги ташаббуслар эса, аввало, янги авлод олимлари томонидан ишлаб чиқилади. Мамлакатнинг фойдали қазилмалари, ишлаб чиқариш қувватлари ва бошқа барча турдаги ресурсларининг охири бор, фақатгина инновацион илмий ғоялар заҳираси чексиздир.

R.G‘. Jumayev *– Buxoro davlat universiteti professori, s.f.f.d.*

RAQAMLI SIYOSATSHUNOSLIK: TARAQQIYOT, AFZALLIKLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Bugungi kunda raqamlashtirish jamiyat taraqqiyotidagi asosiy mega-trendlardan biri bo‘lib, u turli sohalarga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, shaxsning kasbiy faoliyati jarayonida turli shaklda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ular muloqot, bilim olish va ijtimoiylashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida amal qiladi. Bu qanchalik uzoq davom etishi va uning kelgusi rivojlanishi ekstensiv yoki intensiv bo‘lishi haqida aniq xulosa chiqarish qiyin. Biroq XXI asr voqeligi sifatida uning uchinchi o‘n yilligi ostonasida raqamlashtirish va kengroq ma’noda texnologizatsiya, eng ta’sirchan taraqqiyot drayverlaridan biri bo‘lib qolmoqda. U faqatgina texnologiya va uning qo‘llanilishi tuzilmasida emas, balki nomoddiy sohada – ong, ijtimoiy dinamika, jamiyatning mavjudlik va rivojlanish mexanizmlari kabi yo‘nalishlarda ham o‘zgarishlarga turtki bermoqda. Zamonaviy texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga, shu jumladan, siyosatshunoslik fanini o‘qitish jarayoniga ham ijobiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Raqamli siyosatshunoslik bu – siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, jamoatchilik bilan muloqot qilish, saylov jarayonlarini boshqarish va siyosiy qarorlar qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni va davlat boshqaruvini raqamli vositalar orqali amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Masalan, onlayn ovoz berish, elektron hukumat, ijtimoiy tarmoqlardagi diplomatik faoliyat (“tvitter-diplomatiya”), siyosiy targ‘ibotning internet platformalar orqali olib borilishi va sun’iy intellektdan foydalanish nazarda tutiladi.

Bugungi kunda turli platformalar orqali fuqarolar o‘z tashabbuslarini ilgari suradilar, bu esa, davlat boshqaruvi bilan aloqalarni kuchaytiradi. Shuningdek, onlayn ovoz berish amaliyoti fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

"Raqamlashtirish" (digitalization) atamasi ilk bor 1995 yilda amerikalik tadqiqotchi Nikolas Negroponte tomonidan ishlatilgan. U Massachusets texnologiya institutida faoliyat yuritgan. Negroponte o‘zining "Being Digital" (Raqamli bo‘lish)[67] kitobi orqali atomlar va bitlarni solishtirgan, ularni moddiy va raqamli dunyoning eng

[67] Negroponte Nicholas. Being digital. 1995. New York: Alfred A. Knopf. P. 243.

kichik elementlari sifatida tavsiflagan. Uning fikriga ko‘ra, atomlardan iborat narsalarni bitlardan ham yaratish mumkin.

Iqtisodiyot va boshqa ijtimoiy sohalarda raqamlashtirish konsepsiyasining kengayishi, shu asosda global boshqaruv ustuvorligining shakllanishi To‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) paradigmasi doirasida rivojlana boshladi. Bu yangi texnologik tuzilma sifatida qaraladi.

Raqamli siyosatshunoslik internetning rivojlanishi, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Quyida uning asosiy taraqqiyot yo‘nalishlari keltirilgan:

- internet va ijtimoiy tarmoqlar – siyosiy kommunikatsiyaning asosiy vositasiga aylandi;
- katta ma’lumotlar tahlili – siyosiy jarayonlarni tushunish va bashorat qilishda muhim ahamiyat kasb etdi;
- sun’iy intellekt va mashinali o‘rganish – saylov natijalarini tahlil qilish va siyosiy qarorlarni modellashtirish uchun ishlatila boshladi;
- blokcheyn va elektron ovoz berish – saylov jarayonlarini shaffof va xavfsiz qilish uchun rivojlanmoqda.

Raqamli siyosatshunoslik an’anaviy usullarga nisbatan qator afzallik va qulayliklarga ega:

1. Shaffoflik va ochiqlik – raqamli texnologiyalar siyosiy jarayonlarning shaffofligini ta’minlaydi.
2. Jadallik va tezkorlik – ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish va qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.
3. Keng qamrovli tahlil – katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt yordamida jamiyatdagi siyosiy tendensiyalarni tushunish osonlashadi.
4. Ommaviy ishtiroki oshishi – fuqarolar ijtimoiy tarmoqlar va elektron hukumat vositasida siyosiy jarayonlarda faol qatnashish imkoniga ega.

Garchi raqamli siyosatshunoslikning imkoniyatlari keng bo‘lsa-da, u ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi:

- kiberxavfsizlik tahdidlari – saylov ma’lumotlari va hukumat portallari kiberhujumlarga uchrashi mumkin;
- axborot manipulyasiyasi va yolg‘on xabarlar – raqamli muhitda noto‘g‘ri ma’lumotlar tarqalishi va ommaviy manipulyasiya kuchayishi mumkin;
- raqamli tengsizlik – rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida raqamli imkoniyatlar farqi katta;
- shaxsiy ma’lumotlarning himoyalanishi – fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligiga tahdidlar mavjud.

An’anaviy tuzilmalarga qarshi chiqish – protest harakatlari, antielita, hatto anarxistik harakatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlar, ayniqsa, 2000-2010 yillar oralig‘idagi global siyosiy o‘zgarishlar davrida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu davrda dunyoning turli mintaqalarida “Tvitter-revolyusiya” deb nomlangan yangi turdagi siyosiy mobilizatsiya kuzatildi. Bu harakatlarda ishtirok etgan fuqarolar davlat nazoratiga bo‘ysunmaydigan ijtimoiy tarmoqlar orqali uyushgan. Bunday hodisalar “rangli inqiloblar” deb nomlangan. Biroq ijtimoiy tarmoqlar rivojlangani sababli bu jarayonlar global tus ola boshladi. Bu hatto Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq kabi demokratiyaga nisbatan befarq hisoblangan mintaqalarda ham siyosiy harakatlarni faollashtirdi.

Raqamli texnologiyalar siyosiy aloqalarda muhim vositaga aylanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etilgan “tvitter-revolyusiyalar” va “arab bahori” kabi jarayonlar davlat boshqaruvi tizimiga yangi tahdidlar keltirib chiqardi. Internet siyosiy xulq-atvorni o‘zgartirdi: ovoz berish va siyosatni o‘zgartirish uchun tashviqot, norozilik va hatto inqilob. Bu davlatlar uchun qiyinchilik tug‘diradi, chunki siyosiy harakatlar yanada notinch, oldindan aytib bo‘lmaydigan holga keladi va jamiyatlarni boshqarish qiyinlashadi.

Ushbu jarayonlar raqamli siyosatning yangi bosqichga o‘tayotgani va an’anaviy hokimiyat modellarining o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Raqamli siyosatshunoslik kelajakda yanada rivojlanishi va yangi yo‘nalishlarga ega bo‘lishi kutilmoqda:

- sun’iy intellektdan foydalanish kengayadi – siyosiy jarayonlarni bashorat qilish va qaror qabul qilishda sun’iy intellekt rolini oshirish;
- Blokcheyn texnologiyalari integratsiyasi – elektron ovoz berish tizimlarini yanada ishonchli qilish;
- interaktiv siyosiy platformalar – davlat va fuqarolar o‘rtasida jonli muloqotni rivojlantirish;
- kiberxavfsizlikni kuchaytirish – davlat va siyosiy institutlarning raqamli himoya tizimlarini takomillashtirish.

So‘nggi yillarda elektron hukumat resurslarining mavjudligi sezilarli darajada oshdi. Davlat idoralari platformalardan foydalangan holda odamlar ma’lumot olishlari, rasmiylar bilan bog‘lanishlari, ro‘yxatdan o‘tishlari va xizmatlar кщrsatilishi, ma’lumotlarga kirishlari va tahlil qilishlari va hukumatga murojaat qilishlari mumkin.

Vaqt o‘tishi bilan aholining elektron hukumat resurslaridan foydalanish darajasi o‘sib bormoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqa fanlarda bo‘lganidek siyosatshunoslik fanida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar ta’limga oid platformalardan ma’lumot olishi va fanga oid kontentlarni o‘zlashtirishida raqamlashtirishning o‘rni muhim sanaladi. Ular onlayn rejimda mavjud bo‘lgan davlat ma’lumotlari va xizmatlari bilan tanishishlari, resurslarning sifati va mavjudligini baholashlari mumkin. Shuningdek, qaysi materiallar jamoatchilikka oshkor etilmasligini ko‘rib chiqishlari mumkin va hujjatlar hamda xizmatlarni takomillashtirish yuzasidan hukumat qarorlari loyihalari muhokamasida ishtirok qilishlari mumkin. Va nihoyat, talabalar elektron hukumat qanday ishlashini ko‘rib chiqishlari va fuqarolarning hukumat bilan muloqot qilish usullarini o‘rganishlari mumkin.

Aytish mumkinki, raqamli siyosatshunoslik uchta segmentda ko‘rib chiqiladi (ya’ni **qayerda** rivojlanadi):

- ✓ real xizmat ko‘rsatish sektori;
- ✓ dasturiy ta’minot va texnologiyalar ishlab chiquvchilar sektori;
- ✓ qonunchilik bazasi, kadrlar tayyorlash tizimi, barcha turdagi ma’lumotlar uzatish va saqlash kanallari ko‘rinishidagi infratuzilma.

Nima rivojlantiriladi:

sun’iy intellekt;

blokcheyn;

kvant texnologiyalari;

ishlab chiqarish texnologiyalari;

robototexnika;
simsiz aloqa;
virtual reallik.

Bu mantiqqa rioya qilgan holda **«kim uchun»** rivojlanish seksiyasini qo‘shib qo‘yishni istardik. Bu atamaga ko‘proq uzil-kesillik baxsh etgan bo‘lardi. Bugungi kundagi texnologiya – internet evolyusiyasi yangi turdagi raqamli siyosiy partiyalar vujudga kelishiga olib kelmoqda. An’anaviy siyosiy partiyalar o‘zlarining ichki va tashqi siyosiy jarayonlarida internetdan foydalanadilar. Boshqa tomondan, raqamli siyosiy partiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri internetda tashkil etiladi. Siyosiy partiyalar umumiy saylov huquqi va xalqning hukumat boshqaruvda ishtirok etishi natijasida vujudga kelgan.

Siyosiy partiya tushunchasi paydo bo‘lganidan beri ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bugungi kunda eng muhim o‘zgarishlardan biri raqamli texnologiyalar tufayli amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirish fenomeni siyosiy partiyalarga turli yo‘llar bilan ta’sir qiladi. Siyosiy partiyalar o‘rtasidagi birinchi farq texnologik ishlanmalardan foydalana olish va bevosita elektron faoliyat bilan shug‘ullanuvchi partiyalardir. Raqamlashtirish bilan bir qatorda an’anaviy siyosiy partiyalar ham raqamli texnologiyalarni o‘z faoliyatiga kiritmoqda.

An’anaviy siyosiy partiyalarning qaror qabul qilish jarayonida texnologiyadan foydalanishni hisobga olsak, fundamental raqamli transformatsiya haqida gapirish qiyin. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn uchrashuvlarga e’tibor qaratish ichki munosabatlardagi muhim xususiyatni ko‘rsatdi. Raqamli siyosiy partiyalar o‘z funksiyalarini elektron vositalar va turli xil dasturiy ta’minot dasturlaridan foydalangan holda amalga oshiradilar. Ular dunyoning ko‘plab mamlakatlarida paydo bo‘lmoqda. Turli mamlakatlardagi saylovlarda ham muvaffaqiyatli natijalarga erishmoqda.

Insoniyat tarixi shuni ko‘rsatadiki, texnologik taraqqiyotni cheklash yoki kechiktirish mumkin, ammo uni to‘xtatib bo‘lmaydi. Siyosat sohasida raqamlashtirish jarayoni an’anaviy amaliyotlarning sezilarli darajada o‘zgarishini anglatishi mumkin:

- davlat xizmatlarini raqamlashtirish (elektron hukumat);
- davlat kommunikatsiyalarining yangi vositalari;
- tashkilotlar va fuqarolar o‘rtasidagi aloqalarni avtomatizatsiya qilish.

Bugungi kunda ijtimoiy media platformalari, ilovalar va smartfonlar kabi kundalik raqamli aloqa vositalaridan siyosatchilar va fuqarolar tobora ko‘proq foydalanmoqdalar.

Raqamli siyosat deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan ba’zi misollar:

- saylov kampaniyalarida foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar;
- global hashtyeg faolligi;
- raqamli diplomatiya;
- ijtimoiy media kompaniyalari;
- ma’lumotlar bazasi va hukumat nazorati;
- algoritmlar tomonidan boshqariladigan ma’lumotlar;
- ijtimoiy media platformalarini syenzura qilish;
- soxta yangiliklar va ijtimoiy tarmoqlardagi noto‘g‘ri ma’lumotlar;
- kiberurush;
- internetni o‘chirish;
- Sun’iy intelektga asoslangan hukumat qarorlarini qabul qilish.

Ularning har birida siyosiy ishtirokning an’anaviy shakllari turli raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirgani va ularga moslashgani sababli o‘zgaradi. Misol uchun, 2000 yillarning boshida saylov kampaniyalarida dastlab do‘stlar va oilalar o‘rtasidagi shaxslararo muloqot uchun mo‘ljallangan Faysbuk kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanish boshlandi. Bugungi kunda siyosiy kampaniyani ijtimoiy media vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Xuddi shunday, taxminan bir vaqtning o‘zida, dushman tomonlar axborot urushi olib borganida yoki mahalliy kiberhujumlar orqali bir-birining veb-saytlarini buzib tashlaganida, harbiy mojaro va urushlar internetga tarqala boshladi. Bunday hujumlar ko‘lami va qamrovi bo‘yicha o‘sib bormoqda va bugungi kunda milliy mudofaa va xalqaro tartibga solishni talab qiluvchi muhim kiberxavfsizlik tahdidi sifatida tan olinadi.

Saylov kampaniyalariga ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish ta’sir ko‘rsatadi. Bir qator mamlakatlarda ovoz berishning elektron shakliga o‘tildi. Jurnalistika yangiliklarni ishlab chiqarish va tarqatishda o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Bir paytlar diplomatiya, me’yorlar va siyosat ishlab chiqish kabi yagona hukumat ishi bo‘lgan narsa ko‘proq demokratiya va inklyuzivlik talablari bilan chuqur o‘zgarib bormoqda. Katta ma’lumotlar va algoritmik o‘rganish, profil yaratish va prognozli qarorlar qabul qilish davrida hukumatlar va tobora kuchayib borayotgan xususiy shaxslar fuqarolar, tashkilotlar va institutlar, shu jumladan (boshqa) hukumatlar ustidan kuzatuv, syenzura va nozik yoki kamroq nozik siyosiy ta’sir va manipulyasiya orqali normalarni o‘rnatmoqdalar va hokimiyatni amalga oshirmoqdalar. Panellar va ma’ruzalar Siyosat va Raqam o‘rtasidagi munosabatlarning barcha o‘lchovlarini o‘rganadi. Ular yuqorida aytib o‘tilgan sohalarning empirik yoki nazariy istiqbollariga qaratilgan bo‘ladimi va boshqalar. Qiyosiy tahlillar va g‘arbiy bo‘lmagan geosiyosiy sohalarga e’tibor, shu jumladan yangi o‘quv va tadqiqot muammolari bo‘yicha uslubiy hissalar taqdim etilgan. Shu bilan birga, siyosatning raqamlashtirilishi to‘satdan yuzaga kelgan hodisa emas. Aslida, hokimiyat, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarga raqamli texnologiyalarni qo‘llashga mental yondashuv kompyuterlashtirish va tarmoqlar rivojlanishi davridan boshlab mavjud bo‘lgan. Hatto gadjetlar va mobil ilovalar keng tarqalishidan ancha oldin, elektron va tarmoq demokratiyasi haqida gapirila boshlangan edi.

Raqamlashtirish g‘oyalarini tarixiy jarayonlarda kuzatish mumkin. Ilgari mavjud bo‘lgan utopik jamiyat modellari ma’lum ma’noda jamiyat a’zolarining ehtiyoj va imkoniyatlari haqida to‘liq ma’lumot to‘plash va taqsimlashni nazarda tutgan. Hozirgi raqamli texnologiyalar, jumladan, blokcheyn konsepsiyasi ham shunga o‘xshash tamoyillarga asoslangan. Bloklar ketma-ketligi ma’lumotlarni (masalan, fuqarolar va ularning afzalliklari haqidagi ma’lumotlar) o‘z ichiga olib, biron-bir markaziy organga bog‘liq bo‘lmagan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu jamiyatning o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi sifatida qaralishi mumkin.

Jamiyat manfaatlari yo‘lida ijtimoiy axborotni qayta ishlashning eng samarali mexanizmlarini izlash bo‘yicha ko‘p asrlik tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon inson omiliga kuchli bog‘liq. Har qanday ijtimoiy sub’yekt manfaatlarining xilma-xilligi sharoitida, umumiy foydani maksimallashtirishga da’vo qiluvchi hech bir ijtimoiy tashkilot modeli insonning sub’yektiv ta’siridan to‘liq holi bo‘lishi mumkin emas.

Raqamli texnologiyalar, ayniqsa taqsimlangan reyestr (blokcheyn) asosidagi tizimlar, qaror qabul qilish jarayonini maxsus vakolatli sub'yektsiz amalga oshirish imkonini beradi. Bu jarayon oldindan belgilangan voqealar ketma-ketligi asosida avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Jamiyatning shunday neytral texnologiyalarga nafaqat qaror qabul qilish, balki uni texnik jihatdan tasdiqlashni ishonib topshirishga tayyorligi — vaqt masalasi. Shu tariqa, «raqamli siyosatshunoslik» - zamonaviy axborot texnologiyalari («yangi ijtimoiy media») orqali amalga oshiriladigan siyosiy fenomenlarni o'rganish sohasidir, u ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning maxsus metodlarini qo'llash bilan tavsiflanadi.

«Raqamli siyosatshunoslik», ijtimoiy jarayonlarning raqamli texnologiyalar orqali o'zgarishi bilan rag'batlantirilgan holda, yangi raqamli usullar bilan empirik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda eng yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli siyosatshunoslik zamonaviy siyosat va texnologiyaning uyg'unlashuvi natijasida shakllangan yo'nalish bo'lib, u siyosiy jarayonlarni samarali boshqarish va tahlil qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqarish davlat siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlarining samarali amalga oshirilishi siyosiy muhitdagi barqarorlik va samaradorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq, uning rivojlanishi muammolarsiz kechmayapti, shuning uchun kiberxavfsizlikni ta'minlash, axborot manipulyasiyasiga qarshi kurashish va raqamli tengsizlikni kamaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelajakda raqamli siyosatshunoslikning yanada taraqqiy etishi va davlat boshqaruvini takomillashtirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda.

Raqamli texnologik o'zgarishlar vakillik demokratiyasidan to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaga o'zgarish imkoniyatini yaratishi mumkin. Biroq shunday bo'lsada, qonunchilik me'yorlarining mavjud emasligi, raqamli siyosiy partiyalar hali rasman tan olinmasligi kuzatiladi. Shunga qaramay, amaldagi qonunlarning moslashuvchanligi raqamli partiyalarning mavjudligiga imkon berishi nazarda tutiladi.

«Raqamli siyosatshunoslik»ning metodologiyasi bir necha yo'nalishlarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda:

ma'lumotlarni kompyuter yordamida qayta ishlashning statistik metodlarini takomillashtirish;

siyosiy jarayonning raqamli modellarini yaratish uchun kompyuter texnologiyalarini qo'llash;

katta ma'lumotlar tahlili, siyosiy ishtirokni o'rganishga alohida e'tibor berish (psixologik va xulq-atvor tahlili);

ijtimoiy tarmoqlar tahlili (ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari profillari va aloqalarini o'rganish);

tabiiy tilni kompyuter yordamida qayta ishlash va matnlarni tahlil qilish;

ijtimoiy tarmoqlar va shahar jamoalari xaritalarini tuzish uchun geofazoviy tahlili (fikrlar va g'oyalar tarqalishini o'rganish).

Siyosatshunoslar va boshqa ijtimoiy fanlar vakillari uchun dolzarb muammo shundaki, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashning xususiyatlari faqat chuqur bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan to'liq anglanadi. Bu mutaxassislar kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqish sohalarida faoliyat yuritadilar. Raqamlashtirish mahsulotlaridan foydalanuvchilar

esa ko‘pincha murakkab kompyuter tizimlarining ishlash xususiyatlarini tushunmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ub PQ-4139-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son.

2. Negroponte Nicholas. Being digital. 1995. New York: Alfred A. Knopf. P. 243.

3. Chadwick, A. (2006) Internet Politics: States, Citizens and New Communication Technologies. Oxford: Oxford University Press.

4. Anduiza, E. Jensen, M.J. and Jorba, L.(2012). Digital media and political engagement worldwide. Cambridge: Cambridge University Press.

5. *Федорченко С.Н.* Big Data и методологические возможности ресурса Google Trends для политологического исследования // Журнал политических исследований. – 2018. Т. 2. – №4. – С. 48-55. URL: https://naukaru.ru/ru/nauka/article/24654/view (дата обращения: 12.05.2020).

6. https://www.uni-bamberg.de

7. https://polisci.camden.rutgers.edu

Д.В. Рахимбаева – *ISFT - School of Finance Technology and Science International институти доценти, тарих фанлари номзоди*

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА МИЛЛИЙ ДИПЛОМАТ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ

Мустақиллигимизнинг дастлабки кунлариданоқ, дипломатия муносабатларини ўрнатиш истагида бўлган давлатлар сони ўндан ортиб кетди. Ҳорижий давлатлар Тошкент шаҳрида бирин-кетин ўз ваколатхоналарини оча бошлади. 1992 йил 2 апрелида И.А.Каримовнинг вилоят, шаҳар ва туман ҳокимлари билан учрашувида “...Ўзбекистон жаҳонга, жаҳон Ўзбекистонга интилмоқда. Кадрлар тайёрми?” деган саволга жавоб бериб, шундай деди: “...Ўзбекистонга бўлган эътиборнинг кучайиши асосан Ташқи ишлар вазирлиги ҳамда бошқа вазирликлар ва маҳкамаларнинг ишчанлигига, уларнинг юқори малакасига, самарали иш натижасига жуда ҳам боғлиқдир”[1] . Президентнинг ташқи ишлар вазирлиги фаолиятига эътибор қаратиши бежиз эмас эди. Чунки, барча соҳаларда бўлганидек ташқи сиёсат бобида ҳам кадрлар тайёрлаш муаммо бўлиб турган масалалардан ҳисобланар ва Республика учун иқтисод, сиёсат, маданият ва қолган барча соҳаларда хорижликлар билан бемалол тиллаша оладиган, зукко, билимдон, бир сўз билан айтганда дипломатлар, маҳаллий кадрлар камчиликни ташкил этарди. Ҳолбуки, хорижий тилларни ўрганиш собиқ совет тузуми даврида рағбатлантирилмас эди. Хатто, аксарият зиёлилар чет тилларини яхши билмас, илмий мақолани луғат ёрдамида таржима қилиб, имтиҳон топширувчи ўз исми, шарифини, мутахассислигини чет тилида айтиб бериши талаб қилинган. Бирон бир чет тилини ўз она тилиси даражасида эркин билиши махсус

органлар томонидан маъқулланмасди ва бундай инсонлар назоратга олинар эди. Бундай муаммони ўз вақтида, яхши тушунган республика рахбарияти ўрта ва олий таълим мактабларида, ташкилотларда чет тилларни пухта ўрганишни ташкил этишга доир қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқилди ва амалга оширилди. Айнан, Ташқи ишлар вазирлигида биринчи кунларданок чет тилларни ўрганиш курслари ташкил этилди хамда барча ходимлар бу курсларга жалб этилди. Курсни тугатиб, имтиҳондан муваффақиятли ўтган айрим ходимлар чет элларга хизмат сафарига юборилганида асосан инглиз, немис ва бошка чет тилларини сўзлашув даражасида билар эди ва бу улар учун катта ёрдам бўлди. Маълумки, дипломатлар - оддий дипломатик этикага эга бўлган, салжуқий шоҳларга 30 йил ҳалол вазирллик қилган Низомулмулкнинг "Сиёсатнома" асарида таърифлагандек: ... элчи ҳам polшохлар хизматида бўлган, сўзлашда жасур, жаҳон кўрган, донишманд, ўткир хотирали, андишали ва чиройли бўлиши таърифланган [2]. Дипломат - бу мамлакатнинг кўзгуси. Чунки, шу бир инсон киёфасида бутун бир мамлакат мужассам. Ўзбекистон шароитида киска давр ичида элчилар, дипломат ходимларни етказиб бериш долзарб масала эди ва кадрлар тайёрлаш тизими куйидагича шаклланди:

а) олий ўқув юртлари (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети; Ўзбекистон миллий университети, Тошкент давлат шарқшунослик институти, ДААД, Британия кенгаши);

в) Ташқи ишлар вазирлиги тизими ва унинг чет элдаги бўлимлари (тиллар бўйича курслар, чет эллардаги қисқа ва узоқ муддатли дипломатик курслар);

г) дипломатия соҳасида миллий кадрлар тайёрлаш тизимини мувофиқлаштириш (Вазирлар Маҳкамаси, ТИВ, Олий таълим вазирлиги, "Истеъдод" жамғармаси, "Камолот" ё.и.ҳ). Ташки ишлар вазирлиги ва унинг бошқармалари учун:

•дипломатик ходимлар;
• консуллик ходимлари;
• чет эл иқтисоди ва сиёсати бўйича таҳлилчилар;
• савдо, ишлаб-чиқариш, қишлоқ хўжалиги, транспорт ва алоқа, илм-фан, маданият, туризм, харбий соҳада, давлатшунослар, диншунослар, исломшунослар, ҳуқуқшунослар ва бошка масалалар бўйича элчихона экспертлари;
• Ўзбекистоннинг БМТ ва унинг ташкилотларидаги экспертлари;
• таржимонлар ва халқаро журналистлар, пресс-атташеларга эхтиёж сезилди.

1992 йил 23 сентябрда Президент И.А.Каримов ташаббуси билан Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети ташкил этилди[3]. Университет халқаро хуқуқ, халқаро муносабатлар, халқаро иқтисодий муносабатлар ихтисосликлари бўйича етук мутахассисларни етказиб бериши назарда тутилди. 2022 йилда университет ўзининг 30 йиллигини нишонлади. Ўтган давр мобайнида ЖИДУда халқаро муносабатлар, халқаро ҳуқуқ ва халқаро иқтисодий муносабатлар мутахассислиги бўйича кадрлар тайёрланди. 2005 йилга келиб 1740 нафар бакалавр, 320 нафар магистр битириб чиқди. Ҳозирги кунда улар Республика Ташқи ишлар вазирлиги, Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлиги, Миллий банк, Миллий ахборот агентлиги, Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси, халкаро ташкилотлар ва бошқа

идораларда фаолият курсатмокда [4]. Собик иттифоқ даврида ташқи сиёсат идорасида хизмат қилган ўзбекистонлик дипломатларнинг тажрибаси, малака ва маслаҳатлари инобатга олиниб, уларни ушбу сохани ривожлантиришга жалб этиш имкониятлари кўриб чиқилди. Жумладан; Абдуллаев М.Ш., Алиев П.М., Аъзамов А.М., Бекмирзаев И.И., Жондорбеков Ш.Б., Зокиров И., Иногомов С., Мамажонов Т., Ойхужаев А., Орипов О., Расулов А.F., Ризкиев Ф., Уркенбаев А.Б., Умаров Б., Умаров Х., Гуломов Э. ва М.Хайдаровлар вазирликда фаолият олиб бордилар. Улар дипломатия соҳасидаги ўз тажриба ва имкониятларини Ўзбекистон ташқи алоқаларини шакллантиришда хамда ривожлантиришга бахш этган дипломатлар [5].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Халқ сўзи // 1992. 3 апрель сони
2. Низомулмулк. Сиёсатнома ёли Сияр ул – мулук. –Т.: Адолат, 1997. –б.103.
3. Указ президента РУ “О создании университета мировой экономики и дипломатии” от 23.09.1992.г. № 474 // Ведомости Верховного Совета РУз, 1992. №11. –с.440.
4. UWED.uz сайти
5. Муаллиф дипломатлар билан шахсан учрашиб, инттервьюларини ёзма равишда олган. Т.,1999.

A. Q. Xamdamov *– O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi dotsenti, s.f.n.*

ZAMONAVIY SIYOSIY NAZARIYALAR

“Nazariya” tushunchasining ekvivalenti “teoriya” yoki inglizcha “theory” yunoncha “theorem” – “ko‘rib chiqish yoki fikrlash” so‘zidan olingan. Siyosiy nazariyalarning shakllanishini antik davr bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Ushbu an’anani keyinchalik Makiavelli, Gobbs, Lokk, Kant, Monteske, Mill, Gegel, Marks, Lenin, Veber va boshqalar davom ettirdilar. Zamonaviy siyosiy nazariyalar bilan tanishishni xohlovchilar, avvalo, siyosiy mutafakkirlarning klassik asarlarini o‘rganishdan boshlashi lozim.

Siyosatshunoslikdagi professionalizm jahon siyosiy tafakkuri vakillarining asl matnlariga bevosita murojaat etishni taqozo etadi. Nazariy asarlarni o‘qish va chuqur anglash siyosiy g‘oyalarning rivojlanishi va shakllanishi jarayonini tushunish imkonini beradi. Bu jarayonda siyosiy-nazariy muammolar, siyosatni idrok etish tamoyillari, g‘oyalar va tushunchalar sinovdan o‘tkaziladi, baholanadi hamda saralanadi. Bu esa nafaqat bilimlarning boyishini va siyosiy tafakkurning izchil taraqqiy etishini ta’minlaydi, balki bizning siyosiy qarashlarimiz va e’tiqodlarimizni ham shakllantiradi.

Shunday qilib, biz siyosiy faoliyatning asoslarini yaratamiz. Bu ma’noda, siyosiy nazariya insonning chinakam oqilona bo‘lishga, ya’ni o‘z faoliyatida his-tuyg‘ular yoki instinktlarga emas, balki aql-idrokka tayanishga bo‘lgan intilishining eng teran ifodasidir. Siyosiy nazariyotchilarni boshqa fuqarolardan faqatgina muayyan siyosiy

qarashlarga ega ekanliklari ajratib turmaydi. Ularni bu qarashlarning **sifati** farqlab turadi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy voqealar yangi nazariyalarning shakllanishiga va eski nazariyalarning yangi siyosiy voqelikka moslashishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu esa Zamonaviy siyosiy nazariyalarning alohida ilmiy yo'nalish sifatida vujudga kelishiga turtki bo'ldi.

G'arb universitetlarida parallel ravishda siyosiy nazariya bilan bog'liq bo'lgan ikkita, ya'ni siyosiy falsafa *(normativ siyosiy nazariya)* va siyosiy fan *(siyosatshunoslik – empirik siyosiy nazariya)* o'quv dasturlariga kiritilgan. Mohiyati jihatidan ushbu fanlar o'z tadqiqot predmeti va obyektiga ega bo'lib (garchi ular bir-biriga yaqin bo'lsalar-da), bevosita nazariy yo'nalishlar va maktablarni o'rganishga va tadqiq qilishga ixtisoslashgan zamonaviy siyosiy nazariyalardan biroz farq qiladi.

Me'yoriy nazariyalar dunyoning qanday bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritadi. Ushbu nazariya maqbul sharoitlar to'g'risida fikr yuritib, ularning afzalliklari borasida dalillar keltiradi. Normativ nazariyalar norma va qadriyatlarni himoya qiladi.

Empirik nazariya siyosiy vaziyatni "faktlar"ga asoslangan holda tushuntirishni nazarda tutadi. Tor ma'noda, mazkur nazariya sabab-oqibat aloqalarini aniqlash bilan shug'ullanadi, keng ma'noda doimo voqelikni anglashga qaratilgan. Bunday turdagi nazariya **model** yoki **konsepsiya** ko'rinishida bo'lishi mumkin. *Model* - bu voqelikning soddalashtirilgan yoki oddiy tasviridir. *Konsepsiyalar* esa voqelikni keng qamrovli ko'rib chiqish imkonini beradi, ya'ni vaziyatni o'rganishda chuqurligi va kengligi bilan ajralib turadi.

Har qanday nazariyaning asosiy maqsadi "voqelik"ni tushuntirish, anglash va talqin qilishdan iborat. Nazariya siyosiy dunyoni bilish jarayonida bir nechta muhim vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, u muammoni o'rtaga qo'yadi - aynan nimani o'rganish kerakligini belgilaydi.

Ikkinchidan, u voqelikni o'rganish mumkin bo'lgan o'ziga xos chegarani aniqlashtiradi yoki belgilaydi (chunki tadqiqot cheksiz bo'la olmaydi).

Uchinchidan, u g'oyalarni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqadi. Nazariyalar ko'pincha empirik kuzatuvlarni tizimlashtiradigan mavhum shaklda ifodalanadi, bu esa tarqoq ma'lumotlardan aniq bir ma'noni shakllantirish imkonini beradi. Yaxshi nazariya nafaqat amaliyotda o'z tasdig'ini topadi, balki mantiqan bog'langan va chuqur mohiyatga ega bo'ladi. U g'oyalar va farazlarni yaxlit bir butunlikka birlashtiradi.

To'rtinchidan, nazariya siyosiy fanda bahs-munozaralar, fikr almashishlar va o'rganishni yuzaga keltiradi, shu orqali uning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Nazariy qarashlar turli "maktablar" o'rtasidagi umumiylikni va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Siyosiy nazariya bir nechta funksiyalarni bajaradi:

1. *Deskriptiv funksiya* - siyosiy hodisalarni yoki butun siyosiy olamni ta'riflashga qaratilgan. Bu funksiya nima va qanday sodir bo'ladi degan savolga javob beradi.

2. *Tushuntirish funksiyasi* - tushuntirish uchun ma'lum oqibatlarga gipotetik sabablarni tanlash tartibi xosdir. Bu funksiya voqelikning ushbu faktlari nima uchun

mavjud va nima uchun ular boshqa xossalarga emas, aynan shu xossalarga egadir, degan savolga javob beradi.

3. *Prognostik funksiya* - kelajakdagi rivojlanish haqidagi gipotezalar. Ushbu funksiya kelajakda siyosiy voqelik qanday bo‘ladi va muayyan voqealar qachon yuz beradi, degan savolga javob beradi.

4. *Instrumental funksiya* – tadqiqot jarayonida ma’lum qoidalarni taklif qiladi. U istalgan natijaga erishish uchun qanday qarorlar qabul qilish kerak, degan savolga javob beradi.

5. *Mafkuraviy funksiya* – yaxshi va aniq asoslangan siyosiy maqsad va qadriyatlar tadqiqot natijalari bo‘ladi. Bu funksiya borasida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjud. Ba’zi mafkuralar, masalan, marksizm ana shu funksiyani tarafdori. Pozitivistlar har qanday me’yoriy hukmlarni fan nazaridan chiqarib tashlashga harakat qiladilar[68].

Endi bevosita zamonaviy siyosiy nazariyalarga to‘xtalsak. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki platformaga - **Karl Marks** va **Maks Veber**ning siyosiy nazariyalariga tayanadi.

XX asrda dunyo mamlakatlarining siyosiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan nazariya bu albatta **marksizmdir**. Ushbu nazariya ijtimoiy va siyosiy qarashlarning fundamental masalalarini qamrab oldi. Umumiy nuqtayi nazardan marksistik iboralar orqali tushuntirilganda mazkur nazariya **bazis** va **ustqurma** asosida shakllantirilgan. Mazkur nazariyaning mohiyatiga ko‘ra *iqtisodiy bazis, ya’ni ishlab chiqarish, yer, energetik va xom ashyo resurslari birlamchi*, *ustqurma, ya’ni ijtimoiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy masalalar ikkilamchi*[69]. Nazariya, ishlab chiqarishda va umuman hayotda ijtimoiy guruhlarning faoliyatini, alohida individga nisbatan ustuvor deb hisoblaydi.

M.Veber nazariyasi marksistik qarashlardan farqli ravishda iqtisodiy omillarni birlamchi deb qaramaydi. Unga ko‘ra g‘oyalar avtonom kuchga ega va ular birlamchi bo‘lib, iqtisodiy hayotga ta’sir etish xususiyatiga ega. Veberning g‘oyalari protestantizm va liberalizm an’analari bilan uyg‘un bo‘lib, XIX asrda shakllangan iqtisodiy individualizm tamoyillariga asoslanadi.

Veber ratsional iqtisodiy tizim – kapitalizm – g‘arb davlatlarida rivojlanib, dunyoning boshqa qismida taraqqiy etmaganini tushunishga harakat qilgan va buning asosiy sababini protestantizm g‘oyalarida (aniqrog‘i uning yo‘nalishi bo‘lgan kalvinizmda) ko‘rgan. Shunga qaramasdan diniy omil bu vaqtinchalik to‘siq bo‘lib, keyinchalik barcha jamiyatlar ratsionalizatsiya jarayonini boshdan kechiradilar.

Veberning prognoziga ko‘ra barcha demokratik davlatlarda hokimiyat va jamiyat hayoti ortiqcha ratsionalizatsiya qilinishi oqibatida kuchli byurokratiyaga uchraydi.

Bixevioralizm (ingl. *Behaviour* – “xatti-harakat”) siyosatni aktorlar (ishtirokchilar) xatti-harakatlari orqali o‘rganadigan siyosiy nazariya bo‘lib, ko‘p jihatdan bixeviorizmning psixologik nazariyasidan olingan. Ushbu nazariya 1930-yillarda AQShda shakllangan. Nazariyani siyosiy fanda ilk bor Chikago universiteti olimlari **Charlz Merriam** va keyinchalik **Garold Lassull** qo‘llagan.

Bixevioralizm insonnig siyosiy xatti-harakatini beg‘araz, neytral pozitsiyadan turib tushuntirishini da’vo qiladi. Xatti-harakat bixevioralistlar tomonidan, qoida va normalarga nisbatan fundamental kategoriya sifatida qaraladi, chunki u amaliy

[68] Элементы теории политики / Пер. с польского / Под ред. В.П.Макаренко. Ростов-на-Дону, 1991. – С. 35-36.
[69] K.Marksning mafkuraviy qarashlari – dialektika, materializm, iqtisodiy qarashlari – qo‘shimcha qiymat nazariyasini alohida mavzu doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

siyosatga ancha yaqin hodisadir. XX asrning 50-60 yillarida bixevioralizm nazariyasi siyosiy fanda dominant pozitsiyani egalladi.

Institutsionalizm muhim yo‘nalish sifatida siyosiy fanning asosiy nazariyalaridan biri hisoblanadi. Institutsional yondashuv uchta asosiy tadqiqot usulidan foydalanadi: tavsifiy-induktiv; rasmiy-huquqiy va tarixiy-qiyosiy.

Institutsional nazariyaning asosiy tadqiqot obyekti bevosita davlat, davlat tashkilotlari va muassasalarining faoliyati hisoblanadi. Siyosiy hayotning murakkabligi va qarama-qarshiligi, byurokratiya, militarizm, korrupsiya va boshqa shu kabi jarayonlar va hodisalarning kuchayishi davlat va hokimiyat masalalariga yangicha yondashuvni talab eta boshladi. Ushbu nazariya siyosiy tadqiqotlardagi asosiy nazariyalardan ekanligini e’tirof etish lozim.

Libertarizm – zamonaviy liberalizmdagi yo‘nalish bo‘lib, u jamoa ta’sirida shakllangan shaxsning huquq va erkinliklariga asosiy e’tiborini qaratadi, davlatga esa minimal rol beriladi. Barcha zamonaviy mafkuraviy oqimlar ichida libertarizm, ehtimol, anarxizmga eng yaqin g‘oyadir. U davlatda inson erkinligini bo‘g‘ish, inson huquqlarini va bozor erkinligini buzish manbasini ko‘radi. Libertarizmni ikkita katta guruhga bo‘lish mumkin: *pragmatik libertaristlar* va *prinsipial libertaristlar*.

Pragmatiklar “minimal davlat” g‘oyasini himoya qiladilar, ammo uni mutlaqlashtirmaydilar. Mazkur guruhning e’tiqodini Fridrix fon Xayek aniq ifodalagan, “agar biz odamlarning xohish-istaklarini qondirmoqchi bo‘lsak, davlatga kichikroq, bozorga esa kattaroq rolni berishimiz kerak. Chunki bozor odamlarning intilishlaridan unumli foydalanish imkoniyatini beradi”[70]. Ba’zi libertaristlar davlatning rolini bunday cheklash ishlab chiqarishni ortishiga, shu orqali maksimal foyda olish va samaradorlik ko‘tarish mumkin deb hisoblaydilar.

Prinsipial libertarizm pragmatik libertarizmdan farqli o‘laroq, “minimal davlat” tomonidan himoya qilinadigan huquqlarni tabiiy yoki asosiy deb bilishi bilan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda inson huquqlari va erkinligi masalasini juda yuqori darajaga ko‘taradilar va himoya qiladilar.

Kommunitarizm – jamiyatda kollektivistik qadriyatlarning hukmronligiga qaratilgan mafkura bo‘lib, tizimni shakllantiruvchi tushuncha sifatida “jamoa” manfaatlarini ilgari suradi. Mazkur nazariya jamiyatning mazmunini axloqiy qadriyatlarda ko‘radi[71]. Kommunitaristlar jamiyatning qadr-qimmati adolatning liberal nazariyalarida yoki liberal jamiyatlarning ommaviy madaniyatida emas deb hisoblashadi. Liberal nazariyadagi individualizm g‘oyalari tanqid ostiga olinadi.

Yuqorida keltirilgan zamonaviy siyosiy nazariyalar siyosiy fandagi barcha g‘oyaviy qarashlar va yo‘nalishlarni albatta qamrab ololmaydi. Ushbu nazariyalardan ajralib chiqqan yoki ularning tarkibiy qismi bo‘lgan qarashlar ham mavjud.

O‘zbekistonda siyosatshunoslik yo‘nalishida mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan barcha oliy ta’lim dargohlarida zamonaviy siyosiy nazariyalarni o‘qitishga jiddiy e’tibor qaratilishi lozim. Chunki ushbu maxsus kurs siyosatshunoslikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Элементы теории политики / Пер. с польского / Под ред. В.П.Макаренко. Ростов-на-Дону, 1991. – С. 35-36.

[70] Hayek F.A. New Studies in Philosophy. Politics and the History of Ideas. Chicago: Chicago university press, 1978.
[71] Etzioni A. Too Many Rights, Too Few Responsibilities // National Forum, 1992. – P. 4-6.

2. Hayek F.A. New Studies in Philosophy. Politics and the History of Ideas. Chicago: Chicago university press, 1978.

3. Etzioni A. Too Many Rights, Too Few Responsibilities // National Forum, 1992. – P. 4-6.

I.E. Erkinov **–** *O‘zbekiston milliy universiteti o‘qituvchisi*

RAQAMLI SIYOSIY ISHTIROKNI JORIY ETILISHI VA TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI
(Xorij tajribasi va O‘zbekiston amaliyoti)

Siyosiy ishtirok - bu fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, qaror qabul qilishda va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishidir. U demokratik konsepsiyalarda, siyosiy rivojlanish va siyosiy modernizatsiya, siyosiy hokimiyat va siyosiy partiyalar faoliyatida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo‘llaniladi.

Siyosiy ishtirok kategoriyasining mazmuni birinchi marta G.Almond va S.Verbaning “Fuqarolik madaniyati: beshta mamlakatda siyosiy munosabat va demokratiya” (1963) asarida aniqlangan bo‘lib, bu toifaning chuqur tahlili berilgan, tadqiqotga “Siyosiy ishtirok”[72] siyosiy madaniyat ko‘rsatkichi va ilmiy kategoriya sifatida kiritilgan. G.Almond va S.Verba siyosiy ishtirokni “fuqarolarning davlat organlaridagi mansabdorlarni tayinlash va ularning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatish maqsadidagi harakatlari”[73] deb ta’riflagan. L.Milbrayt esa, “Siyosiy ishtirokni... fuqarolarning hukumatga va uning siyosiy kursiga ta’sir o‘tkazish yoki qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan harakatlari sifatida ta’riflash mumkin”[74] deb ta’riflaydi.

Germaniyaning Mangeym universiteti fahriy professori Jan V. Van Dez “Siyosiy ishtirok nima?” (“What Is Political Participation?”) deb nomlangan maqolasida siyosiy ishtirokning darajalarini tahlil qilar ekan, internet va raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan siyosiy ishtirokni hisobga olmaslik bu tushunchani eskicha ta’riflash uning yangi ko‘rinishlarini e’tirof etmaslikka olib keladi deb hisoblaydi. Shu asnoda olim siyosiy ishtirokning “Internetga asoslangan texnologiyalarning tarqalishi g'oyalar, talablar va umidsizliklarni ifoda etish imkoniyatlarini taklif qilish orqali bu individual harakatlarni osonlashtirdi va deyarli hech qanday to‘lovlarsiz hamma uchun ochiqdir. Qolaversa, bu texnologiyalar odatiy siyosiy birlashmalarni yanada ortiqcha qiladi”[75]. Nigeriyaning Ibadan universiteti ma’ruzachisi falsafa doktori (PhD) Funmilola Olubunmi “Nigeriyaning Oyo shtatidagi yoshlarning siyosiy ishtirokda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi” (“Use of Social Media for Political Participation by Youths in Oyo State, Nigeria”) nomli maqolasida mamlakatdagi uchta universitetning 322 nafar talabasi orasida o‘tkazilgan ijtimoiy

[72] Almond, Gabriel A. and Sidney Verba. 1963. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton: Princeton University Press.

[73] Алмонд, Г.А. Гражданская культура и стабильность демократаи / Г.А. Алмонд, С. Верба - Полис. - 1992. - № 4. - С.123

[74] Баранов Н. Микрополитика : технологии оценки / Н. Баранов, // URL: http://nicbar.ru/mikropolitika_06.htm - Murojaat sanasi: 23.03.2024.

[75] Jan W. van Deth. What Is Political Participation? ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/354986876_What_Is_Political_Participation (murojaat sanasi: 24.11.2021)

so‘rovnoma asosida yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan siyosiy ishtirok maqsadida faol foydalanganini isbotlab, tahliliy ma’lumotlarni taqdim qilgan. Uning tadqiqotlari ko‘rsatishicha, yoshlar asosan “ijtimoiy tarmoqlardan siyosiy targ‘ibot (95,3%), siyosiy kampaniyalar (91,9%), siyosatchilar bilan muloqot (90,7%), siyosiy muhokamalar (87,3%), saylov jaryonidagi qonunbuzarliklarni monitoring qilish va hisobot berish (85,1%), jamoatchilik bilan maslahatlar (80,4%), lobbi bilan shug‘ullanuvchi manfaatdor guruhlarga qo‘shilish (64,9%), siyosiy mavzularda blog yuritish (64,9%) va davlat amaldorlariga xat yozish (51,2%) maqsadida”[76] foydalangan.

Davlat organlarining ijtimoiy tarmoqlarda o‘z akkauntlarini ochayotgani, tarqatilayotgan axborotlarga tezkor munosabati, bir qarashda tartibga solish mushkuldek ko‘ringan yoshlarning raqamli siyosiy ishtiroki jarayoniga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bu borada “raqamli tengsizlik” – turli ijtimoiy toifalar o‘rtasida internetdan, raqamli texnologiyalardan foydalanish borasidagi ko‘nikmalarning turlicha shakllangani, axborot-kommunikatsiya infrastrukturasi qamrovi darajasidagi farqlar”[77], raqamli siyosiy ishtirok darajasiga ta’sir qilmay qolmaydi.

Fuqarolarning oflayn siyosiy ishtirok shakli hisoblangan saylov jarayonida onlayn – masofadan elektron ovoz berish usuli 2005-yilda Estoniyada mahalliy saylovlarda birinchi marotaba qo‘llanilgan va legitimligi tan olingan “Saylash huquqiga ega bo‘lgan 1059 292 fuqarodan 502504 tasi saylovda ishtirok etgan bo‘lsa, shundan 9681 ta internet orqali masofadan elektron ovoz berish usulidan foydalangan”[78]. Bu saylovda ishtirok etgan fuqarolarning 1,92 % ni tashkil etgan. Parlamentar respublika bo‘lgan Estoniyada 2019-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan so‘nggi parlament saylovlarida 887420 ta saylovchidan 565045 tasi ovoz berishda ishtirok etgan bo‘lsa, shundan 247232 tasi, ya’ni saylovda ishtirok etganlarning 43,75% masofadan elektron ovoz berish usulidan foydalangan. O‘zbekiston saylov qonunchiligida ham ushbu yo‘nalishdagi bir qator o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin, jumladan, 2018-yil 4-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3961-son qarori qabul qilingan, 2019-yil 25-iyunda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida “saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati”[79] tushunchasi, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali saylov tashviqoti olib borish usullari aks etgan. 2021-yil 24-oktyabrda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jarayonida yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish va ularda daxldorlik hissini uyg‘otish borasida tizimli ishlarni olib borish maqsadida yaratilgan https://yoshsaylovchi.uz platformasining ishga tushirilishi, saylovchilarning Markaziy saylov komissiyasi sayti orqali o‘z saylov uchastkasini onlayn aniqlash imkonini bergan www.saylov.uz/faq/user-polling-station havolasining ishga tushirilishi bu boradagi yana bir qadam bo‘ldi.

[76] Funmilola Omotayo. Use of Social Media for Political Participation by Youths. eJournal of eDemocracy and Open Government (JeDEM). https://www.jedem.org/index.php/jedem/article/view/585 (murojaat sanasi: 24.11.2021)

[77] Жеребин В.М., Алексеева О. А., Ермакова Н.А. Цифровой раскол как новый фактор социальной стратификации. Вопросы статистики, 2015. №5 (35)

[78] Официальный сайт Республиканской избирательной комиссии Эстонии. https://www.valimised.ee/ru/arkhiv-proshedshikh-vyborov/mestnye-vybory/mestnye-vybory, https://rk2019.valimised.ee/ru/voting-result/voting-result-main.html (murojaat sanasi: 16.02.2021)

[79] Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/docs/4386848 (murojaat sanasi: 16.02.2021)

O‘zbekistonda masofadan elektron ovoz berish amaliyoti birinchi bor “Qimmatli Qog‘ozlar Markaziy Depozitariysi” Davlat Korxonasi tomonidan “Elektron ovoz berish” xizmati (http://evote.uz) yo‘lga qo‘yildi. Unda aksiyadorlar, kuzatuv kengashi a’zolari uchun yig‘ilishlarda ro‘yxatdan o‘tish va veb-saytda elektron ovoz berish shaklini to‘ldirish, munosabat bildirish, yig‘ilishning veb-translyatsiyasini tomosha qilish, ovoz berish jarayoni bilan tanishish imkoni berilgan. Elektron ovoz berishga kirish uchun hech qanday maxsus texnik vositalar talab qilinmaydi, platformaga Internet mavjud bo‘lgan dunyoning istalgan nuqtasidan ulanish mumkin. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmonida yoshlar, ayniqsa, ish va o‘qish bilan band bo‘lmagan yoshlar bilan mas’ullar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot o‘rnatishga xizmat qiluvchi “Yoshlar murojaati” elektron platformasini yaratish vazifasi belgilangani ham yoshlarning raqamli siyosiy ishtirokini kengaytirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan strategiya hududlarni va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlarini o‘z ichiga olib, raqamli siyosiy ishtirok imkoniyatlarining miqdor va sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni nazarda tutadi. Jumladan, strategiya doirasida “Xalq nazorati” elektron portali va mobil ilovasi, “Bir million dasturchi” loyihasining joriy qilinishi yoshlarning raqamli siyosiy ishtiroki ko‘lamini kengaytiradi.

Bugungi kunda fuqarolarning e-ishtirokini amalga oshirish imkonini beradigan online platpormalar quyidagilardan iborat: “**pm.gov.uz** (Prezidentining virtual qabulxonasi), **regulation.gov.uz** (Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish), **xalqnazorati.uz** (Xalq nazorati), **meningfikrim.uz** (Jamoatchilik tashabbuslari platformasi), **president.uz** (Prezidentning rasmiy sayti), **gov.uz** (Hukumat portali), **jamoatfikri.uz** (Jamoatchilik fikri), **project.gov.uz** (Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash), **openbudget.uz** (O'zbekiston Respublikasining "Ochiq budjet", **business.gov.uz** (Tadbirkor virtual ofisi)”[80].

Raqamli siyosiy ishtirok fuqarolar siyosiy ishtirokining barcha shakllarini yangi bosqichga ko‘tarib, bu jarayonda yoshlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengligi nuqtayi nazaridan istiqbolli siyosiy ishtirok shakli hisoblanadi. Mazkur xulosa hamda yuqorida keltirilgan tahliliy ma’lumotlar asosida:

- milliy qonunchiligimizda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati jarayonida raqamli siyosiy ishtirokning barcha shakllariga oid me’yoriy-huquqiy asoslarni yaratish va joriy etish;

- institutsional va noinstitutsional, oflayn va onlayn siyosiy ishtirok shakllarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq dasturiy ta’minot masalalarni hal etish;

- yoshlarning bu boradagi ko‘nikmalarini orttirib borish bo‘yicha tizimli targ‘ibot ishlarini amalga oshirish yoshlar siyosiy faolligini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

[80] https://my.gov.uz/oz

Xulosa qilib aytganda, raqamli siyosiy ishtirokning takomillashtirilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

–**Fuqarolar ishtirokining oshishi, (**Raqamli platformalar fuqarolarni siyosiy jarayonlarga kengroq jalb qilish imkonini beradi, bu esa demokratik ishtirokni kuchaytiradi).

–**Axborotga kirishning osonlashuvi,** Onlayn manbalar orqali siyosiy ma'lumotlarga oson kirish, fuqarolarni xabardor qilish va ularning qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlaydi.

–**Siyosiy jarayonlarning shaffofligi,** Raqamli texnologiyalar orqali siyosiy jarayonlar shaffofligini oshirish, fuqarolarni siyosatchilar va davlat organlari oldida hisobdor qilish imkonini beradi.

–**Yosh avlodning jalb etilishi,** Raqamli texnologiyalar yosh avlodni siyosiy jarayonlarga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi, bu esa kelajakdagi fuqarolik faoliyatini oshiradi.

–**Innovatsion yondashuvlar,** Raqamli siyosiy ishtirok orqali yangi innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish, siyosiy jarayonlarni yanada soddalashtirish va samarali qilish imkoniyatlarini beradi.

–**Ijtimoiy adolat va tenglik,** Raqamli siyosiy ishtirok orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash va turli ijtimoiy guruhlarning ishtirokini oshirishga erishish imkonini beradi.

Ushbu tendensiyalar raqamli siyosiy ishtirokni yanada rivojlantirish va demokratik jarayonlarda fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamli siyosiy ishtirokning kelajagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va xabardorlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Almond, Gabriel A. and Sidney Verba. 1963. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton: Princeton University Press.

2. Алмонд, Г.А. Гражданская культура и стабильность демократаи / Г.А. Алмонд, С. Верба - Полис. - 1992. - № 4. - С.123

3. Баранов Н. Микрополитика : технологии оценки / Н. Баранов, // URL: http://nicbar.ru/mikropolitika_06.htm

4. Jan W. van Deth. What Is Political Participation? ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/354986876_What_Is_Political_Participat

5. Funmilola Omotayo. Use of Social Media for Political Participation by Youths. eJournal of eDemocracy and Open Government (JeDEM). https://www.jedem.org/index.php/jedem/article/view

6. Жеребин В.М., Алексеева О. А., Ермакова Н.А. Цифровой раскол как новый фактор социальной стратификации. Вопросы статистики, 2015. №5

7. Официальный сайт Республиканской избирательной комиссии Эстонии. https://www.valimised.ee/ru/arkhiv-proshedshikh-vyborov/mestnye-vybory/mestnye-vybory, https://rk2019.valimised.ee/ru/voting-result/voting-result-main.html

8. Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/docs/4386848

9. https://my.gov.uz/oz

B.M. Yalgashev *- O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi o‘qituvchisi, f.d. (PhD).*

PARTOLOGIYA SIYOSIY FANLARNING YANGI SOHASI SIFATIDA

Jamiyat siyosiy tizimini o‘rganish partiyalar, partiyaviy tizimlar, ya’ni partiya genezisi va partiyaviy qurilishning butun majmuasini tadqiq etishga ham asoslanadi. Siyosiy partiyalar faoliyatida mujassamlashgan siyosiy madaniyat, siyosiy manfaatlar, siyosiy qarashlar jamiyat holatining, shuningdek, davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlar holatining eng muhim xususiyatidir. Shu sababli, siyosiy rejimlar, siyosiy hokimiyat, siyosiy boshqaruv, siyosiy partiya genezisi va partiyaviy qurilish jarayonini o‘rganish partiyaviy-siyosiy tizimlar majmuini tizimli o‘rganishda muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, muayyan g‘oyaviy-siyosiy dasturlar atrofida o‘z tarafdorlarini doimo birlashtirish va bu orqali siyosiy hokimiyatga erishishga intilish, buning uchun keng jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlashiga erishish siyosiy partiyalarning asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Aynan, xuddi shu davrdan boshlab, siyosiy partiyalarning zamonaviy nazariyasi – partologiyaning vujudga kelishi va rivojlanish davri boshlandi. Bu vaqtda siyosiy fan oldida partologiyaning siyosiy tizimlar doirasidagi o‘rni va rolini, unga xos bo‘lgan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini, iyerarxik darajalarini, partiya tuzilmalariga bevosita jalb qilingan yoki partiyalarga tashqaridan yordam ko‘rsatadigan shaxslar faoliyatining sotsiologik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va o‘rganish asosiy vazifalar hisoblanar edi. Mazkur vazifalarni bajarish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish partologiyani alohida fan sifatida yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

XVIII-XIX asrning birinchi yarmida bir qator siyosiy mutafakkirlar **G.Bolingbrok, Sh.Monteske, J.J.Russo, E.Berk, D.Yum, A.Tokvil** va boshqalar jamiyatda siyosiy partiyalarning ahamiyati ortib borayotganiga katta e’tibor qaratishadi[81]. Bunda siyosiy partiyalarining ichki tuzilishi va shakllanayotgan demokratiya sharoitida faoliyat olib borishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi fikrlar olimlarning qiziqish doirasiga aylanadi.

Biroq, bu davrda siyosiy partiyalar oldida turgan asosiy muammolar qatorida partologiyaning to‘laqonli nazariyasini yaratish uchun **“Partologiya oldi fani”**ni *(predpartologiya)* o‘rganish darajasi juda ham past hisoblangan. Chunki, XVIII-XIX asrning birinchi yarmidagi partiyalar rivojlangan ichki tashkiliy tuzilmaga ega bo‘lmagan va juda cheklangan saylov huquqi tufayli elektorat bilan o‘zaro munosabatlarning muhim tizimini shakllantirishga qodir bo‘lmagan dastlabki (ommaviy bo‘lmagan) turdagi partiyalar hisoblangan.

Faqatgina XIX asrning birinchi yarmida siyosiy partiyalarning zamonaviy xususiyatlariga eng yaqin bo‘lgan Amerika partiyalarining paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi natijasida partologiya fanining nazariy asosi vujudga kelishiga sabab

[81] Политические учения: история и современность. Домарксистская политическая мысль. – М.: Наука, 1976. – С. 56.

bo‘ldi. mazkur jarayonni o‘rgangan olim A. Tokvil partologiya faniga asos solgan siyosiy olim sifatida tarixda qoldi[82].

Biroq, AQSh partiyalarining o‘sha davrda ham, hozir ham ularni har tomonlama tahlil qilishni qiyinlashtiradigan bir qator xususiyatlari mavjud. Masalan, partiyaga qat’iy a’zolikning yo‘qligi va doimiy ishlaydigan boshlang‘ich partiya tashkilotlarining mavjud emasligi bilan Yevropadan farq qiladi. Chunki, Yevropa tadqiqotchilik an’anasi siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarning kelib chiqishiga katta e’tibor qaratadi. Bu esa, siyosiy partiyalarning zamonaviy nazariyasini yaratish bosqichiga o‘tish uchun tadqiqot predmetini sifat jihatdan o‘zgartirish zarurligini taqozo etgan edi.

Bu o‘zgarish XIX asrning 60 yillarida ko‘zga tashlandi. Buyuk Britaniyada yangi saylov qonunchiligi qabul qilingandan so‘ng, u saylovchilar sonini sezilarli darajada kengaytirdi. Shu bilan birga, mazkur islohot saylovchilarning yangi kontingentlari bilan ishlashni keskin faollashtirishga da’vat etadigan mahalliy partiya tashkilotlari tarmog‘ini rivojlantirish bilan bog‘liq yangi bosqichni boshlab berdi.

Bundan tashqari, dastlab ingliz liberallari, keyinchalik konservatorlar tomonidan partiyalar ichki hayotini demokratlashtirish uchun quyidan yuqoriga qadar partiya rahbar organlarining saylab qo‘yilishi prinsipini tasdiqlash tashabbusi ilgari surildi. Bu holat Yevropa ilmiy hamjamiyatida qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lib, unda *“Partologiya oldi fani”*dan zamonaviy “Partologiya” faniga o‘tish jarayonini boshlab berdi.

Zamonaviy partologiyani esa, bugungi ommaviy partiyalar va ularning faoliyati bilan bog‘liq barcha turdagi siyosiy munosabatlarni - ham ekzogen, ham endogen *(ya’ni partiya tashkilotining tarkibiy qismlarini o‘rganish bilan bog‘liq ichki)* tartibda o‘rganishga ixtisoslashdi deb aytish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fan bo‘yicha shuni aytish mumkinki, ***partologiya bu - partiyalar haqidagi fan hisoblanadi, ya’ni, (lotincha pars - qism, logos - o‘qitish) demakdir***. Partologiya fani jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini hokimiyat tuzilmalari va qarorlar orqali amalga oshirishga yordam beradigan siyosiy infratuzilmani o‘rganadi.

Demak, partologiya fani siyosiy partiyalar to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, avvalambor siyosiy partiyalar tushunchasini ham tahlil etish lozim. Rossiyalik siyosatshunos D.Zerkinning fikri bilan aytganda *“Siyosiy partiya deganda, hokimiyatni qo‘lga kiritish maqsadida faoliyat yuritadigan, uzluksiz ishlaydigan va ommaning qo‘llab-quvvatlashiga erishishga intiladigan tashkilot tushuniladi”*[83]*.* Bu yerda partiyaning siyosiy tashkilot sifatidagi mohiyati ta’kidlanadi.

Ayniqsa, siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining uzoq muddatliligi, tuzilmaning yaxlitligi, siyosiy hokimiyatni egallashga intilishi hamda eng muhimi saylovlar orqali jamoatchilik va elektoratning qo‘llab-quvvatlovini olishga harakat qilishi kabi belgilari bilan ajralib turadi.

Partiyalarning siyosiy institut sifatidagi fikrni olim M.Dyuverje ham qo‘llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, partiyaning shakllanishi - ijtimoiy asos, dasturiy tamoyillarni ishlab chiqish, doimiy a’zolar, tarafdorlar va xayrixohlar safini

[82] Токвиль А. Демократия в Америке. – М., 1994. – 280 с.

[83] Зеркин Д.П. Основы политологии: Курс лекций. Партии и политической системе. Общественно-политические движения. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1997. – 281 с.

shakllantirish hamda to‘ldirish - uning kelgusi faoliyati uchun hal qiluvchi jarayon hisoblanadi[84].

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida tilga olingan olimlarning asarlarida partiyalar va partiyaviy tizimlar hodisasining o‘ziga institutsional yondashuv amalga oshirilgan. Boshqacha aytganda, XVIII asr va asosan XIX asrdan boshlab shakllanishni boshlagan partiyalar siyosiy jarayonlar hamda siyosiy institutlar tizimiga faol qo‘shilish jarayonidan o‘tgan.

Ta’kidlash joizki, partologiya dastlab siyosatshunoslik va sotsiologiya fanlarining mustaqil bo‘limi sifatida qarab kelingan. Shu bilan birga, partologiya fani uchun nazariy asoslar ijtimoiy tafakkurning sotsiologik va siyosatshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan shakllanish davri bilan bir vaqtda yaratilgan. Uch asr davomida ijtimoiy-siyosiy bilimlarning ortib borishi jarayonida aniq metodologik yondashuvlar asosida siyosiy tizimlar, siyosiy rejimlar va siyosiy hokimiyat tushunchalari bilan bir qatorda partiyalar konsepsiyalari shakllangan.

Siyosiy partiyalarining shakllanish davrigacha tarixda turli siyosiy birlashmalar faoliyat ko‘rsatganligi ma’lum. Xususan, partologiya fani siyosiy partiyalarning tarixiy fenomenlari hisoblangan **“Siyosiy shaxs”,** “**Kokuslar”, “Klublar”, “To‘garaklar”, “Fraksiyalar” va “Siyosiy guruhlar”**lardan tortib hozirgi zamonaviy ko‘rinishgacha bo‘lgan davrni bosib o‘tgan[85]. [5, – Б. 12.] Bu esa, partologiya fani institutsional shakllanish bosqichidan o‘tganligini hamda fanning obyekt va predmet doirasi mavjudligini anglatadi.

Partologiya fanining **predmeti** partiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va faoliyatining qonuniyatlari hamda mexanizmlaridir. Fanning **obyekti** esa, “fuqarolik jamiyati-partiya-davlat” munosabatlari tizimida o‘rganiladigan ijtimoiy hayot jarayonidir. Chunki, siyosiy partiyalar davlatga ham, fuqarolik jamiyatiga ham qarshi turmaydigan, balqi ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlaydigan yagona siyosiy institut hisoblanadi.

Partologiya fani ham boshqa siyosiy fanlar singari bir qancha quyidagi **vazifalar**ni bajaradi:

- siyosiy partiyalarning mohiyati, turlari va funksiyalarini o‘rganish;
- turli siyosiy tizimlarda partiyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tahlil qilish (ko‘ppartiyaviylik, birpartiyaviylik);
- partiyalarning mafkuraviy asoslari, dasturlari va siyosiy pozitsiyalarini tadqiq etish;
- partiyalarni tashkil etish, ularning rivojlanishi va transformatsiya mexanizmlarini ochib berish;
- partiya rahbarlari va elitalarning rolini o‘rganish;
- partiyalarning moliyaviy manbalari va ularning siyosatga ta’sirini tahlil etish;
- partiyalarning qonunchilikka va jamoatchilik fikriga ta’sirini monitoring orqali aniqlash va boshqalar.

Mazkur vazifalar ijrosi natijasida fan doirasida talabalarda siyosiy savodxonlik, siyosiy tizimlarni tahlil qilish, tahliliy fikrlash, saylov texnologiyalarini bilish, siyosiy sotsializatsiya jarayonlarini tushunish va tanqidiy tahlil etish kabi bilim va ko‘nikmalar shakllanadi. Bu bilim va ko‘nikmalar talabalarga siyosat, jurnalistika,

[84] Дюверже М. Политические институты и конституционное право. Зарубежная политическая мысль. – М.: Мысль, 1997. – 830 с.
[85] Qirg‘izboev M. Partologiya. – Toshkent: Akademiya, 2007. – 192 b.

tahliliy markazlar yoki davlat boshqaruvi sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlariga yordam beradi.

Partologiya fani yaqin yillargacha alohida fan sifatida emas, balki siyosatshunoslikning ma'lum bir qismi sifatida o'qitib kelingan bo'lsa-da, hozirda jahonning nufuzli universitetlarida siyosatshunoslik fanidan ajralib chiqa boshladi. Xususan, AQShning Garvard, Prinston universitetlari, Buyuk Britaniyaning London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi, Rossiyaning Moskva davlat universiteti, Hukumat huzuridagi Moliya universiteti va Oliy iqtisodiy maktabida ham partologiya fani alohida fan yoki kurs sifatida talabalarga o'qitib kelinmoqda.

Umuman olganda, XXI asr siyosiy munosabatlarining kengayib va chuqurlashib borayotgan manzarasi, siyosiy munosabatlar subyektlari nomenklaturasining ko'payishi, uning inqilobiy va islohotchilik amaliyotida siyosiy hayot subyektlarining kengayishi bilan bog'liq holda partologiyaning yanada ilg'or rivojlanish asri bo'ldi deb aytish mumkin.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda ham siyosatshunos talabalar uchun siyosiy partiyalar to'g'risidagi fanni o'qitishni yo'lga qo'yish, ularning siyosiy bilim doirasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Политические учения: история и современность. Домарксистская политическая мысль. – М.: Наука, 1976. – С. 56.
2. Токвиль А. Демократия в Америке. – М., 1994. – 280 с.
3. Зеркин Д.П. Основы политологии: Курс лекций. Партии и политической системе. Общественно-политические движения. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1997. – 281 с.
4. Дюверже М. Политические институты и конституционное право. Зарубежная политическая мысль. – М.: Мысль, 1997. – 830 с.
5. Qirg'izboev M. Partologiya. – Toshkent: Akademiya, 2007. – 192 b.
6. Исаев Б.А. Практическая партология: генезис партий и партийно-политических систем. – Санкт-Петербург: Петрополис, 2010. – 514 с.
7. Дюверже М. Политические партии. пер: Зимина Л. А. – М.: Академический проект, 2018. – 544 с.

J.T. Ochilov *- Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti talabasi*

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUV JARAYONIDA SIYOSIY YETAKCHINING IMIDJI

Kirish. O'zbekistoda so'ngi yillarda fuqarolarda yangicha siyosiy xulq-atvor shakillanib, bugungi kunda olib borilayotgan siyosatga xos siyosiy ong, tafakkur shakillanib o'zgarib borayotgan dinamik jarayon mos siyosat olib borilmoqda. Biroq bu davlat siyosiy insitutlarini yetarli darajada samarali ish olib borishga yetarli emas. Davlatda siyosiy tizimning shakillanib borishi zamonaviy siyosiy yetakchining qarorlari, uning ish olib borishi va fuqarolar tamonidan qay darajada qullab-quvvatlashiga bog'liq bo'lib qolmoqda. So'ngi yillarda O'zbekistoda siyosiy jarayonlarga siyosat subektlarining tasiri siyosiy yetakchi bilan bog'liq bo'lib

qolmoqda shu sababdab siyosiy yekachining zamonaviy imjini o‘rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Siyosiy yetakchilik – bu jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni boshqarish, qaror qabul qilish va davlatni rivojlantirish yo‘nalishida muhim rol o‘ynaydigan yetakchilarning faoliyati va ularning jamiyatga ko‘rsatadigan ta’sirini anglatadi. Siyosiy yetakchi nafaqat davlat rahbari yoki hukumat vakili bo‘lishi mumkin, balki u siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar yoki milliy va xalqaro tashkilotlarda ham faoliyat yuritishi mumkin. Siyosiy yetakchilik zamonaviy dunyo uchun muhim tushuncha bo‘lib, u davlatning rivoji va siyosiy barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy yetakchilik tushunchasi quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Siyosiy yetakchilikning asosiy komponenti – bu boshqalar ustidan ta’sir o‘tkazish va ularning harakatlarini muayyan yo‘nalishga yo‘naltirish qobiliyati. Siyosiy yetakchilar o‘z g‘oyalari, qarashlari va siyosiy dasturlari orqali jamiyatni harakatlantirishga qodir. Ular jamoatchilikning e’tiborini jalb qilish orqali siyosiy jarayonlarni shakllantiradi va muhim qarorlar qabul qiladi. Siyosiy yetakchilik jarayonida eng muhim vazifa – bu strategik va muhim siyosiy qarorlarni qabul qilishdir. Yetakchilar davlatni boshqarishda, ijtimoiy muammolarni hal etishda va xalqaro maydonda mamlakatning manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydilar. Ular mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy yo‘nalishini belgilovchi qarorlarni ishlab chiqadilar va joriy etadilar. Har qanday siyosiy yetakchilikning muvaffaqiyati uning legitimligi, ya’ni qonuniy va jamoatchilik tomonidan tan olinganligiga bog‘liq. Yetakchi xalqning ishonchini qozonishi va ularning manfaatlarini himoya qilishga qodir bo‘lishi kerak. Legitim yetakchi xalq orasida hurmat va qo‘llab-quvvatlovga ega bo‘lib, uning siyosiy faoliyati samaradorligi oshadi.

Siyosiy yetakchining asosiy vazifalaridan biri – jamiyatdagi turli guruhlarni birlashtirish va ularga umumiy maqsadlarni ko‘rsatishdir. Yetakchi jamoatchilikka birlik va birdamlikka erishishda yo‘lboshchi bo‘lib xizmat qiladi. Bu siyosiy jarayonlar davomida turli manfaatlar to‘qnashuvini yumshatishga va ijtimoiy tinchlikni saqlashga yordam beradi. Yetakchilik nafaqat boshqaruv jarayoni, balki yetakchining shaxsiy fazilatlari va qobiliyatlari bilan ham bog‘liq. Siyosiy liderlar ko‘pincha qaror qabul qilishda jasorat, qat’iyat, strategik tafakkur va yuqori darajadagi tahliliy qobiliyatlarga ega bo‘lishadi. Yetakchi o‘z shaxsiy imiji va jamoatchilik bilan munosabatlari orqali siyosiy jarayonlarda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Siyosiy yetakchilik ko‘p jihatdan siyosiy mahoratni talab qiladi. Bu yetakchining siyosiy jarayonlar, qonunchilik, boshqaruv va xalqaro munosabatlardagi malakasini anglatadi. Siyosiy mahorat orqali yetakchi turli siyosiy va ijtimoiy guruhlar bilan samarali muzokaralar olib boradi, muammolarni hal qilishda ko‘nikmalarini ishga soladi va murakkab masalalarda o‘z pozitsiyasini himoya qiladi.

Zamonaviy dunyoda siyosiy yetakchilik ko‘pincha demokratik qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning ishonchi va roziligi asosida shakllanadi. Yetakchilar ko‘pincha xalq vakillari sifatida ko‘riladi va ularning vazifasi – davlatni boshqarish jarayonida shaffoflik va javobgarlikni ta’minlashdir. Demokratik siyosiy yetakchilar xalq bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini inobatga oladi. Siyosiy yetakchi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatiga katta ta’sir o‘tkazadi. U mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, ishsizlikni kamaytirish, ta’lim va

sog‘liqni saqlash tizimlarini yaxshilash kabi masalalarda muhim qarorlar qabul qiladi. Yetakchi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalq farovonligini oshirishga harakat qiladi.

Siyosiy yetakchilar ko‘pincha krizis sharoitlarida mamlakatni boshqarishlari kerak bo‘ladi. Tabiiy ofatlar, siyosiy yoki iqtisodiy inqirozlar davrida yetakchilar tez va aniq qarorlar qabul qilishlari kerak. Krizis vaqtida yetakchining qobiliyatlari va strategik rejalashtirish ko‘nikmalari sinovdan o‘tadi. Siyosiy yetakchilik nafaqat ichki, balki xalqaro siyosat maydonida ham katta ahamiyatga ega. Globalizatsiya davrida siyosiy yetakchilar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, diplomatik muzokaralar olib boradi va xalqaro kelishuvlar tuzadi. Yetakchi o‘z mamlakatining xalqaro obro‘sini oshirish va milliy manfaatlarini himoya qilish uchun faoliyat yuritadi.[86]

Dunyoning koplab demokratik davlatlarida siyosiy yetakchining shakillanishi, siyosiy qarashlar maydoni siyosiy raqobat muhitni belgilaydi. Ushbu jarayonlar demoktarik tamoillarga asoslangan xolada siyosiy yetakchilarning siyosiy maydonga chiqishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratilishiga olib keladi. Jumladan ochiq tanlov tizimi, siyosiy raqobat muxitini, pluralistic dasturlar va xakazolar. Zamonaviy sharoitlarda siyosiy yetakchilar shakillanishi va ularning siyosiy hokimyatda yetakchi pozitsiyani egalashi uchun elektaratning kopchilik ovozini olish zarur. Bunga erishish uchun siyosiy yetakchi axoliga maqbul buladigan va uning diqqatini tortadigan imjni yaatish va shakillantirishdek muhim vazifani xal etmogi kerak.

O‘zbekistonda otkan yillar davomida fuqarollarda yangi siyosiy xulq atvor shakillanib isloxotlarga xos siyosiy ong va tafakkur tarzi qaror topdi. Biroq siyosiy tizim tarkibidagi barcha insitutlarning tashkiliy va tarkibiy isloxati samarali siyosat yuritish uchun yetarli sharoit yaratilganini anglatadi. Siyosiy tizimning takomillashib borishi zamonaviy siyosiy yetakchining shaxsiga uning ish uslubiga va qarorlari fuqarolar tomonidan qay darajada qullab-quvvatlanayotganiga bog’liq bo‘lmoqda O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlarga siyosat subektlari faoliyatining tasiri siyosiy yetakchilik xodisasi bilan bog’liq. Shu manoda siyosiy yetakchilik xodisasi va siyosiy yetakchi imjning shakillanishiga oid nazariy-metadalogik yondashuvlarni siyosiy fan talablari asosida tizimli organish dolzarbdir.[87]

SIYOSIY IMIJNING AHAMIYATI

Siyosiy yetakchining imiji uning jamiyatda qanday qabul qilinishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Imij yetakchining shaxsiy fazilatlari, boshqaruv uslubi, siyosiy pozitsiyalari va ommaviy nutqlaridan tortib, u qanday ko‘rinishda bo‘lishi, ommaviy axborot vositalarida qanday tasvirlanishiga qadar keng qamrovli omillarni o‘z ichiga oladi. Quyida imijning siyosiy yetakchiga va jamiyatdagi qabul qilinishiga qanday ta'sir qilishiga oid muhim jihatlar bayon etilgan.

Siyosiy yetakchining imiji odamlar bilan qanday aloqa qilishida muhim rol o‘ynaydi. Agar yetakchi o‘z tarafdorlari va jamoatchilik bilan ochiq, halol va shaffof bo‘lsa, uning imiji ijobiy qabul qilinadi. Biroq, agar yetakchi masofani saqlashga yoki sovuqroq munosabatda bo‘lishga moyil bo‘lsa, jamoatchilik uni uzoqroq va tushunarsiz deb qabul qilishi mumkin.

[86] R. K. M. Kabilovning Kitobi Siyosiy Yetakchilar va Ularning Imiji 2018-yil 45-67-betlar

[87] Siyosiy fanlar doktori Qalqanov Nuriddin Toshpulatovich zamonaviy sharitda siyosiy yetakchining imjni shakillantrish dessertatsiyasi 3-4 bet Toshkent 2018

Ishonch siyosiy yetakchilikda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yetakchining imiji jamoatchilikning unga bo‘lgan ishonchini shakllantiradi. Agar yetakchi o‘ziga ishonchli, tamomila ochiq va aniq bo‘lsa, u kuchli va ishonchli imijga ega bo‘ladi. Bu esa odamlarning unga va uning qarorlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Aksincha, noto‘g‘ri yoki yolg‘on axborot tarqatish yetakchining imijiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi va ishonchni pasaytirishi mumkin.

Yetakchining shaxsiy karizmasi va jozibasi uning imijida katta rol o‘ynaydi. Karizmatik yetakchilar, odatda, jamoatchilikka ilhom bag‘ishlaydi va ularda ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Karizma va joziba siyosiy yetakchilarning tarafdorlari sonini oshirishga va jamoatchilik bilan yaqinroq munosabat o‘rnatishga yordam beradi. Bu, shuningdek, siyosiy nutq va bayonotlarning kuchini oshiradi. Yetakchining qabul qilgan siyosiy qarorlari uning imijiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ommabop, samarali va jamiyat manfaatlariga mos keladigan qarorlar siyosiy yetakchining imijini yaxshilaydi. Aksincha, noto‘g‘ri yoki ommaviy norozilikka sabab bo‘ladigan qarorlar uning imijiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi va jamiyat tomonidan rad etilishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda siyosiy yetakchining imiji ko‘pincha ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi. Televizor, radio, matbuot va ijtimoiy tarmoqlar yetakchining ko‘rinishi, nutqlari va xatti-harakatlarini keng ommaga taqdim etadi. Media yetakchining imijini yaratishda va uni jamoatchilikka qanday ko‘rsatilishida katta rol o‘ynaydi. Ijobiy matbuot xabarlari va yaxshi ishlangan PR yetakchining ijobiy imijini mustahkamlashga yordam beradi, aksincha, salbiy xabarlar uning obro‘siga zarar yetkazishi mumkin. Imij siyosiy yetakchilikda rejalashtirilgan strategiyaning bir qismidir. Siyosiy yetakchilar o‘z imijini boshqarish va shakllantirishda turli vositalardan foydalanadilar, masalan, nutqlarni to‘g‘ri tanlash, ularning kiyinish uslubi va omma oldidagi nutqlaridagi ohang. Ommaviy tadbirlar, nutq so‘zlash, xalq bilan yaqin munosabatda bo‘lish kabi harakatlar yetakchining imijini samarali tarzda boshqarishga yordam beradi. Krizis davrida siyosiy yetakchining imiji eng ko‘p sinovdan o‘tadi. Yetakchi qanday javob berishi va vaziyatni qanday boshqarishi uning imijiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Krizislarni samarali boshqarish ijobiy imijni yanada mustahkamlaydi va yetakchining halolligi, professionalligi va insofli ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, krizis davrida noto‘g‘ri qarorlar yoki sust harakatlar yetakchining imijini qiyin ahvolga solishi mumkin.

Siyosiy yetakchining shaxsiy hayoti ham uning jamoatchilik oldidagi imijiga ta’sir qiladi. Odamlar yetakchini nafaqat siyosiy faoliyati bilan, balki uning oilaviy hayoti, ijtimoiy masalalarga munosabati va shaxsiy fazilatlari bilan ham baholaydi. Agar yetakchi o‘zini nafaqat siyosatchi sifatida, balki jamoatga yaqin va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida ko‘rsata olsa, uning ijobiy imiji mustahkamlanadi.

Siyosiy yetakchining imijini shakllantirishda madaniyat va milliy an'analarning roli ham katta. Har bir jamiyatning o‘ziga xos qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy qabul qilinish mezonlari bor. Yetakchi ushbu madaniy qadriyatlarni hurmat qilsa va ularga mos ravishda harakat qilsa, jamiyat uni ijobiy qabul qiladi. Aks holda, yetakchiga nisbatan norozilik paydo bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda siyosiy yetakchilar texnologiya va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib o‘z imijlarini yanada kuchaytirishlari mumkin. Ijtimoiy media platformalar yetakchilarga jamoatchilik bilan bevosita muloqot qilish va ularning fikr-mulohazalarini olish imkonini beradi. Yetakchining ijtimoiy tarmoqlarda faolligi uning zamonaviy va xalqchil imijini yaratishga yordam beradi. Siyosiy yetakchining imiji uning jamiyatda qanday qabul

qilinishiga bevosita ta'sir qiladi. Ijobiy imij yetakchining ishonchini, tarafdorlari sonini va obroʻsini oshiradi. Salbiy imij esa uning obroʻsiga zarar yetkazishi, hatto siyosiy faoliyatiga toʻsqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, siyosiy yetakchilar oʻz imijlarini toʻgʻri shakllantirish va boshqarishga katta e'tibor qaratishlari kerak. Dunyo mamlakatlarida siyosiy yetakchining imiji va uning jamiyat tomonidan qabul qilinishi koʻplab omillar va sharoitlar bilan bogʻliq boʻlib, ular har bir mamlakatning oʻziga xos siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitiga bogʻliq. Quyida turli mamlakatlarda siyosiy yetakchining imiji va uning jamiyatdagi qabul qilinishiga ta'sir koʻrsatadigan asosiy omillar haqida umumiy koʻrinish beriladi.[88]

Xulosa

Zamonaviy siyosiy yetakchilik imiji koʻplab omillarning ta'siri ostida shakllanadi. Yetakchining shaxsiy fazilatlari, uning xalq bilan munosabatlari, ommaviy axborot vositalaridagi qiyofasi va global siyosatdagi roli zamonaviy siyosiy yetakchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy jihatlar hisoblanadi.

Siyosiy yetakchining kompetensiyasi, innovatsion yondashuvi va xalq oldidagi ochiqligi uning ommadagi qiyofasini kuchaytiradi. Globalizatsiya sharoitida siyosiy yetakchilarning faqat milliy siyosatda emas, balki xalqaro maydonda ham ta'sirchan boʻlishi muhim ahamiyatga ega boʻlib, bu yetakchilikning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari haqida chuqur tahlillar oʻtkazishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. K. M. Kabilovning Kitobi Siyosiy Yetakchilar va Ularning Imiji 2018-yil 45-67-betlar

2. Siyosiy fanlar doktori Qalqanov Nuriddin Toshpulatovich zamonaviy sharitda siyosiy yetakchining imjni shakillantrish dessertatsiyasi 3-4 bet Toshkent 2018

3. D. A. Karimovning 2021-yil Zamonaviy Siyosiy Yetakchilik: Imij va Kommunikatsiya tezislardan Siyosiy Ilm va Innovatsiyalar konferensiyasi 15-20-betlar

A.N. Narkulov *– Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi magistranti*

HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA HARBIY SIYOSATSHUNOSLIK FANINING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Urushlar va harbiy toʻqnashuvlar ming yillar davomida insoniyat sivilizatsiyasiga hamroh boʻlib kelgan va har doim insoniyat urushning sabablari va mohiyatini tushunishga, urushning siyosat bilan munosabatlarini aniqlashga intilgan. Harbiy siyosatshunoslik fani bu jarayonlarni chuqurroq tushunish va tahlil qilish uchun muhim boʻlib, davlatlarning xavfsizlik strategiyalarini yaratishda, xalqaro munosabatlarni tushunishda va tinchlikni saqlashda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada harbiy siyosatshunoslik fanining qisqacha vujudga kelishi tarixi va dunyo davlatlari tajribasini misollar orqali yoritib, mazkur fanning oliy

[88] *D. A. Karimovning 2021-yil Zamonaviy Siyosiy Yetakchilik: Imij va Kommunikatsiya tezislardan Siyosiy Ilm va Innovatsiyalar konferensiyasi 15-20-betlar*

harbiy o‘quv yurtlari kursantlariga o‘qitilishining ahamiyati va zaruriyatini ko‘rib chiqamiz.

Rus olimi N.Reznik harbiy siyosatshunoslikka quyidagicha ta’rif bergan. Xususan, “harbiy siyosatshunoslik – bu harbiy zo‘ravonlikning tabiati, mohiyati va shakllari, uning siyosiy maqsadlarda qo‘llanishining imkoniyatlari va chegaralari, shuningdek harbiy kuchni tashkil etish usullari, uning hokimiyat munosabatlari tizimidagi o‘rni va roli to‘g‘risidagi bilimlar tizimidir”[89].

Siyosatshunos N.Reznikning harbiy siyosatshunoslikka bergan ta’rifi keng qamrovli bo‘lib, mazkur siyosiy atamani harbiy zo‘rovonlik tabiati nuqtai nazaridan ochib berishga harakat qilgan. Lekin harbiy siyosatshunoslik fanini harbiy zo‘ravonlikning tabiati sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq emas deb o‘ylaymiz. Chunki mamlkatimiz ichki va tashqi siyosatida o‘zaro tenglik, davlatlararo hamkorlik, kuch ishlatmaslik, priventiv diplomatiyaga ustuvor ahamiyat qaratilganligini hisobga olib, harbiy siyosatshunoslik fanini o‘qitishda zo‘ravonlik emas, balki siyosiy maqsadlarda qo‘llanishining imkoniyatlari va chegaralarini o‘zaro tenglik tamoyili asosida o‘rganishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Shundan kelib chiqib, aytish lozimki harbiy siyosatshunoslik fani – siyosatshunoslik fanining bir yo‘nalishi bo‘lib, unda davlatlarning harbiy kuchlari, harbiy strategiyalari, havfsizlik siyosati, va halqaro munosabatlardagi harbiy masalalari o‘rganiladi. Bu fanning asosiy maqsadi harbiy kuchlarning siyosatdagi o‘rni, harbiy strategiyalar va qarorlar, shuningdek halqaro siyosatdagi harbiy omillarning qanday ta’sir qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni chuqur taxlil qilishdir.

Shu o‘rinda, mazkur fanning mohiyatini batafsil anglash uchun “habiy siyosatshunoslikning” dastlabki kelib chiqish sabablari, davrlarga bo‘linishi hamda ilmiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan fikr va mulohazalarni ko‘rib chiqishimiz zarur.

Harbiy siyosatshunoslikning paydo bo‘lishiga turli tarixiy voqealar, ya’ni imperiyalarning bir-biriga raqobati, buyuk sarkardalarning davlatni saqlab qolish uchun qo‘llagan harbiy strategiyalari va bundan boshqa bir qator omillar ta’sir qilgan. Harbiy siyosatshunoslik uzoq tarixiy jarayonlar davomida shakllangan bo‘lib, uning rivojlanish tarixini bir nechta davrlarga bo‘lishimiz mumkin. Xususan, olimlar harbiy siyosatshunoslikning shakllanish tarixini quyidagi beshta davrga bo‘lishgan:

Qadimgi dunyo - sivilizatsiyaning yuksalishidan to milodiy 476 yilda G‘arbiy Rim imperiyasining qulashigacha;

O‘rta asrlar – V - XV asrlar;

Uyg‘onish davri – XV - XVI asrlar;

Yangi davr – XVII - XIX asrlar;

Zamonaviy davr – XX asrdan hozirgi kungacha[90]

Ushbu davrlarga monand “harbiy siyosatshunoslik” bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda bir nechta qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, qadimgi Xitoyda Sun szi tomonidan (miloddan avvalgi V–VI asrlar) yozilgan "Urush san’ati" asarida urush strategiyalari, taktika va diplomatiyaga oid g‘oyalar yoritilgan. Sun szi urush nafaqat kuchga asoslanishi, balki siyosiy strategiya va diplomatik yondashuvlarni ham o‘z ichiga olishi kerakligini ta’kidlagan.

[89] Резник Н.И. Военная политология. Учебное пособие. МО РФ, 2006 г. С. 7.
[90] Резник Н.И. Военная политология. Учебное пособие. МО РФ, 2006 г. С. 18.

Bundan tashqari qadimgi Yunonda Aristotel va Platon kabi faylasuflar davlat qurilishi va harbiy siyosatga oid g‘oyalarni ilgari surishgan. Fukididning "Peloponnes urushi tarixi" asarida harbiy mojarolarning siyosiy sabablari va oqibatlari tahlil qilingan. Rim imperiyasi harbiy siyosat va strategiya bo‘yicha dunyoda yetakchi bo‘lgan. Yuliy sezar kabi rahbarlar harbiy harakatlar va siyosiy strategiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib bergan.

Yevropada Makkiavellining "Hukmdor" (1513) asarida davlatni himoya qilish uchun harbiy siyosatning ahamiyati ta’kidlangan. Makkiavelli davlat rahbarining harbiy kuchni qanday samarali qo‘llash kerakligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan.

Tarixda Islom olamida ham harbiy siyosatga katta e’tibor qaratilgan. Ma’lumki Amir Temur kabi buyuk sarkardalar jahon sahnasida nafaqat harbiy, balki siyosiy yo‘nalishda ham katta ta’sir ko‘rsatgan. U davlatni boshqarish va tinchligini saqlashga katta e’tibor qaratib, tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kurashda o‘zining harbiy strategiyalaridan unumli foydalangan. Xususan, Amir Temur o’zining qaydnomasi bo’lmish “Temur tuzuklari”da “Saltanatim ishlarini qonun-qoida va intizomga solib, saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim»[91] deb aytgan so‘zlari bunga yorqin misoldir. Mazkur o’n ikki toifa orasida no’yonlar[92] , amirlar, mingboshilar, ya’ni harbiy kishilar, shuningdek, sipohlarning borligi davlat siyosatida harbiy soha vakillarining ham o’rni kata ekanligini ko’rsatadi. Bundan ko’rininb turibdiki, Amir Temur va temuriylar davrida davlat siyosatida harbiy sohaga muhim e’tibor qaratilgan.

Yangi harbiy siyosatshunoslikning shakllanishi harbiy siyosatning tizimli o‘rganilishi XVII–XIX asrlarga borib taqaladi. Karl fon Klauzevisning "Urush to‘g‘risida" (1832) asari harbiy siyosatshunoslikning ilmiy asosini yaratgan muhim ishlardan biri hisoblanadi. Urush va siyosat o‘rtasidagi bog‘liqlikka oid asosiy nazariyalar shu asarda bayon etilgan. Klauzevis urushni siyosatning davomi sifatida ko‘rib, harbiy harakatlarning siyosiy maqsadlarga moslashtirilishini muhim deb hisoblagan.

XX asrda harbiy siyosatshunoslik alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Sovuq urush davrida AQSh va SSSR o‘rtasidagi yadroviy qurollanish poygasi va global strategiyalar bu sohaning ilmiy rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Garvard va Oksford kabi universitetlarda harbiy siyosat va xavfsizlikka bag‘ishlangan tadqiqot markazlari tashkil etildi. Halqaro tashkilotlar vujudga keldi. BMT, NATO, Varshava shartnomasi kabi tashkilotlar harbiy siyosat va xavfsizlikni o‘rganishda muhim rol o‘ynadi. Xalqaro munosabatlarning murakkabligi harbiy siyosatshunoslikni global miqyosda o‘rganishni taqozo qildi.

Harbiy siyosatshunoslik turli tarixiy davrlar va mintaqalarda vujudga kelgan va rivojlandi. Bugungi kunda u davlatlarning xavfsizlik strategiyalarini, harbiy texnologiyalarni va tinchlikni ta’minlash usullarini o‘rganuvchi muhim fan sifatida e’tirof etilmoqda.

[91] Темур тузуклари //Форсчадан| А. Согуний ва Ҳ. Кароматов тарж; Б. Аҳмедов таҳрир. остида/.— Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.— 64 б.

[92] No’yon (nuyon) – turk-mo’g’ul xalqlari orasida: xonzoda, tuman (10 000 kishilik qo’sin) boshlig’i.

Bu esa o‘z navbatida “harbiy siyosatshunoslik” fanini mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan oliy harbiy o‘quv yurtlariga tadbiq qilish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur o‘quv fanini rivojlantirish respublikamizda faoliyat olib borayotgan oliy harbiy o‘quv yurtlarining “ijtimoiy gumanitar” yo‘nalishidagi fakultet va kafedralariga ma’suliyat yuklaydi.

Aytish joizki “harbiy siyosatshunoslik” fanini mamlakatimiz oliy harbiy o‘quv yurtlariga tadbiq qilish uchun avvalo hozirgi vaqtda xorijiy davlatlarda o‘qitilish ko‘lami haqida tushunchalarga ega bo‘lish lozim. Xususan AQShda “harbiy siyosatshunoslik” fani harbiy rahbarlik va strategiya to‘g‘risida yuqori darajadagi ta’lim olishga hamda tarix va xalqaro munosabatlar kabi sohalarni o‘rganishga mo‘ljallangan Nyu-York shtatidagi joylashgan United States Military Academy at West Point[93] harbiy akademiyasida o‘qitiladi.

Bundan tashqari Buyuk Britaniyada ham “harbiy siyosatshunoslik” fani o‘qitiladi. Royal Military Academy Sandhurst[94] harbiy akademiyasida harbiy siyosatshunoslik va harbiy tarix fanlari uzoq vaqtdan beri o‘qitiladi. Harbiy akademiya harbiy ta’lim dasturlari doimiy ravishda rivojlanib kelgan va harbiy siyosatshunoslik fanini o‘qitish akademiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Akademiyadagi ta’lim dasturlari harbiy strategiyalar, xalqaro munosabatlar va harbiy tarixni o‘rganishga qaratilgan. Bu kurslar bo‘lajak ofitserlarning harbiy bilimlarini va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Harbiy siyosatshunoslik va harbiy tarix fanlari bo‘yicha ta’lim olish kursantlarning harbiy va strategik fikrlash qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan.

Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining knyaz Aleksandr Nevskiy nomidagi harbiy universiteti[95] ham harbiy siyosatshunoslikni o‘qitishga oid asosiy bilim yurtlaridan biri xisoblanadi. 2018-yilda Rossiya Federatsiyasida harbiy-siyosiy bosh boshqarma tashkil etilganidan so‘ng, 2019-yildan boshlab universitetda harbiy-siyosiy ish bo‘yicha fakultet ochilib mutaxassislar tayyorlaydigan asosiy oliy ta’lim muassasasiga aylanishi haqida qaror qabul qilindi.

Ushbu soha bo‘yicha Rossiya federatsiyasi dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shu bois davlat “Harbiy siyosatshunoslik” sohasiga oid o‘quv qo‘llanmalar[96] ishlab chiqishga alohida e’tibor bilan qaraydi.

Xulosa qilib aytganda biz ushbu maqolada “harbiy siyosatshunoslik” fanining qisqacha vujudga kelish tarixi hamda dunyodagi davlatlar tajribasi misolida mazkur fanning oliy harbiy o‘quv yurti kursantlariga o‘qitilishining ahamiyati va zaruriyatini yoritishga harakat qildik. Bu fan kelajakda oliy harbiy o‘quv yurtida tahsil olayotgan kursantlarga harbiy siyosiy bilimlarni oshirish va mustaqil fikrlay olishga o‘rgatish, dunyoda ruy berayotgan konfliktlarni kelib chiqish sabablarini anglash, tahlil qilish va natijalarini prognoz bera olish qobiliyatini shakllanttirish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekistonda “harbiy siyosatshunoslik” fanidanini rivojlantirish uchun istiqbolda qo‘yidagilarni amalga oshirishni taklif etamiz:

1) “Harbiy siyosatshunoslik” fani bo‘yicha davlat tilida o‘quv qo‘llanma

[93] https://ru.wikipedia.org/wiki/Военная_академия_США

[94] https://en.wikipedia.org/wiki/Royal_Military_Academy_Sandhurst

[95] ru.wikipedia.org/wiki/Военный_унивеситет_Министерства_обороны_Российской_Федерации

[96] Военная политология. Учебное пособие. Резник Н.И. МО РФ, 2006 г, Военно-политические исследование в россии. Справочник. НП РСМД 2014 г, Политология и военное дело 2-е изд. Учебное пособие для вузов. Вешилов С.А. Москва 2022 г,

darslik va metodik qullanmalar tayyorlash va chop etish;

2) Oliy harbiy o‘quv yurtlari kursantlarining mutaxassisliklaridan kelib chiqib “Harbiy siyosatshunoslik” fanini o‘qitilishini joriy qilishni ko‘rib chiqish;

3) Harbiy siyosatshunoslik fanining dolzarb masalalariga oid siyosatshunos olimlar hamda oliy harbiy o‘quv yurtlari kursantlari ishtirokida Respublika va halqaro konferensiyalar o‘tkazish;

4) Harbiy siyosatshunoslikning nazariy asoslari, ushbu fanni o‘qitish zarurati va metodologiyasiga oid tadqiqotlar o‘tkazilishini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Резник Н.И. Военная политология. Учебное пособие. – М, 2006. – С. 18.
2. Темур тузуклари //Форсчадан| А. Согуний ва Ҳ. Карокатов тарж; Б.Аҳмедов таҳрир. остида/.— Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 64 б.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Военная_академия_США
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Royal_Military_Academy_Sandhurst
5. ru.wikipedia.org/wiki/Военный_унивеситет_Министерства_обороны_Российской_Федерации
6. Военная политология. Учебное пособие. Резник Н.И. – М, 2006. – С. 89.
7. Военно-политические исследование в россии. Справочник. НП РСМД 2014. – С. 225.
8. Политология и военное дело 2-е изд. Учебное пособие для вузов. С.А.Вешилов. – Москва, 2022. – С. 136.

M.D. To’rayev *– Samarqand davlat universiteti talabasi*

SIYOSIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONVIY TADQIQOTLAR: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

Kirish

Siyosiy fanlar ta'limi dunyo miqyosida har doim dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatlar rivojlanayotgan va global miqyosda yangi muammolar yuzaga kelayotgan sharoitda siyosiy fanlarni o'qitish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Siyosiy fanlar ta'limi nafaqat siyosatshunoslik va boshqaruv sohalarida, balki umumiy ijtimoiy va madaniy jarayonlarda ham muhim o'rin tutadi. Siyosat bilan shug‘ullanish jarayonlari davlat hokimiyati mexanizmlarini shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda ko‘pchilik siyosiy yangiliklarga qiziqadi va siyosat bilan shug‘ullanadi. Siyosatshunos kasbi avvalgi vaqtlarda maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim olish orqali o‘rganilgan. Hozirgi davrda siyosatshunoslikni turli kasblarga ixtisoslashuvi va axborot almashinuv imkoniyatlarini kengayishi mazkur kasblarni ommalashuviga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda siyosiy fanlarni qaytadan «tiriltirish», uning obro‘si va nufuzini o‘z joyiga qo‘yish Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Prezidenti etib saylanganidan keyin boshlandi. Davlat boshlig‘i Respublikada siyosiy fanlarni rivojlantirish, ushbu sohadagi kadrlarni tayyorlash, ma’muriy islohotlarni o‘z nihoyasiga yetkazishda siyosiy fanlarning o‘rnini chuqur va teran ravishda anglab

yetgan edi. Shuning uchun bu sohada tub o‘zgarishlar amalga oshirilib, siyosiy fanlar bo‘yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalari hamda unvonlarini olish qaytadan tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvarda «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samarador-ligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Unga binoan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga 2019-2020 o‘quv yilida «Siyosatshunoslik» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha «Amaliysiyosatshunoslik» ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha talabalar, shuningdek, «Siyosiy fanlar» fani tarmog‘i ixtisosliklari bo‘yicha tayanch doktoranturaga qabul qilinadigan bo‘ldi[97].

Bugungi kunga kelib, Mamlakatimiz siyosatshunos olimlari oldida qanday qilib siyosiy sohadagi fanlarni jahon standartlari doirasiga ko‘taramiz, ilmiy tadqiqotlarni soni va sifatini yuqori darajaga chiqaramiz, degan masalalar turibdi.

Hozirgi globallashuv davrida jahonda umuminsoniy qadriyatlarning tez o‘zgarishi, ularning buzilishi, dunyoning turli mintaqalarida urushlarning hanuzgacha davom etishi, ekstremizm va terrorchilik g‘oyalarining yashayotganligi jamiyatda salbiy hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday ekan bunday nohush hodisalardan yoshlarimizni asrash, ularning ma’naviy immunitetini oshirish kabi vazifalar hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi davrda zamonaviy siyosatshunoslik alohida kasblarning yo‘nalishi bo‘lib, undan milliy manfaatlarni hisobga olib yondashadigan, yuqori malakali mutaxassis bo‘lish talab etilmoqda. Chunki siyosatchining qabul qilgan noto‘g‘ri qarori ko‘pgina muammolarga va ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, siyosatshunoslardan maxsus bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Siyosatshunos kadrlarni tayyorlash va ularning malakalarini oshirish bo‘yicha ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019 yil 29 yanvardagi PQ-4139-son «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori[98] dan keyin o‘zining yangi bosqichini boshladi.

Mamlakatimizning bir qancha oliy o‘quv yurtlarida siyosatshunoslik yo‘nalishida kadrlar tayyorlanadi. Jumladan, 2022-2023 o‘quv yilida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteteti, Buxoro davlat universtiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Toshkent davlat transport universitetilarida siyosatshunoslik (6031070) bakalavriat yo‘nalishida o‘qishga qabul kvotalari ajratildi. Bundan tashqari, hozirgi davrda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabida siyosatshunoslik yo‘nalishida magistrlar tayyorlab kelinmoqda. Jahonda yuz berayotgan global siyosiy o‘zgarishlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan

[97] Siyosiy fanlar sohasida tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – 6 b.

[98] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Сиёсий фанлар соҳасида кадрларни тайёрлаш, фундаментал ва амалий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4139-сонли Қарори. 2019 йил 29 январь. [Электрон ресурс]. https://lex.uz/docs/4182353

keng qamrovli islohotlar bo‘lajak siyosatshunos mutaxasislardan yangi malakaviy talablarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Siyosiy fanlarni o'qitishdagi zamonaviy muammolar

Siyosiy fanlar o'qitishining eng asosiy muammolaridan biri — bu ta'lim metodologiyasining eskirganligi va zamon talablariga javob bermasligidir[99]. Ko'plab o'quv yurtlarida siyosiy fanlarni o'qitish an'anaviy usullarga asoslangan bo'lib, bu talabalar uchun ishonchli va interaktiv bilim olishni qiyinlashtiradi. Zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan o'qitish metodlari, ayniqsa, interaktiv o'quv materiallari, online ta'lim va yangi texnologiyalardan foydalanishning etishmasligi bu muammoning yanada chuqurlashishiga olib keladi.

Bundan tashqari, siyosiy fanlar o'qitilishida o'quv dasturlari va o'qituvchilarning metodologik malakalarining pastligi ham muhim masalalardan biridir. Ko'plab o'quv dasturlari umuman zamonaviy siyosat va jamiyatni to'liq yoritmaydi, shuningdek, o'quvchilarga siyosiy tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini bermaydi.

Siyosiy fanlarni o'qitishda yechimlar

Zamonoviy siyosiy fanlarni o'qitish muammolariga qarshi bir qancha yechimlar taklif qilinmoqda. Ularning asosiylaridan biri o'quv metodologiyasini yangilash va interaktiv o'quv jarayonlarini joriy etishdir. Online kurslar, virtual sinflar va interaktiv dasturlar siyosiy fanlar ta'limini o'quvchilarga yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatlarini yaratadi. Misol uchun, siyosiy bilimlarni o'rganishda haqiqiy siyosiy jarayonlarni o'quvchilarga simulyatsiya qilish, shuningdek, ularni jahon siyosati va ijtimoiy masalalar bilan tanishtirish orqali darslarni yanada jonlantirish mumkin.

Shuningdek, siyosiy fanlarni o'qitishda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yondashuvlarni qo'llash muhimdir. O'quvchilarni zamonaviy siyosiy tadqiqotlarga, ilmiy maqolalar va tahlillarga jalb qilish, ular o'rtasida ilmiy-tanqidiy fikrlash va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu o'quvchilarga nafaqat siyosatni, balki global iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarni tushunishda yordam beradi.

Siyosiy fanlarni o'qitishda istiqbollar

Siyosiy fanlar o'qitishining istiqbollari yuqori darajadagi texnologik rivojlanish va global aloqalar tufayli kengaymoqda. O'quv dasturlarida qo'llaniladigan texnologiyalar va metodologiyalar yangilanib borishi kutilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili kabi zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarga siyosiy jarayonlarni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalar yordamida siyosiy tahlil va qaror qabul qilish jarayonlari haqidagi bilimlarni yanada mukammallashtirish mumkin.

Bundan tashqari, global siyosatdagi tez o'zgaruvchanlik va xalqaro aloqalarning yanada murakkablashishi siyosiy fanlar o'qitilishida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Siyosiy fanlarni o'qitish nafaqat milliy, balki global miqyosda ham ko'rib chiqilishi zarur[100]. Bu esa o'quvchilarga dunyo siyosatidagi o'zgarishlarni va ularning ta'sirini to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi.

[99] Giddens, A. *Sociology*. Polity Press. 2009.

[100] Held, D. *Global Transformations: Politics, Economics and Culture.* Stanford University Press. 2004.

Xulosa Siyosiy fanlar o'qitishidagi zamonaviy tadqiqotlar, mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari ta'limning sifatini oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin. O'quv metodologiyalarini yangilash, yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot asosida ta'limni rivojlantirish siyosiy fanlarni o'qitishda muhim yechimlarni taqdim etadi. Kelayotgan yillarda, siyosiy fanlar o'qitishining yanada samarali va interaktiv bo'lishi kutilmoqda, bu esa o'quvchilarga yanada chuqurroq bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Siyosiy fanlar sohasida tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: «Complex Print», 2022. – 6 b.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Сиёсий фанлар соҳасида кадрларни тайёрлаш, фундаментал ва амалий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4139-сонли Қарори. 2019 йил 29 январь. [Электрон ресурс]. https://lex.uz/docs/4182353
3. Giddens, A. *Sociology.* Polity Press. 2009.
4. Held, D. *Global Transformations: Politics, Economics and Culture.* Stanford University Press. 2004.
5. Dahl, R. A. *Who Governs? Democracy and Power in an American City.* Yale University Press. (2005).

3-SHOʻBA: DAVLAT BOSHQARUVI VA SIYOSIY INSTITUTLAR, GLOBAL JARAYONLAR VA TEXNOLOGIYALAR

E.S. Sultanova *- Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, s.f.d*.

SIYOSIY TEXNOLOGIYALAR SIYOSAT SAN'ATI SIFATIDA

Global siyosiy tartibot oʻzgarib borayotgan, koʻp jihatdan davlatlar va mamlakatlar oʻrtasidagi munosabatlar kelajagini belgilovchi mutlaqo yangi va ilgari noma'lum boʻlgan omillar paydo boʻlayotgan, murakkab davrda siyosiy hodisa va jarayonlarni baholashda professional yondashuv zarurati kun sayin dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Bilim – kuchdir”,- degan edi taniqli angliyalik faylasuf Frensis Bekon. Bugungi kunda bilim va yuksak malakaga ega siyosatchi va diplomat boʻlish uchun turli nazariy va amaliy siyosiy bilimlarni puxta egallash lozim. Halqaro munosabatlar sohasida Oʻzbekiston manfaatlarini xalqaro maydonda ilgari surish uchun maxsus ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlash masalalari davlat siyosati darajasida koʻtarilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori asosida esa, Oʻzbekistonda siyosiy fanlarni rivojlantirish masalasiga boʻlgan e'tiborni kuchaytirish boʻyicha aniq vazifalar belgilandi. Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu-tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga koʻtarilayotgan bugungi kunda “davlat organlarining fuqarolar bilan oʻzaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta koʻrib chiqish, bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etish” vazifalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Ta'kidlash lozimki, Oʻzbekiston – dunyo uchun ochiq mamlakat. U jahonning barcha yetakchi davlatlari hisoblangan Rossiya, AQSh, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Fransiya, Italiya, Saudiya Arabistoni, qoʻshni Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan munosabatlarini mustahkamlab bormoqda. Oʻzbekiston Birlashgan Millatlap Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti kabi turli xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etib kelmoqda. Oʻzbekiston oʻzining koʻp tomonlama tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirar ekan, olib borilayotgan tashqi siyosatining zamirida Konstitusiya asoslari va unga asoslangan qonun hujjatlari mujassamdir. Jumladan, yangilangan Konstitusiyaning 17 moddasida shunday ta'kidlangan: ”Oʻzbekiston Respub-likasi halqaro munosabatlarning toʻla huquqli sub'ektidir. Oʻzbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning xududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro xuquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi” [2].

Mamlakat manfaatlarini jahon miqyosida ilgari sura olish qobiliyatiga ega boʻlgan kadrlar tayyorlash jarayonida talabalarga boʻlajak xalqaro masalalar boʻyicha

mutaxassislar uchun “siyosiy texnologiyalar” deb nomlangan maxsus fanni o‘qitish muhim ahamiyatga molik. Mazkur fan diplomatlar va siyosatchilar tomonidan tashqi siyosiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda, dunyoda mavjud mexanizmlar nazariyasi va amaliyoti asoslarini o‘rgatishga bag‘ishlangan.

Ma'lumki, siyosat u yoki bu davlat, partiya, harakatlar, liderlar xatti-harakatining namoyon etish borasidagi yo‘nalishidir. Siyosat moxiyatini o‘rganuvchi, tushuntiruvchi, tarbiyalovchi va prognoz qiluvchi fan-siyosatshunoslikdir. Siyosatshunoslikning asosiy kategoriyalari doirasiga quyidagi tushunchalar kiradi: hokimiyat, qonuniylik, siyosat sub'ekti, siyosat ob'ekti, legitimlik, deligitimlik, ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar, siyosiy jarayon, siyosiy tizim, barqarorlik, xavfsizlik, nizolar, millat va elatlararo munosabatlar, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura, “to‘rtinchi hokimiyat” xisoblanuvchi ommaviy axborot vositalari, “uchinchi sektor” nom olgan NNT-nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy rejim, manfaatlar guruhlari, bosim guruhlari, lobbichilik, yetakchilik, fuqarolik jamiyati institutlari, ekologiya, global, mintaqa, davlatlararo munosabatlar va boshqalar.

Siyosiy texnologiyalar ushbu kategoriyalarni qo‘llab-quvvatlagan xolda boshqaruv munosabatlarining asosiy tashkil etuvchi qismi bo‘lib, siyosiy maqsadlarga erishishning eng maqbul yo‘llari va vositalarini aniqlash hamda ularni amaliyotda qo‘llashga qaratilgan faoliyatning o‘ziga xos turi hisoblanadi. Gnoseologik jihatdan siyosiy texnologiyalar, M.G. Anoxinning nuqtai nazariga ko‘ra: “**nazariy-siyosiy ilmiy bilimlar va odamlarning predmetli-amaliy faoliyati o‘rtasidagi bog‘lovchi aloqa**”ni ifodalaydi [3]. “Boshqaruv faoliyati aniq bosqichlarga, proseduralarga, operatsiyalarga, ularni muvofiqlashtirish, sinxronlashtirish, maqsadlarga erishish uchun optimal usul va vositalarni tanlashga oqilona bo‘lingan jarayon sifatida tushuniladi”[4]. Har qanday ixtisoslashgan faoliyat kabi siyosiy texnologiyalar ham maxsus bilim, ko‘nikma va malakani talab qiladi. Dastlab, bunday bilimlar siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarida faol ishtirok etuvchi sub'ektning individual tajribasini aks ettirish sifatida shakllanadi.

Ob'ektivlashtirish natijasi, shuningdek, siyosiy amaliyotda boshqaruv muammolarini hal qilishning ba'zi bir takroriy uslub va usullarining mustahkamlanishi, siyosiy qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish jarayonining standartlashtirilgan modellarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Muayyan usullarni ishlab chiqishda siyosiy texnologiyalar ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanish darajasini, siyosiy boshqaruv turini, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan real jarayonlarning mohiyati to‘g‘risidagi ma'lumotlarni, ya'ni siyosat sub'ektlari va ob'ektlarini o‘rganadi. Inson omilini siyosatda inobatga olish muximligini A.I.Solovyov shunday ta'riflagan: “Voqelikni anglashning texnologik darajasi nafaqat ilmiy-amaliy bilimlar shaklidan iborat, balki ayni paytda siyosiy muammolarni hal qilishdan manfaatdor sub'ektlar nuqtai nazaridan baholashni ham ifodalash lozim”[5]. Demak, siyosatning texnologik tarkibiy qismining paydo bo‘lishi-siyosiy sub'ektlarning siyosiy maqsadlarga erishishning eng yaxshi usullarini oqilona izlash bilan uzviy bog‘liq. Ushbu izlanish paydo bo‘lgan muammolarni tezda hal qilish zarurati bilan rag‘batlantiriladi. Tadqiqot jarayonida boshqaruv ob'ekti haqidagi bilimlar takomillashtiriladi, boshqaruv muammolarini hal qilishning turli usullari sinovdan o‘tkaziladi, eng muvaffaqiyatli uslublar va proseduralar tanlanadi va siyosiy amaliyotda mustahkamlandi.

Hozirgi vaqtda **siyosiy texnologiyalar ko‘p omilli noyob hodisa, san'atdir**. Bu o‘zidan o‘zi vujudga kelmaydi.

Birinchidan, bu siyosiy amaliyotda shakllangan siyosiy muammolarni hal qilishning uslub va usullari majmuidir. Xususan, siyosiy ziddiyatni hal qilishda nizolashayotgan tomonlarni muzokara jarayoniga undash kabi usul qo‘llaniladi. O‘z navbatida, uzoq vaqt cho‘zilgan mojaroda muzokaralarni tayyorlash va o‘tkazish vositachiga murojaatni talab qilishi mumkin. Mazkur usul nizolar nihoyatda chuqur ildiz otib ketganda, ya'ni nizolashayotgan tomonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatishga va to‘plangan muammolarni birgalikda muhokama qilishga imkon qolmaganda juda samarali bo‘lib chiqadi. Yoki saylovoldi tashviqotini amalga oshirish, bunda saylov jarayonining strategiyasi boshidan oxirigacha samarali, elektorat madaniyati, mentalitetini hisobga olgan holda, to‘g‘ri tayyorlash, saylovni milliy va xalqaro normalar asosida o‘tkazish katta ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, bu siyosatdagi boshqaruv faoliyatini tartibga solish usulidir. Boshqaruv jarayonining tartibliligiga, bir tomondan, siyosiy muammoni hal qilishning eng munosib usullarini tanlash, ikkinchi tomondan, bu usullarning ma'lum bir makon-vaqt kontiniumida joylashishi hisobiga erishiladi.

Uchinchidan, bu – o‘ziga xos maxsus bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan kishilar faoliyatining alohida turidir. Ushbu faoliyatning mazmuni siyosiy amaliyotda shakllangan boshqaruv muammolarini hal qilishning texnologik usullari, tartiblari va uslublaridan foydalanish bilan cheklanmaydi. U paydo bo‘lgan muammolarni hal qilish algoritmlarini ishlab chiqishda ijodiy izlanishni, mazkur uslublarni doimiy ravishda takomillashtirish va yangilashni taqozo etadi. Ya'ni, siyosiy texnologiyalar qo‘yilgan maqsadlarga erishishni optimallashtirishga imkon beradigan maxsus texnikalar, tartiblar, usullar yordamida siyosatdagi boshqaruv faoliyatini tartibga solish usuli hisoblanadi. Keng ma'noda talqin qiladigan bo‘lsak, texnologiyalar siyosatdagi boshqaruv munosabatlarining har qanday turining universal tarkibiy qismidir, ya'ni ular siyosiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish, davlat va siyosiy tashkilot-larda boshqaruv, nizolarni, saylovlar, PR- kampaniyalari, imijmeyking kabilarni boshqarish vositasidir. Demak, “Siyosiy texnologiyalar” boshqaruv muammolarini hal qilish uslub va usullari to‘plamini anglatadi, ya'ni: ***Siyosiy texnologiyalar – siyosiy sub'ektlar tomonidan siyosiy maqsadlarga erishish, siyosiy va boshqaruv vazifalarini hal qilish, odamlarning siyosiy xatti-harakatlarini o‘zgartirish maqsadida ta'sir o‘tkazish uchun qo‘llaniladigan usullar, uslublar, tartiblar yig‘indisidir.***

Siyosiy texnologiyalarning paydo bo‘lish sabablariga quyidagi omillarni kiritish mumkin:

- siyosiy maqsadlarga erishish uchun siyosat sub'ektining ob'ektga doimiy majburiy ta'sir qilish zarurati. Taniqli ital'yan davlat arbobi va faylasufi Nikkolo Makiavelli “Vositalar maqsadni oqlaydi”, deb ta'kidlagan edi;
- doimiy ta'sir ko‘rsatadigan bunday boshqaruvga bo‘lgan ehtiyoj;
- siyosatda doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish zarurati;
- siyosat, iqtisod, huquq, psixologiya fanlari ma'lumotlariga tayangan holda, kechayotgan jarayonlarni to‘g‘ri va xolis tushunish zaruriyati;
- qo‘llaniladigan vositalar va usullarning ichki mantig‘ini aniqlay olish muhimligi.

Siyosiy texnologiyalar favqulodda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlishi mumkin, ular qoʻllash sohasidan kelib chiqqan holda: axborot-kommunikativ, muzokarali, vositachilik va boshqalar boʻlishi mumkin [6].

Siyosiy menejmentga xos boʻlgan siyosiy ta'sir texnologiyasi ham siyosiy texnologiya deb ataladi. **Siyosatchi yoki siyosiy tashkilotning ijobiy imijini shakllantirish, aholining saylovoldi fikriga hamda qaror qabul qiluvchilarga ta'sir koʻrsatish va shunga oʻxshash boshqa masalalarni hal qiluvchi mutaxassislar siyosiy texnologlar deb ataladi.** Qayd etish muhimki, siyosiy texnologiyalar ilmiy asoslangan boʻladi, ya'ni, siyosiy jarayonlar, undagi sub'ektlar harakatlarining nazariy tahlili amalga oshiriladi va shu asnoda siyosatchilar va siyosashunoslarga ma'lum bir rivojlanish bosqichida belgilangan siyosiy muammolarni samarali hal etish va aniq bir siyosiy maqsadlarga erishish uchun uslubiy koʻrsatmalar hamda tavsiyalar beriladi.

Siyosiy texnologiyalar, bir tomondan, tizimning texnologik jihatdan ishlab chiqilgan, dasturiy mahsulot shaklidagi tarkibiy elementi boʻlsa, ikkinchi tomondan, u koʻzlangan maqsadni amalga oshirish bilan bogʻliq faoliyatdir. Siyosiy texnologik usullarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) siyosiy jarayon ishtirokchilari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar qoidalarini, jumladan, normativ, institusional tartibni oʻzgartirishni ta'minlaydigan uslublar, usullar. Yangi qonunlar qabul qilish, oʻyin qoidalarini yangilash orqali odamlarning jamiyatda oʻzini tutishi va xulq-atvorini oʻzgartirishga erishish mumkin.

2) ommaviy ongga yangi gʻoyalar, qadriyatlarni singdirish, yangi qarashlar, e'tiqodlarni shakllantirishni ta'minlaydigan usullar, uslublar.

3) odamlarning xulq-atvorini manipulyasiya qilish imkonini beruvchi texnikalar.

Eng keng tarqalgan siyosiy texnologiyalarga siyosiy marketing, PR-menejment, spichrayting, siyosiy qarorlarni qabul qilish, siyosiy konsalting, saylov texnologiyalari, lobbizm, manipulyasiya, imijmeyking, raqamli diplomatiya, xalq diplomatiya, madaniy diplomatiya va boshqalar kiradi.

Siyosiy marketing va menejment davlat organlarining siyosiy faoliyatida bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan foydalangan holda boshqaruv faoliyatining bir turi sifatida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy marketing zaruriy harakatlarni amalga oshiradi. Natijada, u yoki bu texnologiya insonlarni fikrlash tarzini, odamlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni oʻzgartiradi, oqibatda, tafakkur tizimi ham oʻzgaradi, buning barobarida, asta-sekin kishilarning fe'l-atvori ham takomillashadi. Demak, siyosiy texnologiyalardan foydalanish jarayonida siyosat, siyosatshunoslik, notiqlik san'ati, mantiq usullari, ijtimoiy falsafa, axborot texnologiyalari xam yagona algoritmga qoʻshilib, oxir-oqibatda uning **san'at** darajasiga koʻtarilganiga guvoh boʻlamiz. Uni har bir boʻlajak siyosatchi, diplomat bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. T.1. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – B.117.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.,2023, 8b.

3. Anoxin M.G. Sovremennie texnologii effektivnoy politiki. Uchebnoe posobie. M., 2008, s.45-46.

4. Politiko-administrativnoe upravlenie. Uchebnik pod. red. V.S.Komarovskogo, L.V.Smorgunova. M., 2004, s.368, s.45-46

5. Solov'ev A.I. Politologiya: politicheskaya teoriya, politicheskie texnologii. Uchebnik dlya studentov vuzov. M., 2000, s.419.

6. Sultonova E.S. Siyosiy texnologiyalar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: ART VERNISSAGE, 2023. – 200 b.

Н.Қ. Жўраев – *ISFT - School of Finance Technology and Science International институти ректор маслаҳатчиси, с.ф.д., профессор*

ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИНИНГ УМУМПЛАНЕТАР ТАМОЙИЛЛАРИ

Инсоният тараққиётининг ҳозирги босқичида **Афғонистондаги вазиятни барқарорлаштириш глобал хавфсизликни таъминлашнинг муҳим шартидир.** Ўзбекистон минтақавий можаролар ечимини топиш, давлатлараро муносабатларда ўзаро ҳурмат ва қатъий ишонч, олис истиқболни кўзлаган умуминсоний манфаатлар атрофида бирлашиш ғоясини илгари суради. Ҳар бир давлатнинг ташқи сиёсати муқаррар равишда унинг миллий ва умуминсоний манфаатлари асосида қурилади. Ана шу жиҳатдан Ўзбекистон ўзининг қадимий давлатчилик анъаналарига асосланиб, ҳар қандай муаммонинг музокаралар йўли билан, ҳиссиётлардан холи бўлган ва ақл-идрокка йўғрилган мулоқотлар орқали ечимини топиш тарафдори бўлиб майдонги чиқди. У сиёсатда адолат асосий мезон бўлмоғи, умуммиллий манфаат устувор бўлиши сингари анъанавий қадриятга таянади. Бу ўзбек миллий давлатчилиги бир неча минг йиллик мактабининг қадриятга айланган сабоғидир. Президентимиз хусусан Афғонистон масаласига ғоят долзарб муаммо сифатида ёндашди. Унинг ўта реал ва ҳаётийлигини аниқ ифода этди. Уларни ҳал этишнинг сиёсий, назарий ва амалий асосларини очиб берди ва **“Бу жафокаш юртда тинчлик ўрнатишга кўмаклашиш йўлидаги бизнинг умумий қатъий ҳаракатларимиз асло сусаймаслиги лозим” –** деди.

Афғонистондаги қуролли можоралар, қонли тўқнашувлар ҳали-ҳамон давом этмоқда. Қарийиб 40 йилдан буён тобора чигаллашиб бораётган тўқнашувларнинг нима билан якунланиши мавҳумлигича қолмоқда ва у умумсайёравий муаммога айланди. Расмий Қобул билан толиблар ўртасидаги келишмовчилик, тобора чуқурлашиб бораётган манфаатлар тўқнашуви афғон халқи ҳаётини издан чиқарди. Аҳоли тобора қашшоқлашиб, турмуш даражаси мисли кўрилмаган даражада пасайиб қолди. Бундан 40 йил бурун 10 яшар бўлган бола бугун элликка кирди. Ўлкада уруш бошланган ўтган асрнинг 70-йиллари охирларида туғилган бола 40 ёшга тўлди. Уларнинг кўргани ўқ-олов, қон ва ўлим бўлди. Даҳшату ваҳшатлар жараёнида мурғаккина боланинг қалби тошга айланди, дийдаси қотди. Шафқатсизлик, залолат, жаҳолат уни комига тортди. Ўқиш, фикрлаш, ақлни ишлэтиб истиқболга интилиш, меҳр-мурувват туйғусини сўндирди. Ҳаётга бефарқ қарайдиган, турмуш мазмунини англамайдиган жонзотга айланди. Бундай маънавий-руҳий ва ақлий мувозанатсизлик инсоннинг инсон сифатида ўзини ўзи англашига, камолот ва

етуклик сари интилишига, ўзини ўзи қадриятга айлантириш фазилатларига монелик қилди. Натижада ялпи жамиятда эртанги кунга ишончсизлик кайфияти кучайди, аниқ мақсадга эга бўлмаган оломон мўрт ва мазмунсиз ҳаёт оқимига ғарқ қилди.

Афғонистон – бугунги цивилизациявий ўлчовлар, инсон ҳаёти ва турмуш даражаси нуқтаи назаридан қараганда дунёда энг қашшоқ мамлакатлардан бири ҳисобланади. Айни пайтда аҳоли жон бошига нисбатан ялпи ички маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми 900 долларни ташкил этмоқда. Бошқача қилиб айтганда афғон халқи турмуш даражаси жиҳатидан дунёда 218 ўринни эгаллайди. Албатта, бундай қашшоқлик ўзига хос табиий-географик шароит билан боғлиқ бўлган объектив ҳақиқатга ҳам таянади. Чунки, Афғонистон ҳудудининг асосий қисмини баланд тоғликлар ташкил этади. Бу ерларда об-ҳаво совуқ, тупроқ шароити эса деҳқончиликка яроқсиз. Суғориладиган майдонлар турли рельефда бўлганлиги сабабли, сувдан фойдаланиш даражаси ниҳоятда паст.

Афғонистоннинг тоғли ҳудудларида, ҳусусан, Бадаҳшонда қирли-қировли кунлар йилда 9 ойни, шарқий ва жанубий тоғли ҳудудларида эса 10 ойни ташкил этади. Айни ана шу ноқулай табиий иқлимга эга бўлган ҳудудлар Афғонистонинг йирик саноат ва маъмурий маркази ҳисобланади. Масалан, Қобул денгиз сатҳидан 1790 метр баландликда жойлашган. IX-XII асрларда буюк Ғазнавийлар давлатининг пойтахти бўлган Ғазна шаҳри денгиз сатҳидан 2225 метр баландликда. Табиийки, асосий аҳоли пунктлари айни ана шундай баланд тоғлар бағрида, цивилизация марказлари бўлган йирик шаҳарлар ва уларнинг атрофида жойлашган. Бу, албатта, давлат бошқарувида, ҳусусан иқтисодиётни ривожлантириш ва ижтимоий тараққиётни янги босқичга кўтаришда қатор қийинчиликларни келтириб чиқаради. Бироқ булар улкан тарихга, буюк маданиятга эга бўлган афғон халқининг ҳозирги цивилизация ютуқларидан баҳраманд бўлишига, ўз ижтимоий, маданий ва маънавий ҳаётини ривожланган давлатлар даражасига олиб чиқишга монелик қилмайди. Чунки, Қобул, Ғазна сингари бир неча минг йиллик тарихга эга бўлган қадимий шаҳарлар ўз даврида инсоният тарихининг қайсидир босқичларида буюк цивилизациявий жараённи бошдан кечирган ва Ренессанс даврига гувоҳ бўлишган.

Афғонистон жуда катта тарихий ва маданий тараққиётга гувоҳ бўлган макон. У ерда Шарқ билан Ғарбни туташтириб турган қадимий бозорлар мавжуд бўлган. Буюк Ипак Йўлининг энг самарадор, энг гавжум ва қут-баракали қисми ҳисобланган. Тарихий тақдир ва глобал манфаатлар тўқнашуви афғон халқининг кейинги сал кам ярим асрлик тараққиётига кучли зарба берди. Бутун мамлакатни инқирозга учратиб, жар ёқасига олиб келди. Мамлакатда мавжуд ижтимоий омиллар танқислиги ички можароларнинг кучайиб кетишига олиб келди ва, ҳатто, борган сари чигаллашиб, ечимини топиш қийин бўлган муаммога айланиб қолди. Бунда, албатта, ташқи кучларнинг ҳам таъсири бор.

Геосиёсий нуқтаи назардан ўта муҳим нуқтада жойлашган Афғонистон азалий рақобатдаги Шарқу Ғарб манфаатлари тўқнашувининг асосий нуқтасига айланди. Буюк давлатчилик шовинизми, суверен давлатларнинг ички ишларига сурбетларча аралашиш сингари турли сиёсий найранглар ва

ўйинларнинг қурбони бўлди. Иккинчидан, мамлакат фуқароларининг маҳалийчилик, миллатчилик, ирқчилик ва бошқа залолат қурбонига айланишдек иллатларининг аянчли натижаси дейиш мумкин. Зотан, Афғон этносининг асоси ҳисобланган пуштулар мамлакат аҳолисининг 40 фоизини, ҳазарийлар 9 фоизини, ўзбеклар 9 фоизини, тожиклар 27 фоизини ташкил этади. Яна бир қанча миллатлар ва элатлар улар билан бирга умргузаронлик қилмоқда. Бироқ уларда ягона Ватан, ягона Хонадон тақдири учун жавобгарлик туйғуси етишмайди. Умумий манфаатлар атрофида бирлашиб, ақлий салоҳиятни тараққиётга хизмат қилдириш, тор маҳаллийчилик иллатларига барҳам бериб, ҳиссиётларни жиловлаб ақлга суяниб яшаш фазилати кўзга ташланмайди. Миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик сингари умуминсоний қадрият ўз моҳиятини йўқотган. Натижада ана шундай қийин, ўзаро низолар авж олган ўта мураккаб ижтимоий вазият мамлакат тараққиётини издан чиқарди.

Бугунги кунда ҳам Афғонистон жаҳон ҳамжамиятида геосиёсий, иқтисодий ва маданий нуқтаи назаридан кенг имкониятларини сақлаб қолмоқда. Жумладан, у собиқ советлар маконини Хитой ва Ҳинд океанига қадар бўлган улкан ҳудуд билан туташтириб турувчи халқаро транзит ва иқтисодий ҳамкорлик ролини бажаришда муҳим таянч вазифасини бажаради. Бир қатор хорижий давлатлар Афғонистонда йирик лойиҳаларни амалга оширишдан манфаатдор эканликларини билдиришмоқда. Жумладан, Туркманистон – Арманистон – Покистон – Ҳиндистон газ қувурини ўтказиш ҳозирги замоннинг энг катта лойиҳаларидан бири ҳисобланади. Ушбу лойиҳа амалга оширилса, табиий газ экспортида энг самарали трасса ҳисобланади. Туркманистон газини ўтказувчи ҳозиргача мавжуд бўлган Россия ва Хитой ҳудудидан ўтган трассага нисбатан анча кам чиқимли ва самарадор лойиҳа бўлиб қолади. Ана шу имкониятларни назарда тутиб давлатимиз раҳбари “Ўзбекистон Афғонистоннинг иқтисодий тикланишига, унинг транспорт ва энергетика инфратузилмасини ривожлантиришга, миллий кадрларини тайёрлашга катта ҳисса қўшмоқда ва бундан кейин ҳам ҳисса қўшади”-деди.

Бундан ташқари Афғонистонда Марказий Осиё мамлакатлари ва Покистонни боғлаб турадиган темир йўл, улкан қувватга эга бўлган электрэнергия тармоғи қурилиши ушбу улкан ҳудуднинг истиқболдаги тараққиётини белгилаб берадиган лойиҳадир. Айни пайтда Ўзбекистон томонидан қурилаётган темир йўл Эрон лойиҳаси асосида амалга оширилаётган иншоот билан уланиб, Ҳиротгача бўлган маҳобатли замонавий Ипак Йўли тикланади. Ушбу ташаббусларнинг ҳаммаси аниқ ҳисоб-китобларга ва натижага эга.

Афғонистон табиий ресурсларни ташиш билангина кифояланмайди, у улкан ишлаб чиқариш имкониятларига ҳам эга. Ўлкада жуда катта нефть ва газ заҳиралари мавжуд. Маълумотларга кўра бу ерда 4о миллион тонна нефть, 137 миллиард кубметр газ заҳиралари борлиги аниқланган. Бундан ташқари Афғонистонда мис, қимматбаҳо тошлар, уран ва бошқа конлар ҳам топилган. Бошқача қилиб айтганда, ушбу мамлакатда Менделеев жадвалидаги барча элементларни топиш мумкин. Ана шу улкан табиий бойликларни, ер ости ва ер усти манбаларни фойдаланишга топширишда бахтга қарши бу ердаги хавфсизликнинг кафолатланмаганлиги, турли қуролли тўқнашувлар ва жангу

жадалларнинг мавжудлиги монелик қилмоқда. Айни пайтда мамлакатда ишсизлик даражаси жуда юқори. Аҳолининг 35 фоизи фойдали меҳнат билан шуғулланмайди. Тоза ичимлик сувининг етишмаслиги, ёқилғи-энергетика танқислиги, таълим ва тиббий хизмат даражасининг қониқарсизлиги, хавфсизликнинг кафолатланмаганлиги жамиятда иқтисодий, ижтимоий ва маънавий-руҳий инқирозни тобора чуқурлаштирмоқда.

1979 йили СССРнинг Афғон кризисига аралашуви муаммоларни чигаллаштириб юборди. Совет қуролли кучлари ўн йиллик самарасиз урушдан сўнг Афғонистондан шармандаларча чиқиб кетди. Улардан вайронага айланган мамлакат мерос бўлиб қолди. Миллионлаб бегуноҳ одамлар қурбон бўлди. Совет қуролли кучлари ўн йил мобайнида афғон ўлкасини абгор қилди. Халқ турмуш даражаси кескин пасайиб, қашшоқлик, саводсизлик, ижтимоий танглик чуқурлашди. Зўравонлик, куч ишлатиш, ўзининг ҳарбий қудратини дунёга кўз-кўз қилиш каби шовинизм бутун Афғонистонни хонавайрон қилди.

Ҳозирги Афғонистонда вазият қониқарли эмас. Бу бутун дунёни ташвишга солмоқда. Жумладан, Ўзбекистон ҳам яқин қўшни сифатида ушбу маконда тинчлик, барқарорлик мустаҳкам бўлишидан манфаатдор. Айни пайтда бу ерда террористик ҳаракатлар, уруш, қуролли тўқнашувлар ва портлашлар содир этилмоқда. Расмий ҳукумат бутун мамлакат ҳудудида унинг ҳудудий яхлитлигини таъминлаш ва кучли назорат ўрнатиш га интилмоқда. Оппозицион кучлар эса вазиятни беқарорлаштириш, жамият тараққиётини издан чиқариш йўлидан боришмоқда.

Афғонистонда ижтимоий-иқтисодий вазиятнинг ночорлигидан, қуролли тўқнашувлар ва қон тўкишларнинг давом этаётганлигидан қатъий назар аҳоли ўсиш даражаси жуда юқорилигича сақланмоқда. Бу борада Афғонистон дунёда 5-ўринни эгаллайди. Бошқача қилиб айтганда, ҳар бир онага қарийиб етти бола тўғри келмоқда. Кўпболалилик борасида жаҳонда 4-ўринни эгаллайди. Афғонистонда туғилаётган ҳар 1000 та чақалоқдан 247 таси вафот этмоқда. БМТ маълумотларига кўра, бу борада Афғонистон дунёда биринчи ўринда туради. Ўртача умр кўриш даражаси 44,6 ёшни ташкил этади ва дунёда 214-чи ўринни эгаллайди. Аҳолининг маълумотлилик даражаси эркаклар ўртасида 43 фоизни, аёллар ўртасида эса 12 фоизни ташкил этади.

Афғонистондаги мураккаб ижтимоий-иқтисодий вазият фақат Афғонистоннинг ўзининггина муаммоси эмас. У ерда террорчилик ҳаракатларининг изчил давом этаётганлиги, мамлакатда ҳунрезликларнинг тўҳтатилмаётганлиги, ислом радикалларининг ғайриисломий ва ғайриинсоний ҳатти-ҳаракатларининг фожиали давом этаётганлиги бутун дунёни ташвишга солмоқда. Ўзбекистон эса яқин қўшни сифатида Афғон фожиасини бутун моҳияти билан чуқур тушунмоқда ва ўз вақтида баҳоламоқда. Ўзбекистон – Афғонистон ҳамкорлиги узоқ тарихга эга. Бизнинг қадимий маданиятимиз, яқин қўшничилик муносабатларимиз, турмуш тарзимиздаги ўхшашликларнинг мавжудлиги, урф-одатлар, анъаналар ва диний ақидаларимизнинг уйғунлиги бунга гувоҳ. Бироқ, тарихий тақдир маълум чегаралар туфайли бизни ажрэтиб турибди. Гарчи ҳар икки давлат бир-бирининг суверенитетини, мустақил тараққиёт йўлини тан олиб, уни чуқур ҳурмат қилсада, бир-биримизга бефарқ эмаслигимизни, бир-биримизнинг ютуқларимиздан манфаатдор

эканлигимизни ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Буни Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев кўп марта таъкидламоқда.

Халқимизда “Қўшни танланмайди, қўшнини Худо беради”, “Қўшнинг тинч – сен тинч” деган пурҳикмат мақоллар бор. Бу ҳаётий ҳақиқат асрлар мобайнида исботини топган. Бугун эса яна ҳам долзарблик касб этмоқда. Ҳозирги замон цивилизацияси талаблари нуқтаи назаридан қараганда Ўзбекистон ташқи-сиёсий фаолияти қўшни мамлакатлар билан дўстлик ва ҳамкорлик муносабатларини янада ривожлантириш сингари соф тинчликсевар сиёсатга асосланади. Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёевнинг сиёсий қарашларида бу масала алоҳида мовқе касб этади.

Айтиш мумкинки, Афғонистондаги мавжуд беқарорлик, қуролли тўқнашувлар ва қон тўкишларнинг давом этаётганлиги бутун минтақа учун жиддий таҳдид туғдирмоқда. Айни пайтда турли террорчилик ҳаракатларининг кучайиб боришига, ислом радикализми таъсирининг ошиб боришига ва у қайсидир даражада халқаро терроризмнинг муҳим таянчига айланишига олиб келади. Зотан, бугун дунёда 500 дан ортиқ халқаро террористик ташкилотлари мавжуд бўлган бир пайтда, Афғонистондаги ҳодисалар уларга сабоқ бўлиши ва, ҳатто, зарур бўлиб қолганда Афғонистон уларнинг тажриба майдонига айланиши мумкин. Ана шу тарзда,

Биринчидан, Афғонистондаги қуролли тўқнашувлар, толибларнинг расмий ҳукумат билан ўзаро келишмовчилиги бутун инсоният истиқболини, XXI-асрдаги тақдирини хавф остида қолдиради. Тарихий тараққиётни барбод этади.

Иккинчидан, Афғон халқининг қарийиб ярим асрлик ўтмиши хунрезликлар, вайронагарчиликлар ва қурбонликлар тарихига айланмоқда. Халқ бундай пароканда ва таҳдидли ҳаётдан чарчаган кўп йиллик хунрезликлар оқибатида миллат генофонди жиддий равишда бузилди. Геноцид ҳодисаси юз берди. Қалби меҳр-мурувватдан мосуво, эзгуликни, яхшилик ва муҳаббатни ҳис қилолмайдиган, жаҳолат ва залолат туфайли ҳаёт моҳиятини англаш қобилиятини йўқотган оломон юзага келмоқда. Бундай пайтда фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маърифат тамойилини ҳаётда жорий этиш, инсоннинг инсонлигини англаш ва ўзини ўзи қадриятга айлантириш сингари маънавий-руҳий қудратни уйғотиш тақозо этилмоқда. Бу нафақат Афғонистон расмий ҳукуматининг, балки, қатор нуфузли халқаро ташкилотларнинг, йирик давлатлар ва жамоат бирлашмаларининг амалий қўллаб-қувватлашини, инсонпарвар муносабатларини талаб этади.

F.E. Karimov *– O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi Xalqaro munosabatlar kafedrasi mudiri, s.f.d., professor*

SAUDIYA ARABISTONI DINIY SIYOSATIDAGI BUGUNGI ISLOHOTLAR, TENDENSIYALAR VA ULARDAN KO‘ZDA TUTILGAN MAQSADLAR

Saudiya Arabistoni valiahd shaxzoda Muhammad bin Salmon boshchiligida mamlakat diniy hayotida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirmoqda. Qirol Abdulaziz

tomonidan boshlangan ammo Qirol Faysal va Xolidlar davrida ortga qaytgan Vahhobiylarning mamlakatdagi ta'sirini Muhammad bin Salmon susaytirishga harakat qilmoqda[101].

Hozirgacha konservativ ulamolardan shahzodaga to'g'ridan-to'g'ri qarshi chiqqanlari tazyiqqa uchradi qolganlari esa islohotlarga hayrihoh ekanligini bildirdi. Vahhobiylikni chet elda yoyishga bo'lgan harakatlar ham to'xtatildi. Ommaviy axborot vositalarida mazkur jarayon reformatsiya va Saudiya o'zligini mustahkamlashga tashlangan dadil qadamlar deya baholanmoqda. Diniy polisiyaning vakolatlari cheklanishi ham ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Mazkur diniy islohotlar yosh mahalliy aholi tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanmoqda. Ma'lumot uchun, Saudiya Arabistoni aholisining qariyb uchdan ikki qismi 35 yoshdan kichik yoshlar tashkil etadi[102].

Baker institutiga ko'ra Muhammad bin Salmon sulola tomonidan nazorat qilinadigan tuzilmalarni tubdan o'zgartirmasdan, Saudiya Arabistonining xalqaro obro'sini oshirishdan manfaatdor. Ya'ni, islohotlar siyosiy tus olmasdan davlat strukturasida Saudlarning hokimiyatini yanada kuchaytirish asosiy maqsaddir. Ba'zi ekspertlar, mazkur munosabatni Vahhobiy islomchilarning chuqur konservativ tabiati bilan bog'liq deb ta'kidlashadi.

"Islohotlar umuman olganda hayratlanarli", deydi siyosatshunos professor Neytan Braun, Karnegi jamg'armasining Yaqin Sharq dasturining katta ilmiy xodimi. Shu bilan birga "Vahhobiylik harakat sifatida tugatildi, deyishga hali erta", - deydi Braun. Ammo, deya qo'shimcha qiladi u, "vahhobiylik va Saudiya milliy o'ziga xosligida dinning roliga kamroq e'tibor qaratilmoqda"[103].

Iqtisodiy, sport va ko'ngilochar sohalardagi yangiliklar bilan bir qatorda alohida ahamiyatga ega bo'lgan diniy sohadagi mazkur harakatlar o'rta istiqbolda, Muhammad bin Salmonn hokimiyatining konsolidatsiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ehtiyotkorlik bilan yuritilayotgan tashqi siyosat mamlakat ichidagi ultra-konservativ kuchlarning va qolaversa shialarning mamlakat tashqarisidan yordam olishlari ehtimolini minimallashtirishga qaratilgandir.

Deradikalizatsiyaga qaratilgan "Sakina" dasturi

"Sakina" arab tilidan "Tinchlik", "Sokinlik" degan ma'noga ega bo'lib, jamiyatda virtual radikallashuvni oldini olishga qaratilgan. Loyiha 11-sentyabr xurujlari va Ar-Riyod teraktlaridan keyin ekstremistik mafkura va zo'ravonliklarning tarqalishidan xavotirda bo'lgan saudiyalik bir guruh diniy ulamolar va faollar tomonidan 2003-yili boshlangan. Quyidagi xususiyatlar mazkur loyihani odatiy taribot yohud repressiv amaliyotlardan ajratib turadi. Jumladan:

- dastur doirasida islom ulamolari faoliyat yuritishdi. Ular internetni kuzatishadi hamda radikallashuv belgilari yoki ekstremistik mafkuraga qiziqish bildiruvchi foydalanuvchilar bilan muloqot o'rnatishadi;
- ulamolar diniy argumentlar va dalillardan foydalanib, Islomni mo'tadilroq talqin qilishga harakat qiladilar;
- ular, shuningdek, foydalanuvchilarga psixologik va ijtimoiy yordam taklif qiladilar va agar kerak bo'lsa, ularni boshqa dasturlar yoki organlarga yuboradilar;

[101] Al-Rasheed, Madawi. Muted Modernists: The Struggle over Divine Politics in Saudi Arabia. Oxford University Press, 2015.
[102] Kéchichian, Joseph A. Legal and Political Reforms in Saudi Arabia. Routledge, 2013.
[103] Brown, Nathan J. *"When Victory Is Not an Option: Islamist Movements in Arab Politics"*. Cornell University Press, 2012.

Ushbu chora-tadbirlar onlayn chora-tadbirlar deb ataladi.

Mazkur dastur doirasida onlayn radikallashuv va ekstremizmning sabablari, tendensiyalari va qonuniyatlari bo‘yicha tadqiqot va tahlillar olib boriladi. Shuningdek, onlayn faoliyat va boshqa tadbirlarning samaradorligini nazorat qilinadi va baholanadi. Maxsus xulosalar asosida hisobot va tavsiyalar e’lon qilinadi. Ushbu chora-tadbirlar tadqiqot va baholash deb ataladi.

Loyiha doirasida din olimlari, o‘qituvchilar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, xavfsizlik xodimlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari kabi turli manfaatdor tomonlar uchun seminarlar, konferensiyalar va treninglar tashkil qilinadi. Loyiha onlayn radikallashuv va ekstremizmning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha ogohlikni oshirish va zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, loyiha boshqa mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik qiladi. Ushbu chora-tadbirlar salohiyatni oshirish va tarmoq yaratish deb ataladi.

2008-yili “Sakina” Saudiya Arabistoni Islom ishlari vazirligi tomonidan rasman tan olingan va qo‘llab-quvvatlangan mustaqil, nodavlat tashkilotga aylandi. O‘sha yili axborot xavfsizligi to‘g‘risidagi yangi qonun qabul qilindi. Unda ekstremistik yoki radikal materiallarni Internetda tarqatishda ishtirok etgan har bir kishi uchun qattiq jazo belgilandi.

2011-yili esa “Sakina” dasturi o‘z faoliyatini ekstremizmning xavf-xatarlari va mo‘tadillikning ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish uchun maktablar, masjidlar va qamoqxonalarga tashrif buyurish kabi offlayn tadbirlarni o‘z ichiga olgan holda kengaytirdi. Shuningdek, ko‘ngillilar va olimlarni radikal oqimlarga qarshi kurashish, radikallashuvga moyil bo‘lganlarga psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida seminarlar, treninglar va konferensiyalar tashkil etildi.

2014 yilda esa “Sakina” ilohiyot, fiqh, tarix va axloq kabi islom bilan boliq turli mavzular bo‘yicha ma’lumot va manbalar taqdim etuvchi veb-sayt ishlab chiqdi. Veb-saytda, shuningdek, zo‘ravonlikdan voz kechgan va tinch-totuv yashashni qo‘llab-quvvatlagan sobiq ekstremistlarning guvohliklari mavjud. Veb-sayt kengroq auditoriyani qamrab olishga va konstruktiv muloqot va munozaralar uchun platforma taklif qilishga qaratilgan.

Shuningdek, loyiha bilan sobiq ekstremistik e’tiqodlaridan voz kechgan ko‘ngillilar ham ishlaydi. Bu shaxslarning aksariyati ekstremistlar emas, balki Islomda nimalar joiz ekanligi haqida savollari bor va o‘z savollariga soha mutaxasislaridan javob olishni istagan odamlar edi.

Tarmoqda dastlabki muloqot o‘rnatilgandan so‘ng, “Sakina” xodimi odatda ularga shaxsiy chat xonasiga ko‘chib o‘tishni taklif qiladi. Ushbu onlayn suhbatlar ham real vaqtda, ham postlar shaklida bo‘lib o‘tadi. Ikkinchi holda, odatda suhbatdosh savol beradi, keyin esa “Sakina” hodimi javob beradi. Ushbu suhbatlar bir necha soat davom etishi mumkin. Ammo ba’zi foydalanuvchilar ushbu xizmatga bir necha oy davomida davomli murojaat qilishadi. Muloqot stenogrammasi keyin boshqalar o‘qishi uchun internetga joylashtiriladi. Bu dasturning qamrov imkoniyatlarini oshiradi.

Natijalar. Radikallashuv va siyosiy zo‘ravonlikni o‘rganish bo‘yicha xalqaro markaz hisobotiga ko‘ra, “Sakina” loyihasi ekstremistik qarashlar yoki shunga o‘xshash g‘oyalarga hamfikirligini bildirgan shaxslar bilan 3000 dan ortiq onlayn

muloqotlar o‘tkazgan va ulardan 1500 nafarini terrorchilar safiga qo‘shilishdan muvaffaqiyatli qaytargan.

Dastur amalga tadbiq etilganidan ko‘p o‘tmay umidli natijalar bera boshladi. Saudiya rasmiylari muvaffaqiyat darajasi 80 dan 90 foizgacha bo‘lganini da’vo qilmoqda.Bundan tashqari, 2007-yil noyabr oyida shahzoda Muhammad bin Nayif atigi 35 ta takroriy jinoyat sodir etish holatlari qayd etilganini ta’kidladi - bu ikki foizdan kam ko‘rsatkichga teng. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan fuqarolarning fikrini o‘zgartirish hamda takroriy jinoyat sodir etishining oldini olish murakkab vazifa ekanligi hisobga olinsa, yuqoridagi natija dasturning muvaffaqqiyatidan darak beradi.

Virtual suhbat xonalaridagi sessiyalar, odamlarni o‘z e’tiqodlari haqida munozaralarga jalb qilish orqali yolg‘onlarni ko‘rsatishga va internet foydalanuvchilarga Islom haqidagi "noto‘g‘ri" tushunchalardan voz kechishga yordam berishga intiladi. Internetning ommabopligi hamda ekstremistik mafkuralarni tarqatishdagi markaziy o‘rni Saudiya Arabistonining “Sakina” loyihasiga xalqaro qiziqishni uyg‘otdi.

Saudiya Arabistoni diniy siyosatining istiqbollari

Saudiya Arabistonidagi diniy yetakchilar qirolning mamlakat rahbari sifatidagi hokimiyatini tan olganlaridan keyin unga qarshi chiqish mumkin emasligiga e’tiqodlari tufayli muxolifat harakatlarga rahbarlik qilishdan chetlanadilar. Ular muxolifatga maslahat berishlari mumkin bo‘lsa-da, siyosatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etish radikal xususiyat kasb etishi va xavfli ekanligini bilishadi. Shu sababli ulardan katta xavf kutilmaydi.

Diniy muassasa, ayollarga avtomobil haydashga ruxsat berish kabi qarorlarni ma’qullashidan xulosa qilish mumkinki, ular davlat siyosatiga moslashmoqdalar. Davlat maqsadlari uchungina faoliyat yuritadigan din vakillari o‘z martabalarida ko‘tarilib, shunday diniy yetakchilar davlat tuzilmalarida ko‘payganligi buning dalilidir. Ko‘pgina islohotlar uzoq strategiyani bir bo‘lagi bo‘lmay, balki ish jarayonida qabul qilinayotganligi sababli, ular katta ehtimol bilan bekor qilinishi mumkin. Ezgulikni targ‘ib qilish va illatlarning oldini olish qo‘mitasi kabi institutlar yana obro‘ qozonishi va vahobiylikning turli unsurlari tiklanishi mumkin. Ochiq qarama-qarshilikning yo‘qligi markazlashuvning kuchayishi tufayli elita hohishiga ko‘ra islohotlar yana eski holatiga qaytishi mumkin.

Barqaror islohotlar mamlakat ichida va xalqaro miqyosda kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xalqaro miqyosda qirollik diniy faoliyati ortidagi siyosiy motivlar tufayli Islom olamida yumshoq kuchini yo‘qotishi mumkin. Mamlakatda turli guruhlar, jumladan, san’atkorlar va diniy arboblar o‘rtasida keskin bo‘linish ya’ni jamiyatdan ajralib qolish kuzatilishi mumkin, bu esa kam bo‘lsada hukumatdan norozilikka yoki rasmiy diniy ta’limotdan uzoqlashishga olib keladi.

Siyosiy islohotlarsiz liberallashtirish keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin, chunki ba’zi guruhlar o‘zlarini chetlashtirilgan his qilishlari hamda davlat manfaatlaridan ko‘ra G‘arb manfaatlarini ustuvor deb bilishlari mumkin. Ushbu qarama-qarshi orzudagi toifalarni boshqarish hozirda rahbariyatdan ko‘proq nozik siyosiy boshqaruvni talab qiladi.

N. Dexkanov *- Namangan davlat universiteti professori, s.f.d.*

SAYLOV JARAYONLARIDA IMIJMEYKING TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Rahbar imiji siyosiy jarayonlarda, ayniqsa saylov kampaniyasida katta o‘rin tutadi. Saylov kampaniyasi boshqaruvning o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda siyosiy nomzod boshchiligidagi ijtimoiy guruh sub’yekt vazifasini bajaradi. Saylovchilar esa saylov jarayonining ob’yekti hisoblanadi. Saylov jarayonlarida nomzodning g‘alabasi ko‘p jihatdan ushbu jarayonlarning atributi – siyosiy reklama texnologiyalari, ularning sifati va elektorat kayfiyatini qay darajada aks ettira olishiga bog‘liq. Siyosiy reklama nafaqat u yoki bu ijtimoiy guruh yoki qatlam siyosiy maqsadi, balki siyosiy guruh, partiya yoki hokimiyatga da’vogar shaxsning imiji shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda siyosiy reklama, ayniqsa uning demokratik shakli tajribasi tobora rivojlanib bormoqda. 2019 yil dekabrida vakillik organlariga bo‘lib o‘tgan xalqchil, chinakam demokratik saylovlarda siyosiy partiyalar ilk bor siyosiy reklama institutiga murojaat qilishdi, dastlabki tajriba to‘pladilar. Partiyalar elektorati bu jarayonga qiziqish uyg‘otdi, ularning siyosiy faolligi ortdi. Bu jarayonda xolis, mustaqil bloggerlar hissasi ham salmoqli bo‘ldi. Nomzodlar avvalari aytish mumkin bo‘lmagan ijtimoiy muammolarni ro‘yi-rost baholash va yechimini topish yo‘llari va vositalarini baralla, erkin bayon qilish va siyosiy baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Saylovlarni demokratik maqomda o‘tganligini ko‘p sonli xorijiy va xalqaro tashkilotlar kuzatuvchilari ham e’tirof etishdi. 2024 yilgi saylovlarda esa mazkur tajriba yanada takomillashdi.

Biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan muammo – saylov texnologiyalari va saylov jarayonlari o‘zaro ta’siri va birligida imijmeyking texnologiyalarining o‘rni va ahamiyatini siyosiy tahlili masalasidir. Bu haqda siyosiy tahlilni amalga oshirishdan avval mantiq talablari bo‘yicha asosiy tayanch konseptual terminlarni aniqlash va ta’riflash kerak bo‘ladi. Asosiy va tayanch siyosiy konsept – siyosiy texnologiya tushunchasidir. Siyosiy texnologiya muayyan ilmiy qurilma bo‘lib, u o‘z ichiga muayyan siyosiy hodisani o‘lchash, baholash va konkret maqsadlarga erishish kabi imkoniyatlarga asoslanadi. Siyosiy xrestomatik manbalarda ko‘rsatilishicha, “siyosiy texnologiya – u yoki bu siyosiy sub’yekt tomonidan muayyan makon va zamonda u yoki bu konkret siyosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan izchil, maqsadga yo‘naltirilgan hatti-harakatlar majmuasidir”[104].

Saylov jarayonlaridagi imijmeyking texnologiyalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Saylov kampaniyasi raqobatli jarayon bo‘lib, uning ishtirokchilari siyosiy iyerarxiyaning yuqori pog‘onalaridan o‘rin egallashga harakat qiladi, bu raqobat shafqatsiz kurashga, keskin ziddiyatlarga aylanib ketmasligi, saylov jarayonini bir me’yorda kechishi uchun ularni boshqaruvchi qonunlar qabul qilinadi. Shubhasiz, saylovoldi kurash ishtirokchilarining barcha harakatlarini doimo qonun orqali nazorat qilib bo‘lmaydi. Biroq, garchi shunday bo‘lsa-da saylovoldi chiqishlarni tartibga solishga mo‘ljallangan “huquqiy doira” doimo bo‘ladi. Mazkur doiradan chiqqan ishtirokchiga nisbatan esa turli jazo choralari qo‘llaniladi. Deputatlikka

[104] Соловьёв А.И. Политология. Политическая теория и политические технологии. – М.: Аспектпресс, 2000. – С. 285.

nomzod ikkinchi marta saylovda qatnashayotgan taqdirda u besh yil muqaddam o‘zi to‘g‘risida yaratgan imiji bilan yangi saylovlarda ovoz ola olmaydi. Zero, vaqt o‘tgan sari elektoratning qiziqishlari, manfaat va ehtiyojlari ham o‘zgaradi. Buni hisobga olmasdan eski qolip, shtamplar bilan yangi saylovlarda qatnashishi befoyda hatti-harakat bo‘ladi. Ayniqsa, saylangan deputat o‘z elektorati bilan saylovoldi kampaniyada bergan “va’da”lari ustidan chiqa olmasa – saylovchida u haqda salbiy imij shakllanadi.

Bugungi kunda Prezident Sh.Mirziyoyev boshlab bergan saylov qonunchiligidagi yangi sahifa ochilgan davrda deputatlikka da’vogar kishi saylov e’lon qilingunga qadar o‘z tarafdorlari nufuzini oshirish uchun harakat qilishi, kishilar ishonchiga kirishi lozim bo‘ladi. Uzoqni ko‘zlagan siyosiy partiya bu orada saylov strategiyasini bir necha yil avval ishlab chiqishi va navbatdagi saylovlarda sinalgan qadriyatlarni ishga sola olishi, jamiyatni tashvishga solayotgan voqealarni teran anglab yetishi va saylovchi uchun aniq yechimlarni ifoda eta olishi kerak bo‘ladi. Saylov okrugidagi ijtimoiy ahvolni siyosiy tahlil qilish, saylovga qatnashishning dastlabki bosqichi[105] hisoblanadi. Bu vazifa saylovdan ancha oldin 5-6 oy avval amalga oshiriladi.

Saylovchi muqobillik asosida o‘tadigan saylovlarda nomzodlar ichida o‘z “qahramoni”ni topib olishi, u taqdim etayotgan siyosiy platforma xususida saylov kunigacha tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Bu juda muhim. Chunki saylovgacha kishilar u yoki bu nomzod imijini qabul qilsagina saylovlarda ushbu nomzod g‘alabasi kafolatlanadi. Saylovoldi bo‘ladigan bir-ikki uchrashuvda nomzod barcha saylovchilarga “yoqishi” amrimahol. Qolaversa, barcha saylovchilarni hech qaysi nomzod jismonan to‘la qamray olmaydi. Bu mushkul ish.

Saylovlarda hokimiyatga da’vogar siyosiy arboblarning imiji masalasi bugungi saylov jarayonlarida hal qiluvchi mavq’yega ega bo‘lib bormoqda. Nega imij va imijmeykerlik texnologiyalariga talab va ehtiyoj oshib bormoqda? degan savolga Rossiya malakali imijmeykerlari Ligasi rahbari V.Shepel quyidagi javobni beradi: “Birinchidan, imij shaxsni jismonan va ruhan erkinligi va kishilar o‘rtasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish vositasi bo‘lsa, ikkinchidan esa imij rossiyaliklar uchun etik-estetik ahamiyat kasb qiladi ... bunday estetik konstruktiv shaxsni va korporatsiyani ma’naviy afzalliklarini ifoda etadi” [106].

Yuqorida ta’kidlanganidek, bugungi kunda siyosat “personifikatsiyalashmoqda”, ya’ni saylov kampaniyasida ishtirok etuvchi shaxsning u yoki bu siyosiy masalani qanday va qay darajada uddalay olishi emas, balki uning shaxsiy xislatlari – tashqi ko‘rinishi, o‘zini qanday tutishi, nutqi, kishida yoqimli tasavvur yarata olishi, hatto imo-ishoralari saylovchida ko‘proq e’tibor tortadi. Bu jihat AQSH sosiologiyasi tomonidan allaqachon anglab yetilgan va saylov amaliyotida asosiy urg‘u bejiz siyosiy reklamaga berilmaydi. Ushbu hodisani chuqur va har tomonlama tahlil va tadqiq etgan ukrainalik politolog olim G.Pochepsev to‘g‘ri ta’kidlaganidek “saylovchi ... ko‘proq siyosiy platformaga emas, balki teleimij, kommunikativ reallikka” reaksiya qiladi[107]. Shu bois imijmeykerlik, ya’ni u yoki bu siyosiy arbob obrazini ommaviy ongda shakllantirish alohida kasb – imijmeykerlik

[105] Жукова В.И., Краскова Б.И. Общая и прикладная политология. – М.: МГСУ, Изд-во “Союз”, 1997. – С. 886.
[106] Шепель В.М. Тенденции и перспективы развития имижеологии в России // Имиджеология: тенденции и перспектива развития / Науч. ред. В.М. Шепель. – М.: Кириллика, 2003. – С. 4-5.
[107] Почепцов Г. Г. Имидж и выбора. Имидж политика, партии, президента. – Киев: АДЕФ-Украина, 1997. – С. 72.

kasbini shakllantirdi. O‘zbekiston saylov amaliyotida bunday vazifani asosan nomzodning ishonchli vakili bajaradi. Ko‘p hollarda bunday “ishonchli vakil” qoniqarsiz darajada o‘z vazifasini bajaradi – nomzodni faqat ijobiy tomonlarini saylovchiga yetkazmoqchi bo‘ladi. Bu tan olish joiz – sho‘ro tuzumidan qolgan siyosiy illat. Rahbarni ko‘kka ko‘tarib maqtash, unga “yoqishga” intilish, laganbardorlik qilish avtoritar tuzum va siyosiy tartibotlar yo‘ldoshidir. Bugungi demokratik saylov jarayonlarida elektorat “ishonchli vakil” safsatasiga emas, balki nomzodning ko‘rinishiga, o‘zini tutish madaniyatiga, samimiyligiga, har bir so‘zining ishonchliligiga, xullas, u “odamlar ichidagisi”ni ifodalay olish qobiliyatiga e’tibor qaratadi. Bu hodisaning klassik tajribasi mavjud. Masalan, qadimgi Rim mutaffakiri Plutarxning guvohlik berishicha, “Syezarda tashqi ko‘rinishdagi dengiz sathiga o‘xshash sokinlik ostida qat’iy va jasur shaxs yashiringanligini, Syezarning har bir hatti-harakatida tiranlarga xos bir fazilat mavjudligini Siseron o‘z vaqtida payqay oldi. Biroq uning boshini bir barmoq bilan qashlashi bu inson Rim davlat tartibotini ag‘darib tashlashga qurbi yeta olmasligini ham ko‘rsatib turar edi”[108] .

Bugungi zamonda esa imijmeykerlar Germaniya kansleri Gelmut Kol uchun uning sochini taralashi qay shaklda ekanligiga e’tibor bera oladilar. Kolni sochini besh panjasi bilan tekislab silashi – elektorat diqqatini tortdi. Olib borilgan sosiologik so‘rovnoma aynan shu qiyofadagi nomzodga ko‘proq ovoz berilishi ma’lum bo‘ldi.

Bugungi saylov kampaniyalarida imijmeykerlarning haddan ziyod saylovchi diqqat-e’tibori bilan manipulyasiya qilishga urinishlari siyosiy reklamada ramziy elementlarni ortiqcha ishlatish saylovchida salbiy munosabat ham uyg‘otishi mumkin[109]. Bu narsa bozor munosabatlari sharoitida tovarlar va xizmatlar reklamasini ist’yemolchilarga bo‘lsa-bo‘lmasa, bevaqt “tiqishtirish”ga o‘xshab ketadi, ist’yemolchi bunday xira munosabatga salbiy munosabat bildiradi, ensasi qotadi. Biroq, masalaning ayrim psixoanalitik jihatlari ham borki, u benihoyat samaralidir. Biz bu yerda psixoanalitik falsafa otasi K.G.Yung nazariyasini, unda ong va ong osti qatlamlari mavjudligi, inson ongi va diqqati bilan manipulyasiya garchi gipotetik xarakterda bo‘lmasada, anglanmagan kodifikatsiya tabiatiga ega ekanligini nazarda tutamiz. Bu masala alohida e’tiborga molik bo‘lib, u siyosiy reklama muammosida kommersial ahamiyatga ega.

Aniqroq ifodalansa – saylov jarayoni bugungi kunda saylov texnologiyalari bilan bog‘liq konkret xarajatlar, moliyaviy omillar bilan aloqador. Bu jihatni bugungi siyosiy partiyalar to‘liq anglashi lozim. Chunki, saylov kampaniyalari moliyaviy xarajatlar bilan ham bog‘liq. Zero, har qanday ilg‘or, samarali g‘oya har qanday innovasion texnologiya kabi ma’lum qiymatga ega.

Markazlashgan, aniqrog‘i “Markaz”dan boshqariladigan saylov jarayonlari odatda shu “Markaz” tomonidan moliyalashtiriladi, u muayyan mafkura asosida amalga oshadi. Bugun esa mutlaqo boshqa siyosiy reallik mavjud bo‘lib, unda ochiq raqobat, ochiq muloqot, muqobillik, saylov natijalarining oldindan bilib bo‘lmaslik, noma’lumlilik, teng huquqlilik va boshqa meyo’rlar ustuvor bo‘ladi. Demokratizm – bugungi saylov jarayonlarining tamal toshi va o‘zagidir. Saylovda bilim va tafakkur o‘zaro kurashadi. Demak, zamonaviy saylov texnologiyalarga – saylov menejmenti, siyosiy marketing, lobbi, spin-master, imijmeyker, siyosiy reklama mutaxassislariga ehtiyoj tobora ortadi. Mustaqil imijmeyker – bloggerlar ham bugun davlat siyosatiga

[108] Плутарх. Сочинения. – М.: Правда, 1983. – С. 118.
[109] Patterson T., Mcllur R. Images in Advertasing. – Chikago: Univ. Press, 2000.

muqobil imijlarni shakllantirish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, xalqaro ekspertlarning saylov va saylovoldi kampaniyalarida ishtiroki – saylovlarni demokratik, inson erkinliklari va huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro huquqiy va ahloqiy meyo’rlar asosida o‘tishini kafolatlamoqda, legitimlik va legalligini ta’minlamoqda[110] .

Rivojlangan davlatlar saylovoldi jarayonlarida, hatto siyosiy yetakchini obro‘sizlantirish uchun bunday “texnologiyalar” yetakchi ommaviy axborot vositalari tomonidan muayyan “zakaz” yoki “shartnoma” asosida amalga oshiriladi. Ma’lumki, bunday texnologiyalar ortida odatda muayyan siyosiy kuchlar turadi. G‘arbda, bozor munosabatlari sharoitida bunday “xizmatlar” asosida moddiy manfaatlar yotadi. Hukumat rahbarining ichki va tashqi siyosat sohasidagi barcha qadamlari har doim yakdillik bilan baholanmaydi – muholif kuchlar va manfaatlar albatta topiladi. Ayrim g‘ayrisiyosiy manfaatlar yo‘lida turli vositalar, jumladan, imijmeyking texnologiyalarida ham foydalaniladi, muddatidan oldin saylovlar yoki ishonchsizlik votumi – impichment institutini qo‘llashga olib boradigan imijmeyking instituti ishga solinadi. Ma’lumki, davlat va jamiyat boshqaruviga da’vogar shaxs ma’nan sog‘lom bo‘lishi, millat “vijdoni” darajasiga yetgan bo‘lishi kerak. Uning ijtimoiy imijida biron bir nuqson, ahloqiy og‘ish, salbiy xulq-atvor elementi uchramasligi kerak.

O‘zbekistonda ham ijtmoiy hayotning turli sohalarida umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashmoqda. Jumladan, saylov kampaniyalari ham saylovdan saylovga demokratik tabiatga ega bo‘lmoqda, saylovchilar siyosiy va huquqiy ongi va madaniyatining ham tobora yuksalib borayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yildan e’tiboran rivojlanish strategiyasi demokratik saylovlar natijasida davlat boshqaruvi sohasiga yangi boshqaruv kadrlar – vatanparvar, millatparvar, ko‘pchilik ishiga fidoyi, halol, xalqparvar, islohotlarning tub siyosiy mohiyati va maqsadini chuqur va har tomonlama anglagan, siyosiy va huquqiy jihatdan savodli professional kishilarning oqimini shakllantirmoqda. Bugun yoshiga, millatiga, qayerda tug‘ilganiga qarab emas, ijtimoiy ishni, ko‘pchilik ishini qanday uddalay oladigan tashabbuskor, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan boshqaruv kadrlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Buni davlat va jamiyat boshqaruvining turli pog‘onalarida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlar misolida kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruv tizimi raqobat asosida shakllantiriladi. Bu degani – davlat boshqaruviga tayinlash emas, balki reyting asosida yondashish, imijmeyking texnologiyalari asosida rahbar kadrlarni shakllantirish deganidir. Buning siyosiy asosi – saylov kampaniyalari hisoblanadi. Saylov huquqiy jarayongina emas, u birinchi navbatda siyosiy jarayondir. U huquqiy asosda kechadi. Bu o‘z navbatida demokratik raqobat, muqobillik, hatto muxoliflikka huquqiy makon shakllantirishni, demokratiyaning muhim prinsiplaridan biri – plyuralizmni qaror toptirishni taqozo qiladi.

[110] Agranoff R. The Management of Election Cempains. – Boston: Holbrook Press, 2014. 384 p.

N. Qarshiyev **–** *O‘zbekiston milliy universiteti Siyosatshunoslik kafedrasi dotsenti, s.f.f.d (PhD).*

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJIDA SIYOSIY PARTIYALARNING AHAMIYATI

Kirish. Siyosiy partiyalarning paydo bo‘lishi, umuman institut sifatida shakllanishi sabablaridan biri davlat va xalq o‘rtasida aloqalarni yo‘lga qo‘yish, har ikki tomon manfaatlarini hisobga olgan holda qulay jamiyat qurish bo‘lib kelgan. Qadimda aholining manfaatlarini hokimiyat oldida ifodalash uchun tuzilgan turli partiyalar mohiyatini beruvchi uyushmalar, guruhlar, klublar faoliyat yuritgan. Zamonaviy jamiyatlarda esa siyosiy partiyalar nafaqat hokimiyat oldida ma'lum bir aholi qatlamlarining manfaatlarini ifodalaydi balki, uni erkin va demokratik saylovlar orqali shakllantiradigan kuchli siyosiy institutga aylanib ulgurgan.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatning muhim siyosiy institutiga aylanishi, uning davlat va jamiyat ijtimoiy–siyosiy hayotidagi asosiy harakatlantiruvchi siyosiy kuch sifatida shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ammo, imkoniyatlar salmog‘ining kengligiga qaramay ayrim siyosiy partiyalar o‘z faoliyatida sustkashliklarga yo‘l qo‘yib, fuqarolik jamiyati taraqqiyotini ta'minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarda faollik ko‘rsata olmayapti. Buni 2017-yil 12-iyulda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvida Prezident Sh.Mirziyoyev siyosiy partiyalar va Oliy Majlis palatalari faoliyatini tanqidiy tahlil qilgan edi. U siyosiy partiyalar faoliyatiga nisbatan quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edi: “Bugun zamonning o‘zi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan o‘zgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yo‘lga qo‘yishni talab etmoqda. Endi “Mudrab yotgan” siyosiy partiyalar uyg‘onishi lozim. Ular balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonishi, ularning qalbidan joy olishi kerak”[1, -B. 554]. Siyosiy partiyalar faoliyatiga bildirilgan mazkur tanqidiy, tahliliy fikrlardan so‘ng ular nisbatan faollashgan bo‘lsa-da, sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar, yechimini kutayotgan muammolar hali yetarlichadir.

Asosiy qism. Siyosatshunoslikda siyosiy partiya, fuqarolik jamiyati, demokratiya, saylov kabi tushunchalar o‘zaro bog‘liq va bir–birini to‘ldiruvchi muammolar hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati va uning taraqqiyotida siyosiy partiyalarning ishtiroki masalalarini ko‘plab olimlar keng tadqiq qilishgan. Mazkur sohada yetakchi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan g‘arb olimlaridan, M.Dyuverje, T.Parsons, T.Gobss, M.Veber, J.Sartori, G.Gegel, S.Benhabib, N.Freyzer, S.Uayt, D.Chijov, B.Isaev, S.Lansov o‘zbek olimlaridan M.Qirg‘izboyev, A.O‘tamuradov, Q.Nazarov, S.Berdiqulov, R.Hasanov, V.Qo‘chqorov, X.Axmedov, B.Yakubov va boshqalar o‘rganishgan.

Siyosiy partiya tushunchasi ham siyosiy fanlarda bahsli tushunchalardan biri hisoblanadi. Unga berilgan ta'riflarning turlichaligi va ko‘pligi ham buning isbotidir. Uni dunyoning turli mamlakatlarida yashab faoliyat yuritayotgan ko‘plab olimlar o‘z yondashuvlari asosida ta'riflaydi.

Nemis sotsiologi Maks Veber siyosiy partiyalarni “ijtimoiy mexanizm” sifatida tadqiq etdi. Uning fikricha, bu “ijtimoiy mexanizm”da doktrina va tashkiliy tizilma ma'lum siyosiy maqsadlarga erishish uchun xizmat qiladi[3, -B. 218]. Nemis olimining fikridan kelib chiqadigan bo‘lsak, siyosiy maqsadlarga erishishni maqsad qiluvchi odamlarning ma'lum bir institut atrofiga birlashish jarayonidir. Albatta bunda mafkura va g‘oyalarning umumiyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv asosida fuqarolik jamiyatining rivoji zamonaviy jamiyat uchun siyosiy maqsad bo‘lishi siyosiy partiya esa mazkur maqsad sari yetaklovchi vositadir.

Ayrim adabiyotlarda “Xalq va davlatning vertikal (tikkasiga) aloqalarining bo‘g‘ini bo‘lgani, amalda siyosiy jarayonlarning barcha bosqichlarida ishtirok etgani holda, partiya jamiyatda hokimiyat maqomlarini taqsimlashning (qayta taqsimlashning) eng muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib chiqadi[4, -B. 285] deb ta'kidlangan. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, siyosiy partiyalar hokimiyatni shakllantiradi, taqsimlaydi, qayta taqsimlashda asosiy o‘rin tutgan holda siyosiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida ifodalanadi.

Siyosiy partiyalar ularning mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojini ta'minlashdagi ishtirokini tadqiq qilgan olimlardan R.Xasanov, A.O‘tamurodov kabi olimlar kuchli fuqarolik jamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: “Kuchli fuqarolik jamiyati – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat” [5, -B. 102]. Kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi uchun eng avvalo, uning institutlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatli aloqani o‘rnatishi hamda mustahkamlab borishi talab etiladi. Fuqarolik jamiyati rivojiga erishgan mamlakatlarga nazar tashlasak, ularda mazkur institutlarning xususan, siyosiy partiyalarning faolligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekistonda ham kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari intilishlar jadal davom etar ekan, so‘nggi yillarda davlat institutining o‘z vakolatlarini bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyati institutlariga shuningdek, o‘zining quyi bo‘g‘in tashkilotlariga o‘tkazib borayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Masalan, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni asosida qabul qilingan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” deb nomlanib, uning 5-maqsadi “Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish” deb nomlanib mazkur yo‘nalishda qator vazifalar belgilab berilgan[2]. Shuningdek, siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining muhim siyosiy instituti sifatida erkin faoliyat yuritishlari uchun bir qator alohida qonunlar qabul qilingan.

Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar faoliyatiga doir moddalarning kiritilganligi, ularning jamiyat taraqqiyotida naqadar muhim siyosiy institut ekanligidan darak beradi. Bundan tashqari “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (1991), “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (1996), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (1999), “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (2004), “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston

Respublikasi qonuni (2007) hamda O‘zbekiston Respublikasi “Saylov kodeksi”(2019) qabul qilgan.

Mazkur qonunlar asosida O‘zbekistonda bugungi kunda beshta siyosiy partiyalar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bular: O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi dastlabki partiya sifatida 1991yilda tashkil etilgan, O‘zbekiston “Adolat” sotsial – demokratik partiyasi 1995-yilda tashkil topgan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal – demokratik partiyasi 2003-yilda tashkil topgan, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 2008–yilda tashkil topgan hamda O‘zbekiston Ekologik harakati negizida O‘zbekiston Ekologik partiyasi 2019–yilda tashkil etildi.

Bugungi kunda ushbu siyosiy partiyalar O‘zbekistonda erkin va faravon hayot yaratishni o‘zlarining umumiy maqsadi deb bilgan holda, o‘zaro raqobat asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Fuqarolik jamiyatining rivojini ta'minlashda, islohotlardagi ishtiroki nuqtai nazaridan ayrim siyosiy partiyalarning nofaolligi kuzatilib tursada, ularning siyosiy kuch sifatidagi umumiy mohiyatiga jiddiy ta'sir ko‘rsatmaydi. Shuningdek, siyosiy partiyalarning parlamentdagi faoliyatiga ham to‘xtalib o‘tishimiz lozim, parlamentdagi portfellar uchun bo‘lgan so‘nggi saylovlar partiyalar o‘rtasi tortishuvga boy, joiz bo‘lsa keskinlik va qarama–qarshilik ruhida o‘tdi deb ayta olamiz. Siyosiy partiyalarning siyosiy debatlardagi faolligi va uning OAV orqali keng yoritilganligi saylovlarning shaffof va adolatli bo‘lganligidan dalolat beradi. Har bir siyosiy partiyaning saylovoldi dasturi puxta va mamlakat kelajagini chuqur o‘ylab tuzilganligi ularning xilma - xilligini ta'minladi deb ayta olamiz. Fuqarolik jamiyatiga xos xususiyatlardan bo‘lgan elektorat oldidagi partiyalarning mas'uliyatining ortganligini ham mazkur saylov jarayonlarida kuzatdik. Mamlakatimiz aholisida siyosiy partiyalar faoliyatiga qiziqish toboro ortib, fuqarolik jamiyatining rivojini ta'minlashda ularning naqadar muhim siyosiy institut ekanligini anglagan holda, elektoratning siyosiy faolligi yangi bosqichga ko‘tarilayotganligidan darak beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojini ta'minlovchi muhim siyosiy institut sifatida siyosiy partiyalarning erkin faoliyat yuritishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Endilikda siyosiy kuch sifatida siyosiy partiyalarimiz faolligini yanada oshirib, aholi qolaversa o‘z elektorati uchun faravon jamiyatni barpo etish va rivojlantirishda jonbozlik ko‘rsatishlari lozimdir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojini ta'minlashda siyosiy partiyalar muhim siyosiy institut hisoblanib, ularning erkin faoliyat yuritishlari, elektoratining siyosiy irodasi, manfaatlarini to‘liq ifodalashi uchun keng imkoniyatlar mavjuddir. Siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvi organlarini shakllantirish hamda ular faoliyatini nazorat qilishi uchun huquqiy mexanizm yaratilgan. Shuni ham alohida ta'kidlab o‘tishimiz kerakki, siyosiy partiyalarning faoliyati samaradorligini oshirishda elektoratning faolligi muhim hisoblanib, u toboro oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojini ta'minlashda siyosiy partiyalar ishtirokini yanada kengroq ta'minlash nuqtai nazaridan quyidagilarni taklif qilamiz:

- O‘zbekistonda mavjud siyosiy partiyalar va ularning elektorati o‘rtasidagi aloqalarni yanada ko‘chaytirish, bunda elektorat va partiya o‘rtasidagi manfaatdorlikka alohida e'tibor qaratish;

- Fuqarolik jamiyati va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy – nazariy jihatdan yanada kengroq o‘rganishni davom ettirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston” NMIU. 2017. 592 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. https://lex.uz/docs/5841063.

8. Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma./ Andijon davlat universiteti. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2013. 524-b.

9. Pugachev V.P., Solovev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. tarjima, Begmanov A. T.: “Yangi asr avlodi”. 2004. 439-b.

10. Hasanov R., O‘tamuradov A. Fuqarolik jamiyati: Nazariya va amaliyot. Uslubiy qo‘llanma. T. 2016. 224-b.

А.И. Хўжаев *– Ўзбекистон миллий университети мустақил изланувчиси*

СИЁСИЙ БОШҚАРУВДА СИЁСИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ

Замонавий сиёсий бошқарувда сиёсий технологиялар асосий ўрин тутади. Бу технологиялар сиёсий жараёнларни бошқариш, жамоатчилик фикрини манипуляция қилиш, сиёсий ҳокимиятни мустаҳкамлаш ва сайловчилар билан самарали мулоқот қилишга қаратилган усул ва воситалар мажмуасини ифодалайди. Сўнгги ўн йилликларда сиёсий технологиялар сезиларли даражада ўзгарди ва янги шароитларга мослашди, бу ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланиши, шунингдек, жамиятнинг ижтимоий тузилиши ва эҳтиёжларининг ўзгариши билан боғлиқ. Замонавий сиёсий технологиялар ўзида психология, социология, ахборот технологиялари ва оммавий коммуникациялар элементларини ўзида мужассам этган бўлиб, бу уларни сиёсий жараёнларга таъсир қилишнинг кучли воситасига айлантиради. Ушбу мақолада биз сиёсий бошқарувда сиёсий технологиялардан фойдаланишнинг замонавий усулларини кўриб чиқамиз.

1) Оммавий коммуникациялар орқали жамоатчилик фикрини манипуляция қилиш

Сиёсий технологиялардан фойдаланишнинг асосий усулларидан бири оммавий ахборот воситалари орқали жамоатчилик фикрини манипуляция қилишдир. Бунда анъанавий оммавий ахборот воситалари (**телевидение, радио, босма оммавий ахборот воситалари**), ижтимоий тармоқлар (**Facebook, Instagram, Twitter, Vkontakte** кабилар) ва **Интернет платформаларидан** кенг фойдаланилади[111].

[111] Манукян А.М., статья “Социально-психологические механизмы гипнотического манипулирования сознанием масс в медийном пространстве на примере социальных сетей (Vk, Facebook, Instagram)”, Журнал “Азимут научных исследований: педагогика и психология” Т. 8. № 3(28), 2019 г.//

Сиёсий партиялар ёки ҳукумат тузилмалари томонидан олиб борилаётган оммавий ахборот кампаниялари жамоатчилик эътиборини муайян мавзуларга қаратиб, улар учун қулай имидж яратиши ёки аксинча, сиёсий рақиблар обрўсига путур этказиши мумкин. Бунга маълум кун тартибини шакллантириш мақсадида PR-кампаниялардан фойдаланиш, сохта янгиликлар яратиш, ижтимоий тармоқларда фаол ишлаш киради.

Замонавий технологиялар сиёсий кучларга аниқ манипуляция учун мақсадли гуруҳларни яратишга имкон беради. Масалан, ижтимоий тармоқлар фойдаланувчилари ҳақидаги маълумотларга (уларнинг қизиқишлари, сиёсий имтиёзлари, демографик маълумотларга) асосланиб, шахсийлаштирилган реклама кампанияларини ишлаб чиқиш мумкин. Ушбу реклама хабарлари сайловчиларнинг ҳис-туйғулари ва фикрларига таъсир қилиши, уларнинг сиёсий хатти-ҳаракатларига таъсир қилиши мумкин.

Сиёсатчилар сохта янгиликлар ва мемларни яратиш ва тарқатиш технологияларидан фаол фойдаланадилар, бу эса жамиятнинг муайян сиёсий вазият ҳақидаги тасаввурини тубдан ўзгартириши мумкин. Тезкор янгиликлар цикллари ва қисқа эътибор вақтлари контекстида бундай усуллар овоз бериш имтиёзларига кучли таъсир кўрсатади.

Психологик **PR** ҳам муҳим жиҳат – образлар, рамзлар, шиорлар орқали ҳиссиётлар ва жамоатчилик идроки билан ишлаш, шунингдек, жамоатчилик муҳокамаси учун муайян мавзуни танлаш, бу эса сайловчиларда зарур реакцияларни уйғотишга ёрдам беради.

Facebook, Twitter, Instagram ва **Телеграм** каби ижтимоий тармоқларнинг ривожланиши билан сиёсий кампаниялар янги тус олди. Ижтимоий тармоқлар жамоатчилик фикрини шакллантириш, сайловчилар билан мулоқот қилиш, оммавий тадбирлар ташкил этиш, сиёсий позицияларни ифода этишда муҳим воситага айланди.

Сиёсий бошқарувда ижтимоий тармоқлардан самарали фойдаланишга мисол сифатида 2008 йилда Барак Обаманинг сайловолди ташвиқотини келтириш мумкин, бунда номзод жамоаси сайловчилар билан бевосита мулоқот қилиш, онлайн тадбирлар ўтказиш, донорларни жалб қилиш ва сиёсий имидж яратиш учун ижтимоий тармоқлардан фойдаланган. Обама ижтимоий медиа маълумотларини чуқур таҳлил қилиш ва улардан фойдаланиш натижасида амалга оширилган сайлов стратегиясига ижтимоий медиани тўлиқ қўшган биринчи АҚШ президенти бўлди[112].

Бундан ташқари, сиёсатда ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш сиёсатчиларга нафақат ўз ғояларини оммалаштириш, балки жамоатчилик фикрини манипуляция қилиш имконини беради. Бунга мисол қилиб, британиялик сайловчиларнинг Европа Иттифоқини тарк этиш қарорига таъсир қилиш учун Facebook платформасида мақсадли реклама

https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialno-psihologicheskie-mehanizmy-gipnoticheskogo-manipulirovaniya-soznaniem-mass-v-mediynom-prostranstve-na-primere-sotsialnyh/viewer (мурожаат қилинган сана: 21.02.2025 й.)

[112] Kreiss, D. The Networked Presidency: Campaigning and Governing in the Age of Twitter. Oxford University Press 2016.//global.oup.com/academic/product/the-networked-presidency-9780190667961 (мурожаат қилинган сана: 21.02.2025 й.)

кампанияларидан кенг фойдаланган “**Brexit**” кампаниясини келтириш мумкин[113].

2) Big Data ва сайловчиларнинг хатти-ҳаракатлари таҳлилларидан фойдаланиш.

Big Data таҳлилидан фойдаланиш сиёсий кампанияларнинг сайловчиларни қамраб олишда самарадорлигини сезиларли даражада ошириш имконини беради. Замонавий сиёсий технологиялар сайловчиларнинг хоҳиш-истаклари, уларнинг Интернетдаги хатти-ҳаракатлари, сайловчиларнинг сиёсий кайфияти ва хатти-ҳаракатларини башорат қилиш учун алгоритмлардан фойдаланиш ҳақидаги катта ҳажмдаги маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилишни ўз ичига олади.

Big Dataдан фойдаланишга мисол сифатида **Доналд Трамп**нинг 2016 йилги кампаниясини келтириш мумкин, ўшанда унинг жамоаси сайловчиларни жалб қилишда **Facebook** реклама кампаниялари ва бошқа таҳлилий воситалардан фойдаланган.

Ижтимоий тармоқ фойдаланувчиларига оид маълумотлар уларнинг хоҳиш-истаклари ва психографик хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда қаратилган ноёб реклама кампанияларини яратиш имконини берди.

Бу кампаниялар, хусусан, сайловчиларнинг фикри ва танловига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган юқори мақсадли хабарларни яратиш учун **Cambridge Analytica** билан ишлаш орқали тўпланган маълумотлардан фойдаланган[114].

3) Сиёсий маркетинг ва сиёсий раҳбарнинг брендинг технологиялари

Замонавий сиёсий технологиялар сиёсий лидерлар имижини яратиш ва сақлаб қолиш учун маркетинг ва брендинг усулларидан фаол фойдаланади. Раҳбарнинг ёрқин ва жозибали қиёфасини яратиш сиёсий бошқарувнинг муҳим қуролига айланиб бормоқда. Бу жараён номзоднинг имижи, обрўси ва сайловчилар ўртасидаги идроки билан ишлашни ўз ичига олади.

Мисол учун, Германия канцлери **Ангела Меркел**нинг сиёсий бренди барқарорлик, рационаллик ва прагматизм образи сифатида тарғиб қилинган.

Меркелнинг, айниқса инқироз даврида (масалан, Евроиттифоқ инқирози ва муҳожирлар инқирози) бошқарувга бўлган хотиржам ва услубий ёндашуви унга «**Европа маликаси**» номини олиб берди. Бу брендинг унга канцлер сифатида кетма-кет тўрт муддатга сайланишга ёрдам берди[115].

Шунингдек, **Ҳиндистон** Бош вазири **Нарендра Моди** ўзининг брендинги орқали кучли, қатъий етакчи имижини яратди, айниқса унинг «Кучли етакчилик ва миллатпарварлик» дастури ҳамда «Яхши кунлар келмоқда» шиори 2014 йилги сайловолди кампаниясида ғалабага эришишида муҳим ўрин тутди.

---

[113] Cadwalladr, C. The Great British Brexit Robbery: How Our Democracy Was Hijacked. The Guardian //www.theguardian.com/technology/2018/mar/17/facebook-2016-brexit-trump-cambridge-analytica. 2018. (мурожаат қилинган сана: 21.02.2025 й.)

[114] Isaac, M. & Frenkel, S. How Trump Consultants Exploited the Facebook Data of Millions. The New York Times//www.nytimes.com/2018/03/17/technology/facebook-cambridge-analytica-trump.html. 2018. (мурожаат қилинган сана: 20.02.2025 й.)

[115]Müller, H., & T. Risse. The Merkel Effect: Germany’s Leadership in the European Crisis. The International Spectator, 51 (4). 2016.//www.researchgate.net/publication/366740572_Merkel_effect_in_European_crises_From_Kohl's_madchen_to_nobody's_girl (мурожаат қилинган сана: 20.02.2025 й.)

Моди мулоқот қилиш учун кўпинча **Twitter** ва **WhatsApp** каби ижтимоий медиа платформаларидан фойдаланиб, одамлар билан бевосита мулоқот қилувчи лидер имижини ривожлантирди. Унинг энг асосий брендинги сифатида замонавийлик ва анъанавий қадриятларни уйғунлигини ўзида мужассам этган[116].

4) Электрон овоз бериш ва рақамли демократия

Ахборот технологияларининг ривожланиши фуқароларнинг сиёсий жараёнда иштирок этишининг электрон овоз бериш ва электрон демократия каби янги шаклларига ҳам олиб келади.

Ушбу технологиялар фуқароларга сайлов ва референдумларда масофадан туриб иштирок этиш имконини беради, бу эса сиёсий жараёнларнинг қулайлигини оширади ва тўғридан-тўғри демократия ривожланишига ёрдам беради.

Электрон овоз беришдан фойдаланишга мисол сифатида Эстония тажрибасини келтириш мумкин, у дунёда биринчи бўлиб сайловларда фуқаролар учун интернет орқали овоз бериш тизимини жорий қилган. 2005 йилда Эстония электрон овоз бериш бўйича ўзининг биринчи тажрибасини ўтказди, кейинчалик бу миллий сайловларда стандартга айланди. Мазкур қарор фуқароларнинг сайловдаги иштирокини сезиларли даражада оширди ва овоз бериш тартибини соддалаштирди[117].

Хулоса

Замонавий сиёсий технологиялар сиёсий бошқарув ва сайлов кампаниясининг ажралмас қисмига айланиб бормоқда. Ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш, катта маълумотлар таҳлили, сиёсий маркетинг ва электрон овоз бериш каби инновацион технологияларни жорий этиш сиёсий манзарани ўзгартирмоқда ва сайловчиларни жалб қилиш усулларига таъсир кўрсатмоқда.

Бу эса сиёсатчилар ва уларнинг жамоаларидан замонавий технологиялар ва улар тақдим этаётган имкониятларни чуқурроқ билишни талаб қилади. Ушбу технологиялардан фойдаланиш нафақат сиёсий кучларга сайловларда муваффақиятга эришишга ёрдам беради, балки сиёсий жараёнларнинг тузилишини ўзгартиради, сиёсий қарорларнинг очиқлигини таъминлайди.

O.G'. Eshdavlatov **-** *Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi*

GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA SIYOSIY INSTITUTLARNING YOSHLAR IJTIMOIY MOSLASHUVIDAGI O'RNI

Ma'lumki, XXI asr, bugungi shiddatli zamon, globallashuv jarayonlari va uning ijobiy hamda salbiy ta'sirlari, mavjud geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyat, dunyodagi keskin raqobat muhiti, turli xavf-xatarlar hozirgi zamon manzarasini tubdan o'zgartirib yubormoqda hamda ushbu omillarning yoshlar dunyoqarashiga, ularning

[116]Luthra, A. Narendra Modi: Political Branding and Communication in the Age of Social Media. India Quarterly, 71(3), 234-249. 2015. https://pure.giga-hamburg.de/ws/files/21579397/gf_asien_1903_en.pdf (мурожаат қилинган сана: 20.02.2025 й.)

[117] Vassil, K.E-Estonia: Digital Democracy in Action. European Parliament. 2016. //www.europarl.europa.eu/factsheets/ en/sheet/116/e-estonia-digital-democracy-in-action (мурожаат қилинган сана: 20.02.2025 й.)

ijtimoiy moslashuvi va barkamol shaxs sifatida ulg'ayishida ta'sirlari benihoya kattadir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash o'rinliki, globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan hozirgi davrda yer yuzi aholisining kattagina qismini tashkil etadigan, son jihatidan (2 milliard kishini tashkil etmoqda) butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod tarbiyasi, ijtimoiy moslashuvi, barkamolligi XXI asrda eng muhim masalalardan biri sifatida ta'kidlanmoqda.

Globallashuv sharoitida zamonaviy ijtimoiy transformatsion jarayonlar yoshlarning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir qilgani holda, yoshlarning ijtimoiy moslashuvida, barkamolligida, insoniy xislatlari va faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanishi va yuksalishida ko'plab ijtimoiy va siyosiy institutlar muhim rol o'ynamoqda hamda ularning qiziqishlarini, dunyoqarashini, axloqini belgilab bermoqda.

Globallashuv jarayoni o'z xususiyati va ko'lami bilan dunyo siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu jarayonda siyosiy institutlarning yoshlar ijtimoiy moslashuviga ta'siri juda muhimdir. Siyosiy institutlar – bu davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa unsurlari bo'lib, ular yoshlarning ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvida asosiy rol o'ynaydi.

Yoshlarning jamiyatga kirib kelishi, ijtimoiy moslashib borishi va shaxslar bilan munosabatlari ularning kelgusi faoliyatlarini belgilab beradi, ularning kelgusidagi xarakteri, ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi va kelajakda qanday inson bo'lib yetishishining muhim sharti hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasi kuzatilayotgan hozirgi vaqtda mazkur transformatsion jarayonlarning yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ham o'z ta'sirini o'tkazayotganligini ko'rish mumkin.

Ijtimoiy moslashuv — individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi[118].

Tadqiqotchi A.Kovalevaning yozishicha, ijtimoiylashuv o'z ichiga barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan bo'lib, ya'ni individning belgilangan normalar va qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat a'zosi sifatida ulardan keng qamrovda foydalanishida namoyon bo'ladi[119].

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi yoshlarning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni bo'lib, ularning jamiyatda o'rnatilgan va amal qilib turgan normalar va qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda ulardan keng qamrovda foydalanishidir.

Ma'lumki, zamonaviy yoshlar globallashuv sharoitida axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy transformatsion jarayonlar kechayotgan bir davrda hayot kechirishmoqda.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi yoshlarning ijtimoiylashuvi ko'plab omillar bilan shartlangan. Ularning ijtimoiy ongi darajasi avvalgi avlodlarning yosh qatlamlariga nisbatan ancha yuqori. Shuning uchun zamonaviy ijtimoiy ijtimoiylashuv jarayonlariga tanlov asosida ijodiy, tanqidiy yondoshuvlar xos. Faollik ijtimoiylashuvning muhim shartidir. Chunki faollik shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlarining asosi bo'lib, buning natijasida inson ijtimoiyligining konkret-

[118] https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-moslashuv-uz/
[119] Ковалева А.И. Социология молодежи: Теоритеческие вопросы. – Москва.: Социум, 1999. – С.351.

tarixiy shakliga erishiladi. Ayni paytda ijtimoiylashuv faqatgina sub'ekt faolligi emas, balki ob'ektning unga bo'lgan ta'siri hamdir.[120]

Ma'lumki, globallashuv yosh avlodning dunyoqarashiga, qadriyatlariga va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli xil mafkuraviy oqimlar ta'siriga tushishi, madaniy identifikatsiyani yo'qotishi yoki aksincha, global imkoniyatlardan foydalanib, rivojlanishi mumkin. Shu sababli, ushbu jarayonlarda siyosiy institutlarning vazifasi yoshlarni to'g'ri yo'naltirish va ularga milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan yo'l-yo'riq berishdan iborat hisoblanadi.

Demak, siyosiy institutlarning yoshlar ijtimoiy moslashuvidagi o'rni qo'yidagilar orqali namoyon bo'ladi:

Ta'lim va tarbiya tizimi. Siyosiy institutlar yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishda ta'lim tizimi orqali faol ishtirok etadi. Siyosiy fanlar, huquqshunoslik va fuqarolik jamiyati asoslarini o'rgatish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Bundan tashqari, yoshlar orasida huquqiy ong va siyosiy faollikni oshirishga qaratilgan dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat siyosati va qonunchilik. Yoshlarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari ularning jamiyatda faol o'rin egallashiga yordam beradi. Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun maxsus qonunlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etiladi.

Siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlari. Yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish, ularning faolligini oshirishda partiyalar va NNTlar muhim rol o'ynaydi. Yoshlar harakati, forumlar, konferensiyalar orqali ularning muammolari muhokama qilinib, takliflari e'tiborga olinadi.

Axborot texnologiyalari va media. Globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari va internet yoshlar ongiga bevosita ta'siri katta hisoblanadi. Shu jihatdan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, siyosiy institutlar yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta'sirlardan himoya qilish hamda ularga ishonchli axborot yetkazish uchun media loyihalarni rivojlantirishi lozim.

Shunday ekan, globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy moslashuvi murakkab jarayondir. Bunda siyosiy institutlarning roli juda muhim bo'lib, ular ta'lim, huquqiy himoya, fuqarolik jamiyati va media orqali yoshlarni qo'llab-quvvatlashi lozim. Davlat siyosati yoshlarning ijtimoiylashuvini ta'minlash, ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish, siyosiy faolligini oshirishga yo'naltirilishi lozim.

Globallashuv jarayonining jamiyatlar taraqqiyotiga, millatlar, xalqlar va elatlar o'rtasidagi munosabatlarning integratsiyalashuviga xizmat qiluvchi o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham borki, mana shu salbiy jihatlarining ta'sir doirasi hozirgi global axborot asrida yanada kuchayib, bu jarayon ayniqsa yoshlar hayotida, ularning turmush tarzida o'zining yaqqol ifodasini topib bormoqda.

Globallashuv yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqdalar. Buning oqibatida insoniyat tomonidan katta ma'naviy yo'qotishlar, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotganini, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarziga xavf solayotganini alohida qayd etish lozim.

[120] Ёшларнинг жамиятга ижтимоий мослашуви (этносоциологик тадқиқот) – Тошкент: "Tafakkur" 2014. 24-бет

Ma’lumki, globallashuv va uning yoshlar ijtimoiy moslashuviga ta’siri benihoya kattadir. Globallashuv o’zining ijobiy va salbiy jihatlari namoyon bo’lgani holda, dunyo tajribasidan foydalanish imkoniyatining oshishi, ta’lim, fan-texnika va madaniyat sohalarida yangiliklar tez tarqalishi, yoshlar turli mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi, demokratiya, huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati qadriyatlari mustahkamlanishi va boshqa shunga o’xshash jihatlarni globallashuvning ijobiy jihatlari sifatida keltirilsa, uning salbiy jihatlari sifatida milliy an’analar va qadriyatlarning yo‘qolish xavfi paydo bo‘lishi, ijtimoiy notenglik ortishi, mehnat migratsiyasining kuchayishi yoshlar orasida ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkinligi, g’arb madaniyati ta’sirining kuchayishi natijasida milliy o‘zlikni anglash masalasi sustlashishi mumkinligi, virtual hayotga haddan tashqari berilish natijasida real ijtimoiy faoliyatga qiziqish pasayishi ehtimoli va boshqa shunga o’xshash jihatlarni keltirish mumkin.

Shunday ekan, ushbu jarayonlarda siyosiy institutlarning vazifasi globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o‘ziga xosligini saqlab qolish, ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlash va dunyoqarashini rivojlantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Siyosiy institutlarning yoshlar ijtimoiy moslashuvidagi o‘rni juda katta bo‘lib, ularning siyosiy savodxonligi, huquqiy himoyasi, bandligi va ijtimoiy faolligini oshirish orqali jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёшларнинг жамиятга ижтимоий мослашуви (этносоциологик тадқиқот) – Тошкент: “Tafakkur” 2014.

2. Эшдавлатов Отаниёз Ғаффорович. (2025). Ижтимоий муносабатлар трансформацияси ва унинг ёшлар ижтимоий мослашувига таъсири. Journal of New Century Innovations, 69 (2), 140-146. https://scientific-jl.org/new/article/view/10755

3. Эшдавлатов Отаниёз Ғаффорович. Глобаллашув шароитида ёшларнинг дунёқараши: таъсир этувчи омиллар ва ўзгариб боришининг хусусиятлари. «Dunyoqarashlar muloqoti: yoshlarning jamiyat kelajagiga munosabati» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024, 144-154

4. https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-moslashuv-uz/

5. Ковалева А.И. Социология молодежи: Теоритеческие вопросы. – Москва.: Социум, 1999.

Ж.А. Сабурова *- докторант Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

ПОЛИТИКА ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И СТРАТЕГИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Сегодня, на фоне усиливающихся глобальных экологических проблем и требований, связанных с изменением климата, развивающиеся страны всё

больше применяют устойчивые экономические модели, гармонично сочетающие защиту окружающей среды с экономическим развитием. Республика Узбекистан, обладающая стратегическим значением в Центральной Азии и переживающая значительные экономические преобразования, служит ярким примером внедрения стратегий «зелёной» экономики и механизмов экологической безопасности.

Предложение Президента Республики Узбекистан объявить 2025 год «Годом охраны окружающей среды и зелёной экономики», разработка долгосрочной стратегии низкоуглеродного развития и внедрение национальной программы «зелёного» финансирования демонстрируют последовательность государственной политики в этой сфере. Планируемое увеличение доли «зелёных» компонентов в инвестиционных проектах до 50% и намерение сократить выбросы парниковых газов на 35% к 2030 году подчёркивают стремление Узбекистана стать сторонником устойчивого развития на международном уровне.

В Узбекистане концепция «зелёной» экономики выступает важным ответом на целый ряд экологических вызовов, включая дефицит водных ресурсов, деградацию земель, утрату биологического разнообразия, а также нарастающие последствия изменения климата. Согласно имеющимся данным, к 2030 году численность населения страны достигнет 41 миллиона человек, а экономика увеличится в 1,5 раза[121]. В этой связи задача гармоничного сочетания экономического развития и экологической стабильности приобретает особую актуальность.

Разработка и последовательное внедрение стратегии развития, основанной на принципах «зелёной» экономики, рассматривается в качестве одного из приоритетных направлений, позволяющих обеспечить сбалансированное взаимодействие между экономическим ростом, социальной стабильностью и охраной окружающей среды.

В ряде постановлений и указов, принятых Президентом Республики Узбекистан, в том числе в «Стратегии перехода Республики Узбекистан на “зелёную” экономику на 2019–2030 годы»[122], «Стратегии развития “Нового Узбекистана” на 2022–2026 годы»[123] и других важных документах, вопросам экологической безопасности уделяется особое внимание. В данных актах отмечается, что ускоренная индустриализация и рост численности населения, с одной стороны, резко повышают ресурсную нагрузку на экономику, а с другой — усиливают негативное антропогенное воздействие на окружающую среду, вызывая рост выбросов парниковых газов. При этом в указанных документах предусмотрены конкретные меры по диверсификации национальной экономики, обеспечению эффективного использования ресурсов, повышению

[121] «Рассмотрены меры по развитию электроэнергетики». Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7842 (дата обращения: 31.01.2025).

[122] Указ Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года «Об утверждении Концепции перехода Республики Узбекистан на “зелёную экономику”» № PF–5853. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: https://lex.uz/docs/-4539502 (дата обращения: 31.01.2025).

[123] Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 «О Стратегии развития “Нового Узбекистана” на 2022–2026 годы» № PF–60. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5841063 (дата обращения: 31.01.2025).

энергоэффективности и переходу на возобновляемые источники энергии, а также по снижению загрязнения окружающей среды.

Стратегия «зелёной» экономики Узбекистана гармонизирована с глобальными рамочными подходами, адаптированными к Целям устойчивого развития ООН, Парижскому соглашению по изменению климата, а также к региональным инициативам в Центральной Азии.

В качестве основных компонентов (приоритетных направлений) данной Стратегии определены:

Переход на возобновляемые источники энергии. Прежде всего речь идёт о солнечной и ветровой энергетике, поскольку в Узбекистане, особенно в районах пустыни Кызылкум и горных регионах, сосредоточены значительные ресурсы солнечной и ветровой энергии. При поддержке международных организаций, таких как Азиатский банк развития и Европейский банк реконструкции и развития, правительством уже запущены крупномасштабные проекты в сфере солнечной энергетики, включая солнечную электростанцию в Шеробоже и ветровую ферму в Навоийской области.

В целом к 2030 году Узбекистан ставит перед собой задачу довести долю возобновляемых источников энергии в общем энергетическом балансе до 25%. При этом основное внимание уделяется развитию солнечной и ветровой энергетики, а также гидроэнергетических ресурсов.

Модернизация гидроэнергетики. Несмотря на то что гидроэнергетика занимает значительную долю в производстве электроэнергии, устаревшая инфраструктура порождает проблемы с эффективностью. С этой целью осуществляются инвестиции в модернизацию существующих гидроэлектростанций, а также в развитие проектов малой гидроэнергетики.

Иллюстрацией серьёзных шагов в данном направлении служат конкретные цифры и факты: за последние пять лет в энергетический сектор Узбекистана привлечено 20 миллиардов долларов иностранных инвестиций, благодаря чему введено в эксплуатацию современные энергомощности общим объёмом 9,6 гигаватт. В частности, были запущены 14 солнечных и ветровых электростанций суммарной мощностью 3,5 гигаватта, а также два проекта по хранению энергии. В ближайшие годы планируется реализация более 50 крупных проектов общей мощностью в 24 гигаватта, к 2030 году долю возобновляемых источников энергии предполагается увеличить до 54%[124]. Все это свидетельствует о последовательных и решительных шагах, предпринимаемых страной на пути к целям «зелёной» экономики.

Устойчивое сельское хозяйство. Капельное орошение и инновационные технологии. В Узбекистане дефицит водных ресурсов становится всё более острой проблемой, а традиционные методы полива ведут к значительным потерям воды. Широкое внедрение технологий капельного и дождевального орошения способствует рациональному использованию воды и повышению урожайности.

Органическое земледелие. Производство экологически чистой продукции, ограничение применения химических удобрений и пестицидов до

[124] «Новый Узбекистан открыт для широкого практического сотрудничества на пути устойчивого развития и “зелёного” прогресса». Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7815 (дата обращения: 31.01.2025).

разумного минимума, а также снижение деградации почв являются приоритетными задачами «зелёной» экономики в сельском хозяйстве. С целью сокращения использования химических веществ, повышения плодородия почвы и обеспечения доступа к высокодоходным экспортным рынкам для отечественной сельхозпродукции правительство страны стимулирует развитие органического земледелия.

Управление отходами и циклическая экономика. Программы по переработке отходов. В целях снижения зависимости от полигонов захоронения отходов ведётся активная работа по организации сортировочных, перерабатывающих и компостирующих комплексов. Президент Мирзиёев называет проекты в данном направлении «вопросом жизни и смерти», подчёркивая, что при правильном сборе и широкой переработке отходов повышается не только чистота окружающей среды, но и энергетическая стабильность. Ещё один важный аспект проблемы — сокращение выбросов вредных газов в окружающую среду при накоплении отходов. Ведь «каждый год с полигонов более 7 миллионов тонн парниковых газов поступают в атмосферу, а 43 тысячи тонн токсичного фильтрата загрязняют подземные воды»[125], что представляет серьёзную угрозу для экологического состояния страны и здоровья населения.

Размещение предприятий по производству строительных материалов или органических удобрений вблизи заводов по сжиганию отходов представляется весьма целесообразным шагом. Это не только стимулирует предпринимательскую активность за счёт эффективного использования переработанного сырья, но и способствует появлению новых видов продукции.

Следует отметить, что созданное в соответствии с указом Президента Агентство по управлению отходами и развитию циркулярной экономики взяло на себя задачу системной координации данного процесса. Посредством переработки, сжигания и обезвреживания отходов, а также внедрения циркулярной экономики, Агентство может играть важнейшую роль в улучшении общей экологической обстановки, профилактике заболеваний и диверсификации источников энергии и сырья.

Экологические стандарты в промышленных предприятиях. Внедрение на предприятиях международной системы экологического менеджмента ISO 14001, сокращение производственных отходов и контроль за выбросами вредных веществ в атмосферу — все это помогает минимизировать экологические риски, сопровождающие процессы ускоренной индустриализации.

Городское планирование и транспорт. «Зелёный» архитектурный подход в градостроительстве. При возведении новых жилых массивов крайне важно применять энергоэффективные конструкции, закладывать зелёные зоны и развивать экологическую инфраструктуру (например, велодорожки). Правительство Узбекистана в сотрудничестве с такими международными партнёрами по развитию, как Всемирный банк, Азиатский банк развития и Азиатский банк инфраструктурных инвестиций (АБИИ), поддерживает «зелёный» переход целого ряда средних городов республики, в

[125] «Рассмотрены проекты, нацеленные на обеспечение экологической стабильности». Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7627 (дата обращения: 31.01.2025).

том числе модернизацию зданий, озеленение, развитие общественного транспорта, а также совершенствование городской водной и энергетической инфраструктуры[126] [6, сборник Всемирного банка].

Экологически чистый транспорт. Использование электромобилей, газового и водородного топлива, а также развитие системы общественного транспорта — важнейшие факторы снижения загрязнённости воздуха в городских условиях.

Сохранение биологического разнообразия. Охраняемые территории. Расширение сети заповедных зон, обеспечивающих защиту экосистем и видов, находящихся под угрозой исчезновения.

Лесовосстановление. Масштабные инициативы по высадке деревьев направлены на борьбу с опустыниванием и повышение поглощения углерода.

Заключение. Главная цель стратегии Узбекистана до 2030 года — обеспечить устойчивое развитие за счёт внедрения «зелёной» экономики. Конечно, рост населения и экономики повышает спрос на природные ресурсы, но при этом крайне важно сохранить экологический баланс. Поэтому особое внимание уделяется энергоэффективности, использованию возобновляемых источников энергии, экологически чистым производственным процессам и международному сотрудничеству. При таком подходе «зелёная» экономика рассматривается не только как способ сохранения окружающей среды, но и как основа для долгосрочной экономической стабильности.

Список использованных работ:

1. «Рассмотрены меры по развитию электроэнергетики». Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7842 (дата обращения: 31.01.2025).

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года «Об утверждении Концепции перехода Республики Узбекистан на “зелёную экономику”» № PF–5853. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: https://lex.uz/docs/-4539502 (дата обращения: 31.01.2025).

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 «О Стратегии развития “Нового Узбекистана” на 2022–2026 годы» № PF–60. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5841063 (дата обращения: 31.01.2025).

4. «Новый Узбекистан открыт для широкого практического сотрудничества на пути устойчивого развития и “зелёного” прогресса». Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7815 (дата обращения: 31.01.2025).

5. «Рассмотрены проекты, нацеленные на обеспечение экологической стабильности». Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7627 (дата обращения: 31.01.2025).

[126] «Министерство экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан, Всемирный банк, Региональный экологический центр Центральной Азии, 2022 год. Цикл политических диалогов по “зелёному” росту и изменению климата в Узбекистане: сборник материалов. Всемирный банк: Вашингтон, округ Колумбия», стр. 7.

6. «Министерство экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан, Всемирный банк, Региональный экологический центр Центральной Азии, 2022 год. Цикл политических диалогов по “зелёному” росту и изменению климата в Узбекистане: сборник материалов. Всемирный банк: Вашингтон, округ Колумбия», стр. 7.

N.Q. Abulsaidov *– O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti*

“SUD TIZIMI” TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY TALQINI

Zamonaviy dunyoda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyat farovonligini oshirish hamda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash barcha davlatlar uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida sud-huquq tizimini jamiyat ehtiyojlari va zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, xalqaro standartlar hamda mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda izchil isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayon doirasida O‘zbekiston Respublikasi ham inson huquqlariga asoslangan fuqarolik jamiyati hamda huquqiy-demokratik davlat barpo etish yo‘lida jadal islohotlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, sud tizimining samaradorligini oshirish va uning faoliyatini takomillashtirish, boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekiston uchun ham doimiy e’tibor markazidagi masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Shu sababli, sudlarning sifatli faoliyat yuritishini ta'minlashda sud tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish uchun, avvalo, “sud tizimi” tushunchasining mazmun-mohiyatini anglash kerak bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, xorijlik va mahalliy tadqiqotchilarning “sud tizimi” tushunchasiga oid ilmiy qarashlari va yondashuvlari uning qamrov darajasi borasida bir-biridan farq qiladi.

Sud tizimi tushunchasini ilmiy jihatdan o‘rgangan tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilinishi natijasida mazkur tushunchaning **mazmuni qamrovi** jihatidan turli ma'noda qo‘llanilayotganligi ma'lum bo‘ldi. Ushbu olimlarni quyidagi **guruhlarga** bo‘lish mumkin:

1. “Sud tizimi” tushunchasini nisbatan “tor” ma'noda qo‘llovchi.
2. “Sud tizimi” tushunchasini “keng” ma'noda talqin qiluvchi.

Bizning nazarimizda, “sud tizimi” so‘zini “tor” ma'noda ta'riflagan mutaxassislarning mazkur qarashini “klassik yondashuv” deb tushunish mumkin. Chunki, dastlab, sud organlari, sud hokimiyati borasida davlatlarda olib borilgan siyosiy-huquqiy islohotlar davomida “sud hokimiyati” tushunchasi bilan birgalikda “sud tizimi” tushunchasi ham ilmiy-nazariy doirada o‘rganila boshlangan. Ammo ushbu yondashuv vakillarini faqatgina XIX yoki XX asr boshida tadqiqot qilgan mutaxassislar deya olmaymiz, chunki hozirgi davrda ham ilmiy doiralardagi har ikkala qarash vakillari o‘z ilmiy pozisiyalarini olg‘a surishmoqda.

Sud tizimini **tor ma'noda** talqin qilgan mutaxassislarga M.Yarova, G.Kirasirova, S.Ragozina, P.Guk., S.Potapenko, A.Danielyan, I.Gelieva, I.Dikova, D.Aripov, L.Savyuk, A.Izvarina, A.Nabatova, E.Karaeva, L.Mojaeva, E.Marina, I.Stepanov, A. Guskova, A.Shamardinlarni kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotchilar o‘z

ilmiy ishlarida sud tizimini sudyalar yoki sud organlari yig‘indisi sifatida tavsiflashgan. Faqat ularning qarashlarida mazkur tushunchaga aynan sudlov vakolatiga ega subyektlar kiritilgan bo‘lib, ularning ta’riflari qamrovi aynan sudlov funksiyasiga ega shaxslar doirasiga qaratilgan.

Shu bilan birgalikda, sud tizimiga nisbatan bu tarzda ta’rif bergan mutaxassislarni ham, o‘z navbatida, yana **ikki toifaga** bo‘lish mumkin:

Birinchi toifa – sud tizimini sud organlari majmuasi deb qarovchi;

Ikkinchi toifa – sud tizimini yanada torroq va aniqroq sohada ko‘rib, tizim subyektlarini individullashtirgan darajada baholagan mutaxassislar.

Birinchi toifaga yuqoridagi birinchi guruhdagi aksariyat tadiqotchilarni kiritish mumkin. Ularning qarashiga ko‘ra, sud tizimi aynan sudlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, ushbu vazifaga mas’ul qilingan organlar – sudlar yig‘indisi bo‘lib, ushbu organlar o‘zaro aloqadorlikda ish yuritadi. Bu yerda, asosiy e'tibor aynan institutlarga qaratilgan bo‘lib, tushuncha mazmunini yoritishda tadqiqotchilar tashkilotlarning (sud) maqomiga birlamchi urg‘u berishadi.

Ushbu holatda, **ikkinchi toifaga** rus tadqiqotchisi A.Izvarina va mahalliy olim D.Aripovni kiritish mumkin. Xususan, A.Izvarina sud tizimini mustaqil sudlar va ularda faoliyat yurituvchi **sudyalarning birlashmasi**, deb[127] izohlasa, sud hokimiyati atamasiga ilmiy ta'rif bergan D.Aripov sud hokimiyatini “...sudyalardan tashkil topgan **sud organlari tizimi**”[128] deb ta'rif beradi. Ya'ni ushbu ta'rifga ko‘ra, sud organlari tizimigina sud hokimiyatini tashkil qiladi, sud hokimiyati aynan sud organlarida gavdalanadi.

Bizningcha, birinchi toifa tadqiqotchilari qarashlarining ikkinchisidan farqli jihati asosan shundaki, ular sud tizimi tushunchasini yoritishda sud organlarining roliga birlamchi darajada qarashgan. Chunki sudlarda nafaqat sudyalar, balki, sudlov faoliyatiga turli darajada ko‘maklashuvchi mansabdor shaxslar (bo‘lim va boshqarma boshliqlari), sud xodimlari va boshqa mutaxassislar ham doimiy faoliyat yuritadi. Shu sababli, agar, ushbu tadqiqotchilarning ta'riflari mazmuniga chuqurroq yondashilsa, anglash mumkinki, sud tizimi doirasiga nafaqat sudyalar korpusi, balki, umuman, sud apparati vakillari ham kiradi.

“Sud tizimi” tushunchasini **“keng” ma'noda** talqin qiluvchi tadqiqotchilar guruhiga I.Noskov, E.Burdina, I.Nikonov, V.Levin, Y.Gaydidey, O.Kapustin, F.Muxitdinova kabi olimlarni kiritish mumkin. Mazkur mualliflar o‘z asarlarida sud tizimiga nafaqat sudyalar korpuslari yoki sud organlari, balki, sudlov faoliyatiga ko‘mak beruvchi, ularning ish yuritishini turli zaruriy kuch va vositalar bilan ta'minlovchi, tashkiliy-moddiy va boshqa sohadagi masalalar bilan shug‘ullanuvchi organlar, idora va muassalar hamda sud hamjamiyati organlarini ham kiritadilar. Masalan, I.Noskov sud tizimiga sudlar, ularning faoliyatini ta'minlovchi organlar va sudyalar hamjamiyati organlari birlashtiruvchi tushuncha deb baho bergan. F.Muxitdinovaga ko‘ra esa sud tizimi o‘zgaruvchan xususiyaga egadir. U sud hokimiyatini faqatgina odil sudlovdan iborat emas[129], deb sud tizimini esa sud

[127] Qarang: Изварина А. “Судебная система России: концептуальные основы организации, развития и совершенствования”. – М. Монография. 2014. 303 стр.

[128] Qarang: Арипов Д. “Суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашнинг назарий ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш”. – Т. Мақола. Одиллик мезони. 3-сон. 2019. 15 б.

[129] Qarang: Мухитдинова Ф. “Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимиятининг қарор топиши ва ривожланиши”. Автореферат. 2011. 47 стр. // https://api.ziyonet.uz/uploads/books/ 493912/ 56d6b748328c3.pdf

hokimiyatini tashkil etish shakli deb qaraydi. E.Burdina va I.Nikonov esa sud hamjamiyati organlarini ham sud tizimiga kiritishadi.

Bizning fikrimizcha, mazkur tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari, sud tizimi tushunchasini ilmiy sharhlashda ko‘proq ma’noni o‘zida qamrovchi ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, sud tizimini bizning nazarimizdagi nisbiy “tor” va “keng” ma'noda talqin qilishda asosiy omil bo‘lib, sud tizimiga **sudlov faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan elementlarning kirish-kirmasligi** bo‘yicha qarashlarning turfa xilligi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, sud tizimi tushunchasi mazmuni, dastlab, aynan sud organlari faoliyatining tashkiliy holatini ifodalashda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, sudlov faoliyatining samaradorligini oshirish va sudlar mustaqilligini ta'minlashga oid nazariy qarashlar va huquqiy islohotlarning kengayishi sharoitida ushbu tushunchaning qo‘llanilish qamrovi ham kengayib borgan.

Sud tizimi tushunchasi rus tilida “sistema sudov”, ingliz tilida “court system” tarzida qo‘llanilganda, aynan tor ma’noda – “sudlar yig‘indisi” ma'nosini aks ettiradi. Ammo ushbu tillardagi “sudebnaya sistema” va “judicial system” so‘zini qo‘llashda bugungi kunda turli yondashuvlar kelib chiqmoqda. Mazkur xilma-xillik o‘zbek tilidagi manbalarda ham mavjud.

Bizningcha, sud tizimiga faqatgina sudlov vakolatiga ega organlarni kiritish ham huquqiy, ham nazariy jihatdan to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki sud tizimi bevosita sud vakolatini amalga oshiruvchi, huquqiy va tashkiliy jihatdan o‘zaro munosabatda va bog‘liqlikda bo‘lgan subyektlarning yig‘indisidir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-703-sonli Qonunining 2-moddasida ham haqli ravishda “O‘zbekiston Respublikasida sud tizimining aynan “...**sudlardan** iborat”ligi ko‘rsatilgan[130]. Mazkur huquqiy yondashuv oldingi tahrirdagi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida, shuningdek, eski tahrirdagi Konstitusiyaning 107-moddasida ham aks etgan edi.

Shu bilan birgalikda, sud tizimi tushunchasining keng ma’noda qo‘llanilishi masalasini o‘rganishda ushbu yondashuvning **hokimiyatlar bo‘linishi tamoyiliasosida** sud hokimiyatining qamrovi doirasi bilan muvofiq kelishini ham qayd etish zarur. Mazkur prinsipga tayanilsa, sud hokimiyati sudlar faoliyati bilan bog‘liq barcha institutlar va munosabatlarni qamrab oladi. Masalan, sud hamjamiyati organlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi ham hokimiyatning ushbu tarmog‘iga kiradi. Mazkur holatda, ushbu tashkilotning sudyalar daxlsizligini ta’minlash, sudyalarni tanlab olish, lavozimiga qo‘yish, lavozimidan olish borasidagi vakolatlari uning ham sud hokimiyati doirasida chinakam davlat-boshqaruv va nazorat funksiyalariga, ya'ni qonunchilik bilan vakolat berilgan **hokimiyat vakolati belgilariga egaligini ko‘rsatadi.**

Shu bilan birgalikda, bizning nazarimizda, sud hokimiyatini ham o‘z tarkibiga turli quyi tizim va elementlarni qamrab olgan tizim sifatida ko‘rish mumkin bo‘ladi. Bu holatda, ushbu tizimni **“sud hokimiyati organlari tizimi”** deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi. Mazkur tizim esa, funksional va institusional jihatdan qaraganda, o‘z tarkibiga ikki toifadagi tarkibiy qismlarni jamlaydi:

1. Barcha sudlar;

[130] Qarang: Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги 28.07.2021 йилги ЎРҚ-703-сонли Қонуни.// https://lex.uz/docs/5534923

2. Sudlov vakolatiga ega bo‘lmasa-da, sudlar faoliyatiga ko‘maklashuvchi, sud ish yurituvini turli ko‘rinishda tashkiliy jihatdan ta'minlovchi institutlar.

Aynan ushbu holatda, sud hokimiyati organlari tizimi, ayrim tadqiqotchilar qo‘llab-quvvatlaganidek, **davlat mexanizmining tarkibiy elementi, sud hokimiyatining tashkiliy modeli, tashkiliy muhiti** sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday tavsif, aslida, “sud tizimi” tushunchasini keng ma'noda yoritgan yuqoridagi ta'riflarga (V.Levin, I.Noskov, Yu.Gaydidey, E.Burdina, O.Kapustin va boshqalar) aynan muvofiq keladi. Faqat tushunchani “sud tizimi” deb emas, balki, “sud hokimiyati organlari tizimi” deb atalishi maqsadga muvofiq.

Ayrim mualliflar tomonidan tor ma'noda – sud organlari majmuasi sifatida ko‘rilgan sud tizimini esa o‘z o‘rnida qo‘llashda davom etish to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, bizningcha sud tizimi – bu nafaqat sudlov faoliyat bilan shug‘ullanuvchi organlar – sudlar yig‘indisi, balki, ushbu tashkilotlar faoliyatida doimiy mavjud bo‘lgan turli sohadagi (sudlar faoliyatini institusional jihatdan tashkil etish, kadrlar bilan ishlash, raqamlashtirish, syd hujjatlarini ijro qilish va boshqa) tashkiliy jarayonlar, munosabatlar doirasi hamdir.

O‘ylaymizki, yuqorida taklif qilingan ilmiy tahlillar sud tizimi va sud hokimiyatiga doir masalalarni to‘g‘ri tahlil qilishda foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Изварина А. “Судебная система России: концептуальные основы организации, развития и совершенствования”. – М. Монография. 2014. 303 с.

2. Арипов Д. “Суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашнинг назарий ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш”. – Т. Мақола. Одиллик мезони. 3-сон. 2019. 15 б.

3. Мухитдинова Ф. “Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимиятининг қарор топиши ва ривожланиши”. Автореферат. 2011. 47 стр. // https://api.ziyonet.uz/uploads/books/493912/56d6b748328c3.pdf

4. Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги 28.07.2021 йилги ЎРҚ-703-сонли Қонуни.// https://lex.uz/docs/5534923

J.F. Yunusov *– O‘zbekiston milliy universiteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi magistranti*

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PREZIDENTLIK INSTITUTINING ROLI

Zamonaviy davlatlarning aksariyati boshqaruvning respublika shaklini qabul qilgan bo‘lib, bu tizimda davlat hokimiyati ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha saylangan oliy organlar orqali amalga oshiriladi. Prezidentlik instituti respublika boshqaruv shaklidagi davlatlarda davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Demokratik paradigma doirasida prezidentlik instituti xalq suverenitetining timsoli sifatida qaraladi, chunki u umumxalq saylovlari yoki vakillik organlari vositasida fuqarolarning kollektiv irodasini ifoda etishga qodir mexanizmni ta’minlaydi. Ushbu jarayon davlat rahbarini tanlashda eng loyiq nomzodga ovoz berish imkonini beradi.

“Prezident” so‘zi lotincha “praesidens” so‘zidan kelib chiqib, so‘zma-so‘z tarjimasi “oldinda o‘tiruvchi” (antik davrlarda turli xil majlislarda raislik qiluvchililarni president deb atashgan) ma’nosini anglatadi. Prezident so‘zi yuridik

termin sifatida, qadimgi Afina va Rim respublikalari davridan qo‘llanilganligi ma’lum. Bu termin ilk demokratiya shakli hisoblangan kollegial organlar majlislarida raislik qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Bu so‘zning dastlabki ma’nosidan keyinchalik, masalan, senatorlar raisi kabi lavozimlar paydo bo‘lgan. Aynan davlat rahbari sifatida “president” atamasi yunon va rim respublikalarida, shuningdek, Angliya va Niderlandiyadagi dastlabki burjua respublikalarida ishlatilmagan[131]. Biroq, zamonaviy ma’noda prezidentlik instituti birinchi marta Amerika Qo‘shma Shtatlarida (AQSh) 1787-yilda Filadelfiyadagi Konstitutsiyaviy Konventda shakllandi. AQShning dastlabki boshqaruv tizimida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar Kontinental Kongress qo‘lida jamlangan edi. Ushbu tuzumda prezident faqat yig‘ilishlarda raislik qilish bilan cheklangan edi. Ammo keyinchalik, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarni ajratish zarurati tufayli, AQSh Konstitutsiyasi loyihasi ishlab chiqilganda Prezidentlik instituti yagona ijro hokimiyati sifatida mustahkamlandi.

AQSh Konstitutsiyasi mualliflari ijro hokimiyatini unitar xarakterga ega qilib, uni bir shaxsda jamlaydi. Bu qaror monarxiyaga qarshi respublikanizm tamoyillariga asoslangan edi, chunki Shimoliy Amerika shtatlari monarxiya boshqaruv shaklidan voz kechgan edi[132]. Prezidentning vakolat muddati to‘rt yil etib belgilandi, bu davlat rahbariga o‘zini namoyon qilish uchun yetarli vaqt berar, lekin hokimiyatning uzoq muddatli monopoliyasini oldini olar edi. AQSh modeli Prezidentlik institutining zamonaviy shaklining poydevoriga aylandi va keyinchalik global miqyosda tarqaldi[133].

AQSh tajribasi Prezidentlik institutining dunyo miqyosida tarqalishida muhim rol o‘ynadi. XIX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari AQSh modelini qabul qilib, o‘ziga xos xususiyatlar bilan boyitdi. Bu davlatlarda Prezidentlik instituti yuqori darajada markazlashgan tuzum sifatida shakllandi, lekin mahalliy siyosiy-madaniy sharoitlar uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Yevropada esa Prezidentlik instituti birinchi marta 1848-yilda Fransiya va Shveytsariyada joriy etildi. Fransiyada Prezident ijro hokimiyatining rahbari sifatida keng vakolatlarga ega bo‘ldi, Shveytsariyada esa Federal Kengashning bir yillik muddatga saylanadigan raisi sifatida cheklangan funksiyalar bilan ta’minlandi.

XX asr Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari davrida ko‘plab yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi, ularda Prezidentlik instituti turli shakllarda qo‘llanildi. Masalan, Avstriya, Chexoslovakiya, Polsha va Turkiyada Prezident davlat rahbari sifatida mustahkamlandi. Osiyo va Afrika mamlakatlarida mustaqillikdan keyingi davrda Prezidentlik instituti mahalliy an’analar va siyosiy sharoitlar bilan uyg‘unlashdi. Xususan, Afrika davlatlarida Prezidentlik instituti ko‘pincha mustamlakachilikdan meros qolgan tuzumlarga asoslandi va jamiyatning etnik-madaniy xususiyatlari bilan boyidi.

Prezidentlik institutining huquqiy ta’rifi yuridik fanlarda keng muhokama qilinadi. Yuridik fanlari doktori M. Mirakulov Prezidentlik institutini “lavozimni ta’sis etish, saylov jarayoni, lavozimga kirishish, funksiya va vakolatlar, faoliyat kafolatlari hamda mas’uliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi” deb ta’riflaydi[134].

[131] Сахаров Н. А. Институт президентства в современном мире. – М.: Юридическая литература. – 1994. – С. 5.
[132] Паречина С. Г. Институт президентства: история и современность. – Минск, 2003. – С. 277.
[133] Майлыбаев Б.А. Сроки президентства как политическая проблема. – М.: Право и политика, 2001. – С. 21.
[134] Mirakulov M.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi (qiyosiy-huquqiy tahlil): yuridik fanlar dok. diss. avtoreferati. – Toshkent.: 2016. – 14 b.

Bu ta’rif Prezidentlik institutining davlat boshqaruvi tizimidagi kompleks rolini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasida Prezidentlik instituti 1990-yil 24-martda ta’sis etildi. Bu qaror mamlakatning suverenitetini mustahkamlash, demokratik jarayonlarni rivojlantirish va davlat hokimiyatining yangi tuzimini shakllantirish maqsadida qabul qilindi. O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ichida Prezidentlik institutini birinchi bo‘lib joriy etgan davlat sifatida tarixga kirdi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Prezidentlik institutining huquqiy asoslarini mustahkamladi va uni davlat hokimiyati tizimining markaziy qismi sifatida belgiladi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘z asarida ta’kidlaganidek, “Prezidentlik instituti yangi O‘zbekiston davlat hokimiyati tizimida markaziy o‘rinni egalladi va siyosiy tizimning o‘zagi sifatida barqarorlik hamda islohotlarning kafolatiga aylandi”[135]. Prezidentlik instituti O‘zbekistonda milliy qadimiyatlar va demokratik tamoyillarning sintezi sifatida shakllandi. U davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va mamlakatni rivojlanish yo‘lida boshqarish vazifalarini o‘z zimmasiga oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga ko‘ra, Prezident davlat rahbari sifatida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini belgilaydi, fuqarolar huquqlari va erkinliklarining kafili hisoblanadi hamda davlat hokimiyati organlarining kelishilgan faoliyatini ta’minlaydi. Konstitutsiyaning 106-moddasi Prezidentning umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan yetti yil muddatga saylanishini belgilaydi. Bu jarayon Prezidentlik institutining demokratik legitimligini ta’minlaydi va xalq suverenitetini ifodalaydi.

Prezidentning vakolatlari quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- **Davlat siyosatini shakllantirish**: Prezident Oliy Majlisga qonun loyihalarini kiritish, qonunlarni tasdiqlash yoki veto qo‘yish huquqiga ega.
- **Ijro hokimiyatini boshqarish**: Vazirlar Mahkamasini shakllantirish va mahalliy hokimiyat rahbarlarini tayinlash Prezidentning prerogativi hisoblanadi.
- **Xavfsizlik va mudofaa**: Prezident Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh Qo‘mondoni sifatida milliy xavfsizlikni ta’minlaydi.
- **Xalqaro munosabatlar**: Prezident davlat nomidan xalqaro shartnomalar imzolaydi va mamlakatning global miqyosdagi pozitsiyasini belgilaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Oliy Majlis oldida “O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilish” qasamyodini qabul qilib, o‘z faoliyatining demokratik asoslarini tasdiqlaydi. Bu qasamyod Prezidentlik institutining xalq manfaatlariga xizmat qilish prinsipini mustahkamlaydi.

O‘zbekistonda Prezidentlik saylovlari davlat boshqaruvida fuqarolarning bevosita ishtirokini ta’minlovchi muhim demokratik institut sifatida tashkil etiladi. Saylov jarayoni ochiq, shaffof va adolatli o‘tkazilishi uchun maxsus huquqiy mexanizmlar joriy etilgan. Masalan:

- Saylov komissiyasi a’zolari nomzodlar yoki siyosiy partiyalar bilan manfaatlar to‘qnashuvidan xoli bo‘lishi shart.
- Saylov moliyaviy ta’minoti davlat hisobidan amalga oshiriladi va barcha nomzodlarga teng sharoitlar yaratiladi.

[135] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 140.

• Nomzodlar uchun efir vaqti va bosma maydon davlat tomonidan teng taqsimlanadi, bu esa saylovoldi tashviqotining adolatli o‘tishini kafolatlaydi.

O‘zbekistonda Prezidentlik saylovlari o‘rtacha 90 foiz ishtirok bilan o‘tkaziladi, bu xalqning davlat rahbariga bo‘lgan yuqori ishonchini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich jahonning ko‘plab davlatlarida 50-60 foizdan oshmaydigan holatni hisobga olsak, O‘zbekiston tajribasining o‘ziga xosligini tasdiqlaydi. Prezidentning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalq tomonidan saylanishi fuqarolarga nomzodlarning saylovoldi dasturlari bilan tanishish va davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

2016-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelgach, Prezidentlik instituti yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. “Xalq bilan muloqot” tizimi joriy etilib, Prezident fuqarolar bilan bevosita aloqa o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Virtual qabulxonalar orqali millionlab murojaatlarni qabul qilish va ularni hal etish Prezidentlik institutining xalqqa yaqinlashuvini ta’minladi. Ushbu tashabbus Prezidentning nafaqat siyosiy rahbar, balki jamiyat ehtiyojlarini ifodalovchi institut sifatida rolini oshirdi.

Prezidentlik instituti iqtisodiy liberallashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi strategik islohotlarning asosiy tashabbuskori sifatida faoliyat yuritmoqda. Masalan, “E-xizmat” portali orqali fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifati oshirilib, davlat boshqaruvi samaradorligi yangi darajaga ko‘tarildi. Shu bilan birga, Prezident Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikni kuchaytirib, davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni mustahkamladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Prezidentlik instituti zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida bu institut davlat hokimiyatining markaziy tayanchi sifatida shakllandi. AQShda 1787-yilda boshlangan Prezidentlik modeli global miqyosda rivojlanib, O‘zbekistonda 1990-yilda o‘ziga xos milliy xususiyatlar bilan joriy etildi. O‘zbekiston Prezidentlik instituti demokratik saylovlar orqali xalq irodasini ifoda etish, davlat hokimiyati organlari o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash va mamlakatni rivojlanish yo‘lida boshqarish kabi strategik vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston tajribasi Prezidentlik institutining milliy qadimiyatlar va demokratik standartlar sintezi asosida rivojlanishini ko‘rsatadi. Mustaqillik yillarida Prezidentlik instituti barqarorlik va islohotlarning kafili sifatida xizmat qildi, hozirgi davrda esa xalqqa yaqin, ochiq va samarali boshqaruv modeliga aylandi. Kelajakda Prezidentlik instituti O‘zbekistonning global miqyosdagi o‘rnini mustahkamlash va xalq farovonligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 140.

2. Сахаров Н. А. Институт президентства в современном мире. – М.: Юридическая литература. – 1994. – С. 5.

3. Паречина С. Г. Институт президентства: история и современность. – Минск, 2003. – С. 277.

4. Майлыбаев Б.А. Сроки президентства как политическая проблема. – М.: Право и политика, 2001. – С. 21.

5. Mirakulov M.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi (qiyosiy-huquqiy tahlil): yuridik fanlar dok. diss. avtoreferati. – Toshkent.: 2016. – 14 b.

R.M.G‘afurov *– O‘zbekiston milliy universiteti magistranti*

PREZIDENTLIK INSTITUTI TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

Prezidentlik institutining vujudga kelishi tarixiga nazar tashlasak, qadimda **“Prezident”** atamasi asosan turli yig‘ilishlarda raislik qiluvchilarga nisbatan qo‘llanilgan. Keyinchalik bu tushuncha “Senat prezidenti” kabi lavozimlarni ifodalash darajasida rivojlangan. Ammo bugungi kun ma’nosida, ya’ni davlat rahbari sifatida “Prezident” atamasi yunon va Rim respublikalari davrida ham, ilk burjua respublikalari Angliya va Niderlandiyada ham ishlatilmagan[136].

“Prezident” so‘zi lotincha “praesidens” so‘zidan kelib chiqib, so‘zma-so‘z tarjimasi ***“oldinda o‘tiruvchi”*** ma’nosini anglatadi[137]. Birinchi marta “president” lavozimi Amerika mustaqilligi uchun urush davomida qo‘llanila boshlangan. Unda Jorj Vashington dastlab “Kontinental kongress prezidenti” – Britaniya tojiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan shtatlar vakillari yig‘ilishini boshqargan. Faqatgina 1787-yilgi konstitutsiya ishlab chiqilishi jarayonida “President” unvoni boshqaruv qilayotgan organdan (Kongress) ajratilib, davlatga nisbatan qo‘llanila boshlandi.

Keyinchalik prezidentlik instituti AQShdan Lotin Amerikasi mamlakatlariga tarqalgan. Yevropa davlatlari orasida esa birinchi bo‘lib Prezident lavozimini Fransiya va Shveysariya 1848-yilda joriy qilgan. Ammo bu institut eng keng tarqalgan davr 20-asrga mustamlakachilik imperiyalari parchalangan va mustaqil davlatlar shakllangan davrga to‘g‘ri keladi. Prezidentlik instituti o‘rganish uchun dastlab uning huquqiy jihatlarini anglash juda muhim sanaladi.

Prezidentlik instituti murakkab ichki tuzilishga ega bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topadi: 1) prezident saylovini, lavozimga kirishishi (*inagurasiya*) tartibini belgilab beradigan, 2) prezidentning davlat hokimiyati oliy organlari tuzilmasidagi tugan xolati (*konstitusiyaviy maqomi tuzilmaviy jihat sifatida*), 3) prezidentning funksiyalari va vakolatlari (*konstitusiyaviy maqomi funksional jihatdan*), 4) prezident vakolatlarining tugashini belgilaydigan huquqiy normalardan iborat[138]. Mazkur mazmunda prezidentlik instituti konstitusiyaviy huquqning institutlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi konstitusiyaviy-huquqiy normalar yig‘indisi sifatida ko‘riladi.

V.A Shatilo prezidentlik institutiga prezident saylovi, prezident funksiya va vakolatlari, vakolat muddati va uni tugashi tartibi, konstitusiyaviy-huquqiy mas’uliyati, shuningdek Prezident huzuridagi muassasalar faoliyatini tartibga soluvchi normalar tizimi deya ta’rif beradi[139]. Agar ushbu ta’rifiga e’tibor qaratsak unda prezidentlik instituti faqatgini prezidentning o‘zi bilan bog‘liq bo‘libgina

[136] Яшкова Т.А. определение и содержание термина «институт президентства» Институт экономики, управления и права Российского государственного гуманитарного университета, г. Москва – 2017. С 119.
[137] Сахаров Н.А. Институт президентства в современном мире. М., 1994. – С.5.
[138] Елисеев Б.П. Институт Президента Российской Федерасии: Автореф. дис. ... канд. - М., 1992. -С. 10.
[139] Шатили В.А. Теоретические проблемы института президентства в Украине. Автосф. дис. кан. юр. н. - Клов, 2005-С.19.

qolmay, “prezident adminstratsiyasi(*ayrim davlatlarda prezident devoni*)”, “prezident maslahatchilari” kabilarni ham o‘z ichiga qamrab oluvchi murakkab institut deb aytish mumkin.

“Prezident” atamasini aniqlashda ham turli xil yondashuvlar mavjud. Umumijtimoiy yondashuvga ko‘ra “president” tushunchasi mazmunida birinchi navbatda prezidentlik lavozimini joriy etish shartlari va sabablari, uning ijtimoiy tayanchlari va ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri o‘rganiladi[140]. Siyosiy yondashuv esa “president” kategoriyasini davlatdagi muayyan siyosiy vaziyat asosida ma’nosi ochib berishga yo‘naltirilgan. Bunda prezidentning partiyaviy mansubligi, uning siyosiy qarashlari va mayllari, davlatni boshqarishni qo‘llab-quvvatlashdagi real siyosiy nufuzi va alohida davlat tuzilmalariga ta’siri jiddiy ahamiyat kasb etadi[141].

Jahonda umum qabul qilingan va ilmiy adabiyotlarda ham “prezidentlik instituti” so‘zlari keng qo‘llaniladi. M.Mirakulov fikricha, prezidentlik instituti murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, quyidagi 8 guruh konstitusiyaviy-huquqiy normalardan tashkil topadi: 1) Prezident lavozimini ta’sis etadigan; 2) Prezident saylovi (*xususan, prezidentlikka bo‘lajak nomzod, partiya yuqori organida ko‘rsatilgan nomzod, ro‘yxatga olingan nomzod; saylangan, biroq lavozimga kirishmagan Prezident huquqiy maqomi*); 3) prezidentning lavozimga kirishish (*inagurasiya*) tartibi; 4) Prezident funksiya va vakolatlari; 5) Prezident, xususan eks-Prezident faoliyatining huquqiy, tashkiliy, moddiy, ijtimoiy kafolatlari; 6) Prezident vakolatlari tugashining asoslari va tartibi; 7) Prezident vakolatlarini vaqtincha bajarib turish asoslari va tartibi; 8) mas’uliyat asoslari va ularni qo‘llash tartibi. Shu ma’noda, prezidentlik instituti mazkur lavozimni ta’sis etish va Prezident saylovi, lavozimga kirishishi, funksiya va vakolatlari, faoliyatining kafolatlari hamda mas’uliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yigindisidir[142].

Shuningdek, “Prezident saylanuvchi davlat boshlig‘i bo‘lib, u ijro hokimiyati tizimini boshqarishi yoki hokimiyat tarmoqlari bo‘linishi tizimida hakam bo‘lishi mumkin; tashkiliy jihatdan prezidentning hech kimga bo‘ysunmasligi va davlat hokimiyatining boshqa organlaridan yuqori darajada mustaqil ekanligi; Prezident lavozimi ochiq tarzda siyosiy tusga egaligi, unga davlat siyosatini shakllantirishda muhim o‘rin berilishi, davlat ishlarida oliy siyosiy rahbarlik; oliy mansabdor shaxs sifatida Prezident davlatda o‘ta muhim vakolatlarga egaligi, xususan ulardan biri sifatida qonunosti normativ-xujjatlar qabul qiladi[143].

Fikrimizcha prezidentlik institutini to‘liq tushunish uchun, siyosiy institutlarning mohiyatini aniqlash zarur. Siyosiy institutni har qanday siyosiy tizimning muhim tarkibiy birligi bo‘lgan ko‘p qirrali fenomen sifatida tavsiflash mumkin.

Siyosatshunoslikda institut deganda, quyidagilar tushuniladi: 1) siyosiy tashkilot – insonning siyosiy sohadagi faoliyatini belgilovchi va tartibga soluvchi

[140] Neustadt R. Presidential power and the modern presidents: the politics of leadership from Roosevelt to Reagan-New York: The Free Press, A Division of Macmillan, Inc, 1990. P.3-5.

[141] Шугарт М., Кэри Д. Президентские системы // Современная сравнительная политология. – М., 1997. – С. 198-246

[142] Mirakulov M.M. "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi (qiyosiy-huquqiy tahlil): doktorlik dissertasiyasi avtoreferati." // 12.00.02 – Konstitusiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya va bojxona huquqi. – Toshkent, 2016. – 14 b.

[143] Хутинаев И.Д. Институционализация органов государственной власти Российской Федерации. дисс... докт. юрид. наук. – М., 2006. - С.113; Дегтев Г.В. Становление и развитие института президентства в России. Теоретико-правовые и конституционные основы. - М.: Юрист, 2005. – С. 27.

rasmiy va norasmiy tamoyillar, normalar, qoidalar majmui; 2) siyosiy tashkilot yoki muassasa, tashkilot – ma'lum bir tarzda tashkil etilgan odamlar birlashmasi, har qanday siyosiy tuzilma; 3) siyosiy xulq-atvorning barqaror turi, kollektiv harakatlar tizimi, protsedura, mexanizm tarzida ifodalanadi.

Aynan prezident instituti haqida gapirganda, uning ta'riflari va ta'rifi bo'yicha yagona pozitsiyaning yo'qligini ta'kidlash muhim. Asosiy muammo, "institut" kengroq tushunchasidagi kabi, ba'zi mualliflar Prezident institutini davlat boshlig'ining faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar va rasmiy normalar to'plami sifatida belgilasa, boshqalari unga Prezident hokimiyati bilan bog'liq tashkilotlar va strukturalarni ham qo'shadilar.

Yu.M. Solozobovning ta'rifiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki uning fikricha, *"prezidentlik nafaqat davlatdagi eng yuqori lavozimdagi shaxsni, balki prezident hokimiyatining faoliyatini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy normalarni ham o'z ichiga oladi"*. Bundan tashqari, Prezident institutini tashkil etuvchi elementlar qatoriga quyidagilar kiradi: konstitutsiyaviy amaliyot natijasida yuzaga kelgan pretsedentlar(*o'zidan keyin sodir bo'ladigan xuddi shu turdagi voqealarga namuna, o'rnak bo'la oladigan voqea hodisa*); davlatdagi siyosiy kuchlar nisbati natijasida vujudga kelgan haqiqiy vakolatlar hajmi; turli struktural bo'linmalar[144]. Shu o'rinda savol tug'ulishi mumkin, masalan Prezidentlik institutining tarkibiga uning huzuridagi qanday muassasalar kiritilishi mumkun. Bu savolga V.Shatiloning huquqiy ta'rifidan kelib chiqgan holda prezidentning konstitutsiyon vazifa vakolatlarini samarali amalga oshirishda ko'makchi bo'luvchi asosiy yordamchi organlar *(Misol uchun: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga boshchilik qiladi, o'z vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat-kengash organlarini va boshqa organlarni shakllantiradi;)*ni kiritish o'rinli deb bilamiz. Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olgan holda, Prezidentlik instituti bu - rasmiy belgilangan qoidalar asosida faoliyat yuritadigan va o'z ichiga davlat rahbarining o'zi bilan bir qatorda yordamchi organlar va tuzilmalarni (xavfsizlik kengashi, adminstratsiya, maslahat organi) qamrab oladigan hokimiyatning oliy organi" sifatida ta'riflash mumkin. Bu tuzilmalar davlat rahbariga siyosiy tizimdagi o'z rolini eng samarali tarzda bajarishga imkon beradi.

Prezident institutining boshqa siyosiy institutlardan ajralib turuvchi muhim xususiyati shundaki, u eng muhim ijtimoiy-madaniy vazifani bajaradi va xalq birligining ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu vazifa prezidentning siyosiy tizimdagi o'rni va roli qanday bo'lishidan qat'i nazar (respublika boshqaruvining barcha shakllarida) saqlanib qoladi va u eng muhim funksiyalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, M.A. Krasnovning[145] qarashlari qiziqarli, uning fikriga ko'ra, davlat boshlig'i (prezident instituti) chuqur ma'noda "otalik" g'oyasining ongsiz qabul qilinishini ifodalaydi. Berilgan nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlagan holda, shuni qo'shimcha qilish kerakki, Prezident instituti elementlarining ana shunday majmuasi

[144] Солозобов Ю.М. Пути назад нет. Пути трансформации института президентства в ходе второй легислатуры Путина/Политика и политология: актуальный ракурс. Под общ. ред. И.А. Батаниной, М.Ю.Мизулина. – Москва – Тула: Изд-во ТулГУ, 2005. – С.177

[145] Краснов М. А. Глава государства: рецепция идеи «отцовства» // Общественные науки и современность. – 2008. – № 6. – С.33

uni faqat yuqoridagi yoki boshqa institut tushunchalaridan biri doirasida koʻrib chiqishga imkon bermaydi.

Xususan, Prezidentlik institutini faqat mustahkamlangan me'yorlar va qoidalar majmuasi sifatida koʻrib chiqish unchalik toʻgʻri boʻlmaydi, chunki uning muhim tarkibiy qismiga qator organlar va tuzilmalar (masalan, prezident administratsiyasi) kiradi, ular uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Shu bilan birga, Prezidentlik institutini tashkilot yoki organlar va tuzilmalar yigʻindisi sifatida ham koʻrib chiqish notoʻgʻri boʻladi, chunki Prezidentlik institutining asosiy tarkibiy qismi uning faoliyat yuritishi va tarkibidagi organlar va tuzilmalarni shakllantirish asosida belgilangan muayyan qoidalar va me'yorlar majmuasidir. Shunday qilib, mazkur institut oʻzida belgilangan qoidalar va me'yorlar majmuasini, siyosiy tashkilotlarni, tuzilmalarni va, albatta, prezidentning oʻzini birlashtiradi.

Prezidentlik institutini oʻrganishda boshqaruv shakli va boshqaruv tizimi kabi siyosiy tizim komponentlarini chetlab oʻtishning iloji yoʻq.

Boshqaruv shakli oliy davlat hokimiyati shakllanish usulini aniqlaydi, ya'ni u saylovli yoki merosiy boʻlishi mumkin. Boshqaruv tizimi esa oliy davlat hokimiyati organlari tizimidagi kuchlar muvozanatini belgilash orqali ma'lum boshqaruv shakllarining xilma-xilligini farqlash imkonini beradi. I.D. Xutinaevning fikricha, boshqaruv tizimi davlatda oliy hokimiyatning tashkil etilishi boʻlib, u "oliy davlat organlarining tuzilishi, oʻzaro aloqasi va oʻzaro bogʻliqligi hamda shakllanish usullarida" namoyon boʻladi. Bunda barcha hokimiyat tuzilmalari boshqaruv tizimini aniqlashga bir xil darajada ta'sir koʻrsatmaydi. Bu erda asosiy rolni aynan davlat rahbari va uning davlat hokimiyati tizimidagi huquqiy maqomi oʻynaydi.[146] Prezident instituti va boshqaruv tizimi oʻrtasidagi bogʻliqlik shu qadar kuchli boʻlib, koʻpincha prezidentlik instituti va boshqaruv tizimlari tasnifini bir-biri bilan aralashtirib yuborishadi. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv tizimi prezidentlik instituti modeliga qaraganda ancha murakkab hodisadir va buni bir-biriga tenglashtirib boʻlmaydi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda Respublika boshqaruv shakllarining birortasining tasnifini mavjud boshqaruv tizimlarining barcha xilma-xilligini toʻliq oʻzida aks ettiruvchi yoki universal deb atash qiyin. Prezidentlik instituti mamlakatimiz davlat qurilishida nisbatan yangi konstitusiyaviy institut xisoblanib, "Prezident" tushunchasi konstitusiyaviy-huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatishi, aynan shuning uchun bu institut jahon davlat huquqiy amaliyotida keng qoʻllanilganligi, Prezident davlatni jipslantirish, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlovchi oliy siyosiy intitut ekanligini ta'kidlash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яшкова Т.А. определение и содержание термина «институт президентства» Институт экономики, управления и права Российского государственного гуманитарного университета, г. Москва – 2017. С 119.

2. Сахаров Н.А. Институт президентства в современном мире. – М., 1994. – С.5.

[146] Хутинаев И.Д. Институт Президента и проблемы формы государства // Реферативный журнал. Серия «Государство и право». – 1995. – № 2. – С.8–9

3. Елисеев Б.П. Институт Президента Российской Федерасии: Автореф. дис. ... канд. - М., 1992. -С. 10.

4. Шатили В.А. Теоретические проблемы института президентства в Украине. Автосф. дис. кан. юр. н.- Клов, 2005-С.19.

5. Neustadt R. Presidential power and the modern presidents: the politics of leadership from Roosevelt to Reagan-New York: The Free Press, A Division of Macmillan, Inc, 1990. P.3-5.

6. Шугарт М., Кэри Д. Президентские системы // Современная сравнительная политология. - М., 1997. - С. 198-246

7. Mirakulov M.M. "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi (qiyosiy-huquqiy tahlil): doktorlik dissertasiyasi avtoreferati. // 12.00.02 – Konstitusiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya va bojxona huquqi. – Toshkent, 2016. – 14 b.

8. Хутинаев И.Д. Институционализация органов государственной власти Российской Федерации. дисс... докт. юрид. наук. – М., 2006. - С.113; Дегтев Г.В. Становление и развитие института президентства в России. Теоретико-правовые и конституционные основы. - М.: Юрист, 2005. – С. 27.

9. Солозобов Ю.М. Пути назад нет. Пути трансформации института президентства в ходе второй легислатуры Путина/Политика и политология: актуальный ракурс. Под общ. ред. И.А. Батаниной, М.Ю. Мизулина. – Москва – Тула: Изд-во ТулГУ, 2005. – С.177

10. Краснов М. А. Глава государства: рецепция идеи «отцовства» // Общественные науки и современность. –2008. – № 6. – С.33

11. Хутинаев И.Д. Институт Президента и проблемы формы государства // Реферативный журнал. Серия «Государство и право». – 1995. – № 2. – С.8–9

Q.Q. G‘afurov *– O‘zbekiston milliy universiteti magistranti*

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI BO‘YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) jamiyatning turli xil ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi. Ular ko‘plab mamlakatlarda ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, ekologik, sport, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda ham nodavlat notijorat tashkilotlari erkin fuqarolik jamiyati rivojlanishida alohida o‘ringa ega. Mazkur tashkilotlar soni respublikamizda yildan yilga ko‘payib borayotgani ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlatga ko‘makchi sifatida ularning ahamiyatini oshirmoqda.

Shuningdek, mazkur institut “Siyosatshunoslik” fani doirasida alohida yo‘nalish sifatida shakllanib kelmoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkiloloti tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati, boshqa tashkilotlardan ajralib turadigan xususiyatlari hamda huquqiy maqomini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

NNT tushunchasi turli davlatlarda turlicha **“notijorat tashkilotlar”, “nohukumat tashkilotlar” “jamoat tashkilotlari”,** ba’zilarida esa **“uchinchi sektor”** atamalari bilan ishlatib kelinmoqda.

NNT tushunchasi to‘g‘risida ilmiy asar va adabiyotlar tahliliga ko‘ra, ko‘plab mamlakat olimlari rasmiy qonunchilikda belgilangan terminlarni tadqiq etish, bunday tashkilolatlar mazmun mohiyatini to‘liqroq ochib beradigan zamonaviy atamalardan foydalanish tashabbusi bilan chiqmoqda.

Amerikalik mashhur tadqiqotchi J.McCarthy NNTlarni AQShning turli xil jamiyatlarning hayotini yaxshilashga yo‘naltirilgan tashkilotlar sifatida ko‘rib, hukumatdan alohida, fuqarolar tomonidan tashkil qilinadigan, asosan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordam kabi sohalarda faoliyat yuritadigan, asosiy vazifasi – moliyaviy foyda olish emas, balki jamoatning umumiy farovonligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali aholiga yordam beradigan tashkilot sifatida qaraydi.[147]

AQSh rasmiy idoralarida odatda NNTini ifodalashda “Non-Governmental Organization” (nohukumat tashkilotlar) (NGO) termini ishlatiladi. Biroq, umumiy kontekstda bu tashkilotlar ko‘pincha ularning huquqiy shakli va maqsadlariga qarab aniqroq tasniflanadi. Masalan, bunda “Notijorat tashkilotlar” (Nonprofit Organization) yoki “Soliqdan ozod tashkilotlar” (Tax-Exempt Organization) kabi atamalari qo‘llaniladi.

J.McCarthy “Notijorat tashkilotlar” tushunchasi NNT mohiyatini to‘liq ochib bermasligini, chunki u asosan tashkilotning moliyaviy jihatiga urg‘u berganligini, NNTlari ijtimoiy vazifasi yoki jamiyatga xizmat qilishdagi roli kabi muhim maqsadlarni yetarlicha yoritib bermasligini ta’kidlaydi. Buning o‘rniga, u “Jamoat foydasi tashkilotlari” (Community Benefit Organizations) tushunchasini qo‘llashni taklif etadi.

Yana bir amaerikalik tadqiqotchi **Elizabeth T. Borisga ko‘ra, NNTlar** fuqarolarning ixtiyoriy tashabbuslari orqali tashkil qilingan tuzilmalar bo‘lib, ularning asosiy maqsadi jamoatchilik manfaatini himoya qilishdir[148]. “Nonprofit Organizations” atamasini faqat moliyaviy xususiyat bilan chegaralanishini tanqid qilib, uni Fuqarolik tashabbuslari (Civic Enterprises) deb atash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Fikrimizcha, yuqoridagi ikki amerikalaik olimlarning NNTini nomlash bo‘yicha terminlari NNT mohiyatini ochib berishga yaqinroq bo‘lsa-da, tushunchaga bergan takliflari tashkilot xususiyatlarini to‘liq qamrab olmagan. Ular ko‘proq jismoniy shaxslar tashabbuskorligiga urg‘u qaratgan. Biroq yuridik shaxslar ham NNTni tuzish tashabbuskorlari bo‘lishi mumkin.

Britaniyalik mashur olim C.Rochesterga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkilotlari – bu fuqarolar jamiyatdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida o‘z xohishlari bilan tuzadigan tashkilotlardir.[149]

Buyuk Britaniya yuridik adabiyotlarida nodavlat notijorat tashkilotlari odatda “Non-Governmental Organisation” (NGO) (nohukumat tashkiltolar) termini bilan

[147] McCarthy J. The Nonprofit Sector in the United States: A Sociological Perspective // Sociology Review. – 2001. – № 3. – B. 45-60.

[148] Boris E.T. Nonprofit Organizations in an Age of Uncertainty. – Washington: Urban Institute Press, 2006. – B. 23-35.

[149] Rochester, C. (2013). Voluntary Action in the UK. Article: Voluntary Sector Review, 4(2), 163-180.

yuritiladi. Biroq, qonunchilikda, “Charity” (xayriya tashkiloti) yoki “Voluntary organization” (ko‘ngillilar tashkiloti) kabi so‘z birikmalari ishlatiladi.

Tadiqotchi “Ko’ngillilar tashkilot” atamasnini yagona, universal termin sifatida qabul qilishn taklif etadi. Bu fuqarolik jamiyatining mustaqilligini va xayriyadan tashqari kengroq ijtimoiy vazifalarni o‘z ichiga oladi.

M.Taylorga ko‘ra esa, “Ko‘ngillilar” yoki “Nohukumat” tashkilotlari atamalari NNT xususuyatlarni to‘liq o‘zida namoyon etmasligini ta’kidlab, “Community Associations” (Jamoat birlashmalari) terminiga o‘zgartirish kerakligini aytadi[150].

Fikrimizcha, mazkur angliyalik olimlardan M.Taylorning NNTiga nisbatan ilgari surgan termini tashkilot maqomini ko‘proq yoritishga xizmat qiladi. Sababi, u fuqarolar guruhi hamda jamoatchilikning birgalikdagi faoliyatiga urg‘u beradi.

Rossiyalik olim Y.Botnev nodavlat notijorat tashkilotlarini inson huquq va erkinlilarini ta’minlashda fuqarolik jamiyatining teng huquqli va o‘zini o‘zi boshqarish tamoyiliga asoslangan institut deb ta’kidlaydi.[151]

Ya’ni olim xalqaro tan olingan birlashish huquqi asosida tashkil etilgan, demokratik g‘oyalar uchun faoliyat yurituvchi jamoatchilik vakillarining muayyan maqsadni ko‘zlab ishtirok etishiga yo‘naltirilgan mexanizm sifatida ko‘radi.

S.Andreyeva va A.Akimovalar NNTning boshqaruv usuli, samaradorligini va umumiy maqsadlarga erishish uchun harakat qilishini e’tirof etadi.[152]

Rossiya qonunchiligida NNT termini “Notijorat tashkilotlar” (Некоммерческая организация) deb yuritiladi. Ushbu termin bugungi kunda NNTlar mohiyatini to‘liq o‘zida ifoda etmasligi to‘g‘risidagini fikrni rossiyalik taqdiqotchilar D.Kuteyeva va V.Makarova ilgari surishadi. Ularga ko‘ra, agar iqtisodiyotning uch sektorli modelini ko‘rib chiqsak, notijorat tashkilotlariga iqtisodiyotning birinchi va uchinchi sektorlaridagi barcha tashkilotlarni, nodavlat tashkilotlariga esa iqtisodiyotning ikkinchi va uchinchi sektorlaridagi tashkilotlarni kiritish mumkinligini ya’ni uchinchi sektor tashkilotlarini aniq ajratish mavjud emasligini ta’kidlashadi.[153]

Ular buning o‘rniga “Nofoyda tashkilotlar” yoki “Foyda olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar” (Неприбыльная организация) atamasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.

Ushbu olimlarning fikrini qo‘llagan holda NNT tushunchasi davlat hokimiyati yoki iqtisodiy sektorning ma’lum tashkilotlarni ifodalovchi umumiy tushunchalardan alohida termin bilan atalashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mahalliy olimlardan M.Qirg‘izboyev, Sh.N.Nazarov, I.I.Tolibov, Sh.U.Yakubov, M.B.Kadirov, B.A.Narimanov va boshqalar NNT tushunchasi va huquqiy tabiati borasida tadqiqotlar o‘tkazishgan.

Xususan, M.Qig‘izboyev NNTlarining genezisiga e’tibor qaratib, jamiyat a’zolari tomonidan turli ehtiyojlar natijasida tuzilishi, bunda ijtimoiy guruhlardagi

---

[150] Taylor.M. Public Policy in the Community. Bristol: Policy Press, 2011. P. 52.

[151] Ботнев Ю. В. Конституционно-правовое регулирование деятельности неправительственных правозащитных организаций в России: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2008. - С. 4.

[152] Андреева О. С. Неправительственные организации (определение понятия, сущность) // Власть. 2009. № 10. - С. 56-57; Акимова М.А. Негосударственные правозащитные организации как структурный элемент гражданского общества // Вестник Саратовской государственной академии права. № 6 (76). 2010. - С. 89-90.

[153] Д. А. Кутьева, В. А. Макарова “Теоретические подходы к определению понятия «некоммерческая организация» https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-podhody-k-opredeleniyu-ponyatiya-nekommercheskaya-organizatsiya/viewer

mushtarak, shu bilan birgalikda individual manfaatlar asosiy rol o‘ynashi ta’kidlagan.[154]

Shuningdek, fuqarolik jamiyatida shaxslar o‘rtasidagi turli xil aloqalar va hamkorlik, ularning ixtiyoriy ravishda jamiyat ishlarida ishtirok etish jarayonlari asosan nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi, davlat bilan jamiyat o‘rtasida aloqaning mustahkamligi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liqligini ilmiy nazariy tahlil qilgan.

Tadqiqotchi B.Narimonovga ko‘ra, milliy qonunchilikda “nodavlat notijorat tashkilotlari” tushunchasiga ustuvorlik berilgan. Lekin, xalqaro-huquqiy hujjatlarda va rivojlangan davlatlar tajribasida “nohukumat tashkiloti” tushunchasiga urg‘u berilishi, ushbu tushunchani ifodalashda qo‘llaniladigan yondashuv turli davlatlarda turlicha bo‘lsa-da, lekin milliy huquqiy amaliyotdan kelib chiqib “nohukumat notijorat tashkilotlar” tushunchasini qonunchilikda belgilashni taklif qiladi.

Milliy qonunchilik hamda yuridik adbiyotlarda “nodavlat notijorat tushunchasi” O‘zbekiton Respublikasi Konstitutsiyasi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ-huququiy hujjatlarda yuridik termin sifatida ishlatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga ko‘ra, Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Bizningcha, qonunchilikda mazkur “nodavlat notijorat” tushunchasi terminidan foydalanilishi NNTlarning unikal xususiyatlaridan kelib chiqib, uning mazmuni to‘liq ochib bera olmaydi. Quyida ayrim Markaziy Osiyo davlatlari qonunchiligi bilan taqqoslagan holda fikrimizni dalillashga harakat qilamiz.

Ko‘pgina mintaqa davlatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati milliy konstitutsiya, fuqarolik kodeksi va maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Faqatgina Turkmanistonda “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun mavjud emas. Ushbu davlatda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun bilan huquqiy tartibga solinadi.

Dunyo amaliyoti bilan hamohang tarzda, Qozog‘iston “nohukumat tashkiloti” tushunchasini qonuniy ravishda rasmiylashtirgan yagona davlat hisoblanadi. Qirg‘izistonda esa nodavlat notijorat tashkilotlari davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tashkil etilishi va faoliyat yuritishiga ruxsat berilgan.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida, shu jumladan, O‘zbekistonda ham “nohukumat tushunchasi” qonun bilan aniqlanmagan bo‘lsa-da, “nodavlat”, “notijorat” tushunchalari asosida yoki ularning kombinatsiyasi orqali yangi yuridik atama shakllantirilgan.

Natijada, NNTlar “notijorat tashkilotlari” sifatida tasniflansa-da, siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan “nohukumat tashkiloti” mamlakat hukumatiga, ya’ni ijro hokimiyatiga tegishli bo‘lmagan tashkilot sifatida tushuniladi va “nodavlat” tushunchasiga to‘g‘ri kelmaydi.

[154] Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: “O‘zbekiston” 2010. – 256 b.

Agar “nodavlat” atamasi ishlatilsa, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlatga tegishli bo‘lmagan yoki undan tashqaridagi degan ma’noni anglatadi. Bu esa jamiyatda qarama-qarshi salbiy xulosalarga va mafkuraviy bo‘linishga olib kelishi mumkin.

Agar davlat tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinsa, bu yanada aniq ko‘rinadi. Shuning uchun “nodavlat tashkilot”larga nisbatan davlat tuzilmalarida “qat’iy choralar” va “jazolash” shakllidagi kayfiyat paydo bo‘lishi mumkin.

Bunday tajriba Rossiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Gruziya davlatlarida “Chet el agentlari to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishida kuzatiladi. O‘zbekiston, Turkmaniston ushbu qonunni qabul qilmagan Markaziy Osiyodagi davlatlar bo‘lib qolmoqda.

Demak, qonunchilikdagi NNT atamasining huquqiy asoslarini xolisona ilmiy-amaliy jihatdan qayta ko‘rib chiqish zaruriyati mavjud. Yuqoridagi olimlar nazariyalari va davlatlar qonunchiligini tahliliga ko‘ra, tadqiqotchi tomonidan “nodavlat notijorat tashkiloti” tushunchasi o‘rniga “jamoat tashkilotlari” terminini qo‘llash taklif etiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, NNTlar faoliyati milliy xavfsizlikka ham bevosita ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan institutlardan biri hisoblanadi. Masalan, ba’zi hollarda NNTlar xorijiy davlatlar yoki tashkilotlar tomonidan mavjud ijtimoiy-siyosiy holatni izdan chiqarish maqsadida moliyalashtirilishi mumkin. Bu esa milliy xavfsizlikka tahdidlarni yuzaga keltirishi ehtimoli yo‘q emas. Shu sababli, NNT faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda NNT atamasini “jamoat tashkilotlari” deb o‘zgartirish nafaqat ularning ijtimoiy muammolarni hal qilish va jamiyatdagi rolini aniqroq ifodalashga balki, milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan qadam sifatida ham qaralishi mumkin. Ya’ni “jamoat tashkilotlari” termini davlat doirasida (nodavlat yoki davlatdan tashqari emas) NNTlarining fuqarolar birlashmasi sifatidagi mohiyatini anglatib, ularning davlat bilan hamkorligini kuchaytirgan holda, ichki va tashqi ta’sirlardan himoyalanish imkonini yaratadi. Bu esa siyosatshunoslik nuqtai nazaridan davlat va jamiyat munosabatlarini muvozanatlashda muhim vosita bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McCarthy J. The Nonprofit Sector in the United States: A Sociological Perspective // Sociology Review. – 2001. – № 3. – B. 45-60.

2. Boris E.T. Nonprofit Organizations in an Age of Uncertainty. – Washington: Urban Institute Press, 2006. – B. 23-35.

3. Rochester, C. (2013). Voluntary Action in the UK. Article: Voluntary Sector Review, 4(2), 163-180.

4. Taylor.M. Public Policy in the Community. Bristol: Policy Press, 2011. – P. 52.

5. Ботнев Ю. В. Конституционно-правовое регулирование деятельности неправительственных правозащитных организаций в России: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2008. - С. 4.

6. Андреева О. С. Неправительственные организации (определение понятия, сущность) // Власть. 2009. № 10. - С. 56-57.

7. Акимова М.А. Негосударственные правозащитные организации как структурный элемент гражданского общества // Вестник Саратовской государственной академии права. № 6 (76). 2010. - С. 89-90.

8. Кутьева Д.А., Макарова В.А. “Теоретические подходы к определению понятия «некоммерческая организация» https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-podhody-k-opredeleniyu-ponyatiya-nekommercheskaya-organizatsiya/viewer

9. Qirg‘izboyev, M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: “O‘zbekiston” 2010. – 256 b.

С.М. Кобулова *– магистрант по специальности “Прикладная политология” Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

ВВЕДЕНИЕ

Современные технологические достижения оказывают значительное влияние на все сферы государственного управления. Цифровизация государственного управления представляет собой процесс внедрения цифровых технологий в систему государственного администрирования с целью повышения эффективности работы государственных органов, снижения уровня коррупции, улучшения качества государственных услуг и повышения прозрачности принятия решений. Также меняет взаимодействия государства с гражданами, бизнесом и внутренними процессами. В современном мире, где технологии развиваются стремительными темпами, цифровизация становится не только возможностью, но и необходимостью для государств, стремящихся к устойчивому развитию и конкурентоспособности. Однако данный процесс сопровождается рядом вызовов, среди которых киберугрозы, цифровое неравенство в доступе к технологиям, а также институциональное сопротивление со стороны бюрократических структур.

Цель данной статьи-проанализировать ключевые вызовы и перспективы цифровизации государственного управления, а также предложить рекомендации для успешной реализации цифровых реформ. Исследование актуально в контексте глобальной трансформации, где цифровизация рассматривается как инструмент модернизации общества.

МЕТОДЫ. Для исследование темы были использованы качественные методы, включая:

-Контент-анализ обзор научной литературы и публикации, нормативных документов;

-Сравнительный анализ стратегий цифровизации госуправления в странах ЕС, США, Китая и России;

-Кейс-стади успешных практик внедрения цифровых технологий в госуправлении.

РЕЗУЛЬТАТЫ (RESULTS)

Цифровизация-это процесс внедрения цифровых технологий в различные сферы деятельности для повышения их эффективности, автоматизации процессов и улучшения взаимодействия между людьми,

организациями и государством, а также превращения аналоговых данных и рабочих процессов в цифровой формат. С теоретической основой цифрового государственного управления можно включать следующие направлении:

-Электронное правительство **(e-Government)**–создание цифровых платформ для взаимодействия государства и граждан;

-Большие данные и аналитика **(Big Data & Analytics)**–использование данных для прогнозирования и оптимизации госуслуг;

-Искусственный интеллект (AI)–автоматизация принятия решений и персонализация госуслуг;

-Системы распределенного реестра (блокчейн)–обеспечение прозрачности и безопасности данных;

-Интернет вещей (Internet of Things, IoT) и цифровая прослеживаемость–исполнения работ мониторинга и сбора данных об эксплуатации;

-Квантовые коммуникации (квантовые сети)–рассматривает перспективы схемы связи и информационной защиты в построение и вычисление систем.[1]

Цифровизация государственного управления имеет значительный потенциал для улучшения качества предоставления услуг через онлайн и сокращает время обработки запросов граждан с нескольких дней до нескольких минут. Международный опыт цифровизации государственного управления разнообразен и можно рассмотреть на примерах нескольких стран:

-**США**–программа Data.gov предоставляет открытый доступ к государственным данным, что способствует прозрачности и улучшению госуслуг.[2]

-ЕС–внедрил **GDPR** (General Data Protection Regulation), который регулирует обработку персональных данных граждан.[3]

-Китай– система "умного управления" с ИИ и социальным кредитом, повышая контроль, но с минимальной защитой конфиденциальности (National Development and Reform Commission (NDRC)).[4]

-Сингапур–инициатива **Smart Nation** объединяет цифровые сервисы в единую платформу для повышения эффективности госуправления с акцентом на кибербезопасность и конфиденциальность.[5]

-Южная Корея–KONEPS сократила коррупцию, а мобильные приложения обеспечили кризисное реагирование, с защитой данных граждан.[6]

-Эстония–X-Road интегрирует услуги, поддерживая открытые данные и защиту информации через блокчейн.[7]

-Россия–платформа «Госуслуги» как ключевой инструмент цифрового взаимодействия с гражданами.[8]

Перспективы развития цифровизация государственного управления:

-Внедрение новых технологий (ИИ и блокчейн);

-Ускорение процессов в государственном управлении;

-Уменьшение коррупции;

-Экономия средств и времени;

-Улучшение бизнес климата.[9]

-Снижение бюрократии;

-Расширение использования больших данных (Big Data).

Связи с этим есть проблемы цифровизации государственного управления:

1. Кибербезопасность и защита данных:

-Увеличение числа кибератак на государственные системы;

-Риски утечки персональных данных граждан.

2. Цифровое неравенство:

-Разрыв в доступе к цифровым технологиям между регионами;

-Недостаточная цифровая грамотность среди пожилых и социально уязвимых групп.

3. Правовое регулирование и этика:

-Недостаток единых международных стандартов регулирования цифровых технологий;

-Проблемы использования ИИ в принятии государственных решений и больших данных в государственном управлении.

4. Сопротивление изменениям:

-Бюрократические барьеры и медленный процесс внедрения инноваций.

-Низкая адаптивность госслужащих к цифровым изменениям.

5. Финансовые и технические ограничения

-Высокая стоимость внедрения цифровых решений.

-Ограниченность инфраструктуры в развивающихся странах.

6. Опасность цифрового контроля и тотальной слежки

-Риски злоупотребления технологиями для массового наблюдения.

-Баланс между безопасностью и защитой прав граждан.

ОБСУЖДЕНИЕ. Полученные результаты подчеркивают двойственную природу цифровизации: с одной стороны, она открывает новые возможности для повышения эффективности и доверия к государству, с другой — создает риски, требующие комплексного подхода. Кибербезопасность остается критическим фактором, где необходимы инвестиции в защиту данных и обучение персонала. Цифровой разрыв требует программ инклюзии, таких как субсидирование интернета или образовательные инициативы. Сравнение опыта разных стран показывает, что успех зависит от сочетания политической воли, инфраструктуры и вовлеченности граждан. В перспективе цифровизация может стать основой для перехода к "государству как платформе", где граждане и бизнес взаимодействуют с властью через единые цифровые экосистемы. Однако без учета социальных и этических аспектов (например, защиты персональных данных) процесс рискует усилить неравенство.

Заключение. Цифровизация государственного управления–это сложный, но неизбежный процесс, который требует сбалансированного подхода к преодолению вызовов и реализации перспектив. Для успеха необходимы инвестиции в инфраструктуру, повышение цифровой грамотности и разработка надежных систем безопасности. Дальнейшие исследования могут быть направлены на изучение влияния искусственного интеллекта и блокчейн-технологий на государственное управление.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ:

1.https://hsbi.hse.ru/articles/ispolzovanie-tsifrovykh-tekhnologiy-v-gosudarstvennom-upravlenii/

2. https://data.gov/metrics/

3. https://gdpr-info.eu/

4. https://en.ndrc.gov.cn/aboutndrc/BandD/
5. https://www.smartnation.gov.sg/
6. https://pps.go.kr/eng/content.do?key=00777
7. https://x-road.global/
8. https://www.gosuslugi.ru/
9. Аблатдинов С. А. Цифровизация государственного управления в Узбекистане: опыт и перспективы // Экономика и Социум №6 (109)-2 2023 С. 630-636 https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovizatsiya-gosudarstvennogo-upravleniya-v-uzbekistane-opyt-i-perspektivy/viewer

Z. Namozova **–** *O‘zbekiston milliy universiteti talabasi*

MA’NAVIY TAHDIDBARDOSH YOSHLARNI TARBIYALASH MASALALARI

“... yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

“Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi...

... diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-hatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda”[155], deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.

Ma’lumki, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli.

Bugungi globallashuv davrida ma’naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg‘ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki “tahdid”[156] so‘zi xavf-xatar, huruj va buzish ma’nolarini anglatadi. Shu ma’noda ma’naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli hurujlar hisoblanadi.

“...ma’naviy tahdidlarning ko‘rinishlari sifatida e’tiqodni buzish, mutaassiblik, hurfikrlilikni bo‘g‘ish, inkvizitsiya, xalqlarni kamsitish, muayyan madaniyat shaklini mutlaq deb bilish, erkin fikrni cheklash, repressiya va shu kabilarni belgilagan[157].

[155] Мирзиёев Ш.М.Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд. Т:.Ўзбекистон.2019. 505-бет.
[156] Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида // Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий қадриятларнинг ўрни. – Тошкент: 2009. – Б.191.
[157] Тўраев Ш. Маънавий таҳдид (ёндашувлар ва таҳлиллар) // Имом ал-Бухорий сабоқлари.–Тошкент,2010.– № 2. – Б.147-149.

Ma’naviy tahdid tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2008 yilda nashr etilgan «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» nomli kitobida ma’naviy tahdid quyidagicha tavsiflangan:

– insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot hurujlar;

– avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan hurujlar;

– milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishni, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlagan mafkuraviy hurujlar;

– milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usiga, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlar;

– begona mafkura va dunyoqarashni avvalo yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgan hatarlar;

– mamlakat xavfsizligi va milliy manfaatlariga tahdid soladigan hamda jamiyatni inqirozga olib keluvchi xavf-xatarlar[158].

Demak, ma’naviy tahdid insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot hurujlari tarzida baholanib, ob’ekti va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillari aniq belgilab berilgan.

“Ma’naviy tahdid”yuqorida ta’kidlaganimizdek, insonni ruhan va qalban zaiflashga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini zaif, iymon-e’tiqodini sust qiladigan, vijdonini loqaydlikka va befarqlikka undaydigan ta’sir kuchiga ega bo‘lgan g‘oyalar, qarashlar majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev globallashuv jarayonida jamiyatimiz ma’naviy hayotiga xavf solayotgan xatarlar, tahdidlar o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lib, ularning ta’sir kuchi kundan-kunga ortib borayotganligini ta’kidlab: “Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda”, – deydi. Shu bilan birgalikda yoshlarni ma’naviy tahdidlar va turli xil axborot hurujlaridan asrashda loqaydlik qilish mumkin emasligiga e’tiborni qaratadi.

Davlatimiz rahbari hozirda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami mavjudligini inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilishni taklif qilgan edi. “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish zaruratini asoslab, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir”[159], bugungi kunning asosiy vazifasi – yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o‘z xalqi, vataniga mehr-sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish, ularni har xil buzg‘unchi kuchlarning axborot hurujlaridan ogoh etish hamda himoya qilishdan iborat.

Ayniqsa keyingi yillarda, globallashuv vositalari “ma’naviy tahdidlar”ning keng yoyilishiga imkoniyat yaratishi bilan birgalikda, o‘zbek xalqining tafakkuriga,

[158] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т: «Маънавият», 2008. – 176 Б.

[159] Мирзиёев Ш.М.Халқимизни розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.2-жилд. Т:.Ўзбекистон.2018. Б-252.

musiqasi, kiyinishi, o‘zaro muomalasi, oilasi, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham ta’sir qilmoqda. Bu borada harakat qilayotgan, ma’naviy qo‘poruvchilik olib borayotgan mafkura poligonlari o‘z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, hamma vositalarni ishga solmoqda, ko‘plab mablag‘ sarflamoqda, eng zamonaviy usul-uslublarni qo‘llagan holda, yoshlarni o‘ziga rom etadigan turli tomoshalar, ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar, musiqiy kanallar tashkil etmoqda. Bunday manbalar orqali buzg‘unchi g‘oyalar targ‘ib etilmoqda, eng yomoni ularni hali oq-qoraning farqiga bormaydigan, ishonuvchan, ta’sirga beriluvchan yoshlarimiz ko‘ryapti, tomosha qilyapti. Natijada irodasi sust, mafkuraviy immuniteti past yoshlar ularning qurboniga aylanmoqdalar.

Demak, bunday holatlarning oldini olish uchun yoshlar bilan ko‘proq ishlash lozim. Yoshlarimiz o‘z dunyoqarashida milliy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutloqo begona qadriyatlar joy oladi. O‘zining milliy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. Shuning uchun ham bu yosh avlod bilan ishlash jarayonida ayni shu holatlarni ham alohida hisobga olish kerak.

Shu bois ham, ayniqsa, yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatining bugungi holatini ratsional o‘rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko‘proq qaysi qadriyatlar ustivor bo‘lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa ularning milliy-ma’daniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodini mustahkamlashdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlar dunyoqarashida milliy qadriyatlarga munosabatda aniq pozitsiyaning shakllangan bo‘lishi zaruriy masalalardan hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash nafaqat ma’naviy, balki muhim siyosiy masala hamdir.

“Albatta, biz Internet va boshqa zamonaviy axborot manbalarining o‘rni va ahamiyatini inkor etmaymiz. Bugungi hayotimizni Internetsiz tasavvur qilishni o‘zi qiyin. Shuni hisobga olgan holda, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Internet tizimi orqali ma’naviy targ‘ibot ishlarini, jumladan elektron kitobxonlikni kuchaytirishi zarurligini”[160], globallashuv jarayonlarida yoshlar millat va yurt uchun butunlay begona bo‘lgan ma’naviy tahdidlar va salbiy axborot ta’sirlariga tushib qolishining oldini olish uchun yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirishi zarur. Bu bugun bizning barchamiz uchun hayotiy muhim vazifadir[161], deya ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, bugungi globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya vositalari ma’naviy, mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishning zamonaviy quroliga aylanib, ular globallashuv jarayonida tezkor, xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, yoshlarimizni ma’naviy tahdidbardosh ruhda tarbiyalash, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalardan asrash, ularning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyala

[160] Мирзиёев Ш.М.Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд. Т:.Ўзбекистон.2019. 529-бет.

[161] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Республика Байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25– йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. Ўзбекистон – тинчлик ва тотувлик мамлакати // Узбекистан – страна мира и согласие. – Тошкент: “O’zbekiston”, НМИУ, 2017. 587 б.

N.D. Mansurova **–** *Buxoro davlat universiteti talabasi*

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA GENDER TENGLIK

O‘zbekistonning yaqin yillarda olib borayotgan siyosatiga e’tibor qaratilsa, unda yuksalish, barchasi inson uchun, uning manfaati uchun degan tamoyil bo‘yicha olib borilmoqda. Mamlakat rivoji, inson omili o‘stirish uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Siyosiy soha ham o‘z navbatida isloh qilib borildi. Ayniqsa, mustaqillikdan so‘ng davlat siyosatida qayta ko‘rib chiqishlar va uni demokratiya tamoyillari asosida qayta shakllantirish boshlandi. Siyosat fani ham yuqori darajada rivoj topdi. Keyingi bir muddat tanaffusdan so‘ng yangi islohotlar davri boshlandi. Mamlakat farovonligi, barqaror rivojlanish uchun katta qadamlar tashlandi. Siyosiy fanlarni o‘qitish tizimi ham isloh qilindi va qayta ishga tushdi. Insonlarning siyosiy ongini shakllantirish va demokratik tamoyillarni to‘liq darajada ijrosini ta’minlash, inson huquqlari, ayollar huquqlari va gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha ko‘plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Shulardan biri siyosiy fanlarni o‘qitish yuzasidan “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni bo‘lib hisoblanadi. Mamalakatda barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun siyosiy sohaga jiddiy e’tibor qaratish va uni o‘qitish tizimini isloh qilish juda muhim. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, milliy davlatchilik siyosatini shakllantirish, chuqur tizimli tadqiqotlar olib borish, ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda izchillik va davlat dasturlarini ishlab chiqishdan iborat.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida (keyingi o‘rinlarda — Universitet) 2019/2020 o‘quv yili uchun qabul kvotalarini:

“Siyosatshunoslik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 20 kishi, shu jumladan, davlat granti bo‘yicha 5 kishi.

“Amaliy siyosatshunoslik” ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha 10 kishi, shu jumladan, davlat granti bo‘yicha 2 kishi.

“Siyosiy fanlar” fani tarmog‘i ixtisosliklari bo‘yicha tayanch doktoranturada 4 kishi, va doktoranturada 2 kishi miqdorida belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin”[1]-aytib o‘tganimizdek, davlatning bunchalik yuqori darajadagi e’tiborining sababi, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va siyosiy ongni oshirish. Bu jabhada ayollarga ham yuqori darajada e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat degan tushuncha kirgan ekan, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad insonlar manfaatini ta’minlash va tenglikni olib kirishdir.

Tenglik, gender tenglik, ayollar huquqlari kabi tushunchalar bugungi zamonaviy jamiyatdagi asosiy tushunchalardan bo‘lib hisoblanadi. Prezidentimizning joriy yil 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqlari ham yurtimiz ayollari uchun ham e’tirof ham e’tibor namunasi bo‘la oldi. Ko‘ksaroy qarorgohida bo‘lib o‘tgan ushbu tadbirda davlatimiz rahbari ayollar huquq va manfaatlarini ta’minlash va ularni ulug‘lash, qadr-qimmatini yuksak darajaga ko‘tarish davlat siyosatining yetakchi o‘rinda ekanligi aytib o‘tildi. Yana bir e’tiborgamolik jihat shuki, davlat siyosati boshqaruv sohasidagi ayollar soni yildan

yilga ortib borayotgani ham tadbirda ta'kidlanishidir. Xususan, 2017 yil boshqaruv sohasida faoliyat yurituvchi hodimlarning o'rtacha 20 foizini xotin-qizlar tashkil qilagan va bugungi kunda bu ko'rsatkich 35 foizga yetdi. Oliy majlisda ham Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat a'zolarining 27 foizini xotin-qizlar tashkil qilmoqda va Senat raisi ham ayol kishi ekanligi ayollarning Qonun chiqaruvchi organlardagi o'rni o'sib mustahkamlanib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bunday ko'rsatkichlar jamiyatimiz rivojiga ijobiy ta'sir etmoqda. Aql-zakovatli, istedodli va bilimli xotin-qizlar jamiyatimiz va davlatning barcha sohalarida o'zlarini ko'rsata olishyapti va namuna bo'lmoqdalar.

Abdurauf Fitrat ta'kidlab o'tganidek, "Onalar bashariyatning tarbiyachilaridir", shunga ko'ra ularning ta'limi ham bashariyat, butun millat darajasidagi masaladir. Chunki xotin-qizlarning yelkasidagi eng muhim vazifa buyuk avlodni yetishtirish va buyuk kelajak yaratishdir. Bitta qizning ta'limi butun oilani marifatli qilish demakdir. Jamiyatning ongi va madaniy jihatdan yuksalishi aynan shu bilan bog'liq.

Bugungi kunda talabalarning 52 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etayotgani mana shu ezgu g'oyaning amaliy natijasi deyish mumkin. Birgina o'tgan yilning o'zida magistraturada o'qiyotgan 15 mingga yaqin xotin-qizlarga 100 milliard so'mga yaqin kontrakt puli to'lab berildi. Bularning barchasi xotin-qizlarning ta'limi davlat dasturi darajasida ekanligini ko'rsatmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar bo'yicha ham ayollarimiz oldingi o'rinlarda borishmoqda. Hozirgi davrda esa 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqda, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini esa olima ayollar yaratayotgani ham, jamiyatda ularning o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ta'limning yuqori bosqichlari bilan bir qatorda quyi bosqichlarida, bog'cha, maktab bilan barcha oilalardagi qizlarni qamrab olish tizimlari to'liq ishga tushgan. Oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. Bu yilning o'zida ham 250 ming nafar qiz oliy ta'limga qamrab olindi. Buni o'tgan yillarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkich, misol uchun 2017 yilda bu ko'rsatkich 3,5 barobar kam bo'lgan. Bundan tashqari, yana 250 ming nafar xotin-qizlar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. "Yorqin kelajak" loyihasi doirasida 200 nafar qiz har yili dunyoning nufuzli oliygohlariga o'qishga yuboriladi.

Mana bu islohotlar va tenglikni ta'minlashdagi harakatlar natijasidir. Har bir davrda ham ayollar huquqlarga ega bo'lishmagan, biroq, buni qo'llab-quvvatlovchi va tenglik tarafdori bo'lganlar antik davrda ham bo'lgan. Bunga misol esa Aflotundir. "Aflotun o'zining simposiylaridan biri "Pir"-da, shuningdek, "Davlat"traktatida shahar-davlatga izoh berar ekan, erkak va ayol teng huquqli bo'lishi kerakligi va jinsiy kelib chiqishidan qat'iy nazar mustaqil hayot kechirish lozimligi g'oyasini ilgari suradi"[2]. Bu bir misol, tarixda bu kabi ayol va erkak tengligini qo'llovchilar soni ko'plab. Biroq biz yana shu masalaga to'xtalamizki, G'arbda ham Sharqda ham kishilar ongida dogma bo'lib, qolgan "Sochi uzun, aqli kalta", "It vafo, xotin jafo", "Ahmoq odam xotinning gapiga kiradi" degan tushunchalarni haliyam takrorlovchilar bor. Jamiyatning ba'zi qismlarida bu seziladi. Lekin biz barqaror rivojlanishni istar ekanmiz, dogmalarni yo'qotish va rivojlanish, taraqqiy etish vaqti keldi.

Eng nufuzli xalqaro tashkilot sifatida ko'riluvchi Birlashgan millatlar tomonidan qabul qilingan barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri aynan gender tenglik bilan bog'liq. Bu global darajadagi 17 maqsaddan iborat bo'lib, 2015-yilda

qabul qilingan. Undagi **5-maqsad: "GENDER TENGLIGIGA ERISHISH VA BARCHA AYOL-QIZLARNING IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.**

Bizning hissamiz:

- Biz ayollar uchun maxsus mo'ljallangan ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini, jumladan, murabbiylik dasturlari, yetakchilik seminarlari va martaba oshirish tashabbuslarini taqdim etamiz.
- Korxonaning faol xodimlarini rag'batlantirish va ularni rahbariyat tomonidan mukofotlash bo'yicha takliflar kiritildi"[3]

Ko'rib turganimizdek, O'zbekiston ham ayni shu maqsadlarga qo'shilgan holatda barqaror rivojlanish sari intilmoqda. Gender tenglikni ta'minlashda ayniqsa, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy sohada islohotlar doirasida katta ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari joriy yil 8-mart arafasidagi nutqlarida ham xotin-qizlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish masalasiga to'xtalib, erishilgan natijalarni taqdim etdilar. Xususan, Savdo-sanoat palatasi huzurida Tadbirkor ayollar kengashini tashkil etish tashabbusini ilgari surdilar. Savdo-sanoat palatasi raisi o'rinbosari Nodira Shotursunovaning ushbu ishda bosh-qosh bo'lishini tayinladilar. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi o'laroq, ushbu yilda mahallalarda ayollar tadbirkorligi loyihalari uchun qo'shimcha ravishda 3,3 trilion so'm ajratilganligi aytildi. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida esa 100 million dollar berildi. Tijorat banklari ham 100 million dollar jalb etilgan, mahallalarda o'zini o'zi band qiluvchi ayollarga esa 50 million so'mgacha garovsiz kreditlar ajratilishi ham e'lon qilingan. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha esa 4 bosqichli yangi tizim yo'lga qo'yilish arafasida.

Bundan tashqari ijtimoiy sohada ham islohotlar talaygina. Shu yilning o'zidayoq nogironligi bo'lgan 162 ming nafar ayolga sanatoriyalarda, shifoxonalarda va mahallalarda tibbiy yordam ko'rsatildi. Boquvchisini yo'qotgan 130 ming nafar ayollarga esa moddiy yordamlar berilgani ham tahsinga sazovor. Shu bilan birgalikda 6 ming xotin-qizlarning uy-joy sharoitlari yaxshilandi, ishga joylashtirildi. Bu hali hammasi emas, deyarli har yil davlatimiz tomonidan 50 ming xotin-qizlar yurtimizdagi so'lim maskanlarga o'qish va hordiq chiqarish uchun yuborilishida ham davlatimizni xotin-qizlarga ko'rsatayotgan yuksak e'tiboridan darak beradi. Shuningdek, ayollar salomatligiga e'tibor qaratilgan holda, 230 ta tug'ruq muassasasi 21 mingta eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlandi va yana shu yilning o'zida 1,5 million ayollarda saraton kasalligini erta aniqlash uchun skrininglar ham o'tkazildi. Bulardan maqsad nima? Maqsad Xotin-qizlar salomatligi har tomonlama sog'lom va qudratli jamiyat poydevoridir va Yangi O'zbekiston ham ayni shunga intilmoqda.

Mamlakatimiz boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatuvchi ayollarimizning o'zlari ham xotin-qizlarni mustaqil faollikka chorlashadi. Jamiyatda tenglik haqiqiy zaruriyat va barqarorlikni ta'minlovchi omil ekanligini takrorlashadi. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak: "Men jamiyatimizda ayollarga har doim hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini xohlayman. Toki xotin-qizlarimiz zo'ravonlik va zulm, zararli stereotiplar va kamsituvchi muommala obyekti bo'lmasin. Men ayollarimiz o'z huquqlari uchun kurashishlariga zarurat bo'lmasligini xohlayman. Ular tabiiy ravishda jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lsin, deyman. Men ayollar o'zini erkin, kuchli his qiladigan, o'ziga ishonchi bo'lgan, maqsadlariga erisha oladigan va orzu

qilishdan cho‘chimaydigan jamiyatda yashashini istayman” – deydi Prezident maslahatchisi sifatida faoliyat yuritayotgan Saida Mirziyoyeva.

Bosh prokuror o‘rinbosari Svetlana Ortiqovani ham bu masala yuzasidan o‘z fikrlari mavjud. “Alohida qayd etish joizki, prokrotura organlarida erkaklar bilan bab-barobar mehnat qilayotgan oqila opa-singillarimiz ham oz emas. Ayollar nafaqat prokuratura, balki davlat boshqaruvi, sudlov hamda bojxona tizimlari, ichki ishlar sohalari, hokimlik vazifalarida ham mehnat qilayotganini xalqimiz iliq qabul qilmoqda. Bilim va tajriba adolatli qaror qabul qilish, yurtni boshqarishda ularning mehnati tan olinmoqda. Bu esa ayollarning o‘rni uyda, oshxonada degan qotib qolgan qarashlarni o‘zgartiryapti. Demak, gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi”[4]

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda mustaqillikdan keyin boshlangan islohotlar 2017-yildan keyin yanada yangi bosqichga ko‘tarildi. Hech bir soha bundan mustasno qolmadi. Siyosat yuritish tizimi ham zamonaviy kadrlar bilan ta’minlana boshlandi. Iqtisod, ijtimoiy soha va gender tenglik ham shu jumladan isloh qilinib, alohida davlat darajasida ko‘riladi. Bunda Xalqaro tajribadan ham foydalaniladi. Eng muhim vazifa esa barqaror rivojlanishni ta’minlash, har bir shu mamlakat fuqarosi har sohada ildam qadam tashlab, rivojlanish sari intilsin. U erkakmi yoki ayol, yosh-u qarini manfaati bir bo‘lib shu yurtni yuksaltirish ulug‘ maqsaddir. Gender tenglikka to‘xtalsak, bunda ba’zi kamchiliklar bo‘lishi mumkindir, bulardan biri gender tenglikni xato talqin qilish esa bugungi kunda eng ommabop voqelikka aylangan. Erkaklar buni gender ustunlikka talab deya baholasa, ba’zi xotin-qizlar orasida erkaklar huquqlariga qarshi so‘zlash ham ortib boryapti. Aslida bunday holatni oldini olish uchun to‘g‘ri tartibda ikkala jins uchun ham gender madaniyatni shakllantirish va bunda davlatning o‘rnini mustahkam saqlash darkor. Ijtimoiy munosabatlar esa hamisha o‘zaro xurmatga asoslanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.01.2019 yildagi PQ-4139-son // https://lex.uz/docs/-4182353
2. Rustamova.X, Adabiyotda gebder tenglik tushunchasi: Janna D’ark va Nodirabegim qismatidagi musgtaraklik, “Huquq va Burch” ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnal, 2023/1, 60-b.
3. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari // http://navoiyuran.uz/uz/bmtning-barqaror-rivojlanish-maqsadlari
4. Svetlana Ortiqova. Ayollarga ehtirom ifodasi, “Huquq va burch” jurnali №3/2021, 7-b.

J.U. Hamidova **–** *Buxoro davlat universiteti talabasi*

ZAMONAVIY TURIZM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV SHAKLLARI VA ULARNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MOHIYATI

Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda boshqaruv usullari hamda ularning ijtimoiy psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Ishlab chiqarish jarayonida insonga bo‘lgan munosabatni aks ettiruvchi yana bir yondashuv - «inson kapitali»

nazariyasi bo‘lib, bunga muvofiq korxonadagi ishchi kuchi kapital sifatida, masalan pul tarzida idrok etiladi. Ushbu nazariya doirasida personal boshqaruviga oid holatlar va tasdiqlar biznesmenga tushunarli bo‘lgan iqtisodiy atama va kategoriyalarda bayon etiladi. Shuningdek boshqaruv stili turizm sohasini rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligi e’tirof etilgan.

В данной статье ведётся речь о методах управления для развития туризма, а также об их социально-психологических свойствах. Один из подходов, отражающий отношение к человеку в процессе производства – это «человеческий капитал», соответственно рабочая сила на предприятии представляется в виде капитала, например денежного капитала. В рамках этой теории ситуации и подтверждения, связанные с управлением персонала, излагаются бизнесмену в виде понятных ему экономических терминов и категорий. Также данный стиль управления представлен как один из важных факторов развития туристической отрасли.

In article was written about the methods of managing for developing tourism and their social-psychological features. One of the methods what deals the satisfaction of human procedure processes – “Human capital” is identified with labour power in corporation as the capital, for example money capital. Here was described the main categories of touristic aspects as economical aspects and others.

Ishlab chiqarish jarayonida insonga bo‘lgan munosabatni aks ettiruvchi yana bir yondashuv - «inson kapitali» nazariyasi bo‘lib, bunga muvofiq korxonadagi ishchi kuchi kapital sifatida, masalan pul tarzida idrok etiladi. Ushbu nazariya doirasida personal boshqaruviga oid holatlar va tasdiqlar biznesmenga tushunarli bo‘lgan iqtisodiy atama va kategoriyalarda bayon etiladi. Bu ta’limotga binoan, inson kapitali odatda pul birligida o‘lchanadi. Hozirgi paytda globallashuv jarayoni, mamlakatlarning bir biri bilan integratsiyalashuvi, harakatlantiruvchi transport vositalarining takomillashuvi, ular tezkorligining oshishi davlatlar o‘rtasida turli iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy aloqalarni o‘rnatish imkonini bermoqda. Bu aloqalar ichida turizm ham salmoqli o‘ringa ega. Uning dunyo milliy mahsulotidagi hissasi 11 % ga yaqin miqdorga ega. Bunday imkoniyat O‘zbekistonda ham mavjud, chunki undagi turistik salohiyat barchamamlakatlar sayyohlarini qiziqtirib kelgan. Bu soha iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sohasiga kiradi va mamlakatning yalpi ichki mahsulotini ko‘paytirishga o‘zining ma’lum darajada hissasini qo‘shadi. Ammo bu soha mamlakatimizda yirik industrial sohaga aylanib ulgurgan emas. Buning ustiga turizm bo‘yicha kadrlar tayyorlash masalasi asta-sekin hal qilinmoqda. Turizm ijtimoiy - iqtisodiy hodisa, jarayonlar bo‘lib, bu sohadagi ishlayotgan rahbarlar iqtisodiyotning boshqa sohalaridagiga qaraganda ancha farq qiladi. Chunki turizm boshqaruvidagi rahbarlar ancha vaqt oldingi usuliga moslashganidan yangi «stil» ga moslashish qiyin bo‘ladi. «Stil» so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, avvaliga doskaga yozuvda ishlatiladigan yozuv tayoqchasi deyilgan, keyinchalik «yozuv» ma’nosida tarjima qilingan. Shundan kelib chiqib rahbarlik stili - menejerning harakati deb tushunish mumkin. «Rahbarlik stili» - menejerning amaliy faoliyatida usullar, uslublar, shakllar va omillarning turg‘un-biri-biri bilan o‘zaro aloqada, o‘zaro hamkorlikda butun va yagona tizimni hosil qilish harakatidir. Stil - rahbarlikning doimiy ravishda o‘zgarib turadigan metodlari sistemasidir. Turizmda rahbarlik stili doimiy ravishda o‘zgarib turishga majburdir. Chunki, turistik firmaning butun faoliyati turistik oqim miqdoriga qat’iy ravishda

bog‘liq bo‘ladi. Turistik oqimning ko‘payishi turistik firmaning zahiradagi imkoniyatlarini ham ishga tushiradi va o‘ziga xos «bosim» hosil bo‘lganligidan rahbarlik stili ham vaqtincha o‘zgaradi. Rahbarlik metodi ancha turg‘un holatdagi deyarli bir usuldagi boshqarishdir. Bu usulda rahbarlik asosan markazlashgan rahbariyatning ko‘rsatmalariga so‘zsiz itoat qilish va so‘zsiz ijro qilishga asoslanadi. Rahbarlik stili ishlab chiqarish bilan bog‘liq hollarda ko‘p ishlatilib kelinayotgan ana’anaviy metodlarga buysunmaydi. Bu vaziyatda rahbarlik stili bilan rahbarlik metodlari o‘rtasida qarama-qarshiliklar kelib chiqadi. Lekin bu vaqtinchalik jarayon hisoblanadi. Firma menejeri rahbarlik stilini qo‘llab firmaning topshiriqlarini bajarganida ma’lum bo‘lgan rahbarlik metodlarini qo‘llaydi. Bu holatda rahbarning intellektual qobiliyati, aqli va tajribasi qo‘l keladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, rahbarlik stilida ham, rahbarlik metodida ham hozirgacha ishlab chiqilgan yoki tan olingan «Ideal» usulning o‘zi ham yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Turistik firmadagi rahbarlik stili menejerning o‘z oldiga qo‘ygan vazifasiga qarab quyidagi stil yoki metodni yoki boshqaruvni qo‘llashi mumkin.

- boshqarmoq - rahbar o‘z buysinuvchilariga aniq ko‘rsatmalar beradi va topshiriqning bajarilishini sidqidildan kuzatadi.
- Yo‘naltirmoq - menejer topshiriqning bajarilishini kuzatadi va boshqaradi, boshqaruvdagi yechimni xodimlar bilan muhokama qiladi, ulardan takliflar kutadi, o‘z tashabbusini quvvatlashni xohlaydi.
- Quvvatlash - menejer xodimlarga vazifalarni bajarishda yordam ko‘rsatadi, ular bilan ma’suliyatni bo‘lishadi, vazifasini to‘g‘ri bajarishda hamkorlik qiladi.
- vakolatga ishonish - menejer o‘z vakolatlarida masalalarni hal qilishda ularga ma’suliyatni ham beradi. Bunday harakatlar turistik firmaning maqsadi va vazifalari foydasi uchun qilinadi.

Boshqaruv ulubining boshqaruv usulidan kelib chiqadi. Boshqaruv uslubi boshqaruv faoliyati usullarining to‘plamidir. Uslub - bu o‘ziga xos obyektiv kategoriya ya’ni, foaliyatni tashkil qilish uchun tanlab olinadigan usul yoki bir necha usullardir. Endi esa boshqaruv uslubi va usuli qanday bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. Bu nisbatni aniqlash mumkin, buning uchun avval o‘xshash vaziyatni madaniyat sohasida hal qilish kerak. Musiqachi «musiqa» asarini fortepyanoda ijro etadi. Uning qo‘lida bu asarning notasi bor. «Asar notasini» nima deb ataymiz-u, uni «ijrosini» nima deb ataymiz? Har bir ijrochi asarni o‘zi bilganicha ijro yetadi, notasi teng bitta, ijrosi esa - har xil. Shunday qilib, asarni ijrosini usul bilan tenglashtirimiz, ular subyektiv (usul) va obyektiv (uslub) kategoriya sifatida namayon bo‘ladi. Keltirilgan misol o‘xshatib biz yuqorida qo‘yilgan boshqaruv uslubi va usuli nisbati haqidagi savolga javob berishimiz mumkin. Ular subyektiv va obyektiv kategoriyalardir. Boshqaruv uslubi quydagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak: jamoadagi o‘zaro munosabatlar, rahbarni ijtimoiy faolligi, uddaburonligi, tartibligi va hokazolar. Biz boshqaruv tuzlmadagi rahbarlik uslubi haqida gapiramiz. Tadbirkorlik va boshqaruv xodimlari shaxsiy uslubga ega bo‘lishlari mumkin. Masalan, menejer-moliyachi u maxsus tavsiyanomaga ega, ya’ni foydadan soliq ajratmasini hisoblash uning kasb faoliyatining vazifa uslubiga. O‘z vazifasini bajarish usuli uning shaxsiy iqtidoriga qobiliyati, kasbni qanchalik egallaganligi, ishbilarmonligiga bog‘liq. Bularni hammasiga ish uslubi deb qarash zarur. Xizmatchi iqtidorli bo‘lsa, bu kasb uslublari shunchalik yorqin namoyon bo‘ladi. Amaliyotda ishlab chiqarish rahbarlarining, ishchanlik, tashkilotchilik xususiyatlariga tashkilot, firmalarning foaliyati bog‘iqdir.

Jamoaning ishlab chiqarish faoliyatining muvaffaqiyatlari koʻp hollarda rahbarning shaxsiy sifatiga bogʻliq. Ushbu munosabatlar quyidagicha boʻlmogʻi kerak: «Birinchidan, oʻzaro doʻstlik munosabatlari zarur boʻlganda bir-biriga yordamga kelish». Ikkinchidan, agar rahbarning malakasi haqida gapiradigan boʻlsak, unda u yuqori malakali mutaxassis boʻlishi va oʻz kasbini yaxshi bilishi zarur. Uchinchidan, u tashkilotchilik qobiliyatiga ega boʻlmogʻi, ishda jamoani birlashtira olishi lozim. Agar rahbar bir vaqtda bir necha masala yechadigan boʻlsa, unda u ular ichida eng asosiysini ajratishi, oʻz ish vaqtini toʻgʻri taqsimlashi, agar zarur boʻlsa oʻz xizmatchilarining ish vaqtini ham toʻgʻri taqsimlay olishi lozim. Menejment uslubi boʻlinmaning va unga boʻysunuvchilarni oʻzaro muhokama jarayonida namoyon boʻladi. Bunda rahbarning ishi bitta muhim xususiyatga yega boʻladi. Bir tomondan yuqori idora rahbarlari ta'siri ostida, ikkinchini uning qoʻl ostidagilarga boʻlgan ta'siri, uchinchisi oʻziga teng boʻlganlar bilan munosabati. Ushbu uchta oʻzaro ta'sir boshqaruv uslubini, belgilaydi u samarali yoki unchalik samarali boʻlmasligi mumkin. Shuning uchun bizda tez-tez: «Menejment uslubini takomillashtirish kerak», degan gap ishlatiladi. Bu rahbarning uch xil oʻzaro munosabatini jamoda yaxshilash zarur deganidir. Ushbu masala nihoyasida rahbar mehnatining samaradorligini qanday oʻlchash haqida bir necha fikir bildiramiz. Gap shundaki, rahbarning aqliy ba'zida esa ijodiy mehnatdan iborat. Bu kabi mehnat mahsuli mazkur boshqaruv masalalarini yechishga qaratilgandir. Ish shundayki boshqaruv yechimiga ketgan vaqtni aks ettirmaydi, shuning uchun rahbar mehnati ikki xil natijaga ega joriy natijalar va uning faoliyat oxirining natijalari. Boshqaruv amaliyotida turli rahbarlar bilan uchrashish mumkin, ularga boshqaruvning turli usul va uslublari xosdir. Shunga binoan, turistik firmalarda rahbarlar uslublari quyidagicha boʻladi: avtokratik, demokratik va liberal. Avtokratik usulub – yakkahokimlik tushunchasini bildiradi, ya'ni hukmronlikni ushlab turuvchi va amalga oshiruvchi bir kishi. Unga quyidagi uslub xosdir - yakkahokimlik, bir izi qaror qabul qilish, ma'muriyatchilik, qoʻl ostidagi xodimlarga ishga doim aralashib turish, avtokrat rahbar boshqaruv guruhning diqqat markazida va turadi. Barcha hukmronlik uning qoʻlida boʻladi va barcha katta-kichik muammolarni yakka oʻzi hal qiladi qoʻl ostidagilar bilan kam gap, talabchan, gohida qoʻrqitish usulini qoʻlladi. Agar qoʻl ostidagilarning fikrini eshitishga toʻgʻri kelsa u buni oʻz obroʻyiga putur yetkazayapti deb tushinadi. Avtokrat rahbar qoʻl ostidagilar bilan sovuq muomalada boʻladi, oʻzining xonasini bezatishni yaxshi koʻradi, qabuliga kiruvchilarga qoʻshimcha rasmiyatchiliklar koʻrsatadi. Avtokrat rahbar kamda-kam kuladi, uning koʻrinishi doim ish bilan band boʻlganini aks ettiradi. Uning asosiy belgisi shundaki, kam bilimli boʻlsa ham, itoatkor ishchi unga yoqadi. Unda tashkilotchilik qobiliyati, boshqaruvning umumiy madaniyati - kasb tayyorgarligi yetishmaganda salbiy tomonlari tez bilinib qoladi. Oʻz ustidan zarur nazoratni yoʻqotgan, bu kabi rahbar oʻzini-oʻzi idora qilolmasligi, zolimga aylanishi, ishchilarni, inson qadrini pastga uruvchi boʻlishi mumkin. Demokratik uslub. Demokratik soʻzi yunoncha «demos» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «xalq» ma'nosini bildiradi. Demak, demokratiya xalq hokimligi, demokratik tushuncha esa odamlar manfaatini aks ettiradi. Agar demokratik uslub haqida gap ketsa, unda «rahbar boʻysunuvchi»ning oʻzaro munosabati, oʻzaro hurmat, ishonish asosida quriladi, bu esa xalq fikri bilan hisoblashish demakdir. Demokratik uslub tobe xodimlarning tashabbuslarini taraqqiyot ettirish, oʻz huquqlari doirasida oʻzlarini erkin tutishlari uchun yaxshi sharoit yaratadi. Bunda boshqaruv jamoalarining

dunyo qarashlarini umumiyligi va rahbarning yuqori obro‘ga egaligi aniq ko‘zga tashlanadi. Liberal uslub. Liberal so‘zi rahmdil, saxiy, olijanob degan ma’noga ega, bu uslubning xususiyati shundaki, rahbar o‘zini rahbarlik holatini namoyish etmaydi, aksincha, u bunda uyaladi va xodisalarning o‘zi taraqqiyot topishiga sharoit yaratib berib, ularga aralashmaydi, qo‘l ostidagilarga hurmat bilan murojaat qiladi va «juda iltimos qilaman» degan so‘zni tez-tez ishlatadi. Qo‘l ostidagilar fikrini sabr bilan tinglaydi, ular taklifidan foydali fikrlarni izlaydi va ularni hayotga tadbiq qilishga harakat qiladi. O‘zining sipoligi yoki uyatchanligi uchun «Birinchi qatorlardan» qochadi, o‘zini o‘zi oshkoraligini yoqtirmaydi. Ammo, bu ijobiy tomonlar tobe xodimlarga yoqadi va ular uning bu xislatlarini o‘zlariga singdiradilar. Ko‘rib chiqilgan uch tur uslublaridagi boshqaruv rahbarlari o‘zlarining kundalik ishlarida o‘ziga xos turdagi boshqaruv qoidalariga suyanadilar. Masalan, ular bir xil masalani yechadilar, bir turdagi ish bajaradilar va bir xil natijaga yega bo‘ladilar. Ular turli yo‘l va uslublardan foydalanadilar, ya’ni ular o‘z uslublarini ishlab chiqadilar. Masalan: shaxsni moddiy rag‘batlantirish qoidasi avtokrat va demokrat tomonidan turlicha tushuniladi. Avtokrat moddiy rag‘batlantirishga suyanib, o‘zi bilganicha ushbu usuldan foydalanibfaqat rasmiyatchilik uchun qo‘l ostidagilar bilan maslahatlashadi. Bunday uslubda rag‘batlanuvchilar mukofotda qoniqish sezmaydilar. Demokrat moddiy raqbatlantirishni keng jamiyat oldida, jamoa tashkilotlarining faol ishtirokida o‘tkazadi. Rahbar demokrat bunga albatta ma’naviy rag‘batlantirish elementlarini qo‘shadi. Uchta boshqaruv uslubiga baho bera turib, asosan demokratik uslubga ustuvorlik beriladi, chunki hozirgi vaqtda bizning jamiyat va turizm sohasini demokratlashtirish, ya’ni boshqaruv tizimini demokratlashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarori. «Xalq so‘zi» gazetasi, 1995yil, 4 iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonun. «Xalq so‘zi»gazetasi, 1999, 14 sentyabr.

3. Batarshev A.V. Psixodiagnostika v upravlenii: Prakticheskoye rukovodstvo: Uchebno-praktich. posobiye. - M.: Delo, 2005.

4. Informatsionnie texnologii upravleniya: G.A.Titorenko. M.: YUNITI-DANA, 2005.

5. Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari: Monografiya. T.: TDIU “Talaba”, 2007.

6. Kochetkova A.I. Osnovi upravleniya personalom. - M.: TEIS, 2000.

7. Logvinov S.A., i dr. Sovremennie texnologii upravleniya personalom: M: “GM i KU”, 2004.

8. G‘oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. - T.: 2001.

9. Qudratov G‘.X.,To‘xliyev I.S. Turizm iqtisodiyoti. Qo‘llanma. Sam ISI. 2007.

10. To‘xliyev I.S. «Turizm asoslari». O‘quv qo‘llanma. SamISI. 2010.

D.U. Botirov *- Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi*

SIYOSIY PARTIYA – DAVLAT HUKUMATINING MUHIM BO‘G‘INI

Siyosiy partiyalar – zamonaviy davlatlarning siyosiy tizimida muhim o‘rin egallagan va jamiyatdagi turli qiziqishlarni ifoda etuvchi tashkilotlardir. Ular davlat hokimiyatini shakllantirishda, boshqarishda va samarali boshqaruvni ta’minlashda asosiy vosita sifatida faoliyat yuritadilar. Siyosiy partiyalar demokratik jamiyatlarda saylov tizimi, davlat qarorlarini qabul qilish, qonunlarni ishlab chiqish va fuqarolarni davlat ishlariga jalb etish kabi jarayonlarda markaziy rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada siyosiy partiyaning davlat hokimiyatidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, ularning jamiyatdagi rivojlanish va barqarorlikni ta’minlashdagi roli tahlil qilinadi. Partiyalar nafaqat siyosiy vakillikni amalga oshirish, balki mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida ham muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Siyosiy partiyalar butun dunyo bo‘ylab demokratik tizimlarning muhim tarkibiy qismidir. Ular boshqaruv, jamoat siyosati va siyosiy ishtirokni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Saylovlar, siyosatni belgilash va hukumatni boshqarishda ularning ta’siri orqali siyosiy partiyalar fuqarolar va ularning vakillari o‘rtasidagi aloqani o‘rnatadi, shuningdek, demokratiyaning mustahkamlanishiga yordam beradi. Jon Koulman Amerikadagi siyosiy partiyalarning holati haqidagi maqolasida partiyaviy siyosatning asosiy masalasi partiyalarning ommani demokratik jarayonga jalb qila olishi va ularni birlashtira olishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi [1].

Ushbu maqolada biz siyosiy partiyalarni davlat hukumatidagi aloqalarning ahamiyatini tahlil qilib, saylovlar, siyosatni shakllantirish, qonun chiqarishdagi ishtiroki va jamoat oldida javobgarlik kabi masalalarni o‘z ichiga olgan. Birinchi o‘rinda siyosiy partiyalarning jamoatchilik oldidagi javobgarligi haqida zikr etish maqsadga muvofiqdir.

Demokratik boshqaruvning asosiy prinsiplaridan biri javobgarlikdir. Siyosiy partiyalar davlat organlarining jamoat oldida javobgar bo‘lishini ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

- Siyosiy partiyalar saylovlar orqali davlat organlarini javobgar qiladilar. Agar siyosiy partiya o‘z va’dalarini bajarmasa yoki noto‘g‘ri ishlasa, saylovchilar keyingi saylovda boshqa partiyani qo‘llab-quvvatlashlari mumkin.

- Muxolifat partiyalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari hukumatni nazorat qilishadi, uning siyosatini tanqid qilishadi va shaffoflikni talab qilishadi. Siyosiy partiyalar shunday qilib, jamoat manfaatlariga xizmat qilishga majburdirlar, chunki bu ular uchun saylovda mag‘lubiyatga olib kelishi mumkin.

- Ko‘plab tizimlarda siyosiy partiyalar hukumat ichidagi tenglikni ta’minlashga yordam beradi. Muxolifat partiyalari hukumatning harakatlarini so‘roq qilishadi va uning qarorlariga javobgarlikni ta’minlaydilar [2].

Siyosiy partiya vakillik demokratiyasining eng muhim siyosiy instituti hisoblanadi. Ayniqsa, ko‘ppartiyaviylik mavjud bo‘lgan davlatlarga siyosiy pluralizm ta’minlaydi. Jamiyatga turli qatlamlari manfaatlarini ifodalagan partiyalarning bo‘lishi bevosita jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar fuqarolar va hukumat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi. Ya’ni, siyosiy partiyalarning asosiy funksiyalaridan biri hukumat va saylovchilar o‘rtasida aloqani ta’minlashdir. Ular fuqarolarga davlat siyosati va boshqaruviga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yaratadigan tashkilotlar sifatida xizmat qiladi. Partiyalar orqali fuqarolar o‘zlarini birlashtirib, umumiy g‘oya va maqsadlar atrofida jamlanadilar, shuningdek, o‘z fikrlarini hukumat organlariga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3].

Shu o‘rinda O‘zbekistonda partiyashunoslik yo‘nalishining asoschilaridan biri professor M. Qizg‘izboyevning siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvida, aholining turli qatlamlari manfaatlari ifodalashda yetakchi o‘rin egallaganini alohida qayd etib, quyidagicha fikr mulohaza yuritganlar:

“Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishda, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o‘z qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratishda, odamlarning o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo‘lgan turli manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo‘lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishda siyosiy partiyalar katta rol o‘ynaydi” [4].

Shu bilan birga, professor B.Yoqubov ham O‘zbekistondagi modernizatsiya jarayonlarida siyosiy partiyalarning ahamiyati, siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvi va qonunchilikdagi o‘rni haqida chuqur mulohazalar yuritgan hisoblanadi.

“O‘tgan davr mobaynida deputatlar korpusi qonun ijodkorligi faoliyatining samaradorligi oshdi Deputatlarning o‘z qonunchilik tashabbusi huquqidan faol foydalanyotganini alohida e’tirof etish lozim. Chunonchi, 2019-yilda deputatlar tomonidan Qonunchilik palatasiga ko‘rib chiqish uchun 19 ta qonun loyihasi taqdim etilgan, bu ko‘rsatkich 2015-yilga nisbatan deyarli 3 baravarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin” [5]. 2024- yilga kelib bu ko‘rsatkich yanada ko‘tarildi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Faylasuf olimlardan biri S. Berdiqulov siyosiy partiyalarning genezisi, evolyutsiyasi va takomillashtirish borasida fikr yuritib, siyosiy partiyalar davlat hokimiyati va boshqaruvida muhim ishtirok etadi va demokratik jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi alohida ta’kidlangan.

Partiyaviy demokratiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri xalqning siyosiy partiyalarga bo‘lgan munosabatidir. Partiyalarni faqat ularning tashkiliy faoliyati bilan baholash to‘g‘ri emas - garchi bu partiyaviy siyosatning muhim ko‘rsatkichi bo‘lsa-da - balki bu faoliyatning maqsadlari bilan baholash lozim.

Tabiiyki saylanganidan so‘ng, siyosiy partiyalar vakillari qonun chiqaruvchi organlarda o‘z o‘rinlarini egallaydilar. Siyosiy partiyalar qonunlar ishlab chiqish, qonunlar o‘tishini ta’minlash va hukumatni samarali ishlashini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning saylangan vakillari orqali siyosiy partiyalar muhim qonunlar, masalan, ta'lim, sog‘liqni saqlash, milliy xavfsizlik va tashqi siyosatga doir qonunlarni qabul qilishda ta’sir ko‘rsatadilar. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlisga o‘tkazilgan saylovlarda saylangan deputatlar Qonunchililik palatasi

deputatiga aylanadilar va bu orqali qonun hamda qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etadilar.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari va ularning vakillik organi hisoblangan parlamentning shakllanishidagi o‘rni borasida yuridik fanlar doktori I.Bekovning izlanishlari va tadqiqotlari juda qiymatlidir, I.Bekovning fikricha, “milliy mustaqillikning e’lon qilinishi, sobiq kommunistik partiya tashkilotlarining butunlay tugatilishi natijasida fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish uchun shart sharoitlar yaratildi. Mamlakatda xalq manfaatlari va siyosiy irodasini erkin bildirish, ifoda etish uchun huquqiy asoslar bilan birga, erkin siyosiy muhit shakllandi. Bu o‘z navbatida, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ham siyosiy birlashmalar va siyosiy partiyalar shakllanishiga olib keldi” [6].

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning shakllanishi uzoq va mashaqqatli jarayon bo‘ldi, ya’ni siyosiy partiyalar birdaniga siyosiy hokimiyatning muhim bo‘g‘iniga aylanmadi. Buning asosiy sababi, xalqning partiyalarga nisbatan ishonchining pastligi va partiyalarning siyosiy jarayonlarga aralashuvining sustligi bilan baholash mumkin. Ammo, vaqt o‘tishi bilan, dunyo tajribasi va mahalliy tajribani uyg‘unlashtirish evaziga O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan partiyalar takomillashib bordi.

Xulosa

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyatining muhim bo‘g‘ini sifatida jamiyatdagi siyosiy tizimni shakllantiradi va uni boshqarishda faol ishtirok etadi. Ular demokratik jarayonlarning asosiy tashkilotchilari bo‘lib, saylovlarda qatnashish, fuqarolarning siyosiy manfaatlarini himoya qilish, qonun chiqaruvchi organlarda vakillik qilish kabi vazifalarni bajaradi. Siyosiy partiyalar jamiyatda mafkura va g‘oyalarni ilgari surish, hukumatga nazorat o‘rnatish va davlat siyosatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati davlatning barqarorligi, rivojlanishi va demokratik institutlarning samarali ishlashini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyatidagi o‘rni va roli nihoyatda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dalton, R. J., & Wattenberg, M. P. Parties Without Partisans: Political Change in Advanced Industrial Democracies. Oxford University Press. 2000. –P.27.

2. Paterson William, Alistair Thomas. Social Democratic Parties in Western Europe. New York: St Martin’s Press. 1997. –P.58.

3. Cox, G. W. Making Votes Count: Strategic Coordination in the World's Electoral Systems. Cambridge University Press. 1997. –P.89.

4. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. –Toshkent: Sharq, 1998. –B.47.

5. Yoqubov B.S. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari va siyosiy partiyalar. Toshkent.: Ilm-ziyo zakovat. 2022. –B.146.

6. Bekov I. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va siyosiy partiyalar: Monografiya. –T.:TDYI nashriyoti, 2010. –B.37-38.

J.T. Ochilov *– Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti talabasi*

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUV JARAYONIDA SIYOSIY YETAKCHINING IMIJI

O'zbekistoda so'ngi yillarda fuqarolarda yangicha siyosiy xulq-atvor shakillanib, bugungi kunda olib borilayotgan siyosatga xos siyosiy ong, tafakkur shakillanib o'zgarib borayotgan dinamik jarayon mos siyosat olib borilmoqda. Biroq bu davlat siyosiy insitutlarini yetarli darajada samarali ish olib borishga yetarli emas. Davlatda siyosiy tizimning shakillanib borishi zamonaviy siyosiy yetakchining qarorlari, uning ish olib borishi va fuqarolar tamonidan qay darajada qullab-quvvatlashiga bog'liq bo'lib qolmoqda. So'ngi yillarda O'zbekistoda siyosiy jarayonlarga siyosat subektlarining tasiri siyosiy yetakchi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda shu sababdab siyosiy yekachining zamonaviy imjini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Siyosiy yetakchilik – bu jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni boshqarish, qaror qabul qilish va davlatni rivojlantirish yo'nalishida muhim rol o'ynaydigan yetakchilarning faoliyati va ularning jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini anglatadi. Siyosiy yetakchi nafaqat davlat rahbari yoki hukumat vakili bo'lishi mumkin, balki u siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar yoki milliy va xalqaro tashkilotlarda ham faoliyat yuritishi mumkin. Siyosiy yetakchilik zamonaviy dunyo uchun muhim tushuncha bo'lib, u davlatning rivoji va siyosiy barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy yetakchilik tushunchasi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

Siyosiy yetakchilikning asosiy komponenti – bu boshqalar ustidan ta'sir o'tkazish va ularning harakatlarini muayyan yo'nalishga yo'naltirish qobiliyati. Siyosiy yetakchilar o'z g'oyalari, qarashlari va siyosiy dasturlari orqali jamiyatni harakatlantirishga qodir. Ular jamoatchilikning e'tiborini jalb qilish orqali siyosiy jarayonlarni shakllantiradi va muhim qarorlar qabul qiladi. Siyosiy yetakchilik jarayonida eng muhim vazifa – bu strategik va muhim siyosiy qarorlarni qabul qilishdir. Yetakchilar davlatni boshqarishda, ijtimoiy muammolarni hal etishda va xalqaro maydonda mamlakatning manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydilar. Ular mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy yo'nalishini belgilovchi qarorlarni ishlab chiqadilar va joriy etadilar. Har qanday siyosiy yetakchilikning muvaffaqiyati uning legitimligi, ya'ni qonuniy va jamoatchilik tomonidan tan olinganligiga bog'liq. Yetakchi xalqning ishonchini qozonishi va ularning manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lishi kerak. Legitim yetakchi xalq orasida hurmat va qo'llab-quvvatlovga ega bo'lib, uning siyosiy faoliyati samaradorligi oshadi.

Siyosiy yetakchining asosiy vazifalaridan biri – jamiyatdagi turli guruhlarni birlashtirish va ularga umumiy maqsadlarni ko'rsatishdir. Yetakchi jamoatchilikka birlik va birdamlikka erishishda yo'lboshchi bo'lib xizmat qiladi. Bu siyosiy jarayonlar davomida turli manfaatlar to'qnashuvini yumshatishga va ijtimoiy tinchlikni saqlashga yordam beradi. Yetakchilik nafaqat boshqaruv jarayoni, balki yetakchining shaxsiy fazilatlari va qobiliyatlari bilan ham bog'liq. Siyosiy liderlar ko'pincha qaror qabul qilishda jasorat, qat'iyat, strategik tafakkur va yuqori darajadagi tahliliy

qobiliyatlarga ega bo‘lishadi. Yetakchi o‘z shaxsiy imiji va jamoatchilik bilan munosabatlari orqali siyosiy jarayonlarda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Siyosiy yetakchilik ko‘p jihatdan siyosiy mahoratni talab qiladi. Bu yetakchining siyosiy jarayonlar, qonunchilik, boshqaruv va xalqaro munosabatlardagi malakasini anglatadi. Siyosiy mahorat orqali yetakchi turli siyosiy va ijtimoiy guruhlar bilan samarali muzokaralar olib boradi, muammolarni hal qilishda ko‘nikmalarini ishga soladi va murakkab masalalarda o‘z pozitsiyasini himoya qiladi.

Zamonaviy dunyoda siyosiy yetakchilik ko‘pincha demokratik qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning ishonchi va roziligi asosida shakllanadi. Yetakchilar ko‘pincha xalq vakillari sifatida ko‘riladi va ularning vazifasi – davlatni boshqarish jarayonida shaffoflik va javobgarlikni ta’minlashdir. Demokratik siyosiy yetakchilar xalq bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini inobatga oladi. Siyosiy yetakchi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatiga katta ta’sir o‘tkazadi. U mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, ishsizlikni kamaytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini yaxshilash kabi masalalarda muhim qarorlar qabul qiladi. Yetakchi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalq farovonligini oshirishga harakat qiladi.

Siyosiy yetakchilar ko‘pincha krizis sharoitlarida mamlakatni boshqarishlari kerak bo‘ladi. Tabiiy ofatlar, siyosiy yoki iqtisodiy inqirozlar davrida yetakchilar tez va aniq qarorlar qabul qilishlari kerak. Krizis vaqtida yetakchining qobiliyatlari va strategik rejalashtirish ko‘nikmalari sinovdan o‘tadi. Siyosiy yetakchilik nafaqat ichki, balki xalqaro siyosat maydonida ham katta ahamiyatga ega. Globalizatsiya davrida siyosiy yetakchilar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, diplomatik muzokaralar olib boradi va xalqaro kelishuvlar tuzadi. Yetakchi o‘z mamlakatining xalqaro obro‘sini oshirish va milliy manfaatlarini himoya qilish uchun faoliyat yuritadi.[162]

Dunyoning koplab demokratik davlatlarida siyosiy yetakchining shakillanishi, siyosiy qarashlar maydoni siyosiy raqobat muhitni belgilaydi. Ushbu jarayonlar demoktarik tamoillarga asoslangan xolada siyosiy yetakchilarning siyosiy maydonga chiqishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratilishiga olib keladi. Jumladan ochiq tanlov tizimi, siyosiy raqobat muxitini, pluralistic dasturlar va xakazolar. Zamonaviy sharoitlarda siyosiy yetakchilar shakillanishi va ularning siyosiy hokimyatda yetakchi pozitsiyani egalashi uchun elektaratning kopchilik ovozini olish zarur. Bunga erishish uchun siyosiy yetakchi axoliga maqbul buladigan va uning diqqatini tortadigan imjni yaatish va shakillantirishdek muhim vazifani xal etmogi kerak.

O‘zbekistonda otkan yillar davomida fuqarollarda yangi siyosiy xulq atvor shakillanib isloxotlarga xos siyosiy ong va tafakkur tarzi qaror topdi. Biroq siyosiy tizim tarkibidagi barcha insitutlarning tashkiliy va tarkibiy isloxati samarali siyosat yuritish uchun yetarli sharoit yaratilganini anglatadi. Siyosiy tizimning takomillashib borishi zamonaviy siyosiy yetakchining shaxsiga uning ish uslubiga va qarorlari fuqarolar tomonidan qay darajada qullab-quvvatlanayotganiga bog’liq bo‘lmoqda O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlarga siyosat subektlari faoliyatining tasiri siyosiy yetakchilik xodisasi bilan bog’liq. Shu manoda siyosiy yetakchilik xodisasi va siyosiy

[162] R. K. M. Kabilovning Kitobi Siyosiy Yetakchilar va Ularning Imiji 2018-yil 45-67-betlar

yetakchi imjning shakillanishiga oid nazariy-metadalogik yondashuvlarni siyosiy fan talablari asosida tizimli organish dolzarbdir.[163]

Siyosiy imijning ahamiyati

Siyosiy yetakchining imiji uning jamiyatda qanday qabul qilinishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Imij yetakchining shaxsiy fazilatlari, boshqaruv uslubi, siyosiy pozitsiyalari va ommaviy nutqlaridan tortib, u qanday koʻrinishda boʻlishi, ommaviy axborot vositalarida qanday tasvirlanishiga qadar keng qamrovli omillarni oʻz ichiga oladi. Quyida imijning siyosiy yetakchiga va jamiyatdagi qabul qilinishiga qanday ta'sir qilishiga oid muhim jihatlar bayon etilgan.

Siyosiy yetakchining imiji odamlar bilan qanday aloqa qilishida muhim rol oʻynaydi. Agar yetakchi oʻz tarafdorlari va jamoatchilik bilan ochiq, halol va shaffof boʻlsa, uning imiji ijobiy qabul qilinadi. Biroq, agar yetakchi masofani saqlashga yoki sovuqroq munosabatda boʻlishga moyil boʻlsa, jamoatchilik uni uzoqroq va tushunarsiz deb qabul qilishi mumkin.

Ishonch siyosiy yetakchilikda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yetakchining imiji jamoatchilikning unga boʻlgan ishonchini shakllantiradi. Agar yetakchi oʻziga ishonchli, tamomila ochiq va aniq boʻlsa, u kuchli va ishonchli imijga ega boʻladi. Bu esa odamlarning unga va uning qarorlariga boʻlgan ishonchini oshiradi. Aksincha, notoʻgʻri yoki yolgʻon axborot tarqatish yetakchining imijiga salbiy ta'sir koʻrsatishi va ishonchni pasaytirishi mumkin.

Yetakchining shaxsiy karizmasi va jozibasi uning imijida katta rol oʻynaydi. Karizmatik yetakchilar, odatda, jamoatchilikka ilhom bagʻishlaydi va ularda ijobiy his-tuygʻular uygʻotadi. Karizma va joziba siyosiy yetakchilarning tarafdorlari sonini oshirishga va jamoatchilik bilan yaqinroq munosabat oʻrnatishga yordam beradi. Bu, shuningdek, siyosiy nutq va bayonotlarning kuchini oshiradi. Yetakchining qabul qilgan siyosiy qarorlari uning imijiga bevosita ta’sir koʻrsatadi. Ommabop, samarali va jamiyat manfaatlariga mos keladigan qarorlar siyosiy yetakchining imijini yaxshilaydi. Aksincha, notoʻgʻri yoki ommaviy norozilikka sabab boʻladigan qarorlar uning imijiga salbiy ta'sir koʻrsatadi va jamiyat tomonidan rad etilishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda siyosiy yetakchining imiji koʻpincha ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi. Televizor, radio, matbuot va ijtimoiy tarmoqlar yetakchining koʻrinishi, nutqlari va xatti-harakatlarini keng ommaga taqdim etadi. Media yetakchining imijini yaratishda va uni jamoatchilikka qanday koʻrsatilishida katta rol oʻynaydi. Ijobiy matbuot xabarlari va yaxshi ishlangan PR yetakchining ijobiy imijini mustahkamlashga yordam beradi, aksincha, salbiy xabarlar uning obroʻsiga zarar yetkazishi mumkin. Imij siyosiy yetakchilikda rejalashtirilgan strategiyaning bir qismidir. Siyosiy yetakchilar oʻz imijini boshqarish va shakllantirishda turli vositalardan foydalanadilar, masalan, nutqlarni toʻgʻri tanlash, ularning kiyinish uslubi va omma oldidagi nutqlaridagi ohang. Ommaviy tadbirlar, nutq soʻzlash, xalq bilan yaqin munosabatda boʻlish kabi harakatlar yetakchining imijini samarali tarzda boshqarishga yordam beradi. Krizis davrida siyosiy yetakchining imiji eng koʻp sinovdan oʻtadi. Yetakchi qanday javob berishi va vaziyatni qanday boshqarishi uning imijiga jiddiy ta’sir koʻrsatishi mumkin. Krizislarni samarali boshqarish ijobiy imijni yanada mustahkamlaydi va yetakchining halolligi, professionalligi va insofli

[163] Siyosiy fanlar doktori Qalqanov Nuriddin Toshpulatovich zamonaviy sharitda siyosiy yetakchining imjni shakillantrish dessertatsiyasi 3-4 bet Toshkent 2018

ekanligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, krizis davrida notoʻgʻri qarorlar yoki sust harakatlar yetakchining imijini qiyin ahvolga solishi mumkin.

Siyosiy yetakchining shaxsiy hayoti ham uning jamoatchilik oldidagi imijiga ta’sir qiladi. Odamlar yetakchini nafaqat siyosiy faoliyati bilan, balki uning oilaviy hayoti, ijtimoiy masalalarga munosabati va shaxsiy fazilatlari bilan ham baholaydi. Agar yetakchi oʻzini nafaqat siyosatchi sifatida, balki jamoatga yaqin va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida koʻrsata olsa, uning ijobiy imiji mustahkamlanadi.

Siyosiy yetakchining imijini shakllantirishda madaniyat va milliy an'analarning roli ham katta. Har bir jamiyatning oʻziga xos qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy qabul qilinish mezonlari bor. Yetakchi ushbu madaniy qadriyatlarni hurmat qilsa va ularga mos ravishda harakat qilsa, jamiyat uni ijobiy qabul qiladi. Aks holda, yetakchiga nisbatan norozilik paydo boʻlishi mumkin. Bugungi kunda siyosiy yetakchilar texnologiya va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib oʻz imijlarini yanada kuchaytirishlari mumkin. Ijtimoiy media platformalar yetakchilarga jamoatchilik bilan bevosita muloqot qilish va ularning fikr-mulohazalarini olish imkonini beradi. Yetakchining ijtimoiy tarmoqlarda faolligi uning zamonaviy va xalqchil imijini yaratishga yordam beradi. Siyosiy yetakchining imiji uning jamiyatda qanday qabul qilinishiga bevosita ta'sir qiladi. Ijobiy imij yetakchining ishonchini, tarafdorlari sonini va obroʻsini oshiradi. Salbiy imij esa uning obroʻsiga zarar yetkazishi, hatto siyosiy faoliyatiga toʻsqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, siyosiy yetakchilar oʻz imijlarini toʻgʻri shakllantirish va boshqarishga katta e'tibor qaratishlari kerak. Dunyo mamlakatlarida siyosiy yetakchining imiji va uning jamiyat tomonidan qabul qilinishi koʻplab omillar va sharoitlar bilan bogʻliq boʻlib, ular har bir mamlakatning oʻziga xos siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitiga bogʻliq. Quyida turli mamlakatlarda siyosiy yetakchining imiji va uning jamiyatdagi qabul qilinishiga ta’sir koʻrsatadigan asosiy omillar haqida umumiy koʻrinish beriladi.[164]

Xulosa

Zamonaviy siyosiy yetakchilik imiji koʻplab omillarning ta’siri ostida shakllanadi. Yetakchining shaxsiy fazilatlari, uning xalq bilan munosabatlari, ommaviy axborot vositalaridagi qiyofasi va global siyosatdagi roli zamonaviy siyosiy yetakchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy jihatlar hisoblanadi.

Siyosiy yetakchining kompetensiyasi, innovatsion yondashuvi va xalq oldidagi ochiqligi uning ommadagi qiyofasini kuchaytiradi. Globalizatsiya sharoitida siyosiy yetakchilarning faqat milliy siyosatda emas, balki xalqaro maydonda ham ta’sirchan boʻlishi muhim ahamiyatga ega boʻlib, bu yetakchilikning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari haqida chuqur tahlillar oʻtkazishni talab etadi.

[164] *D. A. Karimovning 2021-yil Zamonaviy Siyosiy Yetakchilik: Imij va Kommunikatsiya tezislardan Siyosiy Ilm va Innovatsiyalar konferensiyasi 15-20-betlar*

4-SHOʻBA: SIYOSIY MADANIYAT VA MAFKURA, RAQAMLI ASRDA AXBOROT VA MEDIA SIYOSATI

F.X. Sultonov **–** *Turon Fanlar akademiyasi akademigi*

SIYOSIY TEXNOLOGIYALARDA AXBOROT MAKONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI

Kim axborotga ega boʻlsa,
oʻsha dunyoni boshqaradi.
Norbert Viner

Maʼlumki, Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, jumladan, davlat va jamiyat boshqaruvidagi shaffoflik va oshkoralik, ichki va tashqi siyosatdagi ochiqlik va pragmatizm, inson qadrini ulugʻlash davlatning xalq bilan oʻzaro kommunikasiyasida yangi bosqichni boshlab berib, insonlarni davlat va uning idoralariga boʻlgan ishonchini mustahkamlashga siyosiy zamin yaratdi. Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga koʻtarilayotgan bugungi kunda “davlat organlarining fuqarolar bilan oʻzaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta koʻrib chiqish, bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etish” vazifalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1]. Tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, milliy hamda xalqaro media makonning misli koʻrilmagan darajada kengayishi siyosiy yetakchilar-ning nutqlarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirining ortishiga, siyosiy “aktor”larning qisqa vaqt ichida juda katta auditoriya resurslariga ega boʻlishiga qoʻlay sharoit yaratmoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, bugungi kunga kelib katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, blokcheyn texnologiyalari kabi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish jamiyat va davlatlar taraqqiyotida hal qiluvchi rol oʻynamoqda [2]. Bunday sharoitda raqamlashtirishdan koʻzlangan asosiy maqsad va muddao yuqorida sanab oʻtilgan yangi texnologiyalar kabi axborot-kommunikasiya texnologiyalarining jamiyat va uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy tizimlariga ta'sirini ijobiy tomonga oʻzgartirishga qaratilgandir”[3] .

Oʻz navbatida, ishonchli va ishonchsiz, toʻgʻri va notoʻgʻri xabarlarni jamiyatning katta qatlamiga juda tez tarqalishi siyosatchilardan oʻz vaqtida xalq bilan muloqotga kirishishni, vaziyatga xolis baho berishni talab etmoqda. Ayniqsa, ҳozirgi vaqtga kelib, ҳar bir shaxs qўlida smartfon, yoki komp'yuter, noutbuk va boshqa raqamli aloqa vositasi mavjud. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida, axborotni dunyoning bir nuqtasidan - ikkinchi nuqtasiga koʻchirish judayam qisqa vaqt oraligʻida amalga oshirilmoqda. Axborot kibermakonida turli tuman ma'naviy-axloqiy xatarlar keltirib chiqaruvchi axborotlar ham tarqatilmoqda. Ayniqsa, xorijiy matbuot, radio va televidenie ta'siri ostida ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan axborot-psixologik xurujlar jamiyatda keskinlik va siyosiy beqarorlik muhitini paydo qiladi, mamlakatda ijtimoiy, etnosiyosiy, diniy nizolar va

tartibsizliklarning sun'iy ravishda yaratilishiga sabab bo‘ladi. Axborot ma'lum bir davlatda ma'naviy dunyoning shakllanishiga salbiy ta'sir qilish, ijtimoiy guruhlar yoki shaxslarning deviant xatti-harakatlarni sodir etishga undash qobiliyatiga ham egadir. Darhaqiqat, Internet va AKTning boshqa shakllaridan radikal, ekstremistik va terrorchi kayfiyatdagi shaxslar yoki guruhlar tomonidan buzg‘unchi maqsadlarda hamda tinchlik va barqarorlikka qarshi foydalanishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Internetdan tashviqot va yollash vositasi sifatida foydalanish eng ko‘p uchraydigan holatlardir. Bunda maqsadli auditoriya uchun Internetda tarqatishning har xil turlari va vositalari (ijtimoiy tarmoq platformalari, onlayn media kanallari, matn, foto, audio, video va boshqa illyustratsiyali media mahsulotlar) keng qo‘llaniladi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar Internet va AKTning boshqa shakllari muhim omil ekanligiga e'tirof etishsa-da, lekin radikallashuv, ekstremizm va terrorizmni qo‘zg‘atuvchi yoki yordam beradigan yagona asos emasligini ta'kidlashadi. Shu bilan birga, Internet “shaxsning zo‘ravon siyosiy harakatlarga yo‘nalishini ko‘maklashuvchi va katalizatori” sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, zamonaviy razvedka, qo‘shinlarni va yuqori aniqlikdagi qurollarni boshqarishga asoslangan axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi davlatlararo mojarolarning u yoki bu natijalarini jiddiy ravishda oldindan belgilab beradi [4] . Demak, hozirda yurtdoshlarimizni zararli axborotdan himoya qilish va mediamakonimizni boshqarish muammosi muhim ahamiyatga ega va dolzarb vazifadir [5].

Umuman olganda, qadimdan mediomakonni boshqarishda g‘arbda ritorika (notiqlik), sharqda voizlik sifatida shakllangan nutq san'ati, keyinchalik davlat va jamiyat taraqqiyoti ta'sirida rivojlanib bordi. Tarixan insonlarning jamiyatga sosiallashuvi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki aynan notiqlar, voizlarga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ko‘plab siyosiy yetakchilar notiqlik san'ati va so‘z qudratidan samarali foydalanish orqali o‘z xalqlarini umumiy maqsadlar sari safarbar etib, turli siyosiy buxronlar, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar va harbiy to‘qlashuvlardan saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Shuning uchun ham qadimdan Sharqda so‘zning ahamiyati, uning ma'nosi va undan samarali foydalanish zarurligi haqida ko‘plab falsafiy qarashlar mavjud bo‘lgan. Badiiy va ilmiy ijodning taraqqiyoti, va'zxonlik, Qur'oni karimni ommaga targ‘ib qilish va to‘g‘ri yetkazish kabi jarayonlar aynan ushbu falsafiy qarashlar bilan bevosita uyg‘un tarzda rivojlangan. Keyinchalik va'zxonlik, notiqlik (chechanlik) san'atining rivoji bilan nutq oldiga qo‘yilgan talablar ham mukammallashib borgan.

Mazmunli, ma'noli gapirish, hikmat bilan so‘zlash qadrlangan Sharqda notiq tajribali siyosatdon bo‘lishi bilan birga, ilm-fan, adabiyot va san'atdan yaxshi xabardor bo‘lishi, xalqning milliy ruhiyati, an'analari, urf-odatlarini bilishi lozim bo‘lgan. Davlat rahbarlarining notiqligi alohida ahamiyatga molik. Konfusiy, Amir Temur, Maxatma Gandi va boshqa tarixiy shaxslarning siyosiy hayoti bunga jonli misoldir. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Ya'qub Sakkokiy kabi buyuk allomalar va mutafakkirlar til, lug‘at, grammatika va mantiqshunoslikka bag‘ishlangan asarlarida ushbu mavzuga aloqador fikrlar va qarashlarini qayd etganlar [6].

Bugungi globallashuv va axborot asrida esa davlat rahbarlari va jamoat arboblarining siyosiy nutqlari xalq bilan ishonchli muloqotni o‘rnatish, jamoatchilik

fikrini shakllantirish, mamlakat taraqqiyoti uchun muhim siyosiy qarorlarni qabul qilishda oʻziga xos siyosiy texnologiyaga aylandi.

Shu nuqta'i nazardan, dunyo mamlakatlari bilan aloqa oʻrnatish jarayoni va axborot makonini boshqarishda quyidagi tarkibiy qismlarni bilish zarurati kelib chiqadi:

- davlatning resurslari, moliyaviy, iqtisodiy, harbiy-siyosiy, ma'rifiy, madaniyati, sayyohlik, ekologik, ilmiy-texnikaviy va intellektual darajalari haqidagi ma'lumotlar banki;
- mamlakatda, mintaqada iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning mavjudligi yoki yoʻqligi;
- davlat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy yoʻnalishi xususiyat-lari toʻgʻrisidagi ma'lumotlar banki;
- oʻrganilayotgan mamlakat aholisining demografik holati;
- mamlakatda faoliyat koʻrsatayotgan partiyalar va siyosiy harakatlarning mavjudligi va muhim mazmuni toʻgʻrisidagi ma'lumotlar;
- turli etnik guruhlar, millatlar, dinlar oʻrtasidagi munosabatlar darajasi haqida ma'lumot;
- davlat rahbarining obroʻ-e'tibori, uning siyosiy hokimiyati qanchalar qonuniy ekanligi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar.

Shu bilan bir qatorda, siyosiy axborot makonini boshqarish sohasi oʻz ichiga quyidagi bilimlarni egallashni taqoza etadi:

- jahon, mintaqa, muayyan davlatdagi turli fanlarning yutuqlari haqida;
- muayyan davlatning dunyo mamlakatlari bilan hamkorligi holati, u qaysi yoʻnalishlarda amalga oshirilayotganidan xabardorlik toʻgʻrisida;
- davlat va xalqaro tashkilotlar oʻrtasidagi munosabatlar darajasi, qanday tashkilotlar bilan qaysi yoʻnalishlarda hamkorlik qilishlari haqida;
- oʻrganilayotgan davlatda ommaviy axborot vositalari erkinligi darajasi toʻgʻrisida;
- davlatda fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi, ularning siyosiy tizimining shaxs huquqlarini va gender tengligini ta'minlashdagi roli;
- mamlakatda siyosiy madaniyatning mavjudligi yoki yoʻqligi;
- siyosiy, iqtisodiy, harbiy elitaning faoliyati, uning davlat muammolarini hal etishda tutgan oʻrni;
- oʻrganilayotgan davlat rahbarining imijining davlat ichi va tashqarisida mavjudligi;
- global muammolarni davlat tomonidan hal qilish darajasi;
- oʻrganilayotgan davlatdagi millatlararo, konfessiyalararo munosabatlar darajasi.

Demak, siyosiy axborot makonini boshqarish sohasi haqida fikr-mulohaza yuritganda har bir mamlakatda, umuman dunyoda axborot jamiyatining mavjudligini va axborot urushlari kabi omillarning mohiyati va harakatlantiruvchi kuchlari qay darajada ekanligni bilish muhim ahamiyatga ega ekanligini yodda tutish kerak boʻladi. Ta'kidlash joizki, XXI asrda axborot texnologiyalarining takomillashuvi yuqoridagi jarayon va hodisalar doirasida siyosiy boshqaruvning yangi shakllarining paydo boʻlishiga va siyosiy kurashga keng yoʻl ochdi hamda dunyo mamlakatlari axborot maydoniga ta'sir koʻrsatishning demokratik shakllari va usullarini ishlab

chiqish va amalga oshirish masalasi davlat axborot siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, kibernetika asoschisi Norbert Viner “kim axborotga ega bo‘lsa, o‘sha dunyoni boshqaradi” va axborot urushlari bugungi kunda yadro poligonlaridan ham xavfliroq bo‘lib borayotganini aytganida mutlaq haq edi. Demak, hozirgi vaqtda har bir zamonaviy ziyoli shaxs axborot madaniyati asoslarini – axborot, axborot jarayonlari, oqimlari, axborot jamiyati tushunchasini bilishi va ulardan mediamakonda oqilona boshqara olishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B.117.

2. Mirdjalilova, D. Sh., Yusupdjanova, N. U., and Asadova, M. S. (2021). Digitalization of the Republic of Uzbekistan: current state and development trends. ISJ Theoretical and Applied Science, 10 (102), 819-824.

3. Kohont, A. and Gorenšek, T. (2019). Conceptualization of the Digitalization: Opportunities and Challenges for organizations in the Euro-Mediterranean Area. International Journal of Euro-Mediterranean Studies, 2 (102), 93-113.

4. Sultonova E.S. Siyosiy texnologiyalar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: ART VERNISSAGE, 2023. – 200 b.

5. Sultonov F.X., Hojiev F.J. Ommaviy axborot vositalari (televidenie, ijtimoiy tarmoq va matbuot)da tarqatilayotgan ijtimoiy-siyosiy materiallar ilmiy tahlili. Toshkent, «ART VERNISSAGE» nashriyoti, 2023 yil, 232 b.

6. Omonov B. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati (Prezident Islom Karimov misolida). – T.: O‘zbekiston, 2000. – B. 4.

А.С. Тураев *– Жиззах давлат педагогика университети доценти, с.ф.ф.д (PhD)*

ЗАМОНАВИЙ СИЁСИЙ МАФКУРАЛАР ТАДҚИҚИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Бугунги глобаллашув даврига келиб дунёдаги мафкуравий муносабатлар ва сиёсий маданият омилининг ўрни тоборо ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Дунёда юз бераётган геосиёсий ва мафкуравий жараёнлар мазмун-моҳиятини англаш даражасининг етарлича шаклланмаганлиги фикрлар хилма-хиллиги шароитида мамлакат тараққиётини таъминлашда замонавий мафкуравий жараёнларни англаш, барқарор сиёсий онг ва маданиятни ривожлантириш механизмларини ишлаб чиқишни глобал чақириққа айлантирди.

Замонавий мафкуравий дискурс, сиёсий мафкуралар ва уларнинг ғоявий-сиёсий ривожланиш тенденциялари таҳлилига оид конструктив аҳамиятга эга фундаментал тадқиқотларга бўлган эҳтиёж жаҳон сиёсатшунослик тадқиқотлари кун тартибига қўйилмоқда. Дунёдаги қудратли давлатлар рақобатининг кескинлашуви ҳамда дунё сиёсий тартиботида янгича қутблашишга бўлган амбицияларнинг кучайиб бораётганлиги шароитида Америка Қўшма Штатларининг ички ва ташқи сиёсати шаклланиши ва сиёсий

қарорлар қабул қилиш жараёнига неоконсерватив мафкуранинг таъсири эволюциясини тадқиқ этиш долзарблашиб бормоқда. Шу билан бирга АҚШда неоконсерватив сиёсат кун тартиби шаклланиши ва амалиётининг ғоявий асосларини тадқиқ этиш орқали неоконсерватизмнинг сиёсий қарорлар қабул қилишдаги деструктив таъсирини баҳолаш, глобал мафкуравий жараёнларнинг ўзгариш табиати ҳамда ривожланаётган давлатлардаги сиёсий-мафкуравий жараёнлар ривожига таъсирини очиб бериш заруратини тақозо этади.

Сиёсий-мафкуравий қарашлар хилма-хиллиги асосида мамлакатимизда кечаётган замонавий сиёсий трансформацион жараёнларда ҳам жамият сиёсий маданиятини юксалтириш, сиёсий партияларнинг сиёсий-мафкуравий базани мустаҳкамлаш орқали барқарор демократик ислоҳотларни амалга ошириш ҳамда соғлом рақобат муҳитини яратиш давр талабига айланган. Айниқса, мамлакатимизда демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш, фуқароларнинг сиёсий онги ва демократик дунёқарашини юксалтиришга алоҳида эътибор қаратилаётган бир даврда турли бузғунчи ғоялар, глобал устуворликка даъво қилувчи сиёсий-мафкуравий таъсирларга қарши ўзига хос мафкуравий иммунитетни шакллантириш ҳам муҳим вазифалардан биридир.

Мустақиллик йилларида сиёсий фанлар, сиёсатшунос мутахассисларни тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилиб келинмоқда. Хусусан, янги давр талаблари ҳамда глобал даражада кечаётган ўзгарувчан тенденциялар шароитида миллий сиёсатшуносликни янада ривожлантириш талабини қўймоқда. Президентимизнинг 2019 йил 29 январдаги “Сиёсий фанлар соҳасида кадрларни тайёрлаш, фундаментал ва амалий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4139-сон қарорлари қабул қилиниши мамлакатимизда сиёсатшунос кадрлар тайёрлашнинг янги тизимини шакллантириш, таълим йўналишининг мазмуни, кадрларга қўйилаётган талабларни тубдан қайта кўриб чиқиш заруратини тақозо қилаётганлигини кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан фикримизча миллий сиёсатшунос кадрлар тайёрлашда АҚШ неоконсерватизм мафкурасини ўрганиш, унинг глобал деструктив таъсири моҳиятини англаш асосида сиёсий таҳлил кўникмаларини янада ривожлантириш, сиёсий таҳлил ва прогноздаги холисликни таъминлашга қаратилган мутахассисликка оид вазифалар ечимига хизмат қилади. Бу борада сиёсий мафкуралар тадқиқида қуйидаги масалаларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ деб хисобламиз:

Биринчидан, АҚШ неоконсерваторлари томонидан давлат ва жамият ҳаётини демократлаштиришнинг муҳим механизмлари сифатида “глобал демократик инқилоб–халқаро хавфсизликнинг муҳим омили”, “дунёда қанча демократик давлатлар кўп бўлса, шунча тинчлик ва барқарорлик таъминланади”, “дунёдаги барқарор тараққиёт ва халқаро хамжиҳатликни таъминлашда АҚШнинг “танланганлиги”, “нодемократик тузумларнинг либерал-демократик қадриятларга таҳдиди – демократия экспортини тақозо қилади”, “исломофашизм – дунё демократияларига асосий таҳдиддир”, “демократик имперализм ўзини оқалайди” каби ёндашувларга таяниш асосланиб келинмоқда, аммо, эътибор қаратиш керакки, бу ёндашувлар бутун АҚШ жамияти ва давлатчилиги ёндашуви сифатида қаралиши керак эмас;

Иккинчидан, АҚШ неоконсерватизм мафкурасининг ғоявий асослари ғоявий-сиёсий трансформацион жараёнлар таъсирида ўзгариб, турли мафкуравий қадриятлар, сиёсий мўлжаллар синтези асосида ўзига хос замонавий интеграл сиёсий-мафкуравий оқим сифатида қарор топганлиги маълум бўлади. Шунинг учун унинг тадқиқида глобал мафкуравий жараёнларга таъсирини баҳолашга кўп томонлама ёндашув заруратини тақозо қилади;

Учинчидан, неоконсерватизмда ислом динига муносабатнинг шаклланиши ўзининг деструктив характерини намоён этади. АҚШ неоконсерватизм асосчилари қарашларида ислом динини "радикал исломизм" кўринишида асосланиши бутун Ғарб жамиятларидаги кучли "исломофобия" шаклланишига олиб келди. Яъни,АҚШ неоконсерваторлари қарашларида ислом дини ва "исломизм" умумлаштириб юборилмоқда. Айниқса, икки қутбли тизим парчалангандан сўнг АҚШ неоконсерватизм мафкураси барқарорлиги ҳамда ғоявий долзарблигини асослашда "исломофашизм" форматидаги таҳдидга қарши курашиш стратегиясидан фойдаланила бошланди. Бу масаладаги муҳим жиҳат шундаки, АҚШ неоконсерватизм мафкурасининг ислом динига муносабати ҳамда жамият барқарорлигига таъсири борасидаги хулосалар АҚШ давлатининг ислом динига нисбатан қатъий позициясини ифодаламайди;

Тўртинчидан, халқаро терроризмга қарши кураш ва Ироқда тузумни ўзгартириш операцияси каби ташқи сиёсий амалиётлар тўлиқ неоконсерватив ғоялар асосида амалга оширилди. Ироқда С.Ҳусайн тузумини ағдариш ташаббуси АҚШ неоконсерваторлари томонидан ғоявий асосланди ҳамда бу борадаги сиёсий қарор назарий-концептуал жиҳатдан долзарблаштирилди. Бундан кўринадики, давлатларнинг ички ва ташқи сиёсий амалиёти, қабул қилинаётган сиёсий қарорлар муайян сиёсий-мафкуравий асосга таяниши, мафкуравий оқим асосчилари ҳамда тарафдорларининг турли даражадаги манфаатлари ижросига йўналтирилиши аён бўлади;

Таҳлиллардан АҚШ неоконсерватизми амалиётида мафкуравий рақибларга нисбатан муросасизлигини намоён қилувчи "Американинг танланганлиги", "ватанпарварлик", "демократия", "миллий манфаатлар", "динга ишонч", "оила ва ахлоқ устуворлиги", "шахс ва жамият уйғунлиги", "қуролли кучлар миллат тимсоли", "глобал демократик инқилоб" ва "Исроил давлатчилиги хавфсизлиги" сингари идеал образларни ифодаловчи, "нодемократик тузумлар", "исломофашизм" , "терроризм таҳдиди", "глобал ҳокимият таҳдиди", "rough states", "державалар таҳдиди" сингари душман образларни ифодаловчи ҳамда "демократия экспорти", "марҳаматли гегемонлик", "рангли инқилоблар", "халқаро муносабатлар анархиклиги", "халқаро тартиблардан чекиниш", "гуманитар интервенция", "АҚШнинг халқаро полициячилик роли" сингари холат ва жараённ ифодаловчи мафкуравий категориялари шаклланганлиги маълум бўлмоқда.

Демак, замонавий сиёсий мафкураларни тадқиқ этиш орқали миллий, минтақавий ва глобал сиёсий жараёнлар, институтционал ўзгаришлар ҳамда геосиёсий мўлжаллар моҳияти теран англаниши мумкин. Шу жиҳатдан фикримизча бугунги миллий сиёсатшуносликни ривожлантириш ҳамда мутахассислар тайёрлаш концепциясида қуйидаги таклифларга эътибор

қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз:

Биринчидан, маҳаллий олий таълим муассаларида сиёсатшунослик туркумига кирувчи мутахассислик тайёрлов йўналишларида фойдаланаётган фан дастурлари ҳамда ўқув адабиётларида неоконсерватизм мафкураси мазмуни ёритилишида АҚШ неоконсерватизмининг ғоявий-сиёсий асослари ҳамда асосий категориялари сингдирилиши лозим;

Иккинчидан, глобал мафкуравий жараёнлар, сиёсий мафкураларнинг намоён бўлиш тенденциялари миллий сиёсатшунослик тадқиқотлари тизимида сиёсий мафкуралар моҳиятини янада чуқурроқ ўрганиш заруратини тақозо этаётганлигидан келиб чиқиб “Замонавий сиёсий мафкуралар” номли ўқув фанини жорий этиш;

Учинчидан, сиёсатшунослик соҳасида мутахассис тайёрловчи олий таълим муассасалари қошида миллий сиёсатшунослик тадқиқотларини ривожлантиришга қаратилган, фундаментал ва амалий тадқиқотлар ҳамда сиёсий таҳлил билан шуғулланувчи “Америкашунослик тадқиқот маркази”ни ташкил қилиш;

Тўртинчидан, сиёсатшунослик соҳасида кадлар тайёрловчи олий таълим муассасаларида магистратура босқичида “Сиёсий маданият ва мафкура” мутахассислик йўналишини очиш.

S.X. Xudaynazarov **–** *Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti*

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA QADRIYATLARNI O‘RNI

Yangi ming yillik – globallashuv, axborotlashuv, sunniy intellek, kosmos, kompyuter inqilobi, yangi texnika-texnologiya va ilm-fan sohalari jadal rivojlangan davri sifatida tarix sahifalaridan joy olgan bir pallada atrof – muhit, tabiat tabiiyligini asrash barqaror taraqqiyotning muhim shartiga aylandi. Bunday sharoitda mamlakatimizda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil maydonlarni ko‘paytirish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish[165], erkin jamiyat kishilari ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi[166] doirasida amalga oshirilayotgan bu boradagi ulkan ezgu ishlar, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”[167] deb e’lon qilinishi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi amaliy ishlar, “yashil” energetika, “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, Toshkentda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish

[165] Қаранг: «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son https://lex.uz

[166] Қаранг: «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son https://lex.uz

[167] Қаранг: https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/20/yil/

universiteti tashkil etilishi va eng muhimi aholi salomatligini mustahkamlash borasidagi ezgu ishlar fikrimizga yaqqol dalillardandir.

Umumbashariy ekologik tahdid atributlari havo va suvning ifloslanishi, tuproq erroziyasi, cho‘llanish, global isishga, tabiiy ofatlar va boshqalar bu borada insoniyatni – birlashishga, bir butun yaxlit kuch sifatida mavjud imkoniyatlarini integratsiyalashtirishni taqozo etmoqda. Zero, ekologik tanglik xatarlari ortga qaytmas, boshqarib bo‘lmas oqibatli tus olmoqda. Atrof–muhit bilan jonli organizmlarning muvozanati parokandalikka, buzilishga yuz tutmoqda.

Ekologik xatarlarni belgi va alomatlari ertangi sog‘lom kelajak haqidagi optimistik tuyg‘u va bashoratlarni shubha ostiga qoldirmoqda. Afsuski antropogen ta’siri ekologik xatarlarni vujudga keltiruvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar tizimida potensial kuch sifatidan o‘z imkoniyatlarini hamonki oldingi o‘rinlarni birda saqlab qolmoqda.

Ekologiya bilan bog‘liq jarayonlar haqidagi yaxlit tasavvur fundamental nazariy bilimlar va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash texnotron jamiyatda (kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat) buni ilg‘anishi goho sust kechmoqda. Flora va fauna taqdiri, inson o‘zi kabi ekologik xatarlar girdobidan xoli bo‘lmay qoldi. Tabiat tabiiyligini asrash, saqlash, tabiatga mulkiy munosabatlarda mas’uliyat, mehr–vafo, insof–diyonat, mezon–me’yor, tejab–tergash kabi tuyg‘ularni o‘rnini kundan-kunga o‘sib borayotgan ehtiyojlar, ko‘proq daromad ilinji va ayniqsa nafsi hakalak egallagani cheksiz qayg‘u, ko‘rlik va kulfatlarga ya’ni ekologik fojea va halokatlarga yo‘l ochmoqda.

Necha asrlardan buyon insonning tabiat munosabatlarida mo‘tadil me’yorlik kasb yetib kelgan ekologik qadriyatlarni, qoida va normalarni industurial, postindustrial jamiyatlarda ba’zan degratatsiyaga uchrashini tub negizlari, genetik ildizlarini bilish bunda muhimdir. Gnoseologik nuqtai nazardan masalaga yondoshilganida ko‘pincha inson tomonida tabiatga mutloq hukmronlik qilish, uni o‘z izmiga, manfaatlariga bo‘yso‘ndirish bilan bog‘liq tuyg‘u, ishtiyoq, qarashlar, amallar quyidan-yuqoriga tomon tobora jadallashib o‘sib borganligini, ko‘pincha ateistik qarashlar bilan aloqadorligi kabilarni deduktiv yondoshuvlarni xulosalari ham tasdiqlaydi. Zero, tabiat o‘zining muvozanatli funksional ierarxiyasiga, determinizmga ya’ni, qonuniy va sababiy bog‘lanishlariga ega. Bu qonuniyatni buzish, inkor etish o‘nglab bo‘lmas ekologik fojealarga sabab bo‘ladi. Tabiat qonunlari insonni ortiqcha erkaliklarini, imitatsiyalarni (taqlid, soxtalashtirish) kabilarini ko‘tarmaydi.

Inson va tabiat munosabatlari tarixida qadriyatlar tizimidagi hamisha dezintegratsiya (butunning ayrim qismlarga parchalanishi), differensiatsiya (butunning qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi) va dialektik (harakat, rivojlanish, o‘zgarish) o‘zgarishlar sodir bo‘lib turganligini ham inkor qilib bo‘lmaydi.

Inson va tabiat munosabatlari tizimi ibtidosida koevolyusiya ya’ni birgalikda tadrijiy rivojlanish jarayonlarida hamda kommunikativ muloqotlarni quyidan - yuqoriga tomon tobora kengayishi muayyan qadriyatlarni ustuvorlashtirdi. Ayni damda jamiyatda konsyumerizm – tabiat boyliklarini iste’mol qilishga, o‘zlashtirishga va o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bordi.

Inson va tabiat munosabatlari tarixini ijtimoiy prognoz qilish qadriyatlar olamini davriylashtirish imkonini beradi. Ideal muloqatlar, yondoshuvlar hamisha barkamollik va bezavollikka yo‘l ochadi.

Inson va tabiat munosabatlari tizimidagi qadriyatlarni ilk va tub negizlari ibtidoiy e'tiqod shakllariga, "g'ayritabiiy, mistik – sirli" hodisalarga bog'lanib ketgan bo'lib, asta-sekin insonning ongi shuuri yorishgani sayin uning dinamik rivojida o'zgarishlar, garchand muqim, barqaror an'anaviylik, konservatizmga moyilligi yuqori bo'lsa-da transformatsiyaga uchrab kelgan.

Insonning ekologik qarashlari bilan bog'liq qadriyatlari dastlab primitivi sodda, stixiyali, diskret – uzlukli bo'lib, jonlar va ruhlar qurshovidagi o'zaro munosabatlar muvozanati asosiga qurilgan edi. Aksariyat hollarda tabiat borlig'i, uning unsurlariga sakral – muqaddaslik ruhi umumjamoaviy refleks hosil qilgan bo'lib, hali inson bu boradagi o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga to'la qodir emasdi. Atrof-muhitga qadriyatli munosabatlar simvollik ya'ni biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz tarzida uzoq vaqtlar namoyon bo'lib qoldi.

Insonni tabiatga qadriyatli yondoshuvlarini mohiyati va mezonlari doirasini muayyan davr odamining dunyoqarishi, ongi va tafakkuri ko'lamiga aloqadorlikda namoyon bo'lib kelgan. Ibtidoiy jamiyatda, asotiriy tafakkur bosqichida odatda tabiatda kechadigan qudratli bo'ronu dovullarga, kuchli zilzila, sunamiy va yirik suv toshqinlariga tabiatdagi noreal ko'zga ko'rinmas kuchlar, norozi ruhlar ishi sifatida qaralgan va keyinchalik an'anaviy jamiyatda kreatsionizmga xos xususiyatlar ya'ni butun borliqni Xudo yaratganligi borasidagi diniy va falsafiy qarashlar, ta'limotlar birin - ketin paydo bo'lib borishi teizm[168], deizm[169], panteizm[170] va boshqalar uning olamiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmagan.

Kishilik jamiyatining tarixini turli davrlarida shakllangan qarashlar va ular o'rtasidagi goho ochiq, goho pinhona - zimdan kurashlar, oppozitsiyalar insonni tabiatga qadriyatli yondoshuvlar tizimiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmagan. Masalan, monizm[171]–plyuralizm, teizm-ateizm, idealizm-materializm, irratsionalizm[172]–ratsionalizm kabilar shular jumlasidandir. Tabiyki, ularni har birini o'z haqiqatlari, o'ziga xos yondoshuv usullari metodologik tamoyillari mavjud bo'lib, rang-baranglik va ziddiyatlikda noxoli kechgan. Umuman aytish mumkinki, ekologik qadriyatlarni substansional asoslari e'tiqodiy qarashlarga bog'liqlikda namoyon bo'lib kelgan. Nisbatan insoniyat tarixini keyingi davrlarida ekologik qadiyatlar tizimida fanni rolini mutlaqlashtirish ya'ni ssientizm ham paydo bo'ldi. Uning ilk asoslarini metafizik qarashlarga ya'ni borliqning o'ta hissiy tamoyillari va asoslariga hamda kauzallik ya'niki, sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi kabilarga borib tutashadi. Texnika va texnologiyalarni jadal rivojlanishi texnokratik qadriyatlar paydo bo'lishiga sabablardan bo'ldi. Texnosfera bilan noosfera ya'ni odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi, degan qarashlar tizimi paydo bo'ldi.

Kelib chiqadiki, ekologik qarashlar, qadriyatlar tizimidagi paradigmal prinsiplar hamisha o'zgarishlarda bo'lib kelgan. Ekologik muammolar yechimida qadriyatlarni o'rni va rolini prognoz qilish, avvalo voqelikka nechog'lik passionar ya'ni o'ta g'ayrat bilan ratsional yondoshuvlarimizga bog'liqdir.

Insonni tabiatga qadriyatli yondoshuvlar tizimini ba'zi sinkretizmga xos, moyil jihatlardan mutloqo xoli emasligini inkor etib bo'lmaydi. Tabiiyki ular tizimida

168 https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/teizm-uz/
169 https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/deizm-uz/
170 https://oyina.uz.
171 Монизм– плюрализмга зид ўлароқ, муайян бир асосдан келиб чиқадиган фалсафий ёндашув.
172 Ирратсионализм – борлиқни оқилона мантиқий билиш имкониятини рад этувчи нуқтаи назар.

diniylik va dunyoviylik, ko‘rko‘ronalik va aqliy mantiqiylik, irratsional va ratsionalik hamisha birga bo‘lib kelmoqda. Teologik ko‘rinishdagi tabular va teotsentrik qarashlar, texnogenlik bilan bog‘liq texnooptimizm hamda uni teskarisi texnopessimistik yondashuvlar ta’siri va boshqalar unda yaqqol seziladi.

Qadriyatlarni universumi – yaxlit olamda transsendental – o‘ta umumiylik hamda muayyan geografik sharoitga xos alohidalik va fenomenalik kabilar ham ko‘zga tashlanadi. Ularni tub ildizlari mohiyatini tarixiy, e’tiqodiy, geografik, etnografik va boshqa bilimlar umumlashma xulosalari orqali mushohada yo‘li bilan anglash mumkin bo‘lgan – noumenliklardir.

Insonning tabiatga qadriyatli yondoshuvlarini bir butun tarixi tabiatning ulkan – makro olami sistemasidan eng mayda mikro, mitti - nanosigacha bo‘lgan munosabatlarini yaxlit tizimni o‘z ichiga qamrab olarkan, shu bois, insonni tabiatga sog‘lom va muvozanatli munosabatlarini yaxshilanishida, ekologik barqarorlikni ta’minlashda qadriyatlarni o‘rni beqiyos bo‘lib, unga ijtimoiy – falsafiy nuqtai nazardan yondoshish yanada muhim ahamiyatga egadir. Chunki falsafiy bilimlar, qarashlar tizimida qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy ongni muhim shakllaridandir.

Mavzumiz doirasidagi masalaga ijtimoiy-falsafiy yondoshishlar insonni tabiatga bo‘lgan munosabatlarini nafaqat yaxshilashga, balki qayta qurishga, bu boradagi mavjud xatarlarni oldini olishga, umumbashariy ekologik muammolarga jadalroq sur’atlarda yechim topishga, inson va tabiat munosabatlarini sog‘lomlashtirishga, konfliktlariga kompleks yondoshishga, ekologik muammolarni nazariy anglab yetishga va amalda bartaraf etishida yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, NMIU, 2023.
2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son https://lex.uz
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. –T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2020. -456 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. -464 bet
5. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya) – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashr, 2004. - 196 b.
6. S.Rahimov, Z.Davronov, S.Hasanov. Ekologiyaning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy asoslari. -T.: “Iqtisod-moliya” 2006. 156 b. (o‘quv qo‘llanma)
7. Axmedov A. Ekologik nazorat: nazariya, metodologiya va amaliyot. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. -152 b.
8. Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat. –T.: Iqtisod-moliya, 2012.- 232 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi: Ensiklopediya. –Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997. –655 b.
10. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini yuksaltirishda diniy qadriyatlarni o‘rni. Ilm sarchashmalari// O‘rganch davlat unversitetining ilmiy-metodik jurnali. – Urganch, 2020. № 6. –B. 17-20.
11. Abdullaeva Ya. Ekologik muammolar: kelib chiqish sabablari // Jamiyat va boshqaruv. –Toshkent, 2004. –№1 – B. 29-31.

Internet saytlari:

1. https:// www.president.uz (O'zbekiston prezidentning rasmiy veb-sayti).
2. https:// www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari bazasi).
3. https://www.edu.uz/uz (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi).
4. https:// www.natlib.uz (O'zbekiston Milliy kutubxonasi).
5. https:// www.Ziyonet.uz (Ta'lim portali).
6. http://library.academy.uz/ (O'zbekiston Respublikasi fundamental kutubxonasi).
7. https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/teizm-uz/
8. https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/deizm-uz/
9. https://oyina.uz.
10. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/20/yil/

I.Sh. Uzoqov *- Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi*

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNI SHAKLLANTIRISH YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINING RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Globallashuv jarayoni yoshlarning siyosiy madaniyatiga ta'sir qilib, ularning qadriyatlari, dunyoqarashi va faolligida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda yoshlar fuqarolik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday mas'uliyatli mavzuda gap ketganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday fikrlarni ilgari surgan edi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1].

Bugun, O'zbekistonda 10 millionga yaqin yoshlar *(14-30 yosh oralig'i nazarda tutilmoqda)* istiqomat qilmoqda. Aynan ushbu yoshlar Yangi O'zbekistonning kelgusidagi asosiy drayveri bo'lishi kutilmoqda. Shu sababli, yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda, buni biz quyidagi sabablar bilan izohlashimiz mumkin: ***birinchidan,*** yoshlarimiz siyosiy madaniyatini rivoji jamiyatimizning demokratik rivojiga muhim ahamiyat kasb etadi; ***ikkinchidan,*** yoshlarning siyosiy madaniyati nafaqat ularning siyosiy faollik darajasini belgilaydi, balki mamlakatning umumiy siyosiy barqarorligi va ijtimoiy hamjihatligiga ham ta'sir qiladi. O'zbek olimlari talqiniga ko'ra, "Yoshlar siyosiy madaniyati - ularning siyosiy hokimiyat, siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatlari, ularning siyosiy qarashlari, siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyatlarida amal qiladigan madaniyat shakli [2].

Globallashuv yoshlar siyosiy madaniyati takomilida muayyan ijobiy ta'sir etish bilan birga, milliy o'zlik va davlat mustaqilligi uchun xavf tug'diruvchi salbiy

tendensiyalarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, ayrim yoshlar orasida axborot texnologiyalari orqali yangi qadriyatlarni kirib kelishi, axborot xurujlari, ommaviy madaniyat, yoshlar orasida G‘arbona hayotga taqlid qilish ommalashishi, ularni hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kabi omillar yoshlarimizni milliy-ma’naviy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirmoqda. Buni yaqqol misoli sifatida yoshlar orasida keng tarqalayotgan ommaviy madaniyatdir. Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egoizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi[3]. Shu bois, globallashuv davrida har bir hukumat oldida milliy siyosiy madaniyatni himoya qilish, yoshlarning axborot savodxonligini oshirish va ularda faol fuqarolik pozitsiyasiga o‘rgatish kabi muhim vazifalar kun mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Aynan, respublikamiz yoshlari orasida milliy o‘ziga xoslikni anglash ularda milliy siyosiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o‘ziga xoslik har bir millatning shaxs sifatida shakllanishi, uning ruhiy-ma’naviy dunyoqarashi va jahondagi o‘rniga ega bo‘lishida muhim omil hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash millat ma’naviy rivojining muhim belgisi hisoblanib, u yoshlar ongida tarixiy xotirani, ijtimoiy birdamlikni saqlashga, ularni vatanparvarligini oshirishga, milliy til va qadriyatlar va urf odatlarni o‘zlashtirishga, globallashuv davrida milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantiradi. “Shaxs milliy o‘zligini anglashi” tushunchasining tarkibiy qismlari: millatga (etnosga) mansublikni, uning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini anglash; milliy g‘oyaga va qadriyatlarga sadoqat; millatning ehtiyojlari va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo‘llarini bilish; milliy taraqqiyotga xizmat qilib, jamiyatda fuqaroviy birlikni ta’minlashga hissa qo‘shishdan[4] iborat.

Zamonaviy sharoitda yoshlar tarbiyasida, ularning siyosiy madaniyatini rivojlantirishda milliy o‘ziga xoslik muhim ahamiyat kasb etib, u yoshlarda siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish, davlatga sadoqatini oshirish hamda jamiyat rivoji uchun mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu borada respublikamizda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida o‘zbek millati milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [5].

Globallashuv sharoitida milliy o‘ziga xoslikning yoshlar siyosiy madaniyati rivojiga ijobiy ta’sir etadi. Milliy o‘zlikni anglash orqali siyosiy ongni yuksalishi yoshlarimizni tarixiy bilimlar, milliy qadriyatlar va an’analar asosida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy-sharqona axloq, qadriyatlar va urf-odatlarni rivojlantiradi.

Ushbu jihatlarni yoshlar siyosiy madaniyatiga ijobiy ta’sirini quyidagicha izohlashimiz mumkin (qarang 1-jadvalga):

Milliy o‘ziga xoslik	**Yoshlar siyosiy madaniyatiga ijobiy ta’sirlari**
Ona tili	davlat tilini bilish siyosiy savodxonlikni oshiradi, milliy birlikni mustahkamlaydi va

	yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi
Milliy madaniy, tarixiy an'analar	milliy an'analarga asoslangan siyosiy madaniyat yoshlarni vatanparvar va mas'uliyatli fuqaro bo'lishga yo'naltiradi
Ma'naviy va diniy qadriyatlar	axloqiy tamoyillar va adolat tushunchasini mustahkamlab, yoshlarning siyosiy jarayonlarda halollik va adolat tamoyillariga amal qilishini ta'minlaydi
Siyosiy an'analar	yoshlar milliy davlatchilik tarixini o'rganib, siyosiy jarayonlarda faol qatnashishga va o'z mas'uliyatini his qilishga harakat qiladi
Tarixiy meros va milliy siyosiy tajriba	milliy tarixiy merosga hurmat va g'urur tuyg'usi yoshlarning siyosiy faolligi va davlat mustaqilligini himoya qilishga, jamiyat rivoji uchun safarbar etadi
O'zbek mentaliteti va dunyoqarashi	millatga xos bag'rikenglik va hamkorlik an'analari yoshlarda ijtimoiy sheriklikni shakllantirib, jamiyat barqarorligiga hissa qo'shadi.
Milliy iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlar	milliy iqtisodiy an'analarga asoslangan faollik yoshlarning mehnatga va jamiyat taraqqiyoti uchun bo'lgan mas'uliyatini oshiradi

Globallashuv davrida O'zbekiston yoshlarida milliy o'ziga xoslikni shakllantirish orqali ularni siyosiy madaniyatini rivojlantirishda **quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi**:

birinchidan, milliy va siyosiy ta'limni kuchaytirish doirasida yoshlarni milliy tarix, siyosatshunoslik va fuqarolik huquqlari fanlarini o'rganishlariga, "Milliy o'zlik va globallashuv" mavzusida maxsus kurslar va treninglar tashkil etish, Internet va OAV orqali interaktiv siyosiy ta'lim loyihalarini yo'lga qo'yish;

ikkinchidan, yoshlarda milliy qadriyatlar va tarixiy meros asosida siyosiy ongni shakllantirish, milliy tarix, davlatchilik an'analari va milliy qahramonlar hayotini o'rganish bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini joriy etish hamda milliy va zamonaviy siyosiy madaniyatning uyg'unligiga bag'ishlangan ma'ruzalar, seminarlar va interaktiv o'yinlar tashkil qilish;

uchinchidan, axborot savodxonligini oshirish va yoshlarning media madaniyatini shakllantirish hamda yoshlarni yolg'on axborotlardan himoya qilish, ularda ijtimoiy tarmoqlardan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

to'rtinchidan, yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash;

beshinchidan, milliy g'oya va mafkurani yoshlar orasida ommalashtirish, bunda zamonaviy texnologiyalar va raqamli aqlli platformalar imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda O'zbekistonning milliy o'zlik va g'ururini ifoda etuvchi madaniy tadbirlar, ko'rgazmalarni muntazam tashkil qilishga alohida e'tibor berish.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida yoshlarda milliy o'ziga

xoslikni shakllantirish ularning siyosiy madaniyatini boyitib, mas'uliyatli fuqaro sifatida kamol topishiga yordam beradi. Milliy o'zlikni mustahkamlash orqali yoshlar nafaqat o'z davlatining kelajagi uchun faol ishtirokchiga aylanadi, balki global jarayonlarda o'z milliy manfaatlarini himoya qila oladigan avlod sifatida shakllanadi. Shu bilan birga yoshlarimizda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, teran siyosiy ong, faollik, milliy birdamlikni oshirish, mustaqillikni qadriga yetish hamda globallashuv davridagi turli ta'sirlarga immunitet paydo qilish kabi jihatlarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston xalqiga tabrigi. https://president.uz/uz/lists/view/6956;

2.To'ychiyev B., Omonov B. Siyosiy madaniyat. Monografiya. Toshkent, Tafsir Books, 2024. – 184 bet;

3. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobini o'rganish bo'yicha qo'llanma / tuzuvchilar: R. Qo'chqorov, M. Qarshiboyev, O. Toshboyev; **-** Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2015. - 48 b. 85;

4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.B.-408-409;

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/6600413;

A.K. Mirkamilov *– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI ISHTIROKI

Bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlarida demokratik qadriyatlarga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini qurish, qonun ustuvorligi va inson huquqlarining ta'minlanish ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rilmoqda. O'z navbatida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini ta'minlashda nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini oshirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning turli usul va vositalaridan foydalanish, xususan, bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari rolini kuchaytirish, ijtimoiy buyurtma va grantlar ajratilishi, sohada tashkiliy-huquqiy masalalarni hal etish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish, sohaga xalqaro standartlarni joriy etish shular jumlasidandir.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli fundamental asarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Unda xususan, jamiyatda adolatni ta'minlash tamoyilini amalga oshiradigan ta'minlovchi fuqarolik institutlarining keng tarmog'ini shakllantirish maqsadida davlat organlarining fuqarolik jamiyatini institutlari bilan

hamkorligi bo‘yicha o‘ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini ishlab chiqish amalga oshirish zarurligi ta’kidlanadi[173].

Korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasida belgilangan. Xususan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkinligi mustahkamlangan.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlari yuqorida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etishi mumkinligi qayd etilgan[174].

Mamlakatimiz va xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki masalalariga oid qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Xususan, huquqshunos olima M.Muxammadiyeva tadqiqotida qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishning barcha bosqichlarida, ayniqsa, ushbu loyihalarni qonunchilik tashabbusi subyektiga kiritish, muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar ishlab chiqish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtirok etishi hamda qonunchilik ijrosi ustidan monitoring olib borish mexanizmlarini takomillashtirish huquqiy asoslantiriladi[175].

A.Shadmanov o’zining tadqiqotida ijtimoiy sheriklik jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish sohasida ham amalga oshirilishi lozimligi, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining asosiy huquqlaridan biri bo‘lishi lozimligi asoslantiriladi[176].

R.Holloveyning “Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” qo‘llanmasi Nodavlat notijorat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi

[173] Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – T. “O‘zbekiston” nashriyoti. – 116 B.

[174] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son.

[175] M.Muxammadiyeva. Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari. Yu.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T. 2023.

[176] A.Shadmanov. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati (nazariya va amaliyot masalalari). Yu.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T. 2024.

sa'y-harakatlari nuqtayi-nazaridan monitoring va targ'ibot xizmatlaridan qanday foydalanishi masalalariga bag'ishlangan.

Qo'llanma nodavlat notijorat tashkilotlarining ikkita asosiy vositasiga - monitoring va targ'ibot hamda loyihani boshqarish uchun xabardorlik va uning istalgan ta'sirini oshirish vositalariga qaratilgan.

Muallifning ta'kidlashicha, nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlari ishlayotgan turli sektorlar, xususan, korrupsiyaga duchor bo'lgan sektorlar va jarayonlarning muammolari to'g'risida chuqur bilimga ega[177].

Nodavlat notijorat tashkilotlari ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, xususan korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda bilvosita ishtirok etadi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaga faqat davlat organlari faoliyati orqali kurashishning o'zi kutilgan natija bermayapti. Bunga keng jamoatchilikni jalb qilmasdan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin emasligi ayon bo'lmoqda. Shuning uchun keyingi paytlarda korrupsiyaga qarshi kurashishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zero, ushbu illatga jamiyatning barcha institutlari xususan nodavlat notijorat tashkilotlarining imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Joriy yilning 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqida jamoatchilik vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlariga murojaat qilib, "Korrupsiyaga qarshi kurash – umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishidir. Umuman, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak. Shu bois, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilishimiz zarur. Avvalo, nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish lozim. Bu – eng to'g'ri yo'l",[178] ekanligini ta'kidladi.

Darhaqiqat, nodavlat tashkilotlari aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash, korrupsiyani ochiqlash, jamiyatdagi korrupsion hodisalarni fosh qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Prezident ta'kidlaganidek, bu tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoniga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishi uchun ularning faoliyatini kengaytirish bugunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati davlat va jamiyatning ishonchini qozonish va korrupsiyaga qarshi kurashishda samaradorlikka erishish uchun muhim hisoblanadi.

Bu borada Parlament nodavlat notijorat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yib, ularning imkoniyatlaridan keng foydalanishi maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha konvensiya talablarini monitoring qilishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish katta samara berishiga ishonch bildirildi. Ushbu maqsadlar uchun yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga har yili 10 milliard so'm ajratib borilishi ta'kidlandi.

Bundan anglash mumkinki, davlat rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashishda aniq siyosiy pozitsiya va irodasi mavjud ekanligini ko'rsatadi.

[177] R. Holloway., 2006. NGO Corruption Fighters' Resource Book - How NGOs can use monitoring and advocacy to fight corruption, unpublished [pdf]. http://www.richardholloway.org/wp content/uploads/2014/04/NGO-Corruption-Fighters-Resource-Book.-Impact-pdf.pdf

[178] Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 2025-yil 6-mart, №46 (1372) son.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, **birinchidan,** korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlari rolini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini samarali ta'minlashga alohida ahamiyat berilishi hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning profilaktik choralardan biri sifatida nodavlat notijorat tashkilotlarini ushbu jarayonga jalb qilinishi natijasida korrupsiyaga oid xalqaro reytinglarda ijobiy yutuqlarga erishish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchidan, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatini targ'ib qilish va aholining bu boradagi xabardorligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan faol hamkorlik yuritish, albatta o'zining ijobiy samarasini beradi. Zero, ularda keng aholi qatlamini qamrab olish imkoni mavjud bo'lib, mazkur sohadagi islohotlarni qo'llab-quvvatlovchilar sonining ortishiga ham ko'makdosh bo'lishi shubhasiz.

Uchinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha konvensiya talablarini monitoring qilish bo'yicha nodavlat notijorat tashkiloti va vakolatli davlat organi o'rtasida aniq Kompleks ishlar rejasini ishlab chiqish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – T. "O'zbekiston" nashriyoti. – 116 B.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son.
3. M.Muxammadiyeva. Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari. Yu.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T. 2023.
4. A.Shadmanov. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyati (nazariya va amaliyot masalalari). Yu.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T. 2024.
5. R. Holloway., 2006. NGO Corruption Fighters' Resource Book - How NGOs can use monitoring and advocacy to fight corruption, unpublished [pdf]. http://www.richardholloway.org/wp_content/uploads/2014/04/NGO-Corruption-Fighters-Resource-Book.-Impact-pdf.pdf
6. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 2025-yil 6-mart, №46 (1372) son.

J.E. Aliyev *– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xalqaro munosabatlari kafedrasi tayanch doktaranti*

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI MILLIY KONTENT YARATISH ISTIQBOLLARI

Kirish. Hozirgi kunda axborot xurujlarlari va dezinformatsiya global xavfsizlik muammolaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida axborot xurujlari davlatlarning ichki barqarorligiga, jamoatchilik fikriga va milliy xavfsizlikka bevosita tahdid solmoqda. O'zbekiston ham ushbu axborot xurujlari va tashqi ta'sirlar sharoitida o'z axborot maydonini himoya qilish zaruratini

his qilmoqda. Milliy kontent yaratish axborot xurujlariga qarshi samarali vosita bo‘lib, u fuqarolarni dezinformatsiyadan himoya qilish, jamiyatni mustahkamlash va milliy manfaatlarni ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi.

ASOSIY QISM

So‘nggi yillarda raqamli media platformalarining ko'payishi va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi global aloqa landshaftini o‘zgartirdi. Ushbu platformalardan foydalanish axborot almashish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ular yangi zaifliklar va muammolarni ham keltirib chiqaradi. Dezinformatsiya, tashviqot va kiberhujumlarning qasddan tarqalishi bilan tavsiflangan axborot xuruji davlat va nodavlat subyektlar uchun jamoatchilik fikrini shakllantirish, hukumatlarni beqarorlashtirish va demokratik jarayonlarga putur yetkazish uchun kuchli vosita sifatida maydonga chiqdi.

Axborot xurujlari – bu davlatlarning axborot maydoniga ta’sir qilish, fuqarolarning fikrini manipulyatsiya qilish va ichki beqarorlikni yuzaga keltirishga qaratilgan strategik harakatlardir [1]. Axborot urushlari nazariyasi [2] shuni ko‘rsatadiki, ommaviy axborot vositalari orqali kun tartibini belgilash orqali jamiyat ongini shakllantirish mumkin. O‘zbekiston mustaqillik yillaridan buyon turli xil tashqi informatsion bosimlarga duch kelmoqda va ushbu tahdidlarga qarshi tura oladigan barqaror axborot tizimini yaratish zarurati tug‘ilgan. Axborot xurujlari bir necha asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

Dezinformatsiya va propaganda – bu axborot xurujlarining eng keng tarqalgan va qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar tufayli yanada xavfli tus oldi. Bu jarayonda soxta yoki manipulyativ ma’lumotlar tarqatiladi, ko‘pincha haqiqatga yaqin ko‘rinadigan, ammo maqsadli tarzda noto‘g‘ri yoki bir tomonlama ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan materiallar ishlatiladi. Masalan, soxta statistika, noto‘g‘ri talqin qilingan voqealar yoki hatto mavjud bo‘lmagan hodisalar haqidagi xabarlar. Maqsad jamoatchilik fikrini chalkashtirish, ijtimoiy tarqoqlikni keltirib chiqarish va davlat institutlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish. Zamonaviy dunyoda dezinformatsiya ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar, soxta yangiliklar saytlari yoki hatto rasmiy ko‘rinishdagi ommaviy axborot vositalari orqali tarqaladi.

Kiber tahdidlar axborot xurujlarining texnologik jihati bo‘lib, davlat va xususiy tashkilotlarning axborot tizimlariga qaratilgan hujumlarni o‘z ichiga oladi. Bu hujumlar orqali maxfiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, infratuzilmani ishdan chiqarish yoki jamiyatda xaos keltirib chiqarish maqsad qilinadi. Xakerlar davlat idoralari, banklar, energetika tarmoqlari yoki hatto shifoxonalar kabi muhim tizimlarni nishonga olishi mumkin. Masalan, 2017-yilda “WannaCry” deb nomlangan zararli dastur dunyo bo‘ylab minglab tizimlarni shifrlab, ulardan foydalanishni to‘xtatib qo‘ydi va millionlab dollar zarar keltirdi. Shu kabi hujumlar davlatlarning raqamli infratuzilmasiga qaratilganda, ular nafaqat iqtisodiy yo‘qotishlarga, balki milliy xavfsizlikka ham tahdid soladi. Yana bir misol 2020-yilda AQSh hukumat idoralariga qarshi amalga oshirilgan “SolarWinds” hujumi, bu yerda xakerlar davlat tizimlariga yashirincha kirib, oylar davomida ma’lumotlarni yig‘ib kelgan. Bunday hujumlar ko‘pincha davlat homiyligidagi guruhlar tomonidan uyushtiriladi va axborot urushining bir qismi sifatida ko‘riladi.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda axborot xurujlarining asosiy maydoniga aylandi, chunki ular milliardlab odamlarga bir zumda yetib borish imkonini beradi.

Bu yerda feyk yangiliklar, troll fabrikalari va botlar keng qo‘llaniladi. Troll fabrikalari – bu maxsus tashkil qilingan guruhlar bo‘lib, ular ijtimoiy tarmoqlarda soxta hisoblar orqali ma’lum bir fikrni targ‘ib qiladi yoki aksincha, muayyan guruh yoki shaxslarga qarshi salbiy fikrlar tarqatadi. Botlar esa avtomatlashtirilgan hisoblar bo‘lib, ma’lumotlarni tezkor tarqatish yoki muayyan mavzuni trendga aylantirish uchun ishlatiladi. Masalan, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi paytida ijtimoiy tarmoqlarda vaksinalarga qarshi dezinformatsiya kampaniyalari kuzatildi. Soxta hisoblar va botlar orqali “vaksinlar xavfli” degan xabarlar tarqatilib, odamlar orasida qo‘rquv va shubha uyg‘otildi. Shu kabi manipulyatsiyalar saylovlarda, ijtimoiy harakatlarda yoki hatto xalqaro munosabatlarni buzishda ham qo‘llaniladi. Ijtimoiy tarmoqlarning algoritmlari esa bunday kontentni yanada ko‘proq odamga yetkazib, ta’sirni kuchaytiradi.

Gibrid urush – bu an’anaviy harbiy usullar bilan birgalikda axborot, iqtisodiy va siyosiy bosimlarni qo‘llashni o‘z ichiga olgan murakkab strategiya. Bu yerda maqsad dushman davlatning ichki barqarorligini zaiflashtirish va uni tashqaridan boshqarish yoki nazorat qilish imkonini beruvchi sharoit yaratish. Axborot xurujlari gibrid urushning muhim qismi sifatida ishlatiladi, chunki ular jamoatchilikni bo‘linishga olib keladi va davlatning qarshi harakat qilish qobiliyatini pasaytiradi.

Mazkur tahdidlar nafaqat davlat organlariga, balki jamoatchilikning axborot xabardorligi darajasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois O‘zbekiston o‘z milliy axborot xavfsizligini ta’minlash uchun tizimli choralarni ko‘rishi lozim. Milliy kontent yaratish orqali O‘zbekiston o‘z axborot makonini mustahkamlashi, milliy manfaatlarini himoya qilishi va global axborot oqimlarida o‘z ovozini mustahkamlashi mumkin. Soft power nazariyasi [3] shuni ko‘rsatadiki, davlatlar o‘z madaniyati, qadriyatlari va media vositalari orqali xalqaro maydonda ta’sir doirasini kengaytirishi mumkin. O‘zbekiston milliy kontent orqali o‘z tarixiy merosi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy barqarorligini targ‘ib qilishi mumkin. Bu jarayonda bir qator kompleks yondashuvlar, jumladan, axborot savodxonligini oshirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish, milliy media platformalar yaratish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, mahalliy kontent ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, huquqiy-siyosiy chora-tadbirlarni mustahkamlash hamda jamoatchilik ishtirokini oshirish kabi yo‘nalishlar markaziy o‘rin tutadi. Ushbu strategiyalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jamiyatning axborot xavfsizligini ta’minlash va milliy qadimiyatlarni asrashga xizmat qiladi.

Axborot savodxonligini oshirish bu jarayonning asosiy poydevori sifatida fuqarolarni dezinformatsiyaga qarshi “immunitetli” qilishga qaratilgan. Bu maqsadda ta’lim tizimida, masalan, maktablarning 7-9 sinflarida “Media va axborot savodxonligi” fanini joriy etish orqali yoshlarga axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini singdirish mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek tilida “Fakt-tekshiruv” mobil ilovasini ishlab chiqish foydalanuvchilarga tezkor tekshiruv imkonini beradi. Janubiy Koreyaning “Digital Literacy” dasturi bu borada muvaffaqiyatli namuna bo‘lib, undan o‘zbek kontekstiga mos tajriba olish mumkin[4].

Axborot savodxonligini oshirish bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish dezinformatsiyani aniqlash va tarqalishini oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. AI ishlab chiqaruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘zbek tilida “deepfake” videolar yoki soxta matnlarni aniqlovchi AI vositalarini ishlab chiqish

mahalliy axborot maydonini himoya qilishga xizmat qiladi. Hukumat va xususiy sektor birgalikda ijtimoiy tarmoqlarda, masalan, Telegram kanallarida mish-mishlar tarqalishini kuzatuvchi monitoring markazini tashkil etishi mumkin. Yevropa Ittifoqining "EUvsDisinfo" loyihasi kabi tajribalardan foydalanib, Google yoki Meta bilan memorandumlar imzolash orqali o'zbek tilidagi kontentni tekshiruvchi filtrlar yaratish ham samarali bo'lardi.

Axborot xurujlari ko'pincha transmilliy xarakterga ega bo'lgani uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish strategiyaning ajralmas qismidir. Markaziy Osiyo davlatlari bilan "Axborot xavfsizligi bo'yicha ittifoq" tashkil etib, har yili konferensiyalar o'tkazish tajriba almashishga yordam beradi[5].

Shu bilan bir qatorda mahalliy kontent ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash esa milliy o'zlikni mustahkamlashda markaziy o'rin tutadi[6]. Bu jarayon huquqiy va siyosiy chora-tadbirlarni kuchaytirish bilan qo'llab-quvvatlanishi zarur. Soxta axborot tarqatganlar uchun jarima yoki ijtimoiy tarmoqlarda bloklash joriy etilishi mumkin. Shuningdek, Telegram, Facebook va Twitter kabi platformalar bilan memorandum imzolab, mahalliy qonunlarga rioya qilish talab qilinishi lozim. Darhaqiqat, axborot xurujlariga qarshi milliy kontent yaratish strategiyasi yuqoridagi yo'nalishlarni kompleks tarzda birlashtirib, jamiyatning axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Axborot savodxonligidan tortib, texnologik innovatsiyalar, milliy platformalar, xalqaro hamkorlik, mahalliy ijodkorlik, huquqiy tartib va jamoatchilik faolligigacha bo'lgan bu yondashuvlar bir-birini to'ldiradi. Natijada, O'zbekiston o'z axborot maydonini mustahkamlaydi, milliy qadimiyatlarni targ'ib qiladi va dezinformatsiyaga qarshi samarali "qalqon" barpo etadi.

XULOSA

O'zbekistonda axborot xurujlariga qarshi milliy kontent yaratish davlat suverenitetini mustahkamlash va milliy manfaatlarni himoya qilish uchun muhim strategiya hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash, axborot savodxonligini oshirish va milliy media platformalar yaratish orqali O'zbekiston axborot urushlariga qarshi samarali tizim yaratishi mumkin. Davlat va jamiyat o'zaro hamkorlikda ushbu strategiyani amalga oshirsa, milliy kontent global axborot makonida mustahkam o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lasswell, H. (1948). The Structure and Function of Communication in Society.
2. McCombs, M., & Shaw, D. (1972). The Agenda-Setting Function of Mass Media.
3. Nye, J. (1990). Soft Power: The Means to Success in World Politics.
4. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society.
5. Huntington, S. (1993). The Clash of Civilizations?
6. Katz, E., & Lazarsfeld, P. (1955). Personal Influence: The Part Played by People in the Flow of Mass Communications.

N.O‘. Shukurov **–** *Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi*

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI SIYOSAT TA’LIM TIZIMI RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir[179]*.*

Shavkat Mirziyoev

Mamlakatimizda ta’lim tizimi, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarining rivojlanishi, davlat va jamiyat extiyoji uchun yetuk kadrlarni yetishtirishda, mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish zamon talabi deyishimiz mumkin.

Xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish, ayniqsa, uni ijtimoiy sohalar – fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalariga jadal tatbiq etilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga zamin hozirlashini ko‘rsatmoqda.

Ta’limning sifati jamiyatni rivojlantiruvchi omil va harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ta’lim qashshoqlik, muhtojlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Ta’lim dunyoqarashni shakllantirish, insonning turmush tarzini tanlashini kengaytirishga yordam beradi, inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatining turli jihatlariga ta’sir ko‘rsatish mexanizmiga aylanadi. Insoniyat sivilizatsiyasi davomida ta’lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanganligi bois mamlakatlar ta’lim tizimini ustuvor rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratgan.

Xususan, Janubiy Koreya milliy ta’lim tizimini raqamlashtirish orqali yuqori o‘sish sur’atlariga erishgan mamlakatlardan hisoblanadi. Ta’lim tizimini takomillashtirish va xalqaro andozalar darajasiga yetkazish orqali uni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash vositasiga aylantirishga e’tibor qaratayotgan O‘zbekiston uchun jahonning ilg‘or mamlakatlari tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi raqamli iqtisodiyotga asoslanganligi va ayni paytda tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar orqali taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Uning bu mavqega erishishida milliy elektron ta’limni shakllantirish va rivojlantirish dasturi muhim rol o‘ynagan[180]. Shu o‘rinda Koreya Respublikasi Ta’lim va personalni boshqarish vazirligi hamda Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha axborot xizmati – “Korea Education and Research Information Service – KERIS tomonidan ishlab chiqilgan milliy elektron ta’limni shakllantirish va rivojlantirish dasturining ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Janubiy Koreyaning “Education Network – EDUNET” tizimi dastlab, 1996-2000 yillarda mamlakatda “Education Network – EDUNET” axborot xizmati shakllantirilib, ta’lim muassasalari pedagoglari raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha qayta tayyorlanishlari bilan bir qatorda aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

[179] 3. Sh.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 440 bet.

[180] Исломов А.А.. Рақамли иқтисодиётда таълим тизимининг ўрни. Олий таълим: муаммо ва ечимлар Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақола ва тезислар тўплами. Тошкент – 2020.

sohasidagi savodxonligi oshirilgan. 2001-2005 yillarda “Education Network – EDUNET” axborot xizmati takomillashtirildi, O‘qitish va ta’lim markazi – “Teachingand Learning Centre” hamda kiber uy ta’limi tizimi – “Cyber Home Learning System – CHLS” ta’sis etilib, elektron ta’limni joriy qilishga asoslangan raqamli kutubxonalar shakllanishiga sharoit yaratgan[181].

“CHLS” tizimi barcha ijtimoiy tabaqadagi talaba yoshlarning qiziqishlari va bilimi darajasidan kelib chiqqan holda tegishli o‘quv dasturlarini tanlash, repetitorlarga murojaat qilmasdan qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Mazkur tizimni orqali talabalar dars mashg‘ulotlariga qo‘shimcha tayyorgarlik ko‘rishlari, ortiqcha pul sarflamasdan xorijiy tillarni o‘zlashtirishda qulaylik yaratadi.

Buyuk Britaniyaning “Pearson” xalqaro guruhi tomonidan har yili e’lon qilib boriladigan milliy ta’lim tizimlari samaradorligi reytingida ushbu mamlakat yaqin vaqtgacha ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoda peshqadamlikni qo‘ldan bermay kelgan Yaponiyani ham ortda qoldirdi. Bu Janubiy Koreyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yuksak darajada taraqqiy etgani samarasidir.

Janubiy Koreyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi indeksining yuqoriligi axborot texnologiyalari sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushida ham o‘z aksini namoyon qiladi. Ushbu ko‘rsatkich Janubiy Koreyada 9 foiz, Yaponiyada 5,5 foiz, Xitoy va Hindistonda 4,7 foiz, O‘zbekistonda atigi 2,2 foizni tashkil etadi. Janubiy Koreya ta’lim sohasiga davlat byudjetidan ajratayotgan mablag‘ 11,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Ayni paytda aholisi 51 mln. kishidan ortiq bo‘lgan mamlakatda 419 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud. Ushbu davlat har 100 ming aholi soniga to‘g‘ri keladigan talabalar soni bo‘yicha ham dunyoda peshqadam.

Mamlakatda umumta’lim o‘rta maktablarini tugallagan yoshlarning 70 foizi oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettiradi. Ularning salmoqli qismi masofadan turib ta’lim olib, bakalavr darajasiga ega bo‘lish imkoniyatiga egadir. Yuqori malakali mutaxassislar Janubiy Koreya iqtisodiyotining yuqori sur’atlarda rivojlanishini ta’minlamoqda. Xalqaro valyuta jamg‘arasi ma’lumotlariga ko‘ra, Janubiy Koreyada aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) 2024 yilda $36 000 AQSh dollarini tashkil etdi[182]. Ayni paytda Janubiy Koreyada “raqamli iqtisodiyot”ning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi 8,0 foizga yetgan. Bu ham jahonda Buyuk Britaniyadan (12,4 foiz) keyin ikkinchi o‘rinli natijadir. Shu bilan birga, Janubiy Koreya ta’lim sohasida “raqamlashtirish” bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli siyosat qurishda zarur bo‘lgan asosiy omillardan biri bu aholining raqamli savodxonlik darajasining oshishidir. Raqamli savodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha AQSh Kanada, Estoniyada bir qancha tajribalar mavjud.

Xususan, Aholining raqamli savodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha Amerika Qo‘shma Shtatlarida Digitalliteracyassessment.org (raqamli savodxonlikni oshirish va baholash) platforma mavjud bo‘lib bu platforma orqali istagan shaxs raqamli savodxonlik kurslarini o‘qishi va kurs yakunida kursni tamomlaganlik haqidagi sertifikatga egalik qilishi mumkin bo‘ladi. Bundan ko‘zlangan maqsad aholini raqamli iqtisodiyotda faol qatnashuvchilari sifatida tayyorlab borish va buning natijasida

[181] O’sha yerda.

[182] Ahali jon boshiga YaIM: Janubiy Koreya Yaponiyani ortda qoldirdi: https://www.xabar.uz/xorij/aholi-jon-boshiga-yaim-janubiy-koreya-yaponiyani-ortda-qoldirdi

mamlakatning YaIM dagi raqamli iqtisodiyot ulushini oshirishga xizmat qilishi bilan ifodalanadi.

AQShdagi raqamli savodxonlikni oshirish va baholash tizimining ijobiy jihatlaridan biri bu inson hayot faoliyatidagi asosiy raqamli ko‘nikmalarni 3 ta yo‘nalishga bo‘lib o‘rgatadi va shu asosida baholaydi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli ko‘nikmalarni oshirish loyihalarida bu kabi jihatlar yo‘q. Jamiyatning raqamlashish jarayonlariga keng ta’sir etuvchi yo‘nalishlardan bo‘lgan raqamli ta’lim (ba’zi davlatlarda elektron ta’lim yoki onlayn ta’lim deb yuritiladi) sohasida AQSh va Xitoy tajribasini na’muna sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, AQShda yaratilgan eLearning dasturi an’anaviy ta’lim tizimining raqobatchisiga aylangan. AQSh fuqarolari topish nisbatan qiyin bo‘lgan o‘quv kursini izlayotgan bo‘lsa, uni ko‘plab elektron ta’lim muassasalaridan birida o‘rganishi mumkin. AQShdagi elektron ta’lim sektori dunyoning eng keng tarqalgan sohalaridan biri bo‘lib, u turli soha va bo‘shliqlarni qamrab oladi.

AQShdagi Sloan Konsortium (onlayn ta’lim konsorsiumi) nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan 2017 yilda o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlardagi 6 million talaba onlayn kurslar orqali tahsil olganligini ta’kidlagan[183]. Ushbu onlayn kurslarda qatnashuvchilar soni shunchalik kattaki, bu bir qancha nufuzli muassasalarning onlayn o‘quv kurslarini taklif qilishiga sabab bo‘lgan. Stanford, Berkeley, Princeton, UCLA va boshqa bir qator institut va universitetlar ushbu o‘quv shaklini tanlamoqchi bo‘lganlarga yordam berish uchun eLearning kurslari uchun joy ajratgan.

Ma’lumotlarga qaraganda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi indeksida mamlakatimiz 176 mamlakat orasida 95-o‘rinni egallagan. Bundan ko‘rinib turibdiki yurtimizda ta’lim tizimini, iqtisodiy sohalarni rivojlantirishimiz uchun albatta raqamli texnologiyalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalanishning huquqiy asosi mustahkamlanib kelmoqda. O‘zbekiston 2000 yillarning boshlaridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Jumladan, “2013-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “O‘zbekiston 2030” strategiyasida milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan[184].

Qolaversa Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 33-moddasida Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaligi, Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi[185] belgilab qo‘yilishi mamlakatmizda raqamli siyosat borasidagi ishlarning huquqiy asosi bo‘ldi deyishimiz mumkin.

---

[183] Bowden P. Beginners Guide to Massive Open Online Courses (MOOCs) https://www.classcentral.com/help/moocs.

[184] Ф. Хакимов. Рақамлаштириш – Янги Ўзбекистон тараққиётининг муҳим «драйвери». https://strategy.uz/index.php?news=1518&lang=uz2

[185] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

Shu bilan birga, ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonlari tizimli ravishda tashkil etilmayotganligi turli fors-major vaziyatlarda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 3 ta raqamli ta’lim platformasi hozirgi kunda faoliyat olib bormoqda. Bular: Eduportal.uz, online.uzedu.uz hamda Maktab.uz platformalari. O‘zbekiston bo‘ylab, Eduportal.uz portalidan 65 mingga yaqin o‘qituvchilar, 100 dan ortiq o‘quvchilar va 170 ga yaqin maktablar, online.uzedu.uz platformasida 7.125 ta turli formatdagi resurslar joylangan bo‘lib, ulardan bor yo‘g‘i 2.605 ta o‘quvchi, 22 mingdan ortiqroq o‘qituvchi foydalanib kelmoqda. Maktab.uz portalining imkoniyatlari yuqori bo‘lishiga qaramasdan, mazkur portalga bir oy davomida tashriflar soni jami maktab o‘quvchilarining 5 foiziga to‘g‘ri kelmoqda.

Hozirgi kunda Respublika bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari jami 211 ta bo‘lib, ulardan 126 tasi HEMIS platformasiga ulangan[186].

Ma’lumot uchun: *HEMIS platformasida ixtisoslik va yo‘nalishlar bo‘yicha fanlarni mustaqil o‘rganishga ko‘maklashuvchi ma’lumotlarni har bir OTM o‘ziga tegishli sahifaga joylashtiradi. Talabalar HEMIS platformasida faqatgina o‘zi tahsil olayotgan OTM ma’lumotlar bazasidan foydalanishi mumkin. O‘zbekistondagi yetakchi OTMlari tomonidan ishlab chiqilgan ma’lumotlardan boshqa OTMlari talabalari foydalanolmaydi. Bu esa raqamli ta’lim sohasida tengsizlikni yuzaga keltiradi.*

Bundan tashqari, Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining platformalari bir biriga o‘zaro bog‘lanmagan. Shuningdek, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarining raqamli platformasi yaratilmagan. Yuqorida qayd etilgan holatlar SOVID-19 pandemiyasi keng tarqalgan vaqtda va 2023 yil yanvar oyida mamlakatimiz bo‘ylab kuzatilgan anomal sovuq davrida ta’lim sifatiga ta’sir o‘tkazgan. Xususan, 2023 yilgi anomal sovuq kirib kelishi natijasida ta’lim muassasalarida 43 darslar 20 kunga ortga surilishiga, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun yuklamalarning ortishiga olib kelgan.

Shu bilan birgalikda, aholining raqamli savodxonlik darajasining pastligi raqamli xizmatlardan foydalanish darajasiga ta’sir o‘tkazmoqda.

Xususan, 2018 yilda O‘zbekiston aholisining atigi 13,6 foizi asosiy raqamli ko‘nikmalarga va 6,8 foizi standart raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2020 yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 14 va 8 foizni tashkil etgan1. 2021 yilda standart raqamli ko‘nikmalar ega aholi 15 foizga yetgan. AQShdagi Wiley nashriyoti tomonidan nashr qilingan “Digital Skills Index 2021” tadqiqotida raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha Yevropa va Markaziy Osiyoning 45 ta davlati orasida O‘zbekiston 10 ballik tizimda 4.6 ball bilan 43 o‘rinda qayd etilgan[187]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash joizki mamlakatning butun uzluksiz ta’lim tizimida elektron ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun maxsus davlat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish vaqti keldi. Bunday dasturlar faqat Janubiy Koreyada emas, shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Singapur, Malayziya kabi 40 dan ortiq mamlakatda qabul qilingan. O‘zbekistonning uzluksiz ta’lim tizimida elektron ta’limni joriy etish, kadrlar boshqaruvi masalasidagi muammolar yechimini topish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

[186] O’liy ta’lim, fan va innivatsiyalar vazirligi axborot xizmati rahbari N.Abduqunduzovaning axboroti: https://gov.uz/oz/edu/news/view/19441

[187] Digital Skills Gap Index 2021 https://dsgi.wiley.com

• mamlakatimiz oliy ta’lim tizimi kadrlarini boshqarish elementlaridan biri bo‘lgan rotatsiya tizimini amalga oshirishda tashkilot ma’muriyatining vakolatlarini kengaytirish bilan birga javobgarligini ham oshirishni maqbulligini ko‘rib chiqish kerak;

• barcha ta’lim muassasalarining “Elektron ta’lim” milliy tizimiga ulanishini ta’minlash;

• hozirda faoliyat ko‘rsatayotgan HEMIS – Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi platformasi imkoniyatlarini yanada kengaytirish;

• Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha yaratilgan “Ustoz” maxsus platformasi orqali yoshlar marketing, reklama, elektron savdo, IT-dizayner kabi zamonaviy kasbga o‘rgatish tizimini yo‘lga qo‘yish;

• mamlakat fuqarolariga masofadan turib barcha ixtisosliklar va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘rta maxsus va oliy ta’lim olish, shu jumladan, chet el oliy ta’lim muassasalarining elektron ta’lim tizimidan ham foydalanish imkoniyatini yaratish;

• elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, maxsus interfaol dasturlar, videomateriallar, adabiyotlar yaratish va sertifikatlashni jadallashtirish uchun maxsus davlat muassasasi tashkil etish va uning faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

• jahonning nufuzli ta’lim muassasalari tomonidan yaratilgan elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, maxsus interfaol dasturlar, videomateriallardan masofadan turib ta’lim olish milliy tizimida foydalanish imkoniyatini yaratish kabi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 yilda umumxalq referendumida qabul qilingan

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son Qonuni

3. Sh.Mirziyoev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 440 bet.

4. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Prezident Farmoni

5. “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Prezident Farmoni

6. Islomov A.A.. Raqamli iqtisodiyotda ta’lim tizimining o‘rni. Oliy ta’lim: muammo va yechimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqola va tezislar to‘plami. Toshkent – 2020.

7. https://www.classcentral.com/help/moocs.

8. https://gov.uz/oz/edu

9. https://strategy.uz/

S.S. Abduraxmanov *– Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

MAHALLIY KENGASHLAR HAMDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SIYOSIY-HUQUQIY JIHATLARI

Hozirgi kunda O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalliy kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlarning tashkiliy asoslarini takomillashtirish hamda mustahkamlash muhimdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida o‘zining haqli e’tirozlarini bildirib o‘tdi: “Agar xulosa qilmasanglar, buni zamon ko‘tarmaydi. Faqat va faqat kengash, kengash, kengash. Qonunlar nuqtai nazaridan, talab nuqtai nazaridan, “Yangi O‘zbekiston” shiori nuqtai nazaridan joylarda kim ishlamayotgan bo‘lsa, ketishi kerak, menga taklif beringlar. Kengash ovozi baralla xalq ovozi bo‘lishi kerak, xalqning dardi bilan yashashi kerak. Kengash qaror qildimi, qonun bo‘lishi kerak. Nimaga desangiz, jamiyatimizda sifat nuqtai nazaridan odamlarning talabi o‘sib bormoqda[188]”.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 83-maqsad sifatida erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha xabga aylantirish orqali ommaviy axborot vositalarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirib, ularning professional faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishni kafolatli ta’minlash kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan[189].

Bu esa o‘z-o‘zidan O‘zbekistonda mahalliy kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy tahlilini amalga oshirish dolzarb masala ekanligini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘zbekistonda mahalliy kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy tahliliga bog‘liq masalalar Z.Isroilova, S.Adilxodjayeva, Sh.Asadov, D.Bekchanov, A.Dadasheva, Sh.Jalilov, G.Ismailova, A.Yo‘ldoshev, G.Malikova, A.Mahmudov, S.Muratayev, X.Odilqoriyev, M.Radjabova, X.Ruzmetov, I.Sobirov, A.To‘laganov, I.Xamedov, O.Xusanov, A.Babadjanovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida V.Avseenko, A.Akmalova, G.Atamanchuk, M.Baglay, V.Baranchikov, G.Barabashev, N.Bandar, V.Bocharov, T.Byalkina, O.Kishakovskaya, R.Muxayev, M.Yegorovalar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa A.Gerbert, M.Jefferi, A.Tompson, U.Donald, V.Smitburg, Jesse Ribbot, Keys Miller Allin Lokner (AQSH), A.Chandler, J.Kingdom, Stiv Parkinson, Rod Latham, Rojer Kemp (Buyuk Britaniya), Karlos Silva Jan Buchek

[188] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishidagi nutqi, https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/14/kengash/.

[189] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030”, 2023-yil 11-sentabr, https://lex.uz/ru/docs/-6600413

(Shveytsariya), Maleka Banu, Siddik Kamal (Bangladesh), Orapin Sopchokchai (Tailand) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o‘rganilgan.

Muhokama va natijalar. Avvalo, shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari sirasiga kiradi. Xususan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 69-moddasiga binoan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi belgilangan[190].

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvarda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-son Qonun 4-moddasiga asosan, ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog‘idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan, qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasi ekanligi ko‘rsatilgan[191].

Demak, mahalliy kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlar deyilganda, mahalliy kengashlar hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlar tushuniladi.

Huquqshunos olim M.V.Nazukinaning fikricha, mahalliy kengashlarning ommaviy axborot vositalari va matbuot anjumanlarida o‘z faoliyati yuzasidan chiqishlar qilib turishi mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligini baholash me’zonlari doirasiga kiradi[192]. Shu bilan birgalikda, A.Maxmudovning fikricha, mahalli kengashning yakuniy nazorat turi orqali, qoida tariqasida, faoliyatga baho beriladi, uning natijalari ko‘rib chiqiladi, yakuniy xulosalar ishlab chiqiladi yoki tavsiyalar va ularning doimiy komissiyalarida mansabdor shaxslarning axborot va hisobotlari eshitiladi[193]. Ya’ni, ommaviy axborot vositalari mahalliy kengashlarning nazorat funksiyasini amalga oshirishda muhim ko‘makchi vazifasini bajaradi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokim va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishda ommaviy axborot vositasi vakillari taklif etilishi mumkinligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonun 25[1]-moddaning beshinchi qismiga asosan, viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli hududda joylashgan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

[190] Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel, https://lex.uz/docs/-6445145#-6445696

[191] O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-son Qonun, 2007-yil 15-yanvar, https://lex.uz/docs/-1106870

[192] Назукина М.В. Образы и оценки муниципальных депутатов в представлениях локальных элит Пермского края // Ars Administrandi (Искусство управления). 2017. Том 9. – № 4. – С.654.

[193] Maxmudov A. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T..: 2019.– B.90.

Shuningdek, yuqoridagi Qonun 25[2]-moddaning uchinchi qismiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishga tegishli hududda joylashgan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakillari taklif etilishi mumkin[194]. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi siyosiy-huquqiy normada ommaviy axborot vositasi vakillarining taklif etilgan holatda ishtirok etishi emas, balki ularning o‘zlari ham xohish bildirganda ishtirok etishini ta’minlab beradigan siyosiy-huquqiy mexanizmni mustahkamlab qo‘yish lozim.

Ikkinchidan, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari qarori asosida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasining tegishli hududiy bo‘limlari faoliyatini samarali tashkil qilish, saqlash xarajatlarini qoplash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan subsidiya sifatida mablag‘ ajratib boorish majburiyati mavjudligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son Qarori bilan tasdiqlangan 2022-2023-yillarda ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash hamda jurnalistika sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturiga binoan, 2022-yil avgustdan doimiy asosda yuqoridagi majburiyat bajarilishi belgilab qo‘yilgan[195]. Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi asosiy maqsadi jurnalistlarning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeyini ko‘tarish, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, turli gazeta, jurnallar, tele va radiokanallarda, nashriyot va axborot agentliklarida ishlayotgan, shuningdek, erkin ijodkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ijodiy hamda mualliflik huquqlarini, sha’ni va qadr-qimmatini, davlat va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining muassislari va noshirlari oldidagi huquq va manfaatlarini himoya qilish hisoblangan mustaqil, o‘zini o‘zi boshqaruvchi, nodavlat jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonunida mahalliy kengashlarning fuqarolik jamiyati institutlari doirasiga kiradigan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini tartibga soladigan birorta huquqiy norma o‘z aksini topmaganligi. Shu sababli, birinchidan, yuqoridagi huquqiy bo‘shliqni bartaraf etish hamda mahalliy kengashlarning fuqarolik jamiyati institutlari doirasiga kiradigan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini tartibga solish, ikkinchidan, ushbu holat bevosita O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi “Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonuni 13-14-moddalariga asosan[196], vakolatlarning noaniqligi hamda ma’muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi kabi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni yuzaga kelishini olini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonunini quyidagi mazmundagi huquqiy norma bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: *“Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik jamiyati institutlari bilan*

[194] O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonun, 1993-yil 2-sentabr, https://lex.uz/ru/docs/-112170.

[195] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-294-son Qarori, 2022-yil 27-iyun, https://lex.uz/uz/docs/-6083381#-6084278

[196] O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonuni, 2023-yil 8-avgust, https://lex.uz/docs/-6561894

hamkorlik qiladi". Ushbu taklifdagi qonunchilik hujjatlari deyilganda, normativ-huquqiy hujjatlar nazarda tutilmoqda.

Xulosalar. Bizning fikrimizcha, mahalliy kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlar deyilganda, mahalliy kengashlar hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlar tushuniladi.

O‘zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokim va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishda ommaviy axborot vositasi vakillari taklif etilishi mumkinligi;
- xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari qarori asosida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasining tegishli hududiy bo‘limlari faoliyatini samarali tashkil qilish, saqlash xarajatlarini qoplash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan subsidiya sifatida mablag‘ ajratib boorish majburiyati mavjudligi.

Shuningdek, quyidagilarni nazarda tutadigan takliflar O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonun tegishli moddalariga kiritilishi maqsadga muvofiq:

- xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokim va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishda ommaviy axborot vositalari vakillarining taklif etilgan holatda ishtirok etishi emas, balki ularning o‘zlari ham xohish bildirganda ishtirok etishini ta’minlab beradigan siyosiy-huquqiy mexanizmni mustahkamlash;
- xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilishi mazmunidagi huquqiy normani qonun darajasida belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishidagi nutqi, https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/14/kengash/
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030”, 2023-yil 11-sentabr, https://lex.uz/ru/docs/-6600413
3. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel, https://lex.uz/docs/-6445145#-6445696
4. Назукина М.В. Образы и оценки муниципальных депутатов в представлениях локальных элит Пермского края // Ars Administrandi (Искусство управления). 2017. Том 9. – № 4. – С.654.
5. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-son Qonun, 2007-yil 15-yanvar, https://lex.uz/docs/-1106870
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-294-son Qarori, 2022-yil 27-iyun, https://lex.uz/uz/docs/-6083381#-6084278

7. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonuni, 2023-yil 8-avgust, https://lex.uz/docs/-6561894

D.D. Jumaniyazov - *Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti*

JAMOATCHILIKNI IJTIMOIY-SIYOSIY AXBOROTLARDAN XABARDOR QILISHDA “KUN TARTIBINI BELGILASH” NAZARIYASI

Ijtimoiy-siyosiy axborotlar tarix davomida davlat boshqaruvi va jamiyat tuzilishini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo‘lib kelgan. Ushbu axborotlar davlat siyosatini belgilash, jamoatchilik fikrini shakllantirish, qonunchilik jarayonlarini yo‘naltirish va jamiyatni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. “Ijtimoiy-siyosiy axborot” tushunchasi ommaviy axborot vositalarida, rasmiy munosabatlarda hamda ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilsa-da, unga berilgan aniq ta’rif keltirilmagan. Ushbu tushunchani ilmiy jihatdan ochiqlash maqsadida morfologiyasi hamda mazkur tushunchaga ilmiy adabiyotlardagi yondashuvlar o‘rganildi.

“Ijtimoiy-siyosiy axborot” so‘zining morfologiyasi ko‘ra “ijtimoiy-siyosiy” tushunchasi sifatdosh hisoblanadi. Bunda ikkita mustaqil sifatni chiziqcha (-) bilan birlashtirgan holda dastlabki sifat ma’no jihatdan dominantligini anglatadi, agar bu sifatlar chiziqcha bilan ajratilmasa har bir sifat mustaqil ma’noga ega bo‘ladi[197]. Ya’ni ijtimoiy-siyosiy tushunchasi ijtimoiy siyosat so‘zining sifat shakli hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy axborot tushunchasidagi axborot so‘ziga aniq va asosli izohlar berilgan. “Axborot” arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib “ma’lumot berish”, “ma’lumot yetkazish” degan ma’noni anglatadi [198].

Ijtimoiy-siyosiy axborot tushunchasiga nisbatan ilmiy-nazariy yondashuvlarni asoslashdan oldin ijtimoiy siyosat va axborot tushunchalarining ilmiy mohiyatini ochiqlash maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy siyosat konsepsiyasi tahliliy markazlar, universitetlar va uni o‘rganishga ixtisoslashgan olimlar tomonidan ifodalangan turli ta’riflarni o‘z ichiga oladi. Ulardan London iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabiga ko‘ra “Ijtimoiy siyosat ijtimoiy-iqtisodiy maqom, irqi, etnik kelib chiqishi, migratsiya holati, jinsi, jinsiy oriyentatsiyasi, nogironligi va yoshi bilan belgilanadigan ijtimoiy guruhlar o‘rtasida hamda mamlakatlar o‘rtasida xizmatlardan foydalanish va qo‘llab-quvvatlashdagi tengsizliklarni aniqlash va kamaytirish yo‘llarini topishga qaratilgan” deb hisoblaydi[199]. M. Viner ijtimoiy siyosat markazi ijtimoiy siyosatni “sog‘liqni saqlash, inson xizmatlari, jinoiy sudlov, tengsizlik, ta’lim va mehnat sohasidagi davlat siyosati va amaliyoti” deb ta’riflaydi[200]. ijtimoiy siyosat davlat tomonidan jamiyat farovonligini ta’minlash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan iborat bo‘lgan siyosiy faoliyat ekanligidir.

[197] M. Hamroyev, D. Muhamedova, va boshqalar .Ona tili. -T. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2007. 102-110-b

[198] Jalilov A. Begmatov A. va b. Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazorati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi. 2013. 64-b.

[199] Author Professor Lucinda Platt Department of Social Policy The London School of Economics and Political Science (LSE). What is social policy? International, interdisciplinary and applied: Article. 2025

[200] Presidents and Fellows of Harvard. About the Malcolm Wiener Center. 2006. The USA

Axborot tushunchasiga nisbatan ijtimoiy nuqtayi nazardan berilgan ta'riflardan biri rus olimi V.D Popov bergan ta'rifiga ko'ra: "Keng ma'nodagi axborot bu-jamiyatning borlig'i va uning ongida mavjud dalillarni turli ko'rinishda aks etishining natijasidir. Tor (funksional, ijtimoiy) ma'noda esa axborot -sosium (jamiyat) hayotining ko'pqirraliligi aks ettirilgan aylanmasi (sirkulyatsiyasi), xabar tarzida uzatilishi demakdir"[201]. Mahalliy olimlari tomonidan berilgan ta'riflarga ko'ra "Axborot-bu tayyorlangan ma'lumotlardan biror narsa (jarayon, hodisa) to'g'risida aniqlikni oshirish maqsadida foydalangan ma'lumotlar. .Axborot-iste'mol uchun tayyorlangan tevarak-atrofdan (manbalar) olingan ma'lumotlar. Axborot voqea va hodisalar haqida iste'moldagi ma'lumotlarni beradi. Hodisa va voqealar mazmun-mohiyatini ochib beradi"[202].

Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy platformalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunish muhim ahamiyat kasb etmoqda. **"Kun tartibini belgilash nazariyasi"** hozirgi kunda axborot oqimlarini shakllantirish va jamoatchilik e'tiborini muayyan mavzularga qaratish jarayonlarini chuqurroq o'rganishni taqozo qiladi. Digital media rivojlanishi natijasida bu nazariyaning yangi kontekstda tahlil qilinishi zarurati ortib bormoqda.Kun tartibini belgilash nazariyasi (Agenda-setting theory). Mazkur nazariyaning dastlabki qarashlarini 1922-yilda V. Lipman o'zining "Public Opinion" kitobida qo'llagan, garchi kun tartibini belgilash nazariyasini ushbu nomi bilan atamagan bo'lsa-da, bu nazariyaning fundamental tushunchasi va mohiyatini ochiqlagan. Lipman ushbu kitobdagi fikrlariga ko'ra jamoatchilik atrofdagi real voqealarga emas, psevdo-muhitiga (yunoncha pseudos-yolg'on) munosabat bildirishini tushuntirgan. Lipman quydagi fikrni ilgari surgan "Haqiqiy muhit haddan tashqari katta, murakkab va o'zgaruvchan bo'lgani uchun biz uni bevosita idrok eta olmaymiz. Biz bunday noziklik, xilma-xillik va murakkablikni to'liq anglash uchun yetarli qobiliyatga ega emasmiz. Shunga qaramay, biz ushbu muhitda harakat qilishimiz kerak, va buning uchun uni boshqarishimiz mumkin bo'lgan soddalashtirilgan modelga aylantiramiz"[203].

Lipmanning ta'kidlashicha, biz juda katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish va tahlil qilishga qodir emasmiz. Natijada, tayyor stereotiplardan foydalangan holda ma'lumot qisqartirilgan shaklida yetkazib beriladi. Kun tartibini belgilash nazariyasiga ko'ra jamoatchilikka axborotlarni yetkazish jarayonida ommaviy axborot vositalari muayyan axborotni boshqa axborotlarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratishi asosida jamoatchilik e'tiborini yo'naltiriladi. Mazkur nazariya 1968-yilda amerikalik olimlar M. Makkombs (Texas Universiteti) va D. Shou (Jaralina universiteti) tomonidan ilgari surilgan hamda asoslab berilgan.

Sh. Iyengar, J. Tankard, D. Weaver, M. Makkombs va D. Shou kabi bir qator olimlarning izlanishlar olib borgan. Xususan, M. Makkombs va D. Shou o'zlarining "Ommaviy axborot vositalarining kun tartibini belgilash funksiyasi" kitobida jamoatchilikka axborot yetkazishda jamoatchilik uchun eng zarur ma'lumotlarni tanlash va ulardan jamoatchilikni xabardor qilishga oid yondashuvlarni asoslantirilgan. Kun tartibini belgilash nazariyasida jamoatchilikka axborotlarni

[201] В.П. Попова. Информационная политика. Учебник.-М.: РАГС, 2003. С-35

[202] Mamadaliyev Sh., Ernazarov R. Demokratiya. Izohli lug'at.-T.: O'zbekiston Respublikasi IIBning Akademiyasi. 2012. 9-10-b.

[203] Lippmann, W. (1922). *Public Opinion*. Harcourt, Brace and Company. (pp. 13-16).

yetkazish yondashuvini uch guruhga ogohlik, ustuvorlik va muhimlik ajratishgan[204]: **M. Makkombs va D. Shouning yondashuviga ko‘ra axborotlardan jamoatchilikni samarali xabardor qilish quyidagicha yondashgan.**

Dastlab “*haqiqiy voqealik”*ni (Reality) aniqlash orqali axborotning boshlang‘ich nuqtasini shakllantirish, ikkinchi bosqichda “*axborot nazorati”* (Gatekeeping) shakillantiriladi bunda qaysi voqealik yetkazilishi kerak yoki chiqarib tashlash orqali ommaviy axborot vositalari o‘z kun tartibini belgilaydi, uchinchi bosqichda “*media kun tartibi”* (Media Agenda) kerak deb topilgan axborotlar ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka namoyish qilinadi, to‘rtinchi bosqichda “*jamoatchilik kun tartibi”* (Public Agenda) jamoatchilikka e’tibori munozarali va muhokamali mavzularga qaratiladi, so‘ng bosqichda “*siyosiy kun tartibi”* (Policy Agenda) jamoatchilikning davlat siyosati va qonunchilikka ta’sir ortadi va bu jarayonda ishtiroki kengayadi[205]. Ushbu yondashuv orqali ijtimoiy-siyosiy qarorlarni samaradorligini oshirishda jamoatchilik va hukumat o‘rtasidagi axborot almashish sirkulyatsiyasini yaxshilashi bilan bir qatorda jamoatchilikni ijtimoiy-siyosiy axborotlarni mustaqil idrok qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yangi media nazariy yondashuvi. Mazkur nazariy yondashuvning bir qator vakillari H. Jenkins, L. Manovich va E. N Teterlar kun tartibini belgilash nazariy yondashuvi asosida axborotni jamoatchilikka yetkazishda atributlarini bir tomonlama emas, ikki tomonlama tadqiq qiladi. Xususan, H. Jenkins, olimlarning yondashuviga ko‘ra jamoatchilikka axborotlarni yetkazishga oid klassik nazariy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish lozimligini asoslashgan. Mazkur olimlarning yondashuviga ko‘ra jamoatchilikka axborot yetkazishni tadqiq qilishda faqat an’anaviy ommaviy axborot vositalarini emas, uchta “an’anaviy oflayn media”, “an’anaviy onlayn media” va “ijtimoiy tarmoqlar”ni jamoatchilikka axborot tarqatishdagi ta’sirini va kun tartibini belgilash jarayonini alohida tadqiq qilish murakkabligicha qolmoqda[206]. Mazkur olimlar axborotda dinamikasida media tizimi “gibrid”lashayotganini quyidagi omillar bilan bog‘lagan.

Auditoriyaning o‘zgarishi-bugungi kundada media auditoriyasi nafaqat iste’molchi balki kontent muallifi hamda axborot ishlab chiqaruvchisidir;

Media manbalari tarkibining o‘zgarishi – an’anaviy elektron OAV (radio, TV), bosma nashrlar va internet medianing alohida shakllanishi bilan o‘zaro murakkab shaklda integratsiyalashuvi kuzatilmoqda.

Translyatsiya shakllari va kanallarining o‘zgarishi – axborotlarning uzatilish usullari yangilanmoqda va ko‘p kanalli shaklda rivojlanmoqda.

Turli media shakllarining paydo bo‘lishi va ommalashuvi – Har xil uzatish kanallarini birlashtirgan yangi media formatlari tobora keng tarqalmoqda.

Yangi media nazariy yondashuvi jamiyatda axborot olish va tarqatishda demokratik axborot maydoni yaratgan bo‘lsa-da, jamoatchilikka axborot yetkazishda bir qator muammolar xususan, axborot xuruji va manipulyatsiya xavfi yuqoriligicha qolmoqda.

Intermediya kun tartibini belgilash (Intermedia Agenda-Setting) nazariy yondashuvi. Mazkur nazariy yondashuv turli ommaviy axborot vositalari o‘rtasida

[204] McCombs, Maxwell, E. "Agenda-Setting Research; A Bibliographic. Essay". 1976. (pp. 1-24)

[205] McCombs, M . *Setting the Agenda: The Mass Media and Public Opinion.* Cambridge, UK: Polity Press. pp 27-72. 2004

[206] E.Nowak . Agenda-setting theory and the new media. Article. Maria Curie-Skłodowska University pp1-15. 2018 https://www.researchgate.net/publication/322602862_Agenda-setting_theory_and_the_new_media

yangiliklar jamoatchilikka qanday uzatilishini o‘lchash hamda axborotlarni internet orqali tarqatadigan manbalar (platformalar, veb-saytlar va boshqalar) chegarasini aniqlash, va kun tartibini belgilash nazariy yondashuvida qo‘llashga qaratilgan izlanishlarni amalga oshiradi. D.R. Stephen, T. Bolsen, Sh.E. Meraz, R.A. Harder, J. Sevenans, va P.V. Aelst kabi olimlar mazkur nazariy yondashuv orqali jamoatchilikka axborot yetkazishda axborot oqimi, media ta’siri, siyosiy kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlarning roli kabi turli jihatlarni tadqiq qilishgan.

Xususan, R.A. Harder, J. Sevenans va P.V. Aelst kabi olimlar fikrlariga ko‘ra an’anaviy jamoatchilikka axborot tarqatishda qat’iy tartib qoidalar belgilangan bo‘lsa intermediada bu jarayon murakkabligicha qolgan. Hozirgi media muhitida axborot manbalarini deyarli har kim yaratishi mumkin shu sababli ijtimoiy media, bloglar va onlayn manbalar an’anaviy media bilan teng raqobat qilmoqda[207]. Intermedia orqali kun tartibini teskari belgilash effekti nazariy yondashuvida ommaviy kun tartibi ommaviy axborot vositalarining kun tartibini belgilashi mumkin. M. Makkombs ilmiy adabiyotlarida "teskari kun tartibini belgilash" haqida jamoatchilik tashvishi ommaviy axborot vositalarining kun tartibini belgilaydigan vaziyat sifatida belgilab o‘tadi208. Intermedia kun tartibini belgilash nazariyasida axborotlar tez tarqalishi, demokratik muhit hamda teskari kun tartibini belgilash imkoniyati bor. Lekin, mazkur nazariy yondashuvning kamchiliklari axborotning tartibsizlikki, axborot tarqatishda an’anaviy ommaviy axborot vositalaridagidek ta’lab va me’yorlarning yo‘qligidir.

Xulosa, “Kun tartibini belgilash” nazariyasi jamoatchilikni ijtimoiy-siyosiy axborotlar bilan tanishtirish jarayonida muhim konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Mazkur nazariya ommaviy axborot vositalarining auditoriya e’tiborini muayyan mavzularga qaratishdagi rolini ochib berib, axborot oqimlarini shakllantirish jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. An’anaviy OAV bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlar va yangi media platformalarining rivojlanishi kun tartibini belgilash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyev M., Muhamedova D. Ona tili. -T. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2007. 102-110-b.
2. Jalilov A. Begmatov A. va b. Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazorati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huziridagi Davlat boshqaruv akademiyasi. 2013. 64-b.
3. Author Professor Lucinda Platt Department of Social Policy The London School of Economics and Political Science (LSE). What is social policy? International, interdisciplinary and applied: Article. 2025
4. Presidents and Fellows of Harvard. About the Malcolm Wiener Center. 2006.
5. Попова В.П. Информационная политика. Учебник.-М.: РАГС, 2003. – С 35.
6. Mamadaliyev Sh., Ernazarov R. Demokratiya. Izohli lug‘at.-T.: O‘zbekiston Respublikasi IIBning Akademiyasi. 2012. 9-10-b.

[207] Harder R.A., Sevenans J. and P.V. Aelst .Intermedia Agenda Setting in the Social Media Age: How Traditional Players Dominate the News Agenda in Election Times. The International Journal of Press/Politics. pp 1-19. 2017.
[208] Adizov B.T. Ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalarning faoliyatining xorij tadqiqotlaridagi tavsifi. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 6, 194-198. 2024

7. Lippmann, W. (1922). *Public Opinion*. Harcourt, Brace and Company. (pp. 13-16).

8. McCombs, Maxwell, E. "Agenda-Setting Research; A Bibliographic. Essay". 1976. (pp. 1-24)

9. McCombs, M . *Setting the Agenda: The Mass Media and Public Opinion.* Cambridge, UK: Polity Press. pp 27-72. 2004

10. Nowak E. Agenda-setting theory and the new media. Article. Maria Curie-Skłodowska University pp1-15. 2018 https://www.researchgate.net/publication/322602862_Agenda-setting_theory_and_the_new_media

11. Harder R.A. , Sevenans J. and Aelst P.V. Intermedia Agenda Setting in the Social Media Age: How Traditional Players Dominate the News Agenda in Election Times. The International Journal of Press/Politics. pp 1-19. 2017.

12. Adizov B.T. Ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalarning faoliyatining xorij tadqiqotlaridagi tavsifi. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 6, 194-198. 2024

Sh. N. Xaydarov *– Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

HARBIY XIZMATGA OID JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI VA ROLI

Tez o'zgarib borayotgan global sharoitda jamoatchilik fikrini boshqarish masalasi, ayniqsa, harbiy xizmat kabi milliy xavfsizlik va davlat barqarorligiga bevosita ta'sir etuvchi sohalarda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jamoatchilik fikri – turli ijtimoiy qatlamlarning harbiy siyosat, armiyaning roli va mudofaa masalalariga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi va voqelikni keng jamoatchilik nuqtai nazaridan baholash imkoniyatini beradi.

Lippmanning fikriga ko'ra, jamiyatdagi aksariyat odamlar tashqi dunyo haqida real bilimga ega emas, balki ko'proq axborot manbalari orqali shakllangan tasavvurlar asosida fikr yuritadi. Bu ularning ongida siyosat, jamoatchilik fikri va davlat boshqaruviga ta'sir ko'rsata oladigan turli stereotiplarni shakllantiradi. Uning nazariyasiga ko'ra, jamoatchilik fikri odamlarning voqelik yoki hodisalar haqidagi bevosita tajribalariga emas, balki axborot manbalariga bog'liq bo'lgan tasavvurlariga asoslanadi. Lippmanning ta'kidlashicha, ommaviy axborot vositalari fikrlarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi va jamoatchilik fikri haqiqiy faktlarga emas, balki manipulyatsiya qilinadigan axborotlarga asoslanadi[209].

U.Lippmanning nazariyasini tahlil qilganimizda, odamlar o'zlarining dunyo haqidagi bilimlarini bevosita emas, balki axborot manbalari orqali hosil qilishlarini, bu esa jamoatchilik fikrining manipulyatsiya qilinishiga olib kelinishini anglashimiz mumkin bo'ladi. Harbiy xizmatga nisbatan ham jamoatchilik munosabati ma'lum manipulyatsiyalarga moyil bo'lib, u axborot manbalarining qanday ishlashidan qat'iy nazar, muayyan ramzlar, tasavvurlar va obrazlar orqali shakllanadi. Shu sababli, hozirgi sharoitda jamoatchilik fikrining asosli va asossiz jihatlarini ajrata bilish, fuqarolarning harbiy xizmatga oid tasavvurlarini haqiqiy ma'lumotlarga asoslantirish zarur.

[209] Липпман У. *Общественное мнение*. – Москва: Институт фонда «Общественное мнение», 2004. – С. 384.

O‘rganishlarimiz natijasida ommaviy axborot vositalari harbiy sohadagi o‘zgarishlar va islohotlar haqida jamoatchilikni xabardor qilish, yoshlarni harbiy xizmatga jalb etish, vatanparvarlik ruhini oshirish, ularning ongida harbiy ideallarni paydo qilish, qolaversa, bir so‘z bilan aytganda jamiyatda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy stereotiplarni shakllantirish jarayonida samarali rol o‘ynashi ma’lum bo‘ldi. Mamlakatimizda ham harbiy xizmatga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va internetning o‘rni tobora ortib bormoqda. An’anaviy axborot manbalari – davlat telekanallari, matbuot va radiostansiyalar bilan bir qatorda, zamonaviy raqamli platformalar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari va blogerlar orqali tarqatiladigan axborot turli qatlamlar orasida harbiy xizmatga bo‘lgan munosabatni shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, nodavlat ommaviy axborot vositalari va blogerlar tomonidan harbiy soha bo‘yicha taqdim etilayotgan kontentning ta’siri kengayib, jamoatchilik fikriga ta’sir etishning yangi mexanizmlari shakllanib borayotganligi kuzatilmoqda.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari orqali harbiy xizmatning ijobiy jihatlarini muntazam yoritib borish yoshlarga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Masalan, askarlarning xizmatlari, ularning kun tartibi, shuningdek, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlari haqidagi teleko‘rsatuvlar armiyani yoshlarda o‘zini namoyon qilish va jamiyatga xizmat qilish vositasi sifatida qabul qilishga undaydi. Shu tariqa, ommaviy axborot vositalari armiyani mamlakat va jamiyatni tahdidlardan himoya qiluvchi, yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan mas’uliyatli tuzilma sifatidagi ijobiy obrazini yaratishi mumkin[210].

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatning afzalliklari, shaxsiy va kasbiy rivojlanish hamda ta’lim olish imkoniyatlari haqidagi axborot kampaniyalari yoshlarning harbiy ishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, ommaviy kommunikatsiya mexanizmlari jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarning bir qismi sifatida harbiy xizmat qiyofasini shakllantirishga imkon berib, yoshlarda vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi hamda harbiy xizmatni o‘z zimmalariga olishga undaydi.

Radio, televideniya va internetning paydo bo‘lishi bilan axborot global xarakterga ega bo‘la boshladi. Endilikda ular keng auditoriyani qamrab oldi. Bugungi kunda bosma matn ham, teleefir ham eng chekka hududlarga bir zumda yetib borib, har qanday ijtimoiy muhitga ta’sir qilishi mumkin bo‘lmoqda. Zamonaviy axborot jamiyatida ommaviy kommunikatsiyaning doimiy rivojlanib borayotgan imkoniyatlari bilan bog‘liq global o‘zgarishlar haqida so‘z yuritar ekanmiz, shuni e’tiborga olish lozimki, bu o‘zgarishlar nafaqat hayot sharoitlariga, balki eng avvalo zamonaviy insonning fikrlash tarzi va idrok etish tizimiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu o‘zgarishlar insonning yashash sharoitlarigagina emas, balki eng muhimi, zamonaviy kishining tafakkur qilish usuli va voqelikni idrok etish tizimiga ta’sir o‘tkazmoqda[211].

Ta’kidlash joizki, ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta’siri ko‘pincha jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilish bilan tenglashtiriladi. Bizning fikrimizcha, bu unchalik to‘g‘ri emas. Manipulyatsiya - bu

[210] Роль СМИ в формировании общественного мнения по укреплению оборонноспособности страны, 13.03.2024 г. // https://mts.tj/ru/5949/news/

[211] Липпман У. *Общественное мнение*. – Москва: Институт фонда «Общественное мнение», 2004. – С. 384.

psixologik ta’sirning bir turi bo‘lib, uning mohirona bajarilishi boshqa odamda yoki odamlar guruhida ularning istaklari va ehtiyojlariga mos kelmaydigan niyatlarning yashirin qo‘zg‘alishiga olib keladi. Ya’ni manipulyatsiya ommaviy kommunikatsiyaning fuqarolarga ta’sir etish usullaridan biri, deyish mumkin. Matbuot, televideniye, radio va internet kabi ommaviy kommunikatsiyalar jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng muhim kanallari bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, gazetalar va jurnallar odamlar o‘zlarini jamiyatning bir qismi deb his qilishlariga yordam beradi. Boshqa axborot kanallariga qaraganda, matbuot orqali berilgan ma’lumot tezkor bo‘lmasa-da, vizual jihatdan to‘liqroq ifodalanadi va uzoq muddat saqlanishi mumkin. Bosma nashrlar tahliliy materiallarga katta e’tibor qaratadi, hodisalarni ko‘proq tahlil asosida yoritadi. Oqibatda, o‘quvchi gazetani yoki jurnalni xohlagan paytda o‘qish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga (AOKA) ko‘ra, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining soni tez fursatlarda ortib bormoqda (1-rasmda batafsil). Biroq, oxirgi 8-yil ichida O‘zbekistonda gazetalar soni 91 taga, radiolar esa 6 taga kamaydi. Jurnallar soni esa sezilarli darajada o‘sib, 2016-2024-yillarda 395 tadan 738 taga ortdi. Hozirda axborotga ko‘proq ishlov berilmoqda shu bilan birgalikda, uni yetkazish xarajati ozayib bormoqda. Bosma nashrlar esa raqobatga bardosh bera olmayapti[212].

1- rasm



O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi mudofaa sohasi, harbiy xizmatchilar hayoti, vatanparvarlik targ‘iboti va milliy xavfsizlik masalalariga bag‘ishlangan “Vatanparvar” gazetasini nashr qilib boradi. Gazeta o‘zbek va rus tillarida chop etiladi va harbiy sohadagi muhim voqealar, Qurolli Kuchlarning rivojlanishi, armiyadagi islohotlar, harbiy tayyorgarlik va xalqaro hamkorlik haqidagi maqolalarni o‘z ichiga oladi. 1992-yilning iyun oyidan chiqarila boshlangan gazeta hozirda har haftaning juma kunlari 32 mingdan ortiq nusxada chop etiladi. Gazeta mamlakat bo‘ylab ko‘proq harbiy qismlar va muassasalarga tarqatildi. Uning auditoriyasini harbiy xizmatchilar, mudofaa sohasi mutaxassislari va ayrim harbiy xizmatga qiziquvchi yoshlar tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, gazetadan foydalanuvchilar auditoriyasini oshirishga ehtiyoj mavjud. Pew Research Center ma’lumotlariga ko‘ra, AQSHda

[212] АОКА томонидан юритиб келинаётган нашриётларнинг давлат реестри // https://aoka.uz/uzb/category/27

an’anaviy gazeta o‘quvchilari soni 2000-yildan 2022-yilgacha 55 foizga kamaygan, biroq, elektron gazetalar o‘quvchilari soni esa 75 foizga o‘sgan. Markaz ma’lumotlariga ko‘ra dunyo bo‘ylab insonlarning atiga 4 foizi axborotlarni bosma nashrlardan olishni afzal ko‘radi[213]. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda gazetaning rasmiy veb-sayti va mobil ilovasini ishga tushirish, PDF va interaktiv ePaper formatlarida turli platforma va saytlarga joylab borish orqali gazetaning auditoriyasini yanada oshirish mumkin. Qolaversa, kontentni yoshlarga moslashtirish zarur chunki ular o‘qishdan ko‘ra ko‘proq vizual va video formatlarga qiziqishlari tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Gazetada infografikalar va karikaturalar orqali harbiy mavzularni yoritish, “Yoshlar uchun harbiy maslahatlar” kabi ruknlar joriy qilish, harbiy mutaxassislar, tarixchilar va geosiyosat ekspertlarining maqolalarini muntazam chop etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu choralar amalga oshirilsa, gazeta nafaqat harbiy xizmatchilar orasida, balki keng jamoatchilik orasida ham **ommabop nashrga aylanishi mumkin**.

Tahlillarga ko‘ra, so‘ngi sakkiz yilda **televideniya** soni mamlakatimizda 36% ga o‘sdi va 65 tadan 89 taga yetdi. Televideniya ommaviy kommunikatsiya vositalari ichida eng samaralisi bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot ta’sirini hosil qiladi. Telekommunikatsiya imkoniyatlari hissiy ta’sirni oshiradi va OAVning ishonchlilik darajasini kuchaytiradi. Audiovizual effektlar televideniyening eng katta ustunliklaridan biri hisoblanadi.

Radioning o‘ziga xos xususiyati – uning hamma joyda eshitilishi va keng auditoriyaga ega ekanligidir. Odamlar radioni eshitar ekan, boshqa ishlar bilan ham shug‘ullanishlari mumkin. Shu sababli radio tezkor axborot tarqatish va jamiyatni umumiy fikrga yo‘naltirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Biroq tahlillarga ko‘ra, so‘ngi yillarda radio o‘z o‘rnini boshqa kommunikatsiya vositalariga bo‘shatib bermoqda. Jumladan, so‘ngi sakkiz yilda ularning soni **25% ga qisqarib**, 35 tadan 29 tagacha kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Internet ommaviy axborot vositalari ichida eng zamonaviy va ko‘p qirrali vosita hisoblanadi. U barcha kommunikatsiya shakllarini – matn, ovoz, tasvir va audiovizual effektlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, internetda ma’lumot tarqatish boshqa OAVga qaraganda ancha tez amalga oshiriladi[214]. An’anaviy nashrlar bilan birga internet nashrlar ham jadal rivojlanib, ularning soni 745 taga yetgani va o‘quvchilar ommasini tobora ko‘proq o‘ziga jalb etayotganini qayd etish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2024-yil yanvar oyida taqdim qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni jami aholining 83,3 foizini tashkil qilib, 2023-yilning shu davriga qaraganda 436 ming nafarga yoki 1,5 foizga ortgan. Aholining 63,4 foizi kuniga kamida bir marotaba, 23,7 foizi kamida haftasiga bir marotaba, lekin har kuni emas hamda 1,9 foizi haftada bir marotabadan kam internetdan turli maqsadlarda foydalanadi[215].

Ijtimoiy tarmoqlar va (Facebook, Telegram, Instagram, YouTube) platformalar orqali tarqatilayotgan kontent yoshlar va keng jamoatchilikka harbiy xizmat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tez va samarali yetkazish imkonini beradi. Ayniqsa,

[213] News Platform Fact Sheet, 19.09.2024. // https://www.pewresearch.org/journalism/fact-sheet/news-platform-fact-sheet/ [мурожаат санаси 28.01.2025 й.]

[214] Стриженко А.А. Зарубежная и российская журналистика: трансформация картины мира и ее содержания / под ред.– Барнаул: Ал ГТУ им. И.И. Ползунова, 2003. – 470 с.

[215] O‘zbekiston Respublikasida internetdan foydalanuvchilar soni // https://stat.uz/uz/qo-mita-yangiliklar/53134-oxirgi-uch-oy-davomida-aholi-internetdan-foydalanish-ko-rsatkichlari [мурожаат санаси 27.01.25 й.]

rasmiy davlat organlari va mudofaa idoralarining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi oshgani holda, jamoatchilik fikrini targ‘ib qilishga qaratilgan sa’y-harakatlar kuchaymoqda.

Pew Research Center ma’lumotlariga ko‘ra, mudofaa sohasida maxsus kontent taqdim etuvchi platformalar oddiy yangilik saytlariga qaraganda40% ko‘proq sodiq o‘quvchiga ega bo‘ladi. Markaz AQSH va Yevropa mamlakatlarida harbiy mavzudagi internet nashrlar auditoriyasi 5-yil ichida 60% ga oshganligini keltirgan[216].

Jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi har bir kanalning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular jamiyat tomonidan axborot olish manbai sifatida foydalaniladi va ma’lum bir maqsadli ijtimoiy guruh uchun eng samarali vosita hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyatni (aksariyat odamlar axborotni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyat) axborot oqimlari, ommaviy kommunikatsiya va jamoatchilik fikrining samarali o‘zaro ta’sirisiz rivojlantirib bo‘lmaydi[217].

Hozirgi kunda yurtimizda 2349 ta yoki 2016 yilga nisbatan 835 ta ko‘p ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda. Ularning 65 foizi nodavlat media vositalari hisoblanadi. Afsuski ularning ayrimlari tomonidan bir yoqlama reportaj yoki salbiy yangiliklarni efirga uzatib, odamlar ongida armiyani noto‘g‘ri idrok etishni shakllantirish holatlari uchramoqda. Natijada xalq orasida milliy armiya haqida nosog‘lom fikr va tasavvurlar tarqalib, harbiy xizmatga nisbatan salbiy stereotiplar shakllantishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa shuki, jamoatchilik fikrini shakllantirish milliy xavfsizlik va mudofaa sohasi uchun strategik ahamiyatga ega. OAV va ijtimoiy tarmoqlar harbiy xizmat haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Harbiy xizmatning ijobiy jihatlarini ommaviy targ‘ib qilish, shuningdek, biryoqlama va noto‘g‘ri axborotlarga tezkor munosabat bildirish armiya imijini yanada mustahkamlaydi hamda jamoatchilikda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy stereotiplarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Липпман У. *Общественное мнение.* – Москва: Институт фонда «Общественное мнение», 2004. – С. 384.

2. Роль СМИ в формировании общественного мнения по укреплению обороноспособности страны, 13.03.2024 г. // https://mts.tj/ru/5949/news/

3. АОКА томонидан юритиб келинаётган нашриётларнинг давлат реестри // https://aoka.uz/uzb/category/27

4. News Platform Fact Sheet, 19.09.2024. // https://www.pewresearch.org/ journalism/fact-sheet/news-platform-fact-sheet/ [мурожаат санаси 28.01.2025 й.]

5. Стриженко А.А. Зарубежная и российская журналистика: трансформация картины мира и ее содержания / под ред.– Барнаул: Ал ГТУ им. И.И. Ползунова, 2003. – 470 с.

6. O‘zbekiston Respublikasida internetdan foydalanuvchilar soni // https://stat.

[216] https://www.pewresearch.org/search/defense-specific+content

[217] Синютина Е.В., “Влияние СМИ на формирование общественного мнения” // Инновационная наука №3 / 2021, С. 92-95

uz/uz/qo-mita-yangiliklar/53134-oxirgi-uch-oy-davomida-aholi-internetdan-foydalanish-ko-rsatkichlari [мурожаат санаси 27.01.25 й.]

7. https://www.pewresearch.org/search/defense-specific+content

8. Синютина Е.В., “Влияние СМИ на формирование общественного мнения” // Инновационная наука №3 / 2021. – С. 92-95.

F.F. Muhammadov **–** *Buxoro davlat universiteti talabasi*

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLI HUQUQLARI TA’MINLASH SIYOSATI

O‘zbekiston iqtisodiyoti jadal suratda o‘sib aholing turmush tarzi ham zamonaviy ko‘rinish kasb etmoqda. Bozor iqtisodiga o‘tishda davlatning roli bevosita yuqori bo‘lib unda aholining ehtiyojmand qatlami eng ko‘p qo‘llab-quvvatlashga muhtoj hisoblanadi. Ijtimoiy himoya bu aholing ehtiyojmand qismini bevosita har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Aholing ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi bevosita Konstitutsiyaviy huquq sifatida qaraladi Konstitutsiyamizning 1-moddasida belgilanganidek.

“O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi”[1].

Ijtimoiy davlatda davlat siyosatining asosini aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi turadi. Ijtimoiy sohalarga ta'lim, sog‘liqni saqlash va shu kabi ishtimoiy sohalarni rivojlantirish kiradi. Jamiyatda aholing maxsus ko‘makga muhtoj qismi nogironlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, boquvchisini yo‘qotganlar, qariyalar, bevalar hayot tarzining og‘irlashib ketmasligini davlat kafolatlab ularga g‘amxo‘rlik qiladi. Nogronligi bo‘lgan shaxslar bevosita ko‘plab imtiyoz va doimiy ijtimoiy yordam paketlari bilan ta’minlanadi. Ular salomatligi doimiy nazoratda bo‘lib ularni doimiy ijtimoy ta’minlanishini davlat nazorat qiladi. Ushbu jihatlar Taraqqiyot strategiyasida ham o‘z aksini topgan bo‘lib unga ko‘ra. “66-maqsad:

- nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish,
- ularning hayot sifati va darajasini oshirish,
- nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash,
- nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish,
- tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish.
- nogironligi bo‘lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o‘zaro

aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo‘lishi, shahar yo‘lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish.

- nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish.

- nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish”[2].

Ushbu Taraqqiyot strategiyasida bevosita O‘zbekistoning kelajagi o‘z aksini topgan bo‘lib unda barchaning tengligi va davlat imkoniyati cheklangan shaxslarni hayotga qaytarish ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida eng asosiy kuch sifatida e’tirof etiladi. Ushbu imkoniyatlar natijasida yurtimizda bosqichma-bosqich tibbiyot sohasi takomillashib unda aholining shu sohaga ehtiyojmand qismi to‘liq qo‘llab-quvvatlanadi. Davlat bevosita imkoniyati cheklangan shaxslarni ularning imkoniyatidan kelib chiqan holda bandligini ta’minlaydi. Fuqarolik jamiyatida har bir individ huquqiy jihatdan tengdir, har qanday kamsitish huquqiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. O‘zbekistonda o‘rta ta’lim bepul va majburiy hisoblanadi, davlat inkuliziv ta’limni qo‘llab-quvvatlab buning uchun kerakli sharoit va muhitni kafolatlaydi. Davlat yoshlarning uni salomatlig holatida kelib chiqan holda har qanday tarzda ilim olishi uchun yetarli sharoitni yaratib beradi. Ta'lim to‘g‘risida qonunda belgilanganidek: “Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim oladi”[3]. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yoshlar o‘zining jismoniy nuqsonidan qat’iy nazar har qanday jihatdan teng huquqqa ega ekanliklari ta’minlanadi. Ta'limning mahsus ko‘rinishlari bolaning jismoniy holatidan kelib chiqqan holda o‘rgatiladi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilar uchun ta'lim maxsus yozuv Brail yozuvida o‘rgatilinib bunday turdagi alohida ta’lim bolaning o‘zligini anglash atrofni ham nazari, ham sezish orqali anglashiga yordamlashadi. Brail alifbosi ko‘zi ojizlar uchun o‘ylab topilgan yozuv turi bo‘lib qo‘l sezgisiga asoslanadi. Eshitishi yoki gapirishida nuqsoni bo‘lgan yoshlar uchun ta'lim maxsus tarzda imo-ishora tilida olib boriladi. Har qanday imkoniyatdagi yoshning talim olish masalasini bevosita Xalq ta’lim vazirligi o‘z nazoratiga oladi.

Ijtimoiy himoya masalasining asosi kambag‘allikni qisqartirishdir. Kam ta’minlangan oilalar davlat tomonidan modiy qo‘lab quvatlanadi. Ushbu toifadagi shaxslar kam ta’minlangan hisoblanadi. “2021-yilning 1-sentabridan — oilaning har bir a’zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad 440 ming so‘mdan oshmaganda;

2022-yildan boshlab — oilaning har bir a’zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad minimal iste’mol xarajatlari miqdoridan oshmaganda kam ta’minlangan deb e’tirof etiladi”.[4] Kam ta’minlangan oila farzandlariga davlat bolalik nafaqasi va moddiy yordam tayinlaydi. Bolalik nafaqasi tayinlash tartibi bolaga javobgar shaxs tomonidan berilgan ariza asosida amalga oshiriladi. "Ijtimoiy himoya yagona restiri" orqali kam ta’minlangan oila deb etirof etilgan oilaning har bir farzandiga tokiy u 18 yoshga to‘lgunga qadar bolalik nafaqasi tayinlaydi. Yuqoridagi toifaga kiruvchi oila farzandlariga turli ko‘rinishdagi modiy yordamlar ajratilinadi. Bolalik nafaqasi 1 yil muddatga va har oyning 16-sanasidan kechikmagan holda o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga ariza orqali murojat qilish orqali keyingi oy uchun hujjatlar qabul qilinadi va oiladagi farzandlarning eng kichigi 18 yoshga to‘lguncha rasmilashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan eng asosiy maqsad aholi turmush tarzini yaxshilash. Aholining ijtimoiy ta’minotini yaxshilagan holda kambag‘alikni bosqichma-bosqich qisqartirgan holda uni bartaraf etish. Shu bilan bir qatorda, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini yashash sharoitini yaxshilagan holda, iqtisodiy barqaror va insonparvar fuqarolik jamiyati tuzishdan iboratdir. Bu uchun yuksak darajada islohotlar olib borilmoqda va ularning samarasini ham kuzatmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI // https://lex.uz/docs/-6445145
2. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida// https://lex.uz/uz/docs/-5841063
3. Ta’lim to‘g‘risida qonun// https://lex.uz/docs/-5013007
4. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida// https://lex.uz/ru/docs/-5688101

B.A. Odamboyev – *Buxoro davlat universiteti talabasi*

“VIRTUAL AXBOROT OLAMIDA SIYOSIY PARTIYALARNING IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI”

Virtual axborot olamini tez o’sib borishi siyosiy tizimlarni ishlash uslubini o'zgarishiga turtki bo’ldi. Dunyo bo’ylab, siyosiy partiyalar tarafdorlarini safarbar qilish, ijtimoiy ongga ta'sir qilish va saylov natijalarini shakllantirish uchun raqamli vositalar samarali qurol sifatida foydalanilmoqda.Demokratik va avtoritar davlatlarda internet ikki qirrali qilichga aylanib, siyosiy ishtirok uchun muqobil yo‘llarni taklif qilmoqda. Lekin, propagandalar va kiber hujumlar yangi xavflarni keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekistondagi siyosiy institutlar bosqichma-bosqich o‘zgarishlari bilan birga raqamli siyosiy makonlarning yuksalishi, muhim imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, Telegramga asoslangan siyosiy munozaralar, jamoatchilik fikrini shakllantirayotgan mustaqil YouTube tahlilchilari orqali katta siyosiy plyuralizm tomon siljishdan dalolat beradi. Biroq, bunday yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, propagandalarning tarqalishi, kiberxavfsizlikning zaifliklari, davlat va jamiyatning raqamli munosabatdagi qarama-qarshiliklari murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, 2021-yilgi Prezident saylovi O‘zbekistondagi siyosiy ishtirokchilarning saylovchilar bilan muloqotida burilish nuqtasi bo‘ldi[1]. Televideniya va ommaviy axborot vositalari saylov jarayonida yanada faolroq siyosiy marketing qildi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar jamoatchilik muhokamasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Xuddi shunday tendentsiyalar WhatsApp tarmoqlari siyosiy yordamni safarbar qilgan Hindistonda va ijtimoiy media platformalari ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatgan Frantsiyada kuzatilgan[2.3]. Braziliya va Indoneziya kabi mamlakatlarda ijtimoiy tarmoqlar aholining faolligini ta’minlovchi va propagandalar

uchun kurash maydoni bo‘lib xizmat qilgan – bu dinamika hozir O‘zbekistonda paydo bo‘lmoqda[4].

O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar uchun raqamli platformalar an’anaviy, davlat nazorati ostidagi ommaviy axborot vositalariga muqobil bo‘lib xizmat qilmoqda. Buni natijasida, saylovchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri online xabardorlikni ta’minlaydi. Lekin bu bilan bir qatorda, byurokratik va tartibga soluvchi cheklovlarni chetlab o‘tadi. Boshqa tomondan, avtomatlashtirilgan dezinformatsiyalarining kuchayishi va siyosiy sabablarga ko'ra kiber-hujumlar jiddiy xavotirlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, algoritmga asoslangan aks-sado kameralari, yo’lg’on xabarlar orqali raqamli siyosiy reklamadagi shaffoflikning yo'qatilishiga va jamoatchilik ishonchiga xavf tug'dirishi mumkin.

Maqsad.ijtimoiy ongni boshqarish va yo’naltirishning raqamli afzalliklari, jumladan iqtisodiy jihatdan samarali siyosiy targ'ibot, saylovchilarning bevosita o'zaro ta'siri va siyosiy safarbarlikni kuchaytirish.

Noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi, kiberxavfsizlik tahdidlari kabi raqamli xavflarni aniqlash va bartaraf etish.

Amerika, va Shimoliy Yevropa mintaqalar raqamli siyosiy boshqaruvi, kiberxavfsizlik asoslari va raqamli savodxonlik tashabbuslari orqali ushbu muammolarni qanday hal qilganliklarini o'rganuvchi ilg'or va rivojlanayotgan demokratik davlatlardagi qiyosiy misollar.

O’zbekistonda raqamli boshqaruv, institutsional modernizatsiya va davlat raqamli savodxonlik dasturlari virtual siyosiy dunyoning xavf-xatarlarini yumshatish bilan birga uning afzalliklarini maksimal darajada oshirish.

Metodlar.Ushbu tezisda qiyosiy tahlil va dialektik yondashuvlardan qo'llanilgan, O'zbekistonning raqamli siyosiy landshaftini global misollar bilan bir qatorda tahlil qilindi. Raqamli demokratiya, kiberxavfsizlik va ijtimoiy media ta'siriga oid xalqaro hisobotlardan olingan empirik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga Telegram, Facebook va YouTube kabi platformalarda siyosiy faollikning kontent tahlilidan foydalanildi. Bundan tashqari, tezisda O‘zbekistonning raqamli boshqaruv siyosati ko‘rib chiqilgan va O’zbekistonni Rivojlangan mamlakatlardagi tizimlar bilan solishtiriladi, bu yerda tuzilgan huquqiy choralar virtual maydonlarda siyosiy faoliyatni tartibga solib kelmoqda. O‘tgan siyosiy voqealarini, raqamli kompaniyalarni va jamiyatni siyosatga munosabatini o‘rganish orqali O‘zbekistondagi onlayn siyosiy faollikning transformatsion salohiyatini va tarkibiy zaif tomonlarini aniqlandi.

Imkoniyatlar.Raqamli platformalar O‘zbekistondagi siyosiy partiyalarga davlat nazoratidagi an’anaviy ommaviy axborot vositalarini chetlab o‘tib, ijtimoiy tarmoqlar, jonli efirlar va raqamli forumlar orqali fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish imkonini berdi. Ushbu siljish elektron boshqaruv tashabbuslari siyosiy shaffoflikni oshirgan Estoniya WhatsApp yordamida mobilizatsiya saylovlarda ishtirok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan[5]. O‘zbekistonda Telegram, Instagram va Youtubega asoslangan siyosiy diskursning kuchayishi raqamli makonlarning siyosiy ongni shakllantirishdagi roli ortib borayotganini ifodalaydi.

Katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladigan an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan (Televideniya, Radio,Gazeta) farqli o'laroq, online platformalar arzon va yuqori darajadagi muqobilni taklif qiladi. Masalan, AQShda 2008 yilgi Obama siyosiy marketingida ko'rishimiz mumkin, ya’ni, har xil partiyalar ijtimoiy media

platformalaridan kam chiqim qilib foydalangan holda, milliy auditoriyaga kirish imkoniyatini bergan[6].

O'zbekistonda yangi paydo bo'lgan siyosiy arboblar televideniya yoki radioga qaram bo'lmasdan o'z e'tiborini qozonish uchun onlayn maydonlardan foydalanishsa, milliy auditoriyalarni kengayishiga olib keladi.

Lekin, agar O'zbekistondagi siyosiy kadrlarni bunday yangi texnologiyalarni o'rganish uchun qayta tayyorlansa, hukumat va aholi o'rtasidagi oshkoralik va shaffoflik kuchayadi.Xorijiy tajribalarga qaraydigan bo'lsak, Shimoliy Yevropa davlatlarida "Naersamfunnsutvalg" (Mahalliy hamjamiyat qo'mitalari) Islandiyada, Bydelrad" (Tuman kengashlari) Norvegiyada, Medborgarbudget" (Fuqarolik byudjeti) Shvetsiyadagi dasturlar 1970-yildan hozirgacha xalqqa xizmat qilib kelmoqda, bu dasturlarni maqsadi hukumat a'zolarini aholini muommolarini yechishga va ijtimoiy farovonlik darajasini yuksaltirishga qaratilgan videolar ijtimoiy tarmoqlarni egallab olishga qaratilgan[7].

Agar biz ham "Mahallabay Tizim Dasturi" joriy qilsak , ya'ni shahar yoki tuman hokimi har bitta mahallaga kirib, muommolarni hal qilsa va aholi bundan mamnun bo'lgan videolar ijtimoiy tarmoqlarda trendga chiqqan holda, aholini hukumatga nisbatan munosabatlari yanada ijobiy xarakterga ega bo'ladi. Buni natijasida, korrupsiya deb atalmish illat bosqichma-bosqich kamayishiga olib keladi, bu esa siyosiy tizimning aholi orasida legitimliligi oshishiga sababchi bo'ladi. Agar legitimlik oshsa, ijtimoiy farovonlik yuksaladi.

Ommaviy axborot vositalari siyosiy nazorat va fuqarolar ishtirokini kuchaytiradi. YouTube va mustaqil yangiliklar veb-saytlari kabi platformalardagi jurnalistik tekshiruvlar korruptsiyani fosh etib, hukumatning mas'uliyatini oshirishga majbur qiladi. Buni natijasida, Fuqarolik jamiyati yuksalishiga asos bo'ladi.

Hozirda rivojlangan davlatlarda siyosiy partiyalar saylovoldi strategiyasini shakllantirish uchun katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt asosidagi hissiyot tahlili va ijtimoiy media monitoringidan foydalanadi.Masalan, Brexit kompaniyalarida va Tramp ma'muriyatining 2016-yildagi raqamli strategiyasida qo'llanilgan mikrotargeting usullari orqali jamoatchilik kayfiyatini boshqargan[8].

Agar O'zbekistondagi siyosiy partiyalari ham ushbu mikrotargeting usulidan foydalansa, aholining siyosiy va huquqiy ongini oshishishiga olib keladi. Natijada, siyosiy partiyalardagi siyosiy liderlar va nomzodlar o'rtasida raqobatbardoshlik kuchayadi. Asosiy jihati shundaki, siyosiy partiyalar o'z xabarlarini jamoatchilik kayfiyatiga moslashtirib boradi.

Muommolar.Raqamli siyosiy boshqaruvdagi eng dolzarb muammolardan biri bu noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi bo'lib,ya'ni, ko'pincha algoritmga asoslangan kontentni tavsiya qilish tizimlari tomonidan kuchaytiriladi.Masalan , 2020-yil Xitoyda COVID-19 pandemiyasi haqidagi dezinformatsiyalar Pandemiyaning kelib chiqishi va tarqalishini yanada vahimali va qo'rquvli propagandalar sifatida tarqatildi. Natijada, farmaseftik tuzoq orqali Xitoyning xalqaro imijini yaxshilash edi[9].

O'zbekiston saylovchilar ongiga ta'sir etuvchi va saylov daxlsizligiga putur yetkazuvchi soxta yangiliklar va online tashviqot xavfi ortib bormoqda.Masalan, Ozodlik radiosi, BBC kompaniyalari va siyosiy boshpana olgan ayrim o'zbek blogerlari O'zbekistonda ijtimoiy muxolifatlar ya'ni tarafkashlar(turkparast,amerikaparast) orqali ijtimoiy nizo chiqarishmoqda.

Yechim sifatida aytadigan bo'lsam, media savodxonligini oshirishga qaratilgan kontentlar yaratish va ularni davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi bosqichma-bosqich rivojlantirish. Masalan, Agar bloger va youtuberlar ijtimoiy tarmoqlarda samarali kontentlar yaratsa, ya'ni odamlar faktlarni yolg'ondan ajratishga, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishga va axborot manbalariga tanqidiy yondashishga o'rgatadigan kontentlar. Buning uchun Universitetlarda milliylik va vatan tuyg'usi asosida tarbiyalangan youtuber va blogerlarni tayyorlaydigan kurslarini joriy etilsa, aholini media savodxonligini oshirganliklari uchun hukumat tomonidan ma'naviy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishi kerak. Buni natijasida,aholi propagandaga kamroq beriladi, jamiyatda ziyolilar qatlami yanada rivojlanadi.

Siyosiy liderlar kiberxavfsizlik bo'yicha jiddiy xavf-xatarlarga duch keladi, jumladan, hakerlik urinishlari, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi va hokazo. 2017-yilda Fransiyadagi MacronLeaks kiber hujumi siyosiy raqiblar va xorijiy aktyorlar raqamli zaifliklardan qanday foydalanishini namoyish etdi[10]. Xuddi shunday, O'zbekistonning rivojlanayotgan raqamli siyosiy sohasi ijtimoiy ongga va saylov halolligiga qaratilgan kiber hujumlarga qarshi himoyasizligicha qolmoqda.

Meni yechimim quyidagidan iborat:

- Ta'limni yaxshilash: Kiberxavfsizlik sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun ishonchli zamin yaratish.
- Nima qilish kerak:
- Oliy o'quv yurtlarida kiberxavfsizlik yo'nalishida bakalavr va magistr darajalarini beruvchi kurslarni ochish.
- Kollejlarda kiberxavfsizlikka oid hunar o'rgatuvchi darslar tashkil etish.
- Maktab o'quv dasturlariga informatika va kiberxavfsizlik fanlarini kiritish.
- Darsliklarni hozirgi zamon texnologiyalari va xavf-xatarlariga mos ravishda yangilash.
- O'qituvchilarning bilimini oshirish uchun treninglar uyushtirish.
- Buning natijasi: Kiberxavfsizlik sohasida bilimli va malakali mutaxassislar yetishib chiqadi. Ularning tajribasi raqamli siyosiy maydonni himoya qilish uchun katta hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar. Virtual axborot makoni O'zbekistonda siyosiy boshqaruvni oshirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etsa-da, u bilan birga hal etilishi zarur bo'lgan muhim tizimli xavflarni ham yuzaga keltiradi. Agar raqamli savodxonlik darajasi oshirilmasa, kiberxavfsizlik himoyasi mustahkamlanmasa va onlayn boshqaruv tizimi shaffof bo'lmasa, raqamli platformalar saylovlarni manipulyatsiya qilish, dezinformatsiya tarqatish va norozilikni bostirish vositasiga aylanishi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston xalqaro tajribadan saboq olib, Amerikaning qat'iy raqamli siyosiy reklama tartib-qoidalari, Shimoliy Yevropa davlatlarining Raqamli ijtimoiy-siyosiy mexanizmlaridan foydalangan holda, raqamli siyosiy boshqaruvni rivojlantirish bilan birga raqamli tahdidlarni kamaytirishga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://saylov.uz/ 2021y
2. "The Influence of Social Media on French Political Opinion" by Bernard Harcourt. 2019y

3. "The WhatsApp Election: How Modi Won India" by Pratik Sinha, Swati Chaturvedi. 2020y
4. “Digital Activism and Political Change in Brazil and Indonesia" by Tiago Peixoto, Micah L. Sifry. 2020y
5. “The Audacity to Win: The Inside Story and Lessons of Barack Obama's Historic Victory" by David Plouffe in 2009y
6. "Digital Estonia: The Path of Transformation" by Siim Sikkut in 2018y
7. "Nordic Civic Society Organisations and the Future of Welfare Services" by Aila-Leena Matthies in 2014y
8. “Antisocial Media: How Facebook Disconnects Us and Undermines Democracy" by Siva Vaidhyanathan in 2018y
9. "The Infodemic: How Censorship and Lies Made the World Sicker and Less Free" by Joel Simon in 2022y
10. "The Hacked World Order: How Nations Fight, Trade, Maneuver, and Manipulate in the Digital Age" by Adam Segal in 2016y

A.T. Sabirbayev – *Buxoro davlat universiteti talabasi*

O’ZBEKISTONNING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA OROL MUAMMOSINI HAL QILISHNING AMALIY CHORALARI

Orol dengizi - Markaziy Osiyoda, O‘zbekiston va Qozog‘iston chegara hududida joylashgan. Bir vaqtlar Orol dengizi dunyoning to‘rtinchi yirik ichki suv havzalaridan biri bo’lgan, lekin Orol dengizining qurib borishi 1960-yillarga borib taqaladi. Ushbu davrda Amudaryo va Sirdaryo daryolarining suvlaridan noto‘g‘ri foydalanish, asosan, qishloq xo‘jaligida paxta plantatsiyalarini sug‘orish, suv sathining keskin darajada pasayishiga sabab bo’lgan.

Orolning qurishi yerning tuzlanishiga va tuzli chang bo‘ronlarining kuchayishi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy salbiy muommalarni keltirib chiqarmoqda.Mazkur muammo, Orol bo‘yi hududidagi aholining sog‘lig‘iga katta zarar yetkazmoqda. Shuningdek, qishloq xo‘jaligiga ham jiddiy ta’sir korsatmoqda. Shu maqsadda, davlatimiz mustaqillikka erishganidan so’ng, Orolni o’rmonzorga aylantirish va atrof-muhitga yetkizayatgan zararini oldini olish borasida bir nechta milliy va xalqaro tashabbuslar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu boradagi islohotlarning dolzarbligi xususida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev **2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasida** so'zlagan nutqida shunday degandi: “Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri - Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda - Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojasidan jabrlangan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz”

Shavkat Mirziyoyevning bu boradagi faoliyatlarining amaliy tasdig’ini **2018 yilning 27-noyabr kuni Nyu-York shahridagi BMT qarorgohida** BMTning

Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik Trast fondi tashkil etilishi bilan topdi.

Mazkur fondning asosiy maqsadi Orolbo'yi hududidagi aholi turmush faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tibbiy, ekologik, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy himoya va boshqa muammolarni hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta'minlash, O‘zbekiston hukumatining, BMT agentliklari, shuningdek, xayriya-ehson tashkilotlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish va Orolbo’yi hudidi rivoji uchun moliyaviy hamda texnik resurslarni safarbar etish hamda mintaqa uchun o'ziga xos ekologik innovatsion texnologiyalar va turli hil yondashuvlarni jalb qilishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbari 2018-yil 15-16 noyabr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo’ynoq tumaniga tashrifi davomida Orol dengizining suvi qurigan maydonlarida, «yashil qoplamalar» - o'rmonzorlarini barpo etish maqsadida bir qator topshiriqlarni belgilab berdi. 2018-yilning dekabr oyidan esa Orol dengizining suvi qurigan tubida saksovul ekish ishlariga start berildi.

Belgilangan topshiriqlar asosida 2018-2023-yillar mobaynida 7 ming tonnaga yaqin cho'l o'simliklari urug'lari jami 1,7 million gektardan ortiq maydonlarda saksovul va boshqa cho'lga chidamli yangi o'rmonzorlar barpo etish maqsadida sarflandi.

Jumladan, 2022-2026-yillarda 500 ming gektar, shundan 2024-yil 112,5 ming gektar maydonga sakovul ekildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat o'rmon xo'jaliklari tomonidan 5 ming gektar maydonda 5 million dona ko'chatdan «yashil qoplamalar» barpo etildi. Bu ishlarni davom ettirish maqsadida 100 ming gektar maydonda «yashil qoplamalar» – himoya o'rmonzorlari barpo etilishi belgilandi.

Shuningdek, 2019-yilda Turkmanistonda Orolni qutqarish Xalqaro jamg’armasining navbatdagi sammitida davlatimiz rahbari Orolbo’yi hududini ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish taklifini ilgari surgandi. Shu asnoda **2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi** yalpi majlisida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi.

Maxsus rezolyutsiga ko’ra, Orolbo'yi mintaqasiga resurs tejovchi va yuqori samaraga ega zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng jalb qilish, ekologiyaga yetkazilayatgan muammalrni oldini olish, ilmiy-texnologik tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy-innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish, shuningdek, xalqaro sherikchilikni rivojlantirishga bog'liq 7 ta yo'nalishdagi 71 ta tadbirdan iborat, 2021-2024-yillarda amalga oshirilishi belgilangan "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

“Yo'l xaritasi”dagi tadbirlar uchun 22,2 million AQSH dollari, 6 million yevro, 312 milliard so'mga teng mablag'lar sarflanishi, har bir yo'nalish bo'yicha tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli ijrosi tegishli vazirlik hamda idoralarning rahbarlari boshchiligida tuzilgan ishchi guruhlar tomonidan ta'minlanishi belgilab berildi. Shu bilan birga, qaror bilan maxsus rezolyutsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan 65 ta ustuvor innovatsion loyihalar 2021-2024-yillarda bajarilishi tasdiqlandi. Bu loyihalarning amalga oshirilishi uchun 1,9 trillion so'm mablag' jalb etilishi va natijada 4,5 mingta ish o'rni yaratilishi ko’zda tutilgan.

Orolbo’yi hudidi uchun ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun sharoit yaratish, ekologik toza, “yashil” iqtisodiyot, energiya va suv tejaydigan texnologiyalar tamoyillarini tatbiq etish, cho'llanish va ekologik migratsiyaning davom etishiga barham berish, shu bilan bir qatorda ekoturizmni rivojlantirish va boshqa chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bu va bunga o’xshash tashabbuslar Mo’ynoq tumani va Orolbo’yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish, mavjud va yo’naltirilgan tabiiy va mehnat resurslaridan to'liq hamda samarali foydalanish, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirish, chet el investitsiyalarini tog’ridan-tog’ri jalb etish, aholi hayot darajasi va sifatini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirish imkonini berdi.

Muxtasar qilib aytganda, davlatimiz rahbari boshchiligida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar umuman mintaqa ekotizimini barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Orol dengizining qurigan tubini o'rmonlashtirish, avvalo, atrof-muhit holatini yumshatish, tabiiy resurslarning degredatsiyasi va dengizning qurigan tubidan qum, tuz va chang ko'tarilishining maksimal darajada oldini olishga, kelajak avlod uchun qulay ekotizim shakllanishiga, cho'l o'rmonlari maydoni va bioxilmaxillikning kengayishi hisobiga mintaqada iqlim o'zgarishining yumshashiga sharoit yaratmoqda.

Davlatimiz rahbarining Orolbo’yi mintaqasiga chinakam e'tibori tufayli bugunda, hududga hayot qaytdi, odamlarda ertangi kunga ishonch va umid paydo bo'ldi. Muxojirlikka yuz tutgan odamlar o'z uyrtiga qaytmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqi. // Xalqaro ekologik muammolar va Orol halokati – Nyu-York, 2017 yil.
2. Orolbo'yi mintaqasida ekologik xavfsizlik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari bo’yicha konferensiya. // O’zbekiston ekologik innovatsiyalar markazi – T.: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi davomida belgilangan ekotizimni tiklash va ekologik barqarorlikni ta'minlash strategiyalari. // Orolni qutqarish tashabbuslari – Mo'ynoq, 2018 yil.
4. O'zbekiston uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik Trast fondi tashkil etish haqidagi qarori Respublikasining BMT Bosh Assambleyasida 2018-yil 27-noyabrda Orolbo'yi hududi. // Xalqaro hamkorlik va Orolni tiklash bo'yicha maxsus rezolyutsiya – Nyu-York, 2018 yil.

N.O‘. Hikmatova – *Buxoro davlat universiteti talabasi*

JAMIYATDA GENDER TENGLIK MUNOSABATLARINING IJTIMOIY HAYOTDAGI TARAQQIYOTI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan xotin-qizlar masalalariga, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, maishiy hayotdagi

muammolarini hal qilish, iqtidori va imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda

Jamiyat hayotining qay darajada kechishi, rivojlanish sari qo‘yilayotgan qadamlar, qolaversa, istalgan harakatdan kutiladigan natijalar albatta ko‘p jihatdan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq. Aynan shu munosabatlar hayotimizning barcha jabhalari – mehnat faoliyati, oila, mahalla, o‘qish, muloqot va boshqa turli jarayonlarni boshqarib keladi. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlilik masalasi ham mazkur jarayonlarda munosabatlarni qonunan tartibga solinishi bilan ahamiyatli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori ushbu yo‘nalishda tub burilish yasadi. Mazkur qarorda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish yuzasidan yangi qonunlar ishlab chiqilishi muhim vazifa sifatida belgilangan edi. Belgilangan qonunlarning ishlab chiqilib, muhokama etilib, ma’qullangani qaror ijrosining ta’minlanganini ko‘rsatadi. Oliy Majlis Senatining yigirma birinchi yalpi majlisida ma’qullangan hamda Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash, sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bundan tashqari, u ko‘plab masalalarga oydinlik kiritish, faoliyatda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda faol iste’molda bo‘lgan gender so‘zining tushunilishi va qo‘llanish holatlaridagi noto‘g‘ri talqin va tasavvurlar mavjudligini aytish joiz. Xususan, genderni ayollar mavzusi yoki ularning ustunligiga oid tushuncha deb qarash kuzatiladi. Albatta, bu to‘g‘ri emas. Gender – bu xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti hamda faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati ekanligi mazkur qonunda aniq yozib qo‘yilgan. Bu masalaga oid tushunchalarga berilgan tegishli izohlarning mavjudligi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, demokratizm, jinsi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmaslik, ochiqlik, shaffoflik belgilab berilgan. Endilikda bu yo‘nalishda normativ-huquqiy bazani shakllantirish, takomillashtirish hamda rivojlantirish muhim bo‘lib, bu doirada davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish eng muhim vazifalar hisoblanadi. Chunki ushbu hujjatlarni yaratish, aniq ijro mexanizmlarini ishlab chiqish orqali xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar bo‘yicha huquqiy madaniyatni shakllantirish, jamiyat, davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirokini ta’minlash, mas’uliyatli onalik va otalikni shakllantirish kabi yo‘nalishlarda faoliyat tashkil etiladi. Qonunning qabul qilinishi davlat boshqaruvida ayollarning erkaklar bilan teng sharoitda ishtirok etishini, ayniqsa, rahbarlik lavozimlarida ham ishlashi mumkinligi kafolatlaydi. Shuningdek, qonunda hokimiyat vakillik organlariga saylovlarda ham siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis

Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi ta’minlanishi belgilab qo‘yildi. Jamiyatda ayollarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yadigan, asossiz tengsizlik natijasida hayotida qiyinchiliklar kelib chiqayotgan oilalarning ham borligi achinarli hol, albatta. Ta’kidlash joizki, oilaviy munosabatlarda, ayniqsa, bolalar tarbiyasida ona ham, ota ham birdek mas’uldir. Qonunda bu borada ham erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari aniqlab berilgan bo‘lib, ularning teng majburiyatlarga ega ekanligi yozib qo‘yilgan. Bu borada ayollar va erkaklar nikohining ixtiyoriyligi, majburiy va erta nikohlarga yo‘l qo‘yilmasligi, er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari tengligi kabilar shular jumlasidandir. Qonun ta’lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog‘liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ham aks ettirgan. Ta’kidlash joizki, ushbu sohalarda mamlakatimizda ayollar faol mehnat faoliyatni olib boradilar. Ta’limning barcha bosqichlarida, ilmiy-tadqiqot, tibbiyot sohalarida mehnat qilayotgan ayollar ko‘pchilikni tashkil etishi ma’lum.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish.

O‘zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan. Ayniqsa, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun ko‘p yillik muhokamalardan so‘ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish, ularga boshpanalar ajratish, ishonch telefonlari va nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilish uchun asosdir. Bunday choralar, xususan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tomonidan uzoq vaqt davomida tavsiya qilib kelingan.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili. 30.12.2016 y. O‘zbekiston milliy axborot agentligi sayti. www.uza.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili. 30.12.2016 yil. O‘zbekiston milliy axborot agentligi sayti. www.uza.uz.
3. Rasulova Z. Oila mustahkamligiga xavf soluvchi omillar. “Jamiyat taraqqiyotida oilaning o‘rni” mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T., 2012.
4. Simona de Bovuar. «Osnovi gendernix issledovaniy» («Xrestomatiya») M ., MTSGI MVSHSEN, 2011.
5. Xolmatova M. Jamiyat va ayol. «O‘zbekiston ijtimoiy xayotida ayollarning o‘rni» (ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami, 2000 y.) – T., 2020

S.S. Safarboyeva **–** Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

SHAXSLARARO AGRESSIV XULQ – ATVOR

Shaxslararo agressiv xulq-atvor insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin: shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit, tarbiya va stress omillari muhim rol o‘ynaydi. Agressiyaning qanday omillar ta’sirida shakllanishi va uni kamaytirishning samarali usullari psixologiyada dolzarb mavzulardan biridir.

Shaxslararo agressiv xulq-atvor qanday omillar ta’sirida shakllanadi va o‘smirlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Agressiyani kamaytirish va oldini olish uchun qanday samarali usullar mavjud? Ushbu maqolada shu va shu kabi savollarga javob beriladi.

“**Agressiya** tushunchasi lotincha aggressio (“hujum”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab ***1611-yilda*** sababsiz hujum ma’nosida ishlatilgan.[218] **Agressiya** – bu qarshilik ko‘rsatish yoki hujum qilishga yo‘naltirilgan xulq-atvor bo‘lib, odatda zarar yetkazish maqsadida sodir etiladi. Biroq, u ba’zi hollarda ijodiy va konstruktiv yo‘nalishlarga ham yo‘naltirilishi mumkin.”[219] Shaxslararo agressiv xulq-atvor esa insonlar o‘rtasidagi nizolar va keskinliklar bilan bog‘liq bo‘lib, uning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxslararo agressiv xulq-atvor ko‘pincha stress va emosional zo‘riqish bilan chambarchas bog‘liq. Bunday holatlar ayniqsa, mehnat yoki ta’limiy hamkorlik jarayonida yuzaga kelib, shaxsning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mehnat va stress-emosional zo‘riqishning keskin holati ko‘rinishi, shakli hisoblanib, tashqi va ichki muhitning noxush omillarini shaxsga favqulodda ta’sir etish natijasida vujudga keladi. Ta’limiy hamkorlik (o‘qituvchi bilan talaba hamda talabalarning o‘zaro) faoliyatidagi frustrasiya-bilish faoliyatini tashkillashtirishning

[218] Maremmani I., Avella M.T., Novi M., Bacciardi S., Maremmani A.G.I. Aggressive Behavior and Substance Use Disorder: The Heroin Use Disorder as a Case Study. Addict. Disord. Treat.. 2020;19(3):161-173.

[219] Merriam-Webster: Aggression Retrieved 10 January 2012 http://www.merriam-webster.com/dictionary/aggression

tubdan teskari tomonga yo‘naltiruvchi ruhiy holatdir. Shaxs uzluksiz paydo bo‘luvchi va bartaraf qilish qiyin to‘siqlarning ta’siri ostida ruhan tushkunlik, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, ko‘pincha eksperimentga, vaziyatga nisbatan agressiv (tajovus) reaksiyalar (javob xatti-harakatlari) yuzaga kelishi kuzatiladi.[220]

O‘smirlik va o‘spirinlik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsiy identifikatsiya, mustaqillik hissi va ijtimoiy moslashuv jarayonlari kechadi. Biroq, aynan shu yosh oralig‘ida agressiv xulq-atvorning shakllanishi va namoyon bo‘lishi ham kuzatiladi. O‘smirlar va o‘spirinlar ijtimoiy muhitga, oilaviy tarbiyaga, maktab jamoasiga va tengdoshlar bilan munosabatlarga sezgir bo‘lishadi. Stress, hissiy beqarorlik, o‘zini namoyon qilish istagi yoki oilaviy muammolar ushbu yoshdagilarda agressiyaning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘smirlik davridagi agressiya ko‘pincha o‘zini himoya qilish yoki o‘z mavqeini mustahkamlashga qaratilgan bo‘ladi. Ayniqsa, tengdoshlar o‘rtasidagi raqobat, ijtimoiy bosim va o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyoj agressiv xulq-atvorga turtki bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, media vositalarida zo‘ravonlik sahnalarining ko‘payishi, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta’sir va atrof-muhitdagi konfliktlar ham o‘smirlar xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi muhim omillardan hisoblanadi.

O‘spirinlik yoshida shakllangan agressiv xulq-atvor kelajakda shaxslararo munosabatlarga, ta’lim jarayoniga va umuman jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, o‘smir va o‘spirinlarda agressiyani kamaytirish uchun psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional intellektni rivojlantirish, sport va ijodiy faoliyatga jalb etish, hamda konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilishga o‘rgatish agressiyani kamaytirishning samarali usullaridan biridir.

“***A. Bandura*** bolalar va o‘spirinlardagi agressiyani laboratoriya va dala tadqiqotlari orqali o‘rgangan. Masalan, 4 yoshli bolalar guruhiga turli oqibatlarga olib keluvchi agressiv xulq-atvorni aks ettiruvchi filmlar namoyish etilgan. Filmda katta yoshli odam rezina qo‘g‘irchoqni urib, qo‘pol so‘zlar aytgan, so‘ng mukofotlangan yoki jazolangan. Film tomosha qilingach, bolalarga o‘yinchoqlar bilan mustaqil o‘ynash imkoni berilgan. Natijada, mukofotlangan agressiv model ishtirok etgan filmni ko‘rgan bolalarda agressiv xulq-atvor darajasi yuqori bo‘lgani aniqlangan. Eksperiment doirasida modelning jinsi, yoshi, etnik mansubligi, obro‘-e’tibori va boshqa omillarning bola xulq-atvoriga ta’siri o‘rganilgan. Bu tadqiqot kuzatuvchilarning xulq-atvor strategiyasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini bergan.”[221]

Agressiya turlari. Agressiya insonning boshqa odamlarga yoki o‘ziga zarar yetkazish, tajovuzkorlik ko‘rsatish shaklida namoyon bo‘ladigan xulq-atvoridir. U turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin va psixologik, biologik hamda ijtimoiy omillarga bog‘liq. Quyida agressiyaning asosiy turlari keltirilgan:

1. Jismoniy agressiya. Bu agressiyaning eng ochiq va bevosita shakli bo‘lib, inson yoki ob’ektga jismoniy zarar yetkazish orqali namoyon bo‘ladi.

[220] E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent – “Universitet” – 2002. (162-163 – betlar).

[221] Oribboyeva D. Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi: Ma’ruza matni. – Namangan: NamDU, 2019. (70-bet)

*"*Jismoniy agressiya (***zo‘ravonlik*** deb atalishi ham mumukin) — *bu jarohatlash, suiste'mol qilish, zarar yetkazish yoki yo‘q qilish uchun jismoniy kuch ishlatishdir."*[222]

- Urish, mushtlashish, itarish
- Buyumlarni sindirish yoki otish
- Hayvonlarga nisbatan zo‘ravonlik

Jismoniy agressiya ko‘pincha ***bolalar*** va ***o‘smirlarda*** impulsiv ravishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlik, janjallar yoki jinoyatlarda ham uchraydi.

2. Og‘zaki (verbal) agressiya. Bu tajovuzning so‘zlar orqali ifodalanadigan shaklidir.

- Baqirish, haqorat qilish, kamsitish
- O‘tkir tanqid va kinoya bilan aytilgan gaplar
- Tahdid qilish

Og‘zaki agressiya ko‘pincha jismoniy zo‘ravonlikdan oldin yuzaga keladi va munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

3. Bilvosita agressiya. Bu tajovuz ochiq namoyon qilinmaydi, lekin boshqalarga zarar yetkazish yoki noqulaylik tug‘dirish maqsadida amalga oshiriladi.

- Mish-mish tarqatish
- G‘iybat qilish
- Manipulyatsiya va fitna uyushtirish

Bu turdagi agressiya ayniqsa, o‘smirlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabatlarga katta ta'sir ko‘rsatadi.

Agressiyaning sabablari va uni kamaytirish usullari. Agressiya biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi.

1. Agressiyaning sabablari

1.1. Biologik omillar

✓ *Gormonal ta'sir* – Testosteronning yuqoriligi agressiyani oshirishi mumkin.

✓ *Miya faoliyati* – Frontal korteks va limbik tizimdagi o‘zgarishlar tajovuzkorlikni kuchaytiradi.

✓ *Genetik moyillik* – Ba'zi odamlar tug‘ma tajovuzkorlikka moyil bo‘lishlari mumkin.

✓ *Spirtli ichimliklar va giyohvandlik* – Impulsivlik va tajovuzni oshiradi.

1.2. Psixologik omillar

✓ *Stress va frustratsiya* – Maqsadga erisha olmaslik agressiyani kuchaytiradi.

✓ *Bolalikdagi tajribalar* – Zo‘ravon muhitda ulg‘aygan bolalar agressiv bo‘lishi mumkin.

✓ *Shaxsiy xususiyatlar* – Impulsivlik va empatiyaning pastligi tajovuzkorlikni oshiradi.

1.3. Ijtimoiy omillar

Oilaviy muhit – Zo‘ravonlik mavjud bo‘lgan oilalar agressiyani oshiradi.

Ommaviy axborot vositalari – Zo‘ravon filmlar va o‘yinlar salbiy ta'sir qiladi.

Ijtimoiy adolatsizlik – Tengsizlik va diskriminatsiya agressiyani kuchaytiradi.

2. Agressiyani kamaytirish usullari.

[222] States, United (1918). „U.S. Compiled Statutes, 1918: Embracing the Statutes of the United States of a General and Permanent Nature in Force July 16, 1918, with an Appendix Covering Acts June 14 to July 16, 1918“. Making of Modern Law: Primary Sources, 1763–1970. 1716-bet.

1.	***Stressni boshqarish***	Meditatsiya, sport va nafas olish mashqlari yordam beradi.
2.	***Empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish***	Konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rgatish kerak.
3.	***Zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontentni kamaytirish***	Mediada zo‘ravonlikni cheklash muhim
4.	***Oilaviy va maktab tarbiyasini yaxshilash***	Bolalarga ijobiy xulq-atvor namunalari ko‘rsatish lozim.
5.	***Davolash va psixologik yordam***	Agressiv insonlar uchun terapiya va maslahat berish samarali usullardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, shaxslararo agressiv xulq-atvor inson hayotining turli bosqichlarida namoyon bo‘lib, uning sabablari biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Ayniqsa, o‘smirlik va o‘spirinlik davrida agressiya kuchayishi kuzatiladi, chunki bu yoshda shaxsiy identifikatsiya, hissiy o‘zgarishlar va atrof-muhit ta’siri sezilarli bo‘ladi.

Agressiyani kamaytirish va nazorat qilish uchun stressni boshqarish, empatiyani rivojlantirish, tarbiya va ta’lim tizimida ijobiy qadriyatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi omillarga qarshi kurashish va psixologik yordam ko‘rsatish agressiv xatti-harakatlarni kamaytirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, agressiyani to‘g‘ri boshqarish nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maremmani I., Avella M.T., Novi M., Bacciardi S., Maremmani A.G.I. Aggressive Behavior and Substance Use Disorder: The Heroin Use Disorder as a Case Study. Addict. Disord. Treat.. 2020;19(3):161-173.

2. Merriam-Webster: Aggression Retrieved 10 January 2012 http://www.merriam-webster.com/dictionary/aggression

3. E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent – “Universitet” – 2002. (162-163 – betlar).

4. Oribboyeva D. Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi: Ma’ruza matni. – Namangan: NamDU, 2019. (70-bet)

5. States, United (1918). „U.S. Compiled Statutes, 1918: Embracing the Statutes of the United States of a General and Permanent Nature in Force July 16, 1918, with an Appendix Covering Acts June 14 to July 16, 1918“. Making of Modern Law: Primary Sources, 1763–1970. 1716-bet.

А.Х. Каримов *– студент университета мировой экономики и дипломатии*

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИЙ «МЯГКОЙ СИЛЫ» ЯПОНИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

С научной точки зрения первое упоминание о концепте появилось в 1990 году в статье «Мягкая сила» (журнал «Foreign Policy») которое далее было более раскрыто в опубликованной книге «Обреченные быть лидером: меняющийся характер американской власти» Джозефом Наем.

Концепция Дж. Ная является оригинальной теорией, вокруг которой ведутся дискуссии по сей день уже в силу того, что она раскрывает новые грани понимания власти, являющейся ключевой категорией в политической науке.

Концепция «мягкой силы» противопоставляется концепции «жесткой силы» подразумевающей под собой жесткое политическое, экономическое, или же военное принуждение. «Мягкая сила» представляет собой инструменты, благодаря которым государства могут достичь стратегических задач не используя принуждение в любом виде. [223]

Фактически «мягкая сила» любой страны базируется на трех основных ресурсах:

1ее культуре (Наиболее широкое понятие, включающее в себя все аспекты привлечения, в частности, культура, туризм, образование и тд.)

2ее политических и социальных ценностях (Права человека, свобода слова и мысли, политические и экономические свободы и тд.)

3 внешней политике (когда она рассматривается как легитимная, имеющая моральный авторитет). Куда можно отнести так же участие в международных организациях.

Центральноазиатский вектор в «мягкой силе» Японии в условиях трансформации международных отношений представляет собой крайне интересный процесс. В последние десятилетия мир очень быстро развивается. Возрастает влияние новых экономических и политических центров, таких как Китай и США, а также появляются новые глобальные вызовы, такие как терроризм, изменение климата и киберпреступность.[224]

В этом контексте Япония, стремясь сохранить свои позиции на международной арене, активно развивает свою стратегии «мягкой силы», направленные на укрепление связей с различными регионами, и прежде всего ее внимание направлено на Центральную Азию.

Японская модель «мягкой силы» включает в себя культурные, образовательные и экономические инициативы, которые помогают не только

[223] Genesis of the «Soft Power» Concept and its Implication in the USA// *International affairs* /Volume number 7-8 / 2024/URL https://international-affairs.uz/ru/archives
Volume number 7-8 / 2024

[224] Внешнеполитические ориентиры Японии в XXI веке и ее взаимоотношения с соседними государствами [Электронный ресурс] // Московский центр Карнеги. 2010. 13 сентября. – URL: https://carnegie.ru/2010/09/13/ru-event-3044

укреплять двусторонние отношения, но и способствуют развитию отношению и стабильности в регионе.[225]

Центральная Азия, обладая богатыми природными ресурсами и стратегическим географическим положением, всегда была одним из центров силы привлекавшим внимание не только Японии но и других стран. Токио осознает, что для достижения своих внешнеполитических целей необходимо наладить доверительные отношения с центральноазиатскими государствами, и лучший инструмент для этого это «мягкая сила», что из за крайней ограниченности инструментов « Жесткой силы» всегда было главным приоритетом Японии после второй мировой войны.

В этом контексте Япония активно продвигает свою культуру, технологии и опыт, культурный обмен, образовательные программы, участие в развитии инфраструктуры и экономических проектов, а также гуманитарная помощь.

Эти инициативы способствуют укреплению взаимопонимания и доверия между Японией и центральноазиатскими государствами, что, в свою очередь, создает условия для более глубокого сотрудничества в различных областях.

Однако не все так просто как кажется, сегодня в период активного экономического развития мировых отношений Япония сталкивается с рядом вызовов, которые могут повлиять на эффективность стратегии «мягкой силы» в Центральной Азии.[226]

Во-первых, это растущее влияние Китая в регионе, который так же как и Япония, активно развивает свои экономические и политические связи с центральноазиатскими в честности государствами через инициативу «Один пояс, один путь». Китайская модель, основанная на экономическом сотрудничестве и инвестициях, представляет собой серьезную конкуренцию для японских инициатив. И как мы можем видеть сегодня, поскольку Китай является крупнейшим партнером Центральноазиатских стран, стратегия является очень эффективной

Во-вторых, нестабильность в некоторых странах региона, вызванная внутренними конфликтами и политическими изменениями, ярким тому примером является Афганистан нестабильность в котором всегда была важнейшей темой дискурсов не только в Центральной Азии но и во всем мире. Все эти вызовы требуют от Японии гибкости и адаптивности в своей стратегии, что может включать в себя более активное участие в многосторонних форумах увеличение экономических и культурных программ а так же сотрудничество с другими странами, заинтересованными в стабильности и развитии Центральной Азии

В то же время, несмотря на эти вызовы, нельзя отрицать, что Япония имеет уникальные инструменты использования своей «мягкой силы» в Центральной Азии.

---

[225] Катасонова Е.Л. Япония и ее инструментарий «мягкой силы». [Электронный ресурс]: Межрегиональная общественная организация Ассоциация японоведов. – URL: http://japanstudies.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=391#_edn2

[226] ***Сотрудничество Центральной Азии и Японии URL https://cyberleninka.ru/article/n/sotrudnichestvo-tsentralnoy-azii-i-yaponii***

Во-первых, японская культура и ценности, такие как уважение к традициям, стремление к инновациям и высокие стандарты качества, социальное уважение являются важнейшими частями культур Центральноазиатских стран, стремящихся к модернизации и развитию.

Во-вторых, из за своей истории, Япония обладает значительным опытом в области технологий а так же устойчивого развития, и этот опыт может быть очень полезен для стран региона, сталкивающихся с экологическими и экономическими вызовами сегодня. В частности я вижу наиболее перспективное сотрудничество в областях энергетики, а так же природоохранительной сфере, в обоих этих сферах компании из центральной Азии могут перенять весьма полезный Японский опыт.

Как мы знаем Узбекистан сегодня очень активно проводит политику открытости и реформ, что создает новые возможности для сотрудничества с Японией.

Японское правительство, как и бизнес среда проявляют особый интерес к узбекскому рынку, что может привести к увеличению инвестиций и развитию совместных проектов в различных областях, таких как инфраструктура, образование и здравоохранение, экология и новые технологии.

Другой аспект состоит в том, что Японская модель «мягкой силы» может быть успешно интегрирована в узбекский контекст, способствуя не только экономическому развитию, но и укреплению культурных связей между двумя странами, а так же развития использования «мягкой силы» Узбекистаном в мировой политике, на основе Японского опыта.

Важно отметить, что успешная реализация стратегии «мягкой силы» требует комплексного подхода и учета специфики каждой страны, что делает сотрудничество между Японией и Узбекистаном в сфере развития « мягкой силы» особенно актуальным в современных условиях.

Таким образом, центральноазиатский вектор в «мягкой силе» Японии представляет собой важный элемент внешней политики Токио. В современных условиях развития международных отношений Япония сталкивается с рядом вызовов, но также имеет уникальные возможности для формирования своей «мягкой силы» в Центральной Азии.

Узбекистан, как ключевое государство региона, может стать важным партнером для Японии в реализации этой стратегии, что, в свою очередь, будет способствовать укреплению связей между двумя странами и развитию всего региона в целом.

Список литературы:

1.Genesis of the «Soft Power» Concept and its Implication in the USA// *International affairs* /Volume number 7-8 / 2024/URL https://international-affairs.uz/ru/archives

2. Внешнеполитические ориентиры Японии в XXI веке и ее взаимоотношения с соседними государствами // Московский центр Карнеги. 2010.: URL https://carnegie.ru/2010/09/13/ru-event-3044

3. Катасонова Е.Л. Япония и ее инструментарий «мягкой силы». //Межрегиональная общественная организация Ассоциация японоведов URL: http://japanstudies.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=391#_edn2

4. Сотрудничество Центральной Азии и Японии URL https://cyberleninka.ru/article/n/sotrudnichestvo-tsentralnoy-azii-i-yaponii

5-SHO‘BA: XALQARO MUNOSABATLAR, JAHON VA MINTAQA TARAQQIYOTINING SIYOSIY MUAMMOLARI, ETNOSIYOSAT VA KONFILIKTOLOGIYA

Б. Омонов *– профессор кафедры Политология Национального университета Узбекистана, доктор политических наук*

ЭТАПЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА В РОССИИ

Процесс трансформации в постсоветских республиках представляет интерес для политологов. Это потому, что интересы крупных держав сходятся в пространстве с обширными подземными и наземными ресурсами, которое называется Евразией. Чтобы дать объективную оценку продолжающемуся процессу реформ в обширном регионе, прежде всего необходимо провести научный анализ политической и экономической ситуации в Российской Федерации. Из истории мы знаем, что путь политического развития России очень сложен. Принятие христианства в 988 году объединило Древнюю Русь с христианским миром и включило ее в христианскую цивилизацию. После этого «русские получили возможность познакомиться и изучить религиозные, нравственные ценности, естественные и научные знания западной цивилизации» [1].

Христианство пришло в регион из Византии, наследницы греческой цивилизации, а Западная Европа получила свои знания из Рима. Есть различия в вариантах христианства: хотя оба восходет древней цивилизации (греческой и римской), в Риме признается верховенство закона.

После разделения христианства на католицизм и православие Россия, ставшая религиозной наследницей Византии, стала отставать от Западной Европы. Как неправительственная организация политически могущественная католическая церковь при поддержке Папы выступает противником светской власти. Но Православная Церковь как социальный институт способствовала обогащению ее политических традиций и популяризации культуры античности. Прежде всего, она поддерживала национальное единство, духовно воспитывая людей. Православная конфессия впервые познакомила свой народ с уникальным искусством, передовой наукой и культурой древней Византии. Она достиг больших высот в теологии, политической мысли, философии, литературе и искусстве. Сочетание двух культур породило таких великих личностей, как Л. Толстой, А. Пушкин, М. Ломоносов, М. Достоевский. Однако экономическое и политическое развитие не было таким далеко идущим, поскольку частная собственность сильно отстала в плане индивидуализма.

Промышленная революция в Западной Европе (восемнадцатый век) была вызывом имперской власти в России, призывающим к изменению стиля реформ. Однако на этот звонок долгое время не отвечали. Лишь в 1900-х годах, когда ветры модернизации из Великобритании и Франции достигли России, власти, осознав, что они отстают в развитии, попытались найти решение.

Однако политическая система, основанная на монопольной власти, не позволяла этого. Пришедшие к власти после Октябрьской революции 1917 года большевики почти столетие продвигали политические реформы.

Процесс модернизации общества в России отличается от других тем, что он занимает много времени. Русские ученые А. Зиновьев, Л. Ивашов, В. Пантин, В. Лапкин, Б. Пашков, А. Фомина, является теоретиками социальной и политической модернизации России. По мнению Ф. Бурлацкого, начальный этап модернизации традиционного общества произошел в конце XVII века. По словам Л. Полякова [2], модернизация началась с царствования Александра I, возник привилегированный класс, дворянство было освобождено от обязательной военной службы и налогов, а государственная политическая система монополизировала привилегии и перешла на защиту интересов частной собственности.

Этапы модернизации общества в России состоят из шести циклов:

Первый цикл начался с либеральных реформ первых лет правления Александра I и проекта государственного строительства М. Сперанского с целью улучшения политической системы и был отменен контрмодернизацией Николая I.

Второй цикл начался с «великой модернизации» [3] царствования Александра II (1860-е годы), которая включила освобождение крестьянства, дифференцированную политику разделения властей (судебные, муниципальные, общенациональные реформы) и завершился контрмодернизацией Александра III [4]. На этапе контрмодернизации были приостановлены государственные реформы, упразднена безраздельная власть общественных организаций, разделение крестьянских общин, усилен государственный контроль над промышленным и финансовым сектором и предпринимателями.

Третий цикл начался в 1905 году реформой С. Витте. Однако во время контрмодернизации и гражданской войны, которая приняла форму «военного коммунизма», свободы были отменены.

Четвертый цикл начался в 1922 году и совпал с реформами Новой экономической политики (НЭП). Во время монополии партии большевиков расслоение усилилось. Разделение властей было отменено, а экономическая и социальная системы были объединены в руках одной партии.

Пятый цикл проходил в 1956 году, когда Н. Хрущев пытался децентрализовать партийно-государственную систему правления и трансформации промышленность в приоритетные области. В эпоху Брежнева идеология усилилась, что привело к централизации министерств и ведомств [5].

В период «перестройки», начавшейся в 1985 году, **шестой цикл** сместился к многопартийной и демократической избирательной системе с перераспределением власти. Открытость в обществе и демократические процессы были трудными для простых людей. Реформы рыночной экономики, начатые без подготовки народа, себя не оправдали. Подъем контрмодернизационного движения в конце 1980-х годов привел к распаду могущественной империи [6].

Из всего вышесказанного ясно, что Россия триста лет находится в процессе модернизации. Свои недостатки власть пытается исправить «сверху» «революционными» методами и программами. Когда общество теряет свою власть, проявляется реформаторская способность государства. При этом контрмодернизация – это не шаг назад, а способ быстрого разрешения противоречий и кризисов в обществе. Как отмечает русский ученый В. Согрин, «либерализация, не имеющая системы и неподготовленная людьми, не вылечит российское общество, а нанесет ему вред, откроет путь для дальнейшей контрмодернизации и подорвет её достижения" [7].

История модернизации в России [8] представлена ниже, в **таблице 1.**

№	Годы	Название	Годы	Название
I цикл	1801–1811 1855–1859	Модернизация	1811–1825 1825–1855	Контр-модернизация
II цикл	1859–1874 1894–1905	Модернизация	1874–1881 1881–1894	Контр-модернизация
III цикл	1905–1911 1921–1922	Модернизация	1911–1917 1917–1921	Контр-модернизация
IV цикл	1922–1927 1953–1956	Модернизация	1927–1929 1929–1953	Контр-модернизация
V цикл	1956–1968 1982–1985	Модернизация	1968–1971 1971–1982	Контр-модернизация
VI цикл	С 1985 г. по наст. времени	Модернизация		Контр-модернизация

Вместе с тем отметим основные черты российской модернизации:

во-первых, правители Иван Грозный, Петр I, Александр I, Александр II, Николай II, премьер-министры С.Ю. Витте, П.А. Столыпин, реформа советского партийного деятеля Н.С. Хрущева «конкуренции с Америкой», реформы М.С. Горбачева по «открытости» и «ускорению» отражали «европейскую модель»;

во-вторых, руководители государства не учитывали общественное сознание людей, уровень возможностей, каждая попытка заканчивалась частичной или полной «отсталостью» в результате отсутствия преемственности, взаимозависимости с предыдущими в каждой попытке реформ;

в-третьих, переход от «мобилизационной модели» к инновационной в российском обществе еще не произошел [9].

На наш взгляд, этому могут противодействовать бесчисленные войны, сложность управления огромным пространством, ограниченность ресурсов, неблагоприятные климатические условия. В 21 веке нет необходимости в мобилизационной модели, и не было создано никаких новых структур для перехода к инновационной модели, как в развитых странах.

Неудачи и потери в политической жизни общества в бывшем Советском Союзе также были вызваны ошибками модернизации советской эпохи. Профессор Л. Левитин говорит в книге «Узбекистан на историческом повороте», что модернизация Мэйдзи («просвещенного правительства») в 1868 году стала поворотным моментом в истории Японии. Да, Япония стала ведущей страной Запада благодаря глубокому изучению экономики,

технологий, богатому опыту и даже копированию. Руководство СССР пришло к иному решению в «реформах». «Модернизация была для большевиков средством удержать свою власть, осуществить мировую революцию, бороться за коммунистический Восток, если говорить об Узбекистане ... Советская модернизация в Узбекистане быстро привлекла страну к техническому прогрессу и машинному труду. В то же время республика не имела возможности развиваться своим естественным путем, внутренними условиями и законами. Модели, программы, сроки, традиции, сложившиеся в развитии узбекского общества, были насильственно привнесены извне, вопреки естественным принципам. Модернизация в Узбекистане означает столкновение цивилизаций и их элементов, и представители одной культуры пытались передать свою волю людям другой культуры**»** [10].

Когда мы говорим о политике этого периода, мы неизбежно думаем о годах колониализма, пережитых узбекским народом. Например, после Октябрьской революции 1917 года было пять контрмодернизационных процессов (1917-1921, 1927-1929, 1929-1953, 1968-1971, 1971-1982).

В этой книги сконцентрируемся на наиболее важных моментах модернизации советского периода, исходя из специфики темы. Мы верим, что эта сложная история поможет нам выявить ошибки, сделать выводы и правильно определить будущее в условиях стремительных реформ, происходящих сегодня в Узбекистане.

В 1929 году, когда к власти пришел *И. В. Сталин* (1879-1953), на первый план вышла идеология. Тогда была создана модель создания технической и экономической базы, которая не отставала бы от традиционной культуры Запада. Хотя модель «погони» не увенчалась успехом, позже она была использована в Мексике, Аргентине и Индии.

В СССР на первом этапе «гоночной» модели модернизации было внедрено предприятие индустриализации; на втором этапе у системы не было возможности управлять экономикой, так как вопрос о руководящих инженерно-технических кадрах, управляющих машинами и технологиями, оставался нерешенным. Более того, в годы репрессий (1932-1938, 1950-1953) физическое уничтожение талантливых зрелых профессионалов негативно сказалось на развитии.

Во время руководства *Н.С. Хрущева* (1894-1971) по примеру Запада усилилась компания научно-технической революции, закончилась постиндустриальная модернизация (насыщение общества потребительскими товарами, изобилием), возникла тенденция к восстановлению постиндустриального общества. За годы хрущевской «перестройки» произошли положительные изменения в социокультурной системе общества. Например, рост массового жилищного строительства хотя не полностью решил проблему, но изменил общественную жизнь людей. Впервые в жизни населения началась индустриализация, в дома вошли телевизоры, холодильники, стиральные машины, газовые плиты, расширилась сеть мастерских и магазинов, кулинарий и химчисток.

Советское общество впервые ощутил свободу. Официально пропагандировалось знакомство горожан с жизнью и людьми Восточной Европы. Развитая международная система путешествий позволяет объехать

даже полмира за счет профсоюзных ваучеров. Повышение пенсий, сокращение рабочей недели, удорожание науки и образования, конечно же, привели к изобилию в жизни граждан. В рабочем классе пробудился новый жизненный заряд. Реформы открыли новые возможности для объединения более ста наций и народов, для пробуждения коллективного духа в общественном сознании (аналог лозунга японской модернизации "Японский дух и западные технологии" – Б.О.), роста индивидуализма и человеческой свободы.

По мнению исследователей, при Хрущеве были созданы необходимые условия для политической модернизации, благоприятная социально-психологическая среда, значительно возросла уверенность людей в себе (комсомольская молодежь охотно пошла на строительство БАМа, освоение особо охраняемых территорий и т.д.) [11].

Самое главное, была освобождена общественная жизнь, а массовый страх и террор, унаследованные от Сталина, полностью исчезли.

Однако были и досадные события: расстрел рабочих (1963, Новочеркасск и др.), зверства против интеллигенции, вмешательство в дела других государств (вооруженное вторжение в Венгрию в 1956 году), эскалация конфликта с Западом (1961, Берлин) и кризис в Карибском бассейне в 1962 году), а также политические фантазии («Мы догонем и перегоним Америку!» и т. д.), а к 1980 году обещания построить коммунизм превратили правительство Хрущева в нестабильную, волюнтаристскую политику. Все его ошибки, а часто и глупые решения могли остаться безнаказанными еще много лет. Но хитрый, непредсказуемый и неуправляемый Хрущев совершил ошибку, имевшую для него серьезные последствия: он начал принимать меры по модернизации партийно-государственного устройства, по ограничению привилегий партийного аппарата. Аппарат не мог ему этого простить. Его свергли Хрущева ею же товарищи [12].

Итак, потеря единства, солидарности, согласия между государством и народом в конечном итоге привела к политической потере, упадку. К сожалению, восстановленные ранее демократические ценности, социально-психологическая среда в обществе постепенно исчезли. Некоторым государствам необходимо извлечь уроки из такой специфической для России концепции конфронтации или контрмодернизации.

Пришедший к власти в 1964 году *Л.И. Брежнев* (1907–1982), избрал консервативный путь и не хотел модели «преследования» Запада. Этот лидер, представлявший сельское хозяйство, решил реструктурировать ферму. Неудачей в этом развитии была традиционная модель.

Глава государства строил пятилетние планы, но им не хватало преемственности. Хотя автоматизация, научные методы и западное управление ожили, тот факт, что предприятия оставались в руках крупных монополий, не допускал конкуренции, и планы были сосредоточены на продаже продукции, которая не учитывала рынок, то есть стоимость. По мере увеличения разрыва между стоимостью и материальным потреблением в экономике темпы управления в национальной экономики замедлялись.

Использование старых методов модернизации привело к перераспределению задач в централизованной системе, субъективности на нижних уровнях. Например, в министерствах и организациях республик

усиливается тенденция к искусственному увеличению количества сотрудников для реализации планов, к выпуску «дорогой» продукции в «дешевом» ассортименте под предлогом реализации планов. Реформы 1970-х отговорили трудовые сообщества от внедрения новых технологий. Отчисления в фонды поощрения прибыли распределялись между предприятиями в зависимости от объема продаж и уровня рентабельности. В таких условиях предприятия не хотели проходить техническую реконструкцию, так как это привело бы к нарушению производственного цикла, снижению годовых результатов и уменьшению отчислений в фонды материального стимулирования.

Хорошая модель модернизации Н.С. Хрущева 1950-х и 1960-х годов: политические цели, такие как реструктуризация экономики, равное развитие науки, образования и высокотехнологичного производства, передача управления экономикой технократам, опора на интеллектуалов, зрелых профессионалов и «новый рабочий класс» в социальной политике подвергся критике со стороны генсека Леонида Брежнева и вообще приостановлен. Это была очередная контрмодернизация государства, проанализированного выше.

В то же время исследователи отмечают некоторые *достижения социалистической модели,* которая широко использовалась в Азии, Латинской Америке, на Ближнем Востоке и в Африке в 1960-1970-е годы:

1) индустриализация, массовое образование, развитие науки, урбанизация и др .;

2) сила коллективного духа, отчужденность от рыночной экономики, верность коммунистической идеологии;

3) создание идеала человека с высокими моральными принципами, лояльности к стране через развитие образования, науки, культуры [13].

На основе нашего научного анализа ниже раскрываются основные причины кризиса прежнего режима.

Даже в годы руководства Л. И. Брежнева были допущены политические ошибки, тормозившие модернизацию. В частности, была предпринята попытка вторжения в Чехословакию (1968 г.), войска были введены в Афганистан (1979 г.). В частности, худшей ошибкой была «афганская проблема». Единственная политическая ошибка превратилась в глобальную проблему. Геополитическая ситуация в Центральной Азии полностью изменилась, и эта проблема стала угрозой политической и экономической жизни Узбекистана. До сих пор внешние риски и угрозы в нашем регионе не закончились...

Главный недостаток советской модернизации – неправильный подход к национальной политике. Идеологическая политика, стратегические интересы системы превалировали, а потребности и интересы национальных республик не учитывались. Всеобщая война против крестьянства (1930-1940); увеличение производства хлопка-сырца (1930-1990); притеснение и репрессии в отношении деятелей национальной культуры (1937-1938, 1951-1953); запрет ислама (1920-1985), фиктивные компании «хлопкового бизнеса» (1986-1988 гг.) и другие. Эти политические компании оставили негативный след в сознании и психологии узбекского народа.

После прихода к власти *Владимира Путина* (1954) в январе 2000 г. к либеральной политике подходили осторожно, применялись жесткие и административные меры в общественной жизни. Преступность и беспорядки, царившие при бывшем лидере Борисе Ельцине, подошли к концу, произошла смена административных и экономических структур, особенно во всех регионах, значительные изменения произошли в промышленной, банковской и финансовой системах. Процесс модернизации все еще идет полным ходом. Однако, на наш взгляд, политическая напряженность в отношениях России и США, конфликт из-за присоединения Крыма к России, серьезные разногласия в отношениях Сирия – США – Россия, США –Иран, США – Северная Корея препятствуют плавной модернизации страны.

Факторы, которые привели к кризису бывшего Союза	-У правительства Л.Брежнева не было продуманной модели модернизации; -в советской промышленной системе уже произошли глубокие кризисы; -система государственного планирования фрагментирована, и борьба за ресурсы, государственные инвестиции между судебными, корпоративными, промышленными империями, монополистическими секторами и бюрократическими группами усилилась, и эти вопросы решены только с помощью ЦК КПСС, Совета Министров, Государственного планирования и государственного обеспечения “своими людьми”; -по мере ухудшения экономической структуры в середине 1970-х годов сократилось финансирование науки, образования и строительства новых объектов; -финансирование оборонной промышленности резко возросло. В результате государственный капитал и общество были разделены, система взаимной поддержки и поощрений была разрушена, и вместо нее использовалась система равной оплаты труда.

В модернизации страны ежегодное Послание Президента Владимира Путина Федеральному Собранию – особое политическое событие, достойное изучения. Впервые этот эксперимент был проведен 5 ноября 2008 г., а 20 февраля 2019 г. было заслушано очередное 12-е обращение. В прямом общении с депутатами и народом, транслируемом более чем на 100 телеканалах по всему миру, были даны ответы более чем на 1000 вопросов российских и зарубежных журналистов о социально-экономическом развитии страны, внутренней и внешней политике. «Людей нельзя обмануть»,–сказал В.Путин. – Они глубоко понимают обман, заниженную самооценку и любую несправедливость. Бюрократическая волокита и бумажная волокита мало интересуют граждан. Для гражданина важно то, что происходит на самом деле, что изменилось в его жизни и жизни его семьи. Он хочет знать изменения, которые происходят в наши дни, а не предыдущие. Нельзя повторять ошибок прошлых десятилетий и ждать «прихода коммунизма». Нам нужно найти способ улучшить ситуацию прямо сейчас» [14]. Президент отметил, что улучшение сложной

демографической ситуации, увеличение продолжительности жизни людей и снижение смертности – это проблемы, связанные с искоренением бедности.

Согласно нашему анализу, причина отсутствия проектов модернизации на территории Российского государства объясняется следующим:

во-первых, в западных странах модернизация осуществляется органично, исходя из внутренних политических, экономических, культурных факторов. В бывшем Советском Союзе, в том числе в России, использование неорганических методов и внешних факторов: давление из-за рубежа, запуск экономических и военных моделей «догона» и даже «обгона» Америки и Европы, подорвали национальную безопасность;

во-вторых, в западных странах модернизация носит комплексный характер и охватывает все аспекты жизни общества, в то время как в России, хотя она частично осуществляется в экономической, промышленной, военной сферах, культурная и социальная сферы остались в стороне. Новые элементы в политике, промышленности, науке и технологиях меньше соответствовали культурным ценностям, поэтому люди отвергали инновации;

в-третьих, еще одним препятствием на пути модернизации является сохранение восточных ценностей в менталитете и характере россиян;

в-четвертых, в России не развиты торговые и валютные связи, связывающие цивилизации, инновации слабы, культурный плюрализм и система отношения к творчеству не сформированы;

в-пятых, реформы часто проводятся сверху, без помощи народа, и люди к этому недостаточно подготовлены.

Напрашивается вывод, что кризис социалистической модели был связан с кризисом мировой промышленной системы, охватившей все страны мира в 1970-е годы. Лидеры государства не принимали во внимание общественное сознание людей, уровень возможностей, каждая попытка реформирования приводила к частичному или полному «отступлению» в результате отсутствия преемственности и взаимозависимости с предыдущей.

Наше исследование также максимально проанализировало состояние модернизационных процессов в постсоветских республиках.

Список литературы:

1. Фомина А.С. История модернизации в России. – М.: 2003. – С. 13-14.

2. Поляков Л.В. Пять парадоксов российского консерватизма // Отечественные записки, 2004. № 2. –С. 35-51.

3. Великие реформы в России (1856-1874). Сборник статей. – М.: 1992.– С.189-212.

4. Дьяков В.А. Славянский вопрос в общественной жизни России. – М.: 1993. –С. 170-186.

5. Медведев Р. Личность и эпоха: Политический портрет Л.И. Брежнева. В 2-х кн. – М.: 1991. –С. 78-107.

6. Нарочницкая Н.А. Россия и русские в мировой истории. – М.: 2004. – С. 515-520.

7. Согрин В.Б. Политическая история современной России: от Горбачева до Путина. – М.: Весь Мир, 2001. – С. 177-198.

8. Пантин В.И., Лапкин В.В. Волны политической модернизации в истории России. К обсуждению гипотезы // Полис, 1998. № 2. – С. 39-51.

9. Ивашов Л.Г. Хоронить не спешите Россию. – М.: 2003.–С. 174-180.

10. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида / Узбекистан на историческом повороте. –Т.: Ўзбекистон, 2001.–С. 135-136.

11. Фомина А.С. История модернизации в России. – М.: 2003. – С. 26.

12. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида /Узбекистан на историческом повороте. –Т.: Ўзбекистон, 2001.–С. 132, 135-136.

13. Федотова В.Г. Типология модернизаций и способов их изучения // Вопросы философии, 2001, № 4. – С.17.

14. Послание Президента России Федеральному Собранию // Сайт Президента России. 20 февраля 2019 г. www. kremlin.ru

Ф.М. Бафоев *– доцент Бухарского государственного технического университета, к.п.н*

ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ НЫНЕШНЕЙ АДМИНИСТРАЦИИ США НА ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННОГО МИРОПОРЯДКА

Сегодня все мы являемся свидетелями и участниками масштабной трансформации мира. Эволюция миропорядка очевидна: старый – рушится, а контуры нового – пока четко не проявились.

Деятельность нынешней администрации США во главе с президентом Д.Трампом по выявлению масштабных финансовых злоупотреблений и разоблачению политического лицемерия «глубинного государства», восстановлению исконных, традиционных моральных ценностей находит поддержку во многих странах. Все, что делается в США, имеет непосредственное значение для всего мира.

Президент Трамп осуществляет свое руководство в период второго президентского срока, используя подход “Мир посредством силы”.

«Наша внешняя политика требует прямого, надежного и конструктивного взаимодействия со всем миром, – заявил недавно Д.Трамп. – Американское лидерство основано на жизненно важных интересах безопасности, которые мы разделяем с нашими союзниками по всему земному шару».

Президент Д.Трамп полагает, что ООН должна вернуться к своей основополагающей цели, закрепленной в ее Уставе, – поддерживать международный мир и безопасность, в том числе посредством мирного урегулирования споров.

Касаясь проблем американского континента, Президент Д.Трамп пообещал восстановить контроль над Панамским каналом, чтобы противостоять китайскому влиянию в указанном регионе.

Далее. Президент Д.Трамп ввел санкции в отношении Международного уголовного суда (ICC), который незаконно заявил о своей юрисдикции в

отношении внутренних дел США и безосновательно выступил против премьер-министра Израиля Биньямина Нетаньяху.

Нынешний Белый дом, очевидно, придерживается иной, чем прежде, стратегии в отношении как массовой иммиграции, называя ее самоубийством, так и миграционных процессов в целом. Операции администрации президента Д.Трампа по депортации нелегалов направлены на решение проблемы рекордного числа случаев пересечения границы иностранцами-преступниками, имевших место при предыдущей администрации. «Единственное долгосрочное решение проблемы гуманитарных катастроф, – считает Д.Трамп, – состоит в создании условий, при которых перемещенные лица смогут безопасно возвращаться домой и начинать длительный процесс восстановления».

Президент Д.Трамп высвободит американскую энергетику, положив конец политике Дж.Байдена по борьбе с изменением климата, Президент Д.Трамп, как заявлено, выйдет из Парижского соглашения по климату.

Новая администрация США считает, что «Европа отошла от своих фундаментальных ценностей», «Европе необходимо взять на себя ответственность за свою судьбу», «Европе нужно сделать большой шаг, чтобы обеспечить собственную оборону», «Странам ЕС необходимо позволить своим народам пользоваться свободой слова, с наименьшими потерями выйти из нынешнего кризиса демократии».

«Мы, – заявляет президент Д.Трамп, – решительно поддерживаем НАТО – альянс, порожденный союзами в двух мировых войнах, свергнувшими фашизм, и союзом в холодной войне, победившим коммунизм. Однако наши партнеры должны выполнять свои финансовые обязательства».

Есть различия в подходах к российско-украинскому конфликту администраций Дж.Байдена и Д.Трампа. Президент Д.Трамп ясно дал понять украинскому руководству, что США, которые финансирует бóльшую часть оборонных расходов Украины, не будут использованы в чьих-то интересах, и единственным долгосрочным решением является мир. Американский лидер высказался за реализацию известной инициативы, касающейся безопасности судоходства в акватории Чёрного моря.

Администрация США выступает за создания политических перспектив для палестинского народа, что можно было бы обеспечить в результате урегулирования израильско-палестинского конфликта путем переговоров. С этой целью предлагается путь восстановления Газы и установление прочного мира между Израилем и палестинцами. Президент Д.Трамп предложил смелое видение обеспечения прочного мира в Газе. Нынешний лидер США выступает против антисемитизма.

Президент Д.Трамп предпринял решительные действия по ликвидации радикальных исламских террористов. «Наша обязанность – служить гражданам Соединенных Штатов, охранять и защищать их, – заявил Д.Трамп. – Также мы предпринимаем решительные меры по защите нашей страны от радикального исламского терроризма».

Белый дом за всеобъемлющий политический процесс под руководством правительства Сирии.

США и их союзники призывают к отказу от терроризма в Сирии. Они однозначно осуждают недавнюю эскалацию насилия в прибрежных районах

Сирии и призвали к защите гражданского населения и привлечению к ответственности лиц, совершивших зверства. США подчеркивают решающее значение всеобъемлющего политического процесса под руководством временного правительства Сирии, приветствуя его приверженность сотрудничеству с ОЗХО в деле ликвидации всего остающегося химического оружия.

«Как и было обещано, – заявил президент Д.Трамп, – я уполномочил Министерство обороны разработать план разрушения и ликвидации ИГИЛ, этой сети жестоких преступников, убивающих мусульман и христиан, мужчин, женщин и детей всех вероисповеданий и верований. Вместе с нашими союзниками, включая наших друзей и союзников в мусульманском мире, мы уничтожим этого подлого врага нашей планеты».

Руководство США продолжает считать, что «Иран является основным источником нестабильности в регионе и ни в коем случае нельзя допустить разработку им ядерного оружия». Белый дом подчеркивает, что Иран должен немедленно изменить курс, принять меры для деэскалации ситуации и сделать выбор в пользу дипломатии. Президент Д.Трамп возобновил максимальное давление на Иран. Руководитель США вновь причислил поддерживаемых Ираном хуситов к иностранным террористическим организациям. «Я, – заявил Д.Трамп, – ввел новые санкции в отношении юридических и физических лиц, поддерживающих иранскую программу баллистических ракет».

США и их союзники по-прежнему серьезно обеспокоены ситуацией в Восточно-Китайском и Южно-Китайском морях и продолжают решительно выступать против односторонних попыток изменить статус-кво в этом регионе, в частности, с помощью силы и принуждения.

Американская администрация выражает обеспокоенность по поводу нерыночной политики и практики Китая, которые, по мнению Белого дома, приводят к вредному избытку производственных мощностей и нарушению рыночного равновесия. Государственный департамент США призывает к мирному разрешению проблем, связанных с пересечением Тайваньского пролива.

США и их союзники по-прежнему обеспокоены тем, что «Китай наращивает свою военную мощь и быстрыми темпами увеличивает арсенал ядерного оружия». Они призвали Китай участвовать в обсуждениях с целью снижения стратегических рисков и содействовать стабильности путем обеспечения прозрачности.

Белый дом настаивает, чтобы КНДР отказалась от всего своего ядерного оружия и любого другого оружия массового уничтожения, а также от программ создания баллистических ракет, выражает обеспокоенность проблемой, связанной с кражей криптовалюты в КНДР.

В целом, Вашингтон, как явствует, за совместные усилия в целях стабилизации обстановки в кризисных точках, налаживания взаимодействия в вопросах ядерного нераспространения и глобальной безопасности.

«Наши союзники убедятся в том, что Америка снова готова быть лидером, – заявил Д.Трамп. – Все страны мира – друзья или враги – убедятся в том, что Америка сильна, Америка горда и Америка свободна».

Всемирная история, похоже, выходит на новый виток спиралевидного развития. Утрачивает свою актуальность глобализм, на первый план выходят государственный национализм, стремление к разделу сфер влияния, регионализация мировой политики.

Использованная литература:

1. Donald Trump's Fifth State of the Union Address (2025) // en.wikisource.org.

2. Полная стенограмма речи президента Трампа в Конгрессе. 5 марта 2025 г. // inosmi.ru.

3. Полный текст речи Джей Ди Вэнса на конференции по безопасности в Мюнхене. 16 февраля 2025 г. // inosmi.ru.

4. Заявление по итогам встречи министров иностранных дел “Большой семерки” в Шарлевуа. 14 марта 2025 г. // state.gov.

D.N. Muydinov *- O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchi, s.f.f.d., dotsent*

GLOBAL MIGRATSIYANING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

Ko‘plab tadqiqotchilar globalizatsiyaning migratsiya ortishi bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini ta’kidlashadi. Globallashuv davrida xalqaro migratsiya ilgari taxmin qilinganidan ancha tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Aholi departamenti (UNDESA) tomonidan tayyorlangan Xalqaro migratsiya hisoboti ma’lumotlariga ko‘ra, 1990-yilda dunyoda 152,97 million kishi migratsiyani boshdan kechirgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2000-yilda 172,7, 2017-yilda 257,8 va 2021-yilda 280.58 million kishiga yetdi[227].

Migratsiya har asrda bo‘lganidek, yashab turgan asrimizda ham davom etmoqda va o‘zining yuksak cho‘qqilariga chiqmoqda. Globallashuv jarayoni bilan ayniqsa migratsiya avvalgi davrlarga qaraganda misli ko‘rilmagan darajada ortmoqda. Shu bois, Kasels va Miller globallashuv davrini “migratsiya asri” deb nomladi[228].

Quyidagi 1-rasmda ko‘rinib turganimizdek, xalqaro immigrantlar soni oxirgi ellik yil ichida dunyoning barcha mintaqalarida ko‘paygan, ammo bu o‘sish 1990-yildan tom ma’nodagi globallashuvning boshlanishi bilan yanada ortgan.

1-rasm. BMTning yillarga ko‘ra xalqaro migratsiya soni (mln.)

[227] McAuliffe M. and A. Triandafyllidou (eds.), World Migration Report 2022. International Organization for Migration (IOM), Geneva, 2021, p. xii-xiii.

[228] Castles Stephen and Miller Mark J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. Second Edition, London: Macmillan, 1998.



Xalqaro migratsiyaning klassifikatsiyasi odatda 5 guruhga bo‘linadi: 1) ta’lim olish uchun kelgan xorijliklar; 2) ishlash uchun kelgan migrantlar; 3) oilalarini birlashtirish yoki yangi oila qurish yo‘nalishi bo‘yicha kelgan migrantlar; 4) doimiy yashash uchun kelgan migrantlar 5) gumanitar oqibatlarda (qochoq, boshpana izlovchi) o‘z yurtini tashlab kirib kelgan xorijliklar[229].

Migratsiya umumjahon miqiyosda rivojlanishni ta’minlash, ta’lim va savodxonlikni oshirish, jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvida, ayniqsa, rivojlanayotgan va albatta, qoloq davlatlar aholisini migratsiya orqali ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashiga katta yordam bermoqda. Jumladan, Butun jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, migrantlar tomonidan uylariga yuborgan pul miqdorlari 1970 yilda 1,9 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1980 yilda 36 mlrd., 1990 yilda 64 mlrd., 2000 yilda 127 mlrd. va 2014 yilda 580 mlrd. dollarni tashkil qilgan[230]. Bu mlrd. dollarlar aslinda rivojlanayotgan davlatlar uchun eng ajoyib va toza investitsiya hamdir.

Boshqa bir ma’lumotga ko‘ra, 2013 yilgi Butun Jahon Banki ma’ruzasida, rivojlanayotgan davlatlarga kelgan ishchilarning puli miqdori 410 mlrd. dollarni tashkil qildi. Bu raqam rasmiy qo‘llab-quvvatlovchi rivojlantirish va taraqqiyot dasturlarining uch barobaridir. Shuningdek, oxirgi global inqirozlarda, migrantlarning pul jo‘natmalari boshqa xalqaro pul oqimlariga (kreditlar, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va b.) qaraganda ancha istiqrorli bo‘lganligi kuzatildi. Ba’zi kichik davlatlar iqtisodiyotining YAIMni 25%idan ko‘pini migrantlarning pul jo‘natmalari tashkil qiladi[231] va bu 21 asrda ham iqtisodiy rivojlanish, oilalarning ijtimoiy himoyalanishida migrantlarning pul jo‘natmalari muhim rol o‘ynab qoladi.

Shuningdek, dunyoda xalqaro talabalarni ortib borayotganligi dunyo bo‘lab ilm fanning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Xususan, 2022-yilda dunyo bo‘ylab taxminan

[229] Ионцев В.А., Международная миграция населения: Россия и современный мир. Университета им. М.В. Ломоносова. Москва, 1998. С.38. http://ecsocman.hse.ru/data/596/824/1217/004.IONTSEV.pdf
[230] The World Bank, Migration and Remittances Data (Oct. 2015) http://www.worldbank.org/en/topic/migrationremittancesdiasporaissues/brief/migration-remittances-data
[231] International Organization for Migration (IOM), World Migration Report, 2013, IOM, Geneva: Switzerland.

6,9 million xalqaro talaba bo‘lib, bu so‘nggi yigirma yil ichida 2002-yildagi 2,5 milliondan 176 foizga ko‘pdir[232]. Xalqaro talabalar mamlakatlar bo‘ylab savodxonlikni ortishi bilan birga, talabalarning o‘zlari va oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam bermoqda. Ta’lim migratsiyasini tahlil qilishda tadqiqotchilar “bilim va tajriba almashish” (brain exchange), “aqlning kirib kelishi” (brain gain), “aql yetishmaslik yoki kamomadi” (brain waste), “ichki aql oqimi” (internal brain drain), “aql aylanishi” (brain circulation) kabi terminlarni ishlatmoqda[233].

Globallashuv shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalarning ta’sirida yanada kuchaymoqda, bir-biriga bog‘liq siyosiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy voqea-hodisalar dunyoni tobora yaqinlashtirmoqda va dunyoni haqiqiy global qishloqqa aylantirmoqda. Aniq bir misol 2020-yilda boshlangan COVID-19 koronavirus pandemiyasi dunyoni qanchalik globalizatsiyaning ta’sirida qolganini ko‘rsatdi. Pandemiyani oldini olish uchun inson harakatlanishining to‘xtatib qo‘yilishi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi. Bir so‘z bilan aytganda, globallashuv ta’sirida siyosiy jarayonlar “depsinish/tebranish” xususiyatga aylanib qolmoqda.

Globallashuv va migratsiyaning ta’sirida davlat va jamiyatlarning siyosiy madaniyatida o‘zgarish yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlar siyosiy jarayonlarni o‘z ichiga olishi bilan siyosiy tizimga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv davrida va doirasida migratsiyaning siyosiy jarayon va siyosiy madaniyatga salbiy ta’siri eng kamida yana uchta nazariya bilan o‘rganilmoqda. Bular *qutblanish*, *gomogenizatsiya* va *gibridlanish* nazariyalaridir.

Qutblanish (polarization) tushunchasi global ishonchsizlik bilan tavsiflanadigan madaniyatlar o‘rtasidagi ziddiyatning asosiy nuqtasini tashkil qiladi. Ushbu nazariya, madaniyatlarning o‘ziga xosligi siyosiy hamkorlikda bag‘rikenglikdan ko‘ra, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi bilan bog‘liq global ishonchsizlik haqida bahs yuritadi. Bundan tashqari, texnologik o‘zgarishlar va axborotning globallashuvi bilan madaniyatlararo muloqot va tajriba almashish va foydalanish imkoniyatlarini oshirsa-da, nafrat, etno-millatchilik va irqchilik kabi mojarolar uchun ham osongina foydalanish mumkinligini ilgari surmoqda[234].

Ushbu nazariyaning eng mashhur va bahsli misoli Samuel Hantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” (The Clash of Civilizations) asaridir. Hantingtonning yozishicha, “Sovuq urush”ning tugashi bilan dunyodagi mavjud vaziyat siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan emas, balki madaniy tafovutlar tufayli madaniy urushlar va hatto “global sivilizatsiya urushi”ga olib kelishi mumkin[235].

Shu nuqtayi nazardan, Hantington dunyoni to‘qqiz sivilizatsiyaga ajratdi. Bu sivilizatsiyalar: Xitoy, Yapon, Hind, Buddizm, Islom, Pravoslav, G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi. Ta’kidlanganidek, ushbu sivilizatsiyalar o‘zlarining qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlari, falsafiy

[232] UNESCO Institute for Statistics, n.d. accessed 15 September 2023. https://worldmigrationreport.iom.int/what-we-do/world-migration-report-2024-chapter-2/international-students

[233] Margerita Bondar, Международная интеллектуальная миграция в экономике знаний. Economics and Management – 2/2013.

[234] Holton R. “Globalization’s Cultural Consequences”. The Annals of the American Academy of Political and Social Science, 570, 2000, p. 145.

[235] Huntington, Samuel P., The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York, Simon & Schuster, 1996.

taxminlari, hayotga bo‘lgan qarashlari kabi ko‘plab jihatlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Hantingtonning fikricha, insoniyat tarixi bu sivilizatsiyalar tarixidir[236]. Bundan kelib chiqib, immigratsiya ham begona madaniyatlarni tashuvchi madaniyat “qo‘rquvi” yoki “tahdidi” sifatida tasvirlanmoqda. Insonlar ong ostiga yuboriladigan bunday “qo‘rquv” va “chaqiriqlar” migratsiyaning sekyuritizatsiyalash obyektiga aylantirmoqda.

Gomogenizatsiya – umume’tirof etilgan e’tiqod, umumiy madaniy xususiyatlar va amaliyotlar to‘plamiga yaqinlashishni anglatadi. Bu g‘arb madaniyatining asosan, Amerika madaniyatining gomogenlashuvini ilgari suradi. Ya’ni, McDonald, Coca-Cola kabi “fast-food” yeyish-ichish tarzi, amerikancha kiyinish, Hollywood tarzi reklama, madaniyat va kino sanoatining yoyilishi, ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi[237]. Buning migratsiyaga aloqadorligi shundaki, bunday madaniyatning yoyilishida immigrantlarning o‘rni va roli qanaqa, qanday ahamiyatga ega degan tushunchalar bilan bog‘liqdir. Shuningdek, mahalliy madaniyatning bu kabi ommaviy madaniyatga qarshiligi yoki uni qabul qilishi bu yondashuv doirasida o‘rganiladi. Bir nechta tadqiqotlarga ko‘ra, turli madaniyatlarning yoyilishi ayniqsa, ommaviy madaniyatning yoyilishidan immigrantlar muhim vositachilik rolini o‘ynaydi[238].

Gibridlanish – bu globalizatsiya tufayli global va mahalliy madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan xilma-xillikni o‘rganadi. Global o‘lchovda faqat bitta madaniyat hukmron bo‘lishi imkonsiz tuyuladi va shuning uchun u mahalliy madaniyatlar bilan o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida uchinchi darajali madaniyatlar paydo bo‘lishiga ishoniladi. Bu turli xil genetik tuzilmalarning birikmasidan hosil bo‘lgan biologik duragaylar kabi keng ko‘lamli madaniy omillarning birgalikda mavjudligini anglatadi[239]. Jumladan, madaniy gibridlashish yoki birlashtirish g‘oyasi musiqa (jumladan, jazz va jahon musiqasi), zamonaviy san’at va adabiyot, diniy va ma’naviy hayot kabi bir qator hodisalarga eng muvaffaqiyatli tatbiq etilgan.

Bu borada immigrantlar bilan bog‘liq ishlarda ularni qabul qilgan davlatga qanday integratsiyalash masalasi o‘rin olgan. Masalan, tadqiqotchilar P.Pirkkalainen, M.Abdirizak, I.Aaltio Finlandiya misolida muhojirlarni jamiyatga integratsiyalash va madaniyatlarini gibridlashtirish uchun muhojirlarning o‘zlari tomonidan tashkil etilgan tashkilotlar va uyushmalarning roli va ta’sirining katta ekanligini ilgari surishadi[240]. Bizga ham ma’lumki, Qo‘shma Shtatlarda, Yevropa mamlakatlarida, Rossiya Federatsiyasida, Janubiy Koreada O‘zbek jamiyatlari, uyushmalari mavjud. Ushbu jamiyat va uyushmalar vatandoshlarimizni qo‘nim topgan davlatlardagi jamiyat bilan integratsiyalashuvida hamda o‘z madaniyatining saqlab qolishida muhim rol o‘ynashilari haqida ko‘p eshitamiz.

[236] Pieterse J.N. Globalization and Culture Global Mélange. United States of America: Rowman & Littlefield Publishers, 2009. p. 44-49.

[237] Ritzer G. The McDonaldisation of Society. London: Thousand Oaks, Pine Forge Press, 1993, p. 19; Holton, 2000, p. 142.

[238] Bouymaj I. “Homogenization or diversification? The impact of globalization on cultural identity of the first and second-generation immigrants”, Journal of Globalization Studies, Vol. 13 No. 1, May 2022, pp. 73–89.; Russo G., Mass Media and Cultural Homogenization: Broadcasting the American Dream on the Radio: Job Market Paper, April 21, 2020, https://gianlucarusso.github.io/gianluca_russo_JMP.pdf

[239] Pieterse J.N. “Globalization and Culture: Three Paradigms”. Economic and Political Weekly, 31(23), 1996, pp. 1389-1393.

[240] Pirkkalainen P., Abdirizak M., Aaltio I., “Third Sector Hybridization and Migrant Integration: Cases of Two Migrant Youth Organizations in Finland”. EJBO Electronic Journal of Business Ethics and Organization Studies, Vol. 23, No. 2, 2018, pp. 24-33.

Shuningdek, global migratsiyaning salbiy oqibatlari noqonuniy migratsiya, odam savdosi, turli jinoyatchilik, terrorizm muammolari bilan yanada ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa migratsiyaning xavfsizlik omiliga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida baholanishiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa qilganda, globallashuv migratsiyaning globallashuvini ta’minladi va yashayotgan davrimizni “migratsiya asri”ga aylantirdi. Nafaqat ishchi migratsiya, balki ta’lim, sog‘liq va qochoq kabi migratsiya yo‘nalishlari yildan yilga ortib borarkan, ba’zi davlatlarning demografik tendensiyasiga va madaniy yashash tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Lekin, global migratsiyadan holi qolish qiyin bir masaladir. Dunyo har sohada moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim va sog‘liqni saqlash va hakozo sohalarda taboro integratsiyalashuvga kirib borarkan migratsiya ham oshib boradi. Migratsiya mohiyatiga va oqibatiga ko‘ra ham ijobiy ham salbiy ko‘rinishda davom etib boradi. Shu bois, davlatlardan migratsiyaning salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlik muhim ahamiyat kasb etib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bouymaj I. “Homogenization or diversification? The impact of globalization on cultural identity of the first and second-generation immigrants”, Journal of Globalization Studies, Vol. 13 No. 1, May 2022, pp. 73–89.

2. Castles Stephen and Miller Mark J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. Second Edition, London: Macmillan, 1998.

3. International Organization for Migration (IOM), World Migration Report, 2013, IOM, Geneva: Switzerland.

4. Holton R. “Globalization’s Cultural Consequences”. The Annals of the American Academy of Political and Social Science, 570, 2000, p. 145.

5. Huntington, Samuel P., The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York, Simon & Schuster, 1996.

6. Margerita Bondar, Mejdunarodnaya intellektualnaya migratsiya v ekonomike znaniy. Economics and Management – 2/2013.

7. McAuliffe M. and A. Triandafyllidou (eds.), World Migration Report 2022. International Organization for Migration (IOM), Geneva, 2021, p. xii-xiii.

8. Pieterse J.N. Globalization and Culture Global Mélange. United States of America: Rowman & Littlefield Publishers, 2009. p. 44-49.

9. Pieterse J.N. “Globalization and Culture: Three Paradigms”. Economic and Political Weekly, 31(23), 1996, pp. 1389-1393.

10. Pirkkalainen P., Abdirizak M., Aaltio I., “Third Sector Hybridization and Migrant Integration: Cases of Two Migrant Youth Organizations in Finland”. EJBO Electronic Journal of Business Ethics and Organization Studies, Vol. 23, No. 2, 2018, pp. 24-33.

11. Ritzer G. The McDonaldisation of Society. London: Thousand Oaks, Pine Forge Press, 1993, p. 19; Holton, 2000, p. 142.

12. Russo G., Mass Media and Cultural Homogenization: Broadcasting the American Dream on the Radio: Job Market Paper, April 21, 2020, https://gianlucarusso.github.io/gianluca_russo_JMP.pdf

13. The World Bank, Migration and Remittances Data (Oct. 2015) http://www.worldbank.org/en/topic/migrationremittancesdiasporaissues/brief/migration-remittances-data

14. UNESCO Institute for Statistics, n.d. accessed 15 September 2023. https://worldmigrationreport.iom.int/what-we-do/world-migration-report-2024-chapter-2/international-students

15. Ionsev V.A., Mejdunarodnaya migratsiya naseleniya: Rossiya i sovremennыy mir. Universiteta im. M.B. Lomonosova. Moskva, 1998. S.38. http://ecsocman.hse.ru/data/596/824/1217/004.IONTSEV.pdf

A.S. Turayev *- Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, s.f.f.d. (PhD)*

AQSHNING YAQIN SHARQ MINTAQASIDAGI TASHQI SIYOSATIDA NEOKONSERVATIV KONSEPSIYALARNING TUTGAN O‘RNI

Hozirgi davrda Yaqin Sharq mintaqasida yuz bergan voqealar o‘z mohiyatiga ko‘ra global ta’sir ko‘rsatish xususiyatlarini namoyon qiladi. Ya’ni, XXI asrning dastlabki o‘n yilligi yakunlarida butun mintaqani “arab bahori” deya yuritilayotgan jarayonlari qamrab oldi. Buning ustiga jahon global moliyaviy–iqtisodiy inqirozi ta’sirining saqlanib qolinayotganligi va “Iroq operatsiyasi”ning samarali yakunlanmaganligi mintaqani keng miqyosli kurashlar poligoniga aylantirib qo‘ydi.

Yaqin Sharq dunyo siyosiy xaritasida bir asrlik tarixga ega keskinlik o‘choqlarining mavjudligi, diniy, milliy va madaniy rang-baranglikka boy bo‘lgan mintaqa sifatida alohida o‘rinni egallaydi. Mintaqa bo‘lgan qiziqishning doimiy ortib borishi mintaqaning geografik chegaralari borasidagi qarashlarni ham o‘zgartirib keldi. Geografik nuqtayi nazaridan biz so‘z yuritayotgan hudud Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi sifatida e’tirof etiladi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda ham “Middle” so‘zi “O‘rta” ma’nosini anglatadi. Ammo siyosiy nazariyalar va mintaqalarning geosiyosiy o‘rni borasidagi qarashlarda asosan ingliz tilidagi “Near” (“yaqin” ma’nosida) so‘zi o‘rniga “O‘rta” ma’nosini ifodalovchi so‘z ishlatilib kelinmoqda. Shuning uchun ham aksariyat G‘arb tadqiqotlarida Yaqin Sharq atamasi “O‘rta” ma’nosini anglatuvchi so‘z orqali ifodalanadi (Middle East). Va mazkur mintaqada kechayotgan jarayonlar borasidagi talqinlarda keng qamrovli geografik makonga tegishlilikka urg‘u berishadi. Masalan, Yaqin Sharq davlatlari deyilganda Afrika qit’asida shimolida joylashgan bir qator arab davlatlari, Turkiya, Eron, Iroq kabi davlatlar joylashgan O‘rta Sharq va butun Fors ko‘rfazi, Kaspiy dengiziga tutash janubiy hududlar, Afg‘oniston va Pokiston davlatlari hududlarini tushunish an’anaga aylandi. Bu hududlardagi ijtimoiy jarayonlar Yaqin Sharq mintaqasi qamroviga tegishli ekanligi ilmiy tahlillar va nazariyalarda aks etmoqda. Bunday yondashuv AQSh neokonservativ qarashlarida ham uchraydi. Mintaqa bilan bog‘liq neokonservativ tashqi siyosiy konsepsiyalarning barchasida Yaqin Sharq geografik talqinga emas, balki geosiyosiy o‘lchamlar asosida talqin etiladi. AQSh davlat boshqaruviga Respublikachilar partiyasining kelishi (2000-yil) bilan boshlangan keng ko‘lamli neokonservativ amaliyot jarayonida ham mintaqaga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirildi. Mintaqaning geosiyosiy o‘lchamlari va AQSh manfaatlar zonasi borasida yangi-yangi g‘oyalar ilgari surildi. Xususan, bu borada “Buyuk Yaqin Sharq”,

“Katta Yaqin Sharq” va “Yangi Yaqish Sharq” kabi atamalarning yuzaga kelishini aytish mumkin. Mintaqaning asl geografik mohiyatidan chetlashishga bo‘lgan urunish albatta globallashuv va gegemonizm mafkurasi kabi omillarga borib taqaladi. Zero, bugungi kunda Yer kurrasining biror bir joyida yuz berayotgan voqea boshqa bir joyiga tezkorlikda ko‘chishi ehtimoli yuzaga keldi. Gegemonizm uchun esa mintaqalar chegaralarining kengaytirilishi tas’ir ko‘lamini kuchaytirish uchun juda yaxshi vosita bo‘lib hizmat qiladi. Shunday ekan, AQShning mintaqadagi neokonservativ tashqi siyosati o‘zining keng ta’sirliligi va ko‘p tomonlama manfaatdorligi bilan ajralib turadi. Aynan Yaqin Sharq mintaqasiga nisbatan shakllantirilgan tashqi siyosiy konsepsiyalar o‘z qamrovi nuqtayi nazariyadan ham tutash mintaqalar xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, 9/11 voqealaridan keyingi davrda mintaqalararo munosabatlarda bunday holat borasidagi xavotirlar anchayin kuchaydi. Masalan, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqalarida ro‘y bergan “demokratiya inqiloblari” mintaqalararo faol munosabatlarning biroz turg‘unlashishiga ham sabab bo‘ldi.

Keyingi yillarda zamonaviy Yaqin Sharq muammolarini bartaraf etish shiorlari yoki boshqa bir g‘oyalar, xususan, demokratlashtirish bayrog‘i ostida AQSh siyosiy doira vakillari va neokonservatorlar tomonidan bir qator yangi konsepsiyalar, strategiyalar ilgari surila boshlandi. “Uzoq yillar mobaynida ommaviy ong darajasida shakllantirilgan “Amerikaning afzalligi”, “ota-bobolar vasiyati”, “Amerika mas’ulligi” va boshqa miflardan mamlakat siyosiy-harbiy guruhlari juda ustalik bilan foydalanganligining insoniyat guvohi bo‘ldi. Jumladan, 1997-2001-yillarda aksiliroq kompaniya kutilgan natija olib kelmaganligining asosiy sabablaridan biri dunyo uning tub mohiyatini nisbatan chuqur anglab yetganligi bilan bog‘liq”, deb ta’kidlaydi T.Jo‘rayev[241].

AQShning Afg‘oniston va Iroqdagi harbiy harakatlaridan so‘ng respublikachilar hukumati tomonidan neokonservatorlarning faol ishtirokida 1990-yillar davomida nazariy asoslari yaratilib kelinayotgan konsepsiyalarni yuzaga chiqarish va amaliyotga tadbiq etishga urunishlar boshlandi. AQSh neokonservatorlari ta’sirida Yaqin Sharq mintaqasining keng ma’noda tushuntiruvchi neokonservativ qarashlar tizimi shakllana bordi va keng jamoatchilikka taqdim etildi. Mana shunday qarashlardan biri 2003-yildagi Iroq urushi va Bush doktrinasi doirasida shakllangan **“Katta Yaqin Sharq” g‘oyasi (Greater Middle East Initiative – GMEI)** rasman 2004-yilda ilgari surilgan bo‘lib, uning asosiy muallifi **kichik J.Bush ma’muriyati** hisoblanadi. Bu konsepsiya, ayniqsa, **AQSh prezidenti Bush, AQSh davlat kotibi K.Rays** hamda AQShdagi neokonservativ siyosatshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan va ilgari surilgan. Rasmiy jihatdan **2004-yilning iyun oyida** AQSh va G‘arb davlatlari tomonidan **G8 sammitida** (Sanoati rivojlangan davlatlarning yettiligi + Rossiya) taqdim etilgan. Bu hujjatda AQSh va Yevropa davlatlari Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada islohotlarni amalga oshirish, demokratiya, inson huquqlari va iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash rejalarini e’lon qilishgan.

Bu konsepsiyaning asosiy maqsadi **Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyodagi mamlakatlarda siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish** edi. Bu g‘oya quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan: **Demokratiya va inson huquqlarini rivojlantirish** – arab dunyosidagi avtoritar rejimlarni isloh qilish va erkin saylovlarni yo‘lga qo‘yish; **Ayollar huquqlari va fuqarolik jamiyatini**

[241]Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавсизлик ва барқарорлик (Глобал контекст) - Т.:Академия, 2007. – Б.101

rivojlantirish – G‘arb qadriyatlarni joriy qilish orqali gender tengligini ta’minlash; **Iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish –** G‘arb davlatlari va transmilliy korporatsiyalar bilan iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish; **Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash** – mintaqada islomiy radikalizmga qarshi choralar ko‘rish.

Ma’limotlarga ko’ra “Katta Yaqin Sharq” geografik kengligiga quyidagi davlatlar kiritiladi: Shimoliy Afrika (Marokash, Jazoir, Tunis va Liviya), an’anaviy Yaqin va O‘rta Sharq va Fors ko‘rfazi (Misr, Isroil, Suriya, Iordaniya, Livan, Yaman, Iroq, Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Baxrayn, Ummon, Qatar) va shuningdek Eron, Afg‘oniston va Pokiston kiradi. Bir qator amerikalik mutaxassislar hisoblashicha, Turkiya ham shu mintaqaga tegishli. Bundan tashqari sobiq Sovet Respublikalaridan Kavkazorti va Markaziy Osiyoni ham qo‘shishadi. Vashingtonning fikricha, “Katta Yaqin Sharq” uchun birlashtirilishniing asosiy xususiyati ularning ko‘plarida u yoki bu darajada xalqaro terrorizm manbalari, ommaviy qirg‘in qurollarining yoyilishi, siyosiy va iqtisodiy beqarorlik mavjud. Bu atama o‘zida keng doiradagi hududlarni qamrab olganligi sababli, uning maqsadi ko‘pincha mintaqaning iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik jihatlariga katta e’tibor qaratish bo‘lgan. AQSh va boshqa davlatlar, ayniqsa 2000-yillarning boshlarida, bu hududni o‘zining geosiyosiy siyosatlariga nisbatan ahamiyatli deb hisoblashgan. Bu hududlarni keng qamrab olish g‘oyasi AQShning global miqyosda strategik manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq edi.

“Katta Yaqin Sharq”ning o‘ziga xos xususiyatlaridan ba’zilarini keltiradigan bo‘lsak birinchidan, **xavfsizlik va barqarorlik muammolari:** Yaqin Sharqdagi davlatlar o‘rtasidagi uzoq davom etgan ziddiyatlar (masalan, Arab-Isroil, Iroq va Eron o‘rtasidagi munosabatlar) hamda ekstremistik guruhlar (masalan, “Islom davlati” (ISIS))ning o‘sishi mintaqada xavfsizlikni ta’minlashni qiyinlashtirgan;

Ikkinchidan, **energiya resurslari:** “Katta Yaqin Sharq”, ayniqsa Fors ko‘rfazi, neft va gaz kabi energiya resurslariga boy hudud bo‘lib, bu regionning global iqtisodiyotdagi o‘rnini yanada muhimlashtirgan;

Uchinchudan, **madaniy va diniy xilma-xillik:** Mintaqada turli diniy va etnik guruhlar mavjud bo‘lib, bu ba’zida ijtimoiy beqarorlikka olib keladi (masalan, Sunnilar va Shiilar o‘rtasidagi farqlar);

To‘rtinchidan, **global siyosatdagi roli:** AQSh va Yevropa davlatlari uchun Katta Yaqin Sharq mintaqasi global xavfsizlik, demokratiya va iqtisodiy manfaatlarga bog‘liq bo‘lgan muhim strategik hudud bo‘lib kelgan. Shu sababli “Katta Yaqin Sharq” atamasi siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot va madaniyatning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatish uchun ishlatiladi va turli siyosiy jarayonlarga doir tahlillarni anglatadi.

Ko‘pgina mutaxassislar muhokamasiga sabab bo‘layotgan yangi konsepsiyalardan biri “Yangi Yaqin Sharq” (New Middle East) loyihasidir. Bu atama asosan Yaqin Sharqdagi siyosiy o‘zgarishlarni, mintaqaviy tuzilmalarni va xavfsizlikni yangilashga qaratilgan strategiyalarga ishora qiladi. Bu konsepsiya to‘liq neokonservativ ruhda shakllantirilgan bo‘lib, 2000-yillardan keyingi AQSh tashqi siyosatining muhim jihatlarini namoyon qiladi. “Yangi Yaqin Sharq” jumlasi ilk bor 2006-yil iyunda AQSh Davlat Kotibasi K.Rays tomonidan “Greater Middle East” (Buyuk Yaqin Sharq)ga o‘rindosh sifatida Tel-Avivdagi chiqishida e’lon qilingan. Uning ahamiyatli jihatlaridan biri Boku-Tbilisi-Jayxun neft terminalining ishga tushishi bilan bir vaqtda e’tirof etilganidir. Rays mintaqada barqarorlikni ta’minlash va demokratik o‘zgarishlarni kuchaytirish maqsadida “Yangi Yaqin

Sharq"ni yaratishga chaqirdi. 2006-yilda, Livandagi urushdan keyin, Rice "Yangi Yaqin Sharq"ning yangi shaklini tasvirlashda qo'llanilgan eng mashhur shaxsga aylandi. U "Yangi Yaqin Sharq"ni, isyonkor va autoritar hukumatlarni, ekstremistik guruhlarni bartaraf etib, demokratik o'zgarishlar yaratish orqali mintaqaning mustahkamlanishi sifatida ko'rsatdi. K.Raysning ma'lumot berishicha "Yangi Yaqin Sharq" loyihasi Livandan boshlanadi. Ekspertlar fikricha bu chaqiriq Angliya-Amerika-Isroilning Yaqin Sharqdagi "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash hisoblanadi. Mintaqa bo'yicha urush o'choqlari va tartibsizlik vaziyatini tug'dirayotgan "ijodiy xaos" kuchlarini barpo etishga qaratiladi. "Yangi Yaqin Sharq" vositasida AQSh, B.Britaniya va Isroil o'zlarining geostrategik va boshqa manfaatlariga muvofiq Yaqin Sharq xaritasini qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi[242]. "Yangi Yaqin Sharq"ning siyosiy va tashqi siyosatdagi shakllanishiga "Bush doktrinasi" ham ta'sir ko'rsatdi. Bu asosan, 2000-yillar boshlarida Bushning prezidentligi davrida (2001-2009) amalga oshirilgan. Bush ma'muriyati, ayniqsa, Iroq urushi va terrorizmga qarshi global kurashni ilgari surdi. Iroqdagi Saddam Husayn rejimini ag'darish, Yaqin Sharqdagi avtoritar tuzilmalarni sindirish va yangi demokratik tuzilmalarni o'rnatish maqsadida "Yangi Yaqin Sharq"ni shakllantirishga urindi.

R.Perle, P.Vulfovits va **U. Kristol** kabi neokonservatorlar AQShning Yaqin Sharqdagi siyosatini belgilovchi va "Yangi Yaqin Sharq" konsepsiyasiga ta'sir ko'rsatgan jamoaning a'zolari edi. Ular, AQShning mintaqadagi demokratik o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash va barqarorlikni ta'minlash uchun kuch ishlatishni ma'qullashgan. 2003-yilda Iroq urushi va mintaqada o'zgarishlar yaratish maqsadida ular AQShning yangi strategiyasini ishlab chiqdilar.

"Yangi Yaqin Sharq" konsepsiyasining rivojlanishida "Yangi Amerika asri loyihasi (**Project for the New American Century (PNAC)** va "Amerika tadbirkorlik institute" (**American Enterprise Institute (AEI)** kabi "aql markazlari" muhim rol o'ynadi. Bu markazlar Yaqin Sharqdagi siyosatni yangilash va o'zgartirishga chaqirib, AQShni global geosiyosiy raqobatdagi yetakchiligini mustahkamlashga harakat qilgan.

Professor M.Levinning ta'kidlashicha, neoliberal globalistlar va neokonservatorlar, hamda kichik J. Bush hukumati o'zlarining yangi dunyo tartibotini yaratish yo'lidagi "ijodiy yo'q qilish" strategiyasini amalga oshirmoqda[243].

Taniqli nazariyotchi Z.Bjezinskiy ham o'z kitobida Yevroosiyo Bolqoni hududining dastagini nazorat qilishda zamonaviy Yaqin Sharqni ham nazarda tutgan edi. Yevroosiyo Bolqoniga Kavkaz, Markaziy Osiyo, Eron va Turkiyani kiritadi. Eron va Turkiya Yaqin Sharqning muhim shimoliy chegarasi hisoblanib, Yevropa v sobiq SSSRga kirishdagi strategik mavqeini e'tirof etgan. Uning ta'kidlashicha, Turkiya va Eron ichki etnik nizolarga tortilish ehtimoli yuqori, lekin ularning biri yoki ikkovi beqarorlashtirilsa mintaqadagi ichki muammolar boshqarilib bo'lmaydigan, hal etib bo'lmaydigan darajaga keladi[244].

Demak, AQSh neokonservativ g'oyalarining "Yangi Yaqin Sharq" mintaqasidagi

[242]Nazemroaya M.D. Plans for Redrawing the Middle East: The Project for a "New MiddleEast"//http://www.globalresearch.ca/index.php?context=viewArticle&code=NAZ20061116&articleId=3882. November 18, 2006.

[243]Levine M. The New Creative Destruction // *Asia Times* . August 22, 2006.http://www.atimes.com/ atimes/Middle_East/HH22Ak01.html.

[244] Brzezinski, Z.The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geo-strategic Imperatives (New York City: Basic Books, 1997) // http://www.perseusbooksgroup.com/basic/book_detail.jsp?isbn=0465027261.

geosiyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ta’siri bilan bog‘liq quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Birinchidan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash bilan boshlangan, demokratlashtirish va avtoritar tuzumlarga barham berish g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan tashabbuslar natijasida ijtimoiy-siyosiy leksikonda “Yangi Yaqin Sharq” tushunchasi paydo bo‘ldi;

Ikkinchidan, yangilangan va boyitilgan Yaqin Sharq neokonservativ g‘oyalar ijrosini ta’minlashning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ldi;

Uchinchidan, AQSh davlat boshqaruvida neokonervatorlar ta’sirining sezilarni kamayishiga qaramasdan harbiy yoki noharbiy vositalar orali AQSh intervensionizmi faol davom ettirilmoqda;

To‘rtinchidan, AQSh neokonservatorlari manfaatlarining ijrosi AQShning xalqaro maydondagi mavqeiga salbiy ta’sir o‘tkazishda davom etmoqda va yangi demokratlar hukumatining faol internatsionalizm siyosatini olib borishi zarurati dolzarblashdi.

Ж.А. Мирзавалиев *– Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, с.ф.ф.д. (PhD)*

МЕРИТОКРАТИЯ ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИШДА СИНГАПУР ТАЖРИБАСИ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ

Замонавий илм-фандаги меритократиянинг асосий ғояси инсоннинг сиёсий фаолиятда иштирок этиш ва биринчи навбатда сифатли таълим олиш учун тенг имкониятларга эга бўлиши ғояси сифатида изоҳланади. Бироқ ҳар бир киши ўзини кўрсатишга ва сиёсий қарорлар қабул қилишда етарлича масъулиятни сақлашга тайёр эмас. Бинобарин, меритократиянинг назарий парадигмаси Осиё мамлакатлари давлат сиёсатининг асосий йўналиши сифатида халққа хизмат қилиш учун энг муносиб шароитларда ҳаракат қиладиган энг яхши қобилиятга эга сиёсий актёрларни топишга қаратилган. Бу нуқтаи назардан Сингапурнинг кучи элитистик кўринади, бунда аниқ сиёсий тенгсизлик халқ фаровонлигини таъминлайдиган иқтисодий муваффақият билан қопланади. Натижада, Сингапур тажрибаси яққол кўрсатиб турибдики, ҳокимият қандай шаклланганидан қатъи назар – демократик ёки авторитар йўл билан – агар бу ҳокимият халқнинг эҳтиёжларини қондирса, аввал айтиб ўтилган шахсий мотивлар бўйича легитимлаштириш механизми асосида халқ унга эргашади.

Сингапур бир авлод ичида учинчи дунё турмуш даражасидан биринчи дунё даражага кўтарилди ва меритократияни қабул қилди. Бироқ вақт ўтиши билан унинг меритократия амалиёти кўплаб ривожланган мамлакатлар учун умумий стресс нуқталарига олиб келди. Сингапурнинг инсон капиталини ривожлантиришда меритократия амалиёти анъанавий равишда Гудхарт қонунига қарши мажбурий равишда ҳимоясиз бўлган синовга асосланган кўрсаткичларга таянади: “сиёсий қарорлар қабул қилишда ишлатиладиган ҳар қандай рақам тез орада сиёсий қарорлар учун фойдали бўлмайди”[1]. Меритократик жиҳатдан муваффақиятли ота-оналар ўз фарзандларининг тест

баллари, таълимлари ва келажагини ошириш учун ресурсларни тобора кўпроқ ажратар экан, бир марталик меритократия ижтимоий табақаланиш чизиғини кучайтириши мумкин. Бинобарин, инсон капиталини ривожлантиришда тизимли равишда ўлчовдаги бузилишлар ва самарасизлик пайдо бўлади. Бу ҳолат барқарор мувозанатни ифодалайди. Сингапур ҳукумати малака ошириш ва умрбод таълим каби келажакдаги эҳтиёжлар ҳақида хабардорликни ошириш учун стипендиялар, кўпроқ чекланган оқим, камситмайдиган иш жойи ва жамоат коммуникациялари билан бунга қарши туришга интилади. Бироқ самарали меритократиянинг давом этиши ушбу кучларга тўғри келмайдиган хизмат ўлчовини ёки янги чора-тадбирларни ишлаб чиқишни давом эттиришни талаб қилади. Узоқ муддатда меритократияни қўллаб-қувватлаш, бир мунча вақт ишлайдиган давлатни ўрнатишдан кўра қийинроқдир.

Сингапур, шубҳасиз, дунёдаги энг муваффақиятли иқтисодиётдир. Жорий АҚШ долларида ва Жаҳон банки маълумотларига кўра, Сингапурнинг жон бошига ялпи ички маҳсулоти 1960 йилда 428 АҚШ долларини ва 2017 йилда 57.174 АҚШ долларини ташкил этган бўлса, АҚШнинг жон бошига тўғри келадиган ЯИМ 1960 йилда 3 007 АҚШ долларини ва 2017 йилда 59 928 АҚШ долларини ташкил этди. ХҚП (харид қобилияти паритети)га мослаштирилган чора-тадбирлар асосида Сингапурнинг аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулоти АҚШникидан ошиб кетди[2].

Аксарият халқлар, ҳеч бўлмаганда, меритократик бўлишга интилишади, бунда ҳисса қўшган одамлар муносиб тақдирланади. Умуман олганда, соф меритократия янада фаровонликка мос келади. Қуйида Сингапурнинг асосий "меритократия" йўналтирилган амалиётларининг оддий (ва тўлиқ бўлмаган) тавсифи келтирилган, чунки у учинчи дунёдан юқори Биринчи дунё мақомига кўтарилган.

Сингапур тажрибасида ҳам, Ли Куан Ю айнан давлат хизматига қобилияти ва салоҳиятига кўра 20-30 ёш оралиғидаги ёш мутахассисларни кенг жалб этилганлиги ҳамда энг кучли мактаб битирувчиларнинг дунёнинг нуфузли таълим даргоҳларига таҳсил олиш учун юборилгани ҳамда бундай давлат хизматчиларини шакллантириш орқали бошқарувда янгича ёндашув ва замонавий фикрлаш юзага келиб, мамлакат тараққиётига хизмат қилганини, қайд этади[3].

Таъкидлаш керак, ёш мутахассисларни ҳар томонлама шакллантиришда ёш кадрларга устоз-шогирдлик анъаналари асосида кўп йиллик тажрибага эга ходимларни бириктириш ҳам соҳага энди кириб келган ёшлар учун ушбу йўналишда камол топишида катта тажриба ўчоғи бўлади.

Бугунги кунда Ўзбекистоннинг давлат бошқаруви соҳасида давлат раҳбари томонидан илгари сурилган чора-тадбирларни қўллаб-қувватлаш бўйича аниқ мақсадли сиёсат олиб борилмоқда, яъни меритократия принципи бўйича давлат хизматига тайинлаш тизими мавжуд. Бугунги кунда давлат хизматчиларига хақ тўлаш ва рағбатлантиришнинг янги тизимга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

“Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбарни – бу Бош вазир ёки унинг ўринбосарлари бўладими, ҳукумат аъзоси ёки ҳудудлар ҳокими бўладими, улар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиб қолиши керак”. “Биз партиялар сафини билимли, ташкилотчи ва

ватанпарвар ёш кадрлар билан тўлдиришимиз лозим. Сиёсий партиялар ҳодимлари партия ишида тобланиши, шундан сўнг давлат органлари ва ҳокимликлар тизимидаги турли лавозимларг, жумладан, депутатлик лавозимларига асосий захира бўлишлари даркор. Бу партияда ишлаш учун асосий омил ва рағбат бўлиб хизмат қилиши керак"[4].

"Ҳаммамиз яхши тушунамизки, олдимизда турган кенг кўламли вазифаларни бажариш учун кадрлар билан ишлашнинг бутун тизимини такомиллаштиришга доир бир қатор ишларни албатта амалга оширишимиз керак. Ҳозирги вақтда давлат ва ҳокимият идораларида кўп ҳолларда кадрлар салоҳиятидан фойдаланиш, уларнинг вазифа ва ваколатлари тақсимоти оқилона ва самарали йўлга қўйилмагани сезилмоқда. Энг ёмони, бу ҳолат ишимизга ҳалақит бермоқда. Бир идорани қарасангиз, иш кўп, вазифа кўп, лекин ишлайдиган одам, кадр етишмайди. Бундай нотўғри иш тақсимотига мутлақо чек қўйишнинг вақти етди. Ҳар бир давлат хизматчиси ўзининг бурчи ва мажбуриятини аниқ-равшан билиши, сода қилиб айтганда, ўз арвасини ўзи тортиши лозим". Шу билан бирга, бошқарув тузилмаларини фуқаролик жамияти институтлари назоратидан озод қилиш имконияти мавжуд. Бу президентлар ва бош вазирлар ўзларини кейинчалик жамоат ва сиёсий арбоблар сифатида кўришни бошладилар. "Бу борада ҳудудий бошқарув органлари, энг аввало, мамлакатимиз туман ва шаҳарлари ҳокимликлари учун малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Бунинг учун Олий таълим муассасалари тизми билан бирга, мамлакатимиздаги 6 та академий, Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Корпоратив бошқарув илмий-таълим маркази каби ташкилотларнинг илмий-амалий салоҳияти ва имкониятларини янада фаол сафарбар эиш даркор. Шу ўринда айтиш керакки, Президент ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси ўзига юклатилган вазифани мутлақо уддаламаяпти, десак, тўғри бўлади. Шунинг учун ушбу академияни ҳам, унинг иш услубини ҳам тубдан ўзгартириш ва раҳбар кадрларини қайта кўриб чиқиш лозим"[5].

Ўз тарихида ривожланишнинг "Миллий тикланишдан миллий юксалиш" йўлига ўтган Ўзбекистонда давлат бошқарувини модернизациялаш, яъни сиёсий ислоҳотлар бирламчи ўриндаги вазифа ҳисобланади. Чунки сиёсий ислоҳотлар самарадор давлат бошқарувини қарор топтиришга, бу эса, ўз навбатида, коррупция даражасини пасайтиришга олиб келади. Самарадор давлат бошқаруви, қонун устуворлиги, коррупцияга қарши кураш – буларнинг барчаси барқарор тараққиётга эришиш учун зарурдир[6]. Давлат бошқарувидаги самарадорлик кўп жиҳатдан масъул лавозимларга қўйилаётган бошқарув кадрларининг компетентлик даражасига боғлиқдир. Биз тадқиқ этаётган меритократия тизимининг бош мақсадларидан бири айнан кадрлардаги компетентлик даражасини аниқлашга қаратилган. Шу боисдан Ўзбекистонда давлат бошқарувини такомиллаштириш жараёнида меритократия тизимини кенг йўналишда жорий этиш бошқарув соҳасини демократик модернизациялаш йўналишининг асосий бўғинларидан бирини ташкил этади.

Давлат бошқарувини модернизациялаш, яъни замон талабларига мослаштириш энг аввало мазкур йўналиш борасида сиёсий-ҳуқуқий асосларнинг шакллантиришга боғлиқдир. Бу борада меритократия тизими ҳам

истисно ҳисобланмайди. Зероки, ҳар қандай сиёсий ислоҳотнинг ўзаги унинг ҳуқуқий асоси бўлиб, ислоҳотнинг тизимлилигини ва тадрижийлигини таъминлайди.

2017 йил 8 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ПФ-5185-сонли Фармони билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепцияси давлат бошқарувида меритократик тизимни жорий этиш ва шу орқали бошқарув ҳокимиятини модернизациялаш, уни янги замон талабларига жавоб берадиган даражага кўтариш йўлидаги муҳим қадам бўлди. Концепцияга кўра, давлат бошқаруви тизимини тубдан ислоҳ қилиш белгиланган 6 та асосий йўналишларининг сўнгги олтинчиси “Профессионал давлат хизматининг самарали тизимини шакллантириш, ижро этувчи ҳокимият органлари тизимида коррупцияга қарши курашишнинг таъсирчан механизмларини жорий этиш”га бағишланган бўлиб, унда қайд этилган қуйидаги вазифалар бевосита давлат бошқарувида меритократик тизимни амалга татбиқ этишни кўзда тутади:

1. Ижро этувчи ҳокимият органлари, шу жумладан, уларнинг таркибий ва ҳудудий бўлинмаларини ташкил этиш ва тугатишнинг маъмурий аппарат, бюджет юкламаси асоссиз ошиши ва давлат бошқарувини бюрократлаштиришнинг олдини олишга қаратилган аниқ мезонлари ҳамда тартиб-таомилларини жорий этиш.

2. Реал эҳтиёж, ижтимоий-иқтисодий жараёнларга салбий таъсирга йўл қўймаслик, республика ва ҳудудий ижро этувчи ҳокимият органлари ўртасидаги номутаносибликни бартараф этиш, шунингдек, кадрлар ва моддий ресурсларнинг тўғри тақсимланишини таъминлашни ҳисобга олган ҳолда, ижро этувчи ҳокимият органлари, уларнинг тузилмалари ва бўлинмаларини оптималлаштириш.

3. Ижро этувчи ҳокимият органлари ва улар раҳбарларининг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тегишли департаментлари билан ўзаро ҳамкорлиги механизмларини қайта кўриб чиқиш ва такомиллаштириш ҳисобига бириктирилган соҳада давлат сиёсати амалга оширилиши учун уларнинг мустақиллиги ҳамда жавобгарлигини ошириш[7].

Ўзбекистонда бошқарув тизимига меритократия тамойилини кенг жорий этиш бўйича навбатдаги сиёсий-ҳуқуқий мезон Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сонли “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони[8] ҳисобланади. Ушбу фармон давл ат фуқаролик хизмати самарадорлигини ошириш, давлат органлари ва ташкилотларининг малакали кадрларга бўлган эҳтиёжини қондириш Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепциясида белгиланган вазифаларни изчил амалга ошириш бўйича ишлаб чиқилган бўлиб, унда Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатини ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштиришга оид биринчи навбатдаги чора-тадбирлар Дастури қабул қилинган ва ушбу Дастур мамлакатда бошқарув тизимида меритократик тамойилларни амалга жорий қилишда муҳим босқич бўлиб хизмат қилмоқда.

Давлат-фуқаролик хизмати тўғрисида”[9] ги қонуннинг қабул қилиниши “Халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши

керак", - деган ҳаётий тамойилни тўла рўёбга чиқаришга мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор яратади.

Қонун давлат фуқаролик хизматчисининг ҳуқуқий мақоми, лавозимлар тоифалари ва малака даражаларини, давлат фуқаролик хизматига кириш, ўташ ва тугатиш жараёнларининг ягона тартиботини, кадрларнинг касбий-маънавий фазилатлари ва алоҳида хизматларини объектив ҳамда адолатли баҳолаш асосида хизмат поғоналари бўйича ўсиш кафолатларини, умуман ягона давлат фуқаролик хизматини ташкилий-ҳуқуқий механизмини тартибга солишни назарда тутади.

Демократик тамойилларга асосланган меритократия тизими коррупцияга мойилликни пасайтириш, давлат-фуқаролик хизматчиларини лавозимларга тайинлашда шаффофлик, улар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини мустаҳкамлаш ҳамда бошқарувда гендер муаммоларни олдини олишга таяниши аҳолининг давлат-фуқаролик хизматчиларига легитим рақобатини ошириб боришга қаратилган малака ошириш тизимини йўлга қўйиш зарурдир. Чунки давлат хизматини яхшилаш, салоҳиятли кадрларга бўлган эҳтиёжни тўлдиришда — давлат хизматчиларининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш муҳим аҳамият касб этади[11].

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб қуйидаги хулосаларга келинди:

1. Сингапур ўзининг дастлабки йилларидан бошлаб ҳамма учун очиқ ва тенг равишда тақдим этиладиган қонун устуворлиги, барча давлат хизматлари ва иш имкониятларини тақдим этувчи очиқ кириш институтларининг яратилиши меритократик тизимнинг асосий мезони бўлиб хизмат қилди.

2. Ўзбекистонда давлат бошқарувида меритократия тизимини жорий этишнинг бир қанча сиёсий-ҳуқуқий мезонлари, жумладан, 2017 — 2021 йилларда "Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси", 2022 — 2026-йилларга мўлжалланган "Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси", Маъмурий ислоҳотлар концепцияси ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони, Давлат-фуқаролик хизмати тўғрисида" ги қонун ишлаб чиқилди ва қабул қилинди;

3. Давлат бошқарувини модернизациялашнинг ҳозирги ҳолати соҳага меритократик тизимни жорий этиш учун аниқ муддатга мўлжалланган махсус концепция ишлаб чиқишни тақозо этмоқда;

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ли Куан Ю. Из третьего мира – в первый. История Сингапура (1965–2000). М.: Манн, Иванов и Фербер, 2014. 576 с.

2. Bell D.A. & Li C. eds. The East Asian Challenge for Democracy: political meritocracy in comparative perspective. Cambridge University Press, 2013. 340-362 p.

3. Lee Kuan Yew From Third World to First: The Singapore Story: 1965-2000 // URL: https://booktree.ng/download/from-third-world-to-first-the-singapore-story/

4. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 17 июлдаги Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси.

5. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т:" Ўзбекистон" – 2016.

6. Содиқ Сафоев. Вашингтон шаҳрида Америка оммавий ахборот воситалари ҳамда демократик ташкилотлари учун ўтказилган Миллий пресс-клуб йиғилишидги маърузаси. 2018 йил 18 май. / http://www.gazeta.uz/ru/2018/05/18/changes/

7. Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги "Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5185-сонли Фармонига 1-илова / http://lex.uz/docs/3331174

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сонли "Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони / https://lex.uz/docs/4549998

9. Ўзбекистон Республикасининг —Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида‖ги қонуни // URL:https://lex.uz/uz/docs/6145972

10. The Task Set to Create a Compact and Efficient Management System // URL: https://president.uz/uz/lists/ view/5398.

J. Museyibzada *- Fergana State University*
PhD Candidate and Senior Specialist

AZERBAIJAN'S EVOLVING RELATIONS WITH THE OSCE

The end of the Cold War marked a turning point, as the Paris Summit of November 1990 institutionalized the CSCE, culminating in its transition to the full-fledged IO at the Budapest Summit in December 1994. This meant transitioning from mere series of meetings and conferences to obtaining permanent institutions and operational capabilities. However, unlike other IOs, the OSCE operates on the principle of consensus, with all 57 participating states having equal status, and without legal personality. These features inherited from the Cold War period limit majority-led action and initiatives, as every member must equally agree to decisions, and hinder the development of a robust executive cadre within the organization, respectively.

Analysis

In 1992, Azerbaijan joined this comprehensive platform for addressing regional and global challenges. The OSCE have been cooperating with the government of Azerbaijan in projects related to rule of law, democratic institutions, electoral legislation improvement, migration, gender equality, and more. The OSCE's presence in Azerbaijan began with the establishment of the OSCE Office in Baku in 1999, which became operational in July 2000. In 2014, the office was downgraded to the OSCE Project Co-ordinator in Baku, with a mandate focused on targeted assistance projects. However, this office ceased operations in December 2015 following Azerbaijan's

termination of the Memorandum of Understanding, signaling a shift in the country's approach to its cooperation with the OSCE.

The OSCE's field operations, established with the consent of host countries, primarily focus on South-Eastern Europe, Eastern Europe, the South Caucasus, and Central Asia, often in post-communist nations. These missions, which address issues like governance, minority rights, and law enforcement, reflect the challenges faced by states with still developing institutions. The closure of several field offices and missions, including the one in Baku, suggests that host states may aim to signal institutional self-sufficiency. Azerbaijan's decision to end the OSCE's presence conveys confidence in its domestic governance.

However, Azerbaijan is still interested in close relations with the organization and hosted the OSCE PA in June-July 2014. It has chaired the OSCE Forum for Security Co-operation twice, most recently in 2022, focusing on respect for territorial integrity and sovereignty under the Helsinki Final Act. Currently, unofficial group "Support to the Silk Road" initiated by Azerbaijan actively operates within the OSCE. Azerbaijani President Ilham Aliyev has maintained frequent interactions with OSCE officials, including recent meetings with OSCE Secretary General Helga Maria Schmid in February 2023, OSCE Chairman-in-Office Zbigniew Rau in March 2022, and the president of the OSCE PA George Tsereteli in January 2020. In these meetings, President Aliyev emphasized a practical approach to OSCE cooperation, considering the engagement within the framework of OSCE Minsk Group not contributing positively to this dynamic partnership.

Complicated and entangled nature of the relations between Azerbaijan and the Minsk Group stem from "completely unsuccessful and failed" mediation mission and "the main goal of this structure – not to resolve the conflict but to freeze it" showing "disservice" rather than a service in Ilham Aliyev's words. OSCE established the Minsk Group, in 1994, to lead the peace process and negotiations for the Nagorno-Karabakh conflict. The Minsk Group consists of three co-chairs, namely Russia, France, and the United States, aside from other 8 permanent members (Belarus, Germany, Italy, Sweden, Finland, Turkey, Azerbaijan and Armenia).

Undeniably, Minsk Group and parties to the conflict managed to adopt, although not fully, "Madrid Principles" as a working document outlining the basic principles for a peaceful resolution of the conflict during the period of intensive engagement between 2007 and 2008, which was considered "the last proposal, the last chance for a settlement." However, tensions peaked between Azerbaijan and the Minsk Group in 2008, after co-chairs voted against the United Nations General Assembly resolution number S/62/243, which reiterated Azerbaijan's territorial integrity and called for the immediate withdrawal of Armenian forces from the occupied territories. This move caused disappointment in Baku and called sincerity of the co-chairs into question. Azerbaijani leaders express particular frustration with Paris, perceiving it as biased in favor of Armenia.

Azerbaijan criticized Minsk Group due to perceived stagnation in the negotiation process perpetrated by the group. President Ilham Aliyev stated that "… the destructive activities [i.e. purposefully freezing the conflict] of the OSCE Minsk Group serves to strengthen the status quo [meaning occupation]." Considering the fact that Azerbaijan's top foreign policy priority is the resolution of the Karabakh conflict, it is clear how failed mediation efforts and lack of willingness shown by the

Minsk Group caused resentment. After resolving the conflict and fully restoring the lost territories, Azerbaijan firmly rejected the mediation efforts, as Aliyev uttered "they [Minsk Group] should know that they will no longer deal with the Karabakh issue," and suggested to dissolve the group.

Conclusion

In conclusion, Azerbaijan's engagement with the OSCE has evolved significantly, reflecting broader shifts in its foreign policy priorities. While early cooperation with the OSCE brought advancements in governance and human rights, the OSCE's failure to effectively mediate the Nagorno-Karabakh conflict, particularly through the Minsk Group, led to a reevaluation of Azerbaijan's relationship with the organization. The eventual rejection of the Minsk Group's involvement in post-conflict negotiations signals a desire for greater self-determination in resolving regional issues. As Azerbaijan continues to assert its sovereignty, its future cooperation with international organizations like the OSCE remains shaped by pragmatism and conception of goodwill.

Bibliography:

1. Aliyev, Ilham. President Ilham Aliyev interviewed by local TV channels (Photo/Video). Journalist, January 12, 2022. https://en.trend.az/azerbaijan/politics/3539946.html.

2. Azərbaycan beynəlxalq aləmdə. Odlar Yurdu Azərbaycan. Presidential Library, n.d. https://files.preslib.az/projects/azerbaijan/gl9.pdf.

3. Degterev, Denis, and Konstantin Kurylev, eds. *Foreign Policies of the CIS States: A Comprehensive Reference*. Boulder London: Lynne Rienner Publishers, Inc., 2019.

4. "Improving Prospects for Peace after the Nagorno-Karabakh War." International Crisis Group, December 22, 2020. https://www.jstor.org/stable/resrep31561.

5. Mammadov, Farhad. "Azerbaijan's Foreign Policy – A New Paradigm of Careful Pragmatism." *The South Caucasus Between Integration and Fragmentation*, May 2015, 29–36.

6. Ministry of Foreign Affairs Republic of Azerbajan. "Relations between Azerbaijan and OSCE." Ministerial. Accessed March 25, 2024. https://mfa.gov.az/en/category/regional-organisations/xin.gov.az.

7. OSCE. "Closed Field Operations and Related Field Activities." International Organization. Accessed March 24, 2024. https://www.osce.org/closed-field-operations.

8. OSCE. "History." International Organization. Accessed March 27, 2024. https://www.osce.org/history.

9. OSCE. "Who We Are." International Organization. Accessed March 28, 2024. https://www.osce.org/whatistheosce.

10. Permanent Representation of France to the OSCE. "OSCE's Structure." Accessed March 18, 2024. https://osce.delegfrance.org/OSCE-s-structure.

11. President of the Republic of Azerbaijan. "Ilham Aliyev Attended CIS Heads of State Council's Session in Video Conference Format." Official, December 18, 2020. https://president.az/en/articles/view/49197.

12. President of the Republic of Azerbaijan. “Ilham Aliyev Attended the Meeting of CIS’s Councils of Heads of State in Astana.” Official, October 14, 2022. https://president.az/en/articles/view/57566.

13. President of the Republic of Azerbaijan. “Ilham Aliyev Received Ambassadors of OSCE Member-States in Gabala.” Official, September 10, 2012. https://president.az/en/articles/view/5977.

14. President of the Republic of Azerbaijan. “Ilham Aliyev Received OSCE Chairman-in-Office.” Official, April 12, 2023. https://president.az/en/articles/view/59381.

15. President of the Republic of Azerbaijan. “Ilham Aliyev Received Participants of the 53rd Meeting of CIS Council of Heads of Security Agencies and Special Services.” Official, October 11, 2023. https://president.az/en/articles/view/61538.

16. President of the Republic of Azerbaijan. “Ilham Aliyev Received President of OSCE Parliamentary Assembly.” Official, November 13, 2023. https://president.az/en/articles/view/62174.

17. President of the Republic of Azerbaijan. “Speech by Ilham Aliyev at the Nationwide Festivities on the Occasion of Novruz Holiday.” Official, March 19, 2016. https://president.az/en/articles/view/19436.

18. Remler, Philip. “The OSCE as Sisyphus: Mediation, Peace Operations, Human Rights.” Research report. Istituto Affari Internazionali (IAI), April 16, 2021. https://www.jstor.org/stable/resrep30942.

19. Shiriyev, Zaur. “Azerbaijan’s Perspectives on the OSCE Minsk Group.” *Security and Human Rights* 27, no. 3–4 (September 9, 2016): 442–66. https://doi.org/10.1163/18750230-02703016.

20. TASS. “Azerbaijani Leader Calls for Dissolving OSCE Minsk Group.” Russian News Agency, February 16, 2024. https://tass.com/world/1747775.

А.К. Темирбаева *– преподаватель-стажёр Узбекского государственного университета мировых языков*

ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ГЛОБАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ЕС И УЗБЕКИСТАНОМ

Важное место в Центральноазиатском регионе играет Узбекистан, страна, богатая разнообразными видами полезных ископаемых, многовековой историей и уникальной архитектурой. После обретения независимости Узбекистан встал на путь развития партнерских отношений с Европейским Союзом. Интерес ЕС к развитию двусторонних отношений с Узбекистаном обусловлены следующими факторами:

Во-первых, Узбекистан занимает обширную территорию в 449 тыс. кв. км с крайне благоприятными климатическими условиями. В стране проживает около 37 миллионов человек, что в условиях украинского кризиса превращает Узбекистан в де-факто второе после России государство на постсоветском пространстве и крупный потребительский рынок для Евросоюза. Продолжающийся рост населения и его растущая покупательная способность делают Узбекистан еще более привлекательным для европейского бизнеса.

Во-вторых, страны-члены Евросоюза являются крупными потребителями энергоресурсов Узбекистана. В частности, газовые, нефтяные, урановые месторождения и месторождения драгоценных металлов региона уже давно вызывают повышенный интерес европейского бизнеса.

В-третьих, расположенный между Россией, Китаем, Турцией, Индией и Ираном регион является наиболее чувствительной частью геополитического баланса Евразийского континента. Нарушение этого баланса может спровоцировать разного рода стратегические угрозы. Например, потенциальные угрозы внутри региона: экстремизм, сепаратизм, национализм, наркоторговля и другие виды угроз могут стать источником угрозы, в том числе и для безопасности Европы. В последние годы в качестве наиболее острой угрозы политологи рассматривают ситуацию в Афганистане, который является ближайшим соседом Узбекистана [1, с. 2].

В-четвертых, с древних времен территория современного Узбекистана была важнейшим промежуточным этапом маршрутов, ведущих из Китая в страны Европы, прежде всего, Великого Шелкового пути [2, с. 35]. В наши дни потенциал Узбекистана как важного сегмента транспортного коридора Европа – Тихий океан продолжает оставаться востребованным. Узбекистан является участником таких важных инициатив ЕС как ТРАСЕКА и ИНОГЕЙТ. Еще более амбициозные цели ставит, выдвинутая Председателем КНР Си Цзиньпином в 2013 г. инициатива, «Экономический пояс Шелкового пути», активным участником которой является Узбекистан. Основной целью китайского проекта является резкий рост объемов торговли с европейскими странами за счет использования более коротких маршрутов доставки товаров, проходящих, в том числе и через территорию Узбекистана. По данным Главного таможенного управления Китая, в 2022 г. объем торговли со странами ЕС достиг 847,1 млрд долл. США [3]. Примечательно, что еще в ноябре 2013 г. на саммите Китай-ЕС была поставлена амбициозная цель доведения в ближайшие годы двустороннего товарооборота до 1 трлн долларов [5].

Наконец, Узбекистан с его благоприятным климатом, богатой историей, традициями, национальными и цивилизованными особенностями является привлекательным регионом для Европы. Увеличивающийся поток туристов в регион – лучшее тому подтверждение. Отнюдь не случаен и тот факт, что многие российские туристические и авиакомпании в условиях закрытия европейского рынка именно Узбекистан выбрали в качестве одного из основных направлений своей работы. По мнению ряда аналитиков, данный регион имеет многообещающие шансы стать в ближайшем будущем «духовным и культурным курортом» или «базой отдыха» для Европы [6].

Разумеется, и Узбекистан крайне заинтересован в укреплении своих отношений с ЕС. Основными причинами подобного интереса заключаются в следующем:

Во-первых, источником высоких технологий для Узбекистана являются ведущие государства Евросоюза (Германия, Франция, Италия, Испания). Применение современных западных технологий в авиастроении, машиностроении, сельском хозяйстве, фармацевтике, строительстве и других сферах имеет большое значение для развития узбекской экономики.

Во-вторых, Евросоюз, представляет собой второй по величине после СНГ рынок потребления для экспорта из стран Центральной Азии и является одним из крупнейших покупателей узбекских товаров.

В-третьих, крупные страны Западной Европы являются не только важными торговыми партнерами Узбекистана, но и основным источником инвестиций. С момента провозглашения независимости привлечение иностранных инвестиций стало одной из центральных задач властей нового государства, для чего в Узбекистане была создана благоприятная инвестиционная среда [7].

В-четвертых, за более чем тридцать лет своей независимости Узбекистан несколько раз кардинально менял основной вектор своей внешней политики. С учетом этого фактора многовекторная внешняя политика становится одним из важнейших факторов развития страны, что превращает ЕС в одного из основных международных партнеров.

Наконец, обеспечение и поддержание общей стабильности и безопасности в Евразии является актуальной задачей, как для Узбекистана, так и для ЕС.

Список литературы:

1. Yunusov, Kh. The European Union and Central Asia: historical overview, current. The European Union and Central Asia: historical overview, current situation and prospects situation and prospects. International Relations: Politics, Economics, Law: Vol. 2018: Iss. 3, Article 5. P.2.

2. Beiküfner, J. Brücke zwischen China und Europa. Zentralasiens Bedeutung für die EU. – Bensberg: Tagungsdokumentation von Bundeszentrale für politische Bildung, Bensberger Gespräche 28-30 Januar 2008. P.35.

3. 2022 年我国外贸进出口增长 7.7% 总值突破 40 万亿元创新高[электронный сайт]. URL: http://www.gov.cn/xinwen/2023-01/13/content_5736830.htm (дата обращения 15.12.2024).

4. 李克强同范龙佩、巴罗佐主持第 16 次中国欧盟领导人会晤[электронный сайт]. URL: http://www.gov.cn/guowuyuan/2013-11/21/content_2591228.htm?cid=303 (дата обращения 15.12.2024).

5. Стрелков, А.А. Политика Европейского союза в постсоветском регионе. Актуальные проблемы Европы. М., 2011. С.2-3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/politika-evropeyskogo-soyuza-v-postsovetskom-regione.

6. Инвестиционный климат в Узбекистане: Текущее состояние, вызовы и решения [электронный сайт] URL: http://avesta.tj/2019/12/14/investitsionnyj-klimat-v-uzbekistane-tekushhee-sostoyanie-vyzovy-i-resheniya/ (дата обращения 15.12.2024).

A.K. Shukurov *– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGI: MADANIY-GUMANITAR HAMKORLIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Madaniy-gumanitar hamkorlik xalqaro munosabatlarning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, davlatlararo munosabatlarda o‘zaro anglashuv va diplomatik aloqalarni mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi madaniy-gumanitar munosabatlar umumiy islom merosi, tarixiy savdo yo‘llari va diniy qarashlarga asososida mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan buyon ikki tomonlama munosabatlarning madaniy-gumanitar aspektlari madaniy tashabbuslar, ta’lim dasturlari va insonparvarlik sa’y-harakatlari orqali rivojlandi.[1] Bu xususda O‘zbekistonlik mutaxasis olim A.Saidov madaniy diplomatiya zamonaviy O‘zbekiston-Saudiya munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaganini keltirilasa[2], SAP yetakchi mutaxasisi Al-Shayx ikki tomonlama hamkorlikni kuchaytirishda diniy madaniy me’ros va ziyorat turizmining strategik ahamiyatini[3] muhimligini ta’kidlaydi.

Adabiyotlarning ilmiy tahlili va metodlar

O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlarining madaniy-gumanitar jihatlari bir qancha akademik tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lib, xususan, professor tarixchi I.Alimovning ta’kidlashicha, tarixiy va diniy aloqalar ikki tomonlama hamkorlikka, xususan, islom ta’limi sohasida asos bo‘lib xizmat qiladi[4]. F.Karimov o‘z tadqiqotlarida Saudiya Arabistoni tomonidan moliyalashtiriladigan stipendiyalarning o‘zbekistonlik talabalarni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini yuqori baholanib, ularning inson kapitalini rivojlantirishga qo‘shgan hissasini qayd etadi[5]. Siyosatshunos olim, professor M.Muhammadsidiqov tadqiqotlarida munosabatlarning yaxshi rivojlanib kelganligi, ayniqsa madaniy sohadagi aloqlarning mustahkam taraqqiy etayotgani dallilanadi. Olim SAPning islom olamidagi nufuzi, u yerdagi muqaddas qadamjolarning mavjud ekanligi, shuningdek yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarini nazarda tutgan holda mamlakatimiz uchun SAP bilan har tomonama sheriklik O‘zbekiston rivojlanishi uchun muhim ekanligini xulosa qiladi[6]. Shu bilan bir qatorda masalaga tanqidiy yondashgan olimlar ham mavjud bo‘lib, K.Akramov ikki tomonlama munosabatlada dastlab madaniy almashinuvlarning cheklangan doirasini tanqid qilib, hamkorlik asosan diniy fanlar bilan chegaralanib qolayotganini va kengroq san’at va gumanitar fanlar sohalariga diversifikatsiya qilishi keragligini ilgari suradi[7]. Ushbu tahlillar bizga ikki tomonlama hamkorlikda madaniy sohaning muhimligi, uning kuchi va zaifliklarini chuqur tushunish imkonini beradi. Shuningdek, madaniy diplomatiyani diniy aloqalardan tashqari ham yanada kengaytirish mukinligini isbotlaydi.

Maqolani yozish davomida tarixiylik, qiyosiy tahlil, kontent va ivent tahlildan foydalanildi.

Asosiy qism

O‘zbekiston va SAP o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik turli tashabbuslarni, jumladan, ta’lim almashinuvi, qo‘shma madaniy loyihalar, gumanitar

yordam dasturlarini o‘z ichiga oladi. 2004-yilda SAP o‘zbekistonlik talabalar uchun Saudiyaning yetakchi universitetlarida ta’lim va madaniy almashinuvni kuchaytirish uchun stipendiya dasturini boshladi. Bu dastur doirasida Saudiya Arabistoni Madina Islom universiteti va Umm al-Qura universiteti kabi islom institutlarida o‘zbekistonlik talabalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynadi. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi va Saudiya Arabistoni Madaniyat vazirligi qo‘shma tadqiqotlar, ko‘rgazmalar va ilmiy konferensiyalar o‘tkazishga ko‘maklashish maqsadida 2019-yil Madaniy almashinuv dasturi memorandumini imzoladi. D.Ismoilov tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, bu akademik almashinuvlar bilimlarni uzatishni osonlashtirgan va O‘zbekistonning diniy ta’lim sektoriga hissa qo‘shgan[8]. Biroq, boshqa olimlar, masalan, N.Nasriddinov mavjud dasturlarda inklyuzivlik yo‘qligini ta’kidlab, diniy fanlardan tashqari kengroq akademik hamkorlik zarurligini ta’kidlaydilar[9].

Bundan tashqari, ikki davlat aloqalarining rivojlanishida tarixiy obidalarni asrab-avaylash borasida birgalikdagi sa’y-harakatlar natijasida madaniy hamkorlik yanada namoyon bo‘lmoqda. SAP yetakchi hisoblangan ITB va ISESCO tashkilotlari O‘zbekistondagi, xususan, Buxoro va Samarqanddagi islomiy meros obyektlarini qayta tiklash uchun mablag‘ ajratdi. 2017-yil Samarqand va Buxorodagi tarixiy obidalarni tiklash borasida Saudiya Arabistoni O‘zbekistondagi asosiy islomiy meros ob’yektlarini tarixiy va madaniy ahamiyatini saqlab qolgan holda saqlashni moliyalashtirdi. Al-Shayx tadqiqotiga ko‘ra, bu tashabbuslar nafaqat merosni saqlash, balki madaniy o‘ziga xoslik va turizmni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, ilmiy anjumanlar, ko‘rgazmalar va adabiy hamkorlik kabi madaniy tadbirlar o‘zbek va saudiyalik olimlar o‘rtasida ilmiy-intellektual almashinuvini yo‘lga qo‘ydi[10].

2023-yil O‘zbekiston-SAP madaniyat markazining tashkil etilishi, ikki xalq o‘rtasidagi uzoq muddatli akademik, diniy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma tashabbus. Mamlakatlarning gumanitar hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda. Qirol Salmon nomidagi insonparvarlik yordami va yordam markazi O‘zbekistonga tabiiy ofatlar va sog‘liqni saqlash inqirozlari vaqtida keng ko‘lamli yordam ko‘rsatib, insonparvarlik birdamligini mustahkamladi. R.Rahimov bu borada uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash uchun ushbu insonparvarlik sa’y-harakatlarini institutsionalizatsiya qilish muhimligini ta’kidlaydi[11].

O‘zbekiston va SAP o‘rtasida din va madaniyatga asoslangan azaliy tarixiy aloqalar mavjud. Har ikki davlat islom olami vakillari bo‘lib, bu turli sohalarda, jumladan, madaniyat sohasida o‘zaro hamjihatlik va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekiston va SAP o‘rtasida madaniy hamkorlik faol rivojlanmoqda.

O‘zbekiston tomonidan vakillar “2013-yil Madina shahri “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi” munosabati bilan tashkil etilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etdilar. 2020-yilda Toshkentda SAPning “Madaniyat kuni” bo‘lib o‘tdi, unda an’anaviy cholg‘u asboblari, raqslar va liboslar namoyish etildi. Shuningdek, zamonaviy san’at va rassomchilik ko‘rgazmasi tashkil etildi. Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik doirasida madaniyat va san’at sohasida hamkorlik memorandumlari imzolandi. 2020-yilda Islom Karimov nomidagi O‘zbekiston Milliy san’at muzeyida saudiyalik rassom Abdulla al-Osayimiyning turli janrdagi asarlari namoyish etilgan ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi[13]. O‘zbekiston va SAP o‘rtasidagi madaniyat sohasidagi

hamkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ikkala davlat ham boy madaniy merosga ega bo‘lib, ulardan qo‘shma loyiha va dasturlarni yaratishda foydalanish mumkin. Kelgusida ikki davlat o‘rtasida madaniyat va san’at sohasidagi aloqalar mustahkamlanishi mumkin.

Xulosa

O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar so‘nggi o‘ttiz yillikda sezilarli darajada rivojlanib, umumiy diniy meros, ilmiy almashinuvlar va madaniy tashabbuslar asosida mustahkamlandi. Shu bilan birga, hamkorlikni kengaytirish va diversifikatsiya qilish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi. Birinchidan, ilm-fan, texnologiya va san’at kabi diniy bo‘lmagan fanlarni o‘z ichiga olgan akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish. Ikkinchidan, doimiy intellektual va badiiy hamkorlikni rivojlantirish uchun qo'shma madaniyat muassasalari yoki markazlarini tashkil etish. Uchunchidan, tarixiy qo‘lyozmalar va meros obyektlarini saqlash va raqamlashtirishga investitsiyalar hajmini oshirish. Va nihoyat, barqaror yordam tashabbuslarini ta’minlash uchun yuridik jihatdan majburiy shartnomalar orqali uzoq muddatli gumanitar hamkorlikni institutsionalizatsiya qilish. Umumiy qilib olganda ikki davlat madaniy aloqalarini rivojlantirish orqali munosabatlarning mustahkamligiga erishilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.10.2008 yildagi 233-son qarori. https://lex.uz/docs/-1404731
2. “Markaziy Osiyo-Fors ko‘rfazi” koridorini yaratish bo‘yicha bitim kuchga kirdi https://oz.sputniknews-uz.com/politics/
3. Toshkentda «Markaziy Osiyo - Fors ko‘rfazi» yo‘lagi ishtirokchilari tariflarni muhokama qilindi. https://kun.uz/uz
4. Markaziy Osiyo, Fors ko`rfazi hamda Ummon dengizi portlari transport yo`lagi bitimi kuchga kirdi. https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2016/04/30/markaziy-osiyo-fors-korfazi-hamda-ummon-dengizi-portlari-transport-yo-lagi-bitimi-kuchga-kirdi-480963
5. S.M.Bo‘ronov. Afg‘onistonda vaziyatni barqarorlashtirish jarayonida O‘zbekiston ishtirokining geosiyosiy jihatlari. 23.00.04. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 69-70-betlar.
6. Nuriddinov E. O‘zbekiston: eng yangi tarix. – T.: Asr, 2010.
7. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, http://strategy.gov.uz/ru
8. Katzman, Kenneth. Gulf States Split on Iran. https://gulfif.org/gulf-states-split-on-iran
9. Киселев, Сергей. Новые горизонты России в Персидском заливе. http://www.ng.ru/economics/2019-03-24
10. Мунавваров, Заҳидулло И. XX асрда халқаро сиёсий ва иқтисодий муносабатларда Арабистон ярим ороли мамлакатлари. Тошкент, 1997, 213-бет.
11. Why Saudi Arabia will Struggle Draw Investors in 2019. https://worldview.stratfor.com/article/why-saudi-arabia-will-struggle-draw-investors-2019
12. https://www.uzdaily.uz/en/uzbek-president-pays-official-visit-to-qatar

13. Правительственный портал Республики Узбестан. https://old.gov.uz/ru/events/view/49

Bobur Jo‘rayev – mustaqil izlanuvchi

HARBIY OPERATSIYALAR DAVOMIDA KUCH TUZILMALARI, HOKIMIYAT ORGANLARI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI HAMKORLIGINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Harbiy operatsiyalar har doim davlatlarning xavfsizligini ta’minlashda va milliy manfaatlarini himoya qilishda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lgan. Ular davlatlarning xalqaro siyosiy maydondagi mavqeini belgilash, ichki barqarorlikni ta’minlash va milliy xavfsizlikka qarshi qaratilgan tahdidlarga qarshi choralar ko‘rishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq harbiy operatsiyalarni nafaqat harbiy kuchlarning harakatlari bilan, balki ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan ham uzviy bog‘liq deb hisoblash lozim. Ularning ta’siri milliy va xalqaro darajada keng ko‘lamli ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sir etadi, bu esa ularning chuqurroq ilmiy-nazariy tahlilini talab qiladi.

Harbiy operatsiyalar siyosiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular davlatni xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa-da, ko‘pincha ichki va tashqi siyosiy muvozanatni o‘zgartirishi mumkin. Masalan, harbiy to‘ntarishlar yoki tashqi aralashuvlar natijasida siyosiy tuzilish tubdan o‘zgarishi, hokimiyatning yangi shakllari yoki boshqaruv usullarining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Misol sifatida 1980-yilda Turkiyada sodir bo‘lgan harbiy to‘ntarishni ko‘rsatish mumkin. Ushbu voqea mamlakatda siyosiy qutblanishni keskinlashtirgan, fuqarolik jamiyatining siyosiy jarayonlarga ta’sirini cheklagan va iqtisodiy tanazzulni kuchaytirgan edi. Harbiy to‘ntarishdan keyin mamlakatda iqtisodiy islohotlar va siyosiy barqarorlikka qaratilgan qator choralar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy-siyosiy oqibatlari uzoq vaqt davomida sezilgan.

Harbiy operatsiyalarning ijtimoiy hayotga ta’siri yanada murakkab. Urushlar va boshqa harbiy operatsiyalar nafaqat bevosita qurbonlarga, balki butun jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Urushlar natijasida ijtimoiy inqiroz yuzaga keladi, aholining qashshoqlashishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarining tanazzuli kuzatiladi. Bundan tashqari, urushlar aholi orasida ruhiy travmalar va psixologik buzilishlarga olib keladi. Masalan, Ikkinchi Jahon urushidan keyingi Germaniyada “yo‘qotilgan avlod” fenomeni kuzatilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida ijtimoiy qayta qurilish jarayonlarini murakkablashtirgan. Shu sababli, harbiy operatsiyalar ijtimoiy kapitalni tiklash va jamiyatni barqarorlik sari yo‘naltirish uchun kuchli rejalashtirishni talab qiladi.

Harbiy operatsiyalarning iqtisodiy ta’siri ham katta ahamiyatga ega. Urushlar va qurolli mojarolar iqtisodiy resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga, ishlab chiqarish jarayonlarining buzilishiga va milliy iqtisodiyotning zaiflashishiga olib keladi. Masalan, Iroq urushi davrida mamlakatning neft eksporti sohasida jiddiy yo‘qotishlar kuzatildi, bu esa iqtisodiy inqiroz va tashqi qarzlarning o‘sishiga olib keldi. Shu bilan birga, urushlar iqtisodiy infratuzilmaning tanazzuliga va investitsiyalarning kamayishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, harbiy

operatsiyalar ko‘p hollarda inflyatsiya, ishsizlik darajasining oshishi va ijtimoiy ta’minot tizimining zaiflashishini keltirib chiqaradi.

Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligi alohida ta’kidlanishi lozim. Bunday hamkorlik harbiy operatsiyalarning samaradorligini oshirish va ularning salbiy ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini kamaytirish uchun zarurdir. Masalan, tabiiy ofat yoki insoniy krizis holatlarida harbiy va fuqarolik tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlik aholiga yordam ko‘rsatishda katta rol o‘ynaydi. Bunday misolni AQShdagi Favqulodda vaziyatlarni boshqarish federal agentligi (FEMA) faoliyatidan ko‘rish mumkin. U tabiiy ofatlar va texnogen holatlarda harbiy tuzilmalar va nodavlat tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar), ijtimoiy inqirozlarni hal qilishda va jamiyatni tiklashda muhim rol o‘ynaydi. Ular aholi bilan yaqindan faoliyat olib boradi va ularning ehtiyojlarini aniqlashda yordam beradi. Masalan, Afg‘onistonda xalqaro tashkilotlar va mahalliy NNTlar o‘rtasidagi hamkorlik aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan. Harbiy operatsiyalar davomida fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik ijtimoiy barqarorlikni tiklash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro maydonda harbiy operatsiyalarning ta’siri tobora ortib bormoqda. Katta davlatlar o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun xalqaro huquq normalarini buzgan holda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashishadi. Bunday harbiy aralashuvlar ko‘pincha jiddiy ijtimoiy-siyosiy inqirozlarga sabab bo‘ladi. Masalan, Liviyadagi harbiy aralashuv mamlakatni siyosiy va ijtimoiy tanazzulga olib kelgan, bu esa butun Shimoliy Afrika mintaqasida beqarorlikni kuchaytirgan.

Harbiy operatsiyalarni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ta’sirini tahlil qilishda harbiy strategiyalarning evolyutsiyasi va zamonaviy urush konsepsiyalarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. XX asrning ikkinchi yarmida “total urush” konsepsiyasidan “cheklangan urush” konsepsiyasiga o‘tish kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik zaruratini oshirdi. Sovuq urush davrida harbiy harakatlar ko‘pincha bevosita qarama-qarshiliklardan ko‘ra iqtisodiy va ideologik kurash shaklida namoyon bo‘ldi. Bu esa, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ko‘plab murakkab siyosiy inqirozlarga sabab bo‘ldi. Masalan, Vetnam urushi davomida AQSh va Shimoliy Vetnam o‘rtasidagi ziddiyat nafaqat jang maydonida, balki dunyo bo‘ylab ommaviy norozilik namoyishlari va fuqarolik jamiyati harakatlariga ham sabab bo‘ldi.

Globalizatsiya davrida harbiy operatsiyalarning ta’siri yanada ko‘p qirrali bo‘lib bormoqda. Xususan, zamonaviy urushlar ko‘p hollarda iqtisodiy, axborot va kiber maydonlarda olib boriladi. Kibermakon xavfsizligi masalalari harbiy operatsiyalarning yangi fronti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Estoniyaga qarshi 2007-yilda amalga oshirilgan keng ko‘lamli kiberhujum mamlakatning siyosiy barqarorligiga jiddiy xavf solgan edi. Ushbu hujum natijasida nafaqat davlatning axborot infratuzilmasi, balki uning iqtisodiy tizimi ham zarar ko‘rdi. Bu kabi hujumlar milliy xavfsizlik masalalarida fuqarolik sektorining faolligini oshirish va kuch tuzilmalari bilan yanada yaqin hamkorlikni talab qiladi.

Gumanitar inqirozlar harbiy operatsiyalarning bevosita oqibatlaridan biridir. Masalan, Suriya fuqarolar urushi natijasida yuzaga kelgan gumanitar inqiroz butun

dunyo e'tiborini jalb qildi. O'nlab millionlar qochqinlar va ko'chirilgan shaxslar sifatida yangi yashash joylarini izlashga majbur bo'ldi. Bu holat xalqaro hamjamiyatning, jumladan, harbiy alyanslar va nodavlat tashkilotlarning birgalikdagi faoliyatini talab qildi. Xalqaro harbiy operatsiyalar davomida gumanitar yordam ko'rsatish va tinchlikni tiklash faoliyatlari o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida amalga oshiriladi. Bunday operatsiyalar davomida inson huquqlariga rioya qilish va xalqaro gumanitar huquq qoidalariga amal qilish muhimdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlarning roli harbiy operatsiyalar davomida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Masalan, Qizil xoch va Qizil yarim oy jamiyatlari kabi tashkilotlar urush zonalarida faoliyat yuritib, jarohatlanganlarga yordam ko'rsatadi, qochqinlarning ehtiyojlarini ta'minlaydi va xalqaro hamjamiyat e'tiborini inqiroz zonalaridagi vaziyatga qaratadi. Ushbu tashkilotlarning muvaffaqiyati ko'pincha harbiy tuzilmalar bilan birgalikda olib borilgan muvofiqlashtirilgan faoliyatga bog'liq bo'ladi.

Harbiy operatsiyalarni rejalashtirishda texnologiyalarning rivojlanishi ham katta rol o'ynamoqda. Zamonaviy urushlar tobora ko'proq robotlashtirilgan texnologiyalar va dronlar yordamida olib borilmoqda. Ushbu texnologiyalar qo'llanilishi natijasida harbiy operatsiyalarning samaradorligi oshadi, ammo ular ijtimoiy va huquqiy masalalarni ham keltirib chiqaradi. Dronlarning terrorizmga qarshi operatsiyalarda qo'llanilishi inson huquqlari va urush qoidalariga rioya qilish masalalarini dolzarb qiladi.

Harbiy operatsiyalar davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri bo'lib, ularning muvaffaqiyati nafaqat harbiy kuchlarning samaradorligiga, balki hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligiga ham bog'liq. Ushbu uchlikning o'zaro hamkorligini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning birgalikdagi harakati qanday ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni shakllantirishini tushunish uchun muhimdir.

Birinchi navbatda, harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi sinergiya tushunchasiga e'tibor qaratish lozim. Sinergetik nazariya tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u har qanday tizimning (harbiy, davlat va jamiyat tizimlari) komponentlari birgalikda faoliyat yuritganda alohida komponentlar tomonidan erishiladigan natijalardan yuqori samaradorlikka erishilishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariya harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik sektorining birlashgan faoliyati orqali kompleks muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Harbiy operatsiyalar doirasida hokimiyat organlarining roli strategik qarorlarni qabul qilish va resurslarni taqsimlash bilan cheklanmaydi. Davlat organlari harbiy operatsiyalar davomida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, axborot kommunikatsiyasi va aholining ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi. Shu ma'noda, hokimiyat organlarining institutsional yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Institutsionalizm nazariyasiga ko'ra, har bir institut o'ziga xos vazifalari va funksiyalariga ega bo'lib, ular muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilganda tizimning barqaror ishlashi ta'minlanadi. Davlatning asosiy roli xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, harbiy operatsiyalar davomida inson huquqlari va qonun ustuvorligini kafolatlashdan iboratdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari esa, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va aholining ehtiyojlariga javob berish maqsadida faoliyat yuritadi. Ular koʻpincha harbiy operatsiyalar davomida huquqiy yordam koʻrsatish, aholini psixologik qoʻllab-quvvatlash va gumanitar yordamni tashkil qilish orqali muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu jarayonda ijtimoiy kapital nazariyasining tamoyillari asos boʻlib xizmat qiladi. Ijtimoiy kapital nazariyasi jamiyatdagi oʻzaro ishonch, hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish orqali barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Masalan, urush zonalarida faoliyat yuritayotgan NNTlar va xalqaro tashkilotlar oʻz faoliyatini mahalliy jamiyatning ehtiyojlariga moslashtirib, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratadi.

Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati oʻrtasidagi axborot almashinuvi masalasi ham muhimdir. Bu yerda tizimli yondashuv tamoyillari qoʻllaniladi. Tizimli yondashuv, birinchi navbatda, murakkab tizimlarning bir-biriga bogʻliq boʻlgan komponentlarini tahlil qilish va ularning oʻzaro ta'sirini boshqarishni talab qiladi. Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari operativ ma'lumotlarni yetkazib beradi, hokimiyat organlari esa ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, zarur qarorlarni qabul qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari esa ushbu qarorlarning bajarilishini ta'minlashda koʻmaklashadi. Bu hamkorlikning muvaffaqiyati tezkorlik, aniqlik va ishonchlilik kabi omillarga bogʻliq.

Shuningdek, harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda konfliktologik yondashuv tamoyillari qoʻllaniladi. Konfliktologiya nazariyasiga koʻra, har qanday ijtimoiy muammo yoki nizolarni hal qilish jarayonida barcha tomonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Ushbu nazariya harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati oʻrtasidagi ziddiyatlarni kamaytirishga va ularni samarali hamkorlikka yoʻnaltirishga xizmat qiladi. Masalan, tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlarda harbiy va fuqarolik tuzilmalarining birgalikdagi faoliyati inson hayotini saqlab qolishda muhim rol oʻynaydi.

Xalqaro tajribalar ham harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi hamkorlikning muhimligini tasdiqlaydi. Masalan, NATOning Afgʻonistondagi operatsiyalari davomida harbiy va gumanitar tashkilotlar oʻrtasidagi oʻzaro muvofiqlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu tajriba kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati oʻrtasidagi ishonchni oshirish va harakatlarni muvofiqlashtirish zarurligini koʻrsatdi.

Shu bilan birga, harbiy operatsiyalar davomida harbiy tuzilmalar va fuqarolik jamiyati oʻrtasidagi munosabatlar zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan sezilarli darajada oʻzgarmoqda. Axborot texnologiyalari harbiy va ijtimoiy operatsiyalarni yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Biroq, bunday texnologiyalarni qoʻllash axloqiy va huquqiy masalalarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli, harbiy operatsiyalarni rejalashtirishda axloqiy tamoyillarga rioya qilish va xalqaro huquq me'yorlariga amal qilish zarur.

Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi hamkorlikning muvaffaqiyati koʻp jihatdan ilmiy-nazariy asoslarning toʻgʻri qoʻllanilishiga bogʻliq. Ushbu hamkorlik

sinergiya, institutsionalizm, ijtimoiy kapital, tizimli yondashuv va konfliktologiya nazariyalari asosida tashkil etilganda ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni o‘rganishda yana bir muhim ilmiy yondashuv — "gibrid urush" konsepsiyasini tahlil qilish lozim. Gibrid urushlar harbiy kuchlar, iqtisodiy bosim, axborot hujumlari va boshqa noan'anaviy vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu urushlar jarayonida nafaqat harbiy tizimlar, balki davlat boshqaruv organlari, mahalliy fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro hamjamiyat ham jalb etiladi. Bu, ayniqsa, Ukraina inqirozida yaqqol namoyon bo‘ldi. Rossiya tomonidan olib borilgan gibrid urush Ukrainada fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlarning o‘rni qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatdi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan sanksiyalar, gumanitar yordam dasturlari va diplomatik muzokaralar ham ushbu jarayonning muhim qismi bo‘ldi.

Harbiy operatsiyalar doirasida hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda "yuqoridan pastga" va "pastdan yuqoriga" boshqaruv modelini hisobga olish lozim. "Yuqoridan pastga" boshqaruv modeli davlat hokimiyat organlari tomonidan harbiy operatsiyalarni muvofiqlashtirish va rahbarlik qilishni o‘z ichiga oladi. Bu model ko‘pincha markazlashgan qaror qabul qilishni talab qiladi, bu esa tezkor javob choralari uchun muhimdir. Ammo ushbu modelning cheklovlari ham mavjud: markaziy boshqaruvning ortiqcha yuklanishi, mahalliy ehtiyojlarning yetarlicha hisobga olinmasligi yoki tezkor axborot almashinuvining sustligi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. "Pastdan yuqoriga" model esa mahalliy jamoalar va fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbuskorligi, ular orqali muammolarga yaqin yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, tabiiy ofatlarda yoki ichki nizolar davomida mahalliy jamiyatlarning muammolarni hal etishdagi faol ishtiroki ushbu modelning afzalliklarini namoyon qiladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi harbiy operatsiyalar davomida kuch tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikka yangi imkoniyatlar yaratdi. Raqamli kommunikatsiyalar fuqarolar bilan tezkor aloqa o‘rnatish, ularning xavfsizlikka oid ehtiyojlarini tezkor aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari orqali noto‘g‘ri ma'lumot tarqalishi, ijtimoiy manipulyatsiyalar va kiberxavfsizlikka tahdidlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu xavf-xatarlarga qarshi choralar ko‘rishda kuch tuzilmalari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari birgalikda harakat qilishi talab etiladi. Masalan, Estoniya 2007-yilda duch kelgan kiberhujumlardan so‘ng, fuqarolik va harbiy sektorlardan iborat yagona axborot xavfsizligi tizimini yaratdi. Bu tizim xalqaro miqyosda "Kiberhujumlarga qarshi koalitsiya" deb nomlanib, yangi yondashuvga asoslangan edi.

Harbiy operatsiyalar davomida hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning yana bir muhim qismi bu — "axloqiy va huquqiy tamoyillarni hisobga olishdir". Xalqaro huquq me'yorlari harbiy harakatlar davomida inson huquqlari va insonparvarlik tamoyillariga rioya qilishni talab qiladi. Bu tamoyillarning buzilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan jiddiy norozilikka sabab bo‘ladi va harbiy operatsiyalarni murakkablashtiradi. Shu ma'noda, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati harbiy operatsiyalarni qonuniy asosda olib borishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Qizil

xochning insonparvarlik missiyalari yoki BMTning tinchlikparvar operatsiyalari xalqaro huquqni amalga oshirishning amaliy misollari sifatida qaraladi.

Global xavfsizlik tahdidlari, jumladan, terrorizm, transmilliy jinoyatchilik va ekologik inqirozlar harbiy operatsiyalarning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini qayta ko‘rib chiqishga olib kelmoqda. Ushbu yangi tahdidlar kuch tuzilmalari, hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyatining yagona tizim sifatida ishlashini talab qiladi. Ayniqsa, ekologik inqirozlar (masalan, iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar) xalqaro miqyosda birgalikdagi harakatlarni talab etadi. Misol tariqasida AQShning Favqulodda vaziyatlarni boshqarish federal agentligi (FEMA) agentligi tomonidan tabiiy ofatlarga qarshi harbiy va fuqarolik koalitsiyalari tashkil etilishini keltirish mumkin. Bu jarayonda muhim omil - aholining ishonchini oshirish va ularni xavfsizlik choralariga jalb qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Duran B. Military and Politics in Turkey: 1980 Coup and Its Impact. Journal of Modern Political History. P 10-15. 2020 y.

2. Keegan J.A. History of Warfare. Vintage Books. p 432. P 245-260. 1993 y.

3. Stiglitz J.E., & Bilmes, L.J. The Three Trillion Dollar War: The True Cost of the Iraq Conflict. W.W. Norton & Company. p 311. P 75-92. 2008 y.

4. Haddow G.D., Bullock, J.A., & Coppola, D.P. Introduction to Emergency Management. Butterworth-Heinemann. p 497. P 210-225. 2020 y.

5. Goodhand J. Aiding Peace? The Role of NGOs in Armed Conflict. Lynne Rienner Publishers. p 298. P 120-135. 2004 y.

6. Kuperman A. J. Intervention and Statebuilding: The Case of Libya. Routledge. p 256. p 89-105. 2015 y.

7. Herring G.C. America's Longest War: The United States and Vietnam, 1950-1975. McGraw-Hill. p 394. P 201-215. 2001 y.

8. Rid T. Cyber War Will Not Take Place. Oxford University Press. p 288. P 89-102. 2012 y.

9. Seybolt T. B. Humanitarian Military Intervention: The Conditions for Success and Failure. Oxford University Press. p 256. P 54-72. 2007 y.

10. ICRC. Annual Report. International Committee of the Red Cross. p 125. P 65-78. 2020 y.

11. Singer, P. W. Wired for War: The Robotics Revolution and Conflict in the 21st Century. Penguin Press. p 512. P 175-190. 2009 y.

12. Haken H. Synergetics: An Introduction. Springer-Verlag. p 355. P 45-60. 1983 y.

13. March J.G., Olsen J.P. Rediscovering Institutions: The Organizational Basis of Politics. Free Press. p 256. P 92-105. 1989 y.

14. Putnam R.D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. Simon & Schuster. p 541. P 112-130. 1995 y.

15. Bertalanffy L.Von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. George Braziller. p 289. P 88-95. 1968 y.

16. Galtung J. Peace by Peaceful Means: Peace and Conflict, Development and Civilization. SAGE Publications. p 280. P 120-140. 1996 y.

17. Chandler, D. Empire in Denial: The Politics of State-Building. Pluto Press. p 212. P 67-80. 2006 y.

18. Hoffman F.G. Conflict in the 21st Century: The Rise of Hybrid Wars. Potomac Institute for Policy Studies. p 84. P 27. 2007 y.

19. Kettl D.F. The Politics of the Administrative Process. CQ Press. p 368. P 152-168. 2003 y.

20. Rid T. Cyber War Will Not Take Place. Oxford University Press. p 288. P 105-120. 2012 y.

21. ICRC. Annual Report. International Committee of the Red Cross. p 125. P 45-58. 2020y.

22. Haddow G.D., Bullock J.A., Coppola D.P. Introduction to Emergency Management. Butterworth-Heinemann. p 497. P 230-245. 2020 y.

F.Z. Zuhriddinov **-** *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti*

TURKIYANING ROSSIYA VA G‘ARB O‘RTASIDAGI MUVOZANATLI SIYOSATI: TAHDIDLAR, XAVFSIZLIK VA IMKONIYATLAR

Hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida Rossiya va G‘arb davlatlari o‘rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar global xavfsizlik va geosiyosiy dinamikaga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu qarama-qarshiliklarning aksariyati NATO kengayishi, Ukraina mojarosi, energetika siyosati va strategik raqobat bilan bog‘liq. Ushbu sharoitda Turkiyaning strategik geografik joylashuvi va geosiyosiy mavqei uni global kuchlar o‘rtasida muhim vositachi va mintaqaviy o‘yinchiga aylantiradi. Turkiya bir tomondan NATOning asosiy a’zolaridan biri sifatida G‘arb tizimining ajralmas qismi bo‘lsa, boshqa tomondan Rossiya bilan yaqin iqtisodiy va harbiy aloqalarni rivojlantirib kelmoqda. Turkiyaning "muvozanatli siyosat" tamoyiliga asoslangan tashqi siyosati, ayniqsa, S-400 zenit-raketa tizimlarini sotib olish, Sharqiy O‘rta Yer dengizi mojarosi va Ukraina inqirozida vositachilik qilish kabi misollarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Turkiyaning geosiyosiy qarorlari nafaqat mintaqaviy xavfsizlikka, balki xalqaro munosabatlar tizimidagi kuchlarning qayta shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, Turkiyaning Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi muvozanatli siyosati tahdidlar va imkoniyatlar nuqtayi nazaridan chuqur o‘rganishni talab etadi.

Turkiya tarixdan buyon strategik geografik joylashuvi tufayli Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi ko‘prik sifatida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Anatoliya yarim oroli nafaqat Sharq va G‘arb madaniyatlarini bog‘lovchi hudud, balki harbiy va iqtisodiy jihatdan ham muhim strategik maydon sifatida tanilgan. Bosfor va Dardanel bo‘g‘ozlari esa Turkiyaga xalqaro dengiz savdosi va harbiy harakatlar nuqtayi nazaridan beqiyos ahamiyat beradi. Tarixiy nuqtayi nazardan, Usmoniylar imperiyasi davrida Turkiya Rossiya bilan ko‘plab harbiy-siyosiy to‘qnashuvlarga duch kelgan. Ayniqsa, Qora dengiz havzasida hukmronlik uchun kurash ikki davlat o‘rtasidagi uzoq muddatli raqobatga sabab bo‘lgan. G‘arb dunyosi bilan munosabatlar esa, Usmoniylarning Yevropa davlatlari bilan olib borgan iqtisodiy va harbiy aloqalari, shuningdek, XVIII-XIX asrlarda imperiyaning “Yevropa bemori” deb atalgan davridan boshlab o‘ziga xos dinamikaga ega bo‘lgan. Rossiya va Turkiya munosabatlari ko‘p asrlik ziddiyat va manfaatlar kurashiga asoslangan. XIX asrda ikki davlat Qora dengizdagi hukmronlik uchun ko‘plab urushlarni boshdan kechirdi. Bu davrda

Rossiyaning asosiy maqsadi Usmoniylar imperiyasining zaiflashganidan foydalanib, Bosfor va Dardanel bo‘g‘ozlariga chiqish edi. XX asr boshlarida, ayniqsa, Sovet Ittifoqi tashkil topganidan keyin Rossiya-Turkiya munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Otatürk boshchiligidagi yangi Turkiya respublikasi Sovet Ittifoqi bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirdi, biroq sovuq urush davrida Turkiya NATO a’zosi sifatida Rossiya bilan keskin qarama-qarshilikka kirdi. Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng Turkiya G‘arb dunyosining ajralmas qismiga aylana boshladi. 1952 yilda Turkiyaning NATOga qabul qilinishi mamlakatning xavfsizlik sohasidagi manfaatlarini himoya qilishda muhim qadam bo‘ldi. Shuningdek, 1963 yilda Turkiya Yevropa Ittifoqi bilan assotsiatsiya kelishuvi imzoladi, bu esa G‘arb bilan iqtisodiy integratsiyaga yo‘l ochdi[245]. Biroq, G‘arb-Turkiya munosabatlari har doim ham silliq kechmagan. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida, xususan, 2002 yilda Adolat va Taraqqiyot Partiyasining (AKP) hokimiyatga kelishi bilan, Turkiya mustaqil tashqi siyosat yuritishga intila boshladi. Bu esa G‘arb davlatlari bilan ba’zi kelishmovchiliklarni yuzaga keltirdi. Jumladan, AQShning Suriya va Iroqdagi siyosati, Yevropa Ittifoqining Turkiyani to‘liq a’zolikdan chetlatish masalasi kabi omillar ushbu munosabatlarni murakkablashtirdi. XXI asrda Turkiya o‘zining tashqi siyosatini qayta ko‘rib chiqishga kirishdi. Turkiya yangi global muhitda o‘zining geosiyosiy ahamiyatini yanada mustahkamlashga intildi. Turkiyaning so‘nggi yillarda Rossiya bilan aloqalarini kuchaytirishning sabablari ko‘plab omillarga bog‘liq. Bir tomondan, Rossiya bilan siyosiy, energetika va harbiy aloqalar rivojlanishi, ayniqsa, Suriya va Iroqdagi harbiy harakatlar davomida strategik hamkorlikni kuchaytirdi. Biroq, Turkiya Rossiya bilan harbiy hamkorlikni rivojlantirish bilan birga, G‘arb davlatlari bilan ham aloqalarni mustahkamlashga urg‘u berdi. Turkiya va AQSh o‘rtasidagi aloqalar 2000-yillarning oxiridan boshlab yangi bosqichga o‘tdi. Turkiyaning AQSh bilan xavfsizlik masalalari bo‘yicha hamkorligi, jumladan, NATOdagi a’zoligi, Iroq va Afg‘onistondagi operatsiyalarda ishtirok etishi, ikkala davlat o‘rtasida mavjud aloqalarni mustahkamladi. Lekin, Turkiya va AQSh o‘rtasidagi ba'zi siyosiy farqlar, xususan, Suriyadagi muammolar, G‘arbning inson huquqlari bo‘yicha munosabati, Turkiyaning ichki siyosatidagi o‘zgarishlar kabi omillar, ikki tomonlama munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Turkiyaning xavfsizlik siyosati doimo Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga intildi. Ushbu siyosat, xususan, G‘arbning Turkiyadagi harbiy mavjudligi va Rossiyaning mintaqaviy kuch bo‘lishi kabi strategik tahdidlarga javob sifatida shakllandi. XXI asrda, Turkiya o‘zining harbiy va xavfsizlik siyosatini yanada mustahkamladi. Turkiya NATO a’zosi sifatida, o‘zining harbiy imkoniyatlarini G‘arb bilan hamkorlikda rivojlantirgan bo‘lsa, Rossiya bilan ham o‘z xavfsizligini ta’minlash maqsadida o‘ziga xos aloqalarni o‘rnatdi. Turkiya o‘z xavfsizlik siyosatini shakllantirishda Suriya, Iroq va Eron kabi mintaqaviy tahdidlarga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynadi. Xususan, Suriya fuqarolik urushi va Erondagi geosiyosiy o‘zgarishlar Turkiyaning tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Turkiya o‘zining harbiy harakatlari va diplomatik qadamlarini ko‘rsatish orqali, Rossiya va G‘arbning ikki o‘rtasida o‘zining xavfsizligini ta’minlashga intildi. Bundan tashqari, Turkiya AQSh bilan bo‘lgan aloqalarida, ayniqsa, Yaqin Sharqdagi harbiy ishtiroklarida o‘zining milliy xavfsizlik manfaatlarini ilgari surishga harakat qildi. 2010-yillar davomida, Turkiya, AQShning Suriyadagi kurd qo‘shinlari bilan bo‘lgan

Hale, W. (2013). Turkish Foreign Policy since 1774. Routledge.

aloqalariga qarshi bo‘lib, Rossiya bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Bu, o‘z navbatida, G‘arb-Turkiya munosabatlarining murakkablashishiga olib keldi.

Energetika siyosati

Energetika siyosati XXI asrda Turkiyaning Rossiya va G‘arb bilan munosabatlarida muhim omilga aylandi. Rossiya, Turkiyaning eng yirik energetika hamkori sifatida, Gazprom va boshqa energiya kompaniyalari orqali Turkiyaga tabiiy gaz yetkazib beradi. 2014-yilda Turkiya va Rossiya o‘rtasida "Turan" energetika hamkorligi bo‘yicha shartnoma imzolandi. Shu bilan birgalikda “Akkuyu” atom elektr stansiyasi qurilish kelishuvi ikki davlat o‘rtasida strategik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi[246]. Shuningdek, Turkiya, o‘zining G‘arb bilan energetika aloqalarini rivojlantirishga ham intiladi. Yevropa Ittifoqi va Turkiya o‘rtasida bo‘lgan "energetik hamkorlik" kelishuvlari, Turkiyaning Yevropaga energiya eksportini oshirishga yordam berdi. Turkiya, Rossiya bilan energetika sohasida hamkorlik qilish bilan birga, G‘arb bilan ham integratsiyalashgan energiya bozorini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni ilgari surmoqda.

Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi raqobat

XXI asrda Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi raqobat yanada keskinlashgan va bu jarayon Turkiya uchun o‘zining tashqi siyosatini qanday shakllantirishi kerakligini belgilashda muhim omilga aylandi. Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy farqlar Turkiyani ikki o‘rtada qolishga majbur qilmoqda, chunki Turkiya har ikki taraf bilan ham aloqalarini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, bu ikki tomonlama munosabatlardagi qarama-qarshiliklar Turkiyaning tashqi siyosatida bir qator murakkab vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi raqobat, ayniqsa, Sharqiy Yevropada va Yaqin Sharqda o‘z aksini topmoqda. G‘arb, AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan, Rossiya tomonidan amalga oshirilayotgan hududiy kengayish siyosatiga qarshi kurashmoqda. Bu jarayonda Turkiya o‘zining hududiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida, bu ikki davlat o‘rtasidagi raqobatda neytral pozitsiyada qolishga intiladi. Biroq, Turkiyaning Rossiya bilan strategik hamkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan urinishlari, ayniqsa, G‘arb tomonidan salbiy qabul qilinadi, chunki Turkiya NATO a’zosi bo‘lsa ham, Rossiya bilan harbiy va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirib kelayabdi. Turkiyaning G‘arb bilan iqtisodiy aloqalari katta o‘zgarishlarga duch keldi. 2000-yillarning boshlarida Turkiya, Yevropa Ittifoqi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarini mustahkamlashga harakat qildi. 1995-yilda Turkiya G‘arb bilan Bojxona Ittifoqi kelishuvini imzoladi, bu esa Turkiyaning Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarini yanada kengaytirdi[247]. Bu kelishuv orqali Turkiya o‘zining iqtisodiy siyosatini G‘arb standartlariga moslashtirishga intildi. Biroq, Yevropa Ittifoqi va Turkiya o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy farqlar, ayniqsa, inson huquqlari, demokratik erkinliklar va ichki siyosat masalalari bo‘yicha, kelajakda o‘zaro aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Turkiya, G‘arb davlatlarining inson huquqlari va demokratik tizimlar bo‘yicha siyosatlarini tanqid qilib, o‘zining mustaqil siyosatini olib bormoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi, Turkiyaning iqtisodiy o‘sishiga yordam berish maqsadida, ko‘plab iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qo‘shimcha turtki berdi. G‘arb bilan iqtisodiy hamkorlikda yuzaga kelgan

Duran, B. (2021). Turkey’s balancing act between Russia and the West: A strategic necessity? Insight Turkey, 23(2), 23-38

247 "Türkiye-AB İlişkilerinin Tarihçesi". www.ab.gov.tr. 6 Haziran 2017 tarihinde kaynağından arşivlendi. Erişim tarihi: 28 Mayıs 2021.

muammolar, xususan, Turkiyaning o‘z iqtisodiy siyosatini mustahkamlashga bo‘lgan urinishlari, kelajakda Turkiyaning G‘arb bilan munosabatlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. G‘arbning Turkiyaga nisbatan siyosiy va iqtisodiy bosimi, Turkiyaning o‘z iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolish uchun yangi yo‘llarni qidirishga undadi. Turkiyaning Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi siyosiy muvozanatini saqlashga bo‘lgan urinishlari, kelajakda bir qator yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, Turkiya o‘zining strategik ahamiyatini yanada kuchaytirib, Rossiya va G‘arb bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashi mumkin. Boshqa tomondan, Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi raqobat, Turkiyaning tashqi siyosatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kelajakda Turkiya, Rossiya va G‘arb bilan bo‘lgan energetika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish orqali, mintaqadagi barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Biroq, energetika sohasidagi hamkorlikning rivojlanishi, siyosiy qarama-qarshiliklar va iqtisodiy muammolarga qarshi kurashish orqali amalga oshirilishi kerak. Turkiya, XXI asrda o‘zining global siyosatdagi pozitsiyasini mustahkamlash uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishi kerak. Rossiya va G‘arb o‘rtasidagi raqobat, Turkiyaning tashqi siyosatiga doimiy ta’sir ko‘rsatmoqda, shuning uchun Turkiya o‘zining milliy manfaatlarini ta’minlash maqsadida, diplomatik yondashuvlarni takomillashtirishga harakat qiladi. Turkiya, o‘zining strategik ahamiyatini saqlab qolish uchun, global siyosatda mustaqil va barqaror o‘rin egallashga intiladi. Bundan tashqari, Turkiya o‘zining tashqi siyosatida iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish, xavfsizlik siyosatini takomillashtirish va xalqaro diplomatik yondashuvlarini rivojlantirishga davom etishi kerak. Ushbu strategiyalar, Turkiyaning Rossiya va G‘arb bilan bo‘lgan aloqalarida balansni saqlashga yordam beradi va global siyosatdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aras, B., & Özbay, F. (2008). Turkey and Russia in the post-Cold War world: Dynamics of asymmetrical relationship. Southeast European and Black Sea Studies, 8(4), 469-482.

2. Duran, B. (2021). Turkey’s balancing act between Russia and the West: A strategic necessity? Insight Turkey, 23(2), 23-38.

3. Hale, W. (2013). Turkish Foreign Policy since 1774. Routledge.

4. Kiniklioğlu, S., & Morkva, V. (2007). An anatomy of Turkish-Russian relations. Southeast European and Black Sea Studies, 7(4), 533-553.

А.Г. Очилова *– докторант координационно-методического центра новейшей истории Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан*

СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ГЕРМАНИИ ЗА ПОСЛЕДНЕЕ ДЕСЯТИЛЕТИЕ

Культурно-гуманитарное сотрудничество Узбекистана и Германии является важной составляющей двусторонних отношений. Это имеет особое

значение, учитывая тот факт, что в нашей стране на протяжении 150 лет проживают несколько тысяч немцев.[1]

Социально-гуманитарные отношения Германии и Узбекистана включают сотрудничество в различных областях, например:

Культурное сотрудничество. В мае 2023 года в Берлине открылась выставка «Археологические сокровища Узбекистана. От Александра Македонского до Кушанской империи». С активизацией двусторонних отношений в Германии растет интерес к богатому историко-культурному наследию и туристическому потенциалу Узбекистана. В церемонии открытия приняли участие Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев и федеральный президент Франк-Вальтер Штайнмайер. На выставке было представлено 65 экспонатов из фондов государственных музеев Берлина, а также 285 экспонатов из музеев Узбекистана, многие из которых впервые демонстрировались за пределами страны. В частности, в Германии растет интерес к изучению узбекского языка. В ряде немецких вузов открываются кафедры узбекского языка и литературы.[2]

Значительно развиваются и культурные связи Узбекистана и Германии. Так, 16 марта 2021 года Посол Узбекистана в Германии г-н Набижон Касимов встретился с директором по политике культурных связей и заместителем начальника Генерального директората по культуре и коммуникациям Министерства иностранных дел Германии, сопредседателем Узбекско-германской смешанной комиссии по культурному сотрудничеству Ирмгард Марией Фелльнер.[5l Обсуждены состояние и перспективы двустороннего сотрудничества в культурно-гуманитарной сфере, в том числе вопросы организации совместных мероприятий и проектов, в частности, выставки музейных коллекций Узбекистана в галерее Джеймса Саймона в Берлине.

Образовательный обмен. Около 1000 узбекских студентов, докторантов и аспирантов проходят обучение в различных учебных заведениях и научных центрах Германии в рамках Германской службы академических обменов (DAAD).

Совместные проекты в сфере здравоохранения. Так, в ноябре 2019 года при поддержке немецких компаний на базе Республиканского многопрофильного медицинского центра в Республике Каракалпакстан был создан немецко-узбекский медицинский консультативно-диагностический центр.

Гуманитарные акции. Так, например, Международная благотворительная организация «Фриденсдорф» и Фонд «Соглом авлод учун» регулярно проводят совместную акцию по отправке больных детей из Узбекистана на лечение в Германию. В рамках данной акции с 2002 по 2024 год 434 ребенка из Узбекистана в возрасте до 12 лет получили бесплатное длительное лечение — от 6 месяцев до 2 лет — в немецких клиниках.

В феврале 2023 года совместно с клиниками Channel Clinics и Институтом Роберта Коха в Германии был основан «Медицинский фонд Роберта Коха-Ибн Сины», который занимается подготовкой медицинских кадров и привлечением иностранных инвестиций. В мае 2023 года в Самарканде совместно с данным фондом был организован первый Узбекско-Германский

международный медицинский форум, а 18-19 апреля 2024 года в Берлине состоялось второе подобное мероприятие.[3]

Глава Узбекистана совершил два официальных визита в Германию в мае и сентябре 2023 года. Он также принял участие в первом саммите в формате Центральная Азия — Германия.

Сегодня Германия является одним из важнейших партнеров Узбекистана в развитии многопланового и долгосрочного сотрудничества с Европейским Союзом. Германия входит в десятку крупнейших инвестиционных и торговых партнеров Узбекистана. На узбекском рынке успешно работают такие ведущие компании, как Man, Claas, Knauf, GP Papenburg, Deutsche Kabel, Siemens Energy, Linde, Henkel и другие. Немецкие инвестиции постоянно растут в развитии ключевых отраслей узбекской экономики – энергетики, горнодобывающей промышленности, химической промышленности, производства материалов, фармацевтики, сельского хозяйства, транспорта и других отраслей. В настоящее время в Узбекистане открыто 221 предприятие с участием немецкого капитала, аккредитовано 31 представительство немецкой компании.

Язык является основным инструментом, объединяющим национальности. Республика Узбекистан поддерживает межгосударственные различные программы по сохранению родного языка и национальной культуры.[4]

В связи с переориентацией сотрудничества Германии в области развития в соответствии со стратегией реформ Федерального министерства экономического сотрудничества и развития до 2030 года, Узбекистан в будущем станет единственным получателем двустороннего государственного сотрудничества в области развития в Центральной Азии.

В настоящее время в Узбекистане действуют следующие учреждения:

- The Friedrich-Ebert-Stiftung
- the Friedrich Naumann Foundation for Freedom (FNF)
- the Hanns Seidel Foundation
- the Konrad-Adenauer-Stiftung e. V.
- the Rosa-Luxemburg-Stiftung
- the Deutsche Welle Akademie
- the German Economic Team
- the Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH
- the Institute for International Cooperation of the German Adult Education Association
- Kreditanstalt für Wiederaufbau (KfW)
- the German Foundation for International Legal Cooperation (IRZ)
- the Senior Expert Service (SES)
- the Savings Banks Foundation.

Республика Узбекистан и Федеративная Республика Германия имеют одни из самых важных и сложных двусторонних отношений. Федеративная Республика Германия заняла прочную позицию в отношениях с Республикой Узбекистан.[6]

Заключение. Таким образом, отношения между Узбекистаном и Германией за последние годы вышли на качественно новый, более высокий

уровень взаимопонимания и доверия. Взаимодействие между Узбекистаном и Германией развивается ускоренными темпами. Все более укрепляется политическое, торгово-экономическое, социальное, культурно-гуманитарное сотрудничество, расширяются межпарламентские связи. Сегодня Германия является одним из важнейших партнеров Узбекистана в развитии многопланового и долгосрочного сотрудничества с Европейским Союзом. Германия входит в десятку крупнейших инвестиционных и торговых партнеров Узбекистана.

Список литературы:

1. Daily Media, 2024. Культурно-гуманитарное развитие отношений Узбекистана и Германии. Available from: https://uzdaily.uz/ru/post/77157/ Accessed 13.02.2025

2. Berliner Telegraph, 2024. Uzbekistan and Germany: mutually beneficial partnership in the name of prosperity and progress. Available from: https://berliner-telegraph.de/news/kultura/uzbekistan-i-germaniya-vzaimovygodnoe-partnerstvo-vo-imya-protsvetaniya-i-progressa/ Accessed 13.02.2025

3. Сайт Германской службы академических обменов в Германии: www.daad/de, и в Узбекистане: www/daad/uz Accessed 13.02.2025

4. Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Federative Republic of Germany, 2025. The prospects of bilateral cooperation in the cultural and humanitarian sphere were discussed. Available from: https://www.uzbekistan.de/frontend/web/news/48?language=en Accessed 27.02.2025

5. Federal Foreign Office, 2025. Germany and Uzbekistan: Bilateral relations. Available from: https://www.auswaertiges-amt.de/en/aussenpolitik/laenderinformationen/usbekistan-node/uzbekistan-228618 Accessed: 27.02.2025

6. Zabarjad Kakhorova. (2024). RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND GERMANY: STAGES OF FORMATION OF DIPLOMATIC RELATIONS. International Journal Of History And Political Sciences, 4(01), 34–40. https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume04Issue01-06

M.X. Mamajonova *- Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti*

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Kirish

Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati 1979-yil Islom inqilobidan keyin shakllangan murakkab mafkuraviy, strategik va geosiyosiy omillar o‘zaro ta’sirida rivojlanib kelmoqda. Eronning xalqaro munosabatlarga yondashuvi uning o‘ziga xos siyosiy-diniy boshqaruv tizimi, tarixiy tajribalari hamda mintaqaviy va global ta’sir o‘tkazish intilishlari bilan bog‘liq. Mafkura uning tashqi siyosatining asosiy tamal toshi bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, o‘z manfaatlari, jumladan, milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va geosiyosiy manfaatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Eron Islom

Respublikasi inqilobdan keyin tashqi siyosati Islom mafkurasi, Viloyat-e Faqih Prinsipi, “Na Sharq, na G‘arb, faqat islom” “Tamaddunlar muloqoti”, “Sharqqa nigoh” kabi konsepsiyalar asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Asosiy qism

Eron tashqi siyosatining eng asosiy xususiyatlaridan biri uning mafkuraviy asosidir. Bu asos Oyatulloh Ruhulloh Xumayniy tomonidan shakllantirilgan Viloyat-e Faqih (Faqih boshqaruvi) nazariyasiga tayangan. Bu prinsipga ko‘ra, Oliy rahbar ichki va tashqi siyosatda so‘nggi so‘zga ega bo‘lgan eng yuqori hokimiyat hisoblanadi. Oliy ruhoniy rahbar (faqih) millat ustidan vasiylikni (viloyat) ta’minlaydi va bu bilan davlatning yuqoridan pastga islomlashtirilishini yo‘naltiradi.

1970-yilda nashr etilgan “Islomiy boshqaruv” nomli kitobida Xumayniy Eronda islomiy davlat yaratish bo‘yicha rejalarini bayon qilib, davlatning ruhoniy vasiyligini oqlash uchun viloyat-e faqih ta’limotini qayta shakllantirdi. 1979-yil Islom inqilobidan keyin bu tushuncha Eron konstitutsiyasiga kiritildi va Xumayniy vafotiga qadar oliy rahbar lavozimini egalladi. 1989-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlar oliy rahbarning vakolatlarini yanada kengaytirdi va u davlatning barcha organlari ustidan mutlaq hokimiyatga ega bo‘ldi. Xomeyniy ta’limoti teokratik boshqaruvning an’anaviy, o‘zgartirilgan nazariyasidir[1].

Bu konsepsiya Eronning xalqaro munosabatlariga ham ta’sir o‘tkazib, uning musulmon mamlakatlari bilan aloqalarini mafkuraviy asosda shakllantirishga sabab bo‘ldi. Islom inqilobini eksport qilish g‘oyasi, ya’ni islom boshqaruv tizimini ilgari surish va G‘arb imperializmi deb hisoblangan kuchlarga qarshilik ko‘rsatish, Eronning post-inqilobiy tashqi siyosatining asosiy unsurlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bundan tashqari, Eronning tashqi siyosatida chet el aralashuviga qarshi tarixiy ishonchsizlik muhim o‘rin tutadi. Xususan, Eronning neft sanoatini milliylashtirish tashabbusi (1951-yil, Bosh vazir Muhammad Musaddiq), so‘ngra esa AQSh tomonidan qo‘llab-quvvatlangan 1953-yilgi davlat to‘ntarishi Eronda anti-imperialistik kayfiyatni mustahkamladi. Bundan tashqari, “**Na Sharq, na G‘arb, faqat islom**” shiori inqilobdan keyin shakllangan bo‘lib, Eronning musulmon mamlakatlari bilan aloqalarini mustahkamlash va shu orqali islom inqilobini eksport qilish, shuningdek, G‘arb va Sharq bloklariga qaram bo‘lmaslik siyosatini aks ettiradi.

Mutaxasislarning fikricha, yangi tashqi siyosat yo‘nalishi “Na G‘arb, na Sharq” shiori bilan belgilandi. Eron G'arb qadriyatlarini ham, marksistik g'oyalarni ham namoyishkorona rad etib, “uchinchi yo‘l” - teokratiyani tanladi[2].

Eron tashqi siyosatida strategik mustaqillik ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu, ayniqsa, harbiy va mudofaa salohiyatida o‘zini namoyon qiladi. *Global Firepower* reytingiga ko‘ra, Eron 145 mamlakat orasida harbiy salohiyat bo‘yicha 16-o‘rinni egallaydi[3]. Xususan, Eron o‘zining raketa dasturi va noan’anaviy urush strategiyalariga e’tibor qaratib, tashqi kuchlarning milliy xavfsizlikka tahdid solishiga yo‘l qo‘ymaslik siyosatini olib bormoqda.

Eronning harbiy doktrinasi “to‘liq himoya va to‘siqlar” strategiyasiga asoslangan bo‘lib, bu AQSh, Isroil va mintaqaviy raqiblari, jumladan, Saudiya Arabistoni tomonidan tahdid sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, Eron o‘zining mintaqadagi ittifoqchilari, jumladan, Hizbulloh, Suriya hukumati va Yamandagi hutiy harakatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘z geosiyosiy ta’sirini mustahkamlashga intiladi.

Shu o‘rinda, Eron Islom Respublikasining beshinchi prezidenti Muhammad Xotamiy 1997-yilda “Tamaddunlar muloqoti” konsepsiyasini ilgari surdi. Prezident

Xotamiyning ushbu chaqiruvi Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy va diplomatik munosabatlarni chuqurlashtirishga yo‘l ochgan[4].

Bu g‘oya Samuel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasiga muqobil sifatida taklif qilingan bo‘lib, Xotamiy dunyo davlatlari o‘rtasida madaniy va siyosiy muloqotni mustahkamlashni maqsad qilgan edi. Tamaddunlar muloqotining asosiy maqsadlari:

- xalqlar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro tushunishni mustahkamlash;
- G‘arbning Islom dunyosiga nisbatan stereotiplariga qarshi chiqish;
- madaniy ustunlik o‘rniga o‘zaro muloqotni ilgari surish;
- dunyo miqyosida tinchlik va hamkorlikni ta’minlash.

Bu tashabbus 2001-yilda BMT tomonidan e’tirof etilib, “Sivilizatsiyalar muloqoti xalqaro yili” deb e’lon qilingan. Shuningdek, ushbu g‘oya Eron va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilgan. Biroq, Xotamiyning prezidentligi tugagach, ayniqsa keyingi hukumatlar davrida, bu g‘oya tashqi siyosatda o‘z dolzarbligini yo‘qota boshladi.

Eron tashqi siyosatining yana bir muhim siyosati –“Sharqqa nigoh” siyosati ittifoqchilik aloqalarini kengaytirish hamda Tehronning G‘arb kuchlari ta’siriga moyilligini kamaytirish maqsadida Sharqiy yarimsharidagi, xususan, Osiyodagi davlatlar bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy va strategik aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan strategiya sifatida qabul qilindi. Mahmud Ahmadinajod, Hasan Ruhoniy va Ibrohim Raisiy Eronning xalqaro munosabatlarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga intilib, “Sharqqa nigoh” siyosatini olib borishgan. Biroq, ularning siyosatni amalga oshirishi turlicha bo‘lib, aniq konseptual asoslarni, geografik ustuvorliklarni institutsional o‘lchovlarni hamda tashqi va ichki kuchlar aralashuvini namoyish etadi [5].

Lusiano Zakkara ta’kidlaganidek, Eron tashqi siyosati “mantiqsiz va oldindan aytib bo‘lmaydigan” va “uning tamoyillari va maqsadlarining radikalligi va ichki qaror qabul qilish mexanizmlarining noaniqligi” bilan izohlanadi[6]. Bu noaniqlik Eron siyosatining ideologik, pragmatik va xavfsizlik masalalariga asoslangan qarama-qarshi elementlarini o‘z ichiga olishi bilan bog‘liq.

Umuman olganda, “Sharqqa nigoh” siyosati Eronning xalqaro izolyatsiyasini yengillashtirishga xizmat qilishi mumkin, biroq uning samaradorligi tashqi va ichki omillarga, xususan, Eronning iqtisodiy va siyosiy muhitiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Eron tashqi siyosati mafkuraviy, strategik va pragmatik omillar uyg‘unligi asosida shakllangan bo‘lib, uning mohiyati Islom mafkurasi va Viloyat-e Faqih prinsipi bilan belgilanadi. Ushbu teokratik boshqaruv modeli nafaqat ichki siyosatda, balki xalqaro munosabatlarda ham muhim rol o‘ynab, Eronga o‘zining mafkuraviy ta’sir doirasini kengaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga, anti-imperialistik yo‘nalish va strategik mustaqillik tamoyili Eronning xalqaro hamjamiyat bilan munosabatlarida murakkabliklarni yuzaga keltirdi.

Eronning “Na Sharq, Na G‘arb” shiori asosida olib borilgan tashqi siyosati g‘arbiy va sharqiy bloklarga qaram bo‘lmaslikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan mamlakat “Sharqqa nigoh” strategiyasiga o‘tib, Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlashga urg‘u berdi. Shu bilan birga, Xotamiyning “Tamaddunlar muloqoti” tashabbusi Eron tashqi siyosatida pragmatik yondashuvning namoyoni bo‘lib, G‘arb bilan munosabatlarni yaxshilashga urinishlardan biri sifatida e’tirof etildi.

Biroq, Eron tashqi siyosati ko‘p jihatdan o‘zining ichki siyosiy muhitiga, ideologik tamoyillariga va xalqaro geosiyosiy sharoitga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ayrim ekspertlarning fikricha, tashqi siyosatda pragmatizm va mafkuraviy qat’iylik o‘rtasidagi muvozanat noaniqlikni yuzaga keltiradi va Eronning global maydondagi harakatlarini oldindan bashorat qilish qiyinlashadi. Umuman olganda, Eron o‘z strategik mustaqilligini saqlab qolish va xalqaro bosim sharoitida o‘zining manfaatlarini himoya qilish uchun tashqi siyosatining turli komponentlarini uyg‘unlashtirishga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дорошенко Е. А.. Иран: О некоторых современных толкованиях проблемы валайате факих // Восток. – 1996. – № 4.

2. Дмитрий Окунев // «Небритость мужчин и цитаты Хомейни»: как ислам изменил Иран // 2019. https://www.gazeta.ru/science/2019/04/01_a_12277477.shtml

3. Rakel, E. P. (2008). The Iranian political elite, state and society relations, and foreign relations since the Islamic revolution. [Thesis, externally prepared, Universiteit van Amsterdam] 197 p.

4. 2025 Iran Military Strength // 09.01.2025 https://www.globalfirepower.com/country-military-strength-detail.

5. Fayzullayev S.A. Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektori. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2024. – B.13.

6. Luciano Zaccara, “Iran’s Permanent Quest for Regional Power Status” in Diplomatic Strategies of Nations in the Global South. New York: Palgrave Macmillan, 2016. – 184 p.

A.A. Rahimov **–** *O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi*
M.M. Nazirov **–** *O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, s.f.f.d.(PhD*)

HOZIRGI DAVR XALQARO MUNOSABATLARIGA SIVILIZATSIYALAR TO‘QNASHUVI XOSMI YOKI SIVILIZATSIYALARARO MULOQOT?

Xalqaro munosabatlar tizimi sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot va ziddiyat elementlarini uyg‘unlashtirgan holatda rivojlanib bormoqda. Madaniy, diniy yoki mafkuraviy tafovutlar asosidagi nizolar hanuzgacha mavjud. Ba’zan ular yirik mojarolarga sabab bo‘layotgan bo‘lsa ham, shuni ta’kidlash lozimki, sivilizatsiyalar o‘rtasida muloqot, hamkorlik va bir-birini tushunish yo‘lida sezilarli sa’y-harakatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bir tomondan, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi tarixiy ziddiyatlar, diniy va madaniy qarama-qarshiliklar bilan bir qatorda hokimiyat uchun kurashlar siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, juda og‘ir oqibatlarga olib keluvchi ziddiyatlarni vujudga keltirishi mumkin.

Sobiq Yugoslaviyadagi tarixiy, etnik, diniy va madaniy tafovutlar XX asr oxirida qanday og‘ir oqibatlarga olib kelgani hech kimga sir emas. “Yugoslaviya nizosida

Rossiya Serbiyaga diplomatik yordam koʻrsatgan boʻlsa, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Eron va Liviya mablagʻ va qurollar tomonidan Bosniyaga yordam koʻrsatishi gʻoyaviy yoki kuch siyosati yoxud iqtisodiy qiziqishlar sababidan emas, balki madaniy qarindoshlik ekanidan dalolardir", deya ta'kidlaydi Samuel Hantington. [1] U oʻz fikriga shunday qoʻshimcha qiladiki, "eng xavfli va ogʻir oqibatlarga olib keluvchi madaniy nizolar esa sivilizatsiyalarning boʻlinish chizigʻida yotadi".

Bu qarama-qarshiliklar koʻpincha turli sivilizatsiyalarga mansub xalqlarning an'ana va urf-odatlaridagi keskin farqlardan kelib chiqadi. Manfaatlar kesishgan har qanday nuqtada ikki, bir-biridan keskin farq qiluvchi yoki bir-birini inkor etuvchi sivilizatsiyaga mansub xalqlar oʻrtasida nizo kelib chiqish ehtimoli va buning natijasida ikki sivilizatsiya oʻrtasidagi qarama-qarshilik boshlanish xavfi mavjud. Buni bipoliar tizim parchalangandan bugungi kungacha boʻlgan davr xalqaro munosabatlar tizimida yaqqol koʻrib turibmiz.

Bunga yorqin misol qilib Isroil – Falastin mojarolarini olish mumkin. Mazkur qarama-qarshilik shunchaki ikki davlat oʻrtasida emas, balki butun boshli ikki sivilizatsiya oʻrtasidagi ziddiyatdir. Ya'ni, aynan shu mojaro tufayli Gʻarb va Islom sivlizatsiyasi toʻqnash keldi.

Sivilizatsiyalar oʻrtasidagi ziddiyatning eng mudhish tomoni shundaki, bu ziddiyatlar chegara tanlamaydi va sivilizatsiyaga mansub har bir shaxs bu mojarolarda eng kamida emotsional jihatdan ishtirok etadi. Eng ogʻir koʻrinishlaridan yana biri shundan iboratki, bu konflikt jarayonida dunyo davlatlari va shu davlat hududida azal-azaldan yashab kelayotgan xalqlar oʻrtasida mojaro kelib chiqishi va bu yangi ziddiyatlar oʻchogʻini yaratib berishi ham mumkin.

Bu jarayonda davlatlar moddiy manfaatlardan kelib chiqib qaror qabul qilsa, undagi fuqarolar oʻzlarining qaysi sivilizatsiyaga tegishliligidan kelib chiqib oʻz pozitsiyalarini belgilashadi. Mazkur voqe'lik bugungi kunda Isroil – Falastin mojarosi avjiga chiqqan pallada koʻplab musulmon davlatlarida ayniqsa koʻrfaz mamlakatlarida oʻz isbotini topmoqda.

Bugungi kunda bu kabi toʻqnashuvlar dunyoning turli nuqtalarida, ayniqsa, sivilizatsiyalar manfaatlari kesishgan hududlarda yaqqol namoyon boʻlmoqda. 2001-yil 11-sentabrda boshlangan bu jarayonlar Iroq va Afgʻoniston mojarolari bilan bir qatorda bosqichma-bosqich "Arab bohori"gacha davom etdi. Bugungi kunda esa Hindiston va Pokiston oʻrtasidagi ziddiyatlar va Rossiya - Ukraina urushlari fikrimiz dalilidir.

Ammo bu jarayonlarning koʻpchiligida sivilizatsiyalar shunchaki, motiv vazifasini bajarmoqda, asosiy maqsad esa koʻp hollarda moddiy resurslar yoki hokimiyatga egalik qilish boʻlib qolmoqda. Shu jihatdan, xulosa qilib aytish mumkinki, sivilizatsiyalar oʻrtasidagi moddiy va manaviy resurslar adolat bilan teng taqsimlangandagina ular tinch, mojarolarsiz yashashi mumkin. Ammo realizm nazariyasining tarafdorlari fikriga ko'ra hech qachon moddiy va manaviy resurslar teng taqsimlanmaydi va ular uchun kurash abadiy davom etadi. [2]

Boshqa tomondan, zamonaviy dunyoda sivilizatsiyalar oʻrtasidagi konstruktiv muloqot va hamkorlikning koʻplab misollari mavjud. Diplomatik sa'y-harakatlar, koʻp tomonlama hamkorlik institutlari, hukumatlararo tashkilotlar, xalqaro savdo tizimining vujudga kelishi, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik va diniy bagʻrikenglikning kun sayin rivojlanib borishi ham bugungi davr xalqaro

munosabatlar tizimida sivilizatsiyalararo muloqotning naqadar dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ikki qutubli tizim to‘liq parchalanib sovuq urush o‘zining nihoyasiga yetishi butun dunyoda kapitalistik tizimning to‘liq g‘alabasi edi. Endilikda barcha mamlakatlar birin - ketin bozor iqtisodiyoti qoidalarini o‘zlarida joriy qila boshlashdi. Kapitalizmning oltin qoidasi shundan iboratki, unda mamlakatlar alohida holatda emas, bir - birlari bilan chambarchas bog‘liq holatda rivojlanishlari talab etiladi. Bu esa davlatlarning bir - birlariga sivilizatsion jihatdan emas, balki iqtisodiy manfaatdorlik jihatidan yaqinlashish yoki uzoqlashishlarini belgilab beradi.

Bugungi davrda xalqaro munosabatlar tizimida sivilizatsiyalararo muloqot kuchaymoqda, deb bemalol ayta olamiz. Chunki o‘zaro aloqalar o‘rnatish davlatlar uchun hayotiy ehtiyojdir. O‘zaro munosabatlar bir qancha ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchidan, bu diplomatik aloqalar. Diplomatik aloqalar sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro ta'sir uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi. Elchixonalar, konsulliklar va xalqaro tashkilotlar mamlakatlar va madaniyatlar o‘rtasida muloqot, hamkorlik va fikr almashishga yordam beradi. Diplomatik uchrashuvlar, sammitlar va konferensiyalar turli sivilizatsiyalar rahbarlari va vakillariga o‘zaro manfaatlarni muhokama qilish, nizolarni hal qilish va sheriklik munosabatlarini o‘rnatish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda bir qancha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bu funksiyalarni bajarib kelmoqda. Eng yorqin misol, albatta, Birlashgan Millatlar Tashkilotidir. Tashkil etilgandan beri o‘tkazib kelayotgan sessiyalarida turli sivilizatsiyalar yetakchilarini bir stol atrofida o‘tirishga va dunyo taqdirini hal qila oladigan masalalarni birgalikda muhokama qilishga erishmoqda.

Ikkinchidan, global savdo tarmoqlari sivilizatsiyalarni tovarlar, xizmatlar va g‘oyalar almashinuvi bilan taminlab beradi. Xalqaro savdo shartnomalari, iqtisodiy shartnomalar va ko‘p tomonlama savdo tashkilotlari turli sivilizatsiyalarga tegishli mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va integratsiyaga yordam beradi.

Bu yo‘nalishda global miqiyosda faoliyat yuritayotgan universal tashkilot Jahon savdo tashkilotidir. Turli xil madaniyat vakillarini umumiy maqsad, ya’ni taraqqiyot uchun birlashtira olgan bu tashkilot o‘z jozibadorligini yo‘qotmagan va anchayin samarali faoliyat olib bormoqda.

Uchinchidan, ta’lim sohasidagi hamkorlik sivilizatsiyalararo muloqot uchun asos yaratishi mumkin. Turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi hamkorlikning eng yorqin jihatlaridan biri bu ta’lim sohasidagi keng hamkorlikdir. Ta’lim sohasida kadrlarning erkin harakat qilishiga yaratib berilgan imkoniyatlar turli sivilizatsiyalardan kelgan talabalar va olimlarni bir joyga jamlay olgani sivilizatsiyalar orasidagi muloqotning ulkan yutug‘idir.

So‘ngi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, birgina yevropa universititutlarida bugungi kunda 1.5 milliondan ortiq turli xil sivilizatsiyalardan kelgan talabalar tahsil olib kelmoqda. [3] Bu jarayonlar albatta istiqbolda sivilizatsiya vakillari o‘rtasida o‘zaro tolerantlik munosabatlarini taminlab berishi, shubhasiz.

To‘rtinchidan, sivilizatsiyalararo muloqotning institutsional asosi bo‘lib ko‘p tomonlama tashkilotlar xizmat qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi kabi universal tashkilotlar va forumlar turli sivilizatsiyadan kelgan vakillardan tashkil topgan va global muammolarni hal qilishda iloji boricha barcha

sivilizatsiyalarning manfaatlarini hisobga olishga harakat qiladi. Ushbu tashkilotlarning asosiy maqsadi tinchlik va xavfsizlik, inson huquqlari va barqaror rivojlanish kabi keng ko‘lamli global muammolar bo‘yicha muloqot, muzokaralar va hamkorlikka yordam berishdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari buning dalilidir. Bu model inkluzivlik, sheriklik va barqarorlik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, turli millat va din vakillarining tinchlik va qadr-qimmatda gullab-yashnashi mumkin bo‘lgan dunyoni birgalikda barpo etishga qaratilgan. Bu kabi tashkilotlar sivilizatsiyalar orasidagi rishtalarni yanada mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda sivilizatsiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar hali ham davom etayotgan bo‘lsa-da, xalqaro munosabatlarda umumiy manfaatlarni tan olish va global muammolarni hal qilish uchun jamoaviy harakatlar zarur. Shu jihatdan qaraganda, sivilizatsiyalar o‘rtasida yanada kengroq muloqot, hamkorlik va ishtirok etish tendentsiyasi hukm surmoqda, deyish mumkin.

Bu esa sekin-asta mavjud mojarolarni sivilizatsiyalar, dinlar yoki etnik jihatdan, moddiy resurs va manfaatlar jihatiga transformatsiya bo‘lishiga olib keladi. Oxir-oqibatda xalqaro munosabatlar subyektlari milliy manfaatlar uchun o‘z sivilizatsiyalariga qarshi chiqish jarayonlarini boshdan kechirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samuel Fillips Hantington. ” The Clash of Civilizations?”. The contents of Foreign Affairs are copyrighted. © 1993 Council on Foreign Relations, Inc. All rights reserved. Page-37.

2. https://archive.org/download/20200118_20200118_0440/%5BJohn_J._Mearsheimer%5D_The_Tragedy_of_Great_Power_P%28z-lib.org%29.pdf

3. Source:Eurostat(educ_uoe_mobs02lang=en).https://ec.europa.eu/eurostat/statisticsexplained/index.php?title=Learning_mobility_statistics#:~:text=Students%20fro. This page was last edited on 2 October 2023, at 14:09.

М.Б. Шодиева *- студент Ташкентского государственного юридического университета*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЗАКЛЮЧЕНИЯ ДОГОВОРА УПРАВЛЕНИЯ МНОГОЭТАЖНЫМ ДОМОМ

Управление многоквартирным домом является одной из важных задач в сфере жилищно-коммунального хозяйства, который требует уникального правового регулирования. Анализируя данную сферу нашей страны и зарубежных стран можно сделать вывод, что в разных странах модели управления. В некоторых странах регулирование осуществляется непосредственно государством, тогда как в других осуществляется с участием частных лиц: управляющих организаций или товариществ собственников помещений. Соответственно заключение договоров управления многоэтажными домами, их регулирование отличается.

Несмотря на то, что почти во всех странах заключаются одинаковые договора управления, способы осуществления целей, определённых им, отличаются. В большинстве стран, для получения управленческих услуг, в которое входят жилищные и коммунальные услуги, собственники квартир в иностранных государствах объединяются в ННО. Например, в США и Канаде этим занимаются территориальные сообщества жителей Planning Unit Developments, Condominium Association, Housing Cooperatives; во Франции – синдикаты[248]; в Финляндии – акционерное общество квартир[249].

Из проведённого анализа, стало ясно, что в большинстве странах, например, США, Малайзия, Чехия, Сингапур, управленческая деятельность является видом предпринимательской деятельности, за которое управляющая организация получает вознаграждение, а ответственность за них несёт ТСЖ – товарищества собственников жилищ[250]. Получается, если в Республике Узбекистан в управлении домом участвуют две стороны: управляющая организация, управляющий и собственники, или же товарищества собственников и сами собственники, что зависит от способа управления, то за рубежом есть практика участия трёх сторон, а именно, в вышеприведённых странах, собственники создают товарищества собственников, и последний выбирает управляющего или управляющую организацию для осуществления управления. В итоге, договор управления управляющей организацией заключается напрямую не с собственниками, а с ТСЖ. Основное различие нашей практики с ними является в субъектном составе договора.

Опыт Польши является одним из интересных. В нём управление осуществляется акционерным обществом, полностью принадлежащим государству и городу, в котором объединены все коммунальные услуги, и все услуги – технологические, инженерные, экономические – осуществляются им же[251]. По смысле данной практики, ясно, что между собственниками жилищ и обществом не заключается договор управления, и между ними возникают публичные правоотношения, а не гражданско-правовые отношения. Если сравнить его с нашей практикой, то можем сказать, что в Республике Узбекистан между управляющими и собственниками возникают гражданские правоотношения, которое как нам известно из норм, регулируется жилищным и гражданским законодательство, и устанавливается договором.

Более близким к нашей практике жилищного управления является опыт Восточной Европ и стран Прибалтики, в которых собственники жилых помещений имеют право не создавать юридическое лицо – товарищество, а заключить договор с управляющей организацией или управляющим. Существенным условием этого договора является равные условия для собственников, что схоже с тем, что и у нас[252].

---

[248] **Жилищное право** [Текст]: учебное пособие для вузов / Сохиба Фазиловна Иноятова. – Ташкент: Издательство ТГЮУ, 2024. – стр.117

[249] **Жилищное право** [Текст]: учебное пособие для вузов / Сохиба Фазиловна Иноятова. – Ташкент: Издательство ТГЮУ, 2024. – стр.117

[250] **Жилищное право** [Текст]: учебное пособие для вузов / Сохиба Фазиловна Иноятова. – Ташкент: Издательство ТГЮУ, 2024. – стр.117

[251] Макаров Г. Отечественный и зарубежный опят самоуправления в городских многоквартирных домах // Хозяйство и право. 2011. № 6. С. 31.

[252] Макаров Г. Отечественный и зарубежный опят самоуправления в городских многоквартирных домах // Хозяйство и право. 2011. № 6. С. 31.

Управление многоквартирными домами представляет собой сложный правовой институт, требующий четкого регулирования и эффективных механизмов реализации. Проведенный анализ международного опыта показывает, что в различных странах применяются разные модели управления – от полного государственного контроля до привлечения частных управляющих организаций или создания товариществ собственников.

Основное различие между зарубежными и узбекскими подходами заключается в субъектном составе договора управления. В ряде стран, таких как США, Малайзия, Чехия и Сингапур, управление многоквартирными домами осуществляется через ТСЖ, которое выступает в качестве посредника между собственниками и управляющей организацией. В Узбекистане же договор управления заключается либо напрямую между собственниками и управляющей организацией, либо через товарищества собственников, если они созданы.

Интересной является польская модель, в которой управление возложено на государственное акционерное общество, что приводит к возникновению публичных, а не гражданско-правовых отношений. В то же время практика Восточной Европы и стран Балтии наиболее близка к узбекской системе, так как собственники могут заключать договор непосредственно с управляющей организацией, не создавая юридическое лицо.

Таким образом, изучение зарубежного опыта показывает, что узбекская модель управления многоквартирными домами в целом соответствует мировым тенденциям, но может быть дополнена лучшими практиками других стран. Внедрение эффективных механизмов контроля за управляющими организациями, обеспечение равных условий для собственников и развитие ТСЖ могут способствовать повышению качества управления жилищным фондом в Узбекистане.

Список использованной литературы:

1. Гражданский кодекс Республики Узбекистан часть первая от 1 марта 1997 года.

2. Жилищный кодекс Республики Узбекистан от 1 апреля 1999 года.

3. Закон Республики Узбекистан «Об управлении многоквартирными домами» №581 от 7 ноября 2019 года.

4. Жилищное право [Текст]: учебное пособие для вузов / Сохиба Фазиловна Иноятова. – Ташкент: Издательство ТГЮУ, 2024. С.136

5. Макаров Г. Отечественный и зарубежный опят самоуправления в городских многоквартирных домах // Хозяйство и право. 2011. № 6

B. Abdumannonov *- Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi*

61-MYUNXEN KONFERENSIYASI – YEVROPA ITTIFOQI VA AQSH MUNOSABATLARIDA EHTIMOLIY TUB BURILISH NUQTASI SIFATIDA

Myunxen xavfsizlik konferensiyasi (MXK) har yili global xavfsizlik masalalarini muhokama qilish uchun dunyoning yetakchi siyosatchilari, diplomatlari va mutaxassislarini bir joyga to‘playdi. 2025-yilda bo‘lib o‘tgan 61-MXK ayniqsa muhim

ahamiyat kasb etdi, chunki u Yevropa Ittifoqi (YI) va Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) o‘rtasidagi munosabatlarda tub burilish yasashi mumkin bo‘lgan voqealarga boy bo‘ldi.

61-MXK davomida bir qator dolzarb xavfsizlik masalalari ko‘tarildi:

1. Rossiya-Ukraina mojarosi: Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi davom etayotgan ziddiyat konferensiyaning asosiy mavzularidan biri bo‘ldi. Ishtirokchilar mojaroni hal qilish yo‘llarini, jumladan, diplomatik choralarni muhokama qildilar.

2. Yevropa xavfsizligi: Yevropaning xavfsizlik arxitekturasi, NATOning roli va YIning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

3. Yaqin Sharqdagi vaziyat: Isroil va G‘azo sektori o‘rtasidagi mojaro, shuningdek, mintaqadagi barqarorlikni ta’minlash masalalari ko‘tarildi.

4. Kiberxavfsizlik: Global miqyosda kiber tahdidlarning ortib borishi va ularga qarshi kurash strategiyalari muhokama qilindi.

Konferensiyada YI va AQSh delegatsiyalari o‘z pozitsiyalarini aniq ifoda etdilar: AQSh pozitsiyasi: AQSh davlat kotibi Jey Di Vens YI davlatlariga nisbatan o‘z munosabatini bildirdi. U YIning Rossiya bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidladi va YIning mudofaa salohiyatini mustahkamlashga chaqirdi.YI pozitsiyasi: Germaniya kansleri Olaf Sholz AQShning pozitsiyasiga javoban, YIning mustaqil tashqi siyosat olib borishi va o‘z xavfsizlik manfaatlarini himoya qilishi kerakligini ta’kidladi. Shuningdek, u YIning Rossiya bilan muloqotini davom ettirish muhimligini qayd etdi.

NATO va transatlantik hamkorlik masalalari ham konferensiyada muhim o‘rin tutdi. NATOning kelajagi: NATOning yangi tahdidlarga moslashuvi, a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va mudofaa xarajatlarini oshirish zarurati muhokama qilindi. Transatlantik hamkorlik - AQSh va YI o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi, savdo-sotiq va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari ko‘tarildi.

61-MXK davomida YI va AQSh o‘rtasidagi munosabatlarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. YIning mustaqil tashqi siyosati: YI davlatlari, xususan, Germaniya, Xitoy, Eron va Afg‘oniston bilan mustaqil tashqi siyosat olib borishga intilmoqda. Bu esa AQSh bilan munosabatlarda yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. AQShning YI bilan kelishuvlarsiz Rossiya bilan muzokaralari: AQShning YI ishtirokisiz Rossiya bilan muzokaralar boshlashi YIda norozilik va xavotir uyg‘otdi. Bu holat transatlantik hamkorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Konferensiyada yangi iqtisodiy yo‘laklar va mintaqaviy hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi. Markaziy Osiyo va Kavkaz: “Bir kamar – bir yo‘l” va “O‘rta yo‘lak(koridor)” loyihalari doirasida Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalari muhim tranzit markazlariga aylanishi mumkin. Bu esa mintaqaning geosiyosiy ahamiyatini oshiradi. Hindiston bilan hamkorlikning kuchayishi, yangi iqtisodiy yo‘laklar yaratish rejalari muhokama qilindi. Bu YI va Hindiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Turkiya YI uchun noaniq omil bo‘lib qolmoqda. NATO doirasidagi hamkorlik: Turkiyaning AQSh bilan NATO doirasidagi hamkorligi YI uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, Turkiyaning mustaqil tashqi siyosati va Rossiya bilan yaqinlashuvi YIda xavotir uyg‘otmoqda.

So‘nggi yillarda AQSh va YI o‘rtasida turli diplomatik va iqtisodiy kelishmovchiliklar kuzatildi. Masalan, savdo tariflari, texnologik kompaniyalarga nisbatan soliqlar va

iqlim o‘zgarishi bo‘yicha kelishmovchiliklar mavjud. Bu ziddiyatlar transatlantik munosabatlarda taranglikka olib keldi.
Rossiyaning Ukraina sharqidagi harakatlari va Qrimning anneksiyasi YI va AQSh uchun jiddiy geosiyosiy muammo hisoblanadi. Bu masala xavfsizlik siyosatida hamkorlikni kuchaytirishga undaydi.

Xitoyning global iqtisodiy va harbiy qudratining o‘sishi AQSh va YI uchun yangi strategik chaqiriqlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, texnologik raqobat va inson huquqlari masalalari bo‘yicha pozitsiyalarni muvofiqlashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

Eronning yadroviy dasturi va mintaqadagi beqarorlik AQSh va YI uchun muhim tashvish manbai bo‘lib, bu masalalarda hamkorlik qilish ehtiyoji mavjud.
YI o‘zining mudofaa qobiliyatini mustaqil ravishda kuchaytirishga intilmoqda. Bu jarayon AQSh tomonidan turlicha qabul qilinmoqda: bir tomondan, Yevropaning o‘z xavfsizligini ta’minlashdagi rolini oshirish ijobiy baholansa, boshqa tomondan, NATO doirasidagi hamkorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida xavotirlar mavjud.

Umuman olganda, 61-Myunxen xavfsizlik konferensiyasi AQSh va YI o‘rtasidagi mavjud kelishmovchiliklarni ochiq muhokama qilish va yangi yo‘nalishlarni belgilash uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qildi. Bu jarayon transatlantik munosabatlarning yanada mustahkamlanishiga zamin yaratishi mumkin.

Konferensiyada ishtirokchilar global xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy masalalarni muhokama qildilar. Ukraina prezidenti Vladimir Zelenskiy o‘z mamlakatidagi urush yakuni istiqbollari bilan bog‘liq vaziyatni Yevropa liderlari bilan muhokama qilishni rejalashtirdi. Bu mintaqadagi barqarorlik va tinchlikni ta’minlash uchun xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi.

Konferensiya davomida AQSh va Yevropa Ittifoqi (YI) o‘rtasidagi hamkorlik strategiyalarida muhim o‘zgarishlar kuzatildi. Ikkala tomon ham global xavfsizlik masalalarida yaqin hamkorlik qilish, xususan, Rossiya va Xitoy bilan bog‘liq geosiyosiy muammolarni birgalikda hal etish zarurligini ta’kidladilar. Bu kelajakda transatlantik munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

61-Myunxen xavfsizlik konferensiyasi global xavfsizlik va transatlantik munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ishtirokchilar mintaqaviy mojarolarni hal qilishda diplomatik yondashuvlarni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xavfsizlik sohasidagi yangi tahdidlarga birgalikda javob berish zarurligini muhokama qildilar. Bu esa kelajakda global barqarorlik va tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

60-Myunxen xavfsizlik konferensiyasi AQSh va Yevropa Ittifoqi (YEI) o‘rtasidagi strategik farqlarni ochiq-oydin namoyon qildi. YEI tobora o‘z mustaqil tashqi siyosatini shakllantirishga harakat qilmoqda va AQSh ta’siridan chiqish yo‘lida qat’iyroq qadamlar tashlamoqda. Ushbu konferensiyada qabul qilingan qarorlar va bildirilgan pozitsiyalar 2025-yilda bo‘lib o‘tadigan 61-Myunxen konferensiyasida yanada muhim masalalarga aylanishi kutilmoqda.

- AQSh va YEI aloqalari zaiflashmoqda: AQSh Yevropa ishtirokisiz Rossiya bilan Ukrainaga oid muzokaralar boshlagani YEI davlatlarida norozilik uyg‘otdi.

- YEI tobora mustaqil tashqi siyosat yuritishga harakat qilmoqda: Xitoy, Eron, Afg‘oniston va Hindiston bilan hamkorlik rivojlantirilishi mumkin.

- Markaziy Osiyo va Kavkaz tranzit markazlariga aylanmoqda: “Bir kamar – bir yo‘l” va “O‘rta yo‘lak” loyihalari Yevropa va Osiyo aloqalarini mustahkamlashi mumkin.

- Hindiston bilan hamkorlik kuchaymoqda: Yangi savdo yo‘laklari rejalashtirilmoqda.

- Turkiyaning kelajakdagi roli mavhum: NATO doirasidagi hamkorlik AQSh bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Yevropa Ittifoqining mustaqillashish harakatlari AQSh va YEI o‘rtasidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirishi mumkin. NATOning kelajagi shubha ostida qolmoqda, chunki Yevropa o‘z harbiy salohiyatini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Xitoy va Hindiston kabi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar mustahkamlanayotgan bir paytda, AQShning Yevropa siyosatidagi ta’siri kamayishi kutilmoqda.

AQSh va YEI o‘rtasidagi tafovutlar chuqurlashishi mumkin. AQShning Ukrainaga yordam ajratish borasidagi sustkashligi Yevropani o‘z mudofaa tizimini mustahkamlashga majbur qilmoqda. YEI AQSh bilan harbiy hamkorlikni qayta ko‘rib chiqishi va NATOga bog‘liq bo‘lmagan xavfsizlik tizimini yaratishi mumkin.

AQSh va Rossiya o‘rtasidagi muzokaralar YEI ishtirokisiz davom etishi ehtimoli mavjud. YEI Rossiya bilan aloqalarni mustaqil ravishda rivojlantirishga harakat qilishi mumkin.

Xitoy va YEI o‘rtasidagi aloqalar kuchayishi mumkin. Yevropa Xitoy bilan bevosita hamkorlikni oshirishga harakat qiladi. “Bir kamar – bir yo‘l” va “O‘rta yo‘lak(koridor)” loyihalari orqali iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi. Xitoy Yevropaga AQSh ta’siridan chiqish uchun muhim hamkor sifatida qarashda davom etadi.

Hindiston “Hindiston-Yaqin Sharq-Yevropa iqtisodiy yo‘lagi” loyihasini rivojlantirishda yetakchi rol o‘ynashi mumkin.Yangi savdo va transport yo‘laklari ochilishi mumkin.

NATO kelajagi noma’lum bo‘lib qolmoqda. Yevropa o‘z harbiy tizimini yaratishga harakat qiladi. AQSh va YEI o‘rtasidagi ziddiyatlar NATO doirasidagi kelishmovchiliklarni kuchaytirishi mumkin. Turkiyaning roli mavhum bo‘lib qolmoqda: u NATOda qoladimi yoki o‘zining mustaqil harbiy siyosatini shakllantiradimi?

BMT rasmiylari Falastin davlati tashkil etilishi kerakligini ta’kidlayapti. Isroil-G‘azo mojarosi bo‘yicha YEI pozitsiyasi AQShdan farqli bo‘lishi mumkin. YEI Yaqin Sharq bilan bevosita muzokaralar olib borishga harakat qilishi mumkin.

Xulosa: 61-Myunxen konferensiyasi yangi global tartibni mustahkamlashi mumkin. 2025-yilda bo‘lib o‘tadigan 61-Myunxen konferensiyasi xalqaro siyosatdagi asosiy geosiyosiy burilish nuqtalaridan biri bo‘lishi kutilmoqda. AQSh va YEI o‘rtasidagi tafovutlar davom etsa, NATO zaiflashishi, Yevropa o‘z mustaqil harbiy va iqtisodiy strategiyasini shakllantirishi, Xitoy va Hindiston bilan yaqinlashishi mumkin.Agar bu tendensiyalar davom etsa, 61-Myunxen konferensiyasida quyidagi asosiy jarayonlar kuzatilishi mumkin. YEI mustaqil tashqi siyosat yuritish yo‘lida qat’iyroq qadamlar tashlaydi. Xitoy va Hindiston bilan strategik hamkorlik kuchayadi. Rossiya bilan yangi diplomatik yo‘nalishlar paydo bo‘lishi mumkin. NATO kelajagi yanada noaniq bo‘lib qoladi. Turkiya mustaqil tashqi siyosat yuritishga harakat qilishi mumkin. Yevropa va Yaqin Sharq o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi.

Bu jarayonlar natijasida AQSh va Yevropa o‘rtasidagi strategik ziddiyatlar yanada oshishi mumkin. NATOning mavjudligi va global siyosatda AQShning yetakchi roli shubha ostida qolmoqda. Kelgusi yillarda YEI va AQShning geosiyosiy pozitsiyalari qanchalik mos tushishi yoki farqlanishi 61-Myunxen konferensiyasida yanada aniq bo‘ladi. Yangi global tartib shakllanmoqda va Yevropa o‘z yo‘lini mustaqil ravishda belgilashga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ***https://daryo.uz/2025/03/12/yevropa-ittifoqi-aqsh-tovarlariga-28-milliard-dollar-qiymatidagi-bojlar-joriy-etdi***
2. ***https://daryo.uz/2025/02/25/makron-30-ta-davlat-ukrainaga-xavfsizlik-kafolatini-berishga-tayyor***
3. ***https://daryo.uz/2025/02/08/yevropa-ittifoqi-tramp-joriy-qilgan-tariflarga-tez-orada-javob-qaytaradi-olaf-shols***
4. ***https://daryo.uz/2025/02/26/aqsh-bilan-kelishuvda-ukraina-istagan-barcha-xavfsizlik-kafolatlari-yoq-zelenskiy***
5. ***https://daryo.uz/2025/03/03/ukraina-xavfsizlik-kafolatlari-evaziga-rossiyaga-hududiy-yon-bosishi-kerak-tramp-maslahatchisi***

М.Б. Бахтиёров – *ISFT - School of Finance Technology and Science International instituti талабаси*

ЖАҲОН СИЁСАТИДА ЮМШОҚ КУЧНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Маълумки, ҳарбий ва иқтисодий таъсир кўпинча бошқаларни ўз қарори ва позициясини ўзгартиришга қодир бўлади. Қаттиқ куч мажбурлаш ёки таҳдидларга таянади. Аммо, таҳдидларсиз ёки бадалсиз ҳам ўзингиз хоҳлаган натижаларга эришишингиз мумкин. Кўзлаган мақсадга эришишнинг билвосита йўли баъзан "кучнинг иккинчи юзи" деб ҳам аталади. Маълум бир давлат жаҳон сиёсатида бошқа мамлакатлар туфайли ўзи истаган натижаларга эриша олиши мумкин — бундай ҳолда бошқа давлатлар унинг қадриятларига тан беради, ундан ўрнак олиб, фаровонлик ва очиқлик даражасига интилади ҳамда унга эргашишни хоҳлайди. Шу маънода, жаҳон сиёсатидаги акторларнинг кун тартиби ва ҳаракатлари нафақат ҳарбий куч ёки иқтисодий санкциялар билан таҳдид қилиш орқали, балки истаган мақсадга эришиш учун юмшоқ кучни қўллаш билан ҳам belgilanadi.[1] Баъзан кўзланган мақсадларга кучнинг "юмшоқ" воситалари билан ҳам эришиш мумкин. Стратег Сун Сзи ўзининг ҳарб илми ҳақидаги таниқли "Уруш санъати" асарида ***"Ғалабанинг энг аъло-си юз марта жанг қилиб, юз марта ғалаба қозониш эмас, балки жанг қилмасдан ғолиб бўлишдир"***, деб айтган эди. Юмшоқ куч - бу ўз манфаатларини жозибадор ва мафтункор кўрсатиш натижасида бошқаларнинг манфаатларига айлантира олиш демак. Аслини олиб қаралганда юмшоқ куч қадимги мингйилликлардан бери мавжуд ва ўз шаклу шамоилини маълум асрларгагина йўқотган эди. Инсон онгли мавжудотга айланибдики, бири бири билан жозибалироқ ҳамда ўз манфаатларини устун қўйган ҳолда доимий равишда мулоқат қилиб келади. Сўнгги беш давомида юмшоқ куч оз бўлсада ўз

аҳамиятини йўқотган деб қараларди, аммо 1990-йилларга келиб америкалик таниқли сиёсатшунос, Гарвард ва Оксфорд университетлари профессори Жозеф Най фанга “Юмшоқ куч” атамасини фанга олиб кирди. У ўзининг “Юмшоқ куч” асарида Совуқ Уруш давридан кейинги жаҳон сиёсати ва халқаро муносабатларда юмшоқ куч стратегияларини қўллаш усуллари, унинг манбаалари, қаттиқ кучнинг ўзгарувчан табиати, бир қатор давлат ва нодавлат акторларнинг юмшоқ куч сиёсати, хусусан Америка Қўшма Штатлари мисолида юмшоқ кучнинг таъсири ва ролини атрофлича ёритиб берган.

Ҳозирги кунда жаҳон сиёсатида юмшоқ кучнинг қуйидаги асосий элеметлари мавжуд, булар: ***маданий, таълим ва илм-фан, иқтисодий шунингдек ахборот технологиялари ва оммавий ахборот воситалари*** .

Маданият — бу асосан давлатларнинг санъати, мусиқаси, кинолаир, адабиёти ва ўз миллий урф-одатлари орқали жаҳоннинг бошқа мамлакатларида ижобий кайфият уйғотиш ва унга таъсир ўтказиш доирасини кенгайтириш тушунилади.

Таълим ва илм-фан — халқаро университетлар, грант дастурлари, академик алмашинувлар орқали таъсир этиш хусусиятини ошириш ва ўз давлатига асосан ёш қатламни жалб этиш йўли билан етук кадрларни ўз мамлакатига жалб қилади.

Иқтисодий — бу юмшоқ куч ўз навбатида икки турга бўлинади. Биринчиси — хорижий давлатларга жозибадорлик билан ўз инвестицияларини киритиш. Иккинчидан — ўзининг тадбиркорлик ғоялари, арзон ишчи кучи ва хомашёлар билан таъсир ўтказиши деб қараш мумкин.

Жаҳон давлатларининг юмшоқ куч стратегиялари турлича. Масалан, АҚШ бугунги кунда дунёдаги энг кучли юмшоқ куч эгаларидан бири бўлиб келмоқда. Американинг жалб қилиш қобилияти яъни ГРЕЭН САРД кўплаб дунё аҳолисида ўзига қизқтириб келмоқда. Шу билан биргаликда Америка кино саноат (Ҳоллйwood), халқаро университетлар(Ҳарвард, МИТ, Яле), дунё миёсидаги нодавлат акторлар ва гобал технологик компаниялар(Google, Apple, Microsoft), шунинг билан биргаликда бугунги кунда барчамиз кенг фойдаланаётган ижтимоий тармоқлар(Х, Facebook, Instagram,) орқали бутун дунёда ўз маданий ва технологик таъсирини ўтказиб келмоқда.

Йигирманчи асрнинг сўнгги йигирма йиллигида Осиёнинг энг йирик давлати бўлган Хитойда йиллик ўсиш юқори бўлган. 7 фоиздан 9 фоизгача бўлган ставкалар ялпи ички маҳсулотининг уч баравар ошишига олиб келди ва унинг обрўси ҳамда юмшоқ кучини оширди. Шунга қарамай, ҳатто Хитойнинг ҳам узоқ йўли бор ва у ривожланиш йўлида кўплаб тўсиқларга дуч келмоқда. Йигирма биринчи асрнинг бошларида Америка иқтисодиёти Хитойникидан икки баравар катта эди. Сингапурлик шарҳловчининг таъкидлашича, "юмшоқ куч ҳақида гап кетганда, Хитойга АҚШнинг ҳозирги эришган ютуқларига яқин келиши учун кўпроқ вақт керак бўлади"[3] . Юқорида Жозеф Найнинг “Юмшоқ куч”(2003) асарида келтирилган Сингапурлик шарҳловчиларнинг бу қарашлари бугунга келиб ўзини оқламади. Бугунги кунга келиб Хитой ўзининг юмшоқ куч сиёсатида жуда ҳам илдамлаб бормоқда. Хитойнинг чет эл талабаларини жалб қилиш мақсадида ажратаётган гранд ва стипендия маблағлари мунтазам равишда ажратиб келмоқда. Шу билан биргаликда Хитой дунё автомобил ва технологик бозоридаги ўрни кундан кунга юқорилаб

бормоқда. Мисол қилиб айтганда, автомобил саноатида(БЙД, АИОН, ЛИ ауто, ЗЕЕКР), телефон бозорида(ХИОМИ, МИТО, ОППО) бугунги ютуқлари унинг жаҳон сиёсатидаги Юмшоқ кучини юқорилашига сабаб бўлмоқда.

Ўзбекистоннинг Юмшоқ куч сиёсати сўнгги йилларда сезиларли даражада фаоллашди. Юртимиз бу борада бир нечта асосий йўналишларга эътиборини қаратиб келмоқда. Ўзбекистон қадимдан цивилизация марказларидан бири ҳисобланади ва Самарқанд, Бухоро, Хива каби шаҳарлари ЮНЕСКО мероси рўйхатига кититилган[4]. 2019-йилда Ўзбекистон Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси ташкил қилиниб, халқаро миқёсда мамлакатга уюштирилаётган саёҳатлар сонини кўпайтиришни тарғиб қилишга эътибор қаратилди. Ўзбекистон ҳукумати Марказий Осиё мамлакатларидан талабаларни жалб қилиш ва стипендиялар ажратиш орқали мамлакатни минтақадаги таълим марказига айлантиришга интилмоқда. Ўзбекистон минтақавий интеграцияга катта эътибор қаратиб, Марказий Осиё давлатлари билан алоқаларни мустаҳкамлашга ҳаракат қилмоқда.

Ислом ҳамкорлик ташкилоти, Турк давлатлари ташкилоти, БМТ ва бошқа халқаро тузилмалар орқали фаол дипломатия олиб борилмоқда. 2021-йилнинг 23—24-июн кунлари Ўзбекистоннинг Қўқон шаҳрида Туркий кенгаш туризм вазирларининг ВИ йиғилиши ва Туризм бўйича ишчи гуруҳнинг ХВ йиғилиши ўтказилди[5]. 24-июн куни туризм соҳасидаги вазирларнинг йиғилишида Ўзбекистон Туризм ва спорт вазири Азиз Абдуҳакимов таклифига биноан Қўқон шаҳри Туркий кенгашнинг туризм пойтахти деб эълон қилинди[6].

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак бугунги кун жаҳон сиёсатида юмшоқ кучнинг ўрни тобора кучаймоқди, чунки дунё сиёсатчилари ҳамма ҳоҳиш-истакларга ҳам ҳарбий куч ва босим орқали етиб бўлмаслигини керакли даражада англаб етишди. Шунинг билан биргаликда ҳарбий куч биринчи навбатда инсонлар ҳаётига зомин бўлиши билан ҳам қораланади, кейинги навбатда бу давлатнинг истисодиётига бевосита таъсир қилади. Мен ишонч билан айта оламанки келажакда юмшоқ куч бу бутун бошли халқаро муносабатларнинг асосига айланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И фирст интродусед тҳис сонсепт ин Боунд то Леад: Тҳе Чангинг Натуре оф Америсан Повер (Нew Ёрк: Басис Боокс, 1990), чаптер 2. Ит буилдс он wҳат Петер Бачрач анд Мортон Баратз саллед тҳе "сесонд фасе оф {Bugun.uz} Сее тҳеир "Десисионс анд Нондесисионс: Ан Аналйтисал Фрамеворк," Америсан Политисал Ссиенсе Ревиеw (Септембер 1963), пп. 632-42

2. Жозеф Най. Юмшоқ куч[матн]. -Тошкент: “Траст анд Суппорт”, 2023. бб. 288-6

3. Буск Сонг, "Тҳе Триск тҳат Съпоре Миссед: Ит Ҳас Фаилед то Ҳарнесс Софт Повер," Тодай (Сингапоре), Аугуст 20, 2003, п. 28.

4. Mo‘minov Абдулхай, Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари, Т., 2003.

5. „O‘zbekistonda Туркий кенгаш туризм вазирларининг ВИ йиғилиши ўтказилади“. Bugun.uz. 2021-йил 24-июнда асл нусхадан архивланган. Қаралди: 2021 йил 11 июн.

6. „Qo‘qon шаҳрини Туркий кенгашнинг илк «Туризм пойтахти» сифатида номлаш таклиф қилинди“. Bugun.uz. 2021-йил 24-июнда асл нусхадан архивланган. Қаралди: 2021 йил 24 июн.

N.S. Sadiyev **–** *ISFT - School of Finance Technology and Science International instituti talabasi*

MADANIYATLAR GLOBALLASHUVI JARAYONIDA MILLIY O`ZLIKNI ANGLASHDAGI MUAMMOLARI

Globallashuv davrida milliy madaniyatga nnimalar bo`lyapti degan savolga javob berishdan avval milliy madaniyat tushunchasi mazmunini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo`lardi. Milliy madaniyat — bu muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, uning o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari, san’ati, adabiyoti, diniy e’tiqodi, qadriyatlari va an’analarini ifodalovchi tushuncha. U xalqning milliy o‘ziga xosligini belgilaydi va avloddan-avlodga o‘tib, doimiy rivojlanib boradi .Biz shunday bir zamonda yashayapmizki glaballashuv sharoitida yoshlarning ongi va tafakkurini o`zgartirishga qodir bo`lgan turli axbarot xurujlarining, g`oyalarning tobora chuqurlashib borayapti. Biz buni oldini olishga qanchalik harakat qilmaylikbuni to`xtata olmaymiz va tabiiyki nega ? degan savol tug`uladi, bunga sabab hozirgi kunda axbarot dunyosida yashayotgan ekanmiz turli xil kuchglar tashkilotlar, kampaniyalar davlatlar o`z foydasini ko`zlab boshqa davlat yoshlarini ongi va tafakkurini o`zgaradi va shu bilan birga o`z madaniyatini yoshlar orqali dunyoga yoyishga harakat qiladi. Buni amalga oshirishda kuchlar qanday yo`l tutadi ? bu uchun ular **“Yumshoq kuch”** siyosatini yuritishyapti Misol uchun” AQSHning XXI asr boshlarida tashqin siyosiy faoliyatiga e`tibor beramiz.ikkinchi jahon urushi yakunida Franklin Ruzvet Yevropada ilgari surgan “To`rt ozodlik”g`oyasining ta`sirini eslaylik: uning natijasi o`laroq Yevropa yoshlari “temir pardalar” ortida turib “Ozod Yevropa” radiosi orqali Amerika musiqasi va yangiliklarini tinglaganligi, Xitoylik talabalar Tyan-men maydonidagi noroziliklarning ramzi sifatida aynan Ozodlik haykali namunasi yaratishgani, 2001-yilda ozod afg`onlar “Huqular to`g`risidagi Bill”ning nusxasini so`rab murojaat qilgani, Eron yoshlari Amerikada ta`qiqlangan videolarini, ko`rsatuvlarini tomosha qilayotganini[1] ko`rib,bularning barchasi Amerikaning yumshoq kuchiga yorqin misollar hisoblanadi” bular yuqoridagi **“Yumshoq kuch”**siyosatiga misol bo`la oladi. Amerikalik siyosatshunos Zbignev[2] Bjezinskiy o`tgan asrning oxiridayoq taraqqiyotga ta`sir etayotgan kuchlar, hodisa, va jarayonlar to`g`risida to`xtalib, madaniy ustunlik Amerika global kuch qudratining muhum jihati sanalishiga e`tiborini qaratadi. Ayrimlat o`zining estetik qadriyatlari haqida nimalar o`ylamasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, dunyo yoshlarini ohangrabo kabi p`ziga tortadi. Amerikaning televezion dasturlari va filmlari jahon bozorining qarib to`rtdan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari va hatto kiyinishiga butun dunyo taqlid qiladi, deb hisoblaydi. Bu bilan aniq maqsadlar, reja va dasturlar asosida amerikacha madaniyat gegemoniyasi targ`ib qilinayotganini ta`kidlaydi. Bu tendensiya hozirgi

kungacha davom etib kelayotganini kuzatish mumkun. Aslida, madaniyat inson bunyodkor faoliyatining ichki mazmunini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, inson faoliyatining asosiy mazmuni o‘zini erkin, yaratuvchan ijodkor shaxs sifatida namoyon etish, insoniylik dunyosini yaratish va shu asosda olamni ham insoniylashtirishdan iboratdir. Shunday ekan, iste’molchilik kayfiyatining o‘zagini tashkil etgan “ommaviy madaniyat” haqiqiy madaniyatning mohiyatiga zid va yotdir. U insonning ma’naviy dunyosini buzadigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. “Ommaviy madaniyat” milliy madaniyatlarning kushandasi bo‘lib, u madaniy xilma-xillikni xushlamaydi, uning asl maqsadi – bu olamni bir xil rangda ko‘rish. Ommaviy madaniyat ssenariysining asosiy “muallifi” sanalgan AQSHda madaniyatlar uyg‘unligi orqali millatlar o‘rtasidagi tafovut “devori”ni yiqitish borasida to‘plangan boy tajriba shundan dalolat beradi. Garchi ommaviy madaniyat okean ortida yagona davlat shakllanishida qo‘l kelgan bo‘lsada, bugunga kelib uning G‘arbda yuz berayotgan axloqiy tanazzulning muqaddimasi ekani ham ayonlashdi. So‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida “ommaviy madaniyat” o‘sha jamiyatlarni sun’iy, soxta ideallar bilan chalg‘itibgina qolmay, odamzot uchun muqaddas bo‘lgan tabiiy juftlikni ham inkor etdi, g‘ayriinsoniy axloq va munosabatlarni qonuniylashtirdi va buni, demokratiyaning oliy namunasi deya ko‘z-ko‘z qildi. Ommaviy madaniyatning shiddat bilan rivojlanishida tijorat qoidalari ham kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Har qanday zamon va makonda barcha narsalardan foyda ko‘rishga tayyor dastyorlar topilishi uzoqni ko‘zlab zimdan ish ko‘ruvchi ommaviy madaniyatchilarning mushkulini oson qiladi, ishini jadallashtiradi. Bunday mol-dunyoga sig‘inuvchi dastyorlar faqat bugunni, yana ham aniqrog‘i hozirni ko‘radi va tan oladi. Shuning uchun, o‘sib kelayotgan avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlarga, asl madaniyat durdonalariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda ommaviy madaniyatga xos ayrim ko‘rinishlarga tanqidiy munosabatni, aksilmadaniyatga, turli buzg‘unchi g‘oyalar va axborotlarga nisbatan g‘oyaviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy madaniyat olim va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilmoqda. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin: 1 Ommaviy madaniyat – xalq madaniyati, urf-odatlari, marosimlari, san’ati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha. 2. Ommaviy madaniyat OAV rivoji bilan bog‘liq hodisa. 3. Ommaviy ishlab chiqarish, “ko‘ngilochar industriya” tomonidan yaratilgan, omma iste’moliga mo‘ljallangan madaniyatning siyqalashtirilgan namunalari ko‘rinishidagi salbiy hodisa. Bugungi kunda ommaviy madaniyat madaniy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biriga aylangan. Iste’molchilik kayfiyati o‘zagini tashkil etgan ommaviy madaniyat asl kishilik madaniyatiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini buzadigan va oxir-oqibat insonni jon saqlashdan o‘zga maqsadi bo‘lmagan jonzot, hayvon darajasiga tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Bugungi kunda OAV, TV madaniyatni ommalashtirishning asosiy vositasi va manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu, avvalo, odamlarning qayg‘u va xursandchiligini ifodalagan, ularni qiziqtirgan har qanday muammoni tovarga, bir qolipga solingan ko‘ngilxushlikka aylantirilishida namoyon bo‘ladi. Globallashuv jarayonlari va uning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ommaviy madaniyat ekspansiyasi ta’sirida qadriyatlar tizimida sodir bo‘ladigan tub o‘zgarishlar “ijtimoiy mavjudot” hisoblangan insonda muayyan o‘zgarishlarni

keltirib chiqaradi, inson va jamiyat ma’naviy-axloqiy tayanchlaridan mahrum etiladi, jamiyat inqirozga uchraydi.[3]

Globallashuv bu (barcha ma`noda)- hayot sureatlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir, har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo`lganidek, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas hozirgi paytda uning keng bqamrovli ta`sirini deyarli barcha sohalarda ko`rish mumkin. Ayniqsa davlatlar va xalqalar o`rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, komunikatsiya va axbarot terxnalogiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsonioy negizda uyg`unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kashf etishi, ekologik ofarlar paytida o`zaro yordam ko`rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda. *Madaniyatlar globallashuvi deganda*: dunyo hozirgi kunga qadar juda ko`p bor katta qurolli va qonli urushlarni ko`rdi. Hozirgi kunda bo`layotgan voqealardan kelib chiqsak biznimoldinda qurolli urushlar emas balki madaniyatlar urushi kutib turibdi balki boshlanib ham bo`lgandir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samuel Jozef Nay-"Yumshoq kuch"12bet
2. Website: econfereceseries.com "Procedings of International Conference on scientific Reaearch in Natural and Social ciences"
3. oyina.uz/uz/teahause/2156

6-SHO‘BA: MILLIY XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TIZIMLI TAHLILI VA PROGNOZLASHTIRISH

М. Сайидов *– Жиззах давлат педагогика унверситети доценти, ф.ф.н.*

ЮСУФ ХОС ХОЖИБ МЕРОСИДА МИЛЛИЙ ХАВФСИЗЛИК МУАММОСИ

Ўзбекистон Ресубликасининг Президенти Шавкат Мирзиёев тамони дан илгари сурилиб амалга оширилаётган “2017 -2021 йилларда Ўзбекис тон Респебликасини ривожлантиришнинг бешта устивор йналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”нинг бешинчи йўналиши **миллий хавфсизлик- ни таъминлаш** ташкил қилади.Бу борада қатор ва муҳим ишлар амалга оширилмоқда, лекин муаммо бўйича **илмий –тадқиқот** ишлари жонланиб кетганича йўқ. Вахоланки, ҳозирги кунга қадар терроризм, диний экстри- мизм ва радикализим таҳдидлари ҳамон сақланиб турибди.

Миллий хавфсизлик – бу шахс, жамият ва давлат учун тинч ва осойиш та ҳаёт таъминланишидир. Шу жиҳатдан миллий хавфсизликни таъминлаш бўйича қадим аждодларимиз меросини ўрганиш ва давлатчилигимиз тажри баларини ўзлаштириш муҳим ахамиятга эга. Бу борада айниқса, мутафак - кирларимиз қарашлари ва тавсиялари жуда қизиқарлидир. Чунки, эл - улус ва давлат хизматида фидойилик кўрсатиб, ўзларининг тажрибаларини ёзиб қолдиришган. Бу меросларни ўрганиш долзарб бўлиб турибди. Айниқса, ўқ иш эмас уқиш долзарблигича қолмоқда. Шуниси эътиборлики, миллий хав фсизлик масаласи барча замонларда сағлом фикрли ва фидоий шахсларни безавта қилиб келган.Ана шундай шахслардан бири, Юсуф Хос Хожибдир. Унинг 1069 йили туркий тилда яратилган “Қутадғу билиг” (Бахтга элтувчи билим) асари ўз даврида Шарқу Ғарба донг таратган. [3,48] Асарда милл- ий хавфсизлик масаласига доир ўзига хос кенцептуал қарашлар ҳам илгари сурилган. Бу қарашлар юртнинг содиқ бир фарзанди ва давлат арбоби (У Қорахонийлар давлатининг “хос хожиби”- давлат котиби) томонидан баён қилинганлиги билан диққатни тортади. Юсуф Хос Хожиб “миллий хавф сизлик” тушунчасини қадимги туркий тилдаги **тўру –тўрулик** атамаси билан ифодалайди. (Подшо Элиг фаолиятига баҳо бериб) шундай дейди:

Халқ бойиди, эли яшнади,
Халқ тили Элигни дуо қилди.
Халқ бахтиёр бўлди, мушкул – машаққатлари кетди,
Қўзи билан бўри аралашиб юрди.
Эли яшнади, адолатли сиёсат тузилди,
Элигнинг давлати кундан – кунга зиёда бўлди.[3,206]

“Тўру” сўзи тартиб, интизом, қонун, адолат ва сиёсат маъноларини анг латади.[3,106] Шу маънода туркийча **тўрулик атамаси** миллий хавфсизлик тушунчасини ифодалайди ва унинг негизини халқ, инсоният, жамият ҳамда давлатда тартиб, меъёр, интизом, қонун ва адолатни ўрнатиш каби маънолар ташкил қилади. Бундан ташқари “будун” бир давлатга уюшган фуқоролар, жамият; “эл” жамиятнинг фаол аъзолари ва “давлат” эса қут, яъни бахт ва

форовонлик манбаи бўлган бирлашмадир. Шу маънода тўруга амал қилиш яъни миллий хавфсизликни таъминлаш халқни бадавлат ва давлатини қудратли қилади. Негаки миллий хавфсизлик – бу ҳимоя, мухафаза ва имкониятдир. Юсуф Хос Хожиб миллий хавфсизлик тушунчасини ана шундай тушунади.

Мутафаккир "миллийлик" тушунчасини "бутунлиқ" халқчиллик, туркийлик атамаси билан ифодалайди. Унинг фикрича, миллийлик давлат бошлиғи (Хоқон) да мужассам бўлади ва шу сабабли ўз хоқони Улуғ Буғрохонни (вафоти 1103 йил) "милллат тожи, давлат таянчи ва дин шавкати" деб атай ди. [3,76]. Демак, миллийлик - миллат, давлат ва жамият учун таянч катего риядир. Шу сабабли инсон ҳаёти, давлат ва жамият ривожи учун миллий хавфсизликни таъминлаш тақозо этилади.

Юсуф Хос Хожибнинг фикрича, миллий хавфсизлик "давлатни севувчи ларни соғ – омон тутишга ва ёвларни эса ўртадан кўтаришга асосланади" [3,78] Бу оддий ҳақиқатни идрок қилиб олиш керак.Чунки давлатда турли ижтимоий гуруҳ ва тоифаларга мансуб кўплаб одамлар яшайди, лекин улар давлат ва жамиятга мансуб бўлган муносабатига кўра фарқланади. Аслида бу инсоннинг табиатидан келиб чиқади.

Бу янглуқ [яъни инсон] номи янглуқ [яъни хато] учун бўлди,

Бу янглуқ [яъни хато] учун у янглуқ [яъни инсон] аталди. [3,90]

Инсон табиатида хато ва качиликка йўл қўйиш хусусияти бўлганлиги учун хавфсизликни таъинлашга эхтиёж сезилади. Бу хато ва камчиликларнинг асосийлари мутафаккир назарида, қуйидагилар: 1) кўп ҳолларда ёлғон сўзлаш; 2) сўзини устидан чиқмаслик; 3) ичкиликка берилиш; 4) меъёрдан ошиш; 5) тубан хулқли бўлиш; 6) дарғазаб юриш ва хакозо [3,110]. Инсон табиатига хос бўлган бу ижтимоий иллатлар яшовчан бўлиб қолаётганлиги учун ҳам миллий хавфсизликни таъминлаш заруриятини келтириб чиқаради.

Юсуф Хос Хожибнинг наздида, давлат хавсизлигини таъминлаш миллий хавфсизликнинг асосий ва муҳим таркибий қисмидир. Бунинг учун "**эдгу тўру"**, яъни инсоний тартиб – интизомга асосан давлат бошқаруви **сиёсати** олиб борилиши керак.[3,100]. Қадимги туркиий давлатлар бошлиқлари шундай йўл тутишар эди:

Сиёсат қилур эрди ҳиммат била

Бу ҳиммат ярашур сиёсат била [3,120].

"Ҳиммат" – бу мурувватлик, олийжаноблик, мардлик, тантилик, сахийлик, қўли очиқлик, ҳаракатчанлик, улуғворлик, бағрикенглик ва буюклик демак дир. "Ҳимматли кишилар ҳар қандай вазиятда ҳам эл форовонлиги учун қайғуради "[3,751] .Давлат хавфсизлигини таъминлашда ана шундай сифат, хусусият ва меъёрларга асосланган сиёсат юритиши лозим бўлади. Диққат қилиса, бу ёндошувда зўравонлик, куч ишлатиш ёки қўрқувга солиш йўқ. Негаки, мутафаккир фикрича, давлат, жамият ва райият (фуқоролар) бир – бирини тақозо этувчи омиллардир. Бу уч бирлик ўртасида **Якдиллик, Ҳамкорлик ва Бағрикенглик** бўлиши шарт. Шу сабабли бу ўринда **Ҳиммат** категорияси мазкур масалани рўёбга чиқарувчи омил ҳисобланади.

Зеъро, Юсуф Хос Хожибнинг фикрича, давлат хавфсизлигини таъминлашда қуйидаги икки нарса муҳим асос ҳисобланади:

1) Оқилона давлат қурилиши;

2) Эзгу тўруга асосланган давлат бошқаруви сиёсати;

Давлат қурилиши масаласида мутафаккир давлат бошлиғи (бег), вазир, Қўмондон (су башлар), давлат котиби (улуғ хожиб), Элчи (яловач) ва Молия вазири (ағичи) давлат бошқаруви органларининг ахамиятини алохида таъкид лаб кўрсатади. [3,326-449].Бу давлат бошқаруви органлари давлат хавфсизли гини таъминлашда асосий таянч ҳисобланади. Бунинг учун уларга **энг муно сиб** кадрлар тайинланиши керак. Мисол учун, Юсуф Хос Хожиб *Бош вазир (вазир*) номзодига қуйидаги талабларни қўяди:1) ақл – идроклик ва довюрак лик; 2) уқувлик ва билимдонлик; 3) зийраклик ва тадбиркорлик; 4) эътикодли лик ва поклик каби [3,252]; *Қўмондонга* (У мудофаа вазири вазифасини ҳам бажарган – М.С.) қуйидаги талаблар: 1) стратегик билимга эгалик; 2) мард лик ва саховатлилик; 3) уруш ва тинчликни фарқлай олишлик; 4) тактик етуклик ва ҳокоза [3,374]; ёки *Элчига* (у Ташқи ишлар вазири вазифасини ҳам бажарган – М.С) қўйиладиган талаблар: 1) уқувлик ва хотиржамлик; 2)нотиқ лик ва фаросатлилик; 3) садоқатлилик ва кўзи тўқлик; 4) ичмаслик ва анди шалилик ва ҳокоза [3,418] Демак, давлат хавсизлигини таъминлаш ихчам ва таъсир кучига эга давлат қурилиши ҳамда давлат бошқаруви органларига оқил кадрларнинг тайинланиши масаласига эътибор бериш муҳим ахамиятга эга. Бу ёндошув бугун ҳам ўз долзарблигича қолмоқда.

Таъкидлаш лозимки, Юсуф Хос Хожиб давлат хавфсизлигини таъминлашда таъсир кучига эга (“силовой структура”) давлат бошқарув органларининг ролига эътиборни қаратади. Бироқ, бу органлар учун куч ишла- тиш сиёсатини бирламчи асос сифатида кўрсатмайди. Шу сабабли у мазкур давлат бошқаруви органларига муносиб кадрларни танлаш ва тайинлаш масаласига асосий эътиборни қаратади. Бу борада у кадрларда икки ижти- моий иллатнинг бўлмаслигини орзу қилади: 1) мансабпараслик; 2) нафс қутқусига берилиш (суқ кўзлик). Шу сабабли у дейди:

Ҳақиқатан тугал бой бўлайин десанг,

Кўнгил бойлигини қил, эй жувонмард.[3,420].

“Кўнгил бойлиги” – бу етарли даражада билимга эга бўлиш натижасидаги ёндашув, ахлоқ, муносабат ва фаолиятда меъёрга риоя қилишдир.

Эзгу тўруга, яъни тартиб – интизомга асосланган давлат бошқаруви сиёсати давлат хавфсизлигини таъминлашдаги иккинчи муҳим асосдир. Бу масалада мутафаккир дейди:

Қилич олди – бердиси [яъни қилич билан шуғулланиш] халқни тузатади,
Қалам олди – бердиси [яъни қаламкашлик] эзгу йўл- йўриқлар тузади.

Мазкур ўринда миллий давлаттчилигимиз тадрижида яшовчан бўлиб келаётган **Қилич ва қалам коцепцияси** ифодаланган. Унга кўра, сўнги чора сифатида куч ишлатиш “**қилич”** халқни давлатга бирлаштириб, юксак мақсад –муддаоларга йўналтиради ва исталмаган муаммоларнинг олдини олади. Мисол учун, уюшган жиноятчиликка чек қўйиш учун албатта қилич зарур бўлади. Аммо, оқилона давлат бошқаруви сиёсатида “**қалам”**кучи билан ҳам давлатда муносиб тартиб – интизом ўрнтилади. Бу биринчи омилдан кучлидир. Мутафаккирнинг фикрича, оқил давлат бошқаруви ходимлари ва уларнинг доно маслаҳатчилари “**қалам” сиёсати** йўлини хуш кўрадилар [3,100].

Юсуф Хос Хожиб давлат хавфсизлигини таъминлаш учун давлат бошқаруви кадрлари Ҳушёр ва Сергак бўлишини (“уқуғлиқ ва сақлиқ”) ҳамда Ғофил ва Хотиржам бўлмаслигини (“ўсаллиқ ва эминлиқ”) алоҳида таъкидлайди [3,124]. Негаки ёв ва зўравон кучлар ҳамиша Ғофил ва хотиржамликдан фойдаланиб қолади.[3,124]. Савол туғилади: давлат хавфсизлигини талаб даражасида таъминлаш учун бошқарув кадрлари Ҳушёр ва Сергак бўлишига ҳамда Ғофил ва Хотиржам бўлмаслигига нима асос бўлади? Мутафаккирнинг фикрича, бу асос иккитадир: 1) давлат бошқаруви кадрлари маънавий ва жисмоний соғлом бўлиши керак; 2) бу тоифа ходимлари етарли даражада моддий таъминланган бўлиши лозим [3,128].

Шундай қилиб Юсуф Хос Хожиб давлат хавфсизлигини таъминлашнинг асоси сифатида **оқилона давлат қурилиши ва адолатли давлат бошқар- уви** принциплари деб кўрсатади

Юсуф Хос Хожиб “жамият” тушунчасини туркийча “будун бирлиги” тушунчаси билан ифодалайди. [3,646]. Унга кўра, будун биринчи – жуда кўп уруғлар ва қабилалардан иборат бўлган туркий халқнинг ягона давлат воситасида ҳамда турли ижтимоий тоифалар асосида жамоа бўлиб бирлашувидир. Шу жиҳатдан мутафаккир жамиятнинг ўн икки ижтимоий тоифасини тавсифлаб кўрсатади [3,648-668]. Бу ижтимоий тоифалар негизини деҳқонлар (тарғизилар), садогарлар (сатиғчилар), чорвадорлар (ичдишчилар) ва ҳунармандлар (узлар) ташкил қилади.Унинг фикрича, жамият аъзоларининг “билими, уқуви ва феъл- атвори турлича бўлади” [3,646]. Шу сабабли жамиятда хавфсизликни таъминлаш учун унинг аъзоларининг савияси, ижтимиоий ҳолати, мавқейи ва касб – кори ҳисобга олиниши керак. Бундан ташақари, жамият аъзолари кўп ҳолларда “тўруни, яъни тартиб – интизом ва қоидаларни бузишга моил бўлади”[3,646]. Демак, жамиятда хавфсизлакни таъминлаш учун қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

1) Фуқароларнинг (“будун”) моддий таъминотига эътибор бериш;

2) Уларга нисбатан мўътадил (“йумшақ”) муносабатда бўлиш [3,646].

Меъёрдан ортик юмшоқлик ва муносабатда қаттиққўллик жамият хавф сизлигига рахна солувчи омиллардир. Мутафаккир бу масалани теран тушунади ва шу сабабли ижтимоий тоифалар касб – коридан келадиган манфаатдорликни ошириб бориш кераклигига урғу беради [3,666].

Ўз ишин қилсалар, иш ҳақларин бер,

Едиргин , ичиргин, рисқини мўл бер.

Мисол учун, Юсуф Хос Хожиб жамиятнинг ночор тоифаси камбағаллар ҳақида алоҳида тўхталади. Таъкидлаш лозимки, унинг наздида камбағал (“чиғай” – бу топгани ейиш, ичиш ва кийиш учун бир кеча – кундузга етмайдиган кишидир. Шу сабабли бу тоифа кишиларидан “ҳеч нарса истамаслик лозим, улар фақат дуо қилиш имкониятига эгалар ва натижада уларнинг эвазига Худо (“Байат”- мутлоқ бой зот) беради.”[3,668]. Худонинг бериши лоакал жамиятда Тинчлик, Тотувлик, Осойишталик ва Биродарликнинг сақланишида номаён бўлади.

Зеро, мутафаккирнинг фикрича, жамиятда хавфсизликни таъминлаш омилида тўрт принцип муҳим ўрин тутади:

1) Тўру – тартиб – интизом , қонунийлик , адолат;

2) Қут – бахт, фаровонлик, осойишталик;

3) Уқиш – уқув, заковат, идрок;

4) Офият – қаноат,сабр, тоқат [3,112].

Давлат ва жамият бошқарувида бу тўрт принципга амал қилиш жамиятда талаб даражасида хавфсизликни таъмилашга олиб келади. Бу “зулматдан ёруғликка”, яъни онгсизликдан онглиликка чиқишдир.[3,116].

Шундай қилиб Юсуф Хос Хожиб Инсоният хавфсизлигини таъминлаш омиллари сифатида Қонунийлик,Форовонлик,Уқувлик ва Қаноатни кўрсатади.

Юсуф Хос Хожиб тажрибали давлат арбоби ва мутафакир сифатида миллий хавфсизликни таъминлаш масаласида ўзига хос қарашларга эга бўлган. Мазкур қарашларга миллий ўзига хослик, прагматиклик асосга эгалик ва йўналиш беришлилик хусусиятлари хос. У давлат, жамият ва сиёсатнинг мазмун - моҳиятини, ўтмиш, бугун ва келажакни теран идрок қилади. Мутафаккир инсон ҳаёти, давлат ва жамиятда миллий хавфсизликни куч ишлатиш йўли билан амалга оширишни инкор этади. Аксинча, унинг йўли қонун асосида таъсир кўрсатиш, адолатли сиёсат, давлат бошқаруви органларининг фаоллиги ва бошқарув кадрларининг инсоний муносабатидан иборат билади.

Миллий хавфсизлик муаммоларини ҳал этишда Юсуф Хос Хожиб каби мутафаккир ва давлат арбобларининг тажрибалари, назарий ва амалий тавсияларига эътибор қаратиш кутилган самараларни бериши шубҳасиз. Бундай тарихий мерос дунёнинг кўпгина мамлакатларида йўқлиги билан ҳам аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Мирзиёев Ш.М.2017- 2021йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлан тиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Т. Маънавият 2017

2.Каримов И.А. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак.- Т.; Ўзбекистон. 2013.

3. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. – Т.: ФАН. 1971.

4.Ёқубов А. “Қутадғу билиг”да давлатчилик концепцияси.- Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.1997.

5.Сайидов М. Юсуф Хос Хожибнинг ўрта аср маданияти тарихида тутган ўрни- Т.: Навруз.2013.

6. Древней тюрский словарь. – М.: ИПЛ.1960.

7. Национальной безопасности: совраменньй вызов. Сборник.- М.:РАГС.2007.

8. Маънавият: асосий тушунчалар. Изоҳли луғат.- Т.: Ғ.Ғулом .2010.

9. Мир философии. Часть. 2 .- М.: ИМЛ.1990.

A.G‘. Mahmudov *- Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti magistranti*

MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY XAVSIZLIK VA MINTAQAVIY XAVSIZLIK MUSTAHKAMLASH BORASIDA O‘ZBEKISTONNING TASHABBUSLARI

Kirish: **So‘ngi** yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy xavfsizlikni aynan hamkorlik yo‘li bilan mustahkamlash yo‘lida keng ko‘lamli tashabbuslar ilgari surib kelinmoqda. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik, ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish yaqin va o‘rta muddatli strategiyada tashqi siyosatimizning ustuvor vazifasi sifatida qayd etilganligi ham ushbu masalaning eng muhim tadbirlardan ekanligini isbotlashi mumkin.

Asosiy qism: Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solayotgan bir necha omillar mavjud. Bu omillarni shartli ravishda bir necha bloklarga ajratishimiz mumkin.

Birinchidan, oxirgi yillarda mintaqa davlatlari o‘rtasida muammoni hal etish bo‘yicha yaxshi natijalarga erishilganiga qaramay to‘liq hal etilmagan chegara muammolari mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin;

Ikkinchidan, energiya resurslari, suv uchun raqobat bilan bog‘liq muammolar. Xususan, transchegaraviy daryolar hisoblangan Amudaryo va Sirdaryo o‘zanlarida Tojikistonda Rog‘un GES hamda Qirg‘izistonda Qambarota GESlarining qurilayotgani ayniqsa O‘zbekiston va Qozog‘istonni tashvishga soladi, chunki bu davlatlar uchun tashqi suv resurslari suv va havodek zarur, yuqoridagi holat suvning hajmini kamaytirishi turgan gap;

Uchinchidan, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik muammosi hali ham ahamiyatlidir. Afg‘oniston dunyodagi eng yirik giyohvand modda ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvandlik va Jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) 2024-yil 6-noyabr kuni e’lon qilgan hisobotga ko‘ra, “Tolibon” tomonidan joriy etilgan taqiqga qaramay, 2024-yilda Afg‘onistonda opium ishlab chiqarish 19 foizga oshgan.[253] U yerdan Markaziy Osiyo orqali Rossiya va Yevropaga yo‘naltiriladigan narkotrafik xavfsizlikka jiddiy tahdid tug‘dirmoqda. Bizga yaxshi ma’lumki giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi mintaqada jinoyatchilikni kuchaytirib, korrupsiyani rivojlantiradi va xavfsizlik xizmatlarining zaiflashishiga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ma’lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi geografik joylashuvi nuqtai nazaridan ham ijobiy, ham salbiy jihatlarga ega. Bir tomondan, savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu iqtisodiy nuqtai nazardan juda foydali. Boshqa tomondan esa, ushbu davlatlarning hududi janubiy va janubiy-g‘arbda biroz beqaror mamlakatlar - Afg‘oniston, Eron va Pokiston bilan, ikkinchi tomondan qudratli qo‘shnilar - shimolda Rossiya, sharqda Xitoyning o‘rtasida joylashgan.

Yuqoridagi geografik joylashuvimizdan kelib chiqadigan muammolardan yana biri, mintaqada ilgari unchalik sezilmagan, mustaqqillik qo‘lga kiritilishi bilan o‘rtaga

[253] BMT Giyohvandlik va Jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) (2024). Afg‘onistonda opium ishlab chiqarish 2024-yilda 19 foizga oshdi . 6-noyabr 2024-yil. Manba: https://news.un.org/ru/story/2024/11/1458076

chiqqan geostrategik muammo mintaqaning geografik izolyasiyasi yanada aniq namoyon bo‘ldi, ya’ni mintaqa jahon siyosiy va iqtisodiy oqimlari bo‘ylab joylashgan xalqaro suv yo‘llariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli ham, Markaziy Osiyo davlatlari o‘zlarining geosiyosiy mavqelarini saqlagan holda, bir tomondan, nafaqat qudratli qo‘shnilari (Rossiya, Xitoy) bilan ham hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga, boshqa tomondan, jahon bozoriga chiqishning yangi yo‘llarini topishga intilmoqda.

Beshinchidan, Mintaqadagi ba‘zi kuchlar tomonidan ishonchsizlik ruhini avj oldirish va bundan o‘z manfaatlari uchun foydalanish, raqobatni keltirib chiqarish orqali o‘zining ta’sirini kuchaytirish uchun harakatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘zlangan eng katta mqasadlardan biri albatta mintaqa davlatlaring tarqoqligidir va bu narsa mintaqani zaiflashtirib, birlashish istiqbollaridan mahrum etar, mintaqa salohiyatini mushtarak manfaatlar yo‘lida ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilar edi. Bu albatta mintaqa uchun katta xavf edi, chunki hozirgi tahlikali va murakkab zamonda Markaziy Osiyo dunyoga yagona kuch, bir tan-u bir jon sifatida bo‘y ko‘rsatish orqali xalqaro maydonda o‘z fuqorolari manfaatlarini mustaqil, to‘liq ilgari surishi mumkin.

Yuqoridagi tahdidlarni o‘rganib, xulosa qilish mumkinki mintaqaviy hamkorlik orqali bu tahdidlarni bartaraf etish mumkin.Bu albatta,mintaqa davlat raxbarlari tomonidan yaxshi anglab yetilgan va bu yo‘lda allaqachon harakatlar boshlangan.

Oxirgi yillarda global arenada keskinliklarning oshishi, qurolli mojarolarning keskinlashuvi mintaqaning barqarorligi va izchil rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Shu munosabat bilan mintaqaning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekiston ham birinchi navbatda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash mintaqada xavfsizlik va barqaror taraqqiyotning asosiy sharti ekanligini anglab yetdi. Xususan bu haqida prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning mintaqaviy darajadagi ahamiyati xususida to‘xtalganimizda quyidagilarga guvoh bo’lish mumkin. Taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarda Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida yaqin qardoshlikni qadrlash, qo‘shni mamlakatlar bilan manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishish bo‘yicha muhim vazifalarga alohida e’tibor qaratilganligi ham yuqoridagi fikrimizning isbotidir[254].Xususan, bu strategiyada quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

“Mintaqamiz davlatlari bilan ochiq, o‘zaro manfaatli va yaqin hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash - tashqi siyosatimizning eng asosiy ustuvor yo‘nalishidir.”

Biz o‘tgan davrda “O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo - bosh ustuvor yo‘nalish” tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Mushtarak siyosiy irodamiz va birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz natijasida mintaqamiz yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro manfaatli hamkorlik hamda barqaror rivojlanish makoniga aylanib bormoqda.[255]

Mintaqaviy hamkorlik xususida oxirgi O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar haqida quyidagilarni qayd etish mumkin:

2017-yil 11-avgust kuni Toshkentda tashkil etilgan “Markaziy Osiyo – O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi” mavzusidagi xalqaro

[254] http://pravacheloveka.uz/oz/articles/a8099

[255] Mirziyoev Sh.M. M 54 Yangi O’zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b. ISBN 978-9943-6992-3-6

konferensiyada mintaqa uchun dolzarb bo‘lgan masalalar keng muhokama qilindi. Unda O‘zbekiston va qo‘shni davlatlarning zamonaviy mintaqaviy siyosati, ularning qarashlari hamda yondashuvlarining turli jihatlari atroflicha tahlil etildi.[256]

2017-yilning 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix vaumumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuidagi xalqaro konferensiya va bu konferensiyada ilgari surilgan Davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari g‘oyasi juda ahamiyatlidir.

Markaziy Osiyoda oxirgi yillarda birdamlik, hamkorlikni mustahkamlashga qo‘yilgan qadamlar orasida alohida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan igari surilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari tashabbusini qayd etish lozim. 2018-yilda Ostona shahrida ilk bor o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlaridir *(MODRMU) . Birinchi* uchrashuvdan buyon o‘tgan davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari katta yo‘lni bosib o‘tganini ko‘rish mumkin. Bunday uchrashuvlar har yili o‘tkazib kelinmoqda.

BMT Bosh Assambleyasining 2018-yilning 22-iyun kunidagi yalpi majlisida “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyusiyasi qabul qilindi.Bu rezolyutsiyaga Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mintaqasining 55 ta davlatlari hammualliflik qilishdi.

Mintaqaviy hamkorlikda tashkil etilgan afg‘on muammosiga bag‘ishlangan “C5+1” kabi muloqot guruhlari O’zbekison tashabbusi bilan amalga oshirilgan.

Atiga, yetti yil avvalga nazar solsak chegaralar deyarli to‘liq yopilgan, chegara hududlaridagi mojarolar va minalangan dalalarga, transport blokadalariga, savdo sohasida o’rnatilgan baland to‘siqlarga guvoh bo’lish mumkin edi. Ayniqsa bir qator muammolar sabab, xususan suv resurslari bilan bo’gliq masalalarda o‘zaro kelishmovchiliklar, tinimsiz tortishuvlarning ochiq qarama-qarshilikka, hatto qurolli to’qnashuvga aylanib ketish xavfi mavjud edi.

Bunday kelishmovchiliklarning barchasi asrlar osha tinchlik va ahillikda yashab kelayotgan, bir dinga e’tiqod qiladigan, ko‘plab umumiy urf-odat va an’analari mavjud bo’lgan Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyatlariga mutlaqo ziddir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo‘ronov S. M. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati. – T.: EFFECT-D, 2021. b-150-165.

2. S. Safoyev. Markaziy Osiyodagi geosiyosat: Toshkent: 2005 b-29-32.

3. Madaminova D. I. (2021). Uzbekistan as a leading initiator in central Asia. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1045-1049.

4. Bo’ronov. S. O‘zbekiston geosiyosati: Toshkent: EFFECT-D 2021 b-94-102.

5. Madaminova, D. I., & Fayzullaev S. A. (2021). The important aspects of uzbekistan's initiatives in central Asia. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3),324-328.

[256] https://old.gov.uz/oz/news/view/11690

E.H. Bozorboyev *– O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

GLOBALLASHUV VA MILLIY SUVERENITETNING O‘ZARO TA’SIRI

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab globallashuv dunyo siyosati va iqtisodiyotida muhim omilga aylandi. Ushbu jarayon turli davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir-biriga yanada yaqinlashishiga sabab bo‘lib, milliy suverenitet tushunchasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv jarayonida davlatlarning o‘zaro bog‘liqligi oshib, xalqaro tashkilotlarning roli kuchayib borayotgan bir paytda, milliy davlatlar o‘z mustaqilligini saqlab qolish va rivojlantirish yo‘llarini izlashga majbur bo‘lmoqda.

Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy integratsiya, texnologik taraqqiyot va axborot oqimlarining kuchayishi davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va global siyosiy institutlarning faoliyati milliy iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatib, davlatlarning suveren qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklashga olib kelmoqda. Shu bilan birga, globallashuv milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash masalasini ham kun tartibiga chiqarmoqda.

Ba’zi davlatlar globallashuvni milliy rivojlanish uchun muhim imkoniyat deb bilsa, boshqalari uni milliy mustaqillik va suverenitetga xavf tug‘diruvchi jarayon sifatida baholaydi. Ushbu qarama-qarshi yondashuvlar globallashuv va milliy suverenitet o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur o‘rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Maqolada globallashuv va milliy suverenitet tushunchalarining mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda davlatlar uchun yaratadigan imkoniyatlar va xavf-xatarlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, turli mamlakatlar tajribasi asosida milliy suverenitetni saqlab qolish va rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar ham muhokama etiladi.

Globallashuv jarayoni bugungi dunyoda barcha davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, milliy suverenitetning turli jihatlariga ta’sir qilmoqda. Ushbu jarayonning natijalarini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin.

Birinchidan, globallashuv davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga turtki bergan holda, ularning milliy iqtisodiy siyosatini belgilash erkinligini ma’lum darajada cheklamoqda. Xalqaro moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar va global bozorlarga bog‘liqlik ortib borishi natijasida davlatlarning ichki iqtisodiy qarorlarini mustaqil qabul qilish qiyinlashmoqda. Masalan, xalqaro valyuta bozori, chet el investitsiyalari va savdo shartnomalari milliy iqtisodiy siyosatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, siyosiy suverenitet masalasida globallashuv xalqaro tashkilotlarning rolini kuchaytirib, davlatlarning mustaqil harakat qilish imkoniyatlariga cheklov qo‘ymoqda. BMT, Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) kabi xalqaro institutlar global siyosiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda muhim o‘rin egallaydi va davlatlarning milliy manfaatlariga ta’sir o‘tkazadi. Ayniqsa, kichik va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu jarayon o‘z suverenitetini saqlab qolishda muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Uchinchidan, madaniy sohada globallashuv ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, u turli millatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kengaytirib, axborot va texnologiyalar almashinuvini tezlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, ayrim davlatlarda milliy madaniyat va qadriyatlarning global tendensiyalar ta’sirida yo‘qolib borish xavfi ortmoqda. Masalan, g‘arb madaniyatining keng tarqalishi ayrim jamiyatlarda milliy an’analar va urf-odatlarga putur yetkazayotganini ko‘rish mumkin.

To‘rtinchidan, globallashuv davlatlarning milliy xavfsizligiga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Xalqaro terrorizm, kibertahdidlar, noqonuniy migratsiya va narkotrafik kabi global muammolar alohida davlatlarning ichki xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bunday sharoitda davlatlarning suverenitetini saqlash uchun xalqaro hamkorlik va xavfsizlik siyosatining samaradorligini oshirish talab etiladi.

Beshinchidan, globallashuv natijasida demokratik tamoyillarning tarqalishi ham kuzatilmoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan inson huquqlari, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi targ‘ib qilinmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda bu jarayon milliy an’analar va siyosiy tizimlarga zid kelib, ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ta’sir qilishi mumkin.

Oltinchidan, globallashuv natijasida milliy davlatlarning o‘z milliy iqtisodiyotini mustaqil himoya qilish imkoniyati cheklanib, proteksionistik siyosat yuritish tobora qiyinlashmoqda. Xalqaro savdo shartnomalari va bozor qonunlari sababli, davlatlar o‘z sanoatini himoya qilish yoki mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash borasida xalqaro qoidalarga rioya qilishga majbur bo‘lmoqda.

Yettinchidan, texnologik rivojlanish va globallashuvning axborot sohasiga ta’siri natijasida davlatlarning axborot suvereniteti masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Internetning global tarmoq sifatida rivojlanishi natijasida davlatlarning axborot ustidan nazorat o‘rnatish imkoniyati kamayib bormoqda. Ko‘plab davlatlar xorijiy ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ta’siridan himoyalanish uchun milliy axborot siyosatini qayta ko‘rib chiqmoqda.

Umuman olganda, globallashuv va milliy suverenitet o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, har bir davlat uchun uning oqibatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Globallashuv ayrim davlatlarga yangi imkoniyatlar taqdim etsa, boshqalar uchun u milliy mustaqillik va suverenitetga muammolar tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, milliy davlatlar globallashuv sharoitida o‘z suverenitetini saqlab qolish va milliy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishi lozim.

Globallashuv bugungi dunyo siyosati va iqtisodiyotining eng muhim hodisalaridan biri bo‘lib, uning milliy suverenitetga ta’siri turlicha baholanmoqda. Ba’zi olimlar uni yangi imkoniyatlar manbai sifatida ko‘rsalar, boshqalar davlatlarning mustaqilligiga tahdid sifatida qabul qilishmoqda. Ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur tahlil qilish globallashuv va milliy suverenitet o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Globallashuvning iqtisodiy ta’siri alohida e’tiborga loyiq. Bu jarayon xalqaro savdo va investitsiyalar hajmining oshishiga, texnologik almashinuvning tezlashishiga, yangi bozorlarning ochilishiga xizmat qiladi. Masalan, Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlar uchun savdo shartlari yaxshilangan, xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi osonlashgan. Shu bilan birga, bu jarayon milliy iqtisodiy siyosatga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlatlar endilikda xalqaro bozor

talablariga moslashishga majbur bo‘lib, ayrim hollarda o‘z milliy iqtisodiy manfaatlarini cheklashga to‘g‘ri keladi.

Milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi natijasida ba’zi sohalar o‘zining mustaqilligini yo‘qotmoqda. Misol uchun, energiya, oziq-ovqat xavfsizligi yoki strategik sanoat tarmoqlari bo‘yicha xalqaro kompaniyalarning rolining ortishi milliy hukumatlarning ushbu sohalarga ta’sirini kamaytiradi. Ko‘plab davlatlar transmilliy kompaniyalarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda, bu esa ularning iqtisodiy suverenitetiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Globallashuv siyosiy suverenitetga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Davlatlar xalqaro tashkilotlarning a’zolari sifatida o‘z suverenitetining bir qismini ularga topshirishga majbur bo‘lishmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar o‘zining iqtisodiy va siyosiy qarorlarini mustaqil qabul qilishda cheklovlarga duch keladi. Bu jarayon xalqaro huquqiy normalarning milliy qonunlar ustidan ustunlikka ega bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlarning qarorlariga rioya qilish majburiyati davlatlarning mustaqil siyosat olib borish imkoniyatini kamaytiradi. Ayniqsa, kichik davlatlar uchun xalqaro institutlarning talablari milliy manfaatlar bilan har doim ham mos kelavermaydi. Shu sababli, globallashuvning siyosiy suverenitetga ta’siri borasida ham ijobiy, ham salbiy jihatlar mavjud.

Madaniy globallashuv jarayonlari milliy madaniyatlarning saqlanib qolish masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Global media, xalqaro turizm va texnologik taraqqiyot tufayli milliy an’analar va qadriyatlar global madaniyat bilan raqobatga kirishmoqda. Ba’zi jamiyatlarda g‘arb madaniyatining keng tarqalishi milliy identifikatsiya zaiflashishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, madaniy almashinuvning kuchayishi millatlararo muloqotni rivojlantirishga, turli millatlar va madaniyatlar o‘rtasida hamkorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Texnologik rivojlanish ham globallashuv jarayonining muhim omillaridan biridir. Internet va raqamli texnologiyalar tufayli davlatlarning axborot suvereniteti yangi tahdidlarga duch kelmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida davlatlar o‘z hududida axborot oqimini nazorat qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lmoqda. Buning natijasida xalqaro kompaniyalar, global media korporatsiyalar va xorijiy ijtimoiy tarmoqlar milliy axborot makonida muhim rol o‘ynay boshladi.

Xavfsizlik nuqtayi nazaridan, globallashuv milliy davlatlarning harbiy va axborot xavfsizligiga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Xalqaro terrorizm, kiberjinoyatchilik, noqonuniy migratsiya va narkotrafik kabi global muammolar davlatlarning ichki xavfsizlik masalalarini murakkablashtirmoqda. Shu sababli, davlatlar xalqaro xavfsizlik tizimlariga ko‘proq bog‘lanib bormoqda. NATO, SHHT, BMT kabi tashkilotlar xavfsizlikni ta’minlash borasida global hamkorlikni kuchaytirgan holda, davlatlarning mustaqil harakat qilish imkoniyatlarini kamaytirmoqda.

Globallashuvning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik jihatlariga oid ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uning milliy suverenitetga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali. Ba’zi davlatlar globallashuvdan foyda ko‘rgan holda o‘z iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirgan bo‘lsa, boshqalar bu jarayonda o‘z suverenitetiga tahdid sifatida qarashmoqda.

Shu sababli, davlatlar globallashuvning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va milliy suverenitetni saqlab qolish uchun moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishi lozim. Bu borada, milliy iqtisodiyotning mustahkamligi, ichki siyosiy barqarorlik,

milliy madaniyatni saqlash va xalqaro tashkilotlar bilan teng huquqli hamkorlik muhim omillar hisoblanadi.

Natijada, globallashuv va milliy suverenitet oʻrtasidagi muvozanatni topish davlatlarning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, har bir davlat global integratsiya jarayonlaridan samarali foydalanish bilan birga, oʻz milliy manfaatlarini ham toʻliq himoya qilishga intilishi lozim.

Globallashuv va milliy suverenitetning oʻzaro ta'siri murakkab va koʻp qirrali jarayon boʻlib, zamonaviy dunyo siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga bevosita ta'sir koʻrsatmoqda. Ushbu jarayon davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro hamkorlikni kengaytirishi va texnologik taraqqiyotiga ijobiy hissa qoʻshish bilan birga, milliy identifikatsiya, iqtisodiy mustaqillik va madaniy suverenitetga xavf tugʻdirishi ham mumkin. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuv natijasida davlatlar oʻrtasidagi iqtisodiy va siyosiy bogʻliqlik ortdi. Yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar milliy davlatlarning iqtisodiy siyosatiga ta’sir qila boshladi. Natijada, ba’zi davlatlar xalqaro integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish evaziga iqtisodiy barqarorlikka erishdi, boshqalari esa globallashuvning salbiy oqibatlarini his etdi.Globallashuvning ijobiy jihatlaridan biri shundaki, u savdo va investitsiyalarni oshirish, innovatsiyalarni tezroq tarqatish va global infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar va integratsion tuzilmalar, xususan, Jahon savdo tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamgʻarmasi globallashuv jarayonini muvofiqlashtirishda muhim rol oʻynaydi. Shu bilan birga, ayrim davlatlar oʻzining milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida iqtisodiy proteksionizm siyosatini yuritmoqda. ьMilliy suverenitetning zaiflashuvi ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda yaqqol sezilmoqda. Ularning xalqaro bozorlarga qaramligi ortib, ichki iqtisodiy siyosatni mustaqil olib borish imkoniyatlari cheklanyapti. Koʻpgina davlatlarda mahalliy ishlab chiqarish zaiflashib, tashqi kapital va texnologiyalarga bogʻliqlik ortmoqda. Shu sababli, milliy manfaatlarni global tendensiyalar bilan uygʻunlashtirish muhim strategik vazifaga aylanmoqda.

Madaniy jihatdan globallashuv dunyo xalqlari oʻrtasida oʻzaro madaniy almashinuvni kuchaytirdi. Internet va axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli turli xalqlarning urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashlari bir-biriga ta’sir koʻrsatmoqda. Ammo bu jarayon ba’zi hollarda milliy madaniyatlarning yoʻqolish xavfini ham yuzaga keltiradi. Ayrim jamiyatlarda globallashuv tufayli ommaviy madaniyat dominant tus olmoqda, bu esa an’anaviy qadriyatlarning yoʻqolishiga sabab boʻlishi mumkin. Globallashuvning siyosiy ta’siri davlat boshqaruv tizimlarida ham sezilmoqda. Koʻplab mamlakatlar xalqaro me’yor va standartlarga mos kelish uchun oʻz qonunchiligini isloh qilmoqda. Demokratiyaning tarqalishi, inson huquqlari va soʻz erkinligi kabi qadriyatlar globallashuv natijasida koʻplab davlatlarda rivojlanmoqda. Ammo xalqaro tashkilotlarning ba’zi qarorlari milliy suverenitetga tahdid sifatida qabul qilinishi ham kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va milliy suverenitet oʻrtasidagi oʻzaro ta’sir murakkab va koʻp qirrali boʻlib, u turli davlatlarga turlicha ta’sir koʻrsatmoqda. Ba’zi davlatlar globallashuvdan samarali foydalanib, oʻz iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlashga erishayotgan boʻlsa, boshqalari uchun bu jarayon qiyinchiliklar tugʻdiryapti. Shuning uchun, har bir davlat oʻzining milliy manfaatlarini

himoya qilgan holda, global tendensiyalar bilan uyg‘unlashgan strategiyani ishlab chiqishi muhimdir.

Kelajakda globallashuv jarayonining rivojlanishi va milliy suverenitetning mustahkamlanishi davlatlarning global integratsiya jarayonlaridagi ishtirokiga, iqtisodiy strategiyalariga va madaniy siyosatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, globallashuvning ijobiy jihatlaridan foydalanish, salbiy oqibatlarini minimallashtirish va milliy suverenitetni saqlab qolish har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Held, D., McGrew, A. (2007). *Globalization/Anti-Globalization: Beyond the Great Divide.* Polity Press.
2. Ohmae, K. (1995). *The End of the Nation State: The Rise of Regional Economies.* Free Press.
3. Scholte, J. A. (2005). *Globalization: A Critical Introduction.* Palgrave Macmillan.
4. Stiglitz, J. (2002). *Globalization and Its Discontents.* W.W. Norton & Company.
5. Huntington, S. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order.* Simon & Schuster.
6. Baylis, J., Smith, S., Owens, P. (2019). *The Globalization of World Politics: An Introduction to International Relations.* Oxford University Press.
7. Robertson, R. (1992). *Globalization: Social Theory and Global Culture.* SAGE Publications.

Z. Namozova *– Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*

MILLIY XAVFSIZLIK –DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY USTUNI

Milliy xavfsizlik davlatning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, mamlakat mustaqilligi, barqaror rivojlanishi va fuqarolarining xavfsiz hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan strategik yo‘nalishdir.

Bugungi global va mintaqaviy geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida milliy xavfsizlik tahdidlariga nisbatan tizimli tahlil va prognozlashtirishning dolzarbligi ortib bormoqda. Zamonaviy tahdidlar nafaqat an’anaviy harbiy xavf-xatarlar, balki iqtisodiy, axborot, ekologik va kiberxavfsizlik sohalarini ham qamrab olmoqda.

Ushbu maqolada milliy xavfsizlikning tizimli tahlili, uning asosiy muammolari va istiqboldagi prognozlash usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va tizimli yondashuv: Milliy xavfsizlik – bu davlatning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, konstitutsiyaviy tuzumi hamda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Zamonaviy xavfsizlik paradigmasida tizimli yondashuv ustunlik qilmoqda. Bu esa milliy xavfsizlikni alohida segmentlarga ajratib emas, balki bir-biri bilan bog‘liq omillar orqali tahlil qilish imkonini beradi.[257]

Zamonaviy dunyoda tahdidlarning murakkab va ko‘p qirrali xususiyat kasb etishi milliy xavfsizlik konsepsiyalarining doimiy rivojlanishini taqozo etadi. Shu boisdan ham sohaga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda milliy xavfsizlikka geosiyosiy,

[257] Tuxliyev N.T. Siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2019. – 112-b

iqtisodiy, axborot, ekologik va harbiy omillar tomonidan tahdid soluvchi asosiy muammolar tahlil qilinib, ularning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari prognozlashtirilgan.

Bugungi kunda xalqaro maydonda geosiyosiy raqobatning keskinlashuvi, iqtisodiy inqirozlar, kiberxavfsizlik muammolari, global ekologik o‘zgarishlar va terrorizm xavfi davlatlarning milliy xavfsizlik strategiyalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda. O‘zbekiston ham ushbu jarayonlardan mustasno emas, aksincha, Markaziy Osiyoning strategik hududida joylashgan mamlakat sifatida milliy xavfsizlik tizimini mustahkamlash va prognozlashtirish borasida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda milliy xavfsizlikni ta’minlashda tizimli yondashuvning ahamiyati, tahdidlarning zamonaviy xususiyatlari, axborot va kiberxavfsizlik strategiyalari, shuningdek, iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash choralariga alohida e’tibor qaratilgan.

-Tizimli yondashuv quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, geosiyosiy omillar: xalqaro maydondagi tahdidlar, davlatlararo munosabatlar.

Ikkinchidan, iqtisodiy xavfsizlik: resurslarga bo‘lgan talab, iqtisodiy mustaqillik.

Uchinchidan, axborot xavfsizligi: kiberhujumlar, dezinformatsiya kampaniyalari.

To‘rtinchidan, ekologik xavfsizlik: tabiiy resurslarning tugashi, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar.

Beshinchidan, harbiy xavfsizlik: terrorizm, qurolli mojarolar xavfi.

Keyingi o‘rinda aytib o‘tishimiz kerak bo‘lgan masala bu milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy muammolar.

Bugungi kunda milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng asosiy omillarni quyidagicha ajratish mumkin:

Birinchidan, geosiyosiy beqarorlik – Markaziy Osiyo mintaqasida geosiyosiy o‘zgarishlar milliy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Xalqaro kuchlar o‘rtasidagi geostrategik raqobat, chegara nizolari va transmilliy jinoyatchilik xavfsizlikka tahdid tug‘diradi.[258]

Ikkinchidan, iqtisodiy tahdidlar – Global iqtisodiy inqirozlar, resurslar ustidan nazorat uchun kurash, tashqi iqtisodiy bosim va sanksiyalar davlatlar xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.[259]

Uchinchidan, axborot xavfsizligi va kiberxavf-xatarlar – Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kiberhujumlar ko‘paymoqda. Dezinformatsiya, gibrid urush elementlari, feyk axborotlar orqali davlatlarning ichki barqarorligiga zarar yetkazish maqsad qilingan xavf-xatarlar kuchaymoqda.[260]

To‘rtinchidan, terrorizm va ekstremizm tahdidlari – Diniy ekstremizm va terrorizm global muammoga aylanib, turli davlatlarning ichki siyosiy barqarorligiga tahdid tug‘dirayotgan omillar qatorida turibdi. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida ekstremistik g‘oyalar tez tarqalmoqda .[261]

Beshinchidan, ekologik muammolar – Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va suv taqchilligi xavfsizlikka bevosita ta’sir qilmoqda. O‘zbekistonda suv

[258] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 189 b.
[259] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 96 b.
[260] Abdurahmonov Q. Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 205 b.
[261] Xamidov S. Terrorizmga qarshi kurash tamoyillari. – Toshkent: Adolat, 2020. – 133 b.

resurslarining taqchilligi mintaqaviy barqarorlik masalalarini kun tartibiga olib chiqmoqda .[262]

Ushbu maqolaning mantiqiy davomi hisoblangan prognozlashtirishga to‘xtaladigan bo‘lsak, prognozlashtirish va milliy xavfsizlikni mustahkamlash, milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy prognozlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada quyidagi taklif va tavsiyalar dolzarb hisoblanadi deb o‘ylaymiz, va ular quyidagilardir:

- Axborot xavfsizligini mustahkamlash – Davlat tomonidan kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish, sun’iy intellekt asosida tahdidlarni oldindan aniqlash tizimlarini joriy etish.

- Geosiyosiy strategiyalarni takomillashtirish – Tashqi siyosatda pragmatik yondashuvni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish.

- Iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash – Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, strategik tarmoqlarda importga qaramlikni kamaytirish, investitsion xavfsizlik choralarini ko‘rish.

-Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish – Yoshlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, diniy bag‘rikenglik siyosatini davom ettirish va ijtimoiy tarmoqlarda ekstremistik tashviqotga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqish.

- Ekologik xavfsizlikni ta’minlash – Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish va ekologik muammolarga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa o‘rnida. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar tobora murakkablashib, geosiyosiy, iqtisodiy, ekologik, kiberxavfsizlik va informatsion xavfsizlik kabi ko‘p qirrali yo‘nalishlarni o‘z ichiga olmoqda. Xalqaro maydonda kuchlar muvozanatining o‘zgarishi, iqtisodiy proteksionizm siyosati, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi, axborot urushlari, terrorizm va transmilliy jinoyatchilik kabi omillar davlatlarning xavfsizlik strategiyalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. Milliy xavfsizlik zamonaviy global tahdidlar fonida dinamik rivojlanayotgan yo‘nalish bo‘lib, tizimli tahlil va prognozlashtirish uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun geosiyosiy barqarorlik, iqtisodiy mustaqillik, axborot xavfsizligi va ekologik muammolarni hal qilish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Davlat tomonidan tizimli yondashuv asosida qabul qilinadigan strategiyalar milliy xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 96 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 189 b.

3. Tuxliyev N.T. Siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2019. – 112-b.

4. Abdurahmonov Q. Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 205 b.

[262] G‘ulomov U. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 76 b.

5. Xamidov S. Terrorizmga qarshi kurash tamoyillari. – Toshkent: Adolat, 2020. – 133 b.

6. G‘ulomov U. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 76 b.

З. Намозова *- Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети талабаси*

ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН АСРАШ МАСАЛАЛАРИ

«Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустаҳкам ривожланишига раҳна солаётган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш, камолга етишга интилишига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир»[1]- дея таъкидлаган эди Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев.

Дарҳақиқат, бугунги кунда маънавий таҳдидларнинг ёшлар тарбиясига кўрсатаётган салбий таъсири долзарб муаммолардан бири ҳисобланмоқда. Бундай шароитда ўсиб келаётган ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялашда она Ватанга муҳаббат, миллий ва диний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш, муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Хўш, маънавий таҳдидни ўзи нима?

“Маънавий таҳдид деганда, аввало, тили, дини, эътиқодидан қатъий назар, ҳар қайси одамнинг том маънодаги эркин инсон бўлиб яшашига қарши қаратилган, унинг айнан руҳий дунёсини издан чиқариш мақсадини кўзда тутадиган мафкуравий, ғоявий ва информацион ҳуружларни назарда тутиш лозим”[2].

Юқорида ҳам таъкидлаганимиздек, бугунги глобаллашув даврда айниқса ёшларимизни турли хил маънавий таҳдидлардан ҳимоя қилиш, уларнинг мафкуравий иммунитетни шакллантириш энг долзарб вазифадир.

Маълумки, айни дамларда инсоният янги ахборот инқилобини бошдан кечирмоқда ОАВнинг қамрови даражаси тобора кенгайиб бориб, янги сифат даражасига эга бўлмоқда. Бу соҳанинг маҳаллий, минтақавий, умуминсоний ёки халқаро (глобал) миқёсда фаолият кўрсатиши унинг таъсир доирасини кўрсатувчи омилларидир.

Бугунги глобаллашув шароитида Ўзбекистонга ташқаридан ижобий ғоялар билан биргаликда яшаш турмуш тарзимизга, маънавиятимизга зид бўлган турли хил ёт ва зарарли ғоялар кириб келмоқда.

Интернет тармоқларидан ёшлар ҳар куни турли хил жумладан: ўйинлар, видеофильмлар ва бошқа кўплаб ва маълумотлардан фойдаланадилар. Уларнинг аксарияти ғоявий жиҳатдан халқимиз маънавий маданияти ва миллий ўзлигини англашга салбий таъсир кўрсатадиган маълумотлардир. Шунинг учун бу ахборотларга ҳаммада ҳам бир хил муносабат шаклланмайди: баъзилар унга танқидий кўз билан қараса, баъзилар уни тўғридан-тўғри оддий ҳақиқат деб қабул қилади; яна бошқалар эса ундай ахборотларга жиддий муносабатда бўлиб, унинг мазмун-моҳиятини, ғоявий йўналишини билишга

ҳаракат қиладилар. ОАВ ва интернет тармоқлари орқали бериладиган бундай кенг қамровли, айни вақтда бизнинг менталитетимизга тўғри келмайдиган турли хил ахборотларни тўғри тушиниш ва объектив таҳлил қилиш учун халқимиз, айниқса, ёшларимиз маънавиятини юксалтириб боришимиз, хусусан, миллий ғояни сингдиришимиз лозим бўлади. Бу жараёнда миллий ўзликни англаш асосий омиллардан биридир.

Бунинг учун ёшларда она Ватанга, бой тарихимизга, ота-боболаримизнинг муқаддас динига соғлом муносабатни қарор топтиришимиз, бу туйғуларни бузиб кўрсатувчи маънавий таҳдидларга қарши уларнинг мафкуравий иммунитетни шакллантиришимиз лозим.

Бугунги шиддатли глобаллашув даврида ёшлар онгу шуурини интернет орқали кириб келаётган зарарли ғоя ва таъсирлардан самарали ва ишончли ҳимоялаш тобора долзарб аҳамият касб этмоқда. Бу эса педагоглар, маънавият тарғиботчилари, ота-оналардан янада ҳушёр ва огоҳ бўлишни, ёш авлоднинг ғоявий-мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш борасидаги ишлар кўламини янада кенгайтиришни талаб қилади. Бизга маълумки, кўплаб сайт ва тармоқлар катта маблағлар эвазига фильтрлаб қўйилган ва бу ҳолатни кўплаб давлатларда кузатиш мумкин. Албатта, таъқиқлар ёки фильтр воситалари орқали одамларни Интернет оламидаги турли кучларнинг хатарли таҳдидларидан, кераксиз ва салбий ахборотлардан сақлаш қийин ва фақатгина вақтинчалик ҳолат бўлиши мумкин.

Маънавий таҳдидлардан вояга етмаган ёшларимизни ҳимоя қилишда аввало, «глобаллашув авж олаётган бугунги кунда миллий тарбиянинг стратегик йўналишини кенг маънодаги маънавиятимизни миллатимизга ёт бўлган турли зарарли таъсирлардан ҳимоя қилиш, уни ёшларимиз онги, қалби, дунёқарашининг ажралмас қисмига айлантириш»[3], миллий мероснинг муҳофазасини амалга ошириш механизмларини янада такомиллаштириш, фуқароларнинг ҳаёти учун муҳим бўлган ахборотни тўғри ва ўз вақтида етказиш, миллий урф-одатлар, қадриятлар, ахлоқий меъёрлар, миллий тарихий илдизларни асраш, жамият аъзоларини миллий ғурур, маърифатпарварлик, бағрикенглик, тинчликпарварлик руҳида тарбиялашга асосий эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Бугунги кунда турли маънавий таҳдидларга қарши кураш, унинг олдини олишнинг самарали йўлларидан бири – фуқароларнинг, айниқса вояга етмаганлар ва ёшларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, аҳоли орасида доимий равишда миллий қадриятларимизга асосланган ҳуқуқий тарғибот ишларини оилада ота-оналар, ўқув муассасаларида ўқитувчилар ва тарбиячилар, маҳаллада маҳалла фаоллари ҳамкорликда олиб боришлари лозимлигини барча англаб етди.

Айниқса, ота-оналар, илм ва тарбия берувчи педагог-ходимлар ёш авлод тарбиясига жиддий эътибор қаратган ҳолда, уларни замонавий билим ва касб эгаси бўлишлари билан бир қаторда, миллий ва умуминсоний ғояларга садоқат, анъана ва қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш ҳар қачонгидан ҳам муҳим саналади.

Қачонки, ёшлар билим билан қуролланса, миллий қадриятларини чуқур англаса, уларга ёт ғоялар таъсир қила олмайди. Чунки бугун энг долзарб ва устувор вазифа ҳам ёшлар маънавиятини тўғри шакллантириш, уларни

тарихий, миллий ва умуминсоний маданий қадриятлар руҳида тарбиялаш, Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш, ўз аждодлари ва юрти билан фаҳрланиш, глобаллашув жараёнида авж олаётган ёт ғояларнинг кириб келишига қарши тура оладиган даражада иммунитетини шакллантириш, чуқур билимли, мустақил фикрли инсонлар қилиб тарбиялаш давр талабидир.

Зеро, “Фарзандларимизнинг турли радикал ва зарарли ғоялар таъсирига тушиб қолишига йўл қўймаслик – асосий вазифамиздир. Бу борадаги ишларни янгича ёндашувлар билан давом эттиришимиз керак”[4].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқида: “Бу борада кўп ҳолларда таҳдидларни келтириб чиқараётган асосий сабаблар билан эмас, балки уларнинг оқибатларига қарши курашиш билангина чекланиб қолинмоқда... Шу муносабат билан одамлар, биринчи навбатда, ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш энг муҳим вазифадир”[5], деб таъкидлаб ўтган эди.

Айниқса, мамлакатимизда бугунги кунда илгари сурилаётган 5 та муҳим ташаббус: ёшларни маданият ва санъат муассасаларига кенг жалб этиш, ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб этиш, спорт иншоотлари қувватини ошириш, аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари, ёшлар маданиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг жалб қилиш ва ҳудуларда тикув-трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва хотин-қизлар бандлигини таъминлаш чора-тадбирларининг қўйилиши ёшларимизни баркамол қилиб тарбиялашга асос бўлади.

Маънавий таҳдидларга қарши курашиш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ:

Биринчидан, ҳар бир фуқарода инсонийлик, ватанпарварлик, миллатпарварлик, меҳнатсеварлик, ўзаро тотувликни шакллантириш, маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини оширишга эътиборни янада кучайтириш;

Иккинчидан, таълим муассасаларида, айниқса, умумий ўрта таълим мактабларида таҳсил олаётган ёшлар учун ўқув машғулотларида, дарсларда ахборот психологик хавфсизлик, интернетдан фойдаланиш маданияти, ижтимоий тармоқларнинг салбий тарафлари хусусида тушунтириш ишларини кучайтириш;

Учинчидан, оилада – ота-онанинг фарзандлар тарбиясидаги шахсий намунаси асосида, оилада китобхонлик, спорт ва санъатга, миллий анъана ва қадриятларга ҳурматини шакллантириш.

Тўртинчидан, келажак авлодимизни бир-бирларга ҳурмат руҳида тарбиялаш, уларнинг бадиий адабиёт ва санъатга қизиқишларини кучайтириш, сабр-тоқатли қилиб тарбиялаш;

Бешинчидан, ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишлари учун уларни турли қўшимча машғулотларга, жумладан, касб-ҳунар марказлари, тил ўрганиш масканларига қамраб олиш даражасини янада кенгайтириш лозим. Мактабгача таълим муассасаларидан бошлаб уларнинг спорт ва санъат билан шуғулланишлари учун кенг имкониятлар яратиш мақсадга мувофиқ.

олтинчидан, китобхонлик маданиятини оиладан шакллантиришимиз зарур. Бугунги кунда амалга оширилаётган “Ёш китобхон”, “Бизнинг оила китобхон” каби танловларнинг барча босқичларида (туман, шаҳар, вилоят, республика) ёшларимизни ҳам моддий, ҳам маънавий қўллаб-қувватлаш тизимини янада кенг йўлга қўйишимиз даркор.

Еттинчидан, истеъдодли ёшларимизни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада кенгайтиришимиз зарур.

Ўйлаймизки, ушбу масалаларга алоҳида эътибор берилиб, узоқ йиллик дастурлар, режалар ишлаб чиқилиб амалиётга татбиқ этилса, ҳар қандай маънавий таҳдидлар, “оммавий маданият”нинг салбий таъсири қисман бўлсада ёшларимизни четлаб ўтишига эришишимиз мумкин.

Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Фарзандларимизнинг қобилиятини рўёбга чиқаришга болаликдан эътибор бериб, уларнинг камолоти учун барча имкониятларимизни сафарбар этсак, юртимиздан яна кўплаб Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар етишиб чиқади”[6].

Хулоса қилиб айтганда, Юртимизда истиқомат қилаётган ҳар бир фуқаро, айниқса ёшлар заминимизни бугуни, эртанги кунининг осойишталигини асраши, унинг тараққий этишига ҳисса қўшиши билан биргаликда шу азиз Ватанимизни кўз қорачиғидек асраши, унинг тинчлиги, осойишталиги ва барқарорлигини ҳимоя қилиши, салоҳиятини янада юксалтириши ҳам фарз, ҳам қарз бўлган муқаддас вазифа эканлигини ҳеч қачон унутмаслиги лозим.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017, 27-бет.

2. Каримов И.А.Юксак маънавият–енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият» НМИУ, 2008, 13-14-бетлар.

3. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллат. – Т., 2008. – Б. 187.

4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3 том.. Тошкент, Ўзбекистон, НМИУ, 2019 йил. 34-бет.

5. Мирзиёев Ш.М.Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 – жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017, 27-бет.

6. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3 – жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019, 76-бет.

J.S. Sotvoldiyev – *Buxoro davlat universiteti, talabasi*

DINIY-TERRORISTIK TASHKILOTLARNING O‘ZBEKISTON XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGIGA TAHDIDI

XX asrning so‘ngi yillariga kelib terrorizmning shakllari va xalqaro hamjamiyatdagi qamrovi kengayib bormoqda. Jahon hamjamiyati bundan tashvishga

tushmoqda. Terrorizm dunyo davlatlari uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bunday sharoitda siyosiy tuzumning xususiyatidan qat’i nazar, jahonning har bir mamlakat terrorizmga qarshi murosasiz kurash olib borishga majbur bo‘lmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, “Ayni vaqtda dunyoning ba’zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o‘z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda” [1].

Terrorizmga qarshi qaratilgan xalqaro uyushmalar ham qaror topdi. Bular jumlasiga BMT va uning maxsus tarmoqlaridan tashqari, Amerika mamlakatlari Assotsiatsiasi (AMA), Janubiy Osiyo regional hamkorlik assotsiatsiasi (JORHA), Yevropa Ittifoqi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT), Terrorizmga qarshi kurashish markazi (SHHT) va boshqalar kiradi.

Keyingi paytlarda islom dunyosi va boshqa mamlakatlar ham o‘zlari tanlagan taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib kelmoqda. O‘tgan yillar tarixiy tajribasi xalifaliksiz ham erkin rivojlanish mumkin ekanligini isbotladi. Islom dini niqobi ostida xalifalikni tiklashga intilayotgan harakatlarga, hizbut-tahrir, akromiylik g‘oyalarini kiritish mumkin. Ekstremistlarning 2005-yil may oyida Andijonda amalga oshirgan terrorchilik harakatlari, 2006-yilning may oyida Qirg‘izistonning Botkent tumani va Tojikistonning Isfara tumanida chegarachilarga, avgust-sentabr oylarida Qirg‘isiztonning O‘sh va Jalolobod viloyatlarida huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlariga qurolli hujum uyushtiishlari oqibatida begunoh odamlar halok bo‘ldi, xalq osoyishtaligi buzildi.

Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston hududida 1999-2012-yillar oralig‘ida 10 ga yaqin terrorchilik harakatlari amalga oshirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra ularda 200 dan ortiq begunoh insonlar halok bo‘lgan, 300dan ziyod kishi jiddiy jarohat olgan, ularning aksariyati butun umrga nogiron bo‘lib qolgan [2].

Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O‘zbekistonda bunday tahdidning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘ldi:

- “qayta qurish” davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy inqiroz, balki mafkuraviy parokandalik ham yuzaga kelgan edi. Sovet imperiyasi barbod bo‘lgach esa, mafkuraviy bo‘shliq o‘zining xatarli oqibatlarini namoyon qildi;
- e’tiborli diniy ulamolar o‘rnini soxta “islomchilar” egallashga intilishlariva ular tomonidan islom asoslari buzib talqin qilinishi boshlandi;
- aholining islom diniga bo‘lgan katta qiziqishidan foydalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi asabiyotlarni tarqatish kengaytirildi;
- din niqobi ostida faoliyat olib boruvchi, aslida ayrim davlatlarning g‘arazli geosiyosiy va geostrategik qarashlari natijasi o‘laroq shakllangan, qo‘poruvchilik maqsadini ko‘zlagan turli oqim va yo‘nalishlarga mansub xorijiy da’vatchilar mintaqagalarini olib kira boshladilar;
- mintaqa davlatlari chegaralarining mustahkam emasligi turli ekstremistik kuchlarga narkotrafik, qurol-yarog‘larning noqonuniy savdosi orqali moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olishga va mintaqa bo‘ylab erkin harakat qilishga zamin yaratdi.

Vahobiylik islom g‘oyalariga siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib, go‘yoki islomni payg‘ambar davridagi “asl holatiga qaytarish”, ya’ni uni tozalash, barcha musulmonlarni islomning yashil bayrog‘i ostida birlashtirish kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Bu mafkura Ollohdan boshqa barcha diniy va hayotiy qadriyatlarni inkor qiladi. U Qur’oni karimning muqaddasligini e’tirof etsa-da, uning tafsirini inobatga olmaslik, choryorlarni, aziz-avliyolarni, buyuk piru valiylarni tan olmaslik, muqaddas qadamjolarni buzib tashlashni targ‘ib qilishda namoyon bo‘ladi. Vahhobiylar islom dinidagi mazhablar – hanafiylik, molikiylik, shofiiylik, ja’fariylik vakillarini kofirlar deb ataydilar[3].

“Hizbut-tahrir al-islomiy” – (“Islom ozodlik partiyasi”) tashkiloti demokratiya, konstitutsiya, saylovni inkor etadi, siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni o‘rnatishni maqsad qilib belgilagan. **“Hizbut-tahrir”** sobiq ittifoq kommunistik mafkurasi tanazzulga yuz tuta boshlagan davrlardan boshlab, g‘oyaviy bo‘shliq sharoitida kishilarning ongi va dunyoqarashiga o‘z mafkurasi orqali ta’sir o‘tkaza boshladi. “Hizbut tahrir”ga islom siyosiy partiyasi sifatida 1950–1953-yillarda Livanda Taqiyyuddin Nabhoniy asos solgan. Ayni vaqtda bu harakatga Abdulqadim Zallum rahnamolik qilmoqda.
“Hizbut - tahrir” tashkiloti asosan yashirin “xalqalar” tuzish, og‘zaki va varaqa tarqatish orqali ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiladi. Shu bilan birga, mazkur harakat terrorchi guruhlar uchun “zombilashtirilgan” jangarilar yetkazib berish bilan ham shug‘ullanadi. Masalan, 2006-yil Iroqda o‘ldirilgan “al-Qoida”ning Iroqdagi bo‘lim rahbari Abu Muso Zarqaviy ham avval “Hizbut tahrir” a’zosi bo‘lgan. 2004-yili Rossiya, 2006-yil esa Qirg‘izistonda qo‘lga olingan “xizbi”lardan o‘qotar qurol portlovchi moddalar va o‘q dori topilgan. Shuningdek, Qirg‘iziston huquqni muhofaza qilish idoralari birgina 2012 yilda ushbu oqimga mansub 20 mingdan ziyod kitob va disklar musodara qilgan. 2012-yili Tojikistonda diniy-ekstremistik faoliyat bilan shug‘ullangan 144 nafar shaxs qo‘lga olingan bo‘lib, shundan 36 nafari “Hizbut-tahrir” oqimiga mansub bo‘lgan.

“Hizbut-tahrir” diniy oqimi vakillarining asosiy vazifasi joylarda, qolaversa, mintaqada siyosiy, g‘oyaviy, mafkuraviy jihatdan hukmronlikni o‘rnatish, o‘zining salbiy ta’sir doirasini kengaytirish, irodasi bo‘sh, mustaqil fikrga ega bo‘lmagan odamlarning qalbi va ongini zabt etish orqali buzg‘unchi mafkuralarni singdirishdan iboratdir. “Hizbut-tahrir”chilar, eng avvalo, hali mustaqil dunyoqarashi to‘la shakllanmagan, sodda yoshlarga islom dini, uning ibodat amallari, Qur’oni karim va turli diniy manbalardan saboq berish bahonasida o‘z ta’sirini o‘tkazishga harakat qiladilar. Ular, odatda, 3–4 kun islomni o‘rgatib, keyin asl maqsadga o‘tadilar.

Hizbut-tahrirchilar “Islom nizomi”, “Hizbiy uyushma”, “Hizbuttahrir tushunchalari”, “Islomiy davlat”, “Xalifalik”, “Demokratiya – kufr nizomi” kabi o‘quv dasturlari, kitob va risolalari, “Al-Va’y”, “Ong” jurnali hamda varaqalar orqali o‘z g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishga harakat qiladilar.

Ayni paytda, “Hizbut-tahrir” kurashni uch bosqichda olib borishni ko‘zlaydi. Ulardan birinchisi – “tasqif” – tushuntirish ishlari bosqichidir. Unda hali ongi to‘liq shakllanmagan, fikri zaif, ta’sirga beriluvchan yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirish, huquq-tartibot va hokimiyat idoralaridagi mas’ul shaxslarni o‘z tarafiga og‘dirishdek maqsadlarga erishish ko‘zlanadi.

Ikkinchisi – “tafaul” – birgalikda harakat qilish bosqichida fikriy kurash orqali “Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishish” yo‘lida fikriy inqilobga yetishish nazarda tutiladi.

Uchinchisi – “inqilob” – to‘ntarish bosqichida esa, tarbiyalangan ummat orqali hokimiyatni qo‘lga kiritish mo‘ljallanadi. Yuqoridagilardan “Hizbut-tahrir” ham boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab, hokimiyat tepasiga kelishga intilish, yagona xalifalik davlatini qurish, uning asosiy va so‘nggi maqsadi ekani ochiq-oydin ko‘rinib turibdi.

Har qancha taajjublanarli bo‘lmasin, terrorchilik harakatini oqlaydiganlar, qo‘llab-quvvatlaydigan va targ‘ib etadiganlar bor. Yevropa kengashi tomonidan 2005-yil 16-mayda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyaga binoan terrorchilik jinoyatini sodir etishga undash maqsadida har qanday murojaatni ommaga yetkazish yoki boshqa tarzda taqdim etish, bunday hatti-harakatlar terrorchilik jinoyatlarini bevosita targ‘ib qilish yoki qilmasligidan qat’iy nazar, mazkur jinoyatlarning bir yoki bir nechtasini sodir etish xavfini tug‘dirsa, “terrorchilik jinoyatini sodir etishga ommaviy undash” sifatida baholanadi[4].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek, “Ayni paytda Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, sarhadlarimiz daxlsizligini saqlash, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik kabi xatarlarga qarshi kurashish bosh vazifamiz bo‘lib qoladi. Bu borada Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirib, tinchlik va xavfsizlik yo‘lida olis va yaqin davlatlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytiramiz”[5].

Bugungi kuda terrorizning ekstremistik guruhlar bilan birlashish omillari manfaatlarning birligida namyon bo‘layotgaligini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va ichki siyosatni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan siyosiy maqsadlar;
- tashkilot va ayrim shaxslarning strategik ahamiyatga ega mulklarni, korxonalar va inshootlarni qo‘lga kiritish orqali iqtisodiyotni izidan chiqarishga yo‘naltirilgan iqsodiy manfaatlar;
- muayyan millat vakillari va milliy guruhlarning bir hududda yashaydigan boshqa millat va milliy guruhlarga qaratilgan etnik – milliy ziddiyatlarni yuzaga keltirish;
- davlat xizmatchilari tartibsizligini yuzaga keltirishga qaratilgan va jamiyatning kuch ishlatadigan tuzulmalarini izidan chiqarishga yo‘naltirilgan maqsadlar;
- ayrim ekstremistik guruhlarning diniy shiorlar ostida hokimiyatni egallab olish maqsadini ko‘zlagan diniy terrorizm;
- turli jinoyatchilik elementlaridan iborat bosqinchi guruhlarning o‘g‘irlik, talonchilik va bosqinchilik orqali hukumatni obro‘sizlantirish, jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhitini vujudga keltirishga yo‘naltirilgan jinoiy terrorizm.

Diniy ekstremistik ruhdagi terrorchi tashkilotlarning O‘zbekistondagi strategik maqsadlari shariatga asoslangan **teokratik davlat** tuzish bo‘lib, buning uchun quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- ✓ aholini keng ko‘lamda “islomiylashtirish”;
- ✓ ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish;
- ✓ dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish;

✓ xorijda faoliyat yuritayotgan diniy-ekstremistik tashkilotlar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatish, ularning imkoniyatidan guruh jangarilarini tayyorlashda va faoliyatini moddiy-texnik ta’minlashda foydalanish.

Diniy ekstremistik tashkilotlarning asosiy faoliyat usullari quyidagilardan iborat:

- diniy ekstremistik ruhdagi, shu jumladan, “jihod”, “shohidlik” g‘oyalari targ‘ib qilingan varaqa, adabiyot, video va audio tasmalarini tarqatish;
- yashirin “hujralarda” o‘qitilayotgan radikal islomiy tushunchalarni singdirish;
- O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy holatni keskin qoralash;
- rasmiy diniy tuzulmalarni obro‘sizlantirish;
- yashrin guruhlar tuzish va uning a’zolarini maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish;
- o‘z tarfdorlarini davlat strukturalariga kiritishga urinish;
- ayollardan iborat yacheykalarni kuchaytirish;
- terror vositalaridan samarali foydalanish [6].

Bu xususida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek, “O‘zbekiston terrorizm, ekstremizm va radikalizm mafkurasiga qarshi kurash borasida hamisha prinsipial pozitsiyaga ega bo‘lib kelgan. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki birinchi navbatda, ayniqsa yoshlar o‘rtasida, zo‘ravonlikni keltirib chiqaradigan jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozim” [7].

Yuqoridagilardan ma’lumki, bu kabi diniy ekstremistik va terroristic tashkilotlar o‘zlarining razil harakatlarini keng qamrovli, barcha terroristik tuzulma va harakatlar bilan ishonchli hamkorlikni, o‘zaro manfaatdorlikni ham moddiy, ham moliyaviy birlikni yuzaga keltirish orqali belgilangan rejalar asosida va aniq maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi //“Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 23 dekabr, №258 (6952)

2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. –T.: Toshkent islom universiteti, 2013. – B.135-137.

3. Ikramov Sh.T. Yuksak ma’naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik fazilatlarini va muomala madaniyatini kamol toptirish. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. –B.401.

4. Ibrohimov J.Terrorizm haqida qasddan yolg‘on xabar buning uchun javobgarlik aniqmi? // Huquq va burch, 2019-yil 12-son – B. 31

5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//“Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil 10 may, №95 (7053)

6. Ikramov Sh.T. Yuksak ma’naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik fazilatlarini va muomala madaniyatini kamol toptirish. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. –B.405.

7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida

hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi//"Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 28 mart, №59-60(7017-7018)

Ш.А. Иброҳимов *- ISFT - School of Finance Technology and Science International instituti талабаси*

ГЛОБАЛИЗМ ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАШҚИ СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ

Глобализация ва Ўзбекистоннинг ташқи сиёсий фаолияти

Бугунги кунда глобализация дунё сиёсатида ва халқаро алоқаларда улкан ўзгаришларни келтириб чиқармоқда. Давлатлар ўзларининг иқтисодий васиёсий позицияларини мустаҳкамлаш учун янги глобал тизимга мослашишга мажбур. Ўзбекистон, ушбу жараёнда, миллий манфаатларини ҳимоя қилишни мақсад қилиб, глобал алоқаларга кенгроқ киришишга ҳаракат қилмоқда. Шавкат Мирзиёевнинг 2017-йилдаги сўзларига кўра, "Глобализация жараёнларига интеграция қилиш, Ўзбекистон учун янги имкониятлар очади, аммо бу жараённи тўғри бошқариш, давлат суверенитетини сақлаш учун жуда муҳим"[1].

Бироқ, глобализация нафақат янги имкониятларни яратади, балки давлатлар ўртасидаги сиёсий ва иқтисодий рақобатни кучайтиради, ўзаро боғлиқликни оширади, ва бу ҳолат кичик давлатлар учун алоҳида хавфларни келтириб чиқаради. Ислом Каримов (1997) шундай фикрни билдиради: "Глобализация кичик давлатлар учун ўз миллий манфаатларини сақлашда жиддий муаммоларни юзага келтиради" [2]. Глобал тизимда Ўзбекистон ўз ўрнини топиш учун нафақат иқтисодий ривожланиш, балки сиёсий мустақилликни сақлашга ҳам интилади.

Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатидаги энг катта муаммо – ўзининг миллий манфаатларини ҳимоя қилишдир.Чунки глобал хавфлар ва иқтисодий тенгсизликлар кучайган шароитда бу жуда хам муҳимдир. Масалан, иқтисодий бозорлар глобализация туфайли бир бирига янада интеграциялашмоқда ва баъзан, бу кичик давлатларнинг ўз иқтисодий ривожланишига тўсиқ бўлиши мумкин. Ўзбекистоннинг асосий мақсади – халқаро хавфсизликни таъминлаш, иқтисодий алоқаларни кенгайтириш ва ўзининг мустақил сиёсатини сақлашдир.Лекин, бундай мураккаб глобал тизимда ўз манфаатларини ҳимоя қилиш осон эмас, ва бу жараён кўплаб янги стратегияларни ишлаб чиқишни талаб этади.

Шавкат Мирзиёевнинг 2020-йилдаги чиқишида таъкидланганидек: "Глобализация шароитида, Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги ўрни фақат унинг иқтисодий имкониятлари билан эмас, балки сиёсий барқарорлиги, дипломатик муваффақиятлари билан ҳам белгиланади" [1].

Бу фикр,Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий йўналишларидан бири бўлиб – иқтисодий ва сиёсий барқарорликни таъминлашнинг нақадар муҳим еканлигининг кўрсатади. Бундан ташқари, глобализация жараёнларининг ижобий ва салбий томонлари бор. Ижобий томони, Ўзбекистон учун янги инвестициялар, халқаро ҳамкорлик ва иқтисодий имкониятларни очиши

мумкин. Аммо салбий томони шундаки, кичик давлатлар глобал бозор ва сиёсий тизимда ўз мустақиллигини йўқотиши, ҳамда бошқа йирик давлатларнинг сиёсий таъсирига тушиб қолиши мумкин. Глобализация Ўзбекистон учун иқтисодий тараққиётнинг янги йўлларини очса-да, у баъзи хавфларни ҳам ўзида мужассам этади.

Ушбу мақолада, Ўзбекистоннинг глобализация жараёнларидаги ташқи сиёсатининг натижалари ва муаммолари ўрганилади. Ўзбекистоннинг дунёдаги ўрнини қандай мустаҳкамлаш, шунингдек, иқтисодий дипломатия ва минтақавий хавфсизликдаги ролини қандай кучайтириш мумкинлиги таҳлил қилинади. Шавкат Мирзиёев ва бошқа халқаро сиёсатчиларнинг глобализацияга бўлган қарашлари, Ўзбекистоннинг келгусидаги ташқи сиёсий стратегияларини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Глобализациянинг Ўзбекистон ташқи сиёсатига таъсири

Глобализация жараёнлари, шубҳасиз, Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатини шакллантиришда катта рол ўйнайди. Шавкат Мирзиёевнинг сўзларига кўра,"Бизнинг асосий мақсадимиз – миллий манфаатларимизни ҳимоя қилиш ва халқаро хавфсизликни таъминлашдир" (Мирзиёев, 2017) [1]. Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги ўрнини мустаҳкамлаш мақсадида, мамлакат глобал алоқалар тармоғида фаол иштирок этишни мақсад қилади. Бу, ўз навбатида, иқтисодий ва сиёсий жиҳатдан мустаҳкамланишга ёрдам беради.

Ўзбекистоннинг халқаро алоқаларга қаратилган бу интилиши, дунё иқтисодиёти ва сиёсатидан фойдаланиш, ўз манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган. Шу билан бирга, глобал алоқаларга интеграциялашдаги муаммолар ҳам мавжуд ва уларни ҳал қилиш учун аниқ стратегиялар ишлаб чиқилиши лозим.Бироқ, глобализация жараёнларининг салбий томонлари ҳам мавжуд. Кичик давлатлар учун глобал бозорни қўлга киритиш осон эмас. Масалан, бошқа кучлидавлатлар ўз манфаатларини илгари суриш учун кўпинча сиёсий босим ўтказишади. Ислом Каримов (1998) шундай деб ёзган: "Глобализация кичик давлатлар учун ўз миллий манфаатларини сақлашда катта муаммоларни юзага келтиради" [2].

Ўзбекистон учун ҳам айнан шу муаммо долзарб бўлиб турибди: ўзманфаатларини сақлаш ва мустаҳкамлашни ўйлаб, глобал тизимга мослашишга мажбур бўлиш.

Миллий манфаатлар ва уларни ҳимоя қилиш

Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асоси – миллий манфаатларни ҳимоя қилиш. Бироқ, глобализация жараёнларида ўз иқтисодий ва сиёсий манфаатларини сақлаб қолиш жуда мураккаб бўлиб қолади. Масалан, Ўзбекистоннинг халқаро ташкилотлар билан алоқалари кучайган сайин, баъзан ўз манфаатлари, бошқа йирик давлатларнинг сиёсий талабларига тўғри келмаслиги мумкин. Бу ҳолат Ўзбекистоннинг иқтисодий сиёсатига таъсир қилиши мумкин. Ислом Каримов (1997) бу борада шундай фикр билдиради: "Глобал тизимда иштирок этаётган давлатлар, ўз миллий манфаатларини ҳимоя қилишда қатъиятлилик кўрсатиши лозим" [6]. Ўзбекистон учун бу жуда муҳим, чунки мамлакатнинг иқтисодий ва сиёсий стратегияси, халқаро алоқалар билан биргаликда, ўзининг суверенитетини сақлашга қаратилган бўлиши керак.

Минтақавий хавфсизлик: Ўзбекистоннинг роли

Минтақавий хавфсизлик ҳам Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий йўналишларидан бири хисобланади. Глобализация билан бирга, халқаро хавф-хатарлар ва терроризм каби янги таҳдидлар пайдо бўлди. Ўзбекистоннинг Марказий Осиё минтақасидаги позицияси кучайган сари, унинг халқаро хавфсизликка қўшган ҳиссаси ҳам ошиб боради. Шавкат Мирзиёевнинг сўзларига кўра, "Марказий Осиё ҳудуди нафақат хавфсизлик, балки ривожланиш ва барқарорлик учун ҳам муҳим ҳудуддир" (Мирзиёев, 2020) [1].

Ўзбекистоннинг минтақавий хавфсизликни таъминлашга қаратилган сиёсатлари, янги таҳдидлар ва глобал хавф-хатарлар билан курашишда бир қатор муаммоларни келтириб чиқармоқда. Мисол учун, терроризм, гиёҳванд моддалар савдоси ва трансмиллий жиноятчилик каби глобал таҳдидларга қарши курашиш учун давлатлар ўртасида ҳамкорлик зарур. Ислом Каримов (1997) таъкидлаганидек, "Халқаро хавфсизликни таъминлашда Ўзбекистоннинг роли нафақат минтақада, балки глобал миқёсда ҳам муҳим аҳамиятга эга". [6]

Иқтисодий дипломатия: Халқаро алоқаларни кенгайтириш

Ўзбекистоннинг иқтисодий дипломатияси ҳамда халқаро алоқаларникенгайтириш, глобализация жараёнида алоҳида мухим аҳамиятга эга.Президент Мирзиёевнинг ўз сўзларида: "Халқаро иқтисодий алоқаларни мустаҳкамлаш, янги инвестицияларни жалб қилиш, ва Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш – бизнинг энг асосий мақсадларимиздан бири" [1]. Иқтисодий дипломатия орқали Ўзбекистон, глобал савдога киришиш ва янги бозорларни очиш имкониятларига эга бўлади. Шунга қарамай, иқтисодий дипломатиянинг муваффақияти Ўзбекистоннинг миллий қадр-қимматларини сақлаб қолишга қаратилган стратегиясига боғлиқ. Менинг фикримча, иқтисодий дипломатия фақатгина ташқи бозорларга кириш билан чекланмаслиги керак. Унинг асосий мақсади ички иқтисодий ривожланишни рағбатлантириш, янги технологияларни мамлакатга жалб қилиш ва инновацияларни жорий этиш бўлиши лозим.

Дунё сиёсатчиларининг Ўзбекистон глобализациясига нисбатан фикр ва мулоҳазалари

Дунё сиёсатчилари ва олимларининг фикрларига кўра, глобализация жараёнлари Ўзбекистонга янги имкониятлар келтирса-да, унинг олдида турган мураккабликларни ҳам ҳисобга олиш зарур. Қуйида айрим дунё сиёсатчилари ва олимларининг фикрлари келтириб ўтилган:

Кофи Аннан – БМТнинг собиқ Бош котиби: Глобализация ҳақида гапирганида, Кофи Аннан шундай деган эди: "Глобализация — бу нафақат иқтисодий жараён, балки ижтимоий ва маданий ўзгаришларнинг катта тизими. Барча давлатлар учун у имкониятлар яратади, аммо, шунингдек, янги муаммоларни келтириб чиқаради". Бу фикр Ўзбекистонга ҳам тегишли, чунки глобализация жараёнлари Ўзбекистонга янги имкониятлар яратмоқда, аммо баъзи хатарлар ҳам мавжуд. Ўзбекистоннинг ривожланиши глобализация жараёнларини муваффақиятли бошқаришга боғлиқ. [5]

Ҳенрй Киссингер – АҚШнинг собиқ давлат котиби: Киссингер глобализация ҳақида гапирганида: "Дунё сиёсатининг ўзгарган панорамасида,кичик ва ўрта мамлакатлар ўз мустақилликларини сақлаш учун

янги стратегиялар ишлаб чиқишлари керак", — деган. У Ўзбекистон каби давлатлар учун глобал тизимга кириш, аммо ўз миллий манфаатларини ҳимоя қилиш, жуда муҳим эканлигини таъкидлаган [3].

Фареэд Закариа – Сиёсатшунос, журналист: Фареэд Закариа ўзининг "Тҳе Пост-Америсан Wорлд" (Америкадан кейинги дунё) китобида глобализация жараёнининг давлатларга таъсирини таҳлил қилади. У глобализация нафақат иқтисодий, балки сиёсий таъсирларни ҳам ўз ичига олади, деб ёзади. "Ўзбекистон каби давлатлар, ўз ҳудудида иқтисодий ўсишни таъминлаш ва сиёсий суверенитетни сақлаш учун глобал алоқаларниўрнатиш орқали янги имкониятлар яратиши мумкин", — деб таъкидлади Закариа [4].

Хулоса

Глобализация жараёнлари Ўзбекистон учун янги имкониятлар яратсада, бу билан бирга катта хавф-хатарлар ҳам пайдо бўлади. Миллий манфаатларни ҳимоя қилиш ва ташқи сиёсатда янги дипломатик ёндашувларни қўллаш, мамлакатнинг глобал тизимдаги ўрнини мустаҳкамлашга ёрдам беради. Шу билан бирга, глобал бозор ва сиёсатнинг муаммолари олдида, Ўзбекистоннинг сиёсий ва иқтисодий мустақиллигини сақлашга доим эътибор бериш керак. Агар Ўзбекистон минтақавий хавфсизликдаги ролини халқаро ҳамкорлик орқали мустаҳкамласа, бу унинг глобал тизимдаги мавқеини янада оширади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев, Ш. (2017). Ўзбекистон ташқи сиёсатининг янги йўналишлари. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти.
2. Каримов, И. (2019). Глобализация ва кичик давлатлар: муаммолар ва имкониятлар. Тошкент: Ўзбекистон Давлат Нашриёти.
3. Киссингер, Ҳ. (2001). Дипломасй. Hew Ёрк: Симон & Счустер.
4. Закариа, Ф. (2008). Тҳе Пост-Америсан Wорлд. Hew Ёрк: W.W. Нортон & Сомпанй.
5. Кофи Аннан "Тҳе Глобализатион оф Повертй анд тҳе Hew Wорлд Ордер" (1999)
6. Каримов, И. (1997) "Ўзбекистон: Миллий истиқлол ва иқтисодий тараққиёт йўлида"

Ш.Ў. Жавлиева – *ISFT - School of Finance Technology and Science International instituti талабаси*

МАНФААТЛАР ТЎҚНАШУВИ ЖАРАЁНИДА ДАВЛАТЛАРНИНГ СИЁСИЙ ПОЗИЦИЯЛАРИ

ХХ1 асрда халқаро муносабатлар тизими ўзгача босқичга кирди. Сўнгги йилларда дунёда йирик давлатлар ўртасидаги қуролли тўқнашувлар ва геосиёсий рақобат кучайиб бормоқда. Россия-Украина уруши, Фаластин-Исроил можароси, Эрон ва АҚШ ўртасидаги кескинлик, Хитой-Тайван масаласи каби зиддиятлар нафақат минтақавий, балки глобал хавфсизликка таҳдид солмоқда.

Дунёдаги аксар ривожланган ва ривожланаётган давлатлар ушбу можаролар юзасидан ўз позициясини билдирмоқда. Баъзи давлатлар бетарафликни танласа, бошқалари фаол иштирокчи сифатида саҳнага чиқмоқда. Ушбу мақолада замонавий давлатлар тўқнашуви ва унга тинч ҳамда нотинч давлатларнинг муносабати таҳлил қилинади.

Мазкур тадқиқот мавзусини ёритишда замонавий халқаро сиёсий жараёнлар, ҳарбий можаролар ва глобал хавфсизлик муаммоларини қамраб олган кенг кўламли илмий адабиётлар, таҳлилий материаллар, халқаро ташкилотлар ҳисоботлари ва етакчи ахборот воситаларининг долзарб маълумотларидан фойдаланилди. Аввало, халқаро хавфсизлик тизими, геосиёсий мувозанат ва ҳарбий низо муаммолари бўйича асосий манбалардан бири бўлган Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ)нинг сўнгги йиллардаги ҳисоботлари батафсил ўрганилди. БМТнинг йиллик ҳисоботлари ва резолюцияларида бугунги кунда дунёда мавжуд бўлган енг йирик можаролар, уларнинг босқичлари, сабаблари ва глобал миқёсдаги оқибатлари атрофлича ёритилган. Хусусан, Россия-Украина уруши, Фаластин-Исроил можароси, Ерон ва АҚШ ўртасидаги кэскинлик, шунингдек, Хитой-Тайван масаласи юзасидан БМТ томонидан берилган баҳолар ва чоралар мазкур мақоланинг назарий асосини мустаҳкамлади.

Шунингдек, нуфузли халқаро тадқиқот марказларидан бири ҳисобланган **Стокголм Халқаро Тинчлик Тадқиқот Институти (СИПРИ)** томонидан еълон қилинадиган йиллик статистик маълумотлар ва таҳлилий шарҳлар асосий манбалар қаторида туради. СИПРИ ҳисоботларида дунё бўйлаб ҳарбий харажатларнинг йиллик ўсиши, йирик давлатларнинг қуролланиш суръатлари, можаролар ўчоғига айланаётган ҳудудлар, шунингдек, қурол савдосининг глобал тақсимоти таҳлил қилинади. Айниқса, 2024-йилги ҳисоботда Россия-Украина урушининг глобал ҳарбий харажатларга, халқаро хавфсизликка ва иқтисодий барқарорликка таъсири алоҳида кўрсатиб ўтилган.

Тадқиқот жараёнида **Жаҳон Банки** ва **Халқаро Валюта Жамғармаси (ИМФ)** томонидан тайёрланган сўнгги иқтисодий ҳисоботлар ҳам муҳим манба бўлди. Ушбу халқаро молиявий институтлар можаролар туфайли юзага келган глобал иқтисодий оқибатларни чуқур таҳлил қилиб, қатор минтақаларда иқтисодий ўсиш суръатларининг пасайиши, инфляция даражасининг ошиши ва ижтимоий танглик кучайиши ҳолатларини кўрсатиб берган. Айниқса, Россия-Украина уруши оқибатида юзага келган енергетик инқироз ва озиқ-овқат хавфсизлиги билан боғлиқ муаммолар глобал иқтисодиётга катта зарба бўлгани алоҳида таъкидланган.

Мазкур мақолани тайёрлашда халқаро ва маҳаллий ахборот агентликлари, таҳлилий марказлар ва олимларнинг мақолалари, шарҳлари ҳам кенг ўрганилди. **ББС**, **Реутерс**, **Ал Жазеера**, **Тҳе Гуардиан** каби нуфузли ахборот воситалари томонидан еълон қилинган долзарб материаллар воқеалар ривожини кундалик мониторинг қилиб боришда асосий манба вазифасини ўтади. Айниқса, ушбу манбаларда берилган интервюлар, таҳлилий мақолалар ва халқаро сиёсий експертларнинг фикрлари можаролар таҳлилини янада чуқурлаштириш имконини берди.

Методологик жиҳатдан тадқиқотда бир нечта ёндашувлар уйғунлаштирилди. Аввало, **системали таҳлил усули** орқали ҳар бир можаронинг пайдо бўлиш сабаблари, ривожланиш босқичлари ва унинг халқаро майдондаги таъсири кетма-кет таҳлил қилинди. Ҳар бир зиддиятга хос хусусиятлар алоҳида ўрганилиб, умумий хулосалар чиқарилди. **Солиштирма таҳлил методи** ёрдамида турли минтақалардаги можаролар ўзаро қиёсланди, уларга жалб қилинган давлатларнинг ҳаракати ва баёнотлари таҳлил қилинди. Бу ёндашув, айниқса, йирик давлатлар ва минтақавий кучларнинг ўзаро қарама-қаршиликларини аниқлашда муҳим бўлди.

Бундан ташқари, **статистик таҳлил** усули орқали халқаро ташкилотлар ва таҳлилий марказлар томонидан тақдим етилган рақамли маълумотлар жадвал ва графиклар шаклида умумлаштирилди. Бу еса воқеаларнинг конкрет миқёсини кўрсатиш ва уларнинг ўсиш динамикасини аниқлаш имконини берди. **Емпирик ёндашув** асосида еса реал ҳаётдаги воқеалар, халқаро тажрибалар ва мавжуд статистик маълумотлар таҳлил қилиниб, аниқ хулосалар чиқарилди.

Яна бир муҳим усул сифатида **сиёсий-ҳуқуқий таҳлил** қўлланилди. Ҳар бир можаро юзасидан халқаро ҳуқуқ нормалари, давлатларнинг расмий баёнотлари, халқаро ташкилотлар томонидан қабул қилинган резолюциялар ва шартномалар ўрганилди. Бу орқали можароларнинг халқаро ҳуқуқ доирасида қандай талқин қилиниши, қайси томонларнинг қанчалик ҳақли ёки ноҳақлиги ҳақида хулоса чиқарилди.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур мақолада қўлланилган манбалар ва методлар мавзуга комплекс ёндашиш, долзарб масалаларни атрофлича ўрганиш ва аниқ хулосалар чиқаришга хизмат қилди. Адабиётлар таҳлили ва методологик ёндашувларнинг уйғунлиги еса тадқиқотнинг илмий асосланганлигини таъминлади.

Бугунги кунда дунёда кечаётган сиёсий жараёнлар, айниқса йирик давлатлар ўртасидаги тўқнашувлар нафақат минтақавий, балки глобал миқёсда хавотирли оқибатларга олиб келмоқда. Мазкур ҳолат жаҳон сиёсий тизимида шаклланган мувозанат бузилишига, халқаро ҳуқуқ меъёрлари ва универсал қадриятларнинг инқирозга юз тутишига сабаб бўлаётгани кузатилмоқда. Хусусан, Россия ва Украина ўртасида бошланган уруш бугунги кунда бутун дунё ҳамжамиятини чуқур ўйлантираётган энг йирик сиёсий ва ҳарбий можарога айланган. Бу уруш жаҳон сиёсий майдонида кэскин блоклашиш, иқтисодий санксиялар ва ҳарбий-техник ёрдамларга асосланган янги "совуқ уруш" муҳитини юзага келтирмоқда.

БМТ, Европа Иттифоқи, НАТО каби нуфузли халқаро ташкилотлар ушбу можарога турлича ёндашиб келмоқда. Хусусан, НАТО давлатлари Украина суверенитетини қўллаб-қувватлаш, унга ҳарбий ва молиявий ёрдам кўрсатиш орқали ўз позициясини мустаҳкамлашга ҳаракат қилмоқда. Шу билан бирга, баъзи нейтрал позицияда турган давлатлар, жумладан, Хитой, Ҳиндистон, Туркия можарони музокаралар йўли билан ҳал етиш тарафдори бўлиб чиқмоқда. Хусусан, Хитой халқаро майдонда тинчлик ташаббусларини илгари суриб, глобал хавфсизлик тамойилларини мустаҳкамлаш зарурлигини таъкидламоқда.

Бундан ташқари, Исроил ва Фаластин ўртасидаги доимий зиддият ҳам бугунги глобал сиёсий кун тартибининг енг оғриқли нуқталаридан бири бўлиб қолмоқда. Айниқса, 2023-2024 йилларда яна аланга олган Ғазо сектори атрофидаги қуролли тўқнашувлар минглаб бегуноҳ инсонлар ҳаётига зомин бўлди. БМТ, Ислом ҳамкорлик ташкилоти, Араб давлатлари лигаси ва бошқа нуфузли ташкилотлар томонидан бир неча бор зудлик билан сулҳга чақирувлар янгралди, бироқ амалий натижалар ҳали ҳам кутилган даражада емас. Бу еса халқаро ҳуқуқнинг заифлашуви ва куч ишлатиш воситаларининг устуворлиги ортиб бораётганини кўрсатмоқда.

Можаролар глобал даражада нафақат ҳарбий, балки иқтисодий ва ижтимоий барқарорликка ҳам бевосита таъсир ко‘рсатмоқда. Айниқса, Украинадаги можаро дунёда енергетика инқирози, озиқ-овқат танқислиги, глобал инфляция ва қашшоқлик даражасининг ортишига сабаб бо‘лди. Россияга нисбатан қо‘лланилган санксиялар Европа давлатлари иқтисодиётига ҳам жиддий зарба берди. Айни пайтда бу жараёнлар дунё бо‘йлаб янги геосиёсий иттифоқлар шаклланишига, Осиё, Яқин Шарқ ва Африка давлатларининг о‘заро яқинлашишига туртки бо‘лмоқда.

Ҳар бир можаро бевосита ёки билвосита дунё миқёсида катта ўзгаришларни келтириб чиқармоқда. Дунёнинг тинч давлатлари, хусусан, Ўзбекистон каби нейтрал сиёсат юритувчи мамлакатлар еса бу жараёнларни диққат билан кузатиб бормоқда ва барча ҳаракатларини дипломатик йўл билан муросага еришиш, минтақавий ва глобал тинчликни сақлашга қаратмоқда. Зеро, ҳар қандай можаро охир-оқибат барча давлатларга зарар келтиради, дунё миқёсида беқарорлик кучайишига сабаб бўлади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ушбу можаролар тинчликсевар давлатлар учун жаҳон сиёсатида ўз ўрнини топиш, халқаро майдонда муросали ёндашувларни илгари суриш ва глобал хавфсизликка ўз ҳиссасини қўшиш учун муҳим имкониятдир. Ўзбекистон ҳам ушбу жараёнларда фаол иштирок етиб, халқаро анжуманларда тинчлик тарафдори сифатида доимий равишда ўз позициясини билдириб келмоқда.

Бугунги дунё мураккаб геосиёсий тўқнашувлар гирдобида қолмоқда. Турли давлатлар ўртасидаги можаролар нафақат минтақавий барқарорликни, балки глобал тинчлик ва хавфсизликни ҳам таҳдид остига қўймоқда. Айниқса, Россия ва Украина ўртасидаги уруш, Фаластин-Исроил можароси, Хитой-Тайван кэскинлиги ва Ерон-Ғарб зиддияти каби йирик геосиёсий ҳодисалар халқаро муносабатлар тизимида жиддий муаммоларни келтириб чиқармоқда. Ушбу низолар натижасида дунё иқтисодиёти инқироз ёқасига келиб, енергетика бозоридаги ўзгаришлар, озиқ-овқат хавфсизлигининг ёмонлашуви, қашшоқлик ва инфляция даражасининг ошиши каби нохуш оқибатлар юзага келмоқда.

Жаҳон ҳамжамияти ушбу можароларга турлича ёндашмоқда. Айрим давлатлар ҳарбий ҳамкорлик ва иқтисодий санксиялар орқали муайян тарафни қўллаб-қувватлаётган бўлса, бошқалари дипломатик йўллар билан низоларни юмшатишга интилмоқда. Хитой ва Туркия каби давлатлар воситачилик қилишга ҳаракат қилаётган бўлса, АҚШ ва Европа давлатлари ўз иттифоқчиларини қувватлаш йўналишида қатъий ҳаракат қилмоқда. Бу еса халқаро сиёсатнинг блокларга ажралишига олиб келмоқда.

Шунингдек, ушбу можаро ва зиддиятларнинг халқаро ҳуқуқ тизимига таъсири ҳам кэскин сезилмоқда. БМТ, Европа Иттифоқи, Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти каби халқаро тузилмалар можароларни ҳал қилишда етарлича самарали воситага ега емаслиги намоён бўлмоқда. БМТ Хавфсизлик Кенгаши доирасида қарорлар қабул қилинишида айрим давлатларнинг вето ҳуқуқидан фойдаланиши халқаро ҳамжамиятнинг можароларга нисбатан жипс ҳаракат қилиши имкониятларини чеклаб қўймоқда.

Шу билан бирга, глобал миқёсда тинчликсевар давлатларнинг роли ортиб бормоқда. Ўзбекистон каби бетарафлик ва прагматик ташқи сиёсат юритаётган давлатлар халқаро мулоқот майдонларида фаол иштирок етиб, можароларни дипломатик йўл билан ҳал қилишга чақирмоқда. Бу еса глобал барқарорликка ўз ҳиссасини қўшиш, геосиёсий муаммоларни тинч йўл билан бартараф етишда воситачилик қилиш имконини беради.

Умуман олганда, бугунги геосиёсий жараёнлар дунё ҳамжамиятининг келажагини шакллантиришда муҳим аҳамият касб етмоқда. Давлатларнинг ўзаро ҳамкорлиги, халқаро ҳуқуқ тамойилларига риоя қилиши ва низоларни тинч йўл билан ҳал етиш тамойилларига содиқлиги жаҳон тинчлигининг гарови ҳисобланади. Шу сабабли, глобал ҳамжамият сиёсий манфаатларни инсонпарварлик тамойилларидан устун қўймаслиги, можароларни ҳарбий куч билан емас, балки музокаралар орқали ҳал етишга интилиши лозим.

Келажакда халқаро муносабатларнинг ривожланиши шуни кўрсатадики, давлатлараро ҳамкорликнинг мустаҳкамланиши, кўп томонлама дипломатик мулоқотларнинг ривожланиши ва халқаро ташкилотларнинг роли ошиши можароларнинг олдини олиш ва барқарорликни таъминлаш учун асосий омиллардан бири бўлиб қолади. Айниқса, нейтрал давлатларнинг воситачилик ташаббуслари ва тинчлик ўрнатишга қаратилган глобал ҳаракатлар муҳим аҳамият касб етади. Шу боис, дунё миқёсида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш учун ҳар бир давлат ўз имкониятларидан келиб чиқиб масъулиятни ҳис етиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. БМТ Хавфсизлик Кенгаши ҳисоботлари. шшш.ун.орг
2. СИПРИ Еарбоок 2024 – Армаменц, Дисармамент анд Интернатионал Сесуритй.
3. Жаҳон Банки – Глобал Есономис Проспесц 2024.
4. ИМФ – Шорлд Есономис Оутлоок, 2024.
5. ББС Нешс – Руссиа-Украине шар упдатес.
6. Ал Жазеера – Миддле Еаст Сонфлист Совераге.
7. Реутерс – Глобал Геополитисал Тенсионс Репорц.
8. Тҳе Гуардиан – Чина-Таишан Сонфлист Аналйсис.
9. Халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ва халқаро ташкилотларнинг расмий маълумотлари.

Sh.Sh. Sadriddinov *– Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi*

XITOYNING 2050-YILGACHA BO'LGAN STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XITOY AQL MARKAZLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Mavzuning mohiyatini ochib berishdan oldin, Xitoy dunyoning ikkinchi eng yirik iqtisodiyotiga va dunyoning uchinchi eng yirik harbiy qudratiga erishgan yo'lini qisqacha yoritsam. Bu yo'lning boshi "Xitoy islohotlar otasi" deb tanilgan Den Syaopen bilan boshliq. Dunyoda Sovuq urush davom etayotgan vaqtda 1978-yilda u iqtisodiyotda tub islohotlar boshladi. Mamlakat "Bozor iqtisodiyotiga" o'tishini e'lon qildi va xorijiy mamlakatlar bilan savdo, moliya ishlarini olib bora boshladi. 1978-yilda Xitoy eksporti 10 mlrd dollar artofida edi. Den Syaopenning boshlagan islohotlari natijasida 1978-1990-yillar davomida Osiyo ajdarining YaIMisi 8-9% dan oshib bordi. Undan tashqari Shenchjen, Chjuhay, Shantou, Szyamen kabi hududlarda maxsus iqtisodiy zonalar shakllantirdi. Bu hududlarga xorijiy davlatlar investorlarini jalb qila boshladi. Tashqi siyosatda esa AQSH bilan diplomatik aloqalarni tiklab, ko'plab ilg'or texnologiyalarni Xitoyga jalb eta boshladi. 1990-2000 yillar oralig'ida Xitoy "Jahon fabrikasi"ga aylana boshladi. 1992-yil Den Syaopen Janubiy provinsiyalarga sayohati natijasida bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish kerak degan qarorga keldi. Xitoy Jahon Savdo Tashkilotiga(JST) kirishga tayyorlana boshladi. YaIM yiliga 9-10% osha boshladi. 1999-yilda eksport hajmi 195mlrd dollarga yetdi. Shu vaqtlarda Buyuk Britaniyadan GongKongni qaytarib oldi. Xitoy XX asr oxiriga kelib komputer va elektronika ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi davlatlardan biriga aylandi. 2001-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilgandan so'ng Xitoyning imkoniyatlarni yanada kengaydi. Eksport hajmi 2001-yilda 266 mlrd dollar, 2010-yilga kelib esa 1,55 trln dollarga yetdi. 2008-yilgi iqtisodiy inqirozda G'arb davlatlaridan farqli o'laroq, Xitoy 4 trln yuanlik, ya'ni, 570 mlrd dollarlik iqtisodiy stimulyatsiya dasturni yo'lga qo'ygani natijasida inqiroz Xitoy iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazmadi. 2010-yilga kelib YaIM o'sishi yiliga 10,6% tashkil etdi. Xitoy global savdo markaziga aylandi. 2013-yilda Si Szipin tomonidan e'lon qilingan "Bir kamar, bir yo'l" loyihasi Xitoy ham iqtisodiy, ham siyosiy tasirini yanada kengaytirish niyati borligidan dalolat berdi. 2020-yilga kelib bu loyiha bo'yicha 140 dan ortiq davlat bilan shartnomaga erishdi va bu loyihada 1 trln dollar sarmoya ajratildi. Shu davrdan boshlab Xitoy AQSH bilan ochiqchasiga raqobatga kirisha boshladi. 10-yil ichida Xitoy YaIMsi 2 barobardan ko'proq oshdi, yani, 2010-yilda 6 trln dollar bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 14,7 trln dollarga yetdi. Xitoy 2021-yilgi COVID-19 pandemiyasidan birinchi bo'lib tiklandi va 2021-yilda yiliga 8,1% iqtisodiy o'sishni ko'rsatdi. 2022-yilgi Rossiya-Ukraina urushi natijasida Rossiya bilan yaqinlashdi. 2023-yilda Xitoy-Rossiya savdosi 190 mlrd dollarda yetdi. AQSH Xitoyga qo'ygan sanksiyalari va Tayvan mojarosi hozirga qadar davom etmoqda. Ammo Xitoy rivojlanishi pasaygani yo'q.

Albatta bu Xitoyning qisqa vaqt ichida dunyo yetakchilaridan biriga aylanishi va hozirgi kundagi strategiyalari o'z-o'zidan tuzilib qolgani yo'q. Xitoy dunyoda aql markazlari soni va sifati bo'yicha AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi va bu tez orada yuqorilash arafasida. Xitoyning aql markazlari mamlakat rivojlanishi uchun samarali xizmat qilgan va qilayotgan rejalar va strategiyalarining go'yasini

shakllantirgan. Xitoyda bir qator yirik aql markazlari mavjud: Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi(CASS), Xitoy Zamonaviy Xalqaro Munosabatlar Instituti(CICIR), Xitoy Xalqaro Munosabatlar instituti(CIIS), Xitoy Tashqi ishlar universiteti(CFAU), Xitoy iqtisodiy tadqiqotlar markazi(NDRC), Janubiy Xitoy Dengizi tadqiqot instituti(NISCSS). Bu aql markazlarni davlat siyosatida o'z o'rni va roli mavjud. Xitoy tashqi va ichki siyosatini belgilashda bu aql markazlarning o'rni bo'lakcha. Ta'kidlab o'tish lozimki bularning hammasi hokimiyatga to'g'ridan to'g'ri xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan "Bir kamar, bir yo'l" loyihasi Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi (CIIS) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu loyiha dastlab ilmiy-nazariy jihatda ishlab chiqilgan. 2013-yilda esa rasman e'lon qilinib, hozirgacha samarali ishlab kelmoqda. AQSH bilan Xitoy savdo urushi bo'yicha hokimiyatga strategik reja ishlab bergan Xitoy Zamonaviy Xalqaro Munosabatlar Instituti (CICIR) hisoblanadi. Bu strategiya natijasida AQSH bilan 2020-yilda "Birinchi boshqich" savdo kelishuvi imzolangan. Janubiy Xitoy dengizi tadqiqot institute (NISCSS) mintaqadagi Xitoy da'volarini mustahkamlash uchun ilmiy dalillar tayyorlangan va mintaqa bo'yicha harbiy strategiya tuzgan. Buning natijasida Xitoy da'volarini Xalqaro Sud rad etganda, aql markazi tomonidan tayyorlangan manbalar asosiga Xitoy pozitsiyasini xalqaro maydonga targ'ib qilgan. Rossiya bilan yaqinlashuv va "Chegara muammolari" bo'yicha 1990-yillarda Xitoy xalqaro munosabatlar instituti (CICIR), Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi (CASS) tadqiqot olib borgan va Xitoy-Rossiya munosabatlarini yaxshilash uchun strategik tavsiyalar bergan. Natijada esa 2001-yilda Xitoy va Rossiya o'rtasida "Strategik sheriklik" shartnomasi imzolangan. 2004-yilda esa tarixiy chegaraviy ziddiyatlar batamom hal qilingan. Afrika davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha izlanishlarni Xalqaro va Strategik tadqiqotlar institute (CIIS) olib borgan. Natijada 2006-yilda Xitoy-Afrika hamkorlik forumi (FOCAC) o'tqazilgan. Ko'rib turganingizdek Xitoy aql markazlari tomonidan o'tqazilgan izlanishlar va tadqiqotlar mamlakat tashqi va ichki siyosatiga ta'sir o'tkazgan. Bu kabi tuzilgan reja va strategiyalar yetarlicha, ammo men hozir 2050-yilgacha tuzilgan va amalga oshirilayotgan strategiyalar va ularni shakllantirishda aql markazlarning roli haqida gapirmoqchiman. Xitoyning 2050-yilgacha bo'lgan reja va strategiyalari "Xitoy orzusi" konsepsiyasi asosida shakllangan va mamlakat siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan global maydonda yetakchi bo'lishni o'z oldiga maqsad qilgan. Bu maqsadga erishish uchun bir qator loyiha, reja va strategiyalarni tuzgan. Misol uchun: "2035-yilgacha sotsialistik modernizatsiyani amalga oshirish" strategiyasi XXP tomonidan qabul qilingan. Bu rejada 2049-yilgacha Xitoyni dunyoning eng ilg'or davlatlari qatoriga qo'shish maqsadi bor. Bu ma'lumot XXPning 19 va 20-chaqiriq Qurultoy bayonotlarida (2017, 2022) e'lon qilingan. Yana biz bilamizki Xitoyning "Made in China 2025" dasturi bor edi. Bunga ko'ra 2025-yilgacha dunyoning eng ilg'or texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi mamlakatga erishish maqsad qilingan edi. Bu loyiha bo'yicha yaxshi natijalar olindi va bu loyiha yana davom etmoqda. Shuningdek, Xitoy 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishishni reja qilgan. Buni amalga ochirish yo'lida juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Eletromobillar ishlab chiqarishda dunyoning eng oldi mamlakati hozirda Xitoy hisoblanadi. Undan tashqari faqatgina mashinalar emas, balki zavodlarni ham tabiatga zarar yetkarmaydigan qilib tayyorlash Xitoyning eng oldi maqsadlaridan hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan "Bir kamar, bir yo'l" loyihasi orqali esa Xitoy 2050-yilga qadar o'z iqtisodiy va geosiyosiy ta'sirini kengaytirishni reja qilgan. Buning nazariyasi bo'yicha esa Xitoy

ijtimoiy fanlar institute (CAAS) boshchiligida ish olib borilmoqda. Bu keng qamrovli loyiha asosida Xitoy o'z ta'sir doirasini asosan Janubiy mintaqalarga, ya'ni, Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyo kabi hududlarga yoyishni maqsad qilgan. Harbiy sanoatda esa Xitoy 2049-yilgacha dunyoning eng kuchli armiyasiga ega bo'lish yo'lini bosqichma bosqich reja qilgan. Shuningdek bu qudrat bilan Janubiy dengizdagi Xitoy da'volarini mustahkamlashga erishmoqchi. Nafaqat Janubiy dengiz balki bunday qudrat bilan dunyoning ixtiyoriy joyiga da'vo qilishi va ta'sir o'tqazishi mumkin. Bu bo'yicha ilmiy-nazariy jihatlarini Janubiy Xitoy dengizi tadqiqot instituti (NISCSS) va Xalqaro va Strategik tadqiqotlar instituti (CIIS) ish olib bormoqda. Kelajakdagi rejalaridan biri "Bitta Xitoy tamoyili" asosida tinch yo'l bilan yoki zarur bo'lsa kuch ishlatib tarkibiga qo'shishni o'z ichiga olgan. Albatta, Tayvandek muhim geosiyosiy va iqtisodiy hududni kim ham berib yuborgisi kelardi? Xitoy hozirda hech qanday urushga to'g'ridan to'g'ri aralashgani yo'q. Hozirda Xitoy tayyorlanish jarayonida bo'lib, kelajakda Xitoy ta'sir doiralari oshaversa va harbiy iqtisodiy jihatdan rivojlanish yo'lida to'xtamasa, Xitoyga qarshi turadigan kuch topish qiyinlashadi.

Xitoyning 2050-yilgacha bo‘lgan strategik maqsadlarini shakllantirish jarayonida aql markazlari muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu ilmiy-tahliliy institutlar mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, tashqi va ichki siyosatni shakllantirish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda yetakchi o‘rin tutadi. Xitoy hukumati aql markazlarini faol qo‘llab-quvvatlab, ularning ilmiy-tahliliy salohiyatidan geosiyosiy strategiyalarni ishlab chiqishda foydalanmoqda. Ayniqsa, "Yangi islohotlar to‘lqini" va "Bir makon, bir yo‘l" kabi global tashabbuslarning shakllanishida bu markazlarning hissasi katta.

Xulosa qilib aytganda, Xitoyning 2050-yilgacha bo‘lgan strategiyalarini shakllantirishda aql markazlari intellektual tahlil va strategik rejalashtirishning muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kelajakda ushbu markazlarning nufuzi yanada oshib, Xitoyning global ta'sirini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://www.cicir.ac.cn/NEW/index.html
2. https://www.cssn.cn/
3. https://www.gov.cn/

7-SHO‘BA: YANGI GEOSIYOSIY MUAMMOLAR KONTEKSTIDA MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI

О. Сирожов *– Тошкент кимё-технология институти Ижтимоий-сиёсий фанлар кафедраси мудири, с.ф.д., профессор*

МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЙ ЖАРАЁНЛАР: МУАММОЛАРДАН ИМКОНИЯТЛАР САРИ

Ҳозирги даврда халқаро тартиботларни трансформация қилишга уринаётган глобал кучлар амалга оширилаётган геосиёсий стратегияларини қуйидагича изоҳлаб ўтиш мумкин.

1. Табиий ресурслар ва географик маконда устунлик учун курашиш. Маълумки, кучлар жиҳатидан тенг бўлган шароитда бой табиий ресурсга эга бўлган мамлакатлар доимо ғолиб келишган.

2. География жойлашувдаги устунлик. Бу ерда ҳар томонлама шу жумладан, ҳарбий жиҳат инобатга олинади. Кучли бўлган давлатлар билан қўшни бўлган давлатлар билан кўпроқ чегаравий ҳудудга эга бўлган давлатга нисбатан маълум бир имтиёзли устунликка эга бўлиши назарда тутилган.

3. “Хартленд” тизимига кирувчи мамлакатларни майда қисмларга ажратиш (фрагментация). Бир нечта фронтларда ташқи таҳдидларга дуч келаётган мамлакатлар пировард оқибатда майда давлатлар сонини кўпайтириб юбормоқда.

4. Туб ўзгаришлар жараёни ва ҳал этувчи урушларга кенг эътибор бериш.

5. Дизинтеграция ва ўз ҳудудини чексиз кенгайтиришга интилиш. Геосиёсий мақсадлар муайян давлатлар ўз мавқеи ва таъсирини ўзга ҳудуд ва минтақаларда кучайтиришга қаратилган сиёсатини ифода этади.

Бундай сиёсатни амалга оширишга ҳаракат қилаётган геосиёсий кучлар Марказий Осиёда қуйидаги муаммолар ва омиллар билан ҳисоблашган ҳолда ҳаракат қилишади. Бу чегара ва сув муаммоларини кескинлаштириш орқали минтақани бирлашишига йўл қўймаслик ҳисобланади.

Марказий Осиё геосиёсий марказларидан бири ҳисобланади. Таниқли сиёсатшунос ва давлат арбоби З.Бжезинский минтақаларни, давлатларни геосиёсий нуқтаи – назардан таҳлил қилиб икки гуруҳга бўлади.

- геосиёсий марказлар;
- геостратегик ҳаракатланувчи кучлар.

У Марказий Осиёни ҳам геосиёсий марказлар қаторига қўшади[2]. Геосиёсий марказларга геостратегик ҳаракатланувчи кучларнинг интилиши мавжуд. Марказий Осиёдаги геостратегик ҳаракатланувчи кучларга Россия, Хитой, АҚШ, давлатларини киритиш мумкин.

Ички минтақавий хавфсизликка келадиган бўлсак, асосий таҳдид этувчи омиллар этник муносабатлар, давлатлар ўртасидаги чегара масалаларини ҳал қилинмаганлиги, сув ресурслари билан боғлиқ муаммолар ва бошқалардир.

[2] З.Бжезинский. Великая шахматная доска. Москва, «Международное отношение», 2002, стр.63

Давлатлар ўртасидаги чегара муаммосига келсак, Фарғона водийси яққол мисол бўла олади. Фарғона водийсида учта республика чегаралари туташган. Бундан ташқари бу маскан дунёдаги аҳоли энг зич яшайдиган нуқталардан бири ҳисобланади (10 млн.га яқин аҳоли яшайди, 1км^2 360 киши тўғри келади)[4]. Марказий Осиёда чегара муаммосини ҳал қилинмай келинаётганлиги ҳам можароларга сабаб бўлиб, минтақа хавфсизлигига таҳдид солаётган эди. Кўплаб тадқиқодчилар бу фикрни қўллаб-қувватлайдилар. Минтақадаги ички сиёсий барқарорлик ҳам минтақа хавфсизлиги учун муҳим омил ҳисобланади. С.Солодовкина ички сиёсий барқарорликни таъминлашда марказий ҳокимият фаолиятини икки босқичга бўлади:

-минтақавий муаммоларни бартарф этиш;

-маълум давлатлар билан ҳамкорлик қилиш.

-Марказий Осиё халқлари минтақада геосиёсий, геомаданий, геоиқтисодий яхлитликни вужудга келтиришлари зарур. Бу қуйидаги омиллар билан изоҳланади:

- геосиёсий омиллар билан;
- геоиқтисодий омиллар билан;
- комуникацион омиллар билан.

Фикримизча, Марказий Осиёда геосиёсий яхлитликни вужудга келтириш минтақадаги кўплаб хавф ва таҳдидларни бартараф этади. Минтақа марказида жойлашган Ўзбекистон эса бунда муҳим роль ўйнайди. Бундан ташқари, геосиёсий яхлитлик минтақадаги эски тузимнинг баъзи бир иллатларини бартараф этишда ёрдам беради. Масалан 1970 йилларнинг ўрталарида Испания, Португалия, Греция Европа иттифоқига қўшилиши натижасида бу муаммолар бартараф этилди.

Т.Исмогонбетов Марказий Осиё тараққиётида иккита вариант бўлиши мумкин дейди.

1. «Давлатлар ўртасида сув, миграция, иқтисодий ва савдо шартномалари масалаларида келишмовчилик янада кучаяди.

2. Геосиёсий яхлитлик вужудга келиб, бу муаммолар биргаликда ҳал қилинади»[1] - деган фикрни олға суради. Ёки Занятин «геосиёсий яхлитликни вужудга келтириш ҳудудда, минтақага ва чегарага муносабатни ўзгартиради»[2] –деган фикрни илгари суради.

Энди таклифларимиз ҳақида тўхталсак. Улар қуйидагилар:

- Марказий Осиёга қаратилган геосиёсатга қарши сиёсий фанларнинг янги «воқеалар таҳлили» деб аталувчи тармоғини ривожлантириш, содир бўлиши эҳтимоли бор воқеаларнинг илмий сиёсий таҳминларини бериш орқали жавоб қайтариш мақсадга мувофиқ.

- ички хавфсизликни таъминлаш учун аҳолини турмуш даражасини кўтариш зарур.

- коллектив ғарб билан алоқаларни янада ривожлантириш зарур. Биз қанчалик Ғарб билан алоқаларни яхшиласак, ҳудуддаги интеграция

[4] А.Неклесса. Центральная Азия-опасный регион. Азия и Африка сегодня.2021, №6, стр.69 – 70.

[1] Исмаганбетов Т. Структурирование нового геополитического пространства Центральной Азии: региональные особенности и перспективы. Центральная Азия и Кавказ. 2002 №2(20) стр.7-16

[2] Занятин Д. Моделирование геополитических ситуаций (на примере Центральной Азии во второй половине XIX в), Полис, 1998, №2, стр.64 – 66

жараёнлари шунчалик тез кечади. Минтақага жиддий геосиёсий таъсирга эга АҚШ, Хитой ва Россия бўлса улардан АҚШ минтақа интеграциясидан манфаатдор ҳисобланади.

- мавжуд муаммоларни имконият даражасига олиб чиқишимиз муҳим. Бу балки ғалати эшитилиши мумкин. Аммо яқингача чегара муаммосини минтақани бўлинишига, можароларига сабаб бўлган жиддий минтақавий муаммо бўлган бўлса бугунга келиб у минтақани бирлаштирувчи имконият даражасига чиқмоқда. Ўзбекистон ташаббуси билан 2022 йилда Қирғизистон ва Ўзбекистон ўртасида чегара муаммосини ҳал қилиниши Қирғизистон ва Тожикистон ўртасида ҳам ана шундай тарихий келишувни амалга оширилишига сабаб бўлди. Келишувнинг энг муҳим жиҳати — икки давлат ўртасидаги чегаранинг аниқ белгилаб берилгани. Ўзбекистон ва Қирғизистон ўртасидаги чегара узунлиги 1,370 километрдан ортиқ, ва бу чегарада турли хил баҳслар, муаммолар бўлган. Тожикистон ва Қирғизистон ўртасидаги умумий чегарани белгилаш бўйича музокаралар 2002 йилда бошланган. 2022 йилгача улар мунтазам бўлмаган ва узоқ танаффуслар билан ўтказилган. Ўша пайтда чегаранинг 972 километр умумий узунлигидан томонлар атиги 50 фоиздан сал кўпроғини аниқлай олганди.

Минтақадага чегара келишувининг амалга оширилиши ва таъминланиши истиқболда бир қатор ижобий натижаларга олиб келиши мумкин. **Чегарадаги тинчлик ва хавфсизликнинг мустаҳкамланади.** Чегара келишуви амалдаги муаммоларни ҳал қилиб, чегарадаги тинчликни таъминлашга ёрдам беради. Бу мамлакатлар ўртасидаги низо ва зиддиятларнинг камайишига олиб келиб, чегара ҳудудидаги ахоли учун хавфсиз муҳит яратилади. Ушбу келишувнинг амалга оширилиши жамиятда ишончни оширади ва уларнинг аҳволини яхшилайди. **Иқтисодий ривожланиш ва савдо ҳажмининг ошмради.** Чегара алоқаларининг енгиллаштирилиши ва барқарорлиги икки давлат ўртасидаги савдо алоқаларини кучайтиради. Товарларнинг эркин айланиши, бизнес ва инвестициялар учун янги имкониятлар яратилади. Бу, ўз навбатида, икки мамлакатнинг иқтисодиётларининг мустаҳкамланишини таъминлайди. **Транспорт ва логистика алоқаларининг яхшиланади.** Чегара келишуви орқали янги транспорт йўналишлари, қурилишлар ва логистика имкониятлари орқали, товарларнинг тез ва арзон ўтказилиши таъминланади. Бу савдо соҳасида ҳамкорликни оширади, ҳамда минтақавий иқтисодий интеграцияни кучайтириши мумкин. **Албатта чегара масаласи ва бу борада кейинги пайтлардаги ютуқларимиз ва уларни мустаҳкамлаш алоҳида мавзу. Биз юқорида қисқача тўхталиб сиёсий ирода ва технология орқали муаммони имконият даражасига олиб чиқишимиз бу имкониятлар эса минтақани бирлаштиришга хизмат қилишини асослашга ҳаракат қилдик.**

Хуллас минтақани геосиёсий ракурсда таҳлил қиладиган бўлсак жиддий чақириқлар билан муҳим имкониятлар мавжудлигини кузатиш мумкин. Ана шу имкониятларни реал кучга айлантириш эса тадқиқотчиларимиз олдидаги муҳим вазифа ҳисобланади.

Ф.З. Равшанов *- "Ренессанс" таълим университети профессори, с.ф.д.*

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ГЕОСИЁСИЙ МАВҚЕИ ВА УНИНГ ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИ

Замонавий дунёда Марказий Осиё Евроосиё қитъасининг марказида жойлашган, стратегик аҳамиятга эга минтақа бўлганлиги сабабли, мунтазам равишда Россия, Хитой, Ҳиндистон, Эрон ва Туркия каби қудратли давлатлар манфаатлари тўқнашадиган ҳудуд ҳисобланади. Айни пайтда айтиш лозимки, Марказий Осиё энергетика ресурслари, савдо-иқтисодий, логистика ва минтақавий хавфсизлик нуқтаи назаридан жаҳон геосиёсатининг муҳим нуқталаридан биридир. У географик жойлашувига кўра ҳам стратегик аҳамиятга эга. Аниқлик учун айтиш керакки, *Марказий Осиё географик ҳудуди* Қозоғистон, Ўзбекистон, Тожикистон, Қирғизистон, Туркманистон ва Афғонистон давлатларини ифодалайди. *Минтақа* эса Шимолда Россия, Шарқда Хитой, Жанубда Эрон ва Покистон, Ғарбда Каспий денгизи орқали Озарбайжон, Кавказ ва Европанинг айрим ҳудудлари билан чегараланади. Шу сабабли кўпинча Марказий Евроосиё тушунчаси билан ҳам ифодаланади.

Хўш, нега Марказий Осиё стратегик аҳамиятга эга? Бунинг бир неча сабаблари бор. У дунёдаги энг йирик энергетика ресурслари, хусусан, газ ва нефт заҳиралари ҳудудларидан бири ҳисобланади. Ҳудуд қуруқликдаги муҳим транспорт ва транзит йўлларидан бири ҳамдир, у "янги ипак йўли" ташаббуси орқали бутун Евроосиё минтақасини боғлайди[2:20]. Марказий Осиё минтақавий хавфсизлик мувозанатини ушлаб турувчи марказ мавқеига ҳам эга. Замонавий жаҳон сиёсий муносабатларида Марказий Осиё Россия, Хитой, Европа Иттифоқи, АҚШ, Туркия ва Эрон каби кучли давлатлар геосиёсий манфаатлари, рақобати ва таъсири кесишадиган ҳудуд сифатида қаралади[11:197].

Россия Марказий Осиёни ўз "таъсир доираси" сифатида кўради ва сиёсий ҳамкорликка урғу беради (КХШТ, ЕОИИ) [4:25]. Хитой эса иқтисодий жиҳатдан минтақадаги етакчи давлатга айланишни мақсад қилган ("Бир камар – бир йўл" ташаббуси) [8:163]. Минтақада Россия ва Хитой таъсири ўртасида тенгликни сақлаш ҳаракатлари мавжуд. Улар иккаласини бирлаштирадиган мақсад эса минтақанинг мустақил сиёсий таъсир кучига айланиши олдини олиш, дейиш мумкин. Устига устак, Афғонистон ҳам бу минтақада ўз мустақил мавқеи учун курашади. Ундаги толибон ҳукумати эса Марказий Осиё давлатлари учун хавфсизлик таҳдиди бўлиб турибди. Тожикистон ва Туркманистон толибон билан хавфсизлик масаласида эҳтиёткор позицияда. Ўзбекистон ва Қозоғистон толибон билан ўзаро таҳдидларсиз мулоқот олиб боришга интилиб, иқтисодий ҳамкорликни кучайтиришга ҳаракат қилмоқда. Бу уларнинг бир томондан толибонга тейувчи сиёсий таъсир ўтказишга кучсизлигини ифодаласа, иккинчи томондан минтақа очиқ геосиёсий кураш майдонига айланишини олдини олишга қаратилган ҳамкорликдаги стратегияларини ҳам ифодалайди.

Минтақадаги энг муҳим муаммолардан яна бири энергетика ва сув ресурслари муаммоларидир. Айтиш керакки, сув ресурслари масаласида

Қирғизистон ва Тожикистон юқори оқим давлатлари, Қозоғистон, Ўзбекистон ва Туркманистон эса пастки оқим давлатлари ҳудудларига киради. Сув тақчиллиги ва энергетика манбаларидан самарали фойдаланиш масалалари минтақа давлатлари ўртасидаги асосий баҳс мавзуларидан бири [3]. Лекин, қуйи оқимдаги Қозоғистон ва Ўзбекистон гарчи бу ердаги энг кучли давлатлар бўлишсада, минтақа тинчлиги ва барқарорлиги учун масъуллик юкини тортиб келмоқда.

Таъкидлаш лозимки, АҚШ ва Ғарб ҳам минтақага "Ҳартленд" сифатида қарашда давом этмоқда ва унга ўз таъсирини ўтказиш асосида Марказий Осиёда Россия ва Хитой таъсирини чеклашга ҳаракат қилмоқда[9]. Бу амалда неомондиалистлар доимий стратегиясининг ажралмас қисмидир. Яқин ўтмишда дунё ҳокимияти икки қутб қўлида эди. Минтақанинг Хитой ва Афғонистон ҳудудлари тўқнашув нуқталари эди. Совет Иттифоқининг таназзули ҳокимиятнинг бир томонга оғишига олиб келган бўлсада, кейинги вақтларда Россия ва Хитойнинг янги сиёсий куч марказларига айланиб бориши [5:35] стратегик ҳукмронлик чегараларини яна ўзгартириб юборди ва Марказий Осиёнинг бу курашда қайси томонда бўлишини яна муҳим масалага айлантирди.

Бугунги кунда Марказий Осиё давлатлари ана шу курашнинг муҳим иштирокчисига айланган ва ҳозирги дунёда ўз геосиёсий йўналишларини аниқлаштириш босими остида яшамоқда. Бу жараёнда минтақадаги ҳар бир давлат ҳозирча ўз позицияларига эга.

Қозоғистон Россия билан сиёсий ва ҳарбий ҳамкорликни сақлаб қолмоқда (КХШТ аъзоси). Хитой билан иқтисодий алоқаларни кенгайтирмоқда. Ғарб билан нефт ва газ савдосини ривожлантирмоқда. Айни вақтда минтақавий қўшнилари билан кўп томонлама ҳамкорликни қўллаб-қувватлайди. Ўзбекистон эса Марказий Осиёда ўз ресурслари ва аҳоли нуфузи билан етакчи давлат сифатида ҳаракат қилмоқда. АҚШ, Европа, Хитой ва Россия билан тенг дипломатик муносабатларни сақлашга, минтақа маркази сифатида сиёсий куч маркази мавқеига интилаяпди. У Афғонистон орқали Жанубий Осиёга, Туркманистон ва Озарбайжон орқали Европага йўл очиш ва шу билан Хитой ва Россия таъсиридан халос бўлишга ҳаракат қилаяпди [4:107]. Тожикистон минтақада Россиянинг ҳарбий ва хавфсизлик таъсирида бўлган энг кучсиз ҳудуд бўлиб қолаяпди. У ўз қўшниларида умумтуркийлик хавфини кўради ва улар билан яқинлашишдан кўра, Россия ва Эрон билан маданий ва иқтисодий ҳамкорликни ривожлантиришга ҳаракат қилади. Бу минтақанинг ягона сиёсий куч сифатида шаклланишидан манфаатдор бўлмаган Россия, Хитой, Эрон ва бошқа сиёсий куч марказлари учун айни муддао, дейиш мумкин. Қирғизистон эса Россия ва Хитой таъсири ўртасида мувозанат сақлашга ҳаракат қилмоқда. У ЕОИИ (Евроосиё иқтисодий иттифоқи) аъзоси, айни вақтда иқтисодий жиҳатдан Россия, Қозоғистон ва Хитойга қарам. Туркманистон учун эса минтақавий кучга қўшилиш аҳамиятга эга эмас. У ўз борлиғини сақлаб қолиш учун "Бетарафлик сиёсати"ни сақлаб, ташқи кучлар билан эҳтиёткор муносабатлар олиб бормоқда. Энергетика соҳасида Хитой ва Эрон билан ҳамкорликни ривожлантирмоқда.

Минтақа давлатларининг бундай стратегик позициялари уларни ягона минтақавий сиёсий куч сифатида майдонга чиқишларига имкон бермайди

[1:78]. Бундай кучга айланмай эса юксак ривожланиш даражасига ўтиб бўлмайди. Буни ҳозирги вақтда мазкур давлатлар яхши англашади ва сиёсий куч марказига айланишга ҳаракат қилишади. Мазкур ҳаракатларнинг геосиёсий йўналишлари эса қуйидагича:

Минтақа ҳамкорлик ва интеграцияга интилаяпди[6:41]. Марказий Осиё давлатлари ўртасида иқтисодий ҳамкорлик кучаймоқда. Аввало, суверенитет ва хавфсизликни таъминлаш учун улар ўртасида умумий сиёсий платформа шаклланмоқда.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, минтақа давлатлари, айниқса, Ўзбекистон ва Қозоғистон ташқи таъсирга нисбатан мувозанатли ташқи сиёсат юритишга ҳаракат қилаяпди. Лекин, улар сиёсий стратегияларининг яхлит эмаслиги Хитой иқтисодий таъсирини ўстирмоқда ва Россия ҳарбий-сиёсий таъсирини ҳам сақлаб қолмоқда. Минтақада Афғонистон орқали Жанубий Осиё бозорларига чиқиш имкониятлари кенгаймоқда. Бироқ, хавфсизлик масалалари ва радикализм тарқалишини олдини олиш муҳим вазифа бўлиб қолмоқда. Европа ва АҚШ минтақада иқтисодий ва дипломатик ҳамкорликни оширишга ҳаракат қилмоқда[9]. АҚШ Марказий Осиёдаги нуфузини қайта тиклашга уринмоқда. Лекин, минтақа давлатлари Хитой ва Россия иқтисодий қарамлигидан қутула олмаётгани туфайли бу муносабатларда чегараланишга мажбур бўлмоқда.

Марказий Осиё узоқ тарихдан ҳам стратегик жойлашуви, энергетика ресурслари ва хавфсизлик муаммолари сабабли жаҳон геосиёсатининг муҳим қисми ҳисобланган[7]. Минтақада Россия, Хитой, АҚШ, Европа ва Яқин Шарқ давлатларининг манфаатлари кесишмоқда. Марказий Осиё давлатлари ўз мустақил ташқи сиёсатларини ривожлантиришга ва глобал рақобатда мувозанатни сақлашга ҳаракат қилмоқда.

Юқорида айтилгани каби, Марказий Осиё стратегик жойлашуви, табиий ресурслари ва минтақавий хавфсизликка таъсири сабабли Россия, Хитой, АҚШ, Европа Иттифоқи (ЕИ), Ҳиндистон, Эрон, Туркия ва Афғонистон манфаатлари кесишадиган ҳудуд сифатида кўплаб мутахассислар томонидан эътироф этилган[10:57]. Минтақада энергетика, транзит йўллари, хавфсизлик ва иқтисодий интеграция масалалари асосий геосиёсий жараёнларни шакллантиради.

Минтақа «Катта Евроосиё» геосиёсий майдонида жойлашгани учун Россия, Хитой ва Ғарб таъсири ўртасидаги стратегик мувозанат нуқтаси ҳисобланади. Россия Марказий Осиёни ўзининг “таъсир доираси” [5], қолаверса, хавфсизлик буфер зонаси, деб ҳисоблайди ва минтақавий хавфсизлик, ҳарбий ҳамкорлик ва сиёсий интеграцияга эътибор қаратади (КХШТ, ЕОИИ). Хитой эса бу ерга ўзининг келажак иқтисодий ҳудуди сифатида қарайди ва шунинг учун Марказий Осиё давлатларига миллиардлаб долларлик сармоялар киритмоқда. Ўз навбатида Марказий Осиё давлатлари Россия ва Хитой таъсиридан холи ҳудуд бўлишга интилади, аммо ҳозирча бунинг уҳдасидан чиқа олгани йўқ ва аксинча, қанча мувозанатли ташқи сиёсат юритишга ҳаракат қилмасин, қарамлиги ортиб бормоқда. АҚШ ва Ғарб Марказий Осиёни гарчи ўзининг келажак таъсир доираси сифатида кўра олмасада, ўз мондиалистик қарашларига мувофиқ, уни Россия ва Хитой гегемонизмига қарши турадиган сиёсий куч сифатида кўришни истайди.

Шу сабабли, Марказий Осиё халқаро геосиёсатнинг муҳим нуқталаридан бири бўлиб қолмоқда. Минтақада амалда Россия ва Хитой етакчи рол ўйнаётган бўлса, АҚШ, Туркия, Ҳиндистон ва Эрон ҳам ўз таъсирини кучайтиришга ҳаракат қилмоқда[10:113]. Марказий Осиё давлатлари эса ўз мустақиллигини сақлаб қолиш ва ташқи кучлар таъсирини мувозанатлашга интилмоқда.

Ҳозирги вақтда Марказий Осиёнинг геосиёсий имкониятларида иқтисодий тараққиёт, транспорт инфратузилмаси, энергетика ресурслари ва минтақавий ҳамкорлик каби омиллар етакчи бўлиб турибди. Аммо инсон ва интеллектуал ресурслар етакчилигига эришилмаса, бу имкониятлар бой берилиши мумкин. Минтақа бошқа геосиёсий мураккабликлардан ҳам холи эмас. Бу муаммолар чегара можаролари, сув ресурслари учун рақобат, терроризм таҳдиди ва ташқи кучлар таъсири каби жараёнлар билан боғлиқ.

Марказий Осиё энергетика, хавфсизлик, иқтисодий ҳамкорлик ва геосиёсий мувозанат нуқтайи назаридан жаҳон қудратли давлатлари кўз тиккан стратегик ҳудуд ҳисобланади. Россия минтақага ҳарбий ва сиёсий жиҳатдан таъсирини сақлаб қолиш, Хитой бу ерда иқтисодий жиҳатдан устунликка эришишга интилади. АҚШ ва ЕИ Россия ва Хитой таъсирини чеклашга уринса, Туркия, Эрон ва Ҳиндистон минтақада ўз нуфузини оширишга ҳаракат қилмоқда. Марказий Осиё давлатлари ўз мустақиллигини сақлаб қолиш ва ташқи кучлар таъсирини мувозанатлаш учун кўп томонлама ҳамкорлик стратегияларини ишлаб чиқиши керак бўлади. Бунда етакчи омиллардан бири минтақа халқларини миллий фарқланишдан қутқаришдир. Яъни минтақа ҳалқлари ўзбек, қозоқ, қирғиз, туркман, қорақалпоқ, тожик, рус ва бошқалар каби миллий идент номлар ўрнига ягона “туронлик” идентини қабул қилиши ва шу идент билан паспортлаштирилиши минтақани яхлит жамият сифатида бирлаштиради. Бунда минтақа давлатлари, ҳукуматлари, тиллари ўз ўрнида қолиши мумкин. Бу ташқи таъсирларга қарши қудратли сиёсий кучни барпо этиши мумкин ва бу албатта ривожланишни таъминлаган бўлар эди.

Фойдаланиладиган адабиётлар:

1. Панарин И. Геополитика. -М.: Дрофа, 2006.
2. Сафаев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. -Т.: Ўзбекистон, 2004.
3. Юлдашев, А. (2023). Марказий Осиё минтақавий хамкорлик масалалари генезиси ва асосий муаммолари: Европа тажрибасидан сабоқлар. История и культура центральной Азии, 1(1), 216–222. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/history-culture/article/view/17108
4. Ҳасанов А. Геосиёсат. -Т.: Тамаддун, 2016.
5. Дугин А. Основы геополитики: геополитическое будущее России. -М.: Арктогея, 1997.
6. Богатуров Д., Лебедева М., Торкунов А. Международные отношения. -М.: Аспект Пресс, 2010. -606 с.
7. Камолиддин Ш.С. Марказий Осиё тарихи замонавий тарихшунослигидаги ёндашувлар. -Т.: Fan ziyosi, 2023.
8. Двинский М. Геополитика Восточной и Юго-Восточной Азии. -М.: МГУ, 2020.

9. Лукьянов Ф. Индо-Тихоокеанская стратегия: противостояние США и Китая. -Санкт-Петербург: Издательство СПбГУ, 2021. -350 с.

10.Кузнецов А. Геополитические вызовы и конкуренция в Юго-Восточной Азии. -М.: Весь мир, 2018. -280 с.

11.Бжезинский З. Великая шахматная доска. -М.: Международные отношения, 1998. -256 с.

Nivedita Das Kundu - *Associate Professor of the Department of Political Science at the Uzbekistan State University of World Languages, (PhD)*

REGIONAL SECURITY CHALLENGES AND STRATEGIC CONCERNS IN CENTRAL ASIA

Introduction

Central Asia holds immense geopolitical significance, historically serving as a critical juncture along the Silk Road, fostering economic and cultural exchange between the East and West. However, in contemporary geopolitics, the region has transformed into a strategic buffer zone, facing security challenges, political instability, and external power interventions. Despite these concerns, its connectivity potential is immense, reinforced by initiatives like the Belt and Road Initiative (BRI), the China-Pakistan Economic Corridor (CPEC), the International North-South Transport Corridor (INSTC), and the Turkmenistan-Afghanistan-Pakistan-India (TAPI) pipeline. Yet, Afghanistan's persistent instability remains a central concern, influencing regional peace, economic development, and counterterrorism efforts. This paper evaluates the security threats in Central Asia, the implications of external power rivalries, and prospects for regional stability through cooperation.

Persistent Security Threats and Regional Instability

Central Asia faces multiple security threats stemming from socio-economic disparities, ideological extremism, and cross-border insurgencies. With low Human Development Index (HDI) rankings, the region remains vulnerable to radical ideologies, fostering extremism and violence. Al-Qaeda, the Islamic State of Iraq and Syria (ISIS), the Haqqani Network, and Hizb-e-Islami maintain an active presence, operating within ideological frameworks that reject nation-state sovereignty and advocate for a transnational caliphate.

These militant organizations have expanded their influence across Central Asia, the Xinjiang province, and the Afghanistan-Pakistan corridor. They exploit economic hardships and governance deficiencies to recruit and radicalize marginalized populations. The East Turkistan Islamic Movement (ETIM) and Hizb-ut-Tahrir further exacerbate security concerns by promoting separatist agendas in China and broader Islamist radicalization within the region. The ideological cohesion of these groups, despite their tactical variations, presents a long-term threat to stability.

Afghanistan’s Role in Central Asian Security

Afghanistan, Central Asia’s immediate neighbor, plays a crucial role in shaping the region’s security landscape. The nation remains entrenched in economic turmoil,

governance challenges, and insurgency threats. Key challenges include a fragile economy, unemployment, a persistent insurgency, and weak political structures. The country's estimated $1 trillion in mineral reserves remains largely untapped due to inadequate infrastructure, persistent conflict, and a lack of foreign investment.

The resurgence of the drug trade, fueled by poppy cultivation, has exacerbated regional instability. Afghanistan serves as a major transit hub for narcotics trafficking into Russia and Europe, strengthening illicit financial networks that fund terrorism. Narco-terrorism has evolved into a transnational security threat, necessitating coordinated countermeasures from Central Asian states. Moreover, Afghanistan's porous borders with Tajikistan, Uzbekistan, and Turkmenistan enable cross-border militancy, arms smuggling, and refugee crises, making regional cooperation imperative.

External Powers and Strategic Interests in Central Asia

Central Asia remains a focal point of geopolitical competition between major powers, including Russia, China, the United States, and the European Union. Russia views the region as part of its traditional sphere of influence, maintaining strategic dominance through military cooperation under the Collective Security Treaty Organization (CSTO) and economic engagement via the Eurasian Economic Union (EAEU). Meanwhile, China has significantly expanded its footprint through large-scale infrastructure investments, particularly under the BRI, cementing its economic leverage over regional economies.

The USA and European nations, though less involved in direct investments, seek to counterbalance Russian and Chinese influence by promoting governance reforms, economic diversification, and counterterrorism cooperation. However, their engagement has been inconsistent, particularly after USA's withdrawal from Afghanistan. The competition among these external actors, while offering economic opportunities, also poses a challenge to regional cohesion, as Central Asian states navigate between competing geopolitical interests.

Energy Security and Economic Development Strategies

Central Asia is rich in oil, natural gas, and mineral resources, positioning it as a key energy supplier in global markets. Kazakhstan, Turkmenistan, and Uzbekistan hold vast reserves, making energy geopolitics a crucial aspect of regional security. However, external actors, particularly Russia and China, dominate energy infrastructure, controlling pipeline routes and resource extraction contracts.

While Russia historically maintained a monopoly over Central Asian energy exports, China has emerged as a dominant player, financing major pipelines such as the Central Asia-China gas pipeline. The United States advocates for energy diversification, seeking alternative transit routes through the Caspian region to reduce Central Asia's dependence on Russia and China. The energy sector's politicization has created tensions, underscoring the need for cooperative regional strategies that ensure fair distribution, infrastructure investment, and equitable market access.

Regional Cooperation in Countering Security Threats

To effectively address terrorism, extremism, and transnational crime, Central Asian states have increasingly turned to regional alliances. The Shanghai Cooperation Organization (SCO) has played a leading role in intelligence-sharing, counterterrorism operations, and cybersecurity enhancement. The CSTO has

conducted joint military drills to improve interoperability among member states. Additionally, NATO's Partnership for Peace (PfP) program offers security collaboration opportunities, though its role has diminished in recent years.

Despite these efforts, regional cooperation remains fragmented due to political rivalries, governance differences, and economic disparities among Central Asian states. Addressing these challenges requires stronger institutional frameworks, improved trust-building mechanisms, and increased engagement with global counterterrorism initiatives. A multilateral approach emphasizing regional dialogue, intelligence-sharing, and coordinated economic development programs is essential for long-term stability.

Conclusion

Central Asia stands at a crossroads, balancing security challenges with economic opportunities. Persistent threats from extremism, Afghanistan's instability, and external power rivalries necessitate a comprehensive regional approach to security. While initiatives like the SCO, CSTO, and BRI offer potential for stability and growth, success depends on effective governance, economic diversification, and regional unity.

To ensure long-term peace and development, Central Asian states must enhance cooperation in counterterrorism, energy security, and economic integration. A pragmatic, multilateral strategy, leveraging regional alliances while engaging external powers constructively will be vital in transforming Central Asia from a contested geopolitical battleground into a stable and prosperous region.

References:

1. Al Jazeera. (2011, June 8). Economic depression looms in Afghanistan. Retrieved from http://www.aljazeera.com/news/asia/2011/06/2011681293322877 5.html
2. Aben, D. (2019). *Regional Security in Central Asia: Addressing Existing and Potential Threats and Challenges*. *Eurasian Research Journal*, 1(1), 51-66.
3. Burnashev, R. (2015). *Security Challenges in Central Asia*. *L'Europe en Formation*, 375(1), 106-120.
4. Botobekov, U. (2010). *Salafism in Central Asia: Where Does the Caravan Go?*. *The Human Problems of Our Time*, 11, 18-25.
5. Cheragh Daily. (2014, September 16). Taliban fighters paid 4,000 AFS per day. Retrieved from http://english.cheraghdaily.org/index.php/taliban-fighters-paid-4-000-afs-per-day
6. CIA World Factbook. Available at https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook
7. Common Dreams. (2014, October 21). $7 billion US eradication effort delivers record-high poppy crop in Afghanistan. Retrieved from http://www.commondreams.org/news/2014/10/21/7-billion-us-eradication-effort-delivers-record-high-poppy-crop-afghanistan
8. Cooley, A. (2012). *Great Games, Local Rules: The New Power Contest in Central Asia*. Oxford University Press, pp. 3-7, 120-122.
9. Delegation of the Commission of the European Communities. (2001). *Europe*, Issue 403, p. 28.

10. DW. (2016, January 21). How the Taliban get their money. Retrieved from http://www.dw.com/en/how-the-taliban-get-their-money/a-18995315

11. Edward C. Chow & Leigh E. Hendrix. (2010, September). *Central Asia's Pipelines: Field of Dreams and Reality*, The National Bureau of Asian Research, Special Report #23, p. 32.

12. Fazl-e-Haider, S. (2021). Afghanistan-Pakistan ties and future stability in Afghanistan. *United States Institute of Peace*.

13. Felbab-Brown, V. (2022). Nonstate armed actors in 2022: Alive and powerful in the new geopolitics. *Brookings Institution*.

14. Fragile States Index. (2014). Rankings 2014. Retrieved from http://ffp.statesindex.org/rankings-2014

15. Fu, Y. H. (2024). Afghanistan under the Taliban rule: Security threats and regional response. In *The Uncertain Future of Afghanistan*, Springer.

16. Google Maps. (n.d.). Retrieved from https://www.google.com/maps/d/u/0/viewer?mid=10Qz0dzwDWpj6bkfyWN6qoLIhaaU

17. Heffes, E. (2020). International law and armed non-state actors in Afghanistan. *International Review of the Red Cross*.

18. Horton, S. (2010, October 29). How Central is Central Asia? (Part 3/3). *YouTube*. Retrieved from https://www.youtube.com/watch?v=9D_ZjHHi1vo

19. Khaama Press. (2016, April 4). Ghani says al-Qaeda, Taliban and ISIS threaten Afghanistan. Retrieved from http://www.khaama.com/ghani-terror-groups-including-al-qaeda-taliban-and-isis-threaten-afghanistan-0535

20. Ким, Е. В. (2018). Центрально-Азиатский региональный комплекс безопасности: структура, динамика и перспективы развития. Диссертация кандидата политических наук, МГИМО.

21. Лаумуллин, М. Т. (2013). Российские эксперты о политике России в Центральной Азии. В А. Малашенко (Ред.), *Центральная Азия: на что рассчитывает Россия?* (с. 14-28). Москва: РОССПЭН.

22. McBride, J. (n.d.). Building the New Silk Road. *Council on Foreign Relations*. Retrieved from http://www.cfr.org/asia-and-pacific/building-new-silk-road/p36573

23. Малашенко, А. (2012). Центральная Азия: на что рассчитывает Россия? Москва: РОССПЭН.

24. Мегоран, Н., & Хезершоу, Дж. (2011). Региональная безопасность. *Центральная Азия и Кавказ*, 12(1), 7-21.

25. Roy, M. S. (2013). India's 'Connect Central Asia' Policy: Building Cooperative Partnerships. *Indian Foreign Affairs Journal*, 8(2), 179-193.

D. Muitov **–** *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, s.f.n*

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI G'OYASI: AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI GEOSIYOSIY TAHLIL ETISHNING AYRIM TENDENSIYALARI

Zamonaviy axborot dunyosidagi inqilobiy o'zgarishlar tahlilchi nazariyotchilarga geosiyosatning barcha asosiy muammolarini qayta va o'zgacha

ruhda anglashni taqozo qilayotir. Ya'ni, makon-zamonnning mutlaqo yangi bir o'lchovi – virtual shakli bo'lmish geosiyosat subyekti kashf qilindi. U amaliyotga shiddat bilan joriy qilindi. Yaqin Sharq, Rossiya-Ukraina kabi majoralar bilan bog'liq davomli va shiddatli axborot bosimlari davri barchamizni tashvishlantirishi kerak. Ular geosiyosat olamidagi katta o'yinchilarning kuch-qudratini o'ziga xos sinovlardan o'tkaza boshladi. Shu bilan bir qatorda, Ar-Riyoddagi Amerika-Rossiya uchrashuvlari jahon siyosatiga yangicha geosiyosiy konsensus mazmunini beradi deb umid qilamiz.

Kelgusida bular albatta Markaziy Osiyoning yagona geosiyosiy makon sifatida o'zini qanday tutadi? Biri-biriga to'qnash kelayotgan siyosiy axborotlarning maqsadi, mazmuni Markaziy Osiyoning birlashuviga, uning integratsion g'oyalariga qanday ta'sir o'tkazadi? Kabilidagi masalalarni qamrab olishi aniq. Zero, bugun axborot maydonlarida aniq-ilmiy, vazminli va asosiysi murosali chiqishlar o'rniga ancha agressiv, ehtirosli populistik chiqishlar sizib chiqayotganiga ham guvoh bo'ldik. Bu borada vaqtida Prilepin, Smolin, Jirinovskiy, Bzejinskiy, Zelenskiy, Belbok xonim kabi qator siyosatdonlarning bergan bayonotlari ko'pchilikni tashvishli mazmundagi mushohadalarga chorlashi tabiiy.

Bu o'ziga xos "geosiyosiy boshboshdoqlik, mavhumlik, tushunmovchiliklar" haqida gap-so'zlarni ko'paytirdi. Shiddat bilan axborot asri jurnalistikasi geosiyosatga yangi makon – "virtual" o'lchovining siyosiy jihatdan o'zgartirilgan shakllarini olib kirdi. Natijada, ijtimoiy-siyosiy tafakkur geosiyosiy kurashlarning yangi me'yor va qoidalarini yangitdan, qayta anglashga o'tdi. Axborot qurolining raqibni mag'lub etishdagi roli benihoya kuchaydi.

Ma'lumki, ayni O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbuslari tufayli harakatlar strategiyasi tashqi siyosati tamoyillarida MO eng asosiy ustuvor yo'nalish qatorida belgilangan edi. Natijada, MO geosiyosatida yangi ijobiy jonlanish davri boshlanib ketdi. Mintaqaviy geosiyosatda yaxshi ma'nodagi tektonika yuz berdi. Endi Markaziy Osiyo davlatlararo munosabatlarida o'zaro ishonch va hamkorlik g'oyasi jadal oldinga surildi. Yil sayin Markaziy Osiyo davlatlari orasida savdo aylanmasi hajmi oshib bormoqda, yillab muzlatilgan mavzularga oydinlik kiritildi, chegara va bojxona siyosatida tub burilishlar yuz berdi. Ahil qo'shnichilik tamoyili g'oyaviy usqurma rolini o'tamoqda. O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligida 2018-2021 yillarda BMT Bosh Assambleyasining bir necha maxsus rezolyutsiyalari qabul qilindi. (Bu haqda yana qarang: Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2022. 422-432 betlar.)

Ammo ba'zi bir siyosiy markazlarda shunday ijobiy o'nglanishlarga qaramay, Markaziy Osiyoda inson-sivilizatsiya-madaniyat doirasida o'zlikdan voz kechtirish istagi hali hamon kuchda ekanligini unutmasligimiz joiz. Chunki ular yetakchi davlatlar murakkab axborot tizimlarining majburiy elementlaridan biridir. Ancha vaqtdan beri maqsadli axborot ta'siri orqali milliy o'zlikdan voz kechtirish mexanizmini ishga tushirish yo'liga o'tilgan, bunda maxfiy dasturlarning singdirilishidan ustalik bilan foydalanilmoqda. Bugun O'zbekistonda ular orasidan agressiv-buzg'unchi axborot yo'nalishlarini belgilab olib, o'z vaqtida fosh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyoning yangi bir yagona geosiyosiy fenomen sifatida qaralishi – bu axboriy hujumning geosiyosiy darajadagi masalalarni hal qilishdagi rolini tahlil qilishni dolzarblashtiradi. Binobarin, bugungi kunga kelib ayni

axboriy ta’sir va tazyiq o‘tkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potensiali – milliy mentalitet, milliy madaniyat, odamlarning axloqiy-ma’naviy qiyofasini o‘zgartirib tashlash qudratiga ega bo‘lmoqda.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo axborot makonidagi geosiyosiy g‘oya va qarashlarning tahlili odatdagi siyosiy tahlillarga nisbatan o‘ziga xos dinamik yondashuvlarni talab etishi sezilmoqda. Bunda axborot makonida haqiqatni yolg‘ondan farqlay olish uchun geosiyosiy g‘oyalarning to‘qnashuvi bo‘ladigan “kuch maydonlari”ni doimiy ravishda kuzatish talab qilinadi. Ularning kutilmagan vaziyatlarda bir-biriga qarshi bosimini anglash ko‘p jihatdan geosiyosiy bashoratlarimizda asqotadi. Jumladan, bu yerda jahon axborot makonida kuchlar nisbatini bilib borish muhim ahamiyatga ega. Virtual kurash natijalari ko‘pincha shu nisbatga bog‘liq bo‘lib qolayotir.

Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, yozuvning paydo bo‘lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, hatto zamonlararo olib o‘tishga yo‘l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo‘lga qo‘yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovni yanada kengaytirdi. Radio va televideniye esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta’minlab, uni yana bir yangi sifat bosqichiga ko‘tardi.

OAV bu so‘z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o‘quvchilar auditoriyasining kengligi kabi xususiyatlar xosdir. Tahlillarda shu nuqtai nazardan OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o‘sganligiga e’tibor qaratilmoqda.[263]

Hozirgi davrda sun’iy yo‘ldosh axborot uzatishning eng qulay va samarali vositasi bo‘lib qoldi. Ammo u qulay bo‘lsa-da, “cho‘ntakbop” emas: juda katta mablag‘ talab etadigan sun’iy yo‘ldoshga hamma davlat ham egalik qila olmaydi. Shu bois fazodagi sun’iy yo‘ldoshlar bir nechagina davlatga qarashli: AQSh (30 ta), Yaponiya (21 ta), Rossiya (12 ta), Xitoy (9 ta), Hindiston (9 ta). Lekin axborot uzatishning asosiy vositasi sanoqli davlatlar qo‘lida to‘plangani boshqalarning ham ular aytayotgan “qo‘shiq”ka jo‘r bo‘lishini taqozo etadi.[264] Bugungi kunda bizlarga ma’lum bo‘lgan ORT, NTV, Evronyus, TRT Turk kabi telekanallari ham o‘zlarining yuz millionlab auditoriyalariga egadir. Ushbu misollar bugungi kunda OAV qamrov doirasining naqadar kengligini tasavvur qilish imkonini beradi.

OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga сездирилmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqatni kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyativ rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta’sir o‘tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televideniye esa fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanmoqda.

[263] Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2009. 77–79-betlar.
[264] Yoqubov S. Axborot jamiyati: hayolot emas, haqiqat. // "Tafakkur" jurnali, 4-son, 2007 yil, 15-bet.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.[265]

Geosiyosiy konfliktlar tarixi esa geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvida jurnalistika instituti hech qachon to‘liq mustaqil bo‘la olmasligini tasdiqladi. Ularning qaramlik darajasi esa nazorat qiluvchi muayyan xalqaro korporatsiya, sanoat va moliya guruhlari, jumladan, turli davlatlar, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning siyosiy jihatdan nazoratiga bog‘liq holda o‘z yechimini topmoqda. Yana bir tomoni, bunday paytda OAVdan ko‘proq foyda olish ayni yetakchi davlatlardagi matbuot erkinligining darajasiga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Kundan-kunga zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan ularning faoliyatini nazorat qilish qiyinlashib bormoqda.

Bugun ommaviy axborot vositalaridan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilish imkoniyatidan foydalanish yo‘liga o‘tilgan. Albatta, shunday paytda u siyosatning muhim bir elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, OAV turli davlatlar haqida hududiy tasavvurlarni rivojlantirishi, kayfiyatlarni o‘zgartirib turishi, aholining keng qatlamida tarqala olish imkoniyatiga ega.

OAVning bu imkoniyati ijtimoiy fikrni shakllantirishda juda qo‘l keladi. Shu jihatdan olib qaraganda, u geosiyosiy o‘yinchilarning o‘yinchog‘iga aylanishi hech gap emas. Bu jarayonda transmilliy korporatsiyalar, diniy tashkilotlar kabi boshqa turli aktorlarning teng ishtirok etishga intilishi sezilmoqda. Shu tariqa, hozir turfa xil mafkuralarni tarqatish OAVning birinchi darajali vazifalari jumlasiga kiradi. Natijada, tarqatilgan axborot gazeta-jurnal, radio-televideniye, audio-video kassetalar va internet tarmog‘i orqali belgilangan geosiyosiy vazifalarni bajara boshlaydi.

Istiqbolda shu shaklda OAV uzoq vaqt turli xil geosiyosiy maqsadlarni ilgari surishda muhim ishtirokchi bo‘lishi kutilmoqda. Bu zamonaviy geosiyosiy maktablar oldida ma’rifatli jamiyatga mos keluvchi geosiyosatning yangi mezonlarini ishlab chiqish vazifasini ham dolzarblashtiradi. Bu holatda ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa, televideniyening geosiyosiy jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazishini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. *Televideniye bugungi zamonaviy jamiyatda siyosiy madadni ta’minlash uchun asosiy va qudratli vosita vazifasini o‘tamoqda. Ular siyosiy kampaniyalarni tashkil qiluvchi quyidagi sifatlarga ega, ya’ni[266]:*

- *siyosiy ma’lumotlarni zudlik bilan cheklanmagan hajmda yetkaza olish qobiliyati;*
- *siyosiy ma’lumotni har qanday insonga mos ravishda, uning uyiga hech qanday maxsus va ko‘zlangan sarf-harajatlarsiz o‘zlashtirishni talab qilmaydigan tezkor shakliga ega.*

Geosiyosatga oid materiallarning jurnallar va gazetalar orqali e’lon qilina boshlashi esa axboriy jamiyatga taalluqli bo‘lgan yangi mezonlarni geosiyosatga kiritishga sabab bo‘ldi. Bularning barchasi axboriy tizimlar o‘rtasida geosiyosiy jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar ichida ommaviy axborot

[265] Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2009. 77–79-betlar.

[266] Qarang. А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, С-229

vositalaridan televideniyening ahamiyati alohida kuchayib borayotganini tasdiqlaydi.

Qolaversa, zamonaviy siyosiy psixologiya zamonaviy jamiyatda ratsional yondashuvlar emas, balki "obraz" ("imidj") yorqinligi asosiy rol o‘ynashini isbotladi. Bugun jamiyat aksariyat qismining siyosiy, mafkuraviy va geosiyosiy qarashlarining telekommunikatsiya yordamida shakllantirishga zo‘r berilayotganligi bejiz emas. Har holda media "obraz" etnik, madaniy, mafkuraviy, siyosiy yondashuvlar asosidagi sintez mahsuli deya e’tirof etilmoqda. O‘z navbatida, jamiyatdagi ma’lumotlarning turfa xilligi ham ularning siyosiy hayotga singib ketishiga ta’sir qiluvchi shart-sharoitlarning mavjudligi bilan chambarchas bog‘langan. Bunday paytda turfa xil ma’lumotlar shaxsning siyosiy munosabatlar sohasidagi faoliyatining faollashuviga kuchli ta’sir o‘tkazadi, odamlarning mustaqillik darajasini o‘stiradi. Shu bilan birga, zamonaviy jurnalistikada texnikaning mukammallashib borishi ma’lumot tarqatishning tezligini mutlaq oshirdi, qisqa muddatda odamlarning yirik ommasini qamrab olish qobiliyatini kuchaytirdi.

Bugun axborot texnologiyalari bosimi ostida geosiyosiy hukmronlikning metodlari, siyosiy makon va zamonning dinamikasi ham o‘zgara boshladi. Ayniqsa bunday mahalda geosiyosatning yangi o‘lchovi bo‘lmish virtual axboriy makon katta rol o‘ynay boshlaydi. Axboriy texnologiyalar yordamida geosiyosiy kurashning yangi shakllari avjga chiqdi.[267]

Bularning barchasi, Markaziy Osiyo geosiyosatdagi zamonaviy axboriy paradigmalar yordamida quyidagilarni bilishni ko‘zda tutadi:

- *Markaziy Osiyodagi geosiyosiy transformatsiyani shunday ta’riflashni tashkil qilish kerakki, uning istiqbolini aniq tasavvur qila olinsin;*
- *Markaziy Osiyo geosiyosiy evrilishlarning sabablarini tushuntirib bera olish, kelajakning voqeliklari qachon, qayerda va qanday shaklda bo‘lishini bashorat qilishga imkoniyat yaratilin.*

Mazkur holatlarning barchasi tahlillarda Markaziy Osiyo geosiyosati bilan bog‘liq virtual makonning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan axborot makonni himoya qilish va uni tashkil etish muammosiga yangicha murojaat qilishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. 422–432-betlar.
2. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2009. 77–79-betlar.
3. Yoqubov S. Axborot jamiyati: hayolot emas, haqiqat. // "Tafakkur" jurnali, 4-son, 2007 yil, 15-bet.
4. А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, С-229.
5. B. Alimov. Media muhitda O‘zbekiston imiji. – Ta’lim Media nashriyoti, 2020. 30–31-betlar.

[267] А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, С-229.

G.U. Sherniyazova *- Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, s.f.n.*

GEOSIYOSIY MUAMMOLAR SHAROITIDA MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI VA BUNDA O'ZBEKISTONNING ROLI

Bugungi kunda dunyo geosiyosiy landshafti keskin o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Bu o'zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mintaqa davlatlari oldida yangi xavf-xatarlar, imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Ushbu sharoitda Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari mintaqa barqarorligi va rivojlanishining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada O'zbekiston misolida yangi geosiyosiy muammolar kontekstida Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, siyosiy va iqtisodiy tahlil metodlaridan foydalanildi, unga ko'ra, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining tarixiy rivojlanishi, turli davrlardagi integratsiya tajribalari, geosiyosiy vaziyat, mintaqa davlatlarining tashqi siyosati, integratsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining holati, mintaqa davlatlarining iqtisodiy hamkorligi, integratsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi.

Yangi geosiyosiy tahdidlar sharoitida Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda, bu O'zbekistonning faol pozitsiyasida o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari mintaqada integratsiya jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilmoqda va "O'zbekiston mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi[268]".

Mintaqaviy integratsiyaning asosiy vazifalaridan biri xavfsizlikni ta'minlashdir. Terrorchilik va ekstremistik faollikning kuchayishi bilan tavsiflangan geosiyosiy notinchlik Markaziy Osiyo mamlakatlaridan birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. "Mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solayotgan yangi xavf-xatarlar Markaziy Osiyo davlatlaridan qo'shma strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qilmoqda[269]". O'zbekiston terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha mintaqaviy tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda, bu esa uning mintaqada xavfsizlikni ta'minlash ishiga sodiqligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy hamkorlik mintaqaviy integratsiyaning yana bir muhim jihati hisoblanadi. "Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligi mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish uchun katta salohiyatga ega[270]". O'zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni faol rivojlantirmoqda, qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirmoqda. Bu sa'y-harakatlar mintaqaning iqtisodiy o'sishi va gullab-yashnashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

---

[268] Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы. URL: https://president.uz/ru/pages/view/strategy?menu_id=144

[269] Мардан М., Мохаммад А., Мохаммад Т., Новые вызовы и угрозы региональной безопасности Центральной Азии // Казачество. 2024. №74 (1). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/novye-vyzovy-i-ugrozy-regionalnoy-bezopasnosti-tsentralnoy-azii (дата обращения: 05.03.2025).

[270] Звенья сотрудничества стран Центральной и Южной Азии. URL: https://review.uz/post/prospects-of-economic-cooperation-between-central-and-south-asia

Madaniy-gumanitar hamkorlik Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Madaniy-gumanitar hamkorlik Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari o‘rtasida o‘zaro tushunish va ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston mintaqaviy madaniy va ta’lim dasturlarida faol ishtirok etmoqda, bu esa mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda[271].

Suv-energetika muammolari Markaziy Osiyoda eng dolzarb muammolardan biridir. Suv-energetika muammolari Markaziy Osiyo mamlakatlaridan qo‘shma yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi. O‘zbekiston suv resurslaridan oqilona foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar mintaqaning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan[272].

Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari muhim ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega. Integratsiya jarayonlari Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston mintaqaviy madaniy va ta’lim dasturlarida faol ishtirok etmoqda, bu esa mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari oldida bir qator muammolar mavjud, jumladan, mintaqa davlatlarining milliy manfaatlari o'rtasidagi tafovutlar, mintaqa davlatlari o'rtasidagi ishonchsizlik, tashqi kuchlarning mintaqadagi ta'siri va hokazo.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Mintaqa davlatlari o'rtasida ishonchni mustahkamlash;

Mintaqaviy hamkorlikning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish;

Tashqi kuchlar bilan munosabatlarda muvozanatni saqlash.

Yangi geosiyosiy muammolar kontekstida Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari mintaqa barqarorligi va rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etib, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish orqali Markaziy Osiyoda barqarorlik va rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Z.T. Zamonov *- O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, s.f.f.d. (PhD)*

MARKAZIY OSIYODAGI STRATEGIK HAMKORLIK REJALARI TASHABBUSKORI

Davlat va jamiyatning barqaror taraqqiyotini belgilaydigan siyosiy jarayonlar o‘z-o‘zidan shu mamlakat ichki va tashqi omillari bilan bevosita bog‘liqdir. Aynan shu omillar ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etmaguncha, rivojlanmaguncha, inson

[271] Толибова С.Р. Культурно-гуманитарные связи Узбекистана со странами АСЕАН // Метаморфозы истории. 2019. №13. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kulturno-gumanitarnye-svyazi-uzbekistana-so-stranami-asean (дата обращения: 05.03.2025).

[272] Боришполец К.П. Водно-энергетические проблемы Центральной Азии: возможные пути решения // Вестник МГИМО. 2013. №3 (30). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vodno-energeticheskie-problemy-tsentralnoy-azii-vozmozhnye-puti-resheniya (дата обращения: 05.03.2025).

fenomeni, uning taqdiri, milliy manfaatlar, millliy va diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va hamjihatlik masalalari bir yoqlama, yoki bo‘lmasa, yuzaki qarashlar girdobida qolib ketadi. Shu ma’noda O‘zbekiston jamiyatida ham mintaqaviy masalalarni rivojlantirish, o‘zaro qo‘shnichilik aloqalarini rivojlantirish borasida oxirgi besh yillikda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan samarali va keng qamrovli hamkorlik aloqalariga keng tus berildi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti uchun muhim hujjat – 2017 yil 7 fevralda tasdiqlangan “2017–2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning “chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar”i belgilab berilgan 5.2-bandida aynan tashqi siyosat masalasi – “O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish” tamoyili o‘z aksini topdi.

Strategiya doirasida olib qaraydigan bo‘lsak, 2017, 2018, 2019 va 2020 yillarda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlash, xavfsizlik masalalari, ijtimoiy-madaniy va siyosiy jabhalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash borasida strategik muhim dasturlar qabul qilindi. Bu boradagi uchrashuvlar, ahdlashuv memorandumlari, bir so‘z bilan aytganda, siyosiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan yuqori darajadagi uchrashuvlar deyish mumkin.

Agar raqamlar kesimida solishtiradigan bo‘lsak, davlatimizning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport dinamikasi ham yildan yilga ijobiy ahamiyat kasb etib bormoqda. Misol uchun, bu mintaqalardagi umumiy eksport hajmi 2016 yilda – 12094,6 mln. AQSH dollari, 2017 yilda – 12553,7 mln. AQSH dollari, 2018 yilda – 14257,9 mln. AQSH dollari, 2019 yilda 14758,7 mln. AQSH dollari, 2020 yilda – 15127,7 mln. AQSH dollarini va 2021 yil birinchi choragida esa 3482 mln. AQSH dollarini [1] tashkil etgan. Mintaqa mamlakatlari o‘zaro uzoq muddatli hamkorlik va mintaqaviy muhim sohalarda integratsiyalashuv va barqarorlikni ta’minlab borish dolzarb, va qolaversa, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masala ekanligini his qilmoqda, yetarli choralarni ko‘rishga intilmoqda. Bu kabi tovarlar aylanmasi, xom ashyo va mahsulotlar eksport balansining yildan yilga kengayib borishi mintaqa mamlakatlari uchun mintaqaviy makon va bir osmon ostida ijtimoiy faoliyat olib borishning zamonaviy usul va vositalarini kengaytirishni yuzaga chiqarmoqda. Bu bir tomondan mushtarak maqsadni baholi qudrat amalga oshirishga xizmat qilsa ikkinchidan barqaror taraqqiyot kafolatidir.

Birgina, 2021 yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 21 foiz oshgan. Shuningdek, “Экономическое обозрение” jurnali rasmiy saytidagi tahlillarga e’tibor qaratsak, shu davrda O‘zbekistonning umumiy eksportida Markaziy Osiyo davlatlari ulushi sezilarli – 19,9 foiz oshib, ya’ni eksportning deyarli beshdan bir qismi mintaqa mamlakatlariga to‘g‘ri kelgan[2].

Mintaqaviy xavfsizlik, fuqarolar manfaatlari va qadr-qimmati, sog‘ligi masalasi bugun Markaziy Osiyo mamlakatlarini birdek qiziktiradigan va uni amalda ta’minlash o‘ta zarur bo‘lgan vazifalardan hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan ham anglashilib turibdiki, bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi muhim bo‘lgan masalalar, keng ko‘lamli va uzoq muddatli loyihalar, sheriklik dasturlari markazida – inson, uning sha’ni va jamiyatdagi faolligi masalasi yotadi. Agar mintaqa madaniyati, tili, urf-odatlari, tarixiy

genizisiga nazar tashlansa, ulardagi mavjud imkoniyatlar va yaratilgan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy mezonlar mushtaraklik hosil qilib kelgan. Shu omillarni hisobga olganda, maqsad va talablar, strategik rejalar ham yagona makon, yagona hudud, yagona istakdan kelib chiqadi.

Integratsiyalashuv jarayoni mintaqadagi davlatlar o‘rtasida savdo va investitsiyani oshirishga yordam beradi. Xususan, erkin savdo zonalari tashkil etilishi natijasida hamkorlik kuchayadi. Bu, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, iqtisodiy o‘sish rag‘batlantirilishi va mintaqaviy barqarorlik ta’minlanishiga olib keladi.

Markaziy Osiyoga integratsiyalashuv iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi. Mintaqada davlatlari hamkorligini kuchaytirish savdo-iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish, transport infratuzilmasini rivojlantirish va siyosiy barqarorlikni ta’minlash sari qo‘yiladigan eng zarur qadamlardir. Bu jarayon mintaqamizni global miqyosda yanada raqobatbardosh, barqaror etadi[3].

Yuqoridagi maqsadga erishish, mintaqada yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlikni mustahkamlash masalasida mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvini tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edi. Bu tashabbus qardosh xalqlar manfaatlariga mos kelgani bois u keng ravishda qo‘llab-quvvatlandi (2018 yil mart, Qozog‘iston; 2019 yil noyabr, O‘zbekiston; 2021 yil avgust, Turkmaniston; 2022 yil iyul, Qirg‘iziston; 2023 yil, Tojikistonda).

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi saytida berilgan tahlilda Sovkombank bosh tahlilchisi, ekspert M.Vasilyevning quyidagi fikri berib o‘tiladi: “XX asr o‘rtalaridan boshlab Osiyo mintaqasidagi bir guruh mamlakatlar qisqa vaqt ichida iqtisodiy va texnologik taraqqiyotda misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishib, jahon hamjamiyatini bir necha bor hayratda qoldirdi. Osiyo yo‘lbarslarining *birinchi to‘lqini* – Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan va Gonkong 1960-yildan 1990 yillargacha eng yuqori cho‘qqiga erishdi, *ikkinchi to‘lqin* yo‘lbarslari – Indoneziya, Malayziya, Vyetnam va Tailand modernizatsiyani 1990-yil oxirlaridan boshlashdi. Endi *uchinchi to‘lqin*ning vaqti keldi, Markaziy Osiyoning vakili – O‘zbekistonni ishonch bilan uning lokomotivi deb, atash mumkin” [4]. Haqiqatda ham, oxirgi besh yillik ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yangi tarixiga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo mamalakatlari orasida O‘zbekiston jamiyati fenomenal strategik loyihalarni amalga oshirishda yetakchilik qilmoqda.

Qolaversa, yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat yuz mafsadgi o‘ziga qamragan 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ham bir qancha maqsadlariga mintaqaviy integrasiyalashuv masalalariga urg‘u berilishi bu boradagi ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Xususan, 94-maqsad: Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish; mintaqa davlatlari bilan oliy darajadagi muloqot va ikki tomonlama hamkorlikning barcha formatdagi mexanizmlari asosida (hukumatlararo komissiyalar, siyosiy maslahatlashuvlar, parlamentlararo hamkorlik komissiyasi va boshqalar) yig‘ilishlarni tashkil etish; Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini har yili muntazam tashkil qilishni ta’minlash va ularda faol ishtirok etish; mintaqaviy tashkilotlar doirasida O‘zbekistonning milliy manfaatlarini faol ilgari surish; mamlakatimizining

chegaraoldi nazorat-o‘tkazish punktlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish orqali ularning o‘tkazuvchanligini oshirish; shuningdek, Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va boshqa masalalarni hal etish o‘z ahamiyatini topgan[5].

Markaziy Osiyoning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi rolining ortib borishi natijasida “dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. ... Azal-azaldan o‘zaro qardosh va birodar bo‘lgan mamlakatlarimiz ko‘pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi.

Eng muhimi, Jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi degan ibora paydo bo‘ldi”. 2023 yil 14 sentabr kuni O‘zbekiston tomonidan prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Tojikistonda bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi maslahat uchrashuvida so‘zga chiqib, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo siyosatidagi yangi tendensiyalari mustahkash borasida ham bir qator takliflarni ilgari surdi. Jumladan, mintaqada savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish; sanoat kooperasiyasini rivojlantirish; transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash; energetika sohasida xavfsizlikni ta’minlash; oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash; Iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashish.

Xususan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi – “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish” yo‘nalishida belgilab berilgan Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga sifati jihatidan olib chiqishda barcha qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlardagi ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borishga alohida e’tibor qaratadi[6].

Mavzu dolzarbligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy masalalar tizimli ijobiy ahamiyat kasb etayotganligi bilan bir qatorda, yechmini topish lozim bo‘lgan, Markaziy osiyo mamalakatlari iqtisodiy-xavfsizlik mezonlari uchun muhim bo‘lgan ayrim masalalar ham ko‘ndalang turibdi.

Bugun har sohada hamkorlik qilayotgan va yangi dasturlarni ishlab chiqayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘z xavfsizligi, mintaqa barqarorligi, ijtimoiy-siyosiy tamoymillar mushtarakligi bilan bir ravishda, mintaqada iqtisodiy, ijtimoiy vaziyatlarni barqarorlashtirish va ekologik-energetik muammolarni bartaraf etishning istiqbol rejalarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Bu singari Markaziy Osiyo iqtisoiy taraqqiyotiga ta’sir etadigan omillar mintaqalararo manfaatlar to‘qnashuvlar keskin tus olayotgan shiddatli davrda strategik rejalarning muhim masalasi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida qayd etish lozimki, Markaziy Osiyo davlatlari ko‘zlagan maqsad – tinchlik va xafvsizlik orqali bugungi jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlari toboro keskinlashib borayotgan, mintaqalararo manfaatlar to‘qnashuvlar keskin tus olayotgan shiddatli davrda strategik rejalarni amalga oshirishga qodir taraqqiyot omillarini belgilab olishdan iborat.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan shaffof va o‘zaro manfaatli-strategik hamkorlik tamoyili barcha Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan teng ravishda, so‘zsiz qo‘llab-quvvatlanmoqda va o‘zaro xayrixohlik bildirilmoqda.

Jadal kechayotgan islohotlar davrida O‘zbekiston jamiyati ilgari surayotgan tashabbuslar, yangi g‘oyalar faqat o‘zininggina emas, balki qo‘shni hududlar, qardosh xalqlar madaniyati, urf-odatlari va ijtimoiy xarakterini uyg‘unlashtirish masalasi ekanligini, yaqin qo‘shnilik asoslarini mustahkamlash strategiyasi yotganligini Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori baholamoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqiy ijtimoiy-iqtisodiy integrasiyalashuv masalalarini yuqori bosqichga ko‘tarishga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elektron manba: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. https://stat.uz/uz.
2. Elektron manba: https://review.uz/oz/post/razvitie-torgovo-ekonomicheskogo-i-investicionnogo-sotrudnichestva-mejdu-stranami-centralnoy-azii-kak-faktor-obespecheniya-ix-razvitiya.
3. *Qarang:* М.Сайфуллаев. Интеграциялашув Марказий Осиёга нима беради? Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегияси расмий сайти. http://nhrc.uz/uz/news/integratsiyalashuv-markaziy-osiyoga-nima-beradi.
4. М.Васильев. “Ўзбекистон – Марказий Осиёнинг янги йўлбарси”. Elektron manba: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-markaziy-osiyoning-yangi-yolbarsi_256276.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. https://lex.uz/docs/5841063.
6. Elektron manba: “Марказий Осиё руҳи” ибораси жаҳон сиёсатшунослигида қандай пайдо бўлган. O'zbekiston Respublikasining Buyuk Britaniya Va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligidagi elchixonasi расмий сайти. https://www.uzembassy.uk/news/ 1184?language=uz.

Б. Бабаджанов *– Урганч давлат университети Бизнес ва бошқарув кафедраси доценти в.б.*

СУВ ҲАЁТ МАНБАИ
(Амударё дельтаси, Орол ва Каспий денгизи муаммоларига оид геосиёсий масалалар)

Бу мақола мазкур анжуманнинг еттинчи шўъбасининг яъни – “Янги геосиёсий муаммолар контекстида Марказий Осиёда интеграция жараён-лари” илмий йўналишига тўғри келади. Кичкина бу маърузада Қуйи Амударё минтақасида юз берган сув етишмаслиги ва келажакда янада оғирлашиши мумкин бўлган, ҳаётий муҳим масала, айнан минтақадаги сувсизликни келиб чиқиши сабаблари ва минтақа аҳолисини ўзларининг азалий ерларида умр-бод яшаб қолишлари учун, ер юзининг бошқа минтақаларидан бўлса ҳам сув келтириш муаммолари ва уларнинг ечимлари бўйича бир қадар таклифлар берилган.

Бир сўз билан айтганда – бугун масала аввалгидай Орол денгизини сув билан тўлдириб асл ҳолатига олиб келиш ҳақида эмас, балки минтақа

аҳолисини етарли чучук сув заҳиралари билан таъминлаш ҳақида бориши лозим бўлади.

Амударё – Туркистон ўлкасидаги энг серсув дарё. У юқори қисмида Тожикистон ва Ўзбекистоннинг Афғонистон билан чегарасидан оқади. Дарё-нинг узунлиги 2540 км., ҳавзасининг майдони қарийиб 465 минг кв.км., шун-дан 227,3 минг кв.км. майдон дарёнинг сув тўплайдиган тоғли қисмига тўғри келади.

Амударё музлик ва қорлардан сув олади, ҳавзасида 1000 га яқин муз-лик (шу жумладан, ер куррасидаги энг катта тоғ-водий музлиги -Федченко музлиги) бор. Дарёда энг кўп сув оқими июнь-июльда, энг кам оқим декабрь - мартда содир бўлади. Қиш мавсумида фақат грунт ва зовур сувлари ҳисоби-га тўйинади.

Дарёнинг суғоришда аҳамияти жуда катта. Чоржўй, Хоразм воҳалари ва Бухорода ерлар қадимдан суғорилиб, деҳқончилик қилиб келинади. Амударёнинг сув заҳираларидан кенг миқдорда фойдаланиш 1980 йилларда авж олиб кетди. Вахш, Кофарниҳон, Сурхондарё каби ирмоқларидан каналлар чиқарилиб, Тожикистон ва Ўзбекистонда янги ерлар ўзлаштирилди. Шунинг-дек дарёнинг ўрта оқимида 1954 йилда Туркманистон ерларига сув берувчи Қорақум канали қурилиши бошланди. Бухоро ва Қашқадарё вилоятлари ер-ларини суғориш учун Аму-Қоракўл канали, Аму-Бухоро машина канали, Қар-ши магистрал каналлари қурилиб дарёнинг сезиларли даражадаги сувлари-ни ола бошладилар.

Амударёнинг қуйи қисмида Тошсоқа, Шовот, Қиличниёзбой, Қипчоқ-Бўзсув, Пахтаорна, Қизкетган, Кегейли, Қувонишжарма ирригация тизимла-рининг таъмирланиши натижасида ва айни пайтда Тахиаташ гидроузели (1974) ва Туямўйин гидроузели (1978) қуриб битказилиши, шу билан бирга яна Қорақум барханлари узра Тошҳовуз вилоятига сув берадиган Чап қирғоқ каналининг қурилиши сабабли ҳам дарёдан каналларга сув олиш ҳажми кўпайди.

Бу каналларнинг ичида нисбатан Амударёнинг энг кўп сувини олган канал Туркманистондаги – Қорақум каналидир. Уни халқ тилида Қорақум-дарё ҳам дейишади. Унинг узунлиги 2005 йилда 1100 км бўлган. Каналнинг кенглиги 200 метр, чуқурлиги 7.5 метргача. Бош қисмида 465 км.гача кема-лар қатнайди. Туркманистонлик мутахассисларнинг ибораси билан айтганда канал қуриб битказилса унинг узунлиги 1445 км, сув сарфи 1000 куб м./сек. бўлади. Канал ҳозирда700 минг гектардан ортиқ ерларни суғоради.

Қорақум канали ҳар йили Амударёдан 12-13 куб км. сув олади. Каналнинг деярли ярмиси қумдан ўтганлиги сабабли, шу жойларда сувнинг фильтрацияси, яъни қумга сингиши ва қуёшнинг қиздириши натижасида буғланиши катталигидан олинган сувнинг катта миқдори бефойда сарф бўлиб увол бўлмоқда. Каналнинг ҳозирги фойдали коэффициенти 50 %.

Энди Амударё сувининг янада камайишига оид хабарлар янги хавф ту-ғилаётганидан огоҳ қилмоқда. Маълумки Амударёнинг бошланиш қисми-нинг чап қирғоғида жойлашган , ҳозирги вақтда 38 млн. аҳолиси бўлган Афғо-нистон давлати ҳам бу дарё сувларидан табиий равишда фойдаланишимиз мумкин деб ҳисоблайдилар. Ва шу муносабат билан улар узунлиги 285 км., кенглиги 100 м. ва чуқурлиги 8.5 м. бўлган катта канал қуришмоқда. Номи

Қўштепа канали ва у Афғонистоннинг Балх, Жаузжон, Фарьёб вилоятларига сув етказади. Унинг сув сарфи ҳисоб китобларга қараганда йилига 6 куб км. бўлиши кўзда тутилган. Афғонистон томони ирригация мақсадларида ҳозирнинг ўзида Амударёнинг юқори қисмидан йилига 4-5 куб км. сув олмоқда. Янги қурилаётган канал ҳам Туркманистоннинг Қорақум канали каби айнан қумдан ўтади ва жуда кўп миқдордаги сувлар фильтрация ва буғланишга сарф бўлади. Юқорида кўрсатилган миқдорларда сув олинадиган бўлса, оқиб келадиган сувнинг миқдори 10 фоизга камаяди. Натижада Ўзбекистон ва Туркманистон давлатлари ва айниқса уларнинг қуйи Амударё ҳудудларидаги Хоразм вилояти, Қорақалпоғистон республикаси, ва Тошҳовуз вилоятлари сувсизликдан катта азият чекишлари турган гап.

Афғонистоннинг ҳозирги ҳукуматини деярлик бирорта давлат тан олмаган. Бу ҳукумат БМТ нинг **"Трансчегаравий сув оқимлари ва халқаро кўллардан фойдаланиш бўйича Конвенция"** сини имзоламаган. Бу масалада Афғонистон ҳукумати билан музокоралар ўтказиш ва келишиш лозим.Сувни бўлишишда улар ва Туркманистон ҳукуматлари билан аҳоли сони, экин майдонлари, ичимлик суви ва бошқа масалалар бўйича келишувга эришиш ло-зим бўлади. Улар ҳам қўшнилари каби сувни тежайдиган технологияларни жорий этишлар керак.

Маълумки сиёсий география давлатларни улар жойлашган макон ва унинг категориялари (географик ўлчов меъёрлари назарда тутилмоқда) асосида, геосиёсат эса маконни ёки у билан боғлиқ муаммоларни уларга нисбатан давлатларнинг қандай муносабатларни билдираётганлари асосида тадқиқ этади. Ушбулардан келиб чиққан ҳолда Амударёнинг сув тақсимоти масалаларини Афғонистон ва Туркманистон давлатлари билан Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти (ИҲТ) доирасида муҳокама қилиб ҳал қилиш мумкин деб ўйлаймиз. Бугунги кунда ИҲТ га аъзо бўлган 56 та давлатлар орасида айнан мана шу учта давлатнинг ҳам борлиги бу масаланинг ечимига йўл топиш имкониятини бериши мумкин. Айниқса мазкур ташкилот ҳузурида бор бўлган ўндан ортиқ мустақил ташкилотлар қаторида "Ислом адолат суди"нинг борлиги ҳам масалага адолат билан ёндашишга бир имконият туғдириши мумкин. (Б.Хўжанов. Геосиёсат. Атамалар луғати. Тошкент. COMPLEX PRINT. 2024.)

Аммо, қандай ишлар қилинишига қарамасдан аҳолининг, корхоналарнинг муттасил ошиб бориши натижасида сув барибир камайиб бораверади. Нима қилиш керак? Бу муаммони ҳал этиш бўйича ўтган асрда бир қанча таклифлар бўлди. Аммо аввалги давлат ва тузумнинг ўзгариб кетиши натижасида, бу таклифлар эътиборсиз қолиб кетди. Шулардан баъзи бирларини қайтадан кўриб чиқишимизга тўғри келади.

Бу таклифлардан бири – Сибир дарёлари сувларини Ўрта Осиёга йўналтириш лойиҳаси эди. 1970 йил 24-майда КПСС МК ва СССР Мин. Советининг № 612 **"Ерларнинг мелиорациясининг истиқболи, 1971-1985 йилларда дарёлар оқимини бошқариш ва тақсимлаш тўғрисида"** ги қарори қабул қилинди. Унда биринчи навбатда 1985 йилга, йилига 25 куб км.сувни Ўрта Осиё минтақасига етказиб ташлаш зарурлиги эълон қилинган эди.

1976 йилда КПСС нинг 25 съездида тўртта таклиф қилинган лойиҳалардан охиргиси танланган ва лойиҳани амалга ошириш бўйича ишларни бошлаш тўғрисида қарор қабул қилинган. Бош лойиҳачи қилиб "Союзгипровод-

хоз” институти тайинланган, лойиҳа фаолиятини таъминоти эса **“1976-1980 йй. СССР халқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари”** га киритилган.

Обь ва Иртиш дарёлари эркин оқимининг бир қисмини ҳудудий тақсимлаш ТЭО сини кўриб чиқиш учун СССР Госплани қошида Фанлар Академияси, ГКНТ ва Госстройларнинг давлат эксперт комиссияси тузилди. **Комиссия Минводхоз СССРнинг ТЭО сини тасдиқлади.**

Бироқ, 1986 йилнинг 14-августида КПСС МК Сиёсий бюросининг махсус мажлисида бу йўналишдаги барча ишларни тўхтатиш ҳақида қарор қабул қилинди. Бундай қарор қабул қилинишида матбуотда лойиҳага қар-ши кўплаган фикр билдирилган ва бу экология нуктаи назаридан фалокатли эканлигини таъкидлаган муаллифлар мақолаларининг эълон қилиниши катта роль ўйнади.

Бу ишлар билан нафақат ҳукумат ташкилотлари, балки энтузиаст фуқаролар ҳам шуғулландилар. Шулардан бири СССР география жамияти ва Оролни қутқариш қўмитасининг аъзоси бўлган хоразмлик Озод ака Хусаинов-дир. У кишининг Сибир дарёларини Ўрта Осиё минтақасига буриш, Уст- юрт платосини ўзлаштириш, Орол денгизини қутқариш, Орол-Каспий денгизларини боғловчи кемалар юрадиган канал куришга оид илмий ишланмалари ҳо-зир Хоразм вилояти давлат архивида сақланмоқда.

Нима бўлганда ҳам бу масалаларга яна қайтмоқ зарурдир. Чунки агар 10-15 йилдан кейин сувсизлик бўлиб қолса ҳозирги яшил иқтисодиётни ривожлантиришга оид ишларимизнинг самараси бўлмай қолиши мумкин. Юқорида номлари келтирилган 3 та вилоятда қишлоқ хўжалиги таназзулга йўл тутиб, аҳолимизнинг бир қисми мамлакатимизнинг бошқа минтақаларига кўчиб яшашига тўғри келади.

Қуйи Амударё минтақасининг экологиясига салбий таъсир кўрсатадиган ҳолатлардан яна бири бу Орол денгизининг қуриши фожеасидир. Денгизнинг қуришининг асосий сабаби унга қуйилаётган Амударё ва Сирдарёнинг сувларини экин майдонларига кўплаб сарфланишидир. Баъзибир пессимист одамлар Орол денгизи оролларида ядро портлашлари ўтказилган-лиги сабабли Орол денгизи ва Каспий денгизи орасида ернинг силжиши са-бабли катта ёриқ-туннель пайдо бўлган ва сув шундан Каспийга оқиб кетган деган фаразларни ҳам қилишган.

Аммо изланишлар шуни кўрсатдики ҳақиқатдан ҳам интернет хабарларига қараганда Орол денгизи атрофида 400 метрдан 2440 метргача чуқурликда саноат мақсадларида 9 марта ер ости ядро портлашлари ўтказилган. Булар Мангишлоқ, Қорабўғозкўл, ва Марказий Қизилқумда юз берган. Буларда ҳеч қанақа тектоник ўзгаришлар бўлмаган. Бунинг исботи шуки ҳозирги вақтда Каспий денгизининг сув сатҳи ҳам қирғоқдан камида 2 метр пасайган.

Ер шари ҳароратининг муттасил ошиб бориши натижасида ер юзида сув билан боғлиқ бир қанча муаммолар пайдо бўлмоқда. Булардан бири Шимолий муз Океанидаги Арктика музликларининг эриш жараёнининг тез-лашиши натижасида Океанлар сувининг ҳажми ошиши сабабли уларда жой-лашган кўплаб орол давлатларнинг сув остида қолиб кетиш хавфи пайдо бўл-моқда. Бундай ҳолат ҳатто Буюк Британия ва Япония оролларига ҳам хавф солмоқда.

Шунинг учун дунё олимлари ўртасида океанлар сувларини қитъа-ларнинг ичкарисига йўналтиришга оид бар қанча ғоялар ишлаб чиқилган.

Шулардан бирига асосан Азов денгизидан Каспий денгизига (750 км.) катта кемалар юрадиган канал қазиш. Бунда Атлантика Океанининг сувлари Гибралтор бўғози орқали Ўрта ер денгизига, ундан Эгей денгизига, ундан Дарданелла бўғози орқали Мармара денгизига, ундан Босфор бўғози орқали Қора денгизга, ундан Керч бўғози орқали Азов денгизига ва ниҳоят янги ре-жалаштирилган канал орқали Каспий денгизига етиб келади.

Энди бу ёғи Каспий билан Орол денгизининг орасига узунлиги 250 км. лик кемалар юрадиган канал қазиш орқали Атлантика Океанининг суви би-лан Орол денгизини ҳам қайтадан тирилтириш мумкин. Бунда Азов денги-зидан Каспийга сув ўзи оқиб келади. Аммо Каспийдан Оролга сувни бир неча босқичда кўтариб беришга тўғри келади.

Албатта бу лойиҳалар жуда катта маблағларни талаб қилади. Аммо уларнинг вақти билан ўзини оқлайдиган иқтисодий фойдали тарафлари ҳам бор. Жаҳоннинг қудратли, ривожланган мамлакатлари дунёда юз бераётган ҳар хил урушлар ҳаракатларига барҳам бериб, мана шунақа глобал муаммо-лар билан шуғуллансалар ҳам иқтисодий фойда кўришлари мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Узбек совет энциклопедияси.

2.Узбек миллий энциклопедияси.

3.Комил Аваз-"Ибрат манзили". Тошкент. А. Навоий номидаги Узб. Миллий кутубхонаси нашриети. 2007й.

4.Бахром Хужанов. "Геосиёсат" Атамалар лугати.Тошкент-2024. "Complex print" нашриёти.

5.Уз. ФА Нукус филиалини "Вестник" журналининг 1982 йил 1-сонидаги А.Хусаиновнинг "Об орошении плато Устюрт, районов Узбоя и целебных земель северного Кавказа" номли маколаси.

6. "Хорезмская правда" газетасининг 1990 йил 27 - февраль сонидаги А.Хусаиновнинг "Спасти Арал" маколаси.

7. Интернет хабарлари.

M.M. Safarov **–** *Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI SIYOSIY ONGI VA MADANIYATINI MODERNIZATSIYALASHISH JARAYONINING FUTUROLOGIK MASALALARI

Bugungi yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini modernizatsiyalashish jarayonini futurologik jihatdan o‘rganish hamda shu asosda ilmiy asoslangan tahlillarni taqdim etib borish soha olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir desak, hech ham mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ayni paytda pirovard maqsadimiz ham yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini modernizatsiyalashish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni aniqlab, ularni davlat va jamiyatning umumkelajak maqsadlariga yo‘naltirishdan iboratdir. Zero, bu borada

davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev “Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha biz boshlagan ulkan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan asosiy kuch aynan yoshlarimizdir”[273] deb alohida ta’kidlaydi.

Darhaqiqat jamiyatdagi mavjud ijobiy o‘zgarishlar yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining modernizatsiyalashishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi hamda ayni vaqtda bu uning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi, deganidir. Yana ham tushunarliroq qilib aytganda, yangi O‘zbekiston jamiyatini isloh qilishda yoshlarning o‘rni ko‘p jihatdan ularning siyosiy ongi va madaniyatida qanday qadriyatlar shakllanishiga bog‘liq, deganidir. Jamiyatda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini modernizatsiyalashishini jarayon sifatida o‘rganayotganda, mazkur o‘zgarishlarning xususiyatlarini hamda ularni yoshlarning turli toifalari tomonidan idrok etilishini kognitiv darajada aks ettiruvchi omil sifatida ko‘rib chiqish kerak. Bu ayni vaqtdagi dolzarb masalalardan biridir.

Siyosiy ong va madaniyatning modernizatsiyalashishi nafaqat jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitga, balki turli xil guruh sifatida yoshlarning mentalitetiga ta’sirini belgilaydi, qolaversa, bu shubhasiz yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy O‘zgarishlarning eng muhim shartlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi bunday o‘zgarishlar davlat siyosiy tizimining maqsadlari va tamoyillarida aks etishi bilan birga asosan uning yo‘nalishlarini ham oldindan belgilab beradi. Bu kabi jiddiy o‘zgarishlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining ichki tuzilishiga, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, buni bugungi kunga kelib yoshlarni ijtimoiy faoliyatga va siyosiy hayotga jalb qilish hamda ularning ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirish mexanizmlari o‘zgarib borayotganligida ko‘rishimiz mumkin[274]

Mamlakatimizda so‘ngi yillardagi siyosiy tizimning yangilanishi sharoitida turli xil ijtimoiy guruhlarni, shu jumladan, yoshlarni siyosiy munosabatlar sohasiga olib kirish imkoniyatlari ancha kengaydi. Bu esa o‘z navbatida yangicha islohotlar sharoitida ijtimoiy-siyosiy sohada yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining modernizatsiyalashishi jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Yangi O‘zbekiston jamiyatining barcha sohalarida davom etayotgan islohotlar hamda ushbu jarayolarning yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida aks etishi futurologik nuqtai nazardan tahlil qilishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyati o‘ziga xos xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Yoshlarning ijtimoiy mavqeining o‘tish davri tabiati ularning siyosiy ongi va madaniyatini modernizatsiyalashishi uchun asos bo‘lib, u siyosiy g‘oyalar va pozitsiyalarning beqarorligida, siyosiy voqealarni ko‘p talqin qilishida namoyon bo‘ladi. Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyati xavf va marginallik bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy haqiqat hodisalarini talqin qilishda o‘z g‘oyalariga haddan tashqari ishonib qarashlar va harakatlarga sodiqlikni aks ettiradi. Ijtimoiy-madaniy sharoitdagi farqlar yoshlar guruhlarida transagressivlikni shakllantiradi, bu shaxslarning

[273] Мирзиёев, Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент; «Ўзбекистон» НМИУ. 2020. – 456 б.

[274] Зубок, Ю. А. Социальная интеграция молодежи в условиях нестабильного общества. М. : Социум, 1998. - 142 с.

ijtimoiy chegaralarini buzish, o‘zlarini hozirgi kunga yo‘naltirish uchun kelajakka qarash istagi bilan ifodalanadi[275].

Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish ushbu toifaning ijtimoiy-siyosiy maqomini aniqlashga imkon beradi. Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini jamiyatning siyosiy hayotidagi siyosiy tizimning mohiyati, printsiplari va real jarayonlari to‘g‘risidagi oqilona va hissiy, nazariy va empirik, ongli va ongsiz g‘oyalarni uning jarayonida paydo bo‘ladigan guruh va individual manfaatlar bilan bevosita bog‘liq holda aks ettirish qobiliyati deb tushunish kerak. Ayni paytda uning shakllanishi yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini modernizatsiyalashishida muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining muhim xususiyatlarini o‘rganish yangi O‘zbekiston jamiyatining mislsiz o‘zgarishi paytida ijtimoiy hodisalarning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy omillarning ta’siri hamda noaniqlik ta’siri ostida shakllangan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatidagi ziddiyatlarni aniqlashga olib keladi. O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bosqichma-bosqich hal etishga o‘tishi barqarorlikka moyillikni shakllanishi bilan tavsiflanadi. Yangi O‘zbekiston jamiyatida so‘ngi yillarda yangicha tartib-taomillar o‘rnatildi, ammo makro va mikro darajadagi noaniqlik potentsiali saqlanib qolmoqda. Bu o‘zini o‘zi tashkillashtirishdagi tartibsizlikda va ijtimoiy jarayonlarning to‘liqsizligida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu omillar zamonaviy O‘zbek jamiyatini o‘zgartirishning hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatida ziddiyatlarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning nazarimizda, yoshlarning yangi xavfli sharoitlarga moslashishini shakllantirish va aksariyat yoshlarning an’anaviy konformistik modelni qabul qilish, e’lon qilingan siyosiy yo‘nalishga yo‘naltirish orqali sodir bo‘ladi. Ba’zi olimlarning fikricha, ijtimoiy-siyosiy sohadagi yoshlar guruhlari tomonidan tavakkalchilikni ratsionalizatsiya qilishning turli usullari ijtimoiy-siyosiy ongning ichki qarama-qarshiligini belgilaydi[276] . Haqiqatdan ham ijtimoiy-siyosiy hayotni o‘zini o‘zi boshqarishning an’anaviy usullari zamonaviy modellar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda hamda yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining qarama-qarshi tomonini shakllantirishda yoshlarning bilimlari muhim rol o‘ynaydi.

Jamiyatdagi siyosiy partiyalar va institutlar ham yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini modernizatsiyalashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular bu jarayonni qadriyatga yo‘naltirilgan mexanizmlar orqali tartibga soladilar. Partiya hayotiga qo‘shilish orqali yoshlar siyosiy sotsializatsiya ob’ekti va sub’ektlariga aylanishadi, natijada siyosiy ong va madaniyatni modernizatsiyalashishiga imkon yaratishadi.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning tub siyosiy manfaatlarini aks ettiruvchi yagona avlod mafkurasini shakllantirishning institutsional shartlari hali shakllanmagan. Mutloq shakllangan milliy mafkuraning yo‘qligi sababli, yoshlar tomonidan birdamlikka taqlid mavjud, e’lon qilingan siyosiy loyihalar yoshlar tomonidan o‘zlarining guruh manfaatlari prizmasi orqali amalga oshirilmaydi. Shunday qilib, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini

[275] Проблемы политических ценностей в условиях трансформации режима: научный ежегодник Томского МИОН-2003 / Под ред. А.И. Щербинина. -Томск : Том. ун-т, 2004. 252 с.

[276] Павлова, Е. Д. Проблема информационного воздействия на сознание в постиндустриальном обществе // Личность, культура, общество. М., 2007. -Т. IX, вып. 1 (34). - С. 226 - 241.

modernizatsiyalashishini institutsionalizatsiya qilish jarayoni o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari bilan to‘qnash keladi. Siyosiy yo‘nalishdagi yoshlar tashkilotlari o‘zlarining guruhiy siyosiy manfaatlarini, siyosiy dasturlarini amalga oshirishga va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan hamda yoshlarni birlashtirishning o‘ziga xos usullarini aks ettiradi. Yoshlar tashkilotlari faoliyatida qatnashish siyosiy ongda mafkuraviy g‘oyalar, yo‘nalishlar va manfaatlar shaklida o‘rnatiladigan identifikatsiyaning g‘oyaviy tomonini shakllantirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatni modernizatsiyalashishining hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy tashkilotlarida ishtirok etishga qiziqishi mavjud. Ushbu tashkilotlar faoliyatiga bugungi kunda davlatning qiziqishi sezilarli darajada oshdi. so‘ngi yillarda olib borilgan tadqiqot ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki:

birinchidan, amaldagi hukumatni va u olib borayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlovchi hamda milliy-vatanparvarlik harakatlari yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini o‘zini o‘zi boshqarish jarayoniga eng katta ta’sir ko‘rsatmoqda;

ikkinchidan, yangi O‘zbekiston jamiyatining barqaror rivojlanishiga o‘tish sharoitida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining mafkuraviy yo‘nalishidagi aniqlik darajasini oshirish tendentsiyasi kuzatilmoqda;

uchinchidan, jamiyatda o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmlarining paydo bo‘lishi yoshlarning siyosiylashuvida yetakchi rol o‘ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев, Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент; «Ўзбекистон» НМИУ. 2020. – 456 б.

2. Зубок, Ю. А. Социальная интеграция молодежи в условиях нестабильного общества. М. : Социум, 1998. -142 с.

3. Проблемы политических ценностей в условиях трансформации режима: научный ежегодник Томского МИОН-2003 / Под ред. А.И. Щербинина. -Томск : Том. ун-т, 2004. 252 с.

4. Павлова, Е. Д. Проблема информационного воздействия на сознание в постиндустриальном обществе // Личность, культура, общество. М., 2007. -Т. IX, вып. 1 (34). - С. 226 - 241.

Ойбек Сирожов – сиёсий фанлар доктори, профессор. ТошКТИ “Ижтимоий сиёсий фанлар” кафедраси мудири

МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЙ ЖАРАЁНЛАР: МУАММОЛАРДАН ИМКОНИЯТЛАР САРИ

Ҳозирги даврда халқаро тартиботларни трансформация қилишга уринаётган глобал кучлар амалга оширилаётган геосиёсий стратегияларини қуйидагича изоҳлаб ўтиш мумкин.

1. Табиий ресурслар ва географик маконда устунлик учун курашиш. Маълумки, кучлар жиҳатидан тенг бўлган шароитда бой табиий ресурсга эга бўлган мамлакатлар доимо ғолиб келишган.

2. География жойлашувдаги устунлик. Бу ерда ҳар томонлама шу жумладан, ҳарбий жиҳат инобатга олинади. Кучли бўлган давлатлар билан қўшни бўлган давлатлар билан кўпроқ чегаравий ҳудудга эга бўлган давлатга нисбатан маълум бир имтиёзли устунликка эга бўлиши назарда тутилган.

3. "Хартленд" тизимига кирувчи мамлакатларни майда қисмларга ажратиш (фрагментация). Бир нечта фронтларда ташқи таҳдидларга дуч келаётган мамлакатлар пировард оқибатда майда давлатлар сонини кўпайтириб юбормоқда.

4. Туб ўзгаришлар жараёни ва ҳал этувчи урушларга кенг эътибор бериш.

5. Дизинтеграция ва ўз ҳудудини чексиз кенгайтиришга интилиш. Геосиёсий мақсадлар муайян давлатлар ўз мавқеи ва таъсирини ўзга ҳудуд ва минтақаларда кучайтиришга қаратилган сиёсатини ифода этади.

Бундай сиёсатни амалга оширишга ҳаракат қилаётган геосиёсий кучлар Марказий Осиёда қуйидаги муаммолар ва омиллар билан ҳисоблашган ҳолда ҳаракат қилишади. Бу чегара ва сув муаммоларини кескинлаштириш орқали минтақани бирлашишига йўл қўймаслик ҳисобланади.

Марказий Осиё геосиёсий марказларидан бири ҳисобланади. Таниқли сиёсатшунос ва давлат арбоби З.Бжезинский минтақаларни, давлатларни геосиёсий нуқтаи – назардан таҳлил қилиб икки гуруҳга бўлади.

- геосиёсий марказлар;
- геостратегик ҳаракатланувчи кучлар.

У Марказий Осиёни ҳам геосиёсий марказлар қаторига қўшади[2]. Геосиёсий марказларга геостратегик ҳаракатланувчи кучларнинг интилиши мавжуд. Марказий Осиёдаги геостратегик ҳаракатланувчи кучларга Россия, Хитой, АҚШ, давлатларини киритиш мумкин.

Ички минтақавий хавфсизликка келадиган бўлсак, асосий таҳдид этувчи омиллар этник муносабатлар, давлатлар ўртасидаги чегара масалаларини ҳал қилинмаганлиги, сув ресурслари билан боғлиқ муаммолар ва бошқалардир.

Давлатлар ўртасидаги чегара муаммосига келсак, Фарғона водийси яққол мисол бўла олади. Фарғона водийсида учта республика чегаралари туташган. Бундан ташқари бу маскан дунёдаги аҳоли энг зич яшайдиган нуқталардан бири ҳисобланади (10 млн.га яқин аҳоли яшайди, 1км^2 360 киши тўғри келади)[4]. Марказий Осиёда чегара муаммосини ҳал қилинмай келинаётганлиги ҳам можароларга сабаб бўлиб, минтақа хавфсизлигига таҳдид солаётган эди. Кўплаб тадқиқодчилар бу фикрни қўллаб-қувватлайдилар. Минтақадаги ички сиёсий барқарорлик ҳам минтақа хавфсизлиги учун муҳим омил ҳисобланади. С.Солодовкина ички сиёсий барқарорликни таъминлашда марказий ҳокимият фаолиятини икки босқичга бўлади:

-минтақавий муаммоларни бартарф этиш;

-маълум давлатлар билан ҳамкорлик қилиш.

[2] З.Бжезинский. Великая шахматная доска. Москва, «Международное отношение», 2002, стр.63

[4] А.Неклесса. Центральная Азия-опасный регион. Азия и Африка сегодня.2021, №6, стр.69 – 70.

-Марказий Осиё халқлари минтақада геосиёсий, геомаданий, геоиқтисодий яхлитликни вужудга келтиришлари зарур. Бу қуйидаги омиллар билан изоҳланади:

- геосиёсий омиллар билан;
- геоиқтисодий омиллар билан;
- комуникацион омиллар билан.

Фикримизча, Марказий Осиёда геосиёсий яхлитликни вужудга келтириш минтақадаги кўплаб хавф ва таҳдидларни бартараф этади. Минтақа марказида жойлашган Ўзбекистон эса бунда муҳим роль ўйнайди. Бундан ташқари, геосиёсий яхлитлик минтақадаги эски тузимнинг баъзи бир иллатларини бартараф этишда ёрдам беради. Масалан 1970 йилларнинг ўрталарида Испания, Португалия, Греция Европа иттифоқига қўшилиши натижасида бу муаммолар бартараф этилди.

Т.Исмогонбетов Марказий Осиё тараққиётида иккита вариант бўлиши мумкин дейди.

1. «Давлатлар ўртасида сув, миграция, иқтисодий ва савдо шартномалари масалаларида келишмовчилик янада кучаяди.

2. Геосиёсий яхлитлик вужудга келиб, бу муаммолар биргаликда ҳал қилинади»[1] - деган фикрни олға суради. Ёки Занятин «геосиёсий яхлитликни вужудга келтириш ҳудудда, минтақага ва чегарага муносабатни ўзгартиради»[2] –деган фикрни илгари суради.

Энди таклифларимиз ҳақида тўхталсак. Улар қуйидагилар:

- Марказий Осиёга қаратилган геосиёсатга қарши сиёсий фанларнинг янги «воқеалар таҳлили» деб аталувчи тармоғини ривожлантириш, содир бўлиши эҳтимоли бор воқеаларнинг илмий сиёсий таҳминларини бериш орқали жавоб қайтариш мақсадга мувофиқ.

- ички хавфсизликни таъминлаш учун аҳолини турмуш даражасини кўтариш зарур.

- коллектив ғарб билан алоқаларни янада ривожлантириш зарур. Биз қанчалик Ғарб билан алоқаларни яхшиласак, ҳудуддаги интеграция жараёнлари шунчалик тез кечади. Минтақага жиддий геосиёсий таъсирга эга АҚШ, Хитой ва Россия бўлса улардан АҚШ минтақа интеграциясидан манфаатдор ҳисобланади.

- мавжуд муаммоларни имконият даражасига олиб чиқишимиз муҳим. Бу балки ғалати эшитилиши мумкин. Аммо яқингача чегара муаммосини минтақани бўлинишига, можароларига сабаб бўлган жиддий минтақавий муаммо бўлган бўлса бугунга келиб у минтақани бирлаштирувчи имконият даражасига чиқмоқда. Ўзбекистон ташаббуси билан 2022 йилда Қирғизистон ва Ўзбекистон ўртасида чегара муаммосини ҳал қилиниши Қирғизистон ва Тожикистон ўртасида ҳам ана шундай тарихий келишувни амалга оширилишига сабаб бўлди. Келишувнинг энг муҳим жиҳати — икки давлат ўртасидаги чегаранинг аниқ белгилаб берилгани. Ўзбекистон ва Қирғизистон ўртасидаги чегара узунлиги 1,370 километрдан ортиқ, ва бу чегарада турли хил

[1] Исмаганбетов Т. Структурирование нового геополитического пространства Центральной Азии: региональные особенности и перспективы. Центральная Азия и Кавказ. 2002 №2(20) стр.7-16

[2] Занятин Д. Моделирование геополитических ситуаций (на примере Центральной Азии во второй половине XIX в), Полис, 1998, №2, стр.64 – 66

баҳслар, муаммолар бўлган. Тожикистон ва Қирғизистон ўртасидаги умумий чегарани белгилаш бўйича музокаралар 2002 йилда бошланган. 2022 йилгача улар мунтазам бўлмаган ва узоқ танаффуслар билан ўтказилган. Ўша пайтда чегаранинг 972 километр умумий узунлигидан томонлар атиги 50 фоиздан сал кўпроғини аниқлай олганди.

Минтақадага чегара келишувининг амалга оширилиши ва таъминланиши истиқболда бир қатор ижобий натижаларга олиб келиши мумкин. **Чегарадаги тинчлик ва хавфсизликнинг мустаҳкамланади.** Чегара келишуви амалдаги муаммоларни ҳал қилиб, чегарадаги тинчликни таъминлашга ёрдам беради. Бу мамлакатлар ўртасидаги низо ва зиддиятларнинг камайишига олиб келиб, чегара ҳудудидаги ахоли учун хавфсиз муҳит яратилади. Ушбу келишувнинг амалга оширилиши жамиятда ишончни оширади ва уларнинг аҳволини яхшилайди. **Иқтисодий ривожланиш ва савдо ҳажмининг ошмради.** Чегара алоқаларининг енгиллаштирилиши ва барқарорлиги икки давлат ўртасидаги савдо алоқаларини кучайтиради. Товарларнинг эркин айланиши, бизнес ва инвестициялар учун янги имкониятлар яратилади. Бу, ўз навбатида, икки мамлакатнинг иқтисодиётларининг мустаҳкамланишини таъминлайди. **Транспорт ва логистика алоқаларининг яхшиланади.** Чегара келишуви орқали янги транспорт йўналишлари, қурилишлар ва логистика имкониятлари орқали, товарларнинг тез ва арзон ўтказилиши таъминланади. Бу савдо соҳасида ҳамкорликни оширади, ҳамда минтақавий иқтисодий интеграцияни кучайтириши мумкин. **Албатта чегара масаласи ва бу борада кейинги пайтлардаги ютуқларимиз ва уларни мустаҳкамлаш алоҳида мавзу. Биз юқорида қисқача тўхталиб сиёсий ирода ва технология орқали муаммони имконият даражасига олиб чиқишимиз бу имкониятлар эса минтақани бирлаштиришга хизмат қилишини асослашга ҳаракат қилдик.**

Хуллас минтақани геосиёсий ракурсда таҳлил қиладиган бўлсак жиддий чақириқлар билан муҳим имкониятлар мавжудлигини кузатиш мумкин. Ана шу имкониятларни реал кучга айлантириш эса тадқиқотчиларимиз олдидаги муҳим вазифа ҳисобланади.

B.X. Xolmatov **–** *Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

MARKAZIY OSIYO: «MINTAQA» VA «MINTAQAVIY HAMKORLIK» MASALALARI

Markaziy Osiyo mintaqasi jahon tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan mintaqalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga mintaqaning tarixiga nazar tashlasak, ilk davlatchilik sanasi uch ming yilga teng bo‘lgan ko‘hna tarixiy merosga, qadimiy urf-odat va an’analarga boy ekanligini ko‘ramiz.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo xalqlarini ko‘p asrlik qon-qardoshlik rishtalari, mushtarak tarix, ma’naviy va madaniy qadriyatlar, o‘xshash til va mentalitet birlashtirib turgan. Umumiy tarixiy merosga ega xalqlarimizning barqaror rivojlanishi va farovon kelajagini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Markaziy Osiyo xalqlari tarixi haqida so‘z yuritib, quyidagi fikrlarni bildirgan: «Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bog‘lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an’analar birlashtiradi.

Yevroosiyoning «yuragi»da joylashgan mintaqamiz Yevropa va Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib, Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlar bilan chegaradoshdir»[277].

Shu o‘rinda «mintaqa» va «mintaqaviy hamkorlik» tushunchalariga izoh berib o‘tsak.

Amerikalik tadqiqotchi A. Markusen «mintaqani jismoniy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitga ega bo‘lgan tarixiy shakllangan hududiy jamoa va boshqa yirik hududiy birliklar – shaharlar va millatlardan farq qiluvchi fazoviy tuzilma»[278], – deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, amerikalik tadqiqotchi mintaqa tushunchasini turli qarashlar bilan izohlab, tarixiy shakllangan jamoa va hududiy birliklardan farq qiluvchi fazoviy tuzilma tarzida talqin qilganligini ko‘ramiz.

Shuningdek, rossiyalik tadqiqotchi A.I. Gavrilovning fikricha, «mintaqa – bu federal sub’yektning ma’muriy chegaralaridagi hudud bo‘lib, u murakkablik, yaxlitlik, ixtisoslashuv va boshqaruvchanlik bilan tavsiflanadi»[279].

Qolaversa, A.P. Klemeshevning so‘zlariga ko‘ra, «mintaqaning muhim xususiyati davlat mintaqaviy manfaatlaridan xabardorlikdir»[280].

Rossiyalik tadqiqotchilarning mintaqa tushunchasini ma’muriy chegaralarga ega hudud deb, uning xususiyatini davlat mintaqaviy manfaatlaridan xabardorlik deb izohlaganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar I.I. Bobokulov va X.P. Umarovlarning fikricha, «mintaqa» tushunchasini tahlil etishda uning «makon» tushunchasi bilan o‘zaro mutanosibligiga to‘xtalib o‘tish lozim. Agar mintaqa hududiy va tabiiy konstruksiya bo‘lsa, makon mazkur tuzilmani tashkil etuvchi ob’yektlarning o‘zaro joylashuvini belgilab beruvchi tushuncha hisoblanadi. Makon va mintaqa aloqadorligining muhim elementi, mantiqiy bog‘lovchisi – masofadir. Davlatlar o‘zaro joylashuvining – oralig‘i – uzoq va yaqinligini belgilab beruvchi masofa omili ular aloqadorligi va munosabatlarining daraja va sifatini belgilab beruvchi muhim ko‘rsatkich vazifasini bajaradi»[281].

Shuningdek, professor O.O. Sirojov «mintaqaviy hamkorlik» tushunchasini quyidagicha izohlab, «mintaqaviy hamkorlik – bu ob’yektiv zaruriyat natijasida ma’lum bir mintaqa davlatlarining tenglik, ixtiyoriylik, umummilliy manfaatlarning uyg‘unlashuvi asosida birgalikdagi faoliyati»[282], – degan fikrni ilgari surgan.

Bunda mamlakatimiz olimlarining «mintaqa» va «mintaqaviy hamkorlik» tushunchalariga kengroq va atroflicha ta’rif berganligini ta’kidlash joiz.

---

[277] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтказилган «Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик» мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1227 [26.04.2024]

[278] Markusen A. Regions: The Economics and Politics of Territory. N.Y., - 1987. - P.8.

[279] Гаврилов А.И. Региональная экономика и управление. Учебное пособие. – Москва: ЮНИТИ, 2002. – 15 с.

[280] Клемешев А.П. Регион в условиях глобализации / А.П. Клемешев // Вестник ВГУ. Серия Гуманитарные науки. – Москва. – 2009. – № 2.

[281] Бобокулов И.И., Умаров Х.П. Хавфсизлик асослари. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. 2011, - 105 б.

[282] Сирожов О.О. Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари: Сиёс. фан. док. ... дис. – Тошкент: 2018, - 20 б.

Shu bilan birgalikda, «mintaqaviy aktorlarning o‘zaro munosabatlari, asosan, uch omilga asoslanadi: umumiy muammolarni hal etish; umumiy tahdidlarga qarshi kurashish, umumiy manfaatlarni himoya qilish va amalga oshirish. Oxir oqibatda mintaqaviylashuv mintaqa chegaralarini shakllantiradi, uning xususiyatlari, alohidaligi va avtonomligini mustahkamlaydi»[283].

Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlik ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Mintaqaning zamirida yagona madaniyat, sivilizatsiya, tashqi kuchlarga qarshi kurash uchun birlashishga ehtiyoj yotadi. Shunday ekan bu hamkorlikda davlatlar bilan birga nodavlat tashkilotlari, an’analarimiz, xalqlarimizning bu boradagi tajribalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning doimiy hamkorlikka intilishiga avvalo, diniy e’tiqod hamda qadriyatlarining bir-biriga yaqinligi sabab bo‘lgan. Haqiqatdan ham yuqorida sanab o‘tilgan omillar Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarning azaliy hamkorlik aloqalarini o‘rganishda «xalq diplomatiyasi»ning tarixiy ildizlari o‘ziga xosdir.

Ana shunday o‘ziga xos «xalq diplomatiyasi» shakllanishining muhim omillaridan biri umumiy tarix, umumiy muammolar hisoblanadi. «Markaziy Osiyo o‘ziga xos mintaqa bo‘lib azaldan bosqinchilarni, dunyoga hukmronlik qilishni xohlovchilarning birinchi «o‘lja»siga aylanib kelgan. Buni hududimizning umuminsoniy sivilizatsiya beshiklaridan biri ekanligi bilan, sharq darvozasi ekanligi bilan, G‘arb va Sharqni birlashtiruvchi chorrahada joylashganligi bilan izohlash mumkin»[284].

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida ushbu mintaqa turlicha nomlar bilan atalgan. Jumladan, qadimiy va o‘rta asrlar yozma manbalarida mintaqa dastlab, Turon, so‘ngra Movarounnahr, keyinchalik esa Turkiston, O‘rta Osiyo deb atalgan bo‘lsa, hozirgi paytda Markaziy Osiyo nomi bilan yuritilmoqda.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mintaqasi turli davrlarda turlicha nomlangan bo‘lishiga qaramay, bu yerda yashab kelgan va hozirda beshta mustaqil davlatlarga bo‘lingan xalqlar uchun – bu mintaqa umumiy makon bo‘lgan.

Har doim Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining dini, e’tiqodi, tili, urf-odatlari, boshidan o‘tkazgan og‘ir tarixiy kunlari va yig‘ilib qolgan muammolar yig‘indisi ularni birlashtiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Bundan keyin ham Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar o‘zaro manfaatli aloqalarni muntazam davom ettirishi hamda mintaqada do‘stona hamkorlik muhitini qaror toptirish uchun zarur sharoitlar yaratishga asosiy e’tiborni qaratsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобокулов И.И., Умаров Х.П. Хавфсизлик асослари. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. 2011.
2. Гаврилов А.И. Региональная экономика и управление. Учебное пособие. – Москва: ЮНИТИ, 2002.
3. Клемешев А.П. Регион в условиях глобализации / А.П. Клемешев // Вестник ВГУ. Серия Гуманитарные науки. – Москва. – 2009. – № 2.

[283] Бобокулов И.И., Умаров Х.П. Хавфсизлик асослари. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. 2011, - 106 б.
[284] Сирожов О.О., Назиров М.М. Марказий Осиё давлатлари ҳамкорлигининг истиқболлари ва имкониятлари. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2021, - 12-13 б.

4. Сирожов О.О. Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари: Сиёс. фан. док. ... дис. – Тошкент: 2018.
5. Сирожов О.О., Назиров М.М. Марказий Осиё давлатлари ҳамкорлигининг истиқболлари ва имкониятлари. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2021.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтказилган «Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик» мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1227 [26.04.2024]
7. Markusen A. Regions: The Economics and Politics of Territory. N.Y., - 1987.

I.I. Jo‘raboyev *– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi*

THEORETICAL FRAMEWORK OF REGIONAL INTEGRATION IN CENTRAL ASIA

The concept of a region and the process of regionalization are fundamental to researching the prospects of forming a union between neighboring states. Defining the term "region" and describing its inherent features is a complex task. It is even more challenging to delineate its boundaries without considering economic, political, cultural-historical, or other factors, as the concept itself is multidimensional and open to interpretation. Studying regions requires an interdisciplinary approach since their definition and interpretation often depend on the researcher's field of expertise. Due to its broad applicability across various disciplines, the term "region" is often analyzed through a specialized lens, making it difficult to comprehensively define. When examined by experts in specific fields, the concept tends to be confined within that particular domain. Consequently, no single scholarly interpretation can fully capture its complexity. However, given that our research focuses on international relations and political science, we will primarily consider the socio-political and political-economic dimensions of the concept.

Additionally, the term "region" has multiple layers of meaning. It can refer both to internal divisions within a single nation-state, where it serves as an administrative unit, and to international-political divisions, where groups of states are classified as a single region based on political, economic, or other shared characteristics. In the latter case, regions are formed not by administrative boundaries but by analytical frameworks that highlight commonalities between states.

In today's context, the transformation of the European region from a collection of institutionally unconnected states into a functioning union of European nations serves as the most prominent example of **regional institutionalization**. In this regard, political scientist Ernst Haas, through his theory of **neo-functionalism**, offers insights into the factors that drive states to join supranational entities.[285]

Haas's concept of **spillover effects** - the idea that cooperation in one sector naturally leads to collaboration and interdependence in others - is particularly relevant to the

[285] Haas, E.B. (1964). Beyond the Nation-State: Functionalism and International Organization. Stanford University Press.

case of **Central Asia**. The region is rich in energy resources, but these resources are unevenly distributed among the five countries.[286] As a result, seasonal energy shortages frequently occur, leading to domestic discontent. Enhanced cooperation in energy policy and infrastructure could pave the way for harmonized trade policies and collaborative efforts on environmental issues. **Infrastructure projects** - such as energy pipelines, transportation networks, and communication systems - foster functional interdependence, encouraging further integration. Similarly, institutional dialogue on regional security concerns (e.g., terrorism, drug trafficking, and border control) creates both the incentives and pressure for deeper cooperation. These processes can result in **political spillovers**, gradually expanding integration into other policy domains. According to **neo-functionalist theory**, over time, political actors and economic stakeholders may transcend the limitations of the nation-state and increasingly recognize the advantages of satisfying their interests through broader integration and **supranational institutions**.

From the perspective of neo-functionalist theory, the prospects for a Central Asian Union largely depend on the extent and strength of functional cooperation among the states of the region—particularly in the economic sphere—and the potential for such cooperation to spill over into the political domain. While Central Asia exhibits a certain degree of economic integration, much of it is a legacy of the shared Soviet past. In contrast, political integration remains limited. Despite their common historical background, each Central Asian state has developed a distinct political culture, which may hinder the transition from economic to political integration.

Another key element of neo-functionalism is the role of supranational institutions in facilitating and sustaining integration processes. At present, Central Asia lacks robust supranational bodies capable of coordinating and regulating regional integration. The establishment of such institutions could be instrumental in advancing the agenda of a Central Asian Union, serving as a catalyst for deeper cooperation across multiple sectors.

Whereas neo-functionalism centers on supranational institutions and spillover effects, the **intergovernmentalism** approach emphasizes the **primacy of national interests** in the process of regional integration.[287] According to this theory, states pursue integration only when it aligns with their national priorities—particularly when it offers **economic benefits**, reinforces existing domestic policies, and contributes to **regional security**.[288] Importantly, intergovernmentalism argues that the success of regional integration depends not only on the alignment of national interests among participating states, but also on the **balance of power** between them. The ability of governments to engage in **bargaining and negotiation** plays a critical role in shaping the outcomes of integration efforts. Thus, regional cooperation

[286] Catherine Putz. Cold Snap and Electricity Shortages Slam Central Asia, Afghanistan. The Diplomat, February 02, 2023 // https://thediplomat.com/2023/02/cold-snap-and-electricity-shortages-slam-central-asia-afghanistan/

[287] Moravcsik, A. (1993). Preferences and Power in the European Community: A Liberal Intergovernmentalist Approach. Journal of Common Market Studies, 31(4), 473-524.

[288] Moravcsik, A. (1998). The Choice for Europe: Social Purpose and State Power from Messina to Maastricht. Ithaca: Cornell University Press.

is seen as the result of deliberate choices made by sovereign states, rather than the automatic consequence of functional interdependence.[289]

Within the framework of exploring the prospects for institutional integration in Central Asia, it is evident that, from an economic standpoint, the formation of a regional union aimed at accelerating growth and development would serve the interests of all member states. Such cooperation could focus on regional infrastructure projects or the sustainable exchange of energy resources, addressing shared needs and enhancing mutual resilience. From a security and geopolitical perspective, regional integration offers an opportunity to counterbalance the influence of external powers through the adoption of common defense strategies and the coordination of foreign policy. However, while shared interests can facilitate integration, divergent priorities may pose significant challenges. For instance, some states may prioritize economic cooperation and trade, whereas others may focus on security concerns or water resource management. Moreover, the success of a Central Asian Union under an intergovernmental framework will depend on the willingness of national governments to cede a degree of sovereignty in pursuit of collective benefits. Therefore, achieving meaningful integration will require careful reconciliation of national interests and a strong commitment to regional consensus-building.

American political scientist **Karl Deutsch** defines a region as a group of countries that are more interconnected with each other than with others, and sees regional integration as the development of a shared sense of community based on common values, norms, and interests.[290] This sense of unity emerges over time through ongoing social, economic, and political interaction. Deutsch outlines four stages of integration: the **Free Trade Area**, where trade barriers are removed to enhance economic cooperation; the **Customs Union**, which adds a common external tariff to support market formation and reduce competition; the **Common Market**, involving policy coordination in sectors like agriculture and industry to increase efficiency; and the **Economic and Political Union**, characterized by a common currency, harmonized economic policies, and supranational institutions with decision-making authority.[291]

Political scientist **Andrew Hurrell** defines regionalism as a set of political arrangements among neighboring states involving varying degrees of formal or informal cooperation in political, economic, or security spheres. He views regionalism as, in part, a response to the challenges and complexities of globalization. According to Hurrell, regional integration offers states a strategy to manage the uncertainties and disruptions of globalization by pooling resources and establishing mechanisms for regional coordination and collaboration.[292]

Swedish scholars **Björn Hettne** and **Fredrik Söderbaum** introduced the concept of **"regionness"** to highlight that a region is not merely a geographical entity,

[289] Buzan, B., & Waever, O. (2003). Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge: Cambridge University Press.

[290] Deutsch K. On nationalism, world regions, and the nature of the West // Mobilization, Center-Periphery structure and nation-building. A volume in commemoration of Stein Rokkan / Ed. by Per Torsvik. Universitetsforlaget. Bergen – Oslo – Toronto, 1981. – P. 2-8

[291] Deutsch, K. W. (1957). Political Community and the North Atlantic Area. Princeton University Press, p. 28.

[292] Hurrell, A. (1995). Regionalism in Theoretical Perspective. In Fawcett, L., & Hurrell, A. (Eds.), Regionalism in World Politics (pp. 3-24). Oxford University Press.

but a social construct shaped by historical, cultural, and political factors.[293] According to them, "regionness" reflects the development of a shared identity and common interests among countries and peoples within a given area. Just like other social constructs, a region can experience growth, stagnation, or decline, and the degree of "regionness" is crucial for understanding the dynamics of regional integration. Hettne and Söderbaum argue that regions with a stronger sense of shared identity are more likely to achieve deeper integration, including the formation of joint institutions and coordinated policies. The concept of "regionness," therefore, helps explain why some regions succeed in integration efforts while others struggle.

The concept of a region and the process of regionalization are inherently multifaceted and context-dependent. A region can refer to both intra-state divisions and broader transnational spaces united by common characteristics. Theories such as neo-functionalism, intergovernmentalism, and regionness offer different lenses for understanding regional integration. Neofunctionalism emphasizes spillover effects and the role of supranational institutions; intergovernmentalism focuses on national interests and negotiated cooperation; while the concept of regionness highlights identity, shared values, and socio-cultural ties as key drivers of integration.

A crucial element in the success of regional integration is **institutionalization** - the formalization of cooperation through the creation of rules, norms, and organizations that regulate interstate relations. Institutions contribute to transparency, stability, and predictability, while also facilitating dialogue and reducing transaction costs. They enable member states to coordinate policies, resolve disputes, and form a shared identity.[294]

Federalism is considered the most advanced form of regional integration, requiring strong central institutions with binding decision-making powers. However, such a model demands a high level of political will and the willingness of states to relinquish elements of sovereignty—something particularly challenging in the context of Central Asia, where political systems and national interests vary significantly.

Transaction cost theory offers an economic rationale for integration, arguing that institutions help reduce the costs of cross-border trade and cooperation. By harmonizing rules, providing dispute resolution mechanisms, and investing in shared infrastructure, integration can improve efficiency and reduce uncertainty for member states.

In summary, regional integration can be understood as a cooperative process between neighboring states driven by shared goals such as economic growth, political stability, and security. Its success depends on a combination of geographic proximity, institutional design, political commitment, and a shared regional identity. In the case of Central Asia, building effective institutions and fostering a collective sense of purpose are essential for advancing integration and addressing common challenges through joint efforts.

[293] Hettne Björn and Söderbaum Fredrik. Theorising the Rise of Regionness (2000). New Political Economy, Vol 5, No 3 (December 2000), pp. 457-473.

[294] Mattli, W. (1999). "The Logic of Regional Integration: Europe and Beyond". Cambridge University Press.

Sh. Ahadov *– Masters student of Higher School of Economics in Moscow*

STRATEGIC NEUTRALITY: HOW CENTRAL ASIAN NATIONS NAVIGATE THE FALLOUT OF THE UKRAINE WAR

Abstract

Central Asian countries have been under increasing foreign pressure since February 2022 over their positions on the Russian-Ukrainian conflict. Despite exhibiting political and socioeconomic fortitude in dealing with the aftermath of this geopolitical crisis, these nations still struggle to strike a balance between their longstanding links to Russia, internal issues, and Western pressure to "pick a side." Prioritizing diplomatic solutions to the issue, the region has kept a neutral public stance since 2014. Cohesive regional responses are complicated by internal political dynamics and economic dependencies, as demonstrated by the general statements made at the Kyrgyz summit in July 2022. While supporting Ukraine's territorial integrity and emphasizing peaceful conflict settlement, Kazakhstan and Kyrgyzstan have occasionally voiced nuanced support for Russia's activities. While Turkmenistan uses its UN-recognized neutrality to maintain balanced relations with both Russia and the West, Tajikistan has taken a low-key approach, concentrating on terrorism concerns rather than the Ukrainian crisis. In a similar vein, Uzbekistan has maintained its neutrality while highlighting international law and giving Ukraine only modest humanitarian assistance. The region's cautious and practical foreign policy in the face of persistent tensions is shown by the way Central Asian governments collectively negotiate complicated geopolitical challenges by pursuing national interests and striking a balance between global powers.

Key words: Ukraine war, sanctions, Central Asia, diplomacy, balancing, neutrality

The Central Asian nations have been subject to ongoing foreign pressure about their stance on the Ukrainian situation since February 2022. Even though all of the region's nations proved to be reasonably prepared politically and socioeconomically for the fallout from a conflict between Russia and the West, they still need to figure out how to deal with their major ally while taking into account both external pressure and the domestic issues that have accrued over the nation's thirty years of independence. Russia has been and continues to be a neighbor of Central Asia, and it is evident that long-term, multi-level cooperation is essential for the formation of the Central Asian countries' positions. On the other hand, Western nations now behave differently. Since 2014, all Central Asian countries have consistently adopted a neutral public stance and placed a strong priority on diplomatic means of resolving the conflict in Ukraine; but, at this point, Western partners are pressuring Central Asians to "pick a side." The nations of Central Asia attempted once more in 2022 to coordinate their views in order to find a solution to external challenges[295]. But, much like previously, a variety of domestic political issues (leaders' aspirations, public

[295] Kirill Nourzhanov, "Central Asia and the Conflict in Ukraine: Russia-Friendly Neutrality - near East Policy Forum," Near East Policy Forum, March 8, 2024, https://nepf.org.au/index.php/central-asia-and-the-conflict-in-ukraine-russia-friendly-neutrality/.

perception, political and economic expediency) only resulted in broad declarations of intent, which were again formulated at the "five" heads of state summit in Kyrgyz Cholpon-Ata in July of that year.

Kazakhstan volunteered to serve as a mediator for a peaceful resolution of the situation at the outset of the Ukrainian crisis in 2014. The same thing happened in 2022. The National Interest journal published an article by Kazakhstan's President, Kasymzhomart Tokayev, titled "Turbulence in Eurasia will not slow down Kazakhstan's progress" in early April 2022[296]. He mentioned the long-standing friendly ties between Ukraine and Russia while also discussing "special mutual cooperation" with the latter: "We respect its territorial integrity, as do the vast majority of countries in the world." We anticipate a prompt and equitable settlement of the dispute in line with the UN Charter." When Tokayev spoke at the St. Petersburg International Economic Forum in June, he employed language very similar to this[297]. The breakdown of the Minsk agreements and tensions over Ukraine's nuclear status are the grounds for the conflict's intensification, despite the fact that representatives of Kazakhstan are incredibly hesitant to discuss them. Tokayev also advocated for Kiev's reluctance to form coalitions and for Ukraine to be recognized as a state free of nuclear weapons, describing these actions as the best means of resolving the situation. In light of this, Mukhtar Tleuberdi, the chairman of Kazakhstan's foreign ministry, urged all nations to create a progressive plan for the total abolition of nuclear weapons[298]. However, given its closeness to Russia and the intricate web of trade, economic, and political connections, it is not anticipated that Kazakhstan will have a straightforward foreign policy stance, based on the remarks made by external actors. Rather, Kazakhstan is likely to make unique pronouncements. It's interesting to note that, in addition to organizing protests in favor of Kiev and formally sending over $2.2 million in humanitarian help to Ukraine, Kazakhstan is also fining drivers five MCI for "violating the rules of operation of vehicles" related to stickers Z and V[299].

Regarding the position of Kyrgyzstan, The President of Kyrgyzstan discussed the developing situation on his Facebook page on February 22, 2022. In order to prevent human losses, he emphasized that the dispute must only be resolved peacefully, diplomatically, and at the negotiating table." Concurrently, Sadyr Zhaparov expressed support for acknowledging a specific state as "the sovereign right of any country" and speculated that "perhaps it was a forced measure to protect the civilian population of the territories of Donbass, where a large number of Russian citizens live." On February 26, according to the press service of the President of Russia, the head of Kyrgyzstan, "noting Kiev's responsibility for the breakdown of the Minsk agreements, expressed support for the decisive actions of the Russian side to protect the civilian population of Donbass." However, on March 9, speaking to

[296] Kassym-Jomart Tokayev, "Turbulence across Eurasia Will Not Slow Kazakhstan's Progress," The National Interest, April 4, 2022, https://nationalinterest.org/feature/turbulence-across-eurasia-will-not-slow-kazakhstan%E2%80%99s-progress-201591.

[297] Асель Сатубалдина, "President Tokayev Answers Tough Questions at Economic Forum in Russia," The Astana Times, June 18, 2022, https://astanatimes.com/2022/06/president-tokayev-answers-tough-questions-at-economic-forum-in-russia/.

[298] "Kazakhstan Pursuing Policy of Building Nuclear-Weapon-Free World - FM," interfax.com, March 2, 2022, https://interfax.com/newsroom/top-stories/74995/.

[299] Catherina Putz, "Rally in Support of Ukraine Illustrates Kazakhstan's Awkward Position," thediplomat.com, March 7, 2022, https://thediplomat.com/2022/03/rally-in-support-of-ukraine-illustrates-kazakhstans-awkward-position/.

deputies of the Jogorku Kenesh (Parliament of the country), the president said that Bishkek should adhere to neutrality in the conflict, since it would not be able to stop it[300]. Earlier, on March 5, the Kyrgyz Foreign Ministry offered, if necessary, to provide a platform for negotiations between Russia and Ukraine. In April, when Western countries condemned the states that adhered to neutrality, the President of Kyrgyzstan stated that a neutral position was possible in the current situation. He also added that "both sides had equal opportunities to prevent war," but "began to receive distorted information" and "misled the presidents." It is important to note that in Kyrgyzstan, as in Kazakhstan, car drivers are fined for stickers Z and V[301].

Now, let's talk about the Tajikistan's position on this issue. The Tajik government keeps quiet about the current situation in public. In his public statements, President Emomali Rahmon has never brought up the Ukrainian issue, preferring to speak about the dangers posed by terrorism and extremism. In October 2022, a controversy arose around blogger Dmitry Gordon's claim that Tajikistan was producing Iranian drones on its soil, which Russia would deploy in Ukraine. The Republic of Tajikistan does not export military hardware to other nations, the Tajik Foreign Ministry said, refuting the blogger's assertions. On November 21, 2022, the President of Tajikistan, receiving new ambassadors of ten countries, including Russia and Ukraine, stressed that Tajikistan pursues an "open door" policy with countries from different regions of the world. He also spoke about the development and strengthening of friendly relations, multiplanned mutually beneficial cooperation between Tajikistan and the countries represented by the ambassadors. The Turkmen President, Serdar Berdimuhamedov, expressed interest in expanding bilateral ties with Ukraine. Turkmenistan has more "trump cards" in its hands: it systematically adheres to the policy of official neutrality recognized by the UN, which allows the country to take a balanced position in the face of Western pressure. The Russian Ambassador to Ashgabat, Alexander Blokhin, stated on March 12, 2022, that the Turkmen authorities "adhere to neutrality, try to take an equidistant position on this issue, do not take sides and always call for all conflicts to be resolved diplomatically."[302] Finally, Uzbekistan. On February 25, 2022, the leaders of Russia and Uzbekistan held telephone conversations. During them, Shavkat Mirziyoyev expressed understanding of the actions being taken by the Russian side[303]. He also stressed that disputes and disagreements should be resolved only on the basis of international law. The next day, on February 26, the Presidential press secretary noted that Uzbekistan takes a balanced, neutral position on the conflict. Uzbekistan has twice supplied Ukraine with minor humanitarian aid. The first aid will be provided in April and June 2022 (in total, more than 50 tons of humanitarian cargo)[304]. Transcarpathia was the recipient. In

[300] Evgeniya Makhmutova (Voyko), "Kyrgyz Neutrality in Russia-Ukraine Conflict," russiancouncil.ru, October 12, 2022, https://russiancouncil.ru/en/analytics-and-comments/analytics/kyrgyz-neutrality-in-russia-ukraine-conflict/.

[301] Ruslan KHARIZOV, "Drivers to Be Fined 5,500 Soms for Z Stickers on Cars in Bishkek -," 24.kg, March 7, 2022, https://24.kg/ english/226644_Drivers_to _be_fined_5500_soms_for_Z_stickers_on_cars_in_ Bishkek/.

[302] Admin, "Russian Ambassador Shared Stance on the Current State of Turkmen-Russian Relations," News Central Asia (nCa), March 15, 2022, https://www.newscentralasia.net/2022/03/15/russian-ambassador-shared-stance-on-the-current-state-of-turkmen-russian-relations/.

[303] "Presidents of Uzbekistan and Russia Hold a Phone Conversation," president.uz, February 25, 2022, https://president.uz/en/lists/view/5011?fbclid=IwAR0kfbTYan36DXx_y1dUfKwlX9tpOb7atF9vR2uvORdZUquZghfjY4TpkFA.

[304] Kun uz, "Uzbekistan Sends Humanitarian Aid to Ukraine," Kun.uz, August 19, 2023, https://kun.uz/en/news/2023/08/19/uzbekistan-sends-humanitarian-aid-to-ukraine.

March, Abdulaziz Kamilov, who was then foreign minister, said that the country would continue "mutually beneficial cooperation based on national interests." This position was confirmed on December 1 by the press service of the head of state, noting that "the foreign policy agenda of Uzbekistan is determined based on interests" and does not depend "on any geopolitical events," including Ukraine crisis. In general, the position of the Central Asian countries on the issue of recognition of new territories is systemic. Thus, at the summit of the Organization of Turkic States, which was held in November 2022 in Samarkand, Turkey insisted on the admission of Northern Cyprus to the organization as an observer[305]. However, the Foreign Ministries of Kazakhstan and Uzbekistan opposed it, indicating the immutability of the position. Every nation in the area is looking for the best possible position to achieve its respective domestic and international political objectives. While others are scheming amongst centers of power in anticipation of the outcome of the conflict between Russia and the West, others are concentrated on maintaining maximal self-isolation from the European crisis and strive to maintain equilibrium both inside the nation and in ties with outside powers.

References:

1. Kassym-Jomart Tokayev. “Turbulence across Eurasia Will Not Slow Kazakhstan’s Progress.” The National Interest, April 4, 2022. https://nationalinterest.org/feature/turbulence-across-eurasia-will-not-slow-kazakhstan%E2%80%99s-progress-201591.

2. Katzenstein, Peter J. *Cultural Norms and National Security: Police and Military in Postwar Japan*. 1996. Reprint, Ithaca, N.Y.: Cornell University Press, 1998. https://books.google.fr/books/about/Cultural_Norms_and_National_Security.html?id=oTrmwhRbytIC&redir_esc=y.

3. Kazantsev, Andrei. “Russian Policy in Central Asia and the Caspian Sea Region.” *Europe-Asia Studies* 60, no. 6 (July 18, 2008): 1073–88. https://doi.org/10.1080/09668130802180983.

4. KHARIZOV, Ruslan. “Drivers to Be Fined 5,500 Soms for Z Stickers on Cars in Bishkek -.” 24.kg, March 7, 2022. https://24.kg/english/226644_Drivers_to_be_fined_5500_soms_for_Z_stickers_on_cars_in_Bishkek/.

5. Kim, Eung Ju. “Remittances to Europe and Central Asia Post a Strong Growth.” World Bank Blogs, January 9, 2023. https://blogs.worldbank.org/en/peoplemove/remittances-europe-and-central-asia-post-strong-growth.

6. Kirill Nourzhanov. “Central Asia and the Conflict in Ukraine: Russia-Friendly Neutrality - near East Policy Forum.” Near East Policy Forum, March 8, 2024. https://nepf.org.au/index.php/central-asia-and-the-conflict-in-ukraine-russia-friendly-neutrality/.

7. Kothari, Raj Kumar. “India’s Strategic Interests in Central Asia in the Post-Soviet Years: Expanding Vistas of Partnership.” *International Journal of Political*

[305] “The Turkish Republic of Northern Cyprus Does Not Have Observer Status in OTS and ECO, It Is Not Accepted – Expert,” Qalampir.uz, November 13, 2023, https://qalampir.uz/en/news/shktr-93014.

Science 4, no. 1 (June 2018): 10.
http://dx.doi.org/10.21088/ijpos.2454.9371.4118.3.

8. Kundu, Nivedita Das. “Analytics.” Valdai Club, 2024.
https://valdaiclub.com/a/highlights/international-north-south-transport-corridor/.

9. Летняков, Денис Эдуардович, and Наталья Николаевна Емельянова. “Стратегии ‘мягкой силы’ в постсоветской Центральной Азии: Россия vs США, Китай, Индия.” *Мир России* 26, no. 4 (September 25, 2017): 118–42.
https://doi.org/10.17323/1811-038x-2017-26-4-118-142.

10. Mackinnon, Amy. “3 Big Things to Know about the Russian-Led Alliance Intervening in Kazakhstan.” Foreign Policy, January 7, 2022.
https://foreignpolicy.com/2022/01/07/kazakhstan-russian-alliance-collective-security-treaty-organization/.

11. Makhmutova (Voyko), Evgeniya. “Kyrgyz Neutrality in Russia-Ukraine Conflict.” russiancouncil.ru, October 12, 2022.
https://russiancouncil.ru/en/analytics-and-comments/analytics/kyrgyz-neutrality-in-russia-ukraine-conflict/.

B.T. Qudratov *– докторант Координационно-методического центра по новейшим вопросам истории Узбекистана при ФА УзР*

ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ВЫЗОВЫ

За короткий исторический период политико-правовой ландшафт Центральной Азии коренным образом изменился, при этом трансформационные процессы продолжаются под воздействием глобализации. Центральная Азия была и остается одним из регионов, который влияет на расстановку сил на мировой политической арене.

В тоже время, Центральная Азия является одним из ключевых регионов в контексте глобальной геополитики, ввиду своего стратегического положения между Европой, Россией, Китаем и Ближним Востоком. В последние десятилетия в регионе наблюдаются изменения, вызванные рядом внутренних и внешних факторов. В этой связи представляет актуальность происходящих геополитических тенденций в Центральной Азии, а также вызовы, с которыми сталкиваются государства региона.

У стран региона общие экономические интересы, культурно-исторические корни, язык, религия, экономические проблемы и внешние угрозы. Перед ними стоит выбор – оставаться государствами-донорами сырьевых ресурсов или пойти путем интеграции, обеспечивая себе экономическую, военную и политическую безопасность и устойчивое развитие. Именно второй выбор отвечает интересам простых людей, живущих в регионе.

Помимо обладания природными ресурсами, так называемый «людской» потенциал государств, расположенных в Центральной Азии, становится

объектом пристального изучения со стороны мировых центров сил, которые ставят своей целью долгосрочное стратегическое партнерство со странами региона.

Народы Центральной Азии и их лидеры успешно справляются с исключительно сложными проблемами, однако многое еще необходимо сделать, чтобы наладить цивилизованные отношения между странами региона, обеспечить более эффективное использование региональных ресурсов и добиться улучшения жизни народов Центральной Азии путем развития связей между их государствами, странами-соседями и остальным миром.

Естественно, географическое положение всегда служило одним из важных факторов, определяющих геостратегический потенциал и значимость любой страны. Расположенные на пересечении путей древней Шелковой дороги, центральноазиатские страны обладают важнейшими стратегическими ресурсами и природными богатствами, что делает их объектом геополитической конкуренции. В последние десятилетия регион оказался в центре интересов различных мировых держав, что оказывает значительное влияние на его развитие.

Этот регион был и будет оставаться, как считают некоторые узбекистанские исследователи, ареалом «перманентного геополитического противоборства мировых держав». Стремясь интегрироваться в мировое сообщество, страны региона испытывают влияние глобализации, причем каждая страна формирует собственную геополитическую модель развития. На сегодняшний день свои виды на данный регион имеют США, Россия, Китай, а также ближайшие соседи Турция, Иран, Пакистан, Япония, Южная Корея, Индия и др.

В нашей работе мы уделили внимание основным внешним игрокам в Центральной Азии, таким как Россия, Китай, США.

Самый могущественный игрок – Вашингтон, США обеспокоены распространением терроризма из сопредельных с регионом стран, растущее влияние Китая и России. Особый интерес США проявляет к продвижению демократических реформ в Центральной Азии, а также ситуацией в соседнем Афганистане. ёУсилия США нацелены на подключение стран Центральной Азии к более тесной кооперации с южноазиатскими странами в целях формирования экономического и политического моста между Ближним Востоком и Восточной Азией.

Чтобы не допустить укрепление позиций России и Китая в регионе и по возможности разрушить российскую монополию на транспортировку центральноазиатских ресурсов, Вашингтон пересматривает собственную политику в отношении данного региона.

Таким образом, США, несмотря на относительное уменьшение своего присутствия в Центральной Азии после вывода войск из Афганистана, сохраняют стратегический интерес в области безопасности и энергетики. Американское присутствие выражается через дипломатические, экономические и военные каналы, с акцентом на борьбу с терроризмом и поддержку демократических процессов.

Что касается РФ, то современная Россия проявляет огромное желание присутствовать в Центральной Азии, исходя из национальных интересов, которые включают обеспечение собственной безопасности, желание доминировать, использование сырьевых ресурсов региона и его рынки. Россия оценивает Центральную Азию как геостратегический плацдарм «…маневрирования в близлежащих территориях, в частности, Каспийском бассейне, на Среднем и Ближнем Востоке, Южной и Юго-Восточной Азии».

Весьма показательно высказывание политолога из Колумбийского университета Р.Менона: «История, география и логика гарантируют, что Центральная Азия останется в сфере влияния России. Ни государства региона или их союзы, ни другие державы или организации не изменят этой реальности; не изменят ее и перемены в характере государства в России…».

В этой связи, Россия традиционно будет рассматривать Центральную Азию как часть своей зоны влияния, особенно в контексте обеспечения безопасности на внешних рубежах и сохранения контроля над энергетическими ресурсами.

Одним из важных участников международных отношений центральноазиатских республик остается Китай, который граничит с Афганистаном, Пакистаном, Индией, и эти отношения можно назвать перманентно стабильными. По всему периметру своих границ пристальное внимание КНР уделяет той, что проходит со странами Центральной Азии.

Китай становится все более влиятельным «игроком» не только регионального, но и глобального масштаба. Занимая активную позицию в международных организациях, Китай все более заметно воздействует на обстановку в мире.

Роль создателя, организатора и активного участника в ШОС играет Китай, в рамках которой все более возрастает обмен товарами и услугами; в ближайшей перспективе китайская сторона сможет предложить ряд проектов, связанных с развитием транспорта, энергетики, сельского хозяйства, легкой промышленности.

Страны Центральноазиатского региона и КНР способны сотрудничать и по разрешению проблем использования водных ресурсов, в частности трансграничных рек. В этом вопросе затрагиваются интересы Китая и Казахстана, которые связывают между собой около 30 трансграничных рек, имеющих истоки на территории КНР. Проблема заключается в отсутствии правовых механизмов для использования водных ресурсов сельским хозяйством и для обеспечения водой местного населения граничащих государств. Если в ближайшей перспективе проблема не будет урегулирована, это может осложнить взаимное сотрудничество Казахстана и Китая, возможно, со всем регионом.

Все больше интереса Китай высказывает к сфере туризма. Связующим звеном между двумя государствами является историческая реликвия – Великий Шелковый путь, который зародился в древнем Китае, причем северная его ветвь проходила через Самарканд, а южная - через Фергану. Учитывая, что в современном мире растет интерес к истории этого древнего пути и его пунктам остановок, возможна реализация взаимовыгодных коммерческих проектов совместных маршрутов, охватывающих основные

населенные пункты как на китайской территории (Сиань, Дунхуан, Кашгар и др.), так и через города Узбекистана (Самарканд, Фергана, Бухара, Хива).

Можно предположить, что Китай все активнее будет расширять своё влияние в Центральной Азии через экономические и инвестиционные проекты, особенно в рамках инициативы "Один пояс, один путь", которая предполагает создание инфраструктуры для улучшения транспортных и торговых связей между Китаем и странами региона. В свою очередь, экономическое сотрудничество с Китаем будет способствовать росту экономики, но в тоже время вызывает опасения возможности долговой зависимости и политической уязвимости стран региона.

Делая прогнозы на обозримое будущее, многие аналитики утверждают, что благосостояние центральноазиатских стран напрямую будет зависеть от стабильности в сопредельных государствах, этот тезис может служить лейтмотивом в установлении дружеских связей, прежде всего с сопредельными странами, а также с государствами дальнего зарубежья.

Безусловно, что государства Центральной Азии намерены строить взаимоотношения с другими акторами исходя из новой, так называемой международной «архитектуры», в основе которой лежат динамично меняющиеся национальные, региональные и международные интересы, это обосновано реалиями глобализирующегося мирового порядка.

Нельзя не отметить и то, что Центральная Азия имеет ряд внутренних вызовов, которые в значительной степени влияют на её геополитическую стабильность. Так, этнические и религиозные противоречия, а также рост националистических настроений в ряде стран региона могут стать источниками политической нестабильности. Кроме того, такие проблемы, как водный кризис, миграция и различия в уровнях развития, также создают риски для долгосрочной стабильности.

Несмотря на экономический потенциал, страны Центральной Азии сталкиваются с вызовами, связанными с диверсификацией экономики, энергетической зависимостью и недостаточной интеграцией в международные торговые цепочки. Важным шагом к преодолению этих проблем стало активное развитие региональной экономической интеграции, особенно через такие механизмы, как Евразийский экономический союз и ШОС.

Вообще за последнее время Центральная Азия наблюдается динамика международной геополитической борьбы за регион. Основными направлениями, на которые стоит обратить внимание в будущем, являются:

- Страны региона будут продолжать балансировать между влиянием России, Китая и США, стремясь минимизировать риски от внешнего давления, одновременно укрепляя свои позиции в международных организациях;
- Центральная Азия будет искать новые пути для модернизации своих экономик, включая диверсификацию промышленности и развитие сельского хозяйства. Важными аспектами станут внедрение инновационных технологий и развитие инфраструктуры для улучшения торговли с соседними регионами;
- Проблемы безопасности, такие как терроризм, наркоторговля и этнические конфликты, потребуют дальнейшего сотрудничества в области

безопасности как на уровне стран региона, так и через международные организации.

Таким образом, Центральная Азия — это ключевая стратегическая зона, где пересекаются интересы крупных мировых держав. Будущее региона зависит от способности стран региона эффективно управлять внутренними вызовами, сохранять баланс в отношениях с внешними игроками и проводить успешные экономические и политические реформы. Существующие геополитические тенденции предполагают, что Центральная Азия продолжит оставаться важным центром международной конкуренции и сотрудничества в ближайшие десятилетия.

Использованная литература:

1. Внешние ориентиры Узбекистана. - https://review.uz/post/vneshnie-orientir-uzbekistana

2. Кадыров А.К. Ключевые приоритеты внешней политики обновленного Узбекистана. - https://uza.uz/ru/posts/klyuchevye-prioritety-vneshney-politiki-obnovlennogo-uzbekis-30-07-2020

3. Казанцев А. Обновленный внешнеполитический курс Узбекистана обеспечил необходимые условия для проведения экономических реформ. - https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/obnovlennyy-vneshnepoliticheskiy-kurs-uzbekistana-obespechil-neobkhodimye-usloviya-dlya-provedeniya-/

4. Курбанов Д., Юнусова З. Реализация международных инициатив Нового Узбекистана – глобальное признание открытой и прагматичной внешней политики страны. - https://www.alliance-press.kg/ru/articles/view/2337

5. Рахимов М. Приоритеты внешней политики Республики Узбекистан. // Центральная Азия в глобальном мире. - file:///C:/Users/User/Downloads/14-Rakhimov.pdf

6. Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. - https://lex.uz/docs/3107042

N.I. Meliyev **–** *Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi tayanch doktoranti*

MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT TIZIMI RIVOJLANISHINING NAZARIY AHAMIYATI VA TARIXI

Markaziy Osiyo – qadimdan dunyo tamadduni rivojiga munosib hissa qo‘shib kelgan makon. Undan yetishib chiqqan olim-u ulamolar, podshoh va sarkardalar, davlat hamda jamoat arboblari salmoqligina. Biroq mustamlakachilik davrining ta’siriga tushib qolgan, uzoq yillar boshqa davlatlar tarkibida bo‘lishga majbur bo‘lgan bu qadim diyor oldida bir qancha qator muammolar marjon shodalaridek tizilib qoldi. Bu mustamlakachilik tuzumining “Bo‘lib tashla, hukmronlik qil” siyosati mevasi edi. XX asrning so‘nggiga kelib ushbu mintaqa davlatlari o‘z mustaqilliklarini qaytarib olib yangi davlatchilik davrini boshladilar. Yangi taraqqiyot davri boshlandi. Buning uchun qaramlik yillarida to‘planib qolgan va mintaqa mamlakatlarining o‘z

mustaqilliklarini qo‘lga kiritganlaridan keyin vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish, ularni ilmiy o‘rganib tahlil qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bunda tabiiyki har bir davlat yoki ma’lum bir mintaqa taraqqiyotini zamonaviy, qulay, va mobillashtirilgan transport tizimisiz barpo qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa chegaralari Yevroosiyo materigining ikki chekkasini bog‘lab turuvchi, mintaqa chegaralari dunyoning har jihatdan kuchli bo‘lgan Rossiya, Xitoy, Eron kabi davlatlar chegaralari bilan kesishuvchi, Afg‘onistondek murakkab holatdagi davlat bilan tutash bo‘lgan mintaqada. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov Markaziy Osiyo davlatlari haqida “Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Bu davlatlar oldida muvaffaqqiyatsiz, chippakka chiqqan tarixiy tajribaning fojeali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turibdi” – de’ya ta’kidlagan bo‘lsa, prezident Sh.Mirziyoyev “…Bugun biz yashayotgan, jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘langan dunyoda xavfli muammolar girdobidan chiqishning yakkayu yagona yo‘li – konstruktiv muloqot va har bir tarafning manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko‘p tomonlama hamkorlikdir…” deydi.

Bugungi kunda dunyo taraqqiyotini “transport tizimi” siz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har qaysi davlat rivojlanish yo‘lidan borar ekan albatta o‘zining ichki va tashqi transport tizimi imkoniyatlarini oshirib borishga intiladi. Shu o‘rinda “tizim” yoki “tizimlashtirish” jarayoni mavjud masalani yechish uchun samarali yo‘l hisoblanadi. Har bir tizim tashkil etuvchi tizimlari bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Bir tomondan elementlarning mavjudligi tizim mavjudligining kafolati bo‘lsa, boshqa tomondan tizimning biron bir elementi yemirilishi uning inqirozini yuzaga keltiradi. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda shuni aytishimiz mumkinki ma’lum bir maqsadga yo‘nalganda unga erishtiruvchi to‘g‘ri tizimni topa olish mavjud muammoning samarali yechilishi uchun xizmat qiladi. Mamlakatlar hamda mintaqalararo transport aloqalarida o‘zaro bir-birini bog‘lovchi transport koridorlarining tizimli ravishda mavjudligi muhim omil hisoblanadi. Transport tizimining muhim elementi sifatida transport koridori qayd etiladi. Koridor – davlatlararo xizmat qiluvchi eng muhim yo‘lakdir. “Koridor” tushunchasi umumiy holda tashishning barcha turlarini o‘z ichiga oladigan: avtomobil yo‘llari, dengiz, daryo, temir yo‘l va havo uchastkalari, magistral quvurlar, dengiz, daryo va havo portlari, temir yo‘l stantsiyalari va multimodal terminallarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro transport koridori (transport koridori) - umumiy foydalanishdagi yer usti transporti (temir yo‘l, avtomobil, daryo) va telekommunikatsiyalarni umumiy yo‘nalishlarga jamlaydigan yuqori texnologiyali transport tizimi hisoblanadi. Bunda transport tizimi kommunikatsiyaning bir qismi sifatida qabul qilinadi.

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi Transport qo‘mitasi hujjatlariga ko‘ra, transport koridori – bu milliy va xalqaro transport tizimining bir bo‘lagi hisoblanib, barcha transport turlarida (aviatsiya, temir yo‘l, avtomobil, dengiz, quvur) alohida geografik hududlar o‘rtasidagi yirik xalqaro yuk va yo‘lovchi tashishni amalga oshirilishini ta’minlaydi hamda o‘zida ushbu yuk tashishning texnologik, tashkiliy-huquqiy shart sharoitlari va jihatlarini aks ettiradi. Bundan kelib chiqadiki davlatlararo yoki mintaqalararo transport aloqalarida transport koridorlari qanchalik muhim bo‘lsa buni amalga oshiruvchi mexanizm ya’ni tizimning to‘g‘ri tanlanishi shunchalik dolzarbdir. Mintaqa davlatlari transport tizimi siyosatidagi raqobat natijasida shakllanayotgan muqobil transport koridorlarini va bu borada

mintaqa mamlakatlari orasidagi muammolar mavjudligini “Siyosiy realizm” nazariyasi vakillari Fukidid, Makiavelli, Gobbs, Klauzevitslar qarashlari bilan tushuntirish mumkin. Ular “davlat qanchalik qudratli bo‘lsa, uning manfaatlar ko‘lami shunchalik kengayib boradi” deya tushuntirishadi. Ushbu ta’rifni mintaqa uchun ham tadbiq etsa noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni Markaziy Osiyo mintaqasi qanchalik qudratli bo‘lsa, uning boshqa mintaqalar bilan aloqadorligida manfaatdorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Transport tizimi nafaqat davlatlar, balki mintaqalarning taraqqiyoti uchun ham xizmat qiladi. Aynan shu sababli transport tizimi quyidan yuqoriga qarab o‘sadi va shu orqali uning samaradorligi oshib boradi. “Davlatlar o‘z milliy xavfsizligini ta’minlash maqsadida mamlakat qudratini oshirishga harakat qilsa, o‘z navbatida boshqa davlat xavfsizligini zaiflashtiradi” kabi qator ta’limotlar ham mavjud. Bu biror davlat o‘z manfaati yo‘lida ma’lum bir transport koridori tizimini yaratishi boshqa bir davlatning transport koridori imkoniyatiga salbiy zarar yetkazishi mumkin. Shu o‘rinda aytish zarurki qadimda ushbu mintaqadan o‘tgan, o‘z davrining eng salohiyatli transport tizimi hisoblangan, o‘rta asrlarda Sharq va G‘arb mamlakatlarini ilk bor o‘zaro bog‘lagan qit’alararo karvon yo‘li (mil.avv. 2-a. – mil 15-a.) Buyuk ipak yo‘li unga alternativ tarzda shakllantirilgan va rivojlantirilgan boshqa shu kabi yo‘llar ta’sirida o‘z mavqeini yo‘qotib borgan. Xususan yangi dengiz savdo yo‘llarning ochilishidir. Quruqlikdagi eng uzun savdo yo‘li bo‘lmish Buyuk ipak yo‘li nazoratining Usmoniylar imperiyasi nazorati ostidaligi Yevropaliklarga savdo jarayonlarida erkinlik bermas edi. Bu esa ularni yangi savdo yo‘llarini ochishga undagan edi. Ushbu hodisalar uzliksiz jarayon sifatida qabul qilinishi mumkin. Ya’ni har bir davlat o‘z manfaatini boshqa davlat manfaatidan doimo ustun qo‘yadi. Biroq zamonaviy dunyo xalqaro munosabatlarida ma’lum bir davlat emas balki hamkorlik qiluvchi davlatlar yoki mintaqa manfaatlarini teng hisobga olgan holatda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ularning rivojlanish va taraqqiy etish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. “Jarayon” tushunchasiga professor S.Otamuratov “Jarayon – tabiat, jamiyat va insoniyat hayotida kechadigan voqea va hodisalarning uzluksizligini anglatuvchi tushunchadir. Uning o‘zak mohiyatini ana shu uzluksizlik tashkil qiladi” – degan qarashini ilgari suradi. Olim O.Sirojov “Jarayon – ma’lum tamoyillar asosida da’vom etayotgan o‘zgarish hisoblanadi” – de’ya ta’kidlaydi. Biz “jarayon” tushunchasiga “Voqea va hodisalarning da’vomiyligi bilan harakterlanib, o‘zida ijobiy yoki salbiy hususiyatni aks ettiradigan holat” deya ta’rif beramiz. Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi transport tizimining rivojlanishi mintaqa davlatlari integratsiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

F.Tolipov “mintaqaviy integratsiya” negizlarini Markaziy Osiyo misolida ko‘rsatib, “Umumiy geografik makon, etnik jihatdan umumiy kelib chiqish, madaniyat va urf-odatlar yaqinligi kabi qadriyatlar birligi Markaziy Osiyoni integratsiyasi uchun poydevor bo‘ladi”, degan fikrni ilgari suradi. “Integratsiya” bizning fikrimizcha ma’lum bir maqsad yo‘lida birlashtiruvchi, umumiylikka xizmat qiluvchi jarayon hisoblansa, “mintaqaviy integratsiya” – bir mintaqadagi bir nechta davlatlarning umumiy maqsad va manfaat yo‘lida hamkorlik qilishi, bunda integratsiyaning barcha elementlarini o‘zida jamlab olishi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvida “Tashqi siyosat idoralarimiz tomonidan strategik hujjat – Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq” de’ya ta’kidladi. Bu

shuni anglatadiki ushbu konsepsiya pirovardida “Markaziy Osiyo yagona transport tizimi” konsepsiyasini ishlab chiqilishiga ham huquqiy asos bo‘ladi. Qolaversa, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlashda, BMT mintaqaviy xavfsizlik muammosini, avvalo, priventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda hal qilishda muhim o‘rin tutishi lozim. Shuningdek, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash zarur. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘zlarining davlat xususiyatlarini, ichki tarixiy jihatlarini baholay turib, mintaqaviy transport integratsiya jarayonlari kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkinligini teran anglagan holda bugungi transport tizimidagi islohotlarini rivojlantirishi darkor. Markaziy Osiyo davlatlari transport tizimini rivojlantirishda mintaqa muammolarini bartaraf etish bilan bir qatorda “ichki” harakterga ega bo‘lgan muammolarga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Ichki muammolarni hal etmasdan turib mintaqaga xos bo‘lgan muammolarni yechib bo‘lmaydi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar rivoji ko‘p jihatdan transport kommunikatsiya tizimiga bog‘liq. Tarixda bu vazifani savdo va tijorat, shuningdek ziyorat karvonlari bajargan bo‘lsa, zamonaviy dunyoda transport tizimi va ular uchun yaratilayotgan infratuzilma davlatlarni bir biri bilan bog‘lamoqda. Ayniqsa, jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarida bu sohaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Transport tizimining rivoji bugungi iqtisodiy rivojlanishning poydevorini tashkil qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xalqaro transport tizimining rivojlanishi uzoq tarixga ega bo‘lib, turli davrlarning rivojlanish xususiyatiga monand ravishda o‘ziga xos rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Ilk tashqi savdo aloqalari davlatlararo emas, balki kishilar, qabilalararo yo‘lga qo‘yilgan. Dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishi xalqaro savdo aloqalarining shakllanish va rivojlanish davrini boshlab bergan. Bu esa davlatlar o‘rtasidagi resurslarning notekis joylashuviga bog‘liq bo‘lgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanib borishi, ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi, fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish sohalariga jadal kirib borishi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishi jarayoni xalqaro savdoning rivojiga ta’sir qilgan bo‘lsa, o‘z navbatida bu transport tizimining rivojlanishiga ham katta ta’sirini o‘tkazgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 01.08.2022.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom I. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 594 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997.
5. Alimov R. Sentral'naya Aziya: obshnost' interesov. – T.: “Sharq”, 2005.
6. Jo‘raev S.A. O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. – T., 2008.

7. Koʻcharov Ch. Markaziy Osiyoning mintaqaviy integrasion jarayoni muammolari (geosiyosiy tahlil tajribasi). – T.: “Fan”, 2008.
8. Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – T.: JIDU, 2005.
9. Sirojov O. Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik jarayonlari. – T.: “Oʻzbekiston”, 2016.
10. Boʻronov S. Afgʻonistonda vaziyatni barqarorlashtirish jarayonida Oʻzbekiston ishtirokining geosiyosiy jihatlari. Siyosiy fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.
11. Jumaev R.Z. Problemi formirovaniya i ukrepleniya politicheskoy sistemi Respubliki Uzbekistan. Avtoref. dok. pol. nauk. – T., 1996.
12. Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. (Doctor of Science) diss. – T., 2018.
13. https://president.uz
14. http://uza.uz
15. https://lex.uz
16. http://thediplomat.com

O.Q. Gʻaybullayev *– Toshkent kimyo-texnologiya instituti doktoranti*

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI – MINTAQAVIY MUAMMOLARNING YECHIMI SIFATIDA

Dunyoda geosiyosiy raqobat va qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari keskinlashayotgan bugungi davrda mintaqa davlatlaridagi integratsiyalashuv barcha muammolarning yechimi sifatida namoyon boʻlmoqda. Xoʻsh, integratsiya nima? Va u bizga nima beradi?

Integratsiya suveren davlatlarning tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan muhitni tashkil qilish maqsadida umumiy institutlar va qoidaalar orqali hamkorlikni amalga oshirish boʻyicha kelishuvga kirishish jarayonidir. U jarayon sifatida davlatlararo, mintaqaviy va global xususiyatlarga ega boʼlishi mumkin. Bularning orasida mintaqaviy integratsiya eng keng tarqalgan turdir. Mintaqaviy integratsiya bu – maʼlum mintaqa davlatlarining tenglik, oʻzaro ishonch asosida mintaqaviy yaxlitlikni vujudga keltiradigan jarayon. U tenglik, ishonch va manfaatlar uygʻunligi asosida amalga oshadi.

Bugun biz tarixi bir, urf-odat, madaniyat va qadriyatlari mushtarak boʻlgan Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari oʻrtasida oʻzaro ishonch, yaxshi qoʻshnichilik va ikki tomonlama hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganligini guvohi boʻlmoqdamiz. Xususan, keying yillarda mamlakatlarimiz oʻrtasida savdo hajmining barqaror oʻsishi kuzatilmoqda. Masalan, tovar aylanmasi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Oʻzaro investitsiyalar hajmi qariyb 6-marta, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 45 foiz oʻsdi. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm 2 barobar faollashdi.

Markaziy Osiyo davlatlari global va mintaqaviy xarakterdagi koʻplab masalalar boʻyicha ham yagona pozitsiyada turib harakat qilmoqdalar. Jumladan, mamlakatlarimiz 2017-yildan buyon Markaziy Osiyodagi taraqqiyot va sheriklikning muhim masalalariga oid BMTning 8 ta rezolyutsiyasini qabul qilish yuzasidan

tashabbuslarni ilgari surdi. Bularning barchasi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanib, keng e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar xalqaro iqtisodiy, siyosiy va madaiy hamkorlikning kegayishi va chuqurlashsishi, shuningdek, globallashuv jarayonlarining faollashuvi bilan tavsiflanadigan yangi davrga qadam qo'ydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, dunyoning ayrim davlatlarida globallashuvning salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida, ayrimlarida esa uning rivojiga hissa qo'shishni maqsad qilgan holda turli xil integratsiya tashabbuslari shakllana boshladi. Ushbu tashabbuslarning aksariyati mintqaviy xususiyat kasb etadi.

Mintaqaviy hamkorlik va integratsiya zamonaviy xalqaro munosabatlarning muhim jihatlaridan biridir. XX asrning o'rtalaridan hozirgi kunga qadar dunyoning turli qismlarida asta-sekin rivojlanib borayotgan siyosiy, iqtisodiy mintaqaviy tashkilotlar, jumladan Yevropa Ittifoqi (YI), Shimoliy Atlantika erkin savdo hududi (NAFTA), Janubiy-Sharqiy Osiyo davlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Janubiy Amerika mamlakatlari umumiy bozori (MERCOSUR) doirasida ushbu jarayon to'xtovsiz rivojlanib bordi. Bu rivojlanish oz bo'lsada Markaziy Osiyo davlatlarini ham chetlab o'tmadi.

Ko'plab olimlar o'z ishlarida Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya jarayonlarining turli jihatlarini tadqiq qilganlar. Jumladan Aleksandr Libman va Evgeniy Vinokurov o'z ishlarida Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiyani iqtisodiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadilar. Mintaqadagi integratsiya jarayonlarida xususiy subektlar tomonidan tashkil etilgan norasmiy savdo tarmoqlar o'z ta'sirini ko'rsatgan [5.16b]. Iqtisodiy sohani integratsiya jarayonlarida muhim bo'g'in ekanligini e'tirof etgan holda aytmoqchimizki, davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining o'zi integratsiyalashuv uchun yetarli emas. Zero, biz iqtisodiy munosabatlarimiz yaxshi bo'lgan barcha davlatlar bilan integratsiyaga kirisha olmaymiz. Nekla Geyikdagi esa o'z tadqiqotida Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyalashuv imkoniyatlari haqida to'xtalgan. Uning fikricha, mintaqa davlatlari o'rtasidagi til, din va madaniy yaqinlik integratsiyani osonlik bilan amaliyotga tadbiq qilinishida muhim ahamiyatga ega [4.66b]. Bizningcha til, din va madaniy omillar bilan bir qatorda hududiy yaqinlik, mamlakatlarning iqtisodiy holati, ularning xalqaro maydondagi manfaatlari hami o'zaro integratsiya jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Boshqa tadqiqotchilarda esa Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya zarurati haqida qarama-qarshi fiklar mavjud. R.Alshanov va A.Ashimbayev kabi mahalliy tadqiqotchilar integratsiya jarayonlariga to'siq bo'lib turgan omillarni o'rganganlar. Ularning fikricha, Markaziy Osiyo davlatlari global iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda birgalikda emas, aksincha individual tarzda harakat qilishlarini, shu sababdan ular o'rtasida integratsiya amalga oshmaydi. G.Saidazimova esa Markaziy Osiyo davlatlari ichki va tashqi siyosati bo'yicha o'zaro kelishuvsiz siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy va harbiy siyosat yuritadilar. Shu ma'noda ular jahon hamjamiyatiga tez va daromadli kirib borish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun raqobat qiladilar [10.88b]. Buning natijasida integratsiya jarayonlari rivojlanmaydi. 2005-2015-yillar davomida mintaqa davlatlari o'rtasidagi "muzlagan" aloqalar yuqorida tadqiqotchilarning fikrlarini quvvatlaydi. Lekin biz Markaziy Osiyo Ittifoqi shakllangan, Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotiga asos solingan 1990-2005-yillar, yoki mintaqa davlatlari o'rtasidagi aloqalar "qayta uyg'ongan" 2017-yildan keying

jarayonlarni tahlil qilib aytishimiz mumkinki mintaqa davlatlari xalqaro munosabatlarda har doim ham individual harak qilmaganlar.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida integratsiyalashuvga xos ilk munosabatlar SSSR parchalanishidan oldin boshlangan. Mintaqa davlatlari o‘rtasida Orol muammosi, suv taqsimoti kabi muammolarni hal qilish maqsadida uchrashuvlar tashkil etilgan. “Bu davrda mintaqaviy muammolar va Moskvadan kelib chiqadigan masalalarga yechim izlash uchun Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasida sammitlar o‘tkazish odatiy hol edi”. Xususan, 1990-yil 23-iyunda Olmaota shahrida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Mintaqa davlatlaridan O‘zbekistonda Mustaqillik Dekloratsiyasi qabul qilinganida uch kun keyin tashkil etilgan bu kabi uchrashuvni biz Moskvadan mustaqil siyosat yuritila boshlanganligini belgisi, ilk “integratsiya uchrashuvi” deb atashimiz mumkin. 1991-yil 15-avgusta Toshkentda, SSSR parchalanganidan keyin bunday uchrashuvlar Minskda tashkil etildi. Bu uchrashuvlarda mintaqa davlatlari uchun integratsion platforma bo‘lishi ko‘zda tutilgan loyihalar ilgari surildi. Jumladan 1993-yil Minsk sammitida Qozog‘iston prezidenti Nursulton Nazarboyev tomonidan Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi g‘oyasi ilgari surildi. Qirg‘iziston tashaari barcha Markaziy Osiyo davlatlari bu konsepsiyaga qarshi chiqdilar. Ayniqsa O‘zbekiston rahbari I.A.Karimov bu g‘oyaga mutlaqo qarshi ekanligini, integratsiyaning yevroosiyolik yo‘nalishida rivojlanishi mintaqa davlatlarining mustaqilligiga zarar yetkazadi degan qarashni ilgari surdi. Shu sababdan O‘bekiston Respulikasining birinchi prezidenti 1995-yilda “Turkiston - umumiy uyimiz” loyihasini jamoatchilikka va siyosatchilarga taqdim etdi. Atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatov rahbarligida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat assambleyasi tuzildi. O‘zaro aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish borasida bir qator amaliy xarakterdagi ishlarga qo‘l urildi. Qozog‘istonda O‘zbekiston madaniyat kunlari, O‘zbekistonda esa Qozog‘iston madaniyat kunlarining o‘tkazilishi shular jumlasidandir. Umuman olganda bu loyihaning asl maqsadi Rossiya Federatsiyasini Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyashuvi va birlashuvidan chetlashtirish edi [4.67b]. O‘zbekiston “faqatgina beshta Markaziy Osiyo davlatlaridan iborat ittifoqni shakllantirish Rossiya Federatsiyasini mintaqa yetakchisi bo‘lishini oldini oladi” degan pozitsiyada edi. Xuddi shu kabi integratsiya loyihalari Qirg‘iziston rahbari Asqar Akayev tomonidan ham ilgari surildi. Ushbu loyiha “Ipak yo‘li” loyihasi hisoblanib, uning mazmuni integratsiya borasida yuqorida o‘z qarashlarining ilgari surgan Libman va Vinokurov qarashlariga mos edi. Ya’ni mamlakatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar (bilamizki, Buyuk ipak yo‘li o‘z vaqtida Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo aloqalarida muhim o‘rin tutgan) integratsiya uchun asos bo‘ladi deya shu sohaga urg‘u berilgandi. Shuningdek, rasmiy Qirg‘iziston mintaqaviy integratsiyada energiya va suv resurlarini adolatli taqsimlashning ham muhim ahamiyati borligini ta’kidlardi. Turkmanistonning neytral davlat ekanligi, Tojikistonni esa mustaqillikdan keying fuqarolar urushi bu ikki davlatning Markaziy Osiyodagi ilk integratsiya jarayonlaridan biroz chetda qolishiga olib keldi.

Umuman olganda, yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilib biz Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqilligidan so‘ng mintaqaviy integratsiyalashuvini shartli ravishda uch davrga bo‘lish mumkin:

1. 1990-2005 yillar o‘zaro hamkorlikning vujudga kelishi, Markaziy Osiyo Ittifoqining tashkil topishi, ittifoqning Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotiga aylanishi bilan harakterlanadi.

2. 2005-2016-yillarda Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqiga birlashishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi uchun “muzlagan davr” deb atash mumkin.

3. 2017 yildan keyingi davr mintaqaviy integratsiya masalasini “qayta uyg‘onish” davri bo‘lib, har yili mintaqaviy masalalarni muhokama qilish bo‘yicha maslahat uchrashuvlari tashkil etildi [7].

Mintaqdagi integratsiya jarayonlarining tuli yillarda turfa xil sur’atda rivojlanishining sabablari borasida bir qator jihatlarni e’tiborga olish lozim. 1990-yildan 2005-yilgacha mintaqa davlatlari o‘rtasida chegara muammolari, transchegaraviy daryolar suvidan foydalanish bo‘icha bir qator kelishmovchiliklar mavjudligiga qaramay har tomonlama rivojlanib borgan Markaziy Osiyo davlatlarining birlashuv jarayoni tashqi ta’sirlarsiz, ichki to‘qnashuvlarsiz birdaniga to‘xtab qoldi. XX asrning dastlabki dekadasida xalqaro maydonda yuz bergan hodisalar, jumladan, 11-sentabr voqealari, Iroq hududida amalga oshirilgan kapitalistik davlatlarning hujumi, IShID kabi terrorchi guruhlarning siyosat maydonida namoyon bo‘lishi dunyoning aksariyat mamlakatlari kabi Markaziy Osiyo davlatlarida ham xavfsizlik, barqarorlik, terrorizmga qarshi kurash kabi masalalarni kun tartibiga chiqishiga sabab bo‘ldi. Natijda chegaralarni yopish yoki viza tartiblarini mukammallashtirish xavfsizlikka tahdid soluvchi jarayonlarni “import” qilinishini oldini oluvchi eng yaxshi chora sifatida ko‘rila boshlandi. Bu holat uzoq davom etmadi. 2016-2017-yillardan boshlab mintaqada integratiya sari harakatlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Muntazam tus olgan va yuqori darajadagi mintaqaviy muloqotlar uchun samarali platformaga aylangan Davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari o‘tkazilishi butun mintaqa uchun muhim voqea bo‘ldi. Siyosiy sohadagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tomonlar o‘rtasida Parlament forumlari, Xavfsizlik kengashi kotiblarining uchrashuvlari, tarmoqlararo hamkorlik formatlari, ekspertlar muloqoti platformalari shakllantirildi.

Umuman olganda biz Markaziy Osiyoda integratsiya yo‘lidagi 2017-yildan keying jarayonlarni ikki yo‘nalishda rivojlanib borayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz:

1. Mintaqa davlatlari tomonidan asosiy e’tibor davlat chegaralarini qonuniy rasmiylashtirish bilan bog‘liq to‘lanib qolgan muammolarni hal etish, chegara postlarida fuqarolarni o‘tkazish punktlarini faoliyatini tiklash, viza tartibini bekor qilish sari harakatlar amalga oshirmoqdalar. Bu borada O‘zbekistonning harakatlarini alohida e’tirof etmoq lozim. O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha muttasil tarzda muzokaralar o‘tkazib kelmoqda. 2016-yil avgustidan 2018-yil avgustigacha O‘zbekiston hukumati delegatsiyasining qo‘shni davlatlar hukumatlari delegatsiyalari bilan 65 uchrashuvi o‘tkazildi. Jumladan, Qozog‘iston bilan 18, Qirg‘iziston bilan 28, Tojikiston bilan 9, Turkmaniston bilan 9 va Afg‘oniston bilan bir marta [6].

Chegaralardagi muammolarni hal qilish borasidagi asosiy natijalar O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-sentabrida Qirg‘iziston respublikasiga va 2018-yil 9-martida Tojikiston respublikasiga tashrifi vaqtida imzolangan kelishuvlar bo‘ldi.

Samarqand shahrida 2017-yil 10-11-noyabr kunlari BMT shafeligida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo‘yicha “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuida xalqaro konferensiyada O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston o‘rtasidagi bahsli nuqtalar bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Qozog‘iston bilan davlat chegarasi delimitatsiyasi bo‘yicha kelishuvga erishib bo‘lingan, endilikda davlat chegaralari demarkatsiyasi bo‘yicha zarur hujjatlarni tayyorlash uchun muzokaralar ketmoqda.

Turkmaniston bilan davlat chegarasi bo‘yicha kelishuv 2000-yilda Ashxobodda imzolangan. 2017-yil martida ikki davlat rahbarlari uchrashuvidagi kelishuvga ko‘ra chegara masalalari bo‘yicha ishchi guruhlarning muzokaralari yana tiklandi.

Afg‘oniston bilan 2018-yil fevralida o‘tkazilgan uchrashuv davomida Amudaryo qirg‘oqlari bo‘ylab chegarani mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘z yuritilayotgan davrda Tojikiston bilan 10 ta, Qirg'iziston bilan 3 ta, Qozog'iston bilan 2 ta [11] fuqarolarni chegaradan o‘tkazish punktlari faoliyati qayta tiklandi. Shuningdek Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 9-avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvida Markaziy Osiyo mamlakatlari milliy ID-kartalarini o‘zaro tan olish taklifini ilgari surdi [1]. Prezident turistik almashuvni kengaytirish maqsadida “Bitta tur — butun mintaqa” tamoyili bo‘yicha milliy ID-kartalarni o‘zaro tan olish va ommaviy turistik mahsulotlarni ishlab chiqish masalalarini o‘rganib chiqishni taklif qildi. Bugungi kunda chegaradan o‘tuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida fuqarolarg shaxsni tasdiqlovchi hujjatlari orqali (xorijga chiqish passportisiz) chegarani kesib o‘tishiga imkoniyat yaratilmoqda.

2. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, suv-energetika va madaniy gumanitar yo‘nalishdagi hamkorlik aloqalari rivojlantirib borilmoqda. Bu haqida yuorida to‘xtalib o‘tdik.

Markaziy Osiyo integratsiyasi yo‘lida sanab o‘tgan yutuqlarimiz o‘zimizni. Fikrimizcha integratsiya jarayoni yo‘lidagi quyidagi muammolar mavjuda va biz ularga imkon qadar tezroq yechim topishimiz lozim.

Birinchidan mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro savdo hajmi past. O‘zbekiston va Qozog‘istonda nisbatan yaxshi savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Lekin bu davlatlarda savdo hajmini hozirgi holatdan sezilarli darajada yuqori sur’atga olib chish uchun imkoniyat yetarli. ASEAN, Yevropa Ittifoqi, NAFTA kabi muvaffaquyatli birlashmalarda uning ishtirokchilari o‘rtasidagi savdo darajasi 50% dan oshadi va bu mintaqadagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bizdagi holat esa turli manbalarga ko‘ra 9-11% ni tashkil etadi [3].

Ikkinchidan mintaqa davlatlarida investitsiya uchun yaxshi sharoit yaratilgan deya olaymiz. Mulk huquqi kafolati orqali investorlar oldida ijobiy imij shakllantirih muammosi bor. To‘g‘ri, Qozog‘istonda nisabatan yaxshi sharoit yaratilgan. Buni AQSh tomonidan 2000-2024-yillar oralig‘ida Markaziy Osiyo mamlakatlariga kiritilga 50 mlrd dollar investitsiyaning 99% aynan shu davlatga yo‘naltirliganligi [12] ham isbotlaydi. Istisodiy omilga urg‘u bergan holatda integratsiyani amalga oshirish mumkin, deb hisoblovchi olimlar nazdida Markaziy Osiyo davlatlaridagi bu holat integratsiya yo ‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri.

Uchinchidan transport koridorlari masalasida yakdillik yo‘q. Qozog‘istonga Transkaspiy koridori kerak, O‘zbekistonga Shimol – Janub koridori muhim. Tojikiston

va Qirg‘izistonni (kata qismi tog‘lardan iborat) bu loyihalarga jalb qilinishida joylashuv bilan bog‘liq muammolar bor.

To‘rtinchidan mintaqa davlatlarida resrurslar notekis taqsimlangan. Suv resurslari Amudaryo va Sirdaryoning nisbatan yuqori oqimida joylashgan Qirg‘iziston va Tojikistonda, neft-gaz resurslari esa Quyi oqim mamlakatlarida. Masalaning murakkabligi Quyi oqim davlatlari hisoblanmish Turkmaniston va O‘zbekiston eng ko‘p suv istemol qiladi. Yuqori oqim mamlakatlari vegetatsiya davrida suv yetkazib berilishi uchun ulardan suv evaziga elektr energiyasi yoki tabiiy gaz, ayrim hllarda to‘lov olishga harkat qiladilar.

Beshinchidan ikki tomonlama kelishuvlar, Davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari doirasida rivojlantirib kelinayotgan hamkorlik aloqalariga institutsional tus berilmagan. Ushbu ko‘tarilgan masalarlarning yechimlari shubhasiz mintaqa integratsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqa tinchligi va taraqqiyoti umumjahon barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Shu ma’noda, mintaqa xalqlari hamkorligi ahillik va inoqlikda yashagan xalqlar o‘rtasida hamjihatlik va taraqqiyotni ta’minlaydi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiyani shakllantirish uchun:

Birinchidan, mintaqa manfaatlari ustuvorligini inobatga olgan holda davlatlar o‘z ichki va tashqi siyosatini qayta ko‘rib chiqishi, boshqa davlatlar bila aloqalarda ham shu masalaga e’tibor qaratib ish tutish lozim.

Ikkinchidan, mintaqadagi mavjud muammolarga tashqi o‘yinchilarining ishtiroki vositasida emas, o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yechim izlamoq zarur. “Bir balosi bo‘lmasa shungorda quyruq na qilur” – deganlaridek tashqi o‘yinchilar tomonidan uzatilgan har qanday yordam evaziga biz kutmagan oqibatlarni keltirib chiqaradigan holatga tushib qolishimiz mumkin.

Uchinchidan, tuziladigan integratsion uyushmalarda barcha mintaqa davlatlarining manfaatlari inobatga olinishi lozim. Yetakchi mamlakatlar hisoblangan O‘zbekiston va Qozog‘istonning imkoniyatlari integratsiyani shakllantirishga asos bo‘lsa, Qirg‘iziston va Tojikiston imkoniyatlaridan integratsion jarayonlarni rivojlantirish yo‘lida foydalanish imkoniyati bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/7456

2. Abdıkadırova,E.(2017).ORTA ASYA’DA ENTEGRASYON SÜREÇLERİ. Reforma, 2(74), 65-70.

3. Fayziyev Sh. Markaziy Osiyoda integratsiya: hamkorlikning yangi ufqlari. https://kisi.kz/ru/integrachiya-v-chentralnoj-azii-novye-gorizonty-sotrudnichestva/

4. Geyikdagi,N.V. (2005). Regional Integration in Central Asia. Journal of Asia-Pacific Business, 6(4), 61–74.

5. Libman A. “Is it really different? Patterns of regionalization in post-Soviet Central Asia”, Post Communist Economies, 2011.

6. Ne’matov I. Ускорение завершения правового оформления государственной границы со странами Центральной Азии – важный приоритет внешней политики Узбекистана. “Xalq so‘zi. Online” Internet nashri. https://xs.uz/ru/post/casia

7. Nurdinova Sh. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyashuvi. https://review.uz/uz/post/markaziy-osiyo-davlatlari-integraciyalashuvi

8. Vinokurov E. “Динамика интеграционных процессов в Центральной Азии”, Евразийская Экономическая Интеграция, Выпуск №2 (7). 2010

9. Алшанов, R. & Ашимбаев, А. По материалам научно-практической конференции «Социально-политические портреты государств Центральной Азии». – Режим доступа: http://www.apn.kz/publications/article263.htm

10. Саидазимова, Г. Интеграция в Центральной Азии: реалии, вызовы, возможности // Центральная Азия и Кавказ. – 2000. – (3) 88. – Режим доступа: http://www.ca-c.org/journal/cac09-2000/10

11. https://parliament.gov.uz/articles/1272

12.https://qalampir.uz/uz/news/ak-sh-markaziy-osiyega-kiritgan-investitsiyaning-99-foizi-bir-davlatga-yunaltirilgan-108841

Sh.B. Murzayeva *– Toshkent kimyo-texnologiya instituti doktoranti*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN DO’STONA HAMKORLIK-O’ZBEKISTON TASHQI SIYOSIY FAOLIYATINING STRATEGIK YO‘NALISHI

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritib, mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagach, jahon hamjamiyatining teng huquqli a`zosi sifatida xalqaro munosobatlarda faol ishtirok etib kelmoqda. O‘zbekiston xalqaro munosabatlarda tenglik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, o‘zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish tamoyillariga amal qilgan holda, mintaqaviy hamda global miqyosda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga intilmoqda. Shu orqali u jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rni va maqomiga ega bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash O‘zbekiston tashqi siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mintaqada barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. [1].

2018-yilning 15-mart kuni Ostona shahrida yigirma yillik tanaffusdan so‘ng Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuvning muhim jihati uning formati bo‘ldi – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari birinchi marta uchinchi tomonlar ishtirokisiz yig‘ildi [2]. Uchrashuvda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev, Nursulton Nazarboyev, Sooronbay Jeenbekov, Emomali Rahmon va Turkmaniston Majlisi raisi Akja Nurberdiyeva ishtirok etdi. Qozog‘iston prezidenti bunday uchrashuvni o‘tkazishda Shavkat Mirziyoyevning alohida o‘rni borligini ta’kidladi. Shuningdek, Qozogÿiston Prezidenti N.Nazarboyev “Bundan buyon biz Markaziy Osiyo muammolarini uchinchi tomonlarsiz o’zimiz hal qilamiz”, deb takidladi. Shunga qaramay, N.Nazarboyev asosiy hamkorlar – Rossiya va Xitoy bilan hamkorlikni unutmaslikka chaqirdi.

2019-yilning 29-noyabr kuni Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Sammitda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog‘istonning sobiq Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Qirg‘iziston Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Tojikiston Prezidenti

Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov [3] ishtirok etdi.

Keyinchalik, 2021-yil 6-avgustida Turkmaniston Respublikasdagi “Avaza” miliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi va bu uchrashuv maslahat uchrashuvlarini uchinchisi edi. Uchrashuvda mintaqa davlat rahbarlaridan tashqari BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markaz rahbari Natalya German ham ishtirok etdi. Maslahat uchrashuvida mitaqaviy hamkorlik jarayonlariga barqaror tus berish, shu maqsadda “xalq diplomatiyasi”, parlamentlar, fuqarolik jamiyati institutlari va media sohasi salohiyatidan yana keng foydalanish muhim ekani qayd etildi.[4] Hozirgi kunda mintaqada milliy iqtisodiyotlarning rivojlanishi va aholi sonining ortishi natijasida energetik xavfsizlik masalalari yanada dolzarb tus olmoqda. Shu sababli, yagona energetika tizimini shakllantirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni davom ettirish zarur. Bunda, ayniqsa, “yashil” energiya manbalarini rivojlantirish va energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor qaratish muhimligi ta’kidlangan.

Mazkur maslahat uchrashuvida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish masalasi muhokama qilinib, uning mintaqa uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi. Tiklanmaydigan tabiiy resurslarni kelajak avlodga saqlab qolish maqsadida turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda 2025-yilning “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi ham ushbu yo‘nalishga berilayotgan e’tiborning yorqin ifodasidir.

2022-yilning 21-iyul kuni Qirg‘iziston Respublikasining Cho‘lpon Ota shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining navbatdagi maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Sammit yakunida XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish yo‘lidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Davlat rahbarlari Cho‘lpon Ota Maslahat uchrashuvining qo‘shma bayonoti, 2022-2024-yillarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi, Markaziy Osiyo uchun “Yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturi hamda Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p tamomlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasini qabul qildilar.[5] Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarida mintaqa uchun dolzarb masalalar muhokama qilinishi bilan birga, bu mavzular rasmiy sammitlardan tashqarida ham davlat rahbarlarining rasmiy va ishchi tashriflari davomida muntazam ravishda muhokama qilinib kelinmoqda.

Bunday uchrashuvlar Markaziy Osiyodagi hamkorlik jarayonlarining yangi bosqichi rivojlanishda davom etayotganligi va yaqin kelajakda mintaqa davlatlari o‘rtasida iqtisodiy, transport va xavfsizlik sohalarida hamkorlikning chuqurlashishini kutishimiz mumkin albata. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlarni quyidagi jihatlarda ko‘rish mumkin:

1. **Iqtisodiy integratsiya** – Mintaqa davlatlari o‘rtasida erkin savdo rejimlarini rivojlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va savdo to‘siqlarini kamaytirish jarayonlari davom etmoqda. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi savdo hajmi oshib bormoqda.
2. **Transport va logistika infratuzilmasining rivojlanishi** – Markaziy Osiyo davlatlari transport infratuzilmasi sohasida faol hamkorlik qilmoqda. Mintaqada aholi va yuklarning yanada samarali va xavfsiz harakatlanishini ta’minlash maqsadida avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, aeroportlar va chegaralarni qurish va

modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bu savdo, turizm va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Garbuzarova E.G. transport va kommunikatsiya loyihalarini tahlil qilib, shunday deb ta’kidlaydi: “Markaziy Osiyo texnologik jihatdan yaxshi rivojlangan Yevroatlantika makonini va jahon sanoat ishlab chiqarish markazlari joylashgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi o‘rtasidagi bog‘lovchiga aylanishi mumkin” .[6]

3. **Energetika sohasidagi hamkorlik** – Davlatlar elektr energiyasi, gaz va suv resurslarini birgalikda boshqarish bo‘yicha kelishuvlarni mustahkamlashga harakat qilmoqda. O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida gidroenergetika loyihalari bo‘yicha kelishuvlar imzolangan.

4. **Xavfsizlik sohasida hamkorlik** – Terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va chegara xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hamkorlik kuchaymoqda. Mintaqa davlatlari mudofaa va xavfsizlik bo‘yicha qo‘shma mashg‘ulotlar o‘tkazmoqda.

5. **Hududlarni rivojlantirish loyihalari:** Integratsiya jarayonlarining yangi bosqichi doirasida iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash va umumiy muammolarni hal qilishga qaratilgan turli mintaqaviy rivojlanish loyihalari amalga oshirilmoqda. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi (CAREC) dasturi mintaqaviy transport aloqalarini oshirish, energiya xavfsizligini ta’minlash va ishtirokchi davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan [7]. Ushbu loyihalar mintaqaviy integratsiyani engillashtirish uchun avtomobil yo'llari, temir yo'llar va energiya tarmoqlari kabi muhim infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan.

6. **Madaniy va gumanitar aloqalar** – Ta’lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlik kengaymoqda. Mintaqadagi oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida almashinuv dasturlari ko‘paymoqda, birgalikda forum va festival tashkil etish amaliyoti kengaymoqda.

7. **Siyosiy muloqotning faollashishi** – Mintaqa davlatlari rahbarlarining doimiy uchrashuvlari o‘zaro ishonchni oshirishga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mintaqaviy integratsiyaning muhim mexanizmlaridan biriga aylanmoqda.

8. **Sanoat va ishlab chiqarish hamkorligi-**Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro sanoat kooperatsiyasini kuchaytirib, avtomobilsozlik, elektrotexnika va kimyo sanoati sohalarida qo‘shma korxonalar tashkil etmoqda."Markaziy Osiyo sanoat kooperatsiyasi dasturi" doirasida ishlab chiqarish zanjirlarini integratsiyalash va mahalliy mahsulotlarni eksport qilish rejalashtirilmoqda. O‘zbekiston va Qozog‘iston qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish, Qirg‘iziston va Turkmaniston esa to‘qimachilik sanoati bo‘yicha hamkorlikni kengaytirmoqda.

9. **Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi-** O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha "Markaziy Osiyo oziq-ovqat alyansi" tashkil etishni rejalashtirmoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish, biotexnologik innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha hamkorlik rivojlanmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari "Oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi" doirasida o‘zaro savdo va mahsulot yetkazib berish zanjirlarini takomillashtirishga harakat qilmoqda.

Ushbu hamkorlik jarayonlar mintaqaviy integratsiyaning mustahkamlanishiga, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning

ortishiga va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi hamkorlik jarayonlari turli yo‘nalishlarda rivojlanib, mintaqada iqtisodiy o‘sish, xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Integratsiya jarayonlarining yangi bosqichi transport, energetika, qishloq xo‘jaligi, innovatsiya va gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishga yo‘naltirilgan. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlarining o’zaro hamkorlik munosabatlarini mustahkamlab mintaqaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Biz birgalikda erkin, demokratik va obod O‘zbekiston davlatini quramiz. Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish marosimidagi nutqi / Sh.M. Mirziyoyev. Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi. Elektron resurs: https://uza.uz/ru/posts/pervaya-konsultativnaya-vstrecha-glav-gosudarstv-tsentralnoy-15-03-2018
3. Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi/ Elektron resurs: https://cis.minsk.by/news/12592/v-taskente-sostoalas-vtoraa-konsultativnaa-vstreca-glav-gosudarstv-centralnoj-azii
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida nutq so‘zladi. https://prezident.uz/uz/lists/view/4530/
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mintaqada ko‘p tamomlama hamkorlikning samaradorligini oshirishni taklif etdi. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-prezidenti
6. Гарбузарова Е.Г. Транспортно-коммуникационный потенциал Центральной Азии в фокусе интересов глобальных акторов // Вестник ТГУПБП. 2019. №2 (79). URL:
7. https://cyberleninka.ru/article/n/transportnokommunikatsionnyy-potentsial-tsentralnoy-azii-v-fokuse-interesov-globalnyhaktorov

X.P. Dusbekova *– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI YOSHLAR SIYOSATIDA HAMKORLIK QILISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

BMT manbalariga ko‘ra, 2030-yilda yer yuzi aholisining 1,3 milliardini 14-29 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bu dunyoning turli burchaklarida, ayniqsa, yoshlar aholisining 90 foizini tashkil etuvchi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu qatlam ularning taraqqiyoti yo‘lida qanchalik muhim strategik kuch ekanligini anglatadi.[306]

[306] Laura Yerekesheva. Youth of Central Asia Challenges for Peacebuilding. - Published in 2021 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France. 2021.-3 c.

Yoshlar siyosati shu bois barcha davrlarning dolzarb masalasi bo‘lib, u hayotning xalqaro muammolaridan tortib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy jihatdan barqaror rivojlanishida kun tartibidagi asosiy vazifasi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari ham aholining umumiy sonida yoshlarning demografik ulushi ortib borayotgan rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi, bu esa mintaqa mamlakatlari “yosh” ekanligini anglatadi. 2020-yil holatiga ko‘ra, Markaziy Osiyoning to‘rtta davlati (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston) umumiy aholisi soni 68,46 million kishini tashkil etgan bo‘lsa (ularning 16,55 millionini yoki 24,1 foizini yoshlar tashkil qilgan), 2024-yil 7-dekabrda Kun.uz sayti e’lon qilgan ma’lumotlarga ko‘ra 80 milliondan oshib, o‘rtacha yosh taxminan 26,2 yosh bo‘lgan.

Ushbu raqamlar mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy-ijtimoiy hayotida yoshlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Yoshlar – intellektual salohiyat manbai, davlatning katta ishchi kuchi, ishlab chiqarishning tomiri, navqiron genofond asosi...

Shu bois ham yoshlar siyosati va xalqaro yoshlar siyosati barcha mintaqalar uchun muhim masala.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida ayniqsa aniq va tizimli o‘zaro yoshlar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa.

90-yillar boshida Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil tashqi siyosatini shakllantira boshlagan davrda hali yoshlar siyosati borasida xalqaro aloqalarga kirishmagandi. Biroq uni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha o‘ziga xos yo‘lning dastlabki bosqichlari yosh mustaqil davlatlar tomonidan ishlab chiqila boshlandi va yoshlar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omili ekanligi e’tirof etilib, sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan turli dasturlar ishlab chiqildi va qonunchiligini mustahkamlasha kirishildi.

Dastlab, sobiq sovet tizimidan meros bo‘lib qolgan yoshlar tashkilotlari va institutlari o‘z faoliyatini davom əttirdi. Lekin qisqa fursatlarda har bir mamlakat milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi dasturlarni ishlab chiqdi va keng ko‘lamli yoshlar siyosatini yuritishga kirishdi.

- **Xususan, O‘zbekiston**:
- **1. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati** - 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka ərishgach, Komsomolning O‘zSSR bo‘limi O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga aylantirildi. Biroq, 1996-yilda ushbu tashkilot tugatilib, uning o‘rniga "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashkil ətildi. "Kamolot" yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy hayotga jalb ətish kabi vazifalarni amalga oshirdi va 2017-yilgacha faoliyat olib bordi.
- **2. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi** - 2017-yil 30-iyunda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qayta tashkil ətildi. Ushbu sana mamlakatda "Yoshlar kuni" deb ə’lon qilindi. Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni har tomonlama qollab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, davlat yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish va muvofiqlashtirishda asosiy rolni bajardi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hozirga qadar NNT sifatida o‘z faoliyatini davom ətirmoqda.
- **3. Yoshlar ishlari agentligi** - 2020-yilda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi negizida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil ətildi. Ushbu agentlik yoshlar siyosatini amalga oshirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini har tomonlama

qo‘llab-quvvatlash va hukumatning yoshlar siyosatini muvofiqlashtirishda asosiy rasmiy idora sifatida mamlakat tarixida ilk marta yoshlarning rasmiy tashkiloti sifatida o‘z faoliyatini boshladi.

Bulardan tashqari mamlakatning barcha siyosiy partiyalarida “Yoshlar qanoti” yo‘nalishlari hamda yoshlar tashkilotlarining huzurida 100 ga yaqin yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlovchi markazlar, assotsiatsiyalar va inkubatorlar faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan.

- **Qozog‘iston**:
- 2004-yilda “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, keyinchalik “Yoshlar yili” doirasida turli tashabbuslar ilgari surildi.
- **1. "Jas Otan"** — "Amanat" partiyasining yoshlar qanoti bo‘lib, u yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tashkilot yoshlar orasida vatanparvarlikni targ‘ib qilish, ta'lim va madaniy tadbirlarni o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan asosiy rasmiy davlat tashkiloti sanaladi. 1999-yilda tashkil topgan.
- **2. Qozog‘iston yoshlar kongressi:** Ushbu kongress yoshlar tashkilotlarini birlashtirib, ularning manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va yoshlar siyosatini rivojlantirishga qaratilgan.
- **3. "Bolashaq" assoциациyasi:** "Bolashaq" xalqaro stipendiya dasturi bitiruvchilarini birlashtiruvchi ushbu assotsiatsiya yosh mutaxassislarning tajriba almashishlari, professional rivojlanishlari va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishlariga ko‘maklashadi. “Bolashaq” dasturi orqali yoshlarning chet əlda ta’lim olishini moliyalashtirishda etakchilik qilmoqda.
- **4. "Otandastar" jamg‘armasi:** Ushbu jamg‘arma xorijdagi qozoq diasporasi bilan aloqalarni mustahkamlash, ularning madaniy va milliy o‘zligini saqlab qolishlariga ko‘maklashish maqsadida tashkil ətilgan. Jamg‘arma vatandoshlar bilan turli tadbirlar, konferenциyalar va uchrashuvlar o‘tkazadi. [307]
- **5. Yoshlar resurs markazlari:** Mamlakat bo‘ylab faoliyat yurituvchi ushbu markazlar yoshlar uchun maslahat, trening va boshqa qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim ətadi. Ular yoshlarning bandligi, ta'limi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi.[308]
- Bundan tashqari, Qozog‘istonda turli nodavlat notijorat tashkilotlari va tashabbuskor guruhlar yoshlar bilan ishlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish bilan shug‘ullanadigan yana o‘nlab nodavlat-notijorat yoshlar tashkilotlari faoliyat olib boradi.
- **Qirg‘iziston:**
- Mamlakatda asosiy yoshlar siyosati Qirg‘iziston Respublikasi madaniyat, ta’lim, sport va yoshlar siyosati vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.
- **1.“KelKel” harakati** yoshlarning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishga qaratilgan tashkilot hisoblanadi.
- **2. "Xalq nazorati" tashkiloti**: Qirg‘iziston hukumati o‘z faoliyatini nazorat qilish uchun "Xalq nazorati" nomli tashkilotni tashkil ətgan. Ushbu tashkilot faqat yoshlar, jumladan, talabalar, jamoat tashkilotlari faollari va jurnalistlardan iborat bo‘lib, hukumat ishini nazorat qilish va xalq bilan muloqotni ta'minlash maqsadida faoliyat yuritadi.

[307] https://kun.uz/kr/29199996
[308] https://kknews.uz/uz/209280.html

• **3. «Search for Common Ground» (SFCG**) tashkiloti: Ushbu xalqaro nodavlat tashkilot Qirg‘izistonda yoshlar o‘rtasida ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyat olib boradi. SFCG yoshlar uchun treninglar, seminarlar va boshqa tadbirlar tashkil etib, ularni radikal g‘oyalardan himoya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi.

• **5. Qirg‘iziston Yoshlar Kongressi** - Ushbu tashkilot yoshlar siyosati, ta'lim, madaniyat va sport sohalarida faoliyat olib borib, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi.

• **6. O‘sh yoshlari -** O‘sh shahrida joylashgan ushbu nodavlat tashkilot yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirok etishlariga ko‘maklashadi.

7. **“Qirg‘iziston Talabalar Ittifoqi”** - Ushbu ittifoq mamlakatdagi talabalar huquqlarini himoya qilish, ularning ta’lim jarayonidagi muammolarini hal etish va turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish bilan shug‘ullanadi.

Tojikiston:

• **1. Tojikiston Yoshlar Ittifoqi** – yoshlar o‘rtasida ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkiloti .

• **2. Milliy Kengash** - 2015 yilda Prezident farmoni bilan Yoshlar ishlari bo‘yicha Milliy Kengash tashkil etilgan bo‘lib, uning maqsadi yoshlar siyosati bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirish, yoshlarni davlat va jamoat ishlariga faol jalb etishdan iborat.

• **3. “Avangard”** – Tojikiston ichki ishlar vazirligi huzuridagi yoshlar tashkiloti.[309]

Turkmaniston:

• **1. Maxtumquli nomidagi Turkmaniston yoshlar tashkiloti** – davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tashkilot.

• **2. Turkmaniston sport va madaniyat jamiyatlari** – yoshlarni sport va san’at sohasida rag‘batlantiruvchi qo‘mita.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqilligidan so‘ng, yoshlar tashkilotlari davlat va nodavlat sektorlarida faoliyat yurita boshladi. Ularning ba’zilari hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa, boshqalari mustaqil ravishda fuqarolik jamiyati rivojiga hissa qo‘shmoqda. Ushbu jarayonni hatto mamlakatlarning ichki siyosatlarida yoshlar siyosatini ko‘p qirrali yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlovchi yil dasturlari va uzoq kelajakka mo‘ljallangan strategik rejalaridan ham ochiqlash mumkin. Masalan: O‘zbekiston Respublikasida 2021-yil — “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” va 2024 yil — “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilindi. Shuningdek, Tojikiston 2017-yilni, Qozog‘iston Respublikasi 2019-yilni, “Yoshlar yili” deb e’lon qilgan.

Umuman mintaqa mamlakatlarining deyarli aksariyati aholi demografiyasi jihatidan yoshlar ulushida etakchi davlatlar hisoblanadi. Demak bu erda taraqqiyotning asosiy omili – yoshlardir. Shu jihatdan yoshlar masalasida ularning faol hamkorlik qilishi, bu masalada bir maslak bo‘lib rivojlanishi barobar manfaatlidir. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, mintaqa aholisi 2030 yilgacha 80 million

[309] 1 Караев С. «Авангард», Создатели Родины и ОМОТ: Чем занимаются молодежные организации Таджикистана? URL: https://www.asiaplustj.info/ru/ne ws/tajikistan/society/20190424/avangard-sozidatelirodini-i-omot-chem-zanimayutsya-molodezhnieorganizatsii-tadzhikistan (дата обращения: 30.12.2023)

va 2050 yilga borib 100 million kishidan oshadi. Aholining o‘rtacha yoshi atigi 28,7 yosh.ga yaqinlashadi[310] va 30 yoshgacha bo‘lganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Aynan shu yoshlar yaxshi texnologiyadan foydalangisi, qimmatroq mashina mingisi, yangi uy qurgisi keladi, shu yo‘lda harakat qiladi. Nima uchun oxirgi yillarda O‘zbekiston yoshlar siyosatiga yoki aynan ularning ta’limiga urg‘u beryapti? Sababi, iqtisodiyotda inson kapitali muhim, dunyoda raqobat kuchayib borayotgan bir davrda bu masala qanchalik dolzarblashib borayotgani kundek ravshan.

Bu borada O‘zbekistonning ayniqsa so‘nggi qariyb 10 yillikdagi tashabbuslari xususan ochiq, amaliy, o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning o‘ziga xos “tashrif qog‘ozi”ga aylandi.

Ilk rasmiy tashriflar ham aynan mintaqa mamlakatlariga amalga oshirildi. Mintaqa yillar davomida to‘planib qolgan barcha og‘riqli masalalar bo‘yicha o‘zaro samarali muloqotga tayyorligi namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Markaziy Osiyo yoshlari o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan bir qator tashabbuslarni ilgari surgan. 2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan konstruktiv g‘oya va tashabbuslarni ilgari surdi.

2018 yil iyun oyida O‘zbekiston tashabbusi bilan Samarqand va Toshkent shaharlarida ilk Markaziy Osiyo Yoshlar Forumi o‘tkazildi. Bu forumda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston yoshlar tashkilotlari vakillari ishtirok ətdi. Forum doirasida yoshlarning fan, ta’lim, madaniyat va turizm sohalaridagi o‘rni muhokama qilindi.

2022 yil iyul oyida Qirg‘izistonning Cho‘lponota shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining IV maslahat uchrashuvida O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida hamkorlikni rivojlantirish tashabbusini ilgari surdi. Bu tashabbus asosida Markaziy Osiyo davlatlarining yoshlar siyosati sohasida sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bitim ishlab chiqildi.[311]

Ushbu bitimni tuzish tashabbusi 2022 yil 21 iyulda Cho‘lponotada o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining IV maslahat uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan.

Bitimning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarni Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotiga jalb qilish;
- yoshlarning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirish;
- sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan turli dasturlarni ishlab chiqish;
- ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi yoshlar o‘rtasida ochiq va sifatli ta’lim olishni ta’minlash; ilg‘or tajriba almashish hamda ilmiy-innovaцion hamkorlikni rivojlantirish;
- yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib ətish;

[310] https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-faol-tashqi-siyosat-va-mintaqaviy-hamkorlik_642531

[311] https://daryo.uz/k/2024/08/04/markaziy-osiyo-davlatlarining-yoshlar-siyosati-sohasida-sheriklik-munosabatlari-rivojlantiriladi

• yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil ətish borasida olimpiya, paralimpiya, shuningdek noolimpiya va milliy sport turlarini targ‘ib qilish uchun shart-sharoitlar yaratish; ijodiy iste’dodli, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

• yoshlar o‘rtasida ixtiyoriy (volontyorlik) harakati faoliyatini rag‘batlantirish va targ‘ib qilish;

• Markaziy Osiyo xalqaro ta’lim yoshlar turizmini rivojlantirishga ko‘maklashish va yoshlar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan turizm infratuzilmasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash;

• yoshlarning ijtimoiy zaif guruhlarini, shu jumladan imkoniyati cheklangan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan choralar ko‘rish;

• yoshlarning huquq va ərkinliklari sohasida faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning faol tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida iqtisodiy, parlamentlararo, əkspertlar, yoshlar va fuqarolik jamiyati forumlari kabi hamkorlik formatlari barqaror tus oldi. Bularni o‘nlab sanash mumkin, biroq ushbu hamkorliklar mintaqa yoshlarining qaysi muammolariga echim izlaydi, natijalar qachon ko‘zga tashlanadi, mana shuni kengroq tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Bugun Markaziy Osiyo mamlakatlarining yoshlar siyosati yo‘nalishida ayrim muammolari:

• Ishsizlik va migraцiya: Ayrim davlatlarda yoshlar orasida ishsizlik darajasi yuqori bo‘lib, bu mehnat migraцiyasiga olib kelmoqda (Tojikistonda har yili mehnat bozoriga 150 000 dan 180 000 gacha odam kiradi. Bu raqam Tojikiston bozorida mavjud bo‘lgan ish o‘rinlari sonidan ko‘p va tashqi migraцiya asosiy echim bo‘lib qolishi sababidir. Aholining 57% 24 yoshgacha bo‘lgan demografik profili va mehnat bozoriga kiruvchilar taklifi ortib borayotgani sababli, mamlakatdagi har uchinchi oilada kamida bitta a’zo Tojikistondan tashqarida ishlaydi.[312]).

• Radikallashuv xavfi: Ayrim yoshlar xususan, Qirg‘iziston va Tojikiston yoshlarida ta’lim masalasida mintaqada biroz sustlik, sifatli ta’lim etarli darajada bo‘lmagani ularning əkstremistik guruhlarga qo‘shilish xavfini kamaytirmayapti.

• Ijtimoiy faollikning sustligi: Turkmaniston, Tojikiston va O‘zbekiston kabi mamlakatlarda yoshlarning siyosiy va fuqarolik faolligi etarlicha rivojlanmagan.

• Mahalliy iqtisodiy muhit yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ish o‘rinlari yaratish borasida zaif.

• IT sohasi rivojlanayotgan bo‘lsa-da, yoshlar orasida raqamli ko‘nikmalar etishmovchiligi mavjud.

• Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyati cheklangan, ayniqsa, qishloq joylarida.

• Yuqori ta’lim tizimi zamonaviy talab va xalqaro standartlarga to‘liq javob bermaydi.

• Kasb-hunar ta’limi etarlicha rivojlanmagan bo‘lib, yoshlar amaliy kasblarni əgallashda muammolarga duch keladi.

[312] https://migrants-refugees.va/country-profile/tajikistan/#:~:text=According%20to%20the%20Ministry%20of,aged%20between%2018%20and%2030.

• Chekka hududlarda ta’lim olish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, bu qishloq yoshlari uchun katta to‘siq hisoblanadi.

Biroq, bularni nomma-nom sanashning o‘zi mintaqa mamlakatlari oldiga keng ko‘lamda boshlangan yoshlar siyosati borasida o‘zaro hamkorliklarni quyidagi tizimlarda aniq yo‘nalishga tushirib amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi:

1. Hukumatlararo hamkorlik;
2. Tashkilotlararo (davlat yoshlar tashkilotlari yoxud NNTlar) hamkorligi.

Xulosa va istiqboldagi yo‘nalishlar

Markaziy Osiyo davlatlarining yoshlar siyosati kelajakda quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

• Innovaцion ta’lim tizimini rivojlantirish va zamonaviy kasblarga tayyorlov dasturlarini kengaytirish.

• Yoshlarning xalqaro loyihalarda ishtirokini oshirish.

• Raqamli texnologiyalar va IT sohasida yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish.

• Huquqiy hamkorlik: yoshlar qonunchiligi va dasturlarini ishlab chiqishda yoshlar tashkilotlari(demokratik institutlar va nodavlat tashkilotlar)ning ishtiroki.

• Ta’lim va innovaцiyalar: stipendiyalar, grantlar va texnologik inkubatorlar.

• Bandlik va tadbirkorlik: yoshlar tadbirkorligiga legal imkoniyatlarni kengaytirish, ular bir-birini ish bilan ta’minlashini rag‘batlantirish va startap ǝkotizimlarini qo‘llab-quvvatlash.

• Ijtimoiy va madaniy tadbirlar: sport musobaqalari, festivallar va forumlar.

• Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish imkoniyatlarining kengayishi.

• Yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish uchun fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va yoshlar etakchiligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi va faol demografik kartasi uning geosiyosiy strategiyasini ishlab chiqadi. Uning yoshlar siyosatini rivojlantirish yo‘lidagi asosiy muammolari iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bilan bog‘liq. Ishsizlik, ta’lim sifati, siyosiy faollikning pastligi va radikalizm xavfi kabi masalalar hal ǝtilmasa, yoshlarning jamiyatdagi roli zaiflashadi va bu mintaqa taraqqiyotiga asosiy to‘siq bo‘ladi.

Shu sababli, davlat va xalqaro tashkilotlar hamkorligida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, tadbirkorlik, raqamli ta’lim va fuqarolik faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

B.B. Yunusova **-** *Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti*

GEOSIYOSIY AKTORLARNING MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASIGA MUNOSABATI

Markaziy Osiyo davlatlarining geosiyosiy pozitsiyasi, ayniqsa geosiyosiy muammolar avj olgan davrda, o'zining murakkabligi va noaniqligi bilan ajralib turadi. Hammamizga ma’lumki, bu mintaqa tarixan ko'plab yirik geosiyosiy o'yinchilar – Rossiya, Buyuk Britaniya (hozirgi kunga kelib Xitoy, AQSh) kabi davlatlarning manfaatlari to'qnashgan hudud bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo, geosiyosiy jihatdan, Sharq va G'arb, Janub va Shimol o'rtasidagi "ko'prik" bo'lib, undan o‘tuvchi energiya

resurslari, savdo yo‘llari va harbiy strategiyalar uchun katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Xitoyning "Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi va Rossiyaning Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan bog‘liq harakatlar ushbu mintaqaning geosiyosiy pozitsiyasining muhimligini ko’rsatdi.Markaziy Osiyo davlatlari uchun Rossiya hali ham muhim geosiyosiy hamda xavfsizlik hamkoridir. Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevrosiyo Ittifoqi va Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi tashkiloti (CSTO)dagi birdamliklari orqali mintaqada xavfsizlik va iqtisodiy integratsiya bo‘yicha aloqalarini mustahkamlashdi. Bu esa Rossiyaga Markaziy Osiyoga boshqa geosiyosiy aktorlarning qiziqishlarini uzoq vaqtgacha so’ndirish imkonini berdi. Ammo,hozirgi kunga kelib Rossiyaning Ukrainaga qarshi urushi va xalqaro aloqalaridagi muammolar mintaqada Rossiya ta'sir doirasining bir muncha pasayganligini kuzatish mumkin. Bunday qulay sharoitda Xitoy ham Markaziy Osiyoga bo’lgan qiziqishlarini ortiq yashirmaslikka harakat qilmoqda. Xitoyning Markaziy Osiyodagi ta'siri 2000-yillardan boshlab oshib borayotganini esa uning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi orqali mintaqaga katta investitsiyalar yo‘naltirayotgani bilan izohlash mumkin . Bu, ayniqsa, infratuzilma, energetika va savdo sohalarida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Xitoy Markaziy Osiyoda o‘zining iqtisodiy ta'sirini kengaytirish bilan birga, xavfsizlik va siyosiy aloqalarini ham rivojlantirmoqda. Biroq, Xitoyning ta'siri, ba’zi Markaziy Osiyo davlatlarida, ayniqsa iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka bo‘lgan talablar bilan to‘qnash kelib qolmoqda.Xalqaro siyosiy mojarolar maydonining eng faol aktorlaridan biri bo’lmish AQShning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy ta'siri xususida ham fikr bildirishni joiz topdik. Uning ushbu mintaqadagi faolligi xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurashish va demokratiya targ'iboti bilan bog'liq. AQSh, Afg‘onistondagi urushning tugashidan keyin ham mintaqadagi islomiy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, hamda iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga intildi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining G‘arb bilan aloqalarini rivojlantirish va ularning mustaqilligi va suverenitetini qo‘llab-quvvatladi. Lekin siyosiy tahlillar shuni ko’rsatadiki ,AQSh Markaziy Osiyo mintaqasi integratsiyalashgan holda emas ,balki uning ichidagi davlatlarning har biri bilan alohida- alohida hamkorlik olib bordi. Bu ko’rinishdagi hamkorlik mintaqaning nomutanosiblikda rivojlantirayotgan edi. Nihoyat , 2015-yilda AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasida C5+1 ko’rinishidagi muloqot platformasiga asos solindi va unda mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik, oziq-ovqat va energiya ta'minoti, inson huquqlarini e'zozlash borasidagi qator tashabbuslarni ma'qulladi.Shu o’rinda aytish joizki, bunday muloqot platformalar Markaziy Osiyo mintaqasining har bir faol a’zo davlatlari zimmasiga ko’plab vazifalarni yuklaydi. Asosiy vazifa - geomakonda barqaror xavfsizlikka erishishdir .Markaziy Osiyo mintaqasi, doimiy ravishda Afg‘onistondagi noaniqlik va terrorizm xavf-xatarlariga duch kelib kelgan. Bu, nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki global xavfsizlik uchun ham muhim tahdiddir. Markaziy Osiyo davlatlari, shu sababli, xavfsizlikni mustahkamlash va terrorizmga qarshi kurashish uchun birgalikda hamkorlik qilishni davom ettirishi kerak deb hisoblaymiz..Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan intilishlar kuchaygan bir paytda AQShdan tashqari Yaponiya tomonidan integratsiyalashayotgan Markaziy Osiyoga samarali platforma - “Markaziy Osiyo + “ muloqot shakli taklif etildi.Eslatib o’tamizki, Mintaqa mamlakatlari mustaqillikni qo’lga kiritganlaridan so’ng Yaponiya bilan do’stona munosabatlarni o’rnatishdi.2004-yildan har bir davlat Yaponiya bilan muloqot doiralarini

kengaytirish natijasida Tokio tashabbusi bilan 2018 –2021-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi uchun integratsiya va hamkorlikni rivojlantirishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan Markaziy Osiyo+Yaponiya muloqot platformasi huquqiy asoslari yaratildi .Bu platforma Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Quyidagi mulohazalarimiz orqali bu muloqot platformasining nechog'lik samarali ekanligini izohlamoqchimiz:

- Yaponiya Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim iqtisodiy hamkor bo'lib, texnologiyalar, investitsiyalar va infratuzilma rivojlanishi borasida yirik imkoniyatlarni taklif etishi ,o'zining ilg'or texnologiyalari va tajribasi bilan, Markaziy Osiyoning energetika, sanoat va transport sohalarida rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin.

-Yaponiya o'zining diplomatik yo'nalishlari orqali Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan muvozanatli yondashuvni olib boradi. Bu esa, regiondagi geosiyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin

-Markaziy Osiyo va Yaponiya o'rtasida madaniy almashinuvlar, turizm va ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Yaponiya, o'zining madaniy merosi va ta'lim tizimi bilan Markaziy Osiyo davlatlarida yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.Yaponiya, Markaziy Osiyo davlatlariga transport va infratuzilma sohalarida yordam berishi mumkin, ayniqsa, temir yo'llar, avtomobil yo'llari va energetika tarmoqlari bo'yicha investitsiyalar jalb etilishi ehtimoli yuqori. Bu esa, mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

-Yaponiya va Markaziy Osiyo o'rtasida xavfsizlik sohasida hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, ekstremizm va boshqa xavf-xatarlar bilan kurashish uchun foydali bo'lishi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari Yaponiya bilan bu borada maslahatlashish va texnik yordam olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.Eng asosiysi Yaponiya + Markaziy Osiyo platformasi mintaqaning iqtisodiy va siyosiy integratsiyasiga katta hissa qo'shishi va uzoq muddatda barqaror rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda Markaziy Osiyo mamlakatlari, o'zlarining suverenitetini saqlash va mustaqil tashqi siyosat yuritishga intilishi barobarida geosiyosiy bir butun makon sifatida ham xalqaro maydonda ko'rinish berishsa bu mintaqadagi davlatlar oʻrtasida siyosiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga yordam beradi. Izlanishlar jarayonida Markaziy Osiyo davlatlarining geosiyosiy pozitsiyasi, ayniqsa, geosiyosiy muammolar avj olgan davrda, koʻplab tahdidlarga va imkoniyatlarga duch kelishi borasidagi muammolarga quyidagi takliflarni berishga harakat qildik :

Markaziy Osiyo bir butun geomakon bo'lishi uchun bu hududdagi davlatlar koʻp tomonlama tashqi siyosat olib borishga va shu bilan birga, mintaqaviy va global o'yinchilar bilan muvozanatli va samarali hamkorlik qilishga harakat qilishlari lozim Markaziy Osiyodagi har bir davlat oʻzining mustaqil geosiyosiy strategiyasini ishlab chiqishda milliy hamda umumiymanfaatlar bir-birini inkor etmagan holda hamohanglikda bo'lishiga hamda tinchlik va xavfsizlik barqarorligini ta'minlashga e'tibor qaratishi kerak.

Maqolada fikr yuritilgan "Markaziy Osiyo +Yaponiya "muloqot shaklini boshqa davlatlar bilan ham "C5+1"formatida amalga oshirilishi Markaziy Osiyo integratsiyasining istiqbollli rivojlanishi uchun zamin yaratadi degan umiddamiz .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadabaev T. “Japan’s Search for Its Central Asian Policy,” Asian Survey 53, no. 3 (June 2013)
2. Bo‘ronov S. O’zbekison geopolitikasi - T. 2021-yil
3. Sirojev O.Markaziy Osiyoda mintaqalashuv jarayonlari-T.2016

F.F. Narzullayev *– Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti magistranti*

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA SUV MUAMMOLARNI HAL QILISHDA YUQORI OQIM MAMLAKATLARINING O‘RNI

Suv omili kelajak masalasidir. Yer yuzi suvining 96 foiz suvini dengiz va okeanlarning sho‘r suvi, bor yo‘gi uch foizini esa chuchuk suv zahirlari tashkil qiladi. Iqlim o‘zgarishi va mamlakatlarning suvdan samarali foydalanmayotganligi bois keyingi o‘n yil ichida suv resurslari yanada kamayishi tahmin qilinmoqda. Shu boisdan suvdan unumli foydalanish va minaqalar bo‘yicha suvni boshqarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikka erishish bugungi kunining dolzarb muamolaridan biri bo‘lib turubdi. Ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari juda ham notekis taqsimlangan bo‘lib, suv resurslarini boshqarish bo‘yicha ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Suv resurslarini taqsimlashda o‘zaro hamkorlikda ishlash mintaqaviy jihatdan konfliktologiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Bu ayniqsa kontinentning Ichida joylashgan Markaziy Osiyo uchun juda muhimdir.

Suv milliy mulk sifatida e’tirof etilgandan beri u Markaziy Osiyo davlatlari uchun ichki xavfsizlik masalasiga aylanganini ta’kidlash mumkin. Sovuq urush tugashi bilan “suv resurslarini boshqarishni xavfsizlashtirish” an’anaviy xavfsizlikdan noan’anaviy xavfsizlikka o‘tish nuqtayi nazaridan juda nozik masalaga aylandi[313].

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari asosan ikki yirik daryo ya’ni Amudaryo va Sirdaryo daryolaridan suv oladi. Markaziy Osiyoning eng yirik daryosi bo‘lgan Amudaryoning uzunligi 2 574 km bo‘lib, u Afg‘oniston-Tojikiston chegarasidagi Pandj daryosi irmog‘idan boshlanib, Orol dengiziga quyiladi. Sirdaryo havzasi esa taxminan 484 ming kvadrat kilometr maydonni egallaydi va daryo 2 337 km masofani bosib o‘tadi. U Qirg‘izistondagi Norin daryosi irmog‘idan boshlanib, Farg‘ona vodiysi, Oqqo‘rg‘on cho‘li va Qizilqum sahrosi orqali oqib, Orol dengiziga yetib boradi. Ushbu ikkita daryo mintaqaning yillik daryo oqimining qariyb 90 foizini tashkil etadi va Markaziy Osiyoning sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligiga umumiy suv ta’minotining taxminan 75 foizini yetkazib beradi. Amudaryoning o‘rtacha yillik suv oqimi 79,3 milliard kub metrni, Sirdaryoniki esa 37,2 milliard kub metrni tashkil etadi[314].

Markaziy Osiyo ikki asosiy daryoning suvlaridan foydalanadi. 1 550 000 kvadrat kilometr maydonni qamrab olgan Orol dengizi havzasi Amudaryo va Sirdaryo

[313] B.Buzan, O.Waever, J.Wilde. “Security: A New Framework for Analysis”- Lynne Rienner Publishers. Boulder 1998. PP-23-24. https://open.metu.edu.tr/handle/11511/26374 [murojaat sanasi 10.03.2025.]

[314] D.C. McKinney. “COOPERATIVE MANAGEMENT OF TRANSBOUNDARY WATER RESOURCES IN CENTRAL ASIA”- National Defense University Press, 2003. P-3. https://www.caee.utexas.edu/prof/mckinney/papers/aral/centralasiawater-mckinney.pdf [tashrif vaqti 06.03.2025]

daryolaridan oziqlanadi. Bu daryolar Tyanshan, Hindikush va Pomir-Himolay tog‘laridan boshlanib, mintaqada sug‘orish va energiya ishlab chiqarish uchun muhim resurs hisoblanadi[315]. Amudaryo Vaxsh va Pandj daryolaridan hosil bo‘lsa, Sirdaryo Norin va Qoradaryo daryolarining qo‘shilishidan shakllanadi. Ikkala daryo Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston hududlaridan oqib o‘tadi.

Orol dengizi fojiasi nafaqat mintaqa miqiyosida balki dunyo hamjamiyatini ham birdek o‘ylantirb kelayotgan muammo hisoblanadi. Bundan tashqari Mintaqadagi “yuqori oqim mamlakatlari” hisoblangan Tojikiston va Qirg‘iziston Respublikalari energiya muammosini hal qilish maqsadida suv resurslarini taqsimlashda qolgan minaqa davlatlariga nisbatdan adolatsiz munosabatda bo‘lishmoqda. Bu quyi oqim mamlakatlari hisoblangan O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘iston mamlakatlarida ayniqsa vegetatsiya davrida suv taqchiligiga, boshqa paytlarda esa suv toshqinlariga sabab bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolar ro’yxati (Yunusov & Mamatova, 2015)

N	Daryolarning nomi	Uzunligi	Kesib o’tuvchi mamlakatlar	Daryolarning asosiy irmoqlari
1.	Amudaryo	1415km	Tojikiston, Afg’oniston, O’zbekiston, Turkmaniston	Kofirnigon, Vaxsh, Surxondaryo, Panj
2.	Sirdaryo	2275 km	Qirg’iziston, Qozog’iston, Tojikiston, O’zbekiston	Norin, Qoradaryo, Chirchiq
3.	Zarafshon	877 km	Tojikiston, O’zbekiston	-
4.	Chu	1067 km	Qirg’iziston, Qozog’iston	-
5.	Talas	661 km	Qirg’iziston, Qozog’iston	Assa
6.	Ili	1439 km	Xitoy, Qozog’iston	-
7.	Murg’ob	978 km	Afg’oniston, Turkmaniston	Abuqaysar, Kushan, Kushka

Mintaqadagi yuqori oqim mamlakatlari hisoblangan Qirg‘iziston va Tojikiston sobiq sovet ittqifoqi davridagi bo‘lgani kabi mustaqillikdan so‘ng ham quyi oqim mamlakatlaridan energiya evaziga suv resurslarini yetkazib berishini takidlab kelishadi[316]. Sovet ittqifoqining qulashi bilan birgalikda o‘zaro energiya va suv almashish tizimi o‘z nihoyasiga yetdi. Mustaqillika erishgan mintaqa mamlakatlari qolgan resurslar bilan birgalikda suv resurslari uchun ham o‘zaro kurashish va o‘zlari hohlagandek boshqarishganligini guvohi bo‘lamiz, toki 1992-yil 18-fevral sanasidagi

[315] I.Abdullayev, I. Bobojonov, A. Assubayeva, N.Djanibekov. “Current challenges in Central Asian water governance and their implications for research, higher education, and science-policy interaction” - Central Asian Journal of Water Research · February 2025. P-48. https://water-ca.org/wp-content/uploads/Current-challenges-in-Central-Asian-water-governance-and-their-implications-for-research-higher-education-and-science-policy-interaction.pdf [tashrif vaqti 06.03.2025]

[316] Eshchanov, B., Plaat Stultjes, M., Salaev, S., and Eshchanov, R. “Rogun Dam— Path to Energy Independence or Security Threat? Sustainability”- 2011. P-1576. https://www.researchgate.net/publication/227439326_Rogun_Dam-Path_to_Energy_Independence_or_Security_Threat [tashrif sanasi 06.03.2025]

Olmaota shartnomasi imzolanmaguncha[317]. Bundan tashqari mustaqil mamalakatlar o‘rtasida mustaqillika erishilgandan beri bir necha bor o‘zaro shartnomalar tuzulib va kelishuvlarni buzulgan holatlarini ham ko‘rishimiz mumkin.

Beatrese Mosello o‘z asarida yozganidek yangi mustaqillika erishgan mamalakatlar har biri o‘zlarining milliy manfaatlaridan kelib chiqib suv resurslaridan foydalana boshlashdi[318]. Ya’ni yuqorida takidlaganimizdek Tojikiston va Qirg‘iziston suv resurslarini energiya maqsadida foydalanishni hohlashayotgan bir paytda quyi oqim mamlakatlari suvni qishloq xo‘jaligi sohasida ishlatishni xohlar edi.

Tojikiston va Qirg‘iziston birgalikda Orol dengizi havzasidagi suvning taxminan 77 foizini taminlaydi. Afg‘oniston esa havzaga taxminan 10 foiz suv qo‘shadi, ammo siyosiy beqarorlik sababli so‘nggi Orol dengizi havzasini boshqarish jarayonlarida ishtirok etmagan. Markaziy Osiyoda suvga bo‘lgan talab asosan qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lib, umumiy suv iste’molining 90 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Orol dengizi havzasidagi suvning taxminan 85 foizi quyi oqimdagi davlatlar tomonidan ishlatilsa, qolgan qismi yuqori oqimdagi davlatlar tomonidan sarflanadi[319]. Bundan ko‘rinib turubdiki quyi oqim mamlakatlari uchun suv judda ham muhim va yuqori oqim mamlakatlari bilan o‘zaro yagona kelishuvga erishishi muhimdir.

Mintaqada ushbu muammoni hal qilish uchun bir necha bor o‘zaro uchrashuvlar va kelishuvlar bo‘lgan. Bunga misol tariqasida 1992-yilda tuzulgan “Markaziy Osiyoning suvni muvofiqlashtirish bo'yicha davlatlararo komissiyasi”ni keltirishimiz mumkin[320]. Aynan mana shu komissiya hozirgi kunda ham faoliyat olib borayotgan yagona mintaqaviy suv resurslarini taqsimlash yo‘lida faoliyat olib borayotgan muasasa hisoblanadi. Shuningdek mintaqda bir necha bor mintaqa liderlari ishtirokida o‘zaro uchrashuvlar bo‘lgan. Jumladan 1993-yil Qizil-O‘rda shahrida[321], 1995-yil 3-mart sanasida Doshxovuzda[322], 1997-yil 28-fevralda Olmaotada[323], 1998-yil 17-martda Bishkekda Sirdaryo bo‘yicha[324] va boshqa shartnomalarni keltirishimiz mumkin. Ammo bu kabi kelishuvlar yoki shartnomalar imzolanishiga qaramasdan oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan tomonlar o‘rtasida ushbu kelishuvlarning ba’zi bandlari buzulganligini guvohi bo‘lamiz. Bunga tabiy ravishda ikkala tomoning ham o‘z manfaatlarni o‘ylashi sabab bo‘lgan. Misol tariqasida 1997-yil 28-fevralda Olmaota shahrida beshta Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlari tomonidan imzolangan deklaratsiyaning ma’lum bandlari buzulganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda quyi oqim mamlakatlari energiya yetqazib berishni o‘z vazifalari sifatida belgilangan bo‘lib, biroz vaqt o‘tgandan so‘ng energiya narxini Jahon

[317] http://www.icwc-aral.uz/statute1.htm

[318] Mosello, B “Water in Central Asia: A Prospect of Conflict or Cooperation”- Journal of Public and International Affairs · Retrieved April 20, 2016, p-158. https://www.princeton.edu/jpia/past-issues-1/2008/9.pdf [tashrif vaqti 07.03.2025.]

[319] D.C. McKinney. “COOPERATIVE MANAGEMENT OF TRANSBOUNDARY WATER RESOURCES IN CENTRAL ASIA”- National Defense University Press, 2003. P-3. https://www.caee.utexas.edu/prof/mckinney/papers/aral/centralasiawater-mckinney.pdf [tashrif vaqti 06.03.2025]

[320] Ibid. p-7. [tashrif vaqti 12.03.2025].

[321] https://aral.uz/en/structure/

[322] Dukhovny, V. A, Schutter, J. L “Water in Central Asia: Past, Present, Future”- London: CRC Press. 2011. P-226. https://etd.lib.metu.edu.tr/upload/12620872/index.pdf [tashrif vaqti 12.03.2025]

[323] Translation: http://www.cawater-info.net/library/eng/almaty_declaration.pdf (accessed on July 3, 2016).

standarti asosida belgilashini e'lon qilishadi[325]. Bunga javob tariqasida esa Qirg'iziston mamlakati esa 1997-yildan boshlab suv omborlarida suv to'plash muddatini o'zgartirdi va bu bilan 1992-yildagi Olmaota shartnomasini buzgan hisoblandi[326]. Bu bir tomonlama harakat natijasida sug'orish mavsumida quyi oqim davlatlariga yetib boradigan suv kamayib ketdi, qish faslida esa toshqinlar yuzaga keldi.

Yuqori oqim mamlakatlaridan yana biri bo'lgan Tojikiston hukumati bilan ham Amudaryodan foydalanish bo'yicha 1998-yilda huquqiy hujjat imzolandi. Unga ko'ra Tojikiston har yili O'zbekistonga 3,4 milliard kVt/soat (170 million dollar) gidroelektr energiyasini eksport qiladi. Buning evaziga Tojikiston O'zbekistondan 3 milliard kVt/soat (130 million dollar) qiymatidagi elektr energiyasini tabiiy gaz

	Rogun Dam	*Kambarata Dam*
Location	River Vakhsh, Tajikistan	River Naryn, Kyrgyzstan
River basin concerned	Amu Darya	Syr Darya
Basin riparians concerned	Tajikistan Afghanistan, Uzbekistan, Turkmenistan	Kyrgyzstan, Uzbekistan, Tajikistan, Kazakhstan
Estimated cost (US$ billion)	2.9	2–4.9*
Height (meters)	335	275
Water reservoir volume (km^3)	13.8	4.65
Electricity generation (MW)	3.600	1900
Average annual performance (billion kWh)	13.1	5.1
Genesis of the project (period)	1960s	1970s
Beginning of construction works	1982	1986

Sources: Author based on Schmidt (2007); Tetra Tech (2011).

Note
* While the cost estimated by the Kyrgyz government is US$2 billion, a report prepared by the consultant Tetra Tech ES Inc. for USAID, the United States Agency for International Development, assessed the cost to amount to US$4.9 billion (Tetra Tech, 2011: 64).

shaklida import qiladi[327]. Bu raqamlar bundan keying shartnomalar va o'zaro kelishuvlar bo'yicha doimiy o'zgarib turgan.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turubdiki yuqori oqim mamlakatlari o'z ichki energiyasini suvdan foydalanish evaziga to'la qoplashni xohlashadi, Shu maqsada ular suv omborlarini va GESlarni qurishni yoqlashadi va bunga harakat qilishadi. Sovet davrida ham aynan mana shu maqsada bir nechta GESlar va suv omborlari bunyod etilgan. Mustaqillika erishgan yangi respublikalar ham yana o'sha boshlangan qurilish ishlarini davom ettirishga harak qilishmoqda. Bular Tojikiston hukumati tomonidan bunyod etilayotgan Rog'un GESi bo'lsa, Qirg'iziston tomonidan bunyod etilayotgan Qambarota GESlaridir.

[325] D. Yildiz. "Water resources management" will shape the future of the region."- researchGate. 2014. P- 2. https://www.researchgate.net/publication/321288934_Water_resources_management_will_shape_the_future_of_the_region [tashrif vaqti 12.03.2025]

[326] Sojamo, S. "Illustrating Co-existing Conflict and Cooperation in the Aral Sea Basin with Twins Approach." Helsinki: Water & Development Publications. 2008. P-81. http://www.cawater-info.net/bk/water_law/pdf/sojamo.pdf [tashrif vaqti 12.03.2025]

[327] Chatterjee, P. "Case Study 4: The Aral Sea Basin."- Retrieved April 5, 2016, p-298. https://etd.lib.metu.edu.tr/upload/12620872/index.pdf [tashrif vaqti 12.03.2025]

Xulosa va tavfsiyalar

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki mintaqada “yuqori oqim” mamlakatlari hisoblangan Qirg‘iziston va Tojikiston mamlakatlari bilan suv resurslaridan foydalanishda o‘zaro hamkorlikka erishish mintaqaning nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy rivoji uchun balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Dunyoning ilg‘or Think Tanklari tomonidan e’lon qilingan ba’zi maqollalarda dunyoning o‘ndan ortiq hududida “suv urushlari” yuz berishi prognoz qilingan. Bu ro‘yhatda afsuski Markaziy Osiyo mintaqasi ham mavjud. Shunday ekan o‘zaro kelishuvda asosiy rol o‘ynaydigan yuqori oqim mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorlikka erishish, mavjud shartnomalarga amal qilish va ularni doimiy takomillashtirib borish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Tavfsiya o‘rnida mintaqada suv diplomatiyasi bilan shug‘ullanadigan yuqori malakali kadrlarni ko‘paytirish kerak. Buning uchun esa maxsus ixtsoslikka ega bo‘lgan oliy ta’lim muasasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. B.Buzan, O.Waever, J.Wilde. “Security: A New Framework for Analysis”- Lynne Rienner Publishers. Boulder 1998. PP-23-24.
2. D.C. McKinney. “COOPERATIVE MANAGEMENT OF TRANSBOUNDARY WATER RESOURCES IN CENTRAL ASIA”- National Defense University Press, 2003. P-3.
3. I.Abdullayev, I. Bobojonov, A. Assubayeva, N.Djanibekov. “Current challenges in Central Asian water governance and their implications for research, higher education, and science-policy interaction” - Central Asian Journal of Water Research · February 2025. P-48
4. Eshchanov, B., Plaat Stultjes, M., Salaev, S., and Eshchanov, R. “Rogun Dam—Path to Energy Independence or Security Threat? Sustainability”- 2011. P-1576
5. D.C. McKinney. “COOPERATIVE MANAGEMENT OF TRANSBOUNDARY WATER RESOURCES IN CENTRAL ASIA”- National Defense University Press, 2003. P-3.
6. Dukhovny, V. A, Schutter, J. L “Water in Central Asia: Past, Present, Future”- London: CRC Press. 2011. P-226
7. D. Yildiz. “Water resources management" will shape the future of the region.”- researchGate. 2014. P- 2.
8. Sojamo, S. “Illustrating Co-existing Conflict and Cooperation in the Aral Sea Basin with Twins Approach.” Helsinki: Water & Development Publications. 2008. P-81
9. Chatterjee, P. “Case Study 4: The Aral Sea Basin.”- Retrieved April 5, 2016, p-298.

Foydalangan saytlar:

1. http://www.icwc-aral.uz/statute1.htm
2. http://www.cawater-info.net/library/eng/almaty_declaration.pdf

M.Z. Aymatov **–** *Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

KATTA O‘YIN: MARKAZIY OSIYONING GEOSIYOSIY MANFAATLARI

Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishgandan so'ng, yangi tug'ilgan davlatlar oldida davlat qurish vazifasi va davlat tushunchasiga mos keladigan milliy o'ziga xoslikni yaratish zarurati paydo bo'ldi. Aynan shu erda Markaziy Osiyoda ichki mojaro haqida keng tarqalgan taxmin va bashorat paydo bo'ldi. Bularning ichida o‘zboshimchalik bilan chizilgan chegaralar, ba’zi milliy etnik elatlarga hudud bilan ta’minlash, boshqalari esa istisno, islom radikalizmi va iqtisodiy qoloqlik olimlarni mintaqada fuqarolik to‘qnashuvi va tartibsizliklar avj olishini bashorat qilishga undagan ko‘plab muammolardan bir nechtasi taxmin qilindi . Tojikistondagi fuqarolar urushi va O’zbekiston Islomiy Harakatining Qirg’iziston hududiga uyushtirgan hujumlari Sovet Ittifoqi mustaqillikka erishgandan keyingi birinchi o’n yillikda bu bashoratlarga asos bo’lgan bo’lsa-da, mintaqa barqarorlashuvga intildi va bu bashoratlar o’z isbotini qisman topdi. Bu tabiiy resurslar va energiyaga boy mintaqa g'arbiy va sharqiy Yevroosiyo davlatlari uchun katta ahamiyatga ega edi. Uning eng yaqin va kuchli to’rtta qo’shnisi, ya’ni Rossiya, Xitoy, Turkiya va Eron mintaqada tarixiy, madaniy, xavfsizlik yoki iqtisodiy intilishlari va da’volariga ega. Bu uni yuqori geosiyosiy raqobat kemasiga aylantiradi. Uning tarixi va geografik joylashuvi bu mintaqani o'tgan asrning asosiy geosiyosiy nazariyalarining o'zagiga olib keldi. Makkinder yuragida joylashgan va Jahon orolining ichki bo'shliqlarini Spaykman Rimlend orqali dengizlar bilan bog'lab turadigan bu mintaqa uzoq vaqtdan beri ko'plab nazariyotchilar va siyosatchilarning strategik tafakkuri va geosiyosiy dizayniga bo'ysunib kelgan. Ushbu mintaqaga nisbatan ko'pgina geosiyosiy yondashuvlar uni gegemon raqobat maydoni sifatida ko'rsatdi, uning hukmronligi loyiha ta'siri va Yevrosiyoni nazorat qilish uchun asosiy mintaqa sifatida qaralsada, Markaziy Osiyoga nisbatan umumlashtirilgan va keng qabul qilingan yondashuv mavjud bo'lib, uni beqarorlik va fuqarolik, diniy yoki etnik nizolar qozoni sifatida ko'rdi. Ushbu ichki buzg'unchi omillar mintaqaning Yevroosiyo dinamikasi va kuch o'yinlarida o'z xohishi va manyovr qobiliyatiga ega bo'lgan asosiy geosiyosiy yo'nalish sifatidagi rolini buzadi Yurak mintaqasida Markaziy Osiyoning geosiyosiy konsepsiyalari Heartland keng Yevroosiyo qit'asining dengizga chiqish yo'li bo'lmagan mintaqalaridan iborat bo'lib, Rossiya, Sharqiy Evropa va Markaziy Osiyoni o'z ichiga oladi. Makkinderning ta'kidlashicha, tarixiy jarayonlarning aksariyati Heartlandda joylashgan. Uning vazifasi dunyoning boshqa mintaqalarini ortda qoldiradigan va shu bilan ularning hukmronligiga imkon beradigan harbiy va sanoat kuchlarini rivojlantirishdan iborat. Uning ta'kidlashicha, Heartland geografik jihatdan qulay mavqega ega va Rimlandda joylashgan dengiz kuchlaridan himoyalangan. Bundan tashqari, Makkinderning ta'kidlashicha, *kim Sharqiy Yevropani nazorat qilsa, Heartlandni nazorat qiladi ; kim Heartlandni nazorat qilsa, dunyo orolini nazorat qiladi* [328];. Markaziy Osiyoning biroz tarqoq kontseptsiyasi geosiyosatda 20-asr boshidan Spykman va Makkinder nazariyalari orqali mavjud edi. Shunday qilib, ushbu tahlilning asosiy maqsadi Markaziy Osiyoga nisbatan oldingi

[328] Mackinder, Halford J. "The Geographical Pivot of History." The Geographical Journal, Vol. 23, No. 4 (Apr. 1904), pp. 421–437.

geosiyosiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, diniy yoki etnik nizolar yo'qligini tushuntirish va Heartlandning yangi tiklanish jarayonlarida Markaziy Osiyo ma'nfatlarini ustuvor dep bilish va mintaqa davlatlari bilan uyg'unlashtirish , mintaqa davlatlarining asosiy pirovard tashqi siyosati bo'lishi kerak . Mintaqa davlatlari yuqoridagi konsepsiyada keltirilgan fikirlar yuzasidan mintaqa manfatlarini himoya qilishi va jahon siyosati maydonida xalqaro munosabatlarda obyekt bo'lib emas subyekt bolishi , va yagona kuch bo'lib yetilib xalqaro siyosatda o'z ma'nfatlarini dadil himoya qila olishi kerak . Buning uchun mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish , iqtisodiy madaniy siyosiy aloqalarni rivojlantirish va bu boradagi ishlarni sekinlashtirmasdan mavjud potensialni ishga solish kerak bo'ladi.

Ushbu mavzu va nazariyaning muhumligi shundaki Markaziy Osiyo davlatlari yagona turkiy millat o'laroq boshqa yirik davlat ma'nfatlariga xizmat qildirildi . Mintaqa davlatlari sobiq ittifoq davlati tarkibida kamsitildi , ziyoli aholi qatag'onga uchrab qamaldi surgun qilindi , otuvga hukum qilindi . Mintaqa davlatlariga tegishli moddiy va ma'naviy resurslar , shu jumladan mamlakatda yetishtirilgan paxta dexqonchilik mahsulotlaridan tortib tabiy yer osti boyliklari talanib markazga yetkazildi , Markaziy Osiyo ruslar uchun faqat homashyo bazasi sifatida qaraldi . Yanada kengroq aytadigan bo'lsak mintaqa o'z erki yo'q bo'lib jahon ham jamiyatida o'z o'rnini topmadi , mintaqa xalqlari hohish istaklari erkin qondirilmadi. G'arbning mashxur oilmlarning ilmiy tadqiqotlaridan misolda Ingliz geografi Xelford J. Makkinder , tomonidan imiy asoslangan Heartlend nazariyasidan ruslar foydalanib qoldi.

Halford Mackinderning Heartland nazariyasida Markaziy Osiyo muhim geostrategik ahamiyatga ega hudud sifatida qayd etilgan. U Heartlandning markaziy qismini tashkil qiladi va nazariyada asosiy resurslar va geografik ustunlik manbasi sifatida tasvirlanadi. Markaziy Osiyoni nazorat qilish Heartlandning qolgan qismini boshqarish uchun strategik kalitdir. Chunki bu hudud boshqa davlatlarning Heartlandga kirishini to‘suvchi “quruqlik qalqoni” rolini o‘ynaydi. Resurslarni nazorat qilish orqali global iqtisodiy ustunlikka erishish imkonini beradi . Markaziy Osiyo Sovet Ittifoqining bir qismi bo‘lsa , Heartlandning asosiy qismini tashkil etadi. Mintaqaning boy resurslari va geografik o‘rni Sovet Ittifoqining qudratli yuragi sifatida qaraldi. Shu nuqtai nazardan qaralganda mustaqillikga erishgan yangi Markaziy Osiyo respublikari tarixiy saboqlarni to'g'ri anglab yetmog'i kerak . Shu mantiq ayonki mintaqa davlatlarining keyingi qadami birlashib xalqaro arenada yangi mustahkam kuch bo'lib yetilishi kerak .

Tadqiqot yoki kuzatish qanday amalga oshirilganini tushuntirish.

Xartland va buyuk o'yin nazariyalari va davlatlarning markaziy osiyo davlatlaridan nima istashi

Ingliz geografi Xelford J. Makkinder dastlab 1904 yilda “Tarixning geografik yo'nalishi” nazariyasini ishlab chiqdi. Uning ta'kidlashicha, yer kurrasi alohida hududlarga bo'lingan, ularning har biri alohida vazifani bajaradi. U yer sharini Jahon oroli va tashqi orollarga ajratdi. Jahon oroli yana Pivot maydoniga va ichki yarim oyga bo'lingan. O'z nazariyasining moslashuvlarida Makkinder bu hududlarni o'zgartirdi, keyinchalik ular mos ravishda Heartlend va Rimlend deb nomlandi. Pivot maydoni yoki Heartland keng Yevroosiyo qit'asining dengizga chiqish yo'li bo'lmagan mintaqalaridan iborat bo'lib, Rossiya, Sharqiy Evropa va Markaziy Osiyoni o'z ichiga oladi. Makkinderning ta'kidlashicha, tarixiy jarayonlarning aksariyati Heartlandda

joylashgan va shuni qo'shimcha qilish kerakki bunga sabab yer shari aholisining katta qismi shu yerda joylashganligi va tarix davomida asosiy yirik sivilizatsiyalar shu mintaqada Yevrosiyoda paydo bo'lganligi keltiriladi Heartland nazariyasini ilk bor Halford Mackinder ishlab chiqqan va 1904-yilda taqdim etgan. Shunday bo'lsa-da, Mackinderning g'oyalari butunlay yangi bo'lmagan — u o'zidan oldingi bir qator olimlar va geosiyosiy mutafakkirlarning fikrlaridan ilhomlangan. Shulardan Friedrich Ratzel (1844–1904) : Ratzel davlatni tirik organizm sifatida ko'rgan va uning rivojlanishi uchun "hayot makoni" (Lebensraum) kerakligini ta'kidlagan. Ratzelning davlatlarning kengayishi tabiiy jarayon ekani haqidagi qarashlari Mackinderning Heartlandni davlat kuchining o'sishida markaziy o'rin tutishi haqidagi fikrlariga zamin yaratdi. Immanuel Kant (1724–1804) Kant davlatlar va ularning geografik joylashuvlari o'rtasidagi bog'liqlikni falsafiy asosda tahlil qilgan. Kantning mintaqaviy geografik joylashuvni muhim tahlil elementi sifatida ko'rishi Mackinderga ta'sir qilgan fikrlaridan biridir. Makkinderning roli va ajralib turishi shundakki Mackinder bu g'oyalardan ilhomlanib, ularni tizimli ravishda birlashtirgan va nazariy asosga joylashtirgan. 1904-yilda "Geografiyaning tarixga ta'siri" nomli ma'ruzasida u Heartland tushunchasini dunyoga taqdim etdi. Makkinderning yangi jihati shundaki, u Evroosiyo Heartlandini global hukmronlik uchun kalit deb ko'rsatdi va uni o'z davrida siyosiy strategiyalarni shakllantirishga moslashtirdi Uning vazifasi dunyoning boshqa mintaqalarini ortda qoldiradigan va shu bilan ularning hukmronligiga imkon beradigan harbiy va sanoat kuchlarini rivojlantirishdan iborat. Uning ta'kidlashicha, Heartland geografik jihatdan qulay mavqega ega va Rimlandda joylashgan dengiz kuchlaridan himoyalangan. Bundan tashqari, Makkinderning ta'kidlashicha: "Kim Sharqiy Yevropaga egalik qilsa, Heartlandni boshqaradi; kim Heartlandni boshqarsa, Jahon oroliga egalik qiladi; kim Jahon oroliga egalik qilsa, dunyoga hukmronlik qiladi."[329] Ushbu konsepsiyalardan mintaqaga ta'sir o'tkazish maqsadidia yana yangi konsepsiyalar " buyuk o'yin " va "yangi buyuk o'yin " kabi nazariyalar amaliyotda qo'llanila boshlanadi.

"Buyuk o'yin" (inglizchasiga "The Great Game") atamasi XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi Markaziy Osiyo ustidan ta'sir o'rnatish uchun kechgan geosiyosiy raqobatni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu termin birinchi marta ingliz yozuvchisi va razvedkachisi Artur Konolli tomonidan qo'llanilgan, keyinchalik esa britan yozuvchisi Rudyard Kiplingning "Kim" romanida mashhur bo'lib ketdi. *"Buyuk o'yin"* [330]atamasi 1840 yilda ingliz razvedkasi kapitan Artur Konolli (1807-1842) tomonidan kiritilgan. Rudyard Kiplingning 1901-yilda yozgan " Kim" romani bu atamani ommalashtirdi va uning buyuk kuchlar raqobati bilan aloqasini kuchaytirdi U 1979 yilda Sovet-Afg'on urushi boshlanganidan keyin yanada mashhur bo'ldi . Buyuk o'yinning asosiy davri 1813–1907-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda ikki imperiya o'z hududlarini kengaytirishga va Markaziy Osiyo mamlakatlarini o'z ta'siri ostiga olishga harakat qildi. Britaniya uchun bu harakat Hindiston (uning eng muhim mustamlakasi) xavfsizligini ta'minlashni, Rossiya uchun esa issiq dengizlarga chiqishni va mintaqadagi ta'sirini kuchaytirishni anglatardi. Buyuk o'yin 1907-yilda Buyuk

[329] Mackinder, Halford J. "The Geographical Pivot of History." The Geographical Journal, Vol. 23, No. 4 (Apr. 1904), pp. 421–437.

[330] Campbell, Heather A. (2021) "Great Game Thinking: The British Foreign Office and Revolutionary Russia." *Revolutionary Russia* 34.2 (2021): 239-258.

Britaniya va Rossiya o‘rtasida Anglo-Rus Konventsiyasi tuzilishi bilan tugadi. Ushbu bitim quyidagilarni belgiladi:Rossiya va Britaniya Afg‘onistonni neytral hudud deb tan oldi. Eron shimoli Rossiya ta’sirida, janubi esa Britaniya ta’sirida qoldi. Markaziy Osiyoda Rossiya hukmronlikni saqlab qoldi. Buyuk o’yining mantiqiy davomi sifatida yangi mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo respublikalarining geostrategik joylashuvi va hududiy jihatidan “ buyuk ipak yo’li “ chorahasida joylashganligi , ushbu hududda tabiy resurslarning mavjudligi yirik davlatlarning e’tiborini tortib “Yangi buyuk o’yin “ yani birinchi buyuk o’yining davomi boshqacha formatda boshqa ko’rinishda davom etayotganini ko’rsatayapti

"Yangi Buyuk O‘yin" (New Great Game) – bu atama XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Markaziy Osiyoda davom etayotgan global geosiyosiy raqobatni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yangi davrning asosiy o'yinchilari Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi va ba'zi mintaqaviy davlatlar (masalan, Turkiya, Hindiston, va Eron) hisoblanadi. Yangi o'yin asosan tabiiy resurslar, infratuzilma va mintaqadagi geostrategik nazorat uchun kurash bilan bog‘liq. Yangi buyuk o’yining sabablari tabiy resurslar va shu yo’sinda , mintaqaga ta’sir o’tkazishdir . Markaziy Osiyo ulkan gaz va neft zaxiralariga boy hudud sanaladi

Markaziy Osiyoga Qozog‘iston, Turkmaniston, O‘zbekiston, va qisman Afg‘oniston, Tojikiston va Qirg‘iziston kiradi. Qozog'iston mintaqadagi asosiy neft ishlab chiqaruvchisi bo'lsa, mintaqaning qolgan qismi asosan Turkmaniston va O'zbekiston boshchiligida gaz ishlab chiqaradi. 2019-yil holatiga ko‘ra, mintaqadagi jami tasdiqlangan zaxiralar 31,4 milliard barrel neft va 825,8 trillion kub fut gazni tashkil etadi. Mintaqadagi neft zahiralarining 95% dan sal ortig‘i va gaz zahiralarining 83% mos ravishda Qozog‘iston va Turkmanistonda. 1-rasmda ko'rsatilganidek, so'nggi besh yil ichida mintaqada neft va gaz qazib olish yiliga mos ravishda 2,7% va 0,2% ga o'sdi.[331] Garchi Qozog'iston gazning bir qismini ishlab chiqarsa-da, uning ko'p qismi mahalliy darajada neft qazib olishni kuchaytirish uchun qayta quyilmoqda. Aksincha, Turkmaniston va O‘zbekiston tomonidan qazib olinadigan gazning katta qismi Xitoy, Rossiya va Ozarbayjonga eksport qilinadi. Olingan gaz Yevropaning Turkiya va Gruziya kabi qo‘shni mamlakatlariga, Osiyodagi Hindiston va Pokistonga ham eksport qilinishi mumkin.

[331] https://thediplomat.com/2016/08/central-asias-oil-and-gas-now-flows-to-the-east/



Markaziy Osiyo Yevroosiyo qit'asining o'rtasida joylashgan bo‘lib, Yevropa, Xitoy, Hindiston va Yaqin Sharq o'rtasidagi transport va savdo yo‘llarini nazorat qiladi."Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi (Xitoy): Mintaqa savdo yo‘llari va infratuzilmaga sarmoya kiritish orqali global ta’sirni oshirishga xizmat qilmoqda.

Geosiyosiy omillar:

Sobiq Sovet davlatlari ustidan Rossiya o‘z ta’sirini tiklashga harakat qilmoqda. AQSh va NATO mintaqada xavfsizlikni ta'minlash va terrorizmga qarshi kurash bahonasida o‘z ta’sirini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Rossiya, Xitoy va AQSh qudratga erishish, saqlab qolish va kuchaytirish uchun qanday kurashayotgani va energiya resurslari bu oliy maqsadga erishish uchun vosita, xolos. Shuningdek, u buyuk kuchlar o'zini agressiv va o'z manfaatlarini ko'zlagan holda tutsalar ham, ular o'sib borayotgan radikal islomchilik kabi umumiy tashvishlarni hal qilish uchun minimal darajada hamkorlik qilishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Kaspiy dengizi havzasi va Markaziy Osiyo respublikalarining savdo markazi sifatidagi rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu hudud qadim zamonlardan beri Sharq va G‘arb o‘rtasidagi kesishgan yo‘l bo‘lib kelgan. Qadimda u Pekinni O'rta er dengizi bilan bog'lagan va G'arb bozorlariga Sharq tovarlari ortilgan tuya karvonlari ketayotgan yo'lak bo'lgan. Bu yo‘lak “Ipak yo‘li” nomi bilan tanish edi. Bu davlatlarning siyosiy rahbariyatiga ularning kambag'al iqtisodlari boshqa qo'shni mamlakatlardan, xususan, turli raqobatdosh va qiyosiy ustunliklarga ega bo'lgan iqtisodiy gigant Pekindan import qilinadigan tovarlarning asosiy qismiga qarshi tura olmasligi tezda ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ular o'zlarining milliy iqtisodiyotlarini himoya qilish uchun birinchi navbatda ijtimoiy institutni mustahkamlashga qaratilgan protektsionistik siyosat olib borishlari zarur bo'ldi

Xitoyning strategiyasi yaxshi o'ylangan va sodda. Uning maqsadi - Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Amerika, Markaziy va Janubiy Osiyoning barcha qit'alarining mamlakatlari bilan o'z ishtirokini va hamkorlikni oshirish. Shu maqsadda u energiyaga boy Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini arzon narxlardagi texnologiyali ilg'or temir yo'l infratuzilmasini taqdim etishdan iborat Afrika modelidan foydalandi. Ayirboshlashda Xitoy Markaziy Osiyo mintaqasining uglevodorod resurslari va xom ashyolaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi . Markaziy Osiyo energetika resurslari Osiyoning iqtisodiy giganti Xitoyning

energiyaga bo'lgan katta ehtiyojlarini qondirish uchun ajralmas hisoblanadi. Biroq, Xitoyning strategiyasi Rossiyaning Markaziy Osiyo energetika resurslari ustidan monopoliyasiga tahdid solmoqda. Rossiyaning "Gazprom" kompaniyasi hozirda Markaziy Osiyo mintaqasida monopoliyaga ega bo'lib, Moskva tomonidan boshqariladigan hozirgi ekspluatatsion quvurga muqobil sifatida ishlab chiqilgan quvur liniyasi loyihalari ko'rinishida AQSh va Xitoy tomonidan o'z pozitsiyasiga hal qiluvchi hujumlarga dosh bera oladi

Xitoyning Markaziy Osiyodagi manfaatlari Pekinning Markaziy Osiyodagi siyosiy strategiyasi ikkita muhim omilga asoslanadi: i). Mintaqa bilan uzoq muddatli foydali iqtisodiy aloqalar yordamida Markaziy Osiyo mintaqasining uglevodorod resurslaridan katta ulush olish. ii). Xitoy Xalq Respublikasining jismoniy yaxlitligi, milliy chegaralar xavfsizligini ta'minlash va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash; Xitoy bu unsurlar allaqachon separatizm uchqunlariga ega bo'lgan Shinjon viloyatida barqarorlikni buzmasligini istaydi. Bu unsurlar bilan to'g'ridan-to'g'ri tashvishda bo'lmagan Qo'shma Shtatlar terrorizmga qarshi urush bahonasida mintaqaga kirib borish va Rossiya va Xitoyga nisbatan muvozanatni saqlashga harakat qiladi Rossiya, Xitoy va AQShning mintaqadagi manfaatlarini tahlil qilgandan so'ng, bu davlatlar issiq urushga olib kelmasligini taxmin qilish mumkin. Bu erda manfaatlar asosan Markaziy Osiyo energetikasi va uning infratuzilmasi bilan bog'liq. Urush bo'lsa, u yo'q qilinadi va ularning barchasi uchun mag'lubiyat sifatida qabul qilinadi.

Markaziy Osiyo manfaatlari qanday

Markaziy Osiyo mamlakatlarining manfaatlari ularning geografik joylashuvi, iqtisodiy imkoniyatlari, xavfsizlik muammolari va madaniy yaqinliklari bilan bog‘liq. Mintaqa mamlakatlari diniy madaniy etnik bir xillikga ega . Mintaqa davlatlari islom dining sunniylik mazhabiga e'tiqot qiladi , asosan kelib chiqishi turkiylar bo'lgan keyinchalik sobiq ittifoq bo'lib yuborilgan besh davlat . Bu yerda tub aholidan tashqari urush qadimdan yoki urush yillarida kelib qolgan turli millat va elatlar tinch va osoishta hayot kechirib kelmoqdalar . Markaziy Osiyo mintaqasi boshqa mintaqalarga qaraganda tinchlik va barqarorlikda o'sib kelmoqda yuqorida keltirilib o'tilgan tadqiqotlardan tushunib yetish kerakki globallashuv davrida turli xil muommolar va tahlikali zamonda tinchlikni asrash yanada muhum bo'lib qolmoqda . Ziddiyat va urushlar qamrovi kengayib borar ekan Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlik masalalari ustuvor ahamiyat kasb etib boraveradi . Afg‘oniston bilan yaqin qo‘shnichilik tufayli Markaziy Osiyo mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm va narkotrafik xavflariga duch kelmoqda. Xavfsizlikni ta'minlash uchun mintaqaviy davlatlar va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilish (masalan, Rossiya, Xitoy va AQSh kabi kuchlar bilan) maqsadga muvofiq . Markaziy Osiyo suv va energetika resurslari bo‘yicha o‘zaro bog‘liq hududdir. Suv resurslarini boshqarish transchegaraviy bo'lgan daryolarni to'g'ri boshqarish zarur Amudaryo va Sirdaryo kabi daryolar mintaqaviy davlatlar uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Tojikiston va Qirg‘iziston suv havzalarining yuqori qismida joylashgan bo‘lib, gidroenergetika loyihalari orqali foyda ko‘rishni istaydi , bu qoshni davlatlar bilan birgalikda kelishib har qanday ixtiloflarga yo'l qo'yilmasligi zarur. Mintaqada yana bir muommo sifatida ichki suvlardan foydalanishni tartibga solish bo'yicha transchegaraviy suvlar kabi xalqaro hujjat bilan tartibga solinib kelingan paytda tan olinmagan tolibon hukumati bilan amaliy kelishuvga erishish muhum sanaladi . Ular

qurayotgan Qo’shtepa kanali qurib bitkazilsa Amudaryo suvining 15 foizi suvini olishi kutilayapti . Bundan 2024-yilda Markaziy Osiyo davlatlari Afg‘onistonga nisbatan eronliklardan ko‘ra bag‘rikengroq pozitsiyani saqlab kelishmoqda , chunki Ashxobod va Toshkent til topishish muhum . Suv va energiya ta'minotidagi so'nggi uzilishlar, nihoyat, resurslarni boshqarishning yaxshilanishiga va infratuzilmaviy loyihalarning uzoq kutilgan yangilanishiga olib kelishi mumkin Mintaqadagi har qanday loyihalarni birgalikda ishlab chiqish kelishmo’vchiliklarning oldini oladi. Markaziy Osiyo davlatlarining manfaatlari mintaqadagi xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot, ekologiya va xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu manfaatlarni amalga oshirishda o‘zaro hamkorlik va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mintaqaning muvaffaqiyati davlatlarning birgalikdagi sa’y-harakatlariga va integratsiya darajasiga bog‘liq Bunday vaziyatda mintaqa davlatlari bir-birlari bilan o’zaro hurmat va pragmatik amaliy ruhga ega siyosat yurgizish mintaqa ma’nfaalariga har tomonlama mos keladi . Ushbu vaziyatda o’sib kelayotgan milliy o’zlik va o’ziga xoslik qadimdan bitta kuchli millat bo’lib kelgan turkiy ellatlarninig yana qayta o’zaro ma’nfaatli birlashish g’oyalari kelajakda kutulishi mumkun bo’lgan turli xavf- hatarlarni oldini olib buyuk taraqqiyotga erishishga xizmat qilishi mumkun . Shu nuqtaiy nazardan olib qaraganda Markaziy Osiyo integratsiayasi “ buyuk turon “ g’oyalarini amaliyotga tadbiq etishga muhum qadam bo’lib xizmat qiladi.

Har tomonlama chuqur integratsiyashgan Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarda yanada o’z o’rniga ega bo’lgan , o’z ma’nfaatlarini kengaytirib xalqaro yirik kuchlar oldida obyekt bo’lib emas sub’yekt bo’lib shakllanishiga imkon yaratadi . Bu o’z o’zidan mintqa taraqqiyotini va xavfsizligini yuksaltirishga xizmat qiladi Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak mintaqada hududida yirik imperiya kuchli davlatlar mavjud bo’lganligini, ularning tashqi dushmanlardan birlashmaganligi har qaysi zamon g’animlarga ustunlik berib kelgan. tarixiy saboqni to’g’ri anglagan holda harakat qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mackinder, Halford J. "The Geographical Pivot of History." The Geographical Journal, Vol. 23, No. 4 (Apr. 1904), pp. 421–437

2. Zbignev Bjezinski, "Katta shaxmat taxtasi, Amerika ustunligi va uning geostrategik imperativlari (np: Asosiy kitoblar, 1997), 120-165

3. Darvish Karen, Rossiya va Amerikaning yangi shtatlari: qo'zg'olon siyosati (np: Kembrij universiteti nashriyoti, 1994), 2-21

4. Campbell, Heather A. (2021) "Great Game Thinking: The British Foreign Office and Revolutionary Russia." *Revolutionary Russia* 34.2 (2021): 239-258.

5. https://thediplomat.com/2016/08/central-asias-oil-and-gas-now-flows-to-the-east/

6. https://thediplomat.com/2016/08/central-asias-oil-and-gas-now-flows-to-the-east

7. https://thediplomat.com/2016/08/central-asias-oil-and-gas-now-flows-to-the-east

8. https://www.britannica.com/place/heartland

Sh.Sh. Ashurov – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

YANGI GEOSIYOSIY MUAMMOLAR KONTEKSTIDA MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI

Markaziy Osiyo tarixdan tortib hozirgi davrgacha eng kerakli hudud sifatida qolmoqda.Buyerda katta imperiyalar o'z hukmronligini surgan va eng kerakli bo'lmish savdo yo'lillari o'tgan.1991-yil dunyodagi ikkinchi eng katta qutb bo'lmish SSSRning qulagandan so'ng,Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishib,umumiy hamkorlikni olib borishi boshlandi.Bu jarayonlarni tezlashtirish maqsadida davlatlarning rahbarlari turli tashabbuslarni olib chiqishdi.Biroq,bu integratsiyaga ta'sir qiladigan jarayonlar ham yo'q emas.Ushbu jarayonni ikki bosqichga ajratib o'rgansak yanada yaxshiroq bo'ladi:mustaqillikdan keyingi bo'lgan hamkorlikka urinishlar hamda bugungi zamonaviy davrdagi yangi geosiyosiy muammolar zamirida kechayotgan integratsion urinishlar konteksi.

Mustaqillikdan keying integratsion urinishlar: Siyosiy tahlilchi Oybek Sirojov o'sha paytdagi vaziyatni:"Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, 90-yillarning asosiy muammosi kundalik hayotni yuritish bo'ldi. Integratsiya esa kelajak uchun rejalashtiriladigan jarayon bo'lib, iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida unga mablag' ajratish oson emas edi. Shuningdek, tashqi kuchlarning ta'siri ham sezilarli edi: mustaqillikning dastlabki yillarida integratsiya borasida ancha harakat qilingan bo'lsa-da, Rossiyaning ta'siri tufayli bu jarayon sustlashdi. Bundan tashqari, davlat rahbarlarining o'zaro siyosiy ambitsiyalari ham bu jarayonga ta'sir o'tkazgan. Chegaralarning minalashtirilishi kabi muammolar tashqi kuchlarga o'z ta'sirini o'tkazish uchun zamin yaratgan. Natijada, muammolar ichkaridan paydo qilingani holda, ularni hal etish tashqi kuchlarning manfaatlariga zid bo'lib qoldi"-deb aytadi o'zining "Kun.Uz"ga bergan intervyusida.Keyinchalik,ya'ni 2000-2014-yillar oralig'ida ham ba'zi katta tashkilotlarning mintaqaga oid siyosati keskin oshdi.Bulardan:Shanxay Hamkorlik Tashkiloti-Xitoy va Rossiya tomonidan tuzilgan barqaror iqtisodiy o'sish,xavfsizlik hamda madaniy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.Yoki Rossiyaning ikkita katta tashkiloti bo'lmish:Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti.Bu davrda integratsiya haqida gaplar ko'p marotaba aytilgan bo'lsada,katta qadamlar tashlanmadi,chunki davlatlarning chegara,suv-energetika masalalarida kelishmovchiliklari hali yechim topmagan edi.

Zamonaviy davrdagi yangi geosiyosiy muammolar zamirida integratsiya.So'nggi yillardagi natijalarga e'tibor beradigan bo'lsak,mintaqaning hamkorlik jarayonlarida ancha o'sish kuzatildi.Bunda Rossiya,Xitoy va G'arb bilan olib borilayotgan oqilona siyosat katta yordam beryapti.Bu davlatlar bilan "neytrallik"pozitsiyasini saqlanib qolishi,boshqacha qilib aytganda katta o'yinchilarning "jahlini chiqarmayapti".Xitoyning iqtisodiy ekspansiyasi ya'ni "qarz berish"taktikasi ayniqsa Markaziy Osiyo hududida avj olgan.Ushbu pallada keyin davlat rahbarlari bir nechta norasmiy uchrashuvlar ,maslahat kengashlari tashkil etdi.To'g'ri tashqi davlatlarning investitsiyasisiz rivojlanish qiyin,lekin hamma narsaning balansi bo'lgani kabi MO davlatlari ham shu reja ustida bosh qotirishmoqda.So'nggi kunlarda nihoyat,tugashi

kutilayotgan Ukraina mojarosi ham mintaqa integratsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qoymadi.Avvalambor,bizning iqtisodiy tomonlama Rossiyaga bog'liq ekanligimizni hisobga oladigan bo'lsak,G'arb tomonodan Rossiyaga misli ko'rilmagan sanksiyalarni joriy qilinishi,iqtisodiga yetarlicha ta'sir qildi.U yerda ishlayotgan Markaziy Osiyoning migrantlarining daromadi kamayishi natijasida mintaqa iqtisodiga anchagina o'z ta'sirini ko'rsatdi.Shuningdek Qozog'iston va O'zbekiston hukumatlari ham Rossiya ham G'arb davlatlari bilan muvozanatli tashqi aloqani yuritishyapti.Yana bir eng o'tkir va dolzarb muammolardan biri bo'lmish,Afg'onistondagi "Qo'shtepa"kanalining qurilishi mintaqaning birgalikda olib borayotgan hamkorlik ishlarini yanada yaqinlashganini aytsak,mubolag'a bo'lmaydi.Tarixiy kontekstga yuzlanadigan bo'lsak Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'oniston o'rtasida imzolangan to'g'ridan-to'g'ri kelishuv yo'q.Suv munosabatlari 1992-yilda O'zbekiston,Qozog'iston,Qirg'iziston,

Tojikiston va Turkmanistonning Olmaota kelishuvi bilan asoslanadi.Yuqoridagi kelishuvga Afg'oniston umuman qo'shilmagan,lekin bu uning Amudaryo suvlarini ishlatmasligini inkor ham eta olmaydi,bu ikki tomonlama munosabatlarni yanada ziddiyatga chiqaradigan nuqta desak ham bo'ladi.Ushbu holatni oldini olish uchun Markaziy Osiyo davlatlari bir qator yechimlarni ko'rib chiqishi kerak:Mintaqa va Afg'oniston suv resurslaridan foydalanish bo'yicha bir qator xalqaro huquq normalariga mos ravishda kelishuv imzolashlari,suv taqsimoti bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Jahon Banki va Markaziy Osiyo mintaqaviy tashkilotlarini jalb qilish orqali muammoni xalqaro darajada muhokama qilish lozim.

Yirik Davlatlarning Markaziy Osiyodagi O'rni va ta'siri.Bu borada shuni aytish mumkinki mintaqada o'z ta'sirini yanada ko'proq saqlab qolishga urinayotgan Rossiya,Xitoy va AQSHning olib boraytogan tashqi siyosatlari vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda.

Xitoy 2013-yilda o'zining eng katta rejalaridan biri-Bir makon,bir yo'l loyihasini Qozog'istonda namoyish etdi.Unga ko'ra dengiz marshrutiga alternativ bo'lgan yangi transport,logistika,savdo yo'li.Xitoyning bu iqtisodiy ekspansionizm siyosatini ba'zi mintaqa davlatlari ehtiyotkorlik bilan qabul qilmoqda.

Rossiya ko'p yillardan beri KXSHT va YeOII tashkilotlarini o'zining harbiy va iqtisodiy munosabatlarini mintaqa bilan mustahkamlash uchun foydalanmoqda.Biroq,Ukraina va Kavkazdagi mojarolardan keyin Rossiyaning mintqaga nisbatan ta'siri ancha susaygan,neytrallik pozitsiyasi saqlab qolgan holatda iliq munosabatlar davom ettirilmoqda.

AQSH mintaqadagi ta'sirini oshirish uchun ko'p tomonlama formatlardan foydalanmoqda, jumladan C5+1 formati asosiy ahamiyatga ega.AQSh mintaqaga birinchi navbatda Rossiya va Xitoyni tiyib tura oladigan omil sifatida qaraydi va USAID bu yo'nalishda bir qator investitsiyalarni kiritgan ham.

Bularning barchasini umumiy qilib aytadigan bo'lsak,mintaqa real "katta kuchlar"o'rtasida qolib,qiyin tanlovlar qilishiga to'g'ri kelmoqda.Mintaqa davlatlari bu omillarning ta'sirini kamaytirishi uchun tashqi integratsiya bilan birgalikda,ichki birlashuvni ham kuchaytirishlari,inkluziv iqtisodiy institutlarini tashlik etishlari va o'zaro ishonchni mustahkamlash maqsadida (begonalashuv darajasini kamaytirish maqasadida) xalqlar forum,kengashlar tashkil etib faollar vaqti-vaqti bilan uchrashib turishlari darkor. Xalqlararo integratsiyaning rivojlanishi nafaqat ichki stabillikni mustahkamlaydi, balki Markaziy Osiyo davlatlariga katta maydonda ta'sirchan

o‘yinchi sifatida harakat qilish imkonini ham beradi. Iqtisodiy, transport va xavfsizlik sohalaridagi o‘zaro bog‘liqlik oshgani sayin, tashqi bosimlarga qarshi turish qobiliyati kuchayib, davlatlar o‘z milliy manfaatlarini himoya qila oladi. Natijada, Markaziy Osiyo uzoq muddatli barqaror taraqqiyot yo‘liga chiqib, global miqyosda o‘z mavqeini mustahkamlashga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 3.Dadabaev, T. (2018). China’s Rise and Central Asia: Political, Economic, and Security Implications. p67–89, 145–172.
2. https://kun.uz/news/2025/03/04/tolibonning-qoshtepa-kanali-buning-ozbekistonga-tasiri-qanday-boladi
3. https://kun.uz/news/2024/04/20/hozir-ayni-payti-tahlilchilar-markaziy-osiyoda-integratsiyani-boshlash-zarurati-haqida
4. https://daryo.uz/2024/05/23/aqshning-markaziy-osiyodagi-siyosati-maqsad-va-yondashuvlar
5. https://youtu.be/z6bZPhBijfU
6. https://uza.uz/oz/posts/integratsiyalashuv-markaziy-osiyoga-nima-beradi_620255

K.K. Saparboyev *– Buxoro davlat universiteti talabasi*

MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI: GEOSIYOSIY O‘ZGARISHLAR VA MINTAQAVIY HAMKORLIKNING YANGI IMKONIYATLARI

Bugungi kunda Markaziy Osiyo geosiyosiy jihatdan dunyoning eng muhim mintaqalaridan biri bo‘lib, uning integratsiya jarayonlari nafaqat hududiy taraqqiyot, balki xalqaro munosabatlarning umumiy dinamikasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillik yillarida jumladan 90-yillarda nisbatan faol tashqi siyosat olib bormadi. Hozirgi kunda Xitoy, Rossiya, AQSh, Yevropaning kuchli davlatlari, Turkiya va Eron kabi davlatlarning Markaziy Osiyo bilan aloqalari tobora faollashib, mintaqaviy integratsiyaning strategik ahamiyatini oshirmoqda.

Mazkur maqolada Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarini geosiyosiy kontekstda tahlil qilib, ularga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni o‘rganiladi. Bugungi kundagi Mintaqa uchun eng dolzarb hisoblangan iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik yo‘nalishidagi hamkorlik formatlari, mavjud muammolar hamda kelajak uchun istiqbolli yo‘nalishlar ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi va ilmiy prognozlanadi. Shu bilan birga transport va savdo yo‘llarining rivojlanishi, mintaqaviy tashkilotlarning roli hamda barqaror integratsiya uchun zarur bo‘lgan strategiyalar bo‘yicha tahliliy yondashuvlar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida integratsiyani rivojlantirishda yangi pragmatik yondashuvlarni ishlab chiqishda ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘ylayman-ki ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo uchun umuman olganda siyosatimiz uchun manfaatli va foydali bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlari: Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari: Geosiyosiy o‘zgarishlar va mintaqaviy hamkorlikning yangi imkoniyatlarini tadqiq etishda O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasi, tashqi siyosat, geosiyosat va diplomatiyaga oid xorij adabiyotlari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida qonunlari va xalqaro tashkilotlar va tashqi siyosatga oid tarixiy va bugungi kunning o‘zbek adabiyotlari tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qildi.

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarini tahlil qilish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi: Tizimli tahlil (Ushbu yondashuv davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va manfaatlar muvozanatini tahlil qilish imkonini berdi), Geosiyosiy tahlil (strategik manfaatlarni o‘rganadi), Komparativ (taqqoslash) usuli, Tarixiy yondashuv hamda Normativ-huquqiy tahlillaridan foydalaniladi.

Natijalar va muhokama: Bugunga kelib Markaziy Osiyo mintaqasi hududida turli millat va elatlar yashaydi, jumladan statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugun jahonning ikki yuzdan ortiq davlatida ikki mingga yaqin millat, elat va qabilalar yashaydi. Bu statistikaga bizning mintaqamiz ham o‘z o‘rniga egadir. Markaziy Osiyo mintaqasi asrlar davomida siyosati bir nuqtada to‘qnashgan o‘lka bo‘lib kelgan desam adashmayman. Hozirgi kunga kelib mintaqada rahbarlar almashinuvidan so‘ng ham ushbu “an’ana” davom etmoqda. Bundan tashqari dunyoning gegemon davlatlarining manfaatlari to‘qnashadigan xudud ham aynan Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘lib qolmoqda. Bunga juda ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy va albatta siyosiy sabablar mavjud. Qaysidir davlat geosiyosiy sabablarga ko‘ra mintaqa bilan hamkorlikni rivojlantirishga e’tiborini qaratsa, boshqasi esa iqtisodiy ya’ni tabiiy resurs va boshqa resurslar uchun “yaqinlashish” siyosatini olib bormoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi so‘nggi 24 yil ichida qariyb 1,5 barobar ko‘payib, 2024-yil dekabr holatiga ko‘ra 80 million kishidan oshdi. Bu esa har qachongidan-da ko‘proq “resurs” degani, shuni hisobga olgan holda bugun qardosh xalqlarimiz yanada yaqinlashuv siyosatini olib borishi zarur. Ushbu siyosatni biz Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida belgilab qo‘yilgan “barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi [1,13-b] prinsipini implementatsiya qilish asosida erishishimiz mumkin.

XXI asrga kelib Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ko‘plab tahdidlar mavjud va bu tahdidlarni o‘z vaqtida yechish hamda hal qilish esa xohlaymizmi-yo‘qmi baribir davlat rahbarlarining gardaniga tushadigan yukdir.

Birinchidan, Xalqaro kuchlar o‘rtasidagi raqobat, Frederick Starrning tahliliga ko‘ra, Markaziy Osiyo - Xitoy, Rossiya, AQSh va boshqa yirik kuchlar o‘rtasidagi “yangi ulkan o‘yin”ning markazi bo‘lib qolmoqda[2,5-b]. Ayniqsa Xitoyning mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy ta’sirining kuchayishi, Xitoy Markaziy Osiyo uchun eng katta kreditorga aylanishi shuningdek, ushbu mamlakatning investitorlarining mintaqaga kirib kelib, tabiiy konlar uchun mahalliy investitorlar bilan keskin raqobatga kirishishi bu hammasi Xitoy yumshoq kuchining ko‘rinishidir. Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari hozirda 50 milliard AQSH dollarga yaqin qarzi mavjud[**3**].Rossiyaning mintaqadagi tarixiy va siyosiy manfaatlari, Markaziy Osiyo davlatlarini o‘zaro raqobat va diplomatik ziddiyatlarga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, Resurslar va ekologik xavf, Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, suv resurslariga bog‘liq muammolar mavjud. Suvni boshqarish va resurslarni taqsimlashda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar, ekologik tahdidlar ham xavfsizlikimizga ta’sir qilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash masalalari ham alohida ahamiyat kasb etib, Yangi Konstitutsiyamizda o‘z aksini topdi, jumladan Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi[1,30-31-b]. Shuni ham ta’kidlash lozim, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun suv resurslarini boshqarish bo‘yicha kelishmovchiliklar va ekologik muammolar (masalan, Amudaryo ustidan nazorat va Orol dengizining qurib borishi) mintaqadagi davlatlar o‘rtasida kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Amudaryo suvi taqsimlanishini va Afg‘onistondagi Qo’shtepa kanalining qurilishi natijasida Markaziy Osiyo uchun yangi xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda korrupsiyaviy tahdidlar, bugungi kunga kelib Markaziy Osiyo uchun yoshlar orasida ishsizlik va tengsizlik, iqtisodiyotning barqaror bo‘lmasligi hamda mamlakatlardgi korrupsion harakatlar va byurokratiya natijasida xalqning noroziligini kuchaytirishi va beqarorlikka olib kelishi mumkin[4]. Shularni hisobga olganda holda Markaziy Osiyoning har bir davlati ushbu me’yorlarni tartibga solishi lozim, shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasida ushbu harakatlar tartibga solindi.

Quyida Markaziy Osiyo mintaqasining integratsiyasining taqqoslama radar chart tahlilini keltirib o‘taman:



Ya’ni Markaziy Osiyo mintaqasi uchun Xitoy asosiy savdo hamkorlaridan biri bo‘lib, infratuzilma va energetika loyihalariga katta sarmoya kiritmoqda hamda “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi: Markaziy Osiyo Xitoyning global savdo tarmog‘ining muhim qismi hisoblanadi. Energetika hamkorligi: neft, gaz va boshqa tabiiy

resurslarning yirik xaridori bo‘lib qolmoqda[5]. Undan tashqari, G’arbiy Yevropa va Shimoliy-Sharqiy Yevropa ham integratsiya jarayoni yildan-yilga ortmoqda, xususan, Rossiya, Turkiya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniya davlatlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Endi Markaziy Osiyo kelajaki uchun yangi potensiallarni ko‘rib chiqsak:

- **Tabiiy resurslar**: Mintaqada neft, gaz va qimmatbaho metallar ko‘pligi global energetika bozorida uni muhim o‘yinchiga aylantiradi. Jumladan, O‘zbekistonning Zarafshon, Muruntov va Nukus-Boysun konlari oltin zahirasi hamda qazib chiqarish bo‘yicha katta imkoniyatlarga ega[6, 25-b]. Qo‘shimchasiga, Tojikistonning Anzob koni (surma va simob qazib olinadi), Qirg‘izistonning Kumtor (mintaqadagi eng yirik oltin konlaridan biri), Qozog‘istonning Jezqazg‘an (mis qazib olinadi), Turkmanistonning Galkinish gaz koni (dunyoning eng yirik tabiiy gaz konlaridan biri) mavjud.
- **Strategik joylashuv:** Markaziy Osiyo Rossiya, Xitoy, Hindiston va Yaqin Sharq o‘rtasida joylashgani sababli, u katta iqtisodiy va transport imkoniyatlariga ega[7, 17-19-b]. Mintaqa joylashuvi juda qulay va har bir sohani rivojlantirish imkoniyatiga hamda jahon geosiyosati uchun juda muhim obyekt sifatida qaralmoqda.
- **Yirik ishchi kuchlarining mavjudligi:** Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi eng tez aholi o‘sish sur’atiga ega hududlardan biri bo‘lib qolmoqda. 90-yillarda mintaqa aholasi 50 million atrofida bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 80 milliondan ortiq aholiga ega. Bu esa juda ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan demografik muommo bo‘lmasligi mumkin, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivolanishi uchun asos yaratadi.
- **Mintaqaviy hamkorlik va integratsiya:** Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro iqtisodiy integratsiyani kuchaytirsa, global bozor bilan bog‘lanish imkoniyatlari ortadi[8,37-b]. Bu esa misli ko‘rilmagan imkoniyatlar eshigini ochadi. Jumladan, tashqi bozorga qaramlik kamayadi, monopoliyalarga chek qo‘yiladi va ishlab chiqarishda raqobat kuchayadi, mahalliy bozor ham yuksalishi mumkin.

Xulosa va takliflar: Markaziy Osiyo davlatlari o‘z suverenitetini saqlagan holda integratsiyani chuqurlashtirish uchun muvozanatli va pragmatik siyosat yuritishi, uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishlari lozim. Joriy davrda geosiyosiy o‘zgarishlar mintaqaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda va o‘tgan yillarga qaraganda integratsiya jarayonlari ham rivojlanib bormoqda. Bu esa mintaqamiz kelajagi uchun zarur. Ammo mening fikrimcha, quyidagi omillar e’tiborga olinishi kerak:

Iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish uchun davlatlar o‘rtasidagi savdo to‘siqlarini kamaytirish va bojxona tizimini soddalashtirish zarur, xususan, nisbatan yopiq hisoblangan va juda katta iqtisodiy potensialga ega Turkmaniston ham Markaziy Osiyo uchun “ochilishi” kerak. Suv va ekologiya masalalarida hamkorlikni yanada kuchaytirish zarur. Xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda kerak bo‘lsa birgalikda qo‘shma harbiy o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Tashqi kuchlar bilan muvozanatli hamkorlik o‘rnatish, ya’ni Markaziy Osiyo davlatlari o‘z milliy manfaatlarini himoya qilishni unutmasligi bilan birga, yirik xalqaro tashkilotlar va global

iqtisodiy markazlar bilan manfaatli hamkorlik o‘rnatishlari maqbul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston” Toshkent-2023,13,30,31-betlar
2. The Gathering Storm: China’s Challenge to U.S. Power in Asia, Professor John Mearsheimer, Fourth Annual Michael Hintze Lecture in International Security Wednesday 4th August 2010, 5-b
3. United Nations Conference on Trade and Development, https://unctad.org/
4. Central Asia: A New History, Adeeb Khalid, Princeton University Press-2021
5. https://www.oecd.org/en/about/directorates/statistics-and-data-directorate.html
6. The Economy of Central Asia: A Fresh Perspective, Eurasian Development Bank, 2022, 25-b
7. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives, Brzezinski.Z, 1997, 17-19-b
8. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road, Richard Pomfret, Princeton University Press-2019, 37-b

M.G‘. Ibodullayeva *– Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

YANGI GEOSIYOSIY MUAMMOLAR KONTEKSTIDA MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI

Dunyo xalqaro munosabatlar tizimida SSSR ning qulashi jahon geosiyosatida katta burilishlarni yasadi, yangi davlatlar paydo bo‘ldi,bu jarayon muhim geosiyosiy makonda ya`ni Yevroosiyonig yuragi bo‘lgan Markaziy Osiyoda yuz berdi. .Markaziy Osiyo shundoq ham kambag‘allik, ishsizlik va korruptsiya anchayin dolzarb muammoligicha qolayotgan, kuzatuvchilar nazdlarida, ijtimoiy portlash xavfi nisbatan yuqori mintaqa bo‘ladi.

Aksariyat mintaqa davlatlarining iqtisodi asosan qishloq xo‘jaligiga asoslangan, aholisining aksariyati chetda mehnat muhojirligida band, tirikchiligi asosan shuning orqasidan o‘tadi.

Markaziy Osiyo aholisining umumiy soni 80 milliondan ortadi, hududi kattaligi jihatdan Yevropa Ittifoqinikiga yaqin, yaqin-yaqingacha urushlar ichida bo‘lgan va uch yildirki, muvaqqat hukumati xalqaro hamjamiyat tomonidan rasman tan olinmayotgan Tolibon boshqaruvi ostidagi Afg‘onistonga chegaradosh.

Ammo hosildor yerlari va suvi kam, suv ustidan urush kelib chiqishidan xavotirlar oshkora bildirilgan, havosining ifloslanishi, qurg‘oqchilik va sahrolashish tobora kuchayishi ehtimoli allaqachon jiddiy tashvishlarni uyg‘otib bo‘lgan, millionlab aholisi ekologik migrantlarga aylanishiga oid bashoratlar yangrab bo‘lgan mintaqa.

Deyarli qurib bitishi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik fojega qiyos berilgan Orol dengizi ham Markaziy Osiyo - O‘zbekiston va Qozog‘iston hududida joylashgan. Aksariyat davlatlari tabiiy energiya zaxiralari - neft va gazga boy. Mintaqada havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar

ko‘pdir. So‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni ikki marta ortgan. Mintaqada havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘pdir. So‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni ikki marta ortgan.

Shavkat Mirziyoev, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining o‘tgan yili Dubayda bo‘lib o‘tgan xuddi shunday anjumanida ham barchaning e’tiborini mintaqaga tortgan.O‘zbekiston prezidenti o‘shanda iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurganini aytgan.U bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta’sir ko‘rsatayotganligini ta’kidlagan.Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojeasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa sezilayotganini qayd etgan. Mintaqada havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘pdir. So‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni ikki marta ortgan, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib yo‘qolgan. Mintaqa hududida tuproq yemirilishi jarayonlari 30 milliondan ziyod aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylanib bormoqda.Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligida hosildorlikning keskin pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Shavkat Mirziyoev shunday derkan, global xavflar keng mintaqada xatarli nuqtaga yetib kelayotgani bilan ham ogohlantirgandi.

O‘zbekiston prezidentining ham Dubay va ham Bokudagi chiqishlari tafsilotlaridan ma’lum bo‘lishicha, “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasi bo‘lib qoladi.Shavkat Mirziyoev Bokuda O‘zbekiston umumiy farovonlik va uzoq muddatli “yashil” taraqqiyot yo‘lida ochiq muloqot va amaliy sheriklikka doim tayyor ekaniligini bildirgan.Rasmiy xabarlarga ko‘ra, O‘zbekiston prezidenti global iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini birgalikda yengib o‘tish maqsadida qator tashabbuslarni ham ilgari surgan.Jumladan, iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish taklifi va BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash sohasida majburiyatlar to‘g‘risidagi Deklaratsiyani ishlab chiqish tashabbusini ilgari surgan.Ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston rahbari atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq xatarlarni qisqartirish va transchegaraviy suv resurslari masalalarida yagona yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ham qayd etgan. Olinayotgan xabarlarga ko‘ra, Bokuda aksariyat Markaziy Osiyo liderlari ham o‘zlarining chiqishlarini yakunlab bo‘lishgan, ular ham global iqlim o‘zgarishiga qarshi birgalikda kurashishga chaqirishgan.Qozog‘iston prezidenti ham Markaziy Osiyo global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ko‘plab xavf-xatarlarga duch kelayotganligini aytgan.Qasim Jomart Toqaev iqlim o‘zgarishiga qarshi choralar samaradorligini oshirish uchun ilg‘or texnologiyalardan faol foydalanishlari lozimligini ta’kidlagan.Ular sifatida esa, sun’iy intellekt, sun’iy yo‘ldosh kuzatuvi, oldindan ogohlantirish, suv va yer resurslarini samaraliroq boshqarishni ta’minlaydigan boshqa raqamli vositalarni tilga olgan.Anjumanda so‘zga chiqqan Tojikiston prezidenti sur’ati va tabiatini nazarda tutarkan, iqlim muammolari va tahdidlarining o‘zlari ko‘rayotgan choralardan ko‘ra jadal va kuchliroqligi aniq ekanini e’tirof etgan.

Emomali Rahmon iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni, ayniqsa, maxsus loyihalarni moliyalashtirish va suv resurslarini muhofaza qilish orqali kuchaytirish zarurligini ta’kidlagan.Qirg‘iziston prezidenti ham Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Parij

shartnomasida qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun “muvofiqlashtirilgan va yaxshi moliyalashtirilgan sa’y-harakatlar”ga chaqirgan.Sadir Japarovning aytishicha, iqlim o‘zgarishi bugungi kunda, ayniqsa, muzliklari, suv resurslari, qishloq xo‘jaligi va umuman, odamlarining turmush tarziga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib bo‘lgan.

Tojikiston va Qirg‘izistonning muzliklari shundoq ham suv taqchil mintaqaning suv ta’minotida beqiyos o‘rin tutadi. Bokudagi iqlim sammitida o‘zi Afg‘onistonda qudratga qaytgan so‘nggi uch yil ichida ilk bor Tolibon hukumati hay’ati ham ishtirok etgan.Afg‘oniston dunyodagi global iqlim o‘zgarishidan eng ko‘p aziyat chekishi mumkin bo‘lgan oltita davlatdan bittasi bo‘ladi.Mamlakatning aksariyat qismi qaqshatqich qurg‘oqchilik, suv toshqinlari va oziq-ovqat taqchilligi xavfi qarshisida qolgan.

Tolibon hukumati global iqlim o‘zgarishiga bag‘ishlangan bu kabi oliymaqom yig‘inlarda o‘zlarining ham ishtiroklari muhimligini ta’kidlagan. Afg‘onistonga xalqaro yordam lozimligini aytgan.Ammo o‘zi tan olinishi uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan ilgari surilgan shartlarni hali-hanuz bajarmagan.Yuritayotgan siyosati bois, Afg‘onistonga berib kelinayotgan xorijiy yordamlar keskin qisqargan.Afg‘oniston shimolida qurg‘oqchilik oqibatlarini yumshatish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida Tolibon hukumati Amudaryodan tortayotgan yangi kanal qurilish ishlari ham Markaziy Osiyodagi ekologik vaziyatni yanada og‘irlashtiradi, suv yanada taqchillashadi, mintaqaviy mojaro kuchayadi, degan xavotirlarni paydo qilmay qo‘ymagan. Iqtisodi нефть-gaz eksportiga asoslangan Ozarbayjon poytaxti Bakuda BMTning iqlim o‘zgarishi masalasiga bag‘ishlangan yillik konferentsiyasi – COP29 rasman ish boshlagan.11 noyabrdan 22 noyabrga qadar davom etuvchi bu yirik xalqaro tadbir.2024 yil hisobi yuritilayotgan tarixdagi eng issiq yilga aylanish arafasida turgan bir paytda ochilgan.

Shuningdek, iqlim o‘zgarishini yuzaga keltirayotgan omillarni qanday bartaraf etish yo‘llari muhokama etiladigan mazkur xalqaro yig‘inni o‘tkazish uchun iqtisodiyoti qazilma yoqilg‘i boyliklariga asoslangan Ozarbayjon tanlangani ko‘pchilikning tanqidiga sabab bo‘lgan.Ozarbayjonning COP29’dagi jamoasi rahbari konferentsiyadan нефть-gaz loyihalari bo‘yicha kelishuvlarga erishish yo‘lida foydalanganiga uringani esa tanqidlarni yanada kuchaytirgan. Negaki, iqtisodiyotning xavfsizligi holati turli ijtimoiy - iqtisodiy qarorlar qabul qilishda orientir bo’lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tizimdagi har qanday o’zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo’lishi bilan birga kechadi. SHuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, unga bo’ladigan turli tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi. [332]Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining muqaddimasida “xavfsizlik”, “barqarorlik” va “sobitqadam rivojlanish” kabi tushunchalar do’stlik va hamkorlikning ramzi ekanligi va “aynan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor” yaratishini alohida ta’kidlab o’tganlar. SHuning uchun ham O’zbekiston o’zining mustaqil taraqqiyoti davomida xavfsizlikni, barcha sohalarda barqarorlik va

[332] Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining muqaddimasida “xavfsizlik”, “barqarorlik” va “sobitqadam rivojlanish” kabi tushunchalar do’stlik va hamkorlikning ramzi ekanligi va “aynan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor” yaratishini alohida ta’kidlab o’tganlar

taraqqiyotni ta’minlash borasida izchil siyosat olib bordi va bu ishlar davom ettirilmoqda. Inson hayot faoliyatining barcha sohalarida u yoki bu darajada ta’sir ko’rsatadigan xavf-xatarlar mavjud bo’lib, shu faoliyatni amalga oshirishda, yaqin va uzoqni ko’zlab, maqsadlar qo’yishda ularni hisobga olish kerak bo’ladi. Aks holda ushbu xavf-xatarlar real tahdidga aylanib, jamiyatdagi barqarorlikka putur yetkazishi mumkin. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish yo’nalishlarini belgilashda, ijtimoiy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ularning oqibatlarini xavfsizlik nuqtai-nazaridan tahlil qilmasdan va baholamasdan turib biror bir yo’nalishga ustuvorlik berish davlat va jamiyatning hayot faoliyatini ta’minlovchi tizimlarning parokandaligiga olib kelishi mumkin. Mintaqaviy va lokal urushlar, texnogen xarakterga ega bo’lgan halokatlar, dunyoning bir mamlakatida boshlanib, tezlik bilan boshqa mamlakatlarga ham tarqalayotgan inqirozlar, terroristik aktlar ham milliy, ham xalqaro darajalarda xavfsizlikni ta’minlashning zaruriyatini cheksiz oshirmoqda.

Keyingi yillarda iqtisodiy xavfsizlik muammolari siyosiy arboblar, olimlar va tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilib kelmoqda. Xavfsizlik masalalari qadimdan faylasuflar, iqtisodchi va siyosatchilar, jumladan, Demokrit, Aristotel, Platon kabi allomalarni ham o’ylantirgan. O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mamlakatning har sohasida yuksalishini asosiy shartlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, “ushbu dolzarb masalada yengil fikrlash yoki muqarrar xavfga bepisandlik bilan qarash, uni kamaytirib ko’rsatish qanday oqibatlarga olib kelganligi haqida tarixdan istalgancha misollar keltirish mumkin”. Tahlilchilar nazarida Markaziy Osiyo qudratli davlatlarning geosiyosiy manfaatlari doirasida qolmoqda. Mintaqada Amerika, Rossiya va Xitoy o’rtasida o’ziga xos kurash ketmoqda.

O‘zbekiston o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ko‘p asrlik mustaqil va teng masofadagi tashqi siyosatni yuritishga qaror qildi. Natijada Toshkent mintaqadagi barqarorlik kafolatiga aylandi.YeI va AQSh mintaqada o‘zaro munosabatlarning qo‘shma maydonini yaratishga urinmoqda. Bu maydon Markaziy Osiyoning XIX -asrda bo‘lgani kabi “Katta o‘yin”[333] kurashi arenasiga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi. G‘arbning mintaqa ishlarida O‘zbekistonning strategik ahamiyatini hisobga olishiga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik borasidagi tahdidlarni bartaraf qilishning eng oqilona yo‘li davlatlar va ularning mintaqaviy integrallashuvini mustahkamlashdir. Buning asosida kafolati va markazi O‘zbekiston bo‘lgan mintaqa barqarorligini ta’minlovchi birlashmani yaratish yotadi. Chunki, istalgan hudud, jumladan Markaziy Osiyoda geosiyosiy vakuum hosil bo‘lgan taqdirda, boshqa davlatlarning aralashuvi ehtimoli o‘sib boradi va bu butun mintaqadagi barqarorlikka salbiy ta’sir qiladi. Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonning ilmiy asoslarga ega bo‘lgan qulay geografik joylashuvi uning geosiyosatining asosini tashkil etadi. Qulay geografik joylashuv Geosiyosatning muxim omillaridan biridir, bu borada Napaleon Bonapart quyidagi fikrni keltirgan “Mamlakatning geografik joylashuvi uning tashqi siyosatini belgilovchi muxim omildir”. Doimo O‘zbekiston geosiyosati va tashqi siyosatining asosiy fonida Markaziy Osiyo va Afg‘oniston mintaqalari bo‘lishi kerak, chunki O‘zbekiston bu mintaqalarni tutashtiruvchi oliy bo‘g‘indir va O‘zbekiston uchun bu mintaqalarning xavfsizligi va barkamolligi nihoyatda muxim, chunki Markaziy Osiyo va Afg‘oniston xavfsizligi bevosita

[333] “Katta o‘yin” (The Great Game) deb XIX asrda Rossiya hamda Buyuk Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi kolonial urushlardagi raqobatga aytiladi.

Oʻzbekiston xavfsizligi ularning istiqboli Oʻzbekiston istiqbolidir. Oʻzbekiston Markaziy Osiyo va Afgʻonistonda oʻz geosiyosiy manfaatlarini qondira olmasa, jahon geosiyosatida bir shaklda oʻz oʻrnini yoqotadi deb oʻylayman. Shuning uchun Oʻzbekiston bu mintaqalarda dunyo siyosiy maydonidagi yirik figuralar ta`sirini jilovlab turishi zarur. Markaziy Osiyo, Afgʻoniston kabi mintaqalarda Xitoy, Rossiya, AQSH ta`sirini oshib ketishiga yoʻl qoʻymaslik koʻproq Oʻzbekiston zimmasida dep oʻylayman, chunki Oʻzbekiston mintaqada liderlikka da`vo qiluvchi davlatlardan biridir. Bu makon, Markaziy Osiyo va Afgʻoniston hududlari doim dunyo siyosiy maydonidagi yirik figuralar e`tiborini tortib kelgan va bundan keyin ham shunday boʻlib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allayorov Isroil Xaykalovich, A. I. X. (2019). O'zbekiston Markaziy Osiyo geosiyosiy maydonida asosiy davlat. Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари
2. https://ejournal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/25
3. https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/31/year-in-review/
4. E.O. G`apparov.Geosiyosat asoslari fani bo`yicha maruza matni.Namangan 2023-B.19
5. S.A.Rafikovich. Geosiyosat asoslari o`quv qo`llanma. Samarqand 2020-B.165

8-SHO‘BA: SIFATLI TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING SIYOSIY MOHIYATI

I.N. Islamov *- O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi kafedra mudiri, t.f.d., professor*

ZAMONAVIY SIYOSUY KASBLAR KATALOGI

Hozirgi davrda siyosiy voqeliklarga, yangiliklarga va siyosat bilan shug‘ullanishga qiziqishlar kuchayib bormoqda. Siyosatshunos kasbi avvalgi vaqtlarda oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish orqali o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, axborot almashinuv imkoniyatlarining kengayishi natijasida siyosatshunoslikning turli kasblarga ixtisoslashuvi va ommalashuvi yuzaga kelmoqda.

Aytish mumkinki, siyosat ko‘pchilikni qiziqtirgan bilan, u bilan ba’zilar professional tarzda shug‘ullanadilar, ya’ni, bu ularning asosiy daromad manbai hisoblanadi. Bu faoliyat nafaqat siyosatchilarni, balki rahbarlik lavozimida ishlovchilar, davlat boshqaruvidagilar, siyosiy maslahatchilar, jurnalistlar, siyosiy publitsistlar yoki mafkurachilar, partiya xodimlari, saylov texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislar va mustaqil tahlilchilarni ham o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda 90-yillarning boshlarida siyosiy yo‘nalishda kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ammo 2009-2019-yillarda siyosiy fanlarni o‘qitish, siyosatshunos mutaxassislar tayyorlash va ushbu yo‘nalishda ilmiy-pedagogik kadrlar yetkazish borasidagi uzilishlar bo‘ldi. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali siyosatshunoslar tayyorlashga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Keyingi yillarda esa, siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda . Shunday bo‘lsa-da, fan sohasidagi hozirgi holat siyosiy kasblar bozori talablariga nomutanosib holatligicha qolmoqda.

Ta’kidlash joizki, siyosiy kasblar bozorining talablari hozirgi vaqtda siyosiy kommunikatsiyalarning rivojlanishi, ichki va tashqi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta’sirida o‘zgarib bormoqda. Bu esa siyosiy kasblar bozorida bir qancha yangi kasblarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Mavjud zamonaviy siyosiy kasblardan kelib chiqqan holda ularni akademik, tahlilchilik va amaliy faoliyati bilan shug‘ullanuvchi quyidagi siyosiy kasblarga ajratish maqsadga muvofiq[334].

Siyosiy yo‘nalishdagi akademik kasblar:

1. Siyosiy fanlari o‘qituvchisi – bu oliy o‘quv yurtlari va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida siyosatshunoslikdan va boshqa siyosiy fanlardan dars beradigan mutaxassis. U siyosiy nazariya, siyosiy tizimlar tarixi, siyosiy iqtisod, xalqaro munosabatlar va boshqa tegishli fanlar bo‘yicha chuqur bilimlarga ega mutaxassis hisoblanadi.

2. Siyosatshunos tarixchi – bu o‘tgan davrdagi siyosiy tizimlar, hodisalar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq va tahlil etuvchi mutaxassisdir.

[334] Islomov I.N., Xamdamov A.K., Yalgashev B.M., Siyosiy fanlar va kasblar katalogi – T.: «Complex Print», 2025. – 188 b.

3. Siyosiy psixolog – millatlar, sinflar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning siyosiy ongi darajasida shakllanadigan hamda ularning siyosiy harakatlarida amalga oshiriladigan jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik tarkibiy qismlarni (ommaviy kayfiyat, siyosiy ijtimoiylashuv, fikrlar, hissiyotlar, qadriyatlar) o‘rganadigan mutaxassis.

4. Siyosiy sotsiolog – bu siyosiy jarayonlar va ijtimoiy strukturalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi mutaxassis hisoblanadi. U siyosiy tizim, siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy sinflar, guruhlar va ularning jamiyat siyosiy hayotiga ta’sirini tahlil qiladi.

5. Siyosatshunos-tadqiqotchi – siyosiy tizimlar, jarayonlar, institutlar va xatti-harakatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan mutaxassis. U siyosiy hodisalarni tahlil qiladi, tadqiqotlar olib boradi, ma’lumotlar to‘playdi hamda siyosatning turli darajalarda (mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda) qanday amal qilishini tushunishga yordam beradigan xulosalar chiqaradi.

Siyosiy yo‘nalishdagi tahlilchilikka oid kasblar:

6. Siyosiy tahlilchi – davlat siyosatini tahlil qiluvchi, maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassis. Shuningdek, faoliyati davomida ijtimoiy-siyosiy hayot ishtirokchilarining siyosiy talablarini aniqlaydi va turli siyosiy aktorlarning harakatlarini optimallashtiradigan strategiya va taktikalar to‘plamini ishlab chiqadi.

7. Siyosiy sharhlovchi – siyosiy va ijtimoiy voqealarni chuqur o‘rganish hamda tahlil qilish, olingan ma’lumotlarni keng xalq ommasiga sharhlab berish bilan shug‘ullanadigan mutaxassis.

8. Siyosiy ekspert – siyosiy vaziyat va voqelik to‘g‘risida chuqur bilimlarga ega bo‘lgan va amaliyotda dolzarb muammolarni hal qilishda ulardan optimal tarzda foydalana oladigan mutaxassis. Muayyan siyosat subyektlar manfaatlarini hisobga olib, islohotlar, voqeliklar, bayonot, tayinlash yoki saylovda g‘alaba qozonishining ahamiyatini maqsadli auditoriyaga tushuntirishga chaqirilgan maslahatchi.

9. Siyosiy strateg – siyosiy maqsadlarga erishish uchun strategiyalarni ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan mutaxassisdir. Davlat institutlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va boshqa uyushgan siyosiy subyektlarni ma’lum bir davr uchun o‘z oldiga qo‘ygan asosiy siyosiy maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan keng ko‘lamli qarorlar va asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilab beruvchi shaxs. Siyosiy strateg kasbi ko‘p jihatdan siyosiy tahlilchi kasbi bilan mos keladi.

10. Siyosiy marketolog – siyosatchilar, siyosiy subyektlarning o‘z sohasining bozorda joylashishi va strategiyalarini bajarish usullarini, shu jumladan maqsadli guruhlarning tutgan pozitsiyalari hamda munosabatlarini o‘rganadigan mutaxassis.

11. Siyosiy menejer – siyosiy menejer siyosiy kampaniya davomida to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda, keskin raqobat kurashida o‘tkaziladigan siyosiy jarayonlar va saylov kampaniyalarini boshqaruvchi mutaxassis.

Siyosiy yo‘nalishda amaliyot bilan shug‘ullanuvchi kasblar:

12. Siyosiy texnolog – siyosiy texnologiyalarni amalda qo‘llay oladigan mutaxassis. Siyosiy texnologlar jamoatchilik fikrini tahlil qiladi, ma’lumot to‘playdi va aholi fikriga ta’sir ko‘rsatishda ommaviy axborot vositalari hamda Internetdan samarali foydalanadi.

13. Siyosatshunos-imijmeyker – bu mijozning siyosiy imijini shakllantirish sohasidagi mutaxassis. Siyosatchi jamoasining doimiy a’zosi. Hokimiyat

xizmatchisining jozibali qiyofasini yaratishga yordam beradi, PR-bo‘limlari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Bunday mutaxassislarga saylov kampaniyalari davrida ehtiyoj oshadi;

14. Siyosiy konsultant (maslahatchi) – siyosatchilar, siyosiy liderlar uchun amaliy takliflar va tavsiyalar beradigan shaxs. Shuningdek, kasbiy faoliyati davomida boshqa bir qator vazifalarni, jumladan siyosiy faoliyatning ma’lum bir yo‘nalishini shakllantirishga va amalga oshirishga yordam beradigan xodim.

15. Diplomat – chet el mamlakatlari bilan aloqada bo‘lish yoki muzokaralar olib borish uchun hukumat tomonidan tashqi ishlar muassasasining vakil qilingan lavozimli xodimi.

16. Davlat xizmatchisi kasbi turli darajadagi – mahalliy hokimiyatlardan tortib markaziy davlat muassasalarigacha bo‘lgan davlat hokimiyati organlari va ma’muriyatlarida ishlash bilan bog‘liq lavozimlar hamda majburiyatlarning keng doirasini qamrab oladi.

17. Siyosiy spichrayter – bu siyosiy yetakchilar va partiya rahbarlari uchun nutqlar hamda matnlar yaratish bilan shug‘ullanadigan professional mutaxassisdir. U siyosiy kampaniyalar uchun konsepsiya va g‘oyalarni ishlab chiqadi, ommaviy tadbirlarda chiqishlar, intervyular, maqolalar hamda boshqa materiallar uchun nutqlar yozadi.

18. Nodavlat notijorat tashkilotlar xodimi – NNT xodimlari faoliyatining muhim jihatlaridan biri ularning ijtimoiy, ekologik va gumanitar muammolarni hal qilish uchun resurslarni safarbar qilish hamda mahalliy jamoalar bilan faol hamkorlik qilish qobiliyatidir.

19. Xalqaro nodavlat tashkilotlar xodimi inson huquqlarini himoya qilish, barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, gumanitar yordam yoki ta’limni rivojlantirish kabi global muammolarni hal qilish bilan bog‘liq sohada ishlaydi.

20. Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha konsultant – Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha konsultant (yoki PR menejer) – turli kompaniya va tashkilotlarga o‘z obro‘-e’tiborini ortishiga va jamoatchilik bilan samarali aloqalarni o‘rnatishga mas’ul bo‘lgan mutaxassisdir.

21. Jurnalist–siyosatshunos – Jurnalist-siyosatshunos siyosiy jarayonlar va hodisalarni tahlil qilish, ularni OAVda yoritish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassisdir. U murakkab siyosiy informatsiyani keng xalq ommasiga yetkazishda o‘z siyosiy nazariya va amaliyot sohasidagi bilimlaridan foydalanadi.

22. Deputat – bu fuqarolarning manfaatlarini qonun chiqaruvchi organlarda, masalan, Oliy Majlis, mahalliy yoki hududiy parlamentlarda himoya qilish bilan shug‘ullanadi.

23. Deputat yordamchisi – Deputatning yordamchisi – deputatning uni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatgan siyosiy partiya, uning tegishli saylov okrugidagi hududiy bo‘limi hamda saylovchilar bilan samarali aloqa o‘rnatishiga ko‘maklashuvchi xodim.

24. Siyosiy partiyalar xodimlari va ekspertlari partiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bularga partiyaning siyosiy maqsadlariga erishish uchun strategiya va taktikalarni ishlab chiquvchi siyosiy konsultantlar, siyosiy vaziyatni tahlil qiluvchi analitiklar, jamoatchilik bilan aloqalar olib boruvchi PR -mutaxassislar va boshqalar kiradi.

25. GR (Government Relations) menejeri – tashkilotning davlat hokimiyati organlari xodimlari bilan o‘zaro aloqalarini yuritish uchun mas’ul bo‘lgan mutaxassis. Bu kasb yangi va yuqori maoshli hisoblanadi. Ushbu sohadagi mutaxassisning asosiy faoliyati muloqot qilish, ishbilarmonlik munosabatlarini o‘rnatish va nizolarni hal etish qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Yuqorida keltirilgan siyosiy kasblar ro‘yxati tugallangan emas, ularning soni ko‘payishi va kamayishi kasblar bozoridagi taklif va talab qonuniyati bo‘yicha o‘zgarib turadi.

Jahonda yuz berayotgan global siyosiy o‘zgarishlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bo‘lajak siyosatshunos mutaxassislardan yangi malakaviy talablarni o‘zlashtirishni talab etmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda zamonaviy kadrlar bozoridagi siyosatshunoslarga talab-ehtiyojni hisobga olib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- siyosatshunos kadrlar mehnat faoliyatini rivojlantirish uchun «Siyosiy kasblar reyestri»ni tuzish va uni davlat organlariga tasdiqlash uchun kiritish[335];

- siyosatshunoslik yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlovchi nodavlat ta’lim muassasalari va nodavlat siyosiy tahlil markazlarini ochish uchun imtiyozlar berish orqali raqobat muhitini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

9. Islomov I.N., Xamdamov A.K., Yalgashev B.M., Siyosiy fanlar va kasblar katalogi – T.: «Complex Print», 2025. – 188 b.

10. Qirg‘izboev M., Islamov I. Zamonaviy kadrlar bozorida siyosatshunoslarga ehtiyojning o‘rganilishiga doir mulohazalar // Siyosiy fanlar sohasida tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: «Complex Print», 2022. – B. 8-13.

R.G‘.Jumayev **–** *Buxoro davlat universiteti professori, s.f.f.d.*

SIYOSATSHUNOSLIK O‘QITISH TA’LIMIDA “INTEGRATIV BINAR-DIALOGLI MA’RUZALAR”NI TASHKIL ETISH METODIKASI

Oliy ta’limning davlat ta’lim standartida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar metodik fanlardan quyidagi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi lozim: mutafakkirlar merosidan foydalana bilish; darslarda amaliy ishlarni tashkil etish; darslarni integratsiyalash; ta’lim texnologiyalarini qo‘llay olish; fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish; fanlararo aloqadorlikni o‘quv jarayoniga tatbiq etish; interfaol metodlar bilan ishlay olish; darslarda internet manbalarini qo‘llash; nazariy va amaliy bilimlarning uzviyligini ta’minlash; yangi bilim berish jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash; dars jarayonida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish; innovasion metodlarni qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Talabalar nazariy-metodik tayyorgarligida mutaxassislik fanlaridan metodik bilim, ko‘nikmaga ega ekanligi muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki,

[335] Qirg‘izboev M., Islamov I. Zamonaviy kadrlar bozorida siyosatshunoslarga ehtiyojning o‘rganilishiga doir mulohazalar // Siyosiy fanlar sohasida tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: «Complex Print», 2022. – B. 8-13.

talabalar pedagogik faoliyatlarida bilimlarni talabalarga yetkaza olish malakasiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Mazkur vaziyatda esa nazariy-metodik ko‘nikmaga egalik muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish bugungi kunning zarurati hisoblanadi. Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarda talabalarning o‘z mutaxassisligi doirasida bilimlar bilan birga, fanlararo bog‘liqlik imkoniyatiga hamda faoliyat jarayonida foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Bugungi kunda talabalarga ta’lim metodikalarini aloqadorlikda o‘qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlili natijalari dalolat beradiki, ularning nazariy-metodik tafakkuri, tayyorgarlik darajasi o‘quv fanlarda rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyalarini qabul qilish va mustaqil integrativ faoliyat olib borishga tayyor emas. Fikrimizcha, siyosatshunoslik yo‘nalishi talabalarida mobillik, moslashuvchanlik, integrativlik qirralari yetishmaydi.

Bugungi kunda talabalarning nazariy-metodik tayyorgarlik darajasini yetarli rivojlantira olmaslikning bir qator omillari ko‘zga tashlanadi:

- birinchidan, nazariy-metodik tayyorlashga metodik, ixtisoslashtirilgan va gumanitar fanlar o‘rtasida integrativ aloqadorlik yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;
- talabalarning ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirgan bilimlari mustaqil ta’lim hamda pedagogik amaliyot jarayonida tizimli foydalana olinmayotgani, nomutanosiblik ko‘zga tashlanib turishi;
- nazariy-metodik tayyorgarlikning nazariy va amaliy qismi o‘rtasidagi optimal nisbat masalasi hanuz hal etilmaganligi;
- talabalarni nazariy-metodik tayyorlashda ularning integratsiyalashuv qobiliyatini shakllantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligi;
- talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga imkon beruvchi fanlararo aloqadorlikni o‘rganish amaliyoti deyarli mavjud emasligi;
- oliy ta’limning o‘quv dasturlarida siyosatshunoslik fani o‘qituvchilarini kasbga tayyorlashning integrativ jihatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligi.

Nazariy tayyorgarlik qanchalik chuqurlashtirilmasin, unga qanchalar ko‘p o‘quv soatlari va fanlar ajratilmasin, uning o‘zi kelgusi nazariy-metodik faoliyatning ilmiy asosi bo‘la olmaydi. Chunki talabaning erkin improvizasiyasiga, talabalar bilan muloqot amaliyotida shaxsning butun salohiyati namoyon bo‘lishiga imkon bermaydi. Mazkur tahlil qilingan kamchiliklarni bartaraf etishda talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasiga integrativ nuqtai nazardan yondashish uni hal qilish bo‘yicha qator imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda integrativ darslarni tashkil etishda bir qator muammolar ko‘zga tashlanadi. Bular:

- integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etish yo‘llari sirtdan qaraganda takror qo‘llaniladi. Bu esa innovasion g‘oyalar taklif etishga hamda yangi ilmiy asos yaratishda muammolarni yuzaga keltiradi.
- integratsiyalashgan darslar fanlararo bog‘liqlik darajasida namoyon bo‘lmaydi. Bizningcha, ular fanlararo aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi komponentlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.
- integratsiyalashgan darslar o‘quv rejasining o‘zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

- integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatmalarning yetarli emasligi integratsiyalashgan darslarning tashkil etilishida muammolarni yuzaga keltiradi.

- fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etiladigan darslarni tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilarni maqsadga muvofiq hamda rejali o‘qitish va tayyorlash tizimi hal etilmagan.

Fikrimizcha, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish bir qator yangi tadqiqotlarni talab etadi. Biz tadqiqotimiz muammosi yuzasidan talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishda mutaxassislik fanlari mazmuniga singdirilgan mavzularni maxsus dastur asosida tashkil etishga harakat qilamiz. Mazkur dastur **“Binar-dialogli ma’ruza”** deb nomlanib, uning tuzilishi 1-jadvalda o‘z ifodasini topgan.

1-jadval

“Binar – dialogli ma’ruza” integrativ dasturi

№	**INTEGRATIV FANLAR**			**Ajratilgan soat**	
1	Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi	Mutaxassislikka kirish	Siyosat nazariyasi va metodolo-giyasi	Nazariy/ amaliy	Soat
2	Siyosatshunoslik ta’limining shakl va metodlari	O‘qitish metodlari	Siyosiy ta’limotlar tarixi	*N*	*2*
3	Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish	Siyosatshunosli kdan o‘quv ishlarini tashkil etish shakllari.	*N/A*	*4*
4	Siyosatshunoslik o‘quv fani bo‘yicha ma’ruza tayyorlash va o‘tkazish.	Ma’ruzada o‘qituvchi va talabalarga qo‘yiladigan talablar	Didaktika	*N*	*2*
5	Siyosiy ta’limda zamonaviy o‘qitish metodlari	Zamonaviy o‘qitish klassifikasiyasi	Umumiy pedagogika	*N/A*	*4*
	JAMI:				**12**

Belgilangan ma’ruzalar keng hajmli ilmiy ma’lumotlarni talabalarga yetkazishning an’anaviy shakli hisoblanadi. Ma’ruza darslarini tashkil etish samaradorligini oshirish borasida doimiy izlanishlar olib boriladi.

“Binar-dialogli ma’ruza” orqali talabalar nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritib berishga harakat qilamiz. Jumladan, integratsiyalashgan binar – dialogli ma’ruzalar bugungi kunda samara beradigan zamonaviy ma’ruza turi hisoblanadi. Mazkur ma’ruza o‘z tinglovchisiga ega bo‘lishi bilan bir qatorda har bir talabaning bilim o‘zlashtirish jarayonida yangi materiallarni hissiy-emosional tarzda qabul qilishlariga yetarli imkoniyat yaratadi. Binar ma’ruzaga “ma’ruza o‘qishning alohida bir turi bo‘lib, u ikki ma’ruzachining dialogi

tarzida o‘tkaziladi. Unda ikki yondosh fan mutaxassislari, nazariyachi va amaliyotchi yoki ikki ilmiy maktab a’zolari ishtirok etadilar” deb ta’rif beriladi.

“Binar-dialogli ma’ruza” asosiy fan doirasida ma’ruza materiallari elementlari tuzilmasiga ikkinchi fan yuzasidan manbalarni taqdim etish usuli ham hisoblanadi. Bu ma’ruzaning mohiyati shundaki, “ta’lim jarayonining har bir asosiy komponentining umumiy tuzilishiga aloqador fan manbasi birlashtiriladi”.

“Binar-dialogli ma’ruza” o‘rganilayotgan muammo doirasida, asosiy tarkibiy qismlarni integratsiyalashgan yaxlitlikka kiritish usuli bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechta bilim (faoliyat) sohasini tahlil qilish funksiyasiga ega. Tahlil qilish natijasida esa integrasion bilimlarning shakllanish imkoniyati paydo bo‘ladi.



O‘Q+BO‘+T=G‘SD

O‘qituvchi+binar o‘qituvchi+talaba = g‘oyaviy siyosiy dunyoqarash

3.1-rasm. “Binar-dialogli ma’ruza” chizmasi.

“Binar-dialogli ma’ruza” mashg‘ulotini tashkil etishda, masalan, “Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” fanida “Siyosatshunoslik ta’limining shakl va metodlari” mavzusi o‘rganiladi. Mavzu mohiyatini fanlararo aloqadorlikda yoritib berishning mazmuni o‘qituvchidan “Siyosat nazariyasi va metodologiyasi”, “Siyosiy ta’limotlar tarixi” fanlaridagi “Ma’ruzada o‘qituvchi va talabalarga qo‘yiladigan talablar” mavzularni o‘zlashtirishni talab etadi. Tabiiyki, bu bilim turlarining tarkibiy qismlarining oddiy yig‘ilishini emas, balki o‘quv materialini taqdim etish va assimilyatsiya qilish jarayonida ularning organik sintezini nazarda tutadi.

“Binar-dialogli ma’ruza”ga misol sifatida “Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” fani misolida quyidagicha ko‘rsatish mumkin: binar dialogli ma’ruza davomida o‘qituvchi (SO‘M) tomonidan berilgan, dalillangan, tasvirlangan o‘quv materiallari yondosh fan (SNM) o‘qituvchisi tanlagan materiallar bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu bilan birga, konsepsiyalarni shakllantirishda birlik, izchillik va uzluksizlikka erishiladi, materiallar takrorlanmaydi, muhimi, binar usulidagi mashg‘ulot payti talabalarda bu mavzuni o‘rganishga qiziqish va xohish kuchayadi. “Binar-dialogli ma’ruza”da o‘quv fanlari bilan integratsiyalashuv munosabatlari uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

I. Eng yuqori – yaxlitlik darajasi, bunda yangi integratsiyalashgan mavzu doirasida to‘liq mazmunli va prosessual integratsiya mavjud (masalan, “SO‘M va SNM”);

II. Didaktik sintez darajasi, bunda har bir obyekt saqlab qolinadi va integratsiya ulardan bittasi asosida amalga oshiriladi. Bunda integrasion omil umumiy o‘rganish obyektlari hisoblanadi;

III. Subyektlararo aloqalar darajasi, bunda obyektlar tarkibining umumiy elementlari birlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Eng istiqbolli va samarali muloqot didaktik sintez darajasi hisoblanadi. “Binar-dialogli ma’ruza” darslarida, integratsiya o‘rtasida aniq mazmunli izchillik mavjud bo‘lib, ikki xil yo‘nalishlar har biri alohida harakat qilmasligi, bir-birini organik ravishda to‘ldirishi muhim hisoblanadi.

“Binar-dialogli ma’ruza”da o‘qituvchilar fanlararo aloqadorlikka asoslangan integrasion masalalar, integrasion vazifalar va integrasion vaziyatlarni taqdim etishlari muhim hisoblanadi. Jumladan, talabalar integrasion xarakterdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida fanlararo bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek:

a) turli fanlardan olingan bilimlarini muammoni hal etishga jalb etish;

b) mavjud kasbiy tajribaga tayangan holda mustaqil o‘zlashtirish jarayonidagi bilimlar bilan yangi o‘zlashtirgan tushunchalarning kombinasiyasiga erishish;

d) ta’limotlar, hodisalar, tushunchalar, ta’limotlar, dunyoqarash va boshqalarni solishtirish, taqqoslash, qarama-qarshiliklardan foydalanish.

Integrasion savollar quyidagicha namoyon bo‘ladi: “Aytaylik, siz “Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” va “Siyosiy ta’limotlar tarixi” bir-biridan farq qiladi deb bilasizmi va ulardagi o‘zaro aloqador nuqtalarni birlashtira olasizmi?”

“Binar-dialogli ma’ruza” so‘ngida ekspress savollardan foydalanish maqsadga muvofiq (5-7 daqiqa).

Integrativ vazifalar – nazariy-amaliy bilimlarni o‘zlashtirish va pedagogik faoliyatda samarali o‘rinni egallaydi va uning ikki komponenti o‘rtasida bog‘liqlik va muvofiqlashtirish jarayonini o‘rnatishni talab qiladi. Shunday qilib, nazariya va faoliyat bir-birini faol ravishda to‘ldirgan taqdirdagina integrativ vazifalarni bajarish mumkin. Bularga induktiv, qisman induktiv va deduktiv xarakterdagi murakkab kognitiv vazifalar kiradi. Integrativ vazifalar turli fan guruhlariga mansub hodisalarni taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, amalda foydalanish kabi tafakkur operasiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni talab qiladi. Masalan, talabalardan o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashni talab qiladigan vazifalar, texnik bilim va pedagogik bilimlarning xususiyatlari, ilmiy bilimlarning bu turlarining umumiy va farqlovchi xususiyatlarini aniqlashga doir vazifalar.

Ta’lim jarayonida integrativ yondashuv asosida talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda “Binar-dialogli ma’ruza” ta’lim subyektlari harakatlarining o‘zaro mosligini nazarda tutadi. Faoliyatda subyektlar harakati umumiylikka ega. Faqat subyektlar faoliyatlari mazmunan o‘zaro tavsiflanadi.

2-jadval

Binar-dialogli ma’ruza texnologik xaritasi

Bosqichlar	**Faoliyat mazmuni**		
	O‘qituvchi	**Yondosh fan o‘qituvchisi**	**Talaba**
1-bosqich. Maqsadli (10daqiqa)	1.1. *Tashkiliy boshlanish*. Talabalar davomati aniqlanadi. 1.2. Dars mashg‘ulotining mavzusi,	Mavzu mazmunini boshqa predmet asosida	Talabalar predmetlararo bog‘liqliklarni tushunib yetishlari,

	maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan talabalarni tanishtiradi.	rivojlantirish orqali motivasiya uyg‘ota olish	turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishga tayyorlanish
2-bosqich. Isbotlash (30 daqiqa)	2.1. O‘qituvchi talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi. Talabalarni ilmiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi bilimlarga turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag‘batlantiradi.	Mavzu doirasida o‘zaro aloqador materiallarni taklif qiladi.	Talabalar o‘z irodalarini bilimlarni aloqadorligini anglashga qaratadilar.
3-bosqich. Mazmun	3.1.Professor-o‘qituvchi yangi o‘quv materialini kiritadi.	Integrativ tushunchalar, dalillarni muammo majmui darajasidagi bilimlarni jalb qiladi.	Umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o‘zlashtiradilar.
4-bosqich. Vositalar tanlash	Professor-o‘qituvchi yangi mavzu yuzasidan ko‘rgazmali vositalar, darsliklar, tablisalar, sxemalar, savolnomalar, integrativ vazifalarni beradi	Turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi vaziyatli masalalarni taklif etadi	Umumlashtirish, aloqadorlik xususiyatlarini, masalalarni hal qilishda turli vositalar yordamida bajaradilar
5-bosqich. Natija	Ta’lim vazifalarini (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) maqsadida pedagogik , psixologik, ijtimoiy bilimlarni qo‘llaydi.	O‘zaro aloqadorlik asosida integrativ topshiriqlar tizimini taklif etadi.	Talabalar bilimlar tizimida umumlashtirib, ularni amalda qo‘llaydi.
6-bosqich Nazorat	O‘qituvchi bir- biri bilan bog‘langan predmetlarga talabalarning tayyorgarligini baholaydi.	Talabalarni o‘z fanidan olgan bilimlarini o‘rganilgan mavzu bilan bog‘lash darajasini nazorat qiladi, o‘zlashtirish sifatida baholaydi.	Talabalar turli predmetlar bo‘yicha o‘z-o‘zini ham, ularni uyg‘unlashtirish ko‘nikmalarini tahlil qiladilar.

Mazkur texnologik xaritaga tayanib “Binar-dialogli ma’ruza” ishlanmasini keltirib o‘tamiz. Buning uchun “Binar-dialogli ma’ruza” integrativ mashg‘ulotini rejalashtirib olish maqsadga muvofiq.

3-jadval

“Binar-dialogli ma’ruza” integrativ mashg‘ulotini rejalashtirish tuzilmasi

№	Asosiy fan	Yondosh fanlar	Integrallashgan mavzular	Innovasion texnologiyalar
1	Siyosatshunos-lik o‘qitish metodikasi	Siyosiy ta’limotlar tarixi; Siyosat nazariyasi va metodologiyasi	Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari; Siyosatshunoslik o‘quv fani bo‘yicha ma’ruza tayyorlash va o‘tkazish.	Sinkveyn Kubik Bino metodi Assisment texnikasi

“Binar-dialogli ma’ruza” bir qator shartlarga: bir darsda ikki yoki undan ortiq fanlardan materiallar sintezi; turli bilim sohalari mutaxassislarining darsda ishtirok etishi; munozara mavzusini tanlash, talabalarning turli xil, ba’zan bir-birini istisno qiladigan tushunchalar o‘rtasidagi umumiy bog‘lanish nuqtalarini topish talabiga asoslanadi. Integral yondashuv asosida talabalarning nazariy va uslubiy tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida integrativ amaliy mashg‘ulotlar hamda binar dialog kurslarini tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ham bajaradi.

M.M. Gaybiyeva *– Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Hududiy ta’lim muassasalari bilan ishlash bo’limi uslubchisi*

PROFESSIONAL TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

O‘zbekiston iqtisodiyoti bugungi kunda dunyodagi dinamik o‘sib, tobora kengayib borayotgan kam sonli iqtisodiyotlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning intensiv o‘sishi, zamonaviy tarmoq va sohalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi hisobiga kengayib borishi mamlakatda malakali ishchi kuchiga bo‘lgan talabni oshiradi. Qolaversa, O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi soni o‘sib bordi va hozirgi kunda ularning soni 20 milliondan ziyodni tashkil etmoqda. Shu bilan bir vaqtda, so‘nggi yillarda ta’lim sohasidagi keng ko‘lamli islohotlar natijasi o‘laroq, mamlakatda ta’lim bozori sezilarli o‘sdi va kengaydi. Sohada xususiy sektorning roli sezilarli oshdi. Oliy ta’limda qamrov darajasi yildan-yilga o‘sib borayotganiga qaramay, bugungi demografik fon oliy ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasida sezilarli nomutanosiblik haligacha saqlanib qolishiga turtki bo‘lmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan professional ta’limni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini yetarlicha malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash, oliy ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning qondirilmay qolgan qismini qisman bo‘lsa-da qoplash

va yoshlar bandligini ta’minlashning asosiy istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, zamonaviy mehnat bozori tomonidan mutaxassislarga qo‘yiladigan kun sayin o‘zgacha xususiyat kasb etib bormoqda, ishchi kuchiga miqdor va sifat jihatdan talablar tubdan o‘zgardi. Bu, o‘z navbatida, professional ta’limda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, yoshlarda mehnat bozorida eng ko‘p talab etiladigan zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ularni mehnat bozoridagi raqobatga tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bir ekanidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda respublikada uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, mehnat bozorining joriy tendensiyalariga mos, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’limning Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi tizimi, shu bilan birgalikda, tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari asosida faoliyat olib boruvchi ta’lim muassasalari tarmog‘i 2019-yildagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident farmoniga muvofiq yo‘lga qo‘yila boshlangan edi. Mazkur chora-tadbirlar 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi o‘laroq, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beruvchi malakali va raqobatdosh kadrlar tayyorlash, ilm-fan yutuqlarini amalga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish vositasida ta’lim tizimini isloh qilish yo‘lidagi dastlabki qadamlardan bo‘lib xizmat qildi.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining birinchi “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish”ga bag‘ishlangan yo‘nalishi doirasida mamlakatda professional ta’limni yanada rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar bu sohada olib borilayotgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, Strategiyaga muvofiq, Professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish ko‘zda tutilgan bo‘lib, zamonaviy mehnat bozori talablari ko‘nikmalarga asoslangan mezonlarga o‘tib borayotgan bir sharoitda g‘oyatda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Professional ta’limda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichiga to‘laqonli mos kelishi lozim. Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil o‘qish va shaxsini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish, taklif etilayotgan o‘quv dasturlarini ongli ravishda o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ta’limda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, xilma-xilligi ortib bormoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar, o‘quv jarayonini axborot-tahliliy ta’minlash, intellektual rivojlanish monitoringi, didaktik texnologiyalar shular jumlasidan.

Fan ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bugungi raqamli asrda jamiyat taraqqiyoti va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining hayotning barcha jabhalariga jadal kirib borayotganligi bilan izohlanadi. Bunday sharoitda ta’lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘rganishga qaratilgan yangi fanlarni o‘z ichiga oladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad — birinchi navbatda ta’limda kutilgan natijaga kamharj, tez va samarali usullar vositasida erishish, o‘quvchilarda AKT va raqamli texnologiyalar bilan ishlash savodxonligi va madaniyatini oshirish, shuningdek ularni axborotlar bilan ishlash, ularga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali turli axborot hurujlariga qarshi immunitet hosil qilishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar ta’lim jarayonida shaxsga ustuvorlik berishga asoslanadi. Ta’lim jarayoni shaxsning o‘ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olib, uning bor salohyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga, pirovardida uni shaxs sifatida rivojlantirishga qaratiladi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonlarida o‘quvchilar bilan ishlashda individual yondashish, ularning shaxsiyatini har tomonlama o‘rganish hamda ularga individual moslashtirilgan o‘qitish usullarini taklif etishni taqozo qiladi.

O‘quv jarayonini axborot-tahliliy ta’minlash o‘quvchilar va umuman ta’lim muassasasi faoliyati, uning natijalari, miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, rivojlanish tendensiyalari va muammolarini o‘rganish, ularni xolisona baholashni nazarda tutadi. Bunda olingan ma’lumotlarning ishonchliligi, tahlillarning xolis va puxta ekanligi muhim ahamiyatga ega.

Intellektual rivojlanish monitoring texnologiyalar guruhiga o‘quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini va umuman ta’lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullari, xususan, grafiklardan foydalanish, test tizimi, shningdek, kredit-modul tizimidan foydalanishga asoslanadi. Bunda zamonaviy onlayn platformalar o‘qituvchilar faoliyati va o‘quvchilarning akademik natija va ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish va monitoring qilib borish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilar bilimini monitoring qilish va baholashda inson omili ishtirokini kamaytirish, shuningdek, vaqt va resurslarni tejashga xizmat qilishi mumkin.

Didaktik texnologiyalar ta’lim muassasasi rivojlanishining asosiy omilidir. Bunday texnologiyalar an’anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutuvchi texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi. Zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o‘qitish usullari shular jumlasidan.

Qayd etish joizki, professional ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, avvalambor, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, birinchi navbatda ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, shuningdek, professional ta’lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, ta’lim dasturlari va o‘quv rejalarini innovatsion texnologiyalar ehtiyojlariga moslashtirish va boshqa bir qator vazifalarni amalga oshirish talab etiladi. Holbuki, bugungi kunda ta’lim muassasalari orasida o‘qituvchi va instruktorlar yetishmasligi, mavjudlarining malakasi va bilimlari zamonaviy talablarga mos kelmasligi, moliyalashtirishning yetishmasligi, sifat ko‘rsatkichlarida ortda qolish, ta’lim va ishlab chiqarish

integratsiyasining talab darajasida emasligi, texnologik infratuzilma bilan bog‘liq qator muammolar mavjud. Mazkur muammolar o‘z navbatida professional ta’lim jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etishga to‘sqinlik qiladi va sohaning rivojlanish sur’atini pasaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, professional ta’limda innovatsion pedagogic texnologiyalardan samarali foydalanishni tashkil etish bir qator vazifalarni hal etishni taqozo qiladi. Shu jumladan:

– pedagog kadrlarning innovatsion texnologiyalar, zamonaviy o‘qitish usullari, AKTdan foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini yanada oshirish, ularning malakasini oshirish bo‘yicha treyninglar, o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etish, xorijiy tajribalarni o‘rganish;

– professional ta’lim sohasini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, xalqaro donorlar yordamini jalb qilish, xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish orqali sohani moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, infratuzilmasini takomillashtirish;

– sohaning ta’lim dasturlarini zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish;

– ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, o‘quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda bevosita sinab ko‘rishlari uchun imkon vas hart-sharoit yaratish, bu, shningdek, ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasi bilan bog‘liq muammolarning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi;

– ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar va uskunalar bilan ta’minlash, innovasion metodlarni joriy etish.

Ta’lim standartlarini va inson kapitalini sifat jihatdan yaxshilash rivojlangan iqtisodiyot sharoitida ob’yektiv zarurat hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, professional ta’limni takomillashtirish hamda yoshlarni ish bilan band qilishga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib borayotgan bir sharoitda bu boradagi jahon tajribasini chuqur tahlil qilgan holda, mamlakatimizda professional ta’lim tizimini tubdan yaxshilashning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ta’lim va ishlab chiqarishning mutanosibligi hamda o‘zaro samarali hamkorligini ta’minlash yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish bu boradagi ustuvor vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli farmoni, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2019-yil.

2. “O‘zbekiston – 2030” – xalq strategiyasi” Onlayn portali. Havola: https://uzbekistan2030.uz/uz-Latn/strategy

3. Matyoqubova Mohira Djumaniyozovna, Eshmatova Nafisa Baxtiyorovna, & Xaytmetova Nasiba Narimonovna. (2022). PROFESSIONAL TA`LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO`LLANILISHI. International Scientific and Practical Conference "MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS", GERMANY. https://doi.org/10.5281/zenodo.6600668

4. G.B. Allamova va A.N. Burkhanova, “Pedagogik innovatsiyalar asosida umumkasbiy fanlarni o‘qitish”. Toshkent, O‘zbekiston, 2019.

5. O.K. O‘ktamova, “Kasbiy ta’limni o‘qitishda pedagogik texnologiyalar”. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.

6. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. Havola: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/50036-o-zbekiston-respublikasining-demografik-holati-2023-yil-yanvar-sentabr-2

M.A. Fozilov – *Buxoro davlat universiteti talabasi*

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIMIDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, turli sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘lib, bu borada keng ko‘lamli sa’y-harakatlar olib borildi. Shu jihatdan siyosiy fanlarga ham alohida e’tibor qaratilib, yoshlarning siyosiy bilimlarini oshirish va siyosiy savodxonligini yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Buning asosiy maqsadi – O‘zbekiston yoshlarini siyosiy jarayonlardan xabardor qilish, ularning siyosiy tafakkurini rivojlantirish va mamlakatda malakali kadrlar zaxirasini mustahkamlashdir. Bu islohotlar davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, siyosiy partiyalarning rolini oshirish hamda siyosiy fanlar bo‘yicha yuqori malakali pedagoglar tayyorlash kabi ezgu maqsadlarga yo‘naltirilgan.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ushbu keng qamrovli islohotlar yoshlarni ilm olishga undash, ularni xalqaro miqyosda tanitish va Vatan ravnaqi yo‘lida farovonlikni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Bu esa mustaqil O‘zbekistonning yuksak taraqqiyotidan darak beradi. Ushbu masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ham alohida ta’kidlangan: “Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bolgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir” [1].

Xo‘sh, aynan O‘zbekistonda siyosiy fanlarni rivojlantirishga doir islohotlarni ko‘rib chiqsak: mamlakatimizda siyosiy fanlarni qayta tiklash, uning obro‘-e’tiborini tiklash jarayoni Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Prezidenti etib saylanganidan so‘ng boshlangan. Davlat rahbari siyosiy fanlarni rivojlantirish, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash hamda ma’muriy islohotlarni yakuniga yetkazishda siyosiy fanlarning muhim o‘ringa ega ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli bu yo‘nalishda tub islohotlar amalga oshirilib, siyosiy fanlar bo‘yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini olish jarayoni qayta yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur

qarorga muvofiq, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab “Siyosatshunoslik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha “Amaliy siyosatshunoslik” mutaxassisligi joriy etildi. Shuningdek, “Siyosiy fanlar” fani tarmog‘i bo‘yicha ixtisosliklar bo‘yicha tayanch doktoranturaga qabul jarayoni yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti hamda Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabida siyosatshunos kadrlar tayyorlanmoqda. Hozirda mamlakatimiz siyosatshunos olimlari oldida siyosiy fanlarni xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish, ilmiy tadqiqotlar soni va sifatini oshirish kabi muhim vazifalar turibdi.

Shu yo‘nalishda O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti hamda Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi hamkorlikda tashkil etgan “O‘zbekistonda ma’muriy islohotlar jarayonida siyosiy fanlar va siyosiy texnologiyalarning o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ushbu muammolar yuzasidan qator savollarga javob topishga xizmat qilgan. Konferensiya natijalari asosida chop etilgan “Siyosiy fanlar sohasida tadqiqotlar” va “Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi” nomli to‘plamlarga kiritilgan ilmiy maqolalar siyosiy fanlarning yanada rivojlanishiga va yuqori malakali siyosatshunos mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanining rivojlanishi keng tarixiy va ijtimoiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Mustaqillikdan so‘ng bu soha sezilarli darajada rivojlandi va bir nechta asosiy bosqichlardan o‘tdi.

O‘zbekistonda siyosatshunoslik fani mustaqillikdan avval asosan sovet davrining ideologik tizimi doirasida rivojlangan. Sovetlar davrida siyosatshunoslik ko‘proq marksizm-leninizm prinsiplari asosida shakllangan bo‘lib, siyosiy tizim faqat Kommunistik partiya va davlat organlari tomonidan boshqarilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ushbu yondashuvning cheklovlari aniq sezila boshladi va yangi siyosiy tizimni shakllantirish zarurati paydo bo‘ldi.

1991-yilda mustaqillikka erishganidan so‘ng O‘zbekistonda siyosatshunoslik sohasida sezilarli o‘zgarishlar boshlandi. Siyosiy tizimni chuqur o‘rganish va tahlil qilish zarurligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Yangi davlat tuzilmasi, siyosiy tizim va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning shakllanishi siyosatshunoslikni nazariy va amaliy jihatdan kengaytirish va mustahkamlashni talab qildi.

Mustaqillikdan keyin siyosatshunoslik fani O‘zbekistonning o‘ziga xos siyosiy tizimlarini, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni, demokratik islohotlarni va saylov tizimlarini o‘rganishga qaratildi. Bu jarayonda O‘zbekistonning milliy qadriyatlari, an’analari va madaniy muhitining ta’siri ham inobatga olindi.

O‘zbekistonda siyosatshunoslik sohasining rivojlanishida xalqaro siyosat ham muhim rol o‘ynadi. Mamlakatning dunyo hamjamiyatiga qo‘shilishi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishi, mintaqaviy xavfsizlik masalalari va tashqi siyosatni o‘rganish zarurati siyosatshunoslik fanining kengayishiga turtki berdi. Bu esa siyosiy fanlar sohasida ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga olib keldi.

O‘zbekistonning siyosiy tizimida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar siyosatshunoslik fani uchun yangi mavzular va tadqiqot yo‘nalishlarini ochib berdi. Siyosiy islohotlar, fuqarolik jamiyati, korrupsiyaga qarshi kurash kabi masalalar zamonaviy siyosatshunoslar uchun yangi ilmiy istiqbollar yaratmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda siyosatshunoslik fani yanada diversifikatsiyalanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va siyosiy tahlillarga qiziqish ortib, turli zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalar qo‘llanilmoqda. Siyosiy kommunikatsiya, jamoat siyosati, xalqaro munosabatlar va boshqa sohalarda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda siyosatshunoslik fani mustaqillikdan so‘ng sezilarli darajada rivojlandi. Bu soha nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham milliy siyosatni rivojlantirish va davlat boshqaruvini takomillashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Siyosatshunoslik o‘zgarayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashib borar ekan, u O‘zbekistonning global siyosiy maydondagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4139-sonli qarori// https://lex.uz/docs/-4182353

S.B. Yoriqulova – *Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

O’ZBEKISTONDA XUSUSIY TA’LIM: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

O’zbekistonda xususiy ta’limga e’tibor yildan yilga oshib bormoqda. Mamlakatimizda xususiy ta’lim so’ngi 6 yil ichida misli ko’rilmagan tarzda oshdi va rivojlandi. Mamlakatimiz rahbari xususiy ta’limga juda katta imtiyozlar va imkoniyatlar taqdim etdi. Buning yaqqol isboti sifatida xususiy ta’lim muassasalari talabalariga davlat grandi va stipendiyalar joriy etilishi hisoblanadi. O’zbekiston qonunchiligida ta’lim sohasini tartibga soluvchi asosiy hujjat bu- “Ta’lim to’g’risida”gi qonundir. Ushbu qonun mamlakatimizdagi ta’lim tizimining asosiy tamoyillari, xususiy ta’lim manfaatlari, o’quv muassasalari davlat tomonidan nazorat qilinishi va boshqarilishi, o’quv jarayonlari faoliyatlariga oid ma’lumotlar beradi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan.[1] Mazkur qonunning 31-moddasiga ko‘ra, “Nodavlat ta’lim tashkilotlari o’z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi, bundan maktabdan tashqari ta’limni, kadrlarbi qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlari bundan mustasno. Nodavlat ta’lim tashkilotlari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko’rsatadi. Nodavlat ta’lim tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta’lim- tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va yuqori kasbiy mahoratga ega bo’lgan pedagog kadrlar va boshqa kadrlarni jalb qilish bo’yicha chora-tadbirlar ko’radi. Nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o’quv dasturlari bo’yicha o’qitish ta’lim oluvchi yoxud uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillar va nodavlat ta’lim tashkiloti o’rtasida tuziladigan, o’qitish muddatlari, shartlari va to’lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar

belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.” Shuningdek, ushbu qonunning 5-9-52-57-moddalari ham diqqatga sazovordir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son qarori ijrosini ta’minlash, O’zbekiston Respublikasida ta’lim xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha nodavlat sektorning salmog’ini kengaytirish borasida tadbirkorlik sub’ektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorini ham aytib o’tish joizdir.[2]

O’zbekistonda nodavlat ta’lim muassasalarining faoliyati 2017 dan boshlab rivojlandi. Undan oldin ham xususiy ta’lim bo’lgan ammo xususiy universitetlar bo’lmagan. Asosan xususiy maktablar, bog’chalar va o’quv markazlari faoliyat olib borgan. Xususiy oliy ta’lim muassasalari asosan so’ngi yillarda shakllantirildi va 2019-yildan boshlab xususiy universitetlar ochilishiga ruxsat berildi. Raqamlarga e’tibor beradigan bo’lsak, 2017-yilgacha 250ta xususiy bog’chalar bo’lgan bo’lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 2591taga yetdi. Shuningdek xususiy maktablar 2017-yilda 27ta bo’lgan bo’lsa 2024-yilda esa 500tadan oshdi. Bugungi kunda O’zbekistonda umumiy bog’chalar soni 14000tani tashkil qilmoqda. 2016-yilda yurtimizda 77ta oliy o’quv yurtlari bo’lgan bo’lsa bugunga kelib bu raqamlar 210 taga o’zgardi ya’ni ulardan 110 tasi davlat, 30 tasi xorijiy va 65 tasu xususiy oliygohlardir. Shu o’rinda yana bir yangilik bu 2024-2025- o’quv yilida prezidentimizning qaroriga muvofiq xususiy oliy ta’lim talabalariga ham 1200 ta davlat granti ajratildi. Bu ham mamlakatimizning xususiy ta’limga bo’lgan ijobiy munosabatiga misol bo’la oladi.

“O’zbekistonda xususiy oliygohlar ko’payib borarkan, ularning aksariyati ko’proq talaba qabul qilib, daromadni maksimallashtirish va ta’lim sifatini ta’minlash dilemmasi qarshisida qolmoqda. Xususiy oliy ta’lim muassasasining o’z qadriyatlariga ega ilm dargohi bo’lish va tijorat maqsadlari o’rtasidagi muvozanatni to’g’ri yo’lga qo’yishi muhim hisoblanadi.

Shu o’rinda savol paydo bo’ladi. Xo’sh xususiy ta’lim o’zi nima?

Xususiy ta’lim bu- davlat ta’lim tizimidan tashqarida, shaxsiy yoki notijorat tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ta’lim turi. Bunday ta’lim maktablar, o’quv kurslari, repetitorlik kurslari yoki individual darslar shaklida tashkil etilishi mumkin. Xususiy ta’im odatda maxsus ehtiyojlar, maqsadlaryoki individual o’quv darslariga moslashish imkoniyatini taqdim etadi. Bu jarayonda o’quvchilar odatda o’z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda o’qitiladi. Shu bois xususiy ta’lim maktabga tayyorlash, chet tillarini o’rganish, san’at yoki sport sohalarda keng tarqalgan.

Xususiy ta’limning afzalliklari quyidagilar:

1. Individual yondashuv.
2. Moslashuvchan jadval.
3. Maxsus bilim va ko’nikmalarda rivojlantirish.

Xususiy ta’limning barcha turlari xorijiy davlatlarda oldinroq shakllangan va tom ma’noda o’zini oqlagan. Buyuk Britaniyada xususiy ta’im tizimi davlat ta’limidan farqli o’laroq mustaqil maktablar sifatida tanilgan. Xususiy maktablar ota-onalardan olingan mablag’lar orqali moliyalashtiriladi va hukumat tomonidan to’g’ridan to’g’ri mablag’ olishmaydi. Xususiy maktablar Britaniyada yuqori sifatli ta’lim va kuchli akademik natijalari bilan mashhur bo’lib ko’pincha universitetlariga kirish darjasi

ham yuqori bo'ladi. Eng taniqli xususiy maktablari: Eton Collage va Harrow school. Bu maktablar tarixiy va akademik jihatdan yuqori nufuzga ega.

Buyuk Britaniyada xususiy universitetlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan universitetlardan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Buyuk Britaniyaning taniqli BPP University, Regent's University London va The University of Buckingham kabi mashhur xususiy universitetlari mavjud. The University of Buckingham- 1976-yilda tashkil etilgan Buyuk Britaniyaning birinchi xususiy universiteti hisoblanadi. [4]

O'zbekiston ta'lim tizimida xususiy ta'limning o'rni beqiyos. Chunki misol uchun oldinlari 938 ming abitureyent oliygohga imtihon topshirsa ularga 35000 kvota ajratilgan. O'qishga kira olmagan bir yil vaqtlarini o'tkizishgan. Bugungi kunda esa ko'pchilik abitureyentlar xususiy oliygohlar hisobiga talaba bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari uzluksiz talim va tarbiyani qamrovini kengaytirish, raqobat bardosh kadrlar tayyorlash orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek, intelektual salohiyatini oshirish uchun xususiy ta'limning barcha turlari muhim va zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'grisida"gi Qonun 2020-yil 23-sentabr
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5712-sonli farmoni 2019-yil 29-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
5. Chet elda pedagogika va xalq ta'limi. M., 1990 yil.
6. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun zamonaviy ta'lim dasturlari / ed.T.I. Erofeeva. M., 2000 yil.
7. Sorokova M.G. Zamonaviy maktabgacha ta'lim: AQSh, Germaniya, Yaponiya.. M.,1998 yil.

https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar

А. Қаюмова *– Бухоро давлат университети*
Ижтимоий-сиёсий фанлар кафедраси
доценти

ИБН ХАЛДУННИНГ ГЕОСИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ

XIII-XIV асрларда Шимолий Африка давлатларидаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ҳаёт ва мазкур минтақадаги маънавий муҳит Ибн Халдун назарий қарашларининг шаклланишида бевосита ва билвосита таъсир кўрсатди.Ўша давр Шимолий Африка давлатларига хос бўлган турмуш тарзи, ишлаб чиқариш, шунингдек, табиий-географик муҳит, худуддаги маънавий салоҳиятни белгилаган. Эътиборли жиҳати минтақадаги ишлаб чикариш маркази бўлган Телл* даштликлари ва Саҳрои Кабир кенгликлари Ибн Халдуннинг социологик қарашларидаги геополитик ёндашувда, дин, турмуш

тарзи, шахс эркинлигини, унинг бурчи масалалари, шахслараро муносабатлар ҳамда бирдамлик ғоялари устуворлигини таъминлаган.

Ибн Халдун, цивилизацияларнинг юзага келиши, ривожланиши ва таназзуллари ҳақида илк бор илмий назарий асосланган хулосаларни ўртага ташлайди . Жумладан, у маданиятлар ва давлатларнинг пайдо бўлиши, уларнинг яшаш тарзи, инқирози маълум тарихий қонуният эканлигини, унга табиий-географик ва иқтисодий омиллар ҳам жиддий таъсир кўрсатишини исботлаб берган. Ибн Халдун ўзининг "Муқаддима" асарида жамият ривожига ижтимоий жараёнларнинг таъсири тўғрисидаги ғояларини, шунингдек географик муҳитнинг ўзига хослиги, жамоалараро ва шахслараро уйғунлик назариясини ўзига хос назарий тизим сифатида шакллантиришга асос бўлган. Бунда Ибн Халдун минтақадаги этник бирликларни таснифлаш, таҳлил этиш ҳамда дифференциялаш негизида миллий бирдамлик концепциясини асослаб берган.

Ибн Халдуннинг ижтимоий қарашлари ҳақида маълумот берувчи манбалар талайгина. Хусусан, унинг «Китоб ул-Ибар» асари, яъни-«Ибратли мисоллар китоби»да у ўзининг бой маънавий-интеллектуал мероси ва ҳаёт йўлини ифодалаб ўтган .

Ибн Халдун ҳокимиятнинг сиёсий шаклларига таъриф беришда ўрта асрлардаги қабилавий тузилиш талаблари, жамоа манфаатлари, Ислом қоидаларини ҳимояловчи шариат тамойилларидан келиб чиққан. Унинг қайд этишича, «ҳокимият инсон учун табиий эҳтиёж эмас, балки жамиятнинг заруриятидир» . Унинг фикрича, давлатчилик ижтимоий ҳодиса сифатида бир жиҳатдан жамият эҳтиёжлари, иккинчидан эса шариат қарашларига мос равишда амал қилсагина барқарор бошқарув воситасига айланади. Айнан ана шундай ёндашув Ибн Халдунни Афлотун ва Арасту ғояларини мақсадли уйғунлаштира олган донишманд сифатида яққол намоён этади .

Мутафаккирнинг жамият ва давлат тўғрисидаги илмий социологик назарияси теран назарий асосланганлиги билан ажралиб туради. Унинг бу таълимотини қуйидагича тавсифлаш мумкин. Жамиятнинг вужудга келишидаги объектив зарурий асос - яшаш воситаларининг одамлар томонидан бирлашиб, қўлга киритиши ҳамда хатарли табиатдан ўз хавфсизлигини таъминлаш борасидаги саъй-харакатлар мажмуидир.

Дастлаб одамлар табиатда ва бир-бирларига нисбатан ёввойилик ваҳшийлик ҳолатида бўлишган. Зероки, ўз келиб чиқиш табиатидан одамлар ҳайвонот олами билан алоқадордир. Кейинчалик, улар теварак олам табиатнинг муайян ички қонуниятлари асосида амал қилинишини англаб, мослашишган ва онгли тарзда одам сифатида шаклланиб, ўзаро жамоавий тарзда бирлашишган.

Шунинг учун Ибн Халдун одамларнинг жамоалашув жараёнини «умрон» атамаси билан боғлаган. Кўпгина адабиётларда «умрон» атамасини араб тилида «тараққиёт» ёки «маданият» деб таржима қилишган. Маълумки, бугунги кунда тараққиёт, тамаддун, цивилизация тушунчалари инсоният ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ривожланиш даврининг маълум бир босқичини англатади. «Маданият» тушунчаси ҳам «умрон» атамаси билан айнан мос маънони англатмайди. Бироқ «Умрон» мутафаккир ёндашувига кўра, одамларнинг жамоавий амал қилиши, хуллас ижтимоий ҳаётнинг турли

шаклларда намоён бўлиши, яъни реал кўринишидир. Шунингдек, мутафаккир «умрон» атамаси жамиятнинг ижтимоий тараққиёт жараёни мазмунини ҳам ифода этади, деб ҳисоблайди. Унингча, «умрон» - кишиларнинг бирлашган ва уюшган фаолиятидир. Энг асосийси, мутафаккир кишилик жамияти, ижтимоий ҳаёт тарзини аввало моддий эҳтиёжлар ташкил этишини, қачонки, инсоннинг моддий нарсаларга бўлган эҳтиёжи қондирилар экан, шундагина унинг ҳаётга бўлган муносабати тубдан яхшиланиб, ривожланиш орқали позитив ўзгаришга бўлган ёндашуви кучайишини асослаб берган . “Билгинки, – деб ёзган Ибн Халдун – давлатнинг кучи ва қудрати аҳолининг сони, бойлик ва фаровонликка боғлиқдир. Давлат ва ҳокимият фаол ижтимоий бирдамлик, шериклик ва муносабатлар ҳосиласидир. Аҳолининг бойиш манбаини ишлаб чиқариш, ҳунармандчилик, деҳқончилик бозор ва савдо муносабатларини ташкил этади. Давлат хазинасидан одамларга маош, совға тарзидаги маблағлар аҳолига тарқатилганда, аҳоли ўша пулни сарфлайди ва у яна хазинага қайтиб тушади” .

Ибн Халдун “фуқароларнинг бойлиги давлатнинг бойлигига бевосита боғлиқдир, давлатнинг бойлиги эса фуқароларнинг самарали ва малакали меҳнат қилиш қобилиятига ва аҳоли сонининг кўплигига боғлиқ бўлади” , – деб хулосага келган.

Ибн Халдун шаҳар фаровонлиги ҳодисасини инсон ҳаётининг етуклиги, камолотга эришиш омили билан боғлиқ ҳолда ўрганган. Жамиятдаги барча ҳолат ва кўринишлар, шаҳар ва қишлоқ ҳаёти, фуқаролар ва ҳокимият инсон умри каби аниқ ва муайян умр билан чегаралангандир. Мушоҳадага асосланган фанларда ҳам қирқ ёш инсоннинг ҳам жисман, ҳам ақлан ривожланишининг юқори нуқтаси, деб қайд этилади, бу ёшга етгач, инсон маълум бир вақт ўзгармасдан туриши мумкин, кейин эса аста-секин салбий ўзгаришлар бошланади.

“Билгинки, – деб ёзган мутафаккир – шаҳар ҳаётининг умри ҳам шундайдир. У тараққиётнинг энг юқори нуқтаси бўлиб, бу даврдан сўнг, турғунлик даври бошланади” . Таҳлиллар натижасига кўра, Ибн Халдун меъёрдан ортиқча бойлик инсонни илохий оламдан дунёвийликка кўпроқ маҳлиё этаверади, деб прогноз қилган. Бундай қараш эса одамларни муайян меъёр доирасида ушлаб туриш заруратини асослайди. Ибн Халдун давлат сиёсатини ана шу тамойил асосида олиб бориш адолатли жамиятни барпо этишнинг шарти ва гарови деб билган. Зеро, унинг таъкидлашига кўра, одамларнинг қалблари динда ва дунёвий ишларда ортиқча бойлик туфайли адашиб, залолатга юз тутади. Диндан эса ўз турмуш тарзларидан воз кечолмаганликлари учунгина қайтишади. Ижтимоий ҳаёт давлатнинг гуллаб яшнаган вақтида мукаммал бўлади. Ибн Халдун содда ва мутамаддун жамиятларни таҳлил қилиб, давлатлар ва халқларнинг синхрон ва диахрон амал қилиш механизмини тузади. Бу эса мутамаддун жамиятларга тааллуқли бўлган моддий неъматлар учун содир бўлувчи турли зиддиятларнинг асл сабабларини очиб беради.“Билгинки, – деб ёзган Ибн Халдун – давлатнинг кучи ва қудрати аҳолининг сони, бойлик ва фаровонликка боғлиқдир. Давлат ва ҳокимият фаол ижтимоий бирдамлик, шериклик ва муносабатлар ҳосиласидир. Аҳолининг бойиш манбаини ишлаб чиқариш, ҳунармандчилик, деҳқончилик бозор ва савдо муносабатларини ташкил этади. Давлат хазинасидан одамларга маош, совға тарзидаги маблағлар аҳолига

тарқатилганда, аҳоли ўша пулни сарфлайди ва у яна хазинага қайтиб тушади” . Ибн Халдун “фуқароларнинг бойлиги давлатнинг бойлигига бевосита боғлиқдир, давлатнинг бойлиги эса фуқароларнинг самарали ва малакали меҳнат қилиш қобилиятига ва аҳоли сонининг кўплигига боғлиқ бўлади” , – деб хулосага келган.

Мухтасар қилиб айтганда, Ибн Халдун сиёсий қарашлари марказида шахс эркинлиги, унинг камолоти, давлат ва жамиятнинг ижтимоий-сиёсий барқарорлиги каби бунёдкор ғоялар ётади. Асосан ўша даврда бошқарувдаги ижтимоий фикрнинг унга нисбатан қарши қаратилганига жавобан “жаҳолатга қарши жаҳолат тарзида эмас, жаҳолатга қарши сабр, чидам ва босиқлик” шаклида иш тутганлиги ва унинг бундай ҳатти ҳаракатлари буюк мутафаккирлар қарашлари билан қиёсий таҳил қилинганлиги билан ҳам аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Иванов Н. А. «Китаб -аль -Ибар» Ибн Халдуна как источник по истории стран Северной Африки в XIV веке // Арабский сборник. –М.:, 1959. -С 3-45;
2. Бациева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна "Мукаддима", –М.: Наука, 1965. –С. 223;
3. Игнатенко А.А. Ибн Хальдун. –М.: Мысль, 1980, –С. 20-65;
لباب المحصل في أصول الدين.للعلامة عبد الرحمان بن خلدون).تحقيق و تعليق الدكتور عباس محمد حسن سليمان .دار المعرفة الاسكندرية.1996م.ص.25.
5. Ibn Khaldun, Wall Ad-Din 'Abd Ar-Rahman. Ta'rikh al-'Allama Ibn Khaldun. Ed. Yusuf As`ad Dighir. –Beirut, 1956-1960. 7 vols. pp. 123-125.
6. Ibn Khaldun, Wall Ad-Din 'Abd Ar-Rahman. Muqaddimat Ibn Khaldun. With notes and introduction by `Ali `Abd al-Wihid Waft Cairo, 1957- 1962. 4 vols. pp. 103-155;

MUNDARIJA

So‘z boshi ... 3
1-SHO‘BA: SIYOSAT NAZARIYASI VA FALSAFASI, SIYOSATSHUNOSLIK TARIXI VA METODOLOGIYASI ... 5
I.N. Islamov. O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALAR ... 5
Ф.Д. Музаффаров. ИМОМ ҒАЗЗОЛИЙНИНГ СИЁСАТ ФАЛСАФАСИ ... 9
R.U. Ernazarov. TEMUR TUZUKLARIDA ADOLAT VA SADOQAT SIYoSATINING USTUVORLIGI ... 12
С.С. Раупов. НИЗОМУЛМУЛК ВА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ МУАММОЛАРИ ... 15
И.Х. Шоев. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКИМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВОМ В ПОЛИТИКЕ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ. ... 19
N.S. Rizayev. UCHINCHI RENESSANS VA UNDA BUXORO JADIDLARI IJTIMOIY – SIYOSIY POZITSIYASINING O’RNI ... 23
Sh. N. Rajabov. “SIYOSATNOMA” ASARINING TARIXIY, SIYOSIY HAMDA BADIIY AHAMIYATI ... 26
N.H. Rahmatilloyev. ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI ARAFASIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI SIYOSIY VAZIYATGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR ... 30
J.M. Axmedov. XALQ DIPLOMATIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATIGA OID YONDASHUVLAR ... 33
О.Алиева. МАКИАВЕЛЛИ ВА МАКИАВЕЛЛИЗМ ... 38
Sh.A. Akbarov. SIYOSAT NAZARIYASI VA FALSAFASINING RIVOJLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY METODOLOGIYALARI ... 41
N.T. Nutfullayeva. QADIMGI SHARQDA ILK SIYOSIY TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI 45

2-SHO‘BA: SIYOSIY FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR ... 49
Н.Қ. Жўраев. Тараққиётнинг ҳозирги босқичида сиёсий фанлар муаммоси ... 49
I. Ergashev. O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ... 55
A.P. Seitov, K.B. Izzatulloyeva. METHODS OF RESEARCHING POPULATION TRUST TO THE AUTHORITIES IN UZBEKISTAN ... 58
N. Dexkanov. SIYOSIY MENEJMENT – JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING MUHIM OMILI ... 61
С.Ш. Саидов. СИЁСИЙ ФАНЛАР ТАДҚИҚОТИДА АКАДЕМИК ЭРКИНЛИК МАСАЛАСИ. 64
R.G‘. Jumayev. RAQAMLI SIYOSATSHUNOSLIK: TARAQQIYOT, AFZALLIKLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR ... 69
Д.В. Рахимбаева. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА МИЛЛИЙ ДИПЛОМАТ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ ... 75
A. Q. Xamdamov. ZAMONAVIY SIYOSIY NAZARIYALAR ... 77
I.E. Erkinov. RAQAMLI SIYOSIY ISHTIROKNI JORIY ETILISHI VA TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI ... 81
B.M. Yalgashev. PARTOLOGIYA SIYOSIY FANLARNING YANGI SOHASI SIFATIDA ... 85
J.T. Ochilov. SAMARALI DAVLAT BOSHQARUV JARAYONIDA SIYOSIY YETAKCHINING IMIDJI ... 88
A.N. Narkulov. HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA HARBIY SIYOSATSHUNOSLIK FANINING AHAMIYATI VA ZARURIYATI ... 92
M.D. To’rayev. SIYOSIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONVIY TADQIQOTLAR: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR ... 96

3-SHO‘BA: DAVLAT BOSHQARUVI VA SIYOSIY INSTITUTLAR, GLOBAL JARAYONLAR VA TEXNOLOGIYALAR 100
E.S. Sultanova. SIYOSIY TEXNOLOGIYALAR SIYOSAT SAN'ATI SIFATIDA 100
Н.Қ. Жўраев. ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИНИНГ УМУМПЛАНЕТАР ТАМОЙИЛЛАРИ 104
F.E. Karimov. SAUDIYA ARABISTONI DINIY SIYOSATIDAGI BUGUNGI ISLOHOTLAR, TENDENSIYALAR VA ULARDAN KO‘ZDA TUTILGAN MAQSADLAR 108
N. Dexkanov. SAYLOV JARAYONLARIDA IMIJMEYKING TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI 112
N. Qarshiyev. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJIDA SIYOSIY PARTIYALARNING AHAMIYATI 116
А.И. Хўжаев. СИЁСИЙ БОШҚАРУВДА СИЁСИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ 119
O.G’. Eshdavlatov. GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA SIYOSIY INSTITUTLARNING YOSHLAR IJTIMOIY MOSLASHUVIDAGI O’RNI 122
Ж.А. Сабурова. ПОЛИТИКА ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И СТРАТЕГИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ 125
N.Q. Abulsaidov. “SUD TIZIMI” TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY TALQINI 130
J.F. Yunusov. DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PREZIDENTLIK INSTITUTINING ROLI 133
R.M.G‘afurov. Prezidentlik instituti tushunchasi va uning mazmun mohiyati 137
Q.Q. G‘afurov. NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI BO‘YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 141
С.М. Кобулова. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ 146
Z. Namozova. MA’NAVIY TAHDIDBARDOSH YOSHLARNI TARBIYALASH MASALALARI 149
N.D. Mansurova. BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA GENDER TENGLIK 152
J.U. Hamidova. ZAMONAVIY TURIZM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV SHAKLLARI VA ULARNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MOHIYATI 155
D.U. Botirov. Siyosiy partiya – davlat hukumatining muhim bo‘g‘ini 160
J.T. Ochilov. Samarali davlat boshqaruv jarayonida siyosiy yetakchining imiji 163

4-SHO‘BA: SIYOSIY MADANIYAT VA MAFKURA, RAQAMLI ASRDA AXBOROT VA MEDIA SIYOSATI 167
F.X. Sultonov. SIYOSIY TEXNOLOGIYALARDA AXBOROT MAKONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI 167
А.С. Тураев. ЗАМОНАВИЙ СИЁСИЙ МАФКУРАЛАР ТАДҚИҚИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ 170
S.X. Xudaynazarov. Ekologik barqarorlikni ta’minlashda qadriyatlarni o‘rni 173
I.Sh. Uzoqov. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O‘ZIGA XOSLIKNI SHAKLLANTIRISH YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINING RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA 177
A.K. Mirkamilov. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI ISHTIROKI 180
J.E. Aliyev. O‘ZBEKISTONDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI MILLIY KONTENT YARATISH ISTIQBOLLARI 183
N.O‘. Shukurov. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI SIYOSAT TA’LIM TIZIMI RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA 187
S.S. Abduraxmanov. MAHALLIY KENGASHLAR HAMDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SIYOSIY-HUQUQIY JIHATLARI 192
D.D. Jumaniyazov. JAMOATCHILIKNI IJTIMOIY-SIYOSIY AXBOROTLARDAN XABARDOR QILISHDA “KUN TARTIBINI BELGILASH” NAZARIYASI 196

Sh. N. Xaydarov. HARBIY XIZMATGA OID JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI VA ROLI....200
F.F. Muhammadov. O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLI HUQUQLARI TA’MINLASH SIYOSATI....205
B.A. Odamboyev. “VIRTUAL AXBOROT OLAMIDA SIYOSIY PARTIYALARNING IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI” 207
A.T. Sabirbayev. O’ZBEKISTONNING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA OROL MUAMMOSINI HAL QILISHNING AMALIY CHORALARI....211
N.O‘. Hikmatova. JAMIYATDA GENDER TENGLIK MUNOSABATLARINING IJTIMOIY HAYOTDAGI TARAQQIYOTI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 213
S.S. Safarboyeva. SHAXSLARARO AGRESSIV XULQ – ATVOR 216
А.Х. Каримов. ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИЙ «МЯГКОЙ СИЛЫ» ЯПОНИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ....220

5-SHO‘BA: XALQARO MUNOSABATLAR, JAHON VA MINTAQA TARAQQIYOTINING SIYOSIY MUAMMOLARI, ETNOSIYOSAT VA KONFILIKTOLOGIYA 224
Б. Омонов. ЭТАПЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА В РОССИИ....224
Ф.М. Бафоев. Влияние внутренней и внешней политики нынешней администрации США на функционирование современного миропорядка 232
D.N. Muydinov. GLOBAL MIGRATSIYANING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI....235
A.S. Turayev. AQSHNING YAQIN SHARQ MINTAQASIDAGI TASHQI SIYOSATIDA NEOKONSERVATIV KONSEPSIYALARNING TUTGAN O‘RNI 240
Ж.А. Мирзавалиев. МЕРИТОКРАТИЯ ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИШДА СИНГАПУР ТАЖРИБАСИ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ 244
J. Museyibzada. AZERBAIJAN’S EVOLVING RELATIONS WITH THE OSCE....249
А.К. Темирбаева. ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ГЛОБАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ЕС И УЗБЕКИСТАНОМ....252
A.K. Shukurov. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGI: MADANIY-GUMANITAR HAMKORLIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI 255
Bobur Jo‘rayev. HARBIY OPERATSIYALAR DAVOMIDA KUCH TUZILMALARI, HOKIMIYAT ORGANLARI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTlARI HAMKORLIGINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI....258
F.Z. Zuhriddinov. TURKIYANING ROSSIYA VA G‘ARB O‘RTASIDAGI MUVOZANATLI SIYOSATI: TAHDIDLAR, XAVFSIZLIK VA IMKONIYATLAR....264
А.Г. Очилова. СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ГЕРМАНИИ ЗА ПОСЛЕДНЕЕ ДЕСЯТИЛЕТИЕ....267
M.X. Mamajonova. ERON ISLOM RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATINING KONSEPTUAL ASOSLARI....270
A.A. Rahimov. M.M. Nazirov. HOZIRGI DAVR XALQARO MUNOSABATLARIGA SIVILIZATSIYALAR TO‘QNASHUVI XOSMI YOKI SIVILIZATSIYALARARO MULOQOT?....273
М.Б. Шодиева. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЗАКЛЮЧЕНИЯ ДОГОВОРА УПРАВЛЕНИЯ МНОГОЭТАЖНЫМ ДОМОМ....276
B. Abdumannonov. 61-MYUNXEN KONFERENSIYASI – YEVROPA ITTIFOQI VA AQSH MUNOSABATLARIDA EHTIMOLIY TUB BURILISH NUQTASI SIFATIDA....278
М.Б. Бахтиёров. ЖАҲОН СИЁСАТИДА ЮМШОҚ КУЧНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ....282
N.S. Sadiyev. MADANIYATLAR GLOBALLASHUVI JARAYONIDA MILLIY O`ZLIKNI ANGLASHDAGI MUAMMOLARI....285

6-SHO‘BA: MILLIY XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TIZIMLI TAHLILI VA PROGNOZLASHTIRISH 288
М. Сайидов. Юсуф Хос Хожиб меросида миллий хавфсизлик муаммоси 288
A.G‘. Mahmudov. MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY XAVSIZLIK VA MINTAQAVIY XAVSIZLIK MUSTAHKAMLASH BORASIDA O‘ZBEKISTONNING TASHABBUSLARI 293
E.H. Bozorboyev. GLOBALLASHUV VA MILLIY SUVERENITETNING O‘ZARO TA’SIRI 296
Z. Namozova. MILLIY XAVFSIZLIK –DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY USTUNI 300
З. Намозова. ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН АСРАШ МАСАЛАЛАРИ 303
J.S. Sotvoldiyev. DINIY-TERRORISTIK TASHKILOTLARNING O‘ZBEKISTON XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGIGA TAHDIDI 306
Ш.А. Иброҳимов. ГЛОБАЛИЗМ ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАШҚИ СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ 311
Ш.Ў. Жавлиева. МАНФААТЛАР ТЎҚНАШУВИ ЖАРАЁНИДА ДАВЛАТЛАРНИНГ СИЁСИЙ ПОЗИЦИЯЛАРИ 314
Sh.Sh. Sadriddinov. XITOYNING 2050-YILGACHA BO’LGAN STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XITOY AQL MARKAZLARINING ROLI VA AHAMIYATI 319

7-SHO‘BA: YANGI GEOSIYOSIY MUAMMOLAR KONTEKSTIDA MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI 322
О. Сирожов. МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЙ ЖАРАЁНЛАР: МУАММОЛАРДАН ИМКОНИЯТЛАР САРИ 322
Ф.З. Равшанов. МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ГЕОСИЁСИЙ МАВҚЕИ ВА УНИНГ ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИ 325
Nivedita Das Kundu. REGIONAL SECURITY CHALLENGES AND STRATEGIC CONCERNS IN CENTRAL ASIA 329
D. Muitov. MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI G‘OYASI: AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI GEOSIYOSIY TAHLIL ETISHNING AYRIM TENDENSIYALARI 332
G.U. Sherniyazova. GEOSIYOSIY MUAMMOLAR SHAROITIDA MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI VA BUNDA O'ZBEKISTONNING ROLI 337
Z.T. Zamonov. MARKAZIY OSIYODAGI STRATEGIK HAMKORLIK REJALARI TASHABBUSKORI 338
Б. Бабаджанов. СУВ ҲАЁТ МАНБАИ 342
M.M. Safarov. YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI SIYOSIY ONGI VA MADANIYATINI MODERNIZATSIYALASHISH JARAYONINING FUTUROLOGIK MASALALARI 346
Ойбек Сирожов. МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЙ ЖАРАЁНЛАР: МУАММОЛАРДАН ИМКОНИЯТЛАР САРИ 349
B.X. Xolmatov. MARKAZIY OSIYO: «MINTAQA» VA «MINTAQAVIY HAMKORLIK» MASALALARI 352
I.I. Jo‘raboyev. THEORETICAL FRAMEWORK OF REGIONAL INTEGRATION IN CENTRAL ASIA 355
Sh. Ahadov. STRATEGIC NEUTRALITY: HOW CENTRAL ASIAN NATIONS NAVIGATE THE FALLOUT OF THE UKRAINE WAR 359
B.T. Qudratov. ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ВЫЗОВЫ 363
N.I. Meliyev. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT TIZIMI RIVOJLANISHINING NAZARIY AHAMIYATI VA TARIXI 367
O.Q. G‘aybullayev. MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI – MINTAQAVIY MUAMMOLARNING YECHIMI SIFATIDA 371
Sh.B. Murzayeva. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN DO’STONA HAMKORLIK-O’ZBEKISTON TASHQI SIYOSIY FAOLIYATINING STRATEGIK YO‘NALISHI 377

X.P. Dusbekova. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI YOSHLAR SIYOSATIDA HAMKORLIK QILISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI....380
B.B. Yunusova. GEOSIYOSIY AKTORLARNING MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASIGA MUNOSABATI....386
F.F. Narzullayev. MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA SUV MUAMMOLARNI HAL QILISHDA YUQORI OQIM MAMLAKATLARINING O‘RNI....389
M.Z. Aymatov. KATTA O‘YIN: MARKAZIY OSIYONING GEOSIYOSIY MANFAATLARI....394
Sh.Sh. Ashurov. YANGI GEOSIYOSIY MUAMMOLAR KONTEKSTIDA MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI....401
K.K. Saparboyev. MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI: GEOSIYOSIY O‘ZGARISHLAR VA MINTAQAVIY HAMKORLIKNING YANGI IMKONIYATLARI....403
M.G‘. Ibodullayeva. YANGI GEOSIYOSIY MUAMMOLAR KONTEKSTIDA MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI....407

8-SHO‘BA: SIFATLI TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING SIYOSIY MOHIYATI....412
I.N. Islamov. ZAMONAVIY SIYOSUY KASBLAR KATALOGI....412
R.G‘.Jumayev. SIYOSATSHUNOSLIK O‘QITISH TA’LIMIDA “INTEGRATIV BINAR-DIALOGLI MA’RUZALAR”NI TASHKIL ETISH METODIKASI....415
M.M. Gaybiyeva. PROFESSIONAL TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI....421
M.A. Fozilov. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIMIDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR....425
S.B. Yoriqulova. O’ZBEKISTONDA XUSUSIY TA’LIM: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI....427
А. Қаюмова. ИБН ХАЛДУННИНГ ГЕОСИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ....429